O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI
INNOVATSION IQTISODIYOT KAFEDRASI

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

**fanining**

**O’QUV USLUBIY MAJMUA**

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta’lim yo`nalishi:** | Moliya va moliyaviy texnologiyalar<br>Logistika (agrologistika) |

**Qarshi – 2023**

**Tuzuvchi:** “Innovatsion iqtisodiyot ” kafedrasi dotsenti o`qituvchisi A.H.Berdiyev

**Taqrizchilar:** QarDU Iqtisodiyot fakulteti dekani G’.A.Nabiyev

QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti A.D.Ravshanov

“Biznes va innovatsion menejment” kafedrasi dotsenti T.Ergashev

Fan O’quv uslubiy majmua Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining **2023 yil 20-fevraldagi 13-son** yig‘ilishida va “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasida **2023 yil 22 fevraldagi 07-sonli** yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining **2023 yil “___” ___________dagi №___-son** yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

## O’QUV-USLUBIY MAJMUANING MUNDARIJASI

1. Annotasiya ……………………………………………………………4
2. Fanning mavzuviy rejasi……………………………………………6
3. Fan dasturi…………………………………………………………..8
4. Fanning ishchi dasturi………………………………………………...23
5. Leksiyalar kursi (ma’ruzalar matni).....……………………………....60
6. Amaliy (seminar) mashg’ulotlari mazmuni……………………........196
7. Mustaqil ishlar mazmuni…………………………………………….238
8. Glossariy………………………………………………………………..240
9. O’qituvchiga mo’ljallangan metodik komponenti
(ta’lim texnologiyasi)……………………………………………......299
10. Talabaga mo’ljallangan metodik komponenti
(mustaqil ishlarni bajarish uchun metodik tavsiyalar)………………410
11. Baholash mezonlari…………………………………………………....421
12. Umumiy savollar……………………………………………………….427
13. Test savollari…………………………………………………………..432
14. ON, Yan boyicha savollar……………………………………………..444
15. Adabiyotlar royxati…………………………………………………….467
16. Maslahat va tavsiyalar………………………………………………….473

# ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilgan to'g'ri va izchil iqtisodiy siyosat orqali ahamiyatli ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Jumladan, milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimdan meros bo'lib qolgan bir tomonlamalik va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Ma'naviy jabhada ham tub o'zgarishlar qilinib, jamiyat a'zolarida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi shakllandi. Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda roy beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishda «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining roli beqiyosdir. Bugungi kunda yosh avlodda bunyodkorlik g'oyalarini shakllantirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirish kabi muhim vazifalarni bajarish orqali mazkur fanning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Zero, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, «hozirgi davrda, xalqaro maydonda turli siyosiy manfaatlar to'qnashayotgan murakkab bir sharoitda faqat o'z fikri, o'z hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lgan xalq va jamiyat yengilmas kuchga aylanib, o'z kelajagini o'z qo'li va aql-zakovati bilan qurishga qodir bo'ladi».

Ayni paytda Prezidentimiz asarlaridan, ayniqsa Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzalaridan bizga shu narsa ma'lum bo'lib turibdiki, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda bugungi kunda o'z yechimini topmagan muammolar, hal kilinishi lozim bo'lgan vazifalar ham mavjud. Ko'pgina korxonalarning zarar ko'rib ishlayotganligi, ularning moliyaviy ahvoli qiyinlashib, bankrotga uchrayotganligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning, mulkdorlar sinfining sekin shakllanayotganligi, iqtisodiyotda ular ulushining kamligi, qishloqda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish qiyinchiliklari, tovar, xizmat va kapital eksportining sekin o'sayotganligi va boshqalar shular jumlasidandir.

Ushbu iqtisodiy muammolarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, milliy istiqlol mafkurasining mazmunini va xususiyatlarini tushunish ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa bozor va bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari va xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning, uni chuqurlashtirishning, iqtisodiyotni erkinlashtirishning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejamli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo'jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, unumli mehnat qilish yo'llarini va shakllarini o'rgatadi. Iqtisodiyot nazariyasi fani mamlakatimizda yashayotgan hamma kishilarning daromadlari, ularning turmush darajasi faqat milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bog'liqligini, shu yurtda mehnat qilayotgan kishilarning ijodiy mehnati bilan vujudga kelgan milliy mahsulotning ko'payishi, uning to'g'ri taqsimlanishi va foydalanilishi, milliy pul barqarorligi bilan bog'liqligini ham o'rgatadi va milliy istiqlol mafkurasining odamlar ongida shakllanishiga, ularning intellektual kamolotga erishuvida muhim rol oynaydi.

Shuning uchun barcha yo'nalishlardagi bakalavriat talabalari uchun «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan EO'MMning tayyorlanishi ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu EO'MMni tayyorlashda o'qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalar talablari va xususiyatlari hisobga olinib, har bir mavzudan keyin asosiy tayanch tushunchalar va atamalar, shuningdek takrorlash va munozara uchun savollar ham berildi.

Iqtisodiyot nazariyasi boyicha mazkur EO'MM asosan noiqtisodiy yo'nalishlardagi oliy o'quv yurtlari talabalari va magistrlari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan o'rta maxsus o'quv

yurtlari tinglovchilari, litsey o’quvchilari, aspirantlar va iqtisodiyot nazariyasi sohasidagi bilimlarga qiziquvchi barcha kitobxonlar ham foydalanishi mumkin.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko’rinib turibdiki, ta‘lim jarayoniga o’qitishning yangi, zamonaviy usul va vositlalari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmokda.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta‘lim texnologiyasi «Iqtisodiy oliy ta‘lim muassasalarida ma‘ruza va seminarlarni o’qitish texnologiyasi» o’q’uv qo’llanmasida bayon etilgan dars mashg’ulotlarida yangi texnologiyalarni qo’llash qonun-qoidalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining ahamiyati to’g’risida so’z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning "O’quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko’rsatadigan o’qituvchi va domlalarga e‘tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta‘lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko’tarish diqqatimiz markazida bo’lishi darkor" degan so’zlarini ta‘kidlash o’rinlidir. Bu masala "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida ham asosiy yo’nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilgan.

Ta‘lim texnologiyalarining har biri o’zida o’quv mashg’ulotini o’tkazish shart-sharoiti to’grisida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko’zlangan natijalarni, o’quv mashg’ulotning rejasi, o’qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o’quv mashg’ulotining texnologik kartasini, ya‘ni o’qituvchi va o’quvchining mazkur o’quv mashg’ulotida erishadigan maqsadi boyicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta‘riflanishini ham uz ichiga oladi.

# "IQTISODIYOT NAZARIYASI" FANINING MAVZUVIY REJASI

| t/r | Bo'lim va mavzular | Ko'riladigan masalalar | Jami | ma'ruza | Amaliy mashg'ulot |
|---|---|---|---|---|---|
| **I BO'LIM. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI** | | | | | |
| 1 | 1-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish usullari | Iqtisodiyot tushunchasi. Ehtiyojlarning mazmuni, turlari va cheksizligi. Iqtisodiy resurslarning mazmuni, turlari va cheklanganligi. Iqtisodiyotning bosh masalasi. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar. Fanning predmeti. Fanning vazifalari. Fan predmetini o'rganishda tahlil usullari. Iqtisodiy qonunlar. Iqtisodiy kategoriyalar. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini talabalarga tushuntirishning ahamiyati. | 4 | 2 | 2 |
| 2 | 2-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari | Iqtisodiy faoliyat va uning turlari. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Ishlab chiqarish turlari. Ishlab chiqarish omillari. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Mehnat unumdorligi. Ishlab chiqarish samaradorligi. | 4 | 2 | 2 |
| 3 | 3-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari | Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tushunchasi. Ijtimoiy-iqtisodiyoy munosabatlar. Mulk. Mulkchilik munosabatlari. Mulk ob'ekti. Mulk sub'ekti. Mulk shakllari. Davlat mulki. Jamoa mulki. Xususiy mulk. Shaxsiy mulk. Aralash mulk. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish xususiyatlari. | 4 | 2 | 2 |
| 4 | 4-mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir | Ijtimoiy xo'jalik. Ijtimoiy xo'jalikning shakllari. Natural xo'jalik. Tovar xo'jaligi. Tovar. Tovarning xususiyatlari. Pul. Pulning paydo bo'lishi. O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini ta'minlash | 4 | 2 | 2 |
| **II BO'LIM. BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI** | | | | | |
| 5 | 5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi | Bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotning mazmuni. Bozor iqtisodiyotning asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor tushunchasi. Bozorning tuzilishi. Bozorning turlari. Bozor infratuzilmasi. | 4 | 2 | 2 |
| 6 | 6-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari | Bozor iqtisodiyotiga o'tish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari. An'anaviy iqtisodiyot. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyoti. O'zbekistonda .bozor iqtisodiyotga o'tishning xususiyatlari. "O'zbek modeli". Bozor islohotlari. | 4 | 2 | 2 |
| 7 | 7-mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati. Yalpi talab va yalpi taklif | Talab tushunchasi. Talabga ta'sir qiluvchi omillar. Talab qonuni. Talabning narxga va daromadga bog'liq elastikligi. Taklif tushunchasi. Taklifga ta'sir qiluvchi omillar. Taklif qonuni. Talab va taklif mosligi. Bozor muvozanati. | 4 | 2 | 2 |
| 8 | 8-mavzu. Raqobat va monopoliY. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari | Raqobat tushunchasi. Raqobatlashuv usullari. Raqobat turlari. Mukammal raqobat. Nomukammal raqobat. Erkin bozor raqobati. Monopol bozor raqobati. MonopoliY. Sof monopoliY. OligopoliY. MonopsoniY. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni qo'llashning o'ziga xom xususiyatlari va raqobatchilik muhitining yaratilishi.. Narx tushunchasi. Narxning mazmuni. Narx shakllari. O'zbekistonda narx siyosatining amalga oshirilishi. | 8 | 4 | 4 |
| 9 | 9-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi. Korxona (firma) xarajatlari va foydasi. Ish haqi va mehnat munosabatlari. | Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va uning asosiy belgilari. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari. Korxona tabirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Aktsionerlik jamiyati. Aktsiya va uning turlari. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Asosiy kapital. Aylanma kapital. Korxona xarajtlari. Ishlab chiqarish xarajatlari. Muomala xarajatlari. Daromad. Foyda. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Ish haqiga ta'sir qiluvchi omillar. Ish haqi shakllari. Mehnat munosabatlari. Kasaba uyushmasining roli. | 4 | 2 | 2 |
| 10 | 10-mavzu. Agrar munosabatlar va agrobiznes | Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Renta munosabatlari. Renta turlari. Differentsiyaal renta. Absolyut renta. Manopol renta. Undirma sanoat rentasi. AgrointegratsiY. Agrobiznes va uning turlari. O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirishning davlat dasturlari. | 4 | 2 | 2 |
| **III BO'LIM. MILLIY IQTISODIYOT (MAKROIQTISODIYOT)NING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIYatLARI** | | | | | |
| 11 | 11-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari. Iste'mol, jamg'arma | Milliy iqtisodiyot tushunchasi. Milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsaktichlari. YamM. YaiM. SMM. Milliy daromad. Milliy hisoblar tizimi. YamM hisoblash usullari. Iste'molning iqtisoiy mazmuni va uning turlari. Jamg'armaning mazmuni. Jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. | 4 | 2 | 2 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | va investitsiyalar. | Investitsiyalarning manbalari. O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari. Mamlkatimizning raqobatdardoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish – mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. | | | |
| 12 | 12-mavzu. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik. | Iqtisodiy o'sishning mazmuni. Iqtisodiy o'sish turlari. Iqtisodiy o'sishning omillari. Milliy boylik tushunchasi va uning tuzilish. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. | 4 | 2 | 2 |
| 13 | 13-mavzu. Milliy iqtisodiyotning nisbatlari, muvozanati va tsiklli rivojlanish tavsifi. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik. | Milliy iqtisodiyot nisbatlari. Milliy iqtisodiyotning muvozanati. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uning iqtisodiy muvozanatga ta'siri. Iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishi. Tsiklli rivojlanish bosqichlari. Yalpi ishchi kuchi. Ishchi kuchi bandligi. Ishsizlik. Ishsizlik turlari. O'zbekistonda maroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari. O'zbekistonda Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'milash – ijtioiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim asosiy ustuvor vazifalaridan biridir. | 4 | 2 | 2 |
| 14 | 14-mavzu. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli. | Moliyaning mohiyati, o'rni va vazifalari. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resusrlarni shakllantirishdagi ahamiyati. Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari hamda uning tarkibi. Byudjet defitsiti va profitsiti. Soliqlar va ularning vazifalari. Soliq turlari. Sug'urta va uning o'rni.<br><br>Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sabablari va undan chiqib ketish yo'llari. Davlatning moliya siyosati. Pul muomalasi. Inflyatsiya, uning sabablari va turlari. Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Banklar va O'zbekiston Respublikasining bank tizimi. Banklarning bozor iqtisodiyotidagi o'rni. O'zbekistonda byudjet va soliq islohotlarini chuqurlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish hamda soliq yukini yanada kamaytirish, bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. | 8 | 4 | 4 |
| 15 | 15-mavzu Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati. | Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy o'rni va vazifalari. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullari va shakllari. Aholi daromadlari, uning turlari va shakllanish manbalari. Daromadlarning tabaqalanish sabablari va omillari. Turmun darajasi va sifati. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati. Ijtimoiy fondlar. O'zbekistonda aholi banligini ta'minlash, odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish – iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. | 4 | 2 | 2 |
| | | **IV BO'LIM. JAHON XO'JALIGI** | | | |
| 16 | 16-mavzu. Jahon xo'jaligi va uning evolyutsiyasi. Jahon bozori. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari.<br><br>Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi. | Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi. Globallashuv jarayonining mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mazmuni. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari. O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Jahon bozori va xalqaro savdo. To'lov balansi va uning tarkibi. Protektsionizm siyosati va erkin savdo. Xalqaro valyuta va kredit munosabatlari. Xalqaro iqtisodiy integratsiY. O'zbekistonning jahon bozoriga kirib borishi. Xalqaro banklar. Erkin iqtisodiy zona. | 4 | 2 | 2 |
| | Jami | | 72 | 36 | 36 |

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI
INNOVATSION IQTISODIYOT KAFEDRASI

# IQTISODIYOT NAZARIYASI

**fanining**

## MA’RUZALAR MATNI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| **Ta’lim sohasi:** | 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| **Ta’lim yo`nalishi:** | Moliya va moliyaviy texnologiyalar<br>Logistika (agrologistika) |

**Qarshi – 2023**

# I-BO'LIM. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

## 1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BOSH MASALASI

Ushbu mavzuda kishilik jamiyati rivojlanishining asosi bo'lgan iqtisodiyot tushunchalari, iqtisodiy bilimlarning shakllanishi, iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishi va uning rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar o'rganiladi. Keyin iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bosh masalasi hamda uning vazifalari ko'rsatib beriladi. Shundan so'ng iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilish mexanizmlari bayon qilinadi, iqtisodiyotni ilmiy bilish usullarining mazmuni hamda mohiyati tushuntiriladi.

***Reja:***

1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi
2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi
3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari
4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar)
5. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari

### *1-savol. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi*

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida roy bergan. Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida **iqtisodiyot** – uy xo'jaligi va uni yuritish qonunlari ma'nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e'tibor berilgan.

Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot keng ma'nosi anglatib, faqatgina uy yoki individual xo'jalik yuritish yoki tejamkorlik ma'nosini anglatmaydi. Balki, **iqtisodiyot –** yirik xususiy xo'jalik, jamoa xo'jaligi, hissadorlik jamiyatlari, davlat xo'jaliklaridan, moliya va bank tizimlaridan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, kontsernlar, qo'shma korxonalar, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlaridan iborat usha murakkab ijtimoiy tizimini anglatadi.

Umuman olganda, **"iqtisodiyot"** – bu oddiy tushuncha sifatida xo'jalik va xonadon a'zolari o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy munosabatlarini bildiradi. Keng ma'noda **"iqtisodiyot" -** butun jahon mamlakatlari va ularning xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmuisidir.

Kishilarni yashashlari talab va ehtiyojni keltirib chiqaradi. **Talab** – bu hayotiy zaruriyatdir, **ehtiyoj** esa – insonlarning iste'molga bo'lgan jami narsalrga bo'lgan talabidir.

Insonning ehtiyoji – bu cheksiz tushunchadir. Ehtiyojni uzluksiz qondirilib borilishi – bu resurslar (tabiiy, moddiy, iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, intellektual)ga, ularning miqdoriga va ularni ishlab chiqarishga qo'llanishiga bevosita bog'liqdir.

Resurslar tabiatda cheksiz emas, balki cheklangandir. Hozirgi vaqtda ilmiy bashorat qilinishiga ko'ra 2500 yilga kelganda, barcha metall zahiralarini sarflab bo'linishi, bunda temir rudasi 250 yilga, alyuminiy 570 yilga, mis 29 yilga, rux 23 yilga, qalay 35 yilga, qo'rg'oshin 19 yilga yetishi ilmiy jihatdan asoslab berilmoqda.

Xususan, XXI asrda ham ishlab chiqarishda qo'rg'oshin, qalay, rux, oltin, kumush, platina, nikel, volfram, misdan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda. Yaqin yuz yil ichida ishlab chiqarishning energoresurslar: neft, gaz, ko'mir bilan ta'minlash muammosi ham alohida muammo bo'lib kelishi ehtimoldan xoli emas.┐

Shunday ekan, tabiatdagi va jamiyatdagi resurlarni cheklanganligi sababli, ulardan tejab-tergab foydalanish yo'li bilan insonlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlashni optimillashtirish (maqbullashtirish) lozim bo'ladi.

Kishilarni va jamiyatni iste'molini qondirish borasida tabiiy boyliklar, ishlab chiqarish vositalari, iste'mol tovarlari, pul mablag'lari va boshqa resurslarni ishga layoqatli bo'lgan ishchi kuchi yordamida ishlab chiqarishga jalb etib moddiy va nomoddiy ne'matlar yaratish – **iqtisodiy faoliyat** deyiladi.

**Iqtisodiyotning asosiy mazmuni va mohiyati** shundan iboratki, tabiatdagi cheklangan resurslardan unumli va oqilona foydalanib, xalq ommasini to’xtovsiz o’sib borayotgan moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini uzluksiz ravishda qondirib borishdir.

**Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishi va uni yaxlitliliga boyicha** – jahon iqtisodiyoti, mamlakat iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, funktsional iqtisodiyot, mintaqa iqtisodiyoti, korxona va firma iqtisodiyoti, oila iqtisodiyotidan iboratdir. Bu ko’rinishdagi iqtisodiyot turlarini yaxlitlashtirib, **makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot** deb yuritiladi.

Ma‘lumki, iqtisodiyot qanday turi bo’lmasin, ular inson hayotini asosini, insonlarni yashashi, ko’payishi, kamolatga yetishiga xizmat qilsada, inson bo’lmasa iqtisodiyot mavjud bo’lmaydi.

Inson mehnati bilan iqtisodiyot taqror ishlab chiqariladi va fazalar birligidan iborat bo’ladi:

1. Ishlab chiqarish jarayoni
2. Taqsimlash jarayoni
3. Ayirboshlash jarayoni
4. Iste‘mol qilish jarayoni.

Bu jarayonlar bir-birlari bilan uzviy bog’liq bo’lib, ulardan asosiysi **ishlab chiqarish jarayoni** hisoblanadi. Bu jarayonda ishlab chiqarish vositalari, kapital, ishchi kuchi, iste‘mol buyumlari, tovar va xizmatlarning alohida turlari yaratiladi.

**Taqsimot jarayonida** ishlab chiqarish vositalari, iste‘mol buyumlari, tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapital sub‘ektlar o’rtasida taqsimlanadi.

**Ayirboshlash jarayonida** taqsimot qilingan tovarlar kishilar o’rtasida ayirbosh qilinadi. Masalan, ishlab chiqaruvchi o’z tovarini sotib, o’ziga kerakli bo’lgan boshqa tovar yoki xizmatlarni sotib oladi.

**Iste‘mol jarayonida** tovarlar va xizmatlar turli sub‘ektlar, kishilar, guruhlar, fuqarolar iste‘mol qilib, o’z ehtiyojlarini qondiradilar. Iste‘mol ikki xil bo’ladi:

1. Ishlab chiqarish iste‘moli
2. Shaxsiy iste‘mol.

Ishlab chiqarish vositalari (kapital) va ishchi kuchi – **ishlab chiqarishda iste‘mol qilinadi,** iste‘mol buyumlari – **shaxsiy iste‘mol qilinadi**.

**Iqtisodiyotning bosh masalasi** – bu ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

Ehtiyoj nima? **Ehtiyoj** – bu iqtisodiy va doimiy kategoriya bo’lib, kishilarning yashashi, rivojlanishi va kamolatga yetishi uchun zarur bo’lgan hayotiy vositalarga bo’lgan talabidir. Ehtiyojlar iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy, siyosiy ko’rinishlardan tashkil topadi. Bu ehtiyojlar ichida iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlar birlamchidir. Ular moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarga bo’linadi.

**Moddiy ehtiyojlar** – oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joylardan iborat bo’lib, ularni xarid qilish va iste‘mol qilishga bo’lgan zaruratdir.

Kishilarning bilim olishi, malaka-mahoratga ega bo’lishi, dam olishi, sog’lig’ini ta‘minlab borishi, har xil xizmatlarga bo’lgan moddiy ko’rinishga ega bo’lmagan hayotiy zaruriyatlari – **ma‘naviy ehtiyojlardir**.

Ehtiyojlar yakka, birgalikda va jamiyat miqyosida bo’ladi. **Yakka ehtiyoj** – bir kishiga taaluqlidir. Ta‘lim olish, kasalxonalar, dam olish muassasalari, sport majmualaridan foydalanish **birgalikda** foydalaniladi. **Jamiyat ehtiyojlari**ga qoyidagilar kiradi:

- jamiyatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
- jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum;
- tabiiy-geografik sharoitlar;
- aholi sonining o’sishi va uning tarkibidagi o’zgarishlar;
- xalqaro, davlatlar, millatlar va mintaqalar o’rtasidagi aloqalardan iboratdir.

Ehtiyojlarning miqdori o’sib, sifat jihatdan takomillashib borishi – **ehtiyojlarning o’sib borishi qonuni** deyiladi.

Ehtiyojlarningg qondirish darajasi ishlab chiqarishning rivojlantirishni talab qiladi. Ehtiyojlar bir-biri bilan uzviy bog'lanishda bo'ladi. Masalan, kompyuter texnikasiga ehtiyojni paydo bo'lishi, o'z navbatida uni ishlatishni o'rganish, unga xizmat ko'rsatish. dastur tuzish va haqozo.

Ehtiyojlarning qondirilishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlatiladigan resurslarning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy resurslar nima? Korxona, firma, oila, mamlakat va jamiyat ixtiyorida bo'lgan va ulardan tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ishlatiladigan hamda zahirada turgan moddiy narsalar massasi – **iqtisodiy resurslar** deb ataladi. Ularga qoyidagilar kiradi:

1. **Tabiiy resurslar** – yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari.
2. **Ishchi kuchi resurslari**
3. **Moddiy resurslar** – binolar, stanoklar, mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, qurilmalar, sotishga tayyor tovarlar, pul mablag'lar shular jumlasidandir.

**Iqtisodiy resurslar tarkibini** ishlab chiqarish omillari va tovar hamda pul resurslari tashkil etadi.

Iqtisodiy resurslar cheklanganligi sababli ulardan nihoyatda tejab foydalanish lozim. Buning uchun iqtisodiyot oldida bir qator muammolar qoyiladi:

1. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning optimal variantlarini tanlab olish va resurslarni ko'proq ishlab chiqarishga yo'naltirish.
2. Ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan tejab-tergab, samarali foydalanish.
3. Fan-texnika yutuklarini va yangi texnologiyalarni joriy qilib, yangi energiya, material, xom ashyo turlari, ularning manbalarini topib, foydalanishga jalb etish, resurslar unumdorligining oshirishga erishish.

Bu muammolarni yechish uchun hozirgi kunda kishilar, talabalar iqtisodiy bilimga ega bo'lishi kerak.

### *2-savol. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi*

Iqtisodiyotni va iqtisodiy bilimlarni shakllanishida dastlab Ksenofont. Platon, Aristotel kabi olimlarning asarlarida, keyinchalik qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo olimlarning asarlarida fikrlar berilgan. Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'beklarning asarlarida insonning yashashi uchun tabiat in'omlari yetarli emasligi, inson mehnat qilish kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Masalan, Alisher Navoiyning iqtisodiy masalalarga oid g'oyalari 1482 yilda yozilgan "Vaqfiya" va 1500 yilda yozilgan "Mahbub-ul-qulub" asarlarida ko'rsatib o'tganki, mahsulotni uch qismiga bo'lib, birinchi qismini ketgan xarajatga, ikkinchi qismini o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlari uchun sarflashni tavsiya etgan.

Ammo Aristoteldan boshlab hamda O'rta Osiyoning olimlari iqtisodiyotni ko'p tomonlarini, uning qoida-qonunlarini va tushunchalarini yoritib bergan bo'lsalar ham iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanmagan edi.

Iqtisodiyot nazariyasi mustaqil fan sifatida ko'pgina mamlakatlarda milliy bozor shakllangan va jahon bozori vujudga kelayotgan davrlarda "siyosiy iqtisod" nomi bilan shakllangan. Masalan, frantsuz iqtisodchisi Antuan Monkreten (1575-1621) birinchi marta 1615 yilda "Siyosiy iqtisod traktati" nomli asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asoslagan.

**Siyosiy iqtisod** grekcha so'zidan olingan bo'lib, "politikos" – ijtimoiy, "oykos" – uy, uy xo'jaligi, "nomos" – qonun degan ma'noni bildiradi.

Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, **siyosiy iqtisod** keng ma'noda moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar to'g'risidagi fandir deb yozgan edilar.

Bu fanning shakllanishi va rivojlanishida turli xil oqimlar, g’oyalar va maktablar bo’lgan. Ular “jamiyat boyligining manbai nima?”, “u qaerda va qanday qilib ko’payadi?” degan savollarga har xil javob berganlar.

**Merkantelizm** maktabi jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat, boylik savdoda, asosan tashqi savdoda – muomala jarayonida paydo bo’ladi, ko’payadi, savdoda band bo’lgan mehnat – unumli mehnat, boshqa mehnatlar esa - unumsizdir deb tushuntirib kelganlar. Ammo, ayirboshlash, savdo jarayonida hech qanday boylik yaratilmasligi, qiymatning ko’paymasligi ma‘lum bo’ldi.

Keyingi maktab – **fiziokratlar** bo’lib, uning vakillaridan biri F. Kene bo’lgan. U “Iqtisodiy jadval”(1758) asarini yozadi va fiziokratlar maktabi asoslarini yaratadi. Fiziokratning ta‘limoti boyicha qishloq xo’jaligida band bo’lgan mehnat birdan-bir unumli mehnat deb hisoblanib, boshqa sohalardagi mehnat esa unumsiz mehnat deb hisoblangan.

Keyinchalik iqtisodiyot fanining **klassik maktabi** vujudga kelgan bo’lib, uning vakillari A. Smit, U. Petti, D. Rikardolar bo’lgan. Bu iqtisodchi olimlar boylik faqatgina qishloq xo’jaligida emas, balki shu bilan birga sanoat, transport, qurilish sohalarda ham yaratilishini isbotlab berganlar. Aytganlarki, hamma boylikning onasi - yer, otasi – mehnatdir degan xulosaga kelganlar. A. Smitning “ko’rinmas qo’l” printsipi hozirgi kunda juda ko’p tilga olinmoqda. U o’zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to’g’risida tadqiqot”(1776) degan kitobida insonni faollashtiradigan asosiy rag’bat – xususiy manfaatdir deb ko’rsatgan. Ya‘ni, inson foyda olishga intilib, mehnat taqsimoti sharoitida qandaydir tovar yoki xizmat turini yaratadi, boshqalarga yetkazib beradi, o’z kapitalini ko’paytiradi va o’zi bilmagan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shadi deb tushuntirgan. A. Smit kapital, mehnat, tovar, ishchi kuchi va boshqa resurslarning erkin harakatini ta‘minlash printsipini ilgari surgan.

Bu maktabni “klassik” deb nom olishga ularning qoyidagi yutuqlari sabab bo’lgan:

- birinchidan, A. Smit va D. Rikardo iqtisodiyotni o’rganishga ilmiy yondashuv beradigan tadqiqot usullarini ishlab chiqqanlar va muvafaqqiyatli qo’llanganlar. Ilmiy usullar yordamida ular merkantilistlarning boylikning manbasi savdo degan g’oyasini asossiz ekanligini isbotlashganlar.

- ikkinchidan, iqtisodiyot to’g’risidagi barcha yig’ilgan bilimlarni klassik maktab namoyondalari ma‘lum bir ilmiy tizimga keltirdilar. Bu narsaga ular birinchi bo’lib iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol o’rtasidagi tizimli aloqani tadqiq etgani sabab bo’ldi.

- uchinchidan, ingliz klassiklari xo’jalik xodisalarning ko’zga ko’ringan tomonlarini tadqiqi qilish bilan cheklanib qolmadilar. Ular kapitalistik iqtisodiyot qonunlarini ochib berganlar.

XIX asrning ohirgi choragidan iqtisodiyot nazarisining yangi yo’nalishi **“ekonomiks**” vujudga kela boshlagan.”Ekonomiks” vakillari iqtisodiyot nazariyasining predmeti sifatida insonlar o’rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni qarashdi.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetining yangicha talqini xo’jalik yuritishning bozor tizimi to’g’risidagi **marjinalizm** deb atalgan butun bir ta‘limotga olib keldi. Bu inglizcha suzdan olingan bo’lib, ohirgi, qo’shilgan degan ma‘noni bildiradi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondalari (Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Bem-Baverk) bo’lib, ular tomonidan qo’shilgan tovar nafligining, qo’shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borish qonuni degan nazariyalar ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasianiq olingan tovarga bo’lgan talab va uning narxi o’rtasidagi bog’liqlik va o’zaro ta‘sirini tahlil qilishda keng qo’llaniladi.

Iqtisodiyot nazariyasining yangi yo’nalishi **neoklassik**, ya‘ni yangi klassik deb nom oldi. Bu nazariyaning asoschilaridan biri A Marshall bo’lib, u iqtisodiy jarayonning funktsional bog’lanishi va funktsional nisbatlarini ishlab chiqishga harakat qildi, bozor muvozanatini va narxni aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaradi.

**Avstriya iqtisodiyot** maktabining namoyondasi Y. Shumpeter 1912 yilda yozgan "Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi" deb atalgan kitobida iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch – tadbirkorlik degan xulosaga kelgan.

Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi"(1936) degan kitobida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: milliy daromad, kapital, xarajatlar, iste'mol va jamg'arishning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, investitsiya va iste'molning eng maqsadga muvofiq tarzda tashkil topishi - iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili deb ko'rsatadi. Keyns ta'limoti, ya'ni **keynschilik maktabi** ta'sirida iqtisodiyotda makroiqtisodiy tahlil yo'lga qoyildi. Keyns davlatning iqtisodiyotni boshqarishda faol qatnashishi zarurligini isbotlab bergan.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri **monetarizm** deb ataladi. Agar Keyns nazariyasining ishlab chiqilishda markaziy muammo ishsizlik bo'lgan bo'lsa, monetarizm nazariyasining asosiy muammosi ishlab chiqarish hajmining pasayib borish sharoitida inflyatsiyaning vujudga kelishidir. Ushbu holat **stagflyatsiya** degan nom olgan. Monetarizm maktabining asoschisi Milton Fridmen bo'lib, uning iqtisodiyot nazariyasiga qo'shgan qissasi pul nazariyasini yangi mazmun bilan boyitdi. Monetarizm pul-kredit dastaklari yordamida tiqtisodiyotni tartibga solishda o'ziga xos yondshuvni vujudga keltirgan nazariya hisoblanadi.

Hozirgi paytda marjinalizm, monetarizm, keynschilik yo'nalishidagi iqtisodiy nazariyalar yig'indisi "Ekonomiks" nomli kitobda mujassamlashgan bo'lib, bu AQSH, Angliya mamlakatlarda darslik sifatida o'tiladi.

Hozirgi paytda bu yo'nalishdagi fan o'zbekistonda, MDH mamlakatlarida **"Iqtisodiyot nazariyasi"** deb yuritiladi.

### *3-savol. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari*

Iqtisodiyot nazariyasi faning predmetiga turlicha ta'riflar mavjud. Masalan, Aristotel bu fanni uy xo'jaligini boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan deb ta'rif bergan. Merkantilistlar, fiziokratlar va ingliz klassik iqtisodiy maktabi vakillari unga boylik to'g'risidagi, uning manbalari va ko'paytirish yo'llari, boylikni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish to'g'risidagi fan deb ta'rif berganlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitining hozirgi rivojlanish bosqichlarida iqtisodiy munosabatlar barcha dastaklar bilan chambarchas bog'langan davrda **iqtisodiyot nazariyasining predmeti –** iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish yo'lida moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish borasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, xo'jaliknisamarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganishdan iborat deyish mumkin.

Bu fan quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. **Bilish vazifasi** – jamiyatda insonlarning tabiat ashyolari, boshqa moddiy ashyolar hamda o'zaro bir-birlari bilan aloqalarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabtlarni tadqiq etadi. Bu fan fundamental ahamiyatga egadir.

2. **Amaliy vazifa** – cheklangan resurslardan unumli foydalanib iqtisodiy o'sishni ta'minlash va o'sib boruvchi ehtiyojlarni qondirishdan iborat.

3. **Uslubiy vazifasi** – bu fanning tahlili, qoida-qonunlari., xulosalari ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

4. **G'oyaviy-tarbiyaviy vazifasi** – iqtisodiyot ilmini o'rganuvchilar, talabalar va mutaxassislarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Ya'ni, milliy mahsulotni ko'paytirish, milliy pul qadrini oshirish, milliy tovarlarni jahon miqyosida bozorbop bo'lishini ta'minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko'tarish ruhida tarbiyalaydi.

### *4-savol. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar)*

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy munosabatlarda amal qiladigan iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarni o'rganadi.

**Iqtisodiy qonunlar** – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy xodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, taqrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Iqtisodiy qonunlarni qoyidagi guruhlari turkumlanadi:

1. **Umumiy iqtisodiy qonunlar** – vaqtni tejash qonuni, ehtiyojlarning tez o'sib borish qonuni, takror ishlab chiqarish qonuni, mehnat unumdorligining o'sib borish qonuni va boshqalar.

2. **Xususiy yoki davriy iqtisodiy qonunlar** – talab qonuni, taklif qonuni va qiymat qonuni.

3. **Maxsus, o'ziga xos iqtisodiy qonunlar** –qo'shimcha qiymat qonuni.

**Iqtisodiy kategoriyalar** (ilmiy tushunchalar) – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real xodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etadigan ilmiy-nazariy tushunchalardir. Masalan, bozor, kapital, ishchi kuchi, moliya, kredit, narx, pul shular jumlasidandir.

### *5-savol. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari*

Fanning vujudga kelishi uni bilish usulining qaror topishi bilan bog'liqdir.

**Uslubiyat** – bu ilmiy bilishning tamoyillari, tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadislaridir.

Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda dialektik usul, ilmiy abstraktsiya usuli, tahlil, sintez, induktsiya va deduktsiya, taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullardan foydalanish mumkin.

**Dialektik usul** qoidalari ilmiy bilishning umumiy usuli bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasida qo'llaniladigan bu tamoyillar quyidagidan iborat:

1. Iqtisodiyot bir-biri bilan aloqada, chambarchas bog'liqlikda, ziddiyatda, o'zaro ta'sir qilib turadigan turli bo'g'inlardan, bo'laklardan iborat yaxlit bir jarayonki, u doimo harakatda, rivojlanishi, mazmun va shakl jihatdan o'zgarib turadigan ichki va tashqi hodisalar bilan aloqada bo'ladi;

2. Iqtisodiy jarayonning har bir bo'lagini alohida olib, uning o'ziga xos xususiyatlarini, kelib chiqish va yo'q bo'lish sabablari va oqibatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini, tomonlarini zamon va makonda o'rganish;

3. Iqtisodiy jarayonlarni oddiydan murakkabgacha, quyidan yuqorigacha rivojlanishda deb qaraladi. Bu yerda son jihatdan o'zgarishlar to'plana borib, sifat jihatdan o'zgarishga olib kelishini hisobga olish lozim;

4. Ichki qarama-qarshiliklar birligiga va ularning o'zaro kurashiga rivojlanishning manbai deb yondoshiladi.

Iqtisodiy faoliyatlar, hodisa va jarayonlar tabiiy, moddiy, shaxsiy omillar va pul mablag'lari kabi omillarga tayangan holda kechadi. Bu omillar o'zaro chambarchas bog'liq hamda ziddiyatda bo'ladi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, ular doimo sifat va miqdor jihatdan o'zgarib turadi, turli davrlarda turlicha ijtimoiy shaklga ega bo'ladi, eski iqtisodiy qonunlar, tushunchalar o'rniga yangiladi paydo bo'ladi. Shu sababli bu fanni o'rganishda **dialektika qoidalarini** qo'llash zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, iqtisodiyot nazariyasining o'ziga xos tadqiqot usullari ham mavjuddir, ulardan eng muhimi **abstraktsiyad**ir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyati o'zgarishini o'rganishda mikroskoplardan, kimyoviy laboratoriyalardan foydalanib bo'lmaydi, bunda asbtraktsiya kuchidan foydalaniladi.

**Ilmiy abstraktsiya usuli** – tahlil paytida xalal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratishdir.

**Tahlil** – bu o'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o'rganishdir.

Misol uchun, O’zbekistondagi iqtisodiy o’sish sur‘ati 2009 yilda 8,1 foizni tashkil etganini bilamiz. Bunday o’sish sur‘atiga nimalar hisobiga erishilganini aniq tasavvur qilish uchun esa faqat tahliliy jarayonlar orqali erishiladi. Ya‘ni, yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish, daromadlar va xarajatlar, mulkchilik shakllari, tarmoqlar va mintaqalar boyicha tarkibiy qismlarini alohida ajratib olish va ularni o’rganish orqali o’sish sur‘atining manba va omillari to’g’risida to’g’ri xulosa chiqarish mumkin.

**Sintez** – bu o’rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir.

Masalan, narxning ilmiy asosini ochib berishda A. Marshallning qiymatning turli narazariyalarini sintez qilish usulidan foydalanganligini ko’rsatish mumkin.

Induktsiya – deduktsiya bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan, ammo o’zaro bog’liqlikdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga qarab harakati **induktsiya,** aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati **deduktsiya** deb ataladi.

Shuning bilan birga iqtisoiy jarayonlarni **taqqoclash, statistik, matematik va grafik usullardan** ham foydalaniladi.

***Asosiy tayanch tushunchalar***:

**Iqtisodiyot** – bu insonlarni iste‘moli uchun zarur bo’lgan hayotiy vositalarni cheklangan iqtisodiy resurslardan ishlab chiqarishda omilkorlik bilan foydalanish yo’li bilan yetkazib berishdagi faoliyatdir;

**Ehtiyoj** – kishilarning yashashi va rivojlanishi uchun kerak bo’ladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlarga bo’lgan zaruriyatdir.

**Iqtisodiy resurslar** – mamlakat ixtiyoridagi ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish va ularni iste‘molchilarga yetkazib berish jarayonlarida qo’llaniladigan barcha vositalar, imkoniyatlar va manbalar to’plamidir;

**Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti** – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitida jamiyat cheksiz ehtiyojlarini qondirib borish maqsadida moddiy, nomoddiy ne‘matlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va ularni iste‘mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimini, ijtimoiy xo’jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o’rganishdir.

**Iqtisodiy qonunlar** – iqtisodiy jarayonlarning turli tomonlarini, iqtisodiy hodisalar o’rtasiagi takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibatlarning o’zaro bog’liqligini ifodalab beradi.

**Iqtisodiy kategoriyalar** – iqtisodiy hayotda doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarning ayrim tomonlarini ifodalovchi ilmiy mantiqiy tushunchalardir.

**Uslubiyat** – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy nazariy bilishning tamoyillari, yo’llari, qonun-qoidalari tizimidir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasini ta‘riflab bering.
2. Ehtiyoj haqida tushuncha bering va uni turlarini izohlang.
3. Iqtisodiy resurslar nimalardan iborat va uni turlariga nimalar kiradi?
4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini ta‘riflab bering.
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanishi va rivojlanishida ilmiy maktablar va ularni yo’nalishlari nimalardan iborat bo’lgan?
6. Iqtisodiyot nazariyasi qanday vazifalarni bajaradi?
7. Iqtisodiy kategoriya va qonunlarni tushuntirib bering.
8. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o’rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
9. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotni tushuntiring va ularning farqini aytib bering.
10. Hozirgi zamon iqtisodiy qarashlarning asosiy yo’nalishlari nimalardan iborat?

***Asosiy adabiyotlar:***

1. Prezident I. A. Karimov asarlari: jami 16ta, shundan 2,3,4,5,6,7,8,9.
2. I. Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.

3. I. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.

**Darsliklar:**

1. Sh. Shodmonov, U. G’ofurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.T.: “Fan va texnologiya”, 2005
2. A. O’lmasov, M. Sharifxo’jaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.T.: “Mehnat”, 1995
3. A. O’lmasov, A. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.T.: “Sharq”, 2006.

**O’quv qo’llanmalar:**

1. A. O’lmasov. Iqtisodiyot asoslari. T., 1997.
2. Sh. Shodmonov, T. Alimov, T. Juraev. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002
3. D. Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Sharq”, 1-va 2-kitoblar, 2002-2003
4. P. Hoshimov, K. Umarov, Z. Tolametova, T. Quchqorov. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003
5. N. To’xliev, Q Haqberdiev, Sh. Ermamatov, N. Xolmatov. O’zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T., 2006
6. Sh. Shodmonov, U. G’afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma‘ruza matnlari.T., 2008
7. N. Uzoqov. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma‘ruza matnlari, 2008.

## 2 MAVZU. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

***Kirish***

Ushbu mavzuda inson hayotiy ehtiyojlarini ta‘minlovchi va jamiyat taraqqiyotining asosi bo’lgan ishlab chiqarish haqidagi tushuncha beriladi. Ishlab chiqarish tufayli moddiy ne‘matlar ishlab chiqariladi hamda xizmat ko’rsatiladi. Shunday ekan ishlab chiqarishning mazmuni, mohiyati tushuntiriladi. Ishlab chiqarishni tashkil etuvchi omillar, uning tarkibiy qismlari yoritiladi, ishlab chiqarishning pirovard natijasi va samaradorligini oshirish masalalari ko’rib chiqiladi. Shundan keyin yaratilayotgan qo’shimcha mahsulot (keyingi qo’shilgan mahsulot) va uning miqdorining kamayib borishi, keyingi qo’shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonunining marjinalistik nazariya ko’rib chiqiladi

***Reja:***

1. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi.
2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.
3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.
4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi.
5. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko’rsatkichlari.

### *1-savol. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi.*

Jamiyat taraqqiyotini moddiy bazasi ishlab chiqarish bilan hosil qilinadi. Ishlab chiqarish mehnatga yaroqli bo’lgan ish kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarini ko’tilishi va uni harakatga keltirilishi tufayli moddiy ne‘matlar hosil qilishdir.

**Resurs -** bu ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishga ishlatiladigan hamda qo’llaniladigan moddiy-ashyoviy bo’lib, tabiiy, moddiy, iqtisodiy, moliyaviy va hokazo kabi vositalardan tashkil topadi.

Inson faoliyati moddiy va nomoddiy ne‘matlar yaratishga qaratilar ekan, avvalo ishlab chiqarishni tashkil etmoq kerak. Ishlab chiqarishni tashkil etish resurslarni talab qiladi. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Ishchi kuchi;
2. Mehnat qurollari;
3. Mehnat vositalari.

**Ishchi kuchi -** mehnatga qobiliyati bo’lgan har bir insonning ma‘lum maqsadlar yo’lidagi aqliy va jismoniy faoliyatining yig’indisidir.

**Mehnat qurollari** - bu inson mehnati yordamida mehnat predmetlariga ta‘sir qiladigan mexanizmlar (dastaklar)ga aytiladi. Masalan: stanoklar, traktorlar, uskunalar, mashinalar, qurilmalar va hakozolar.

**Mehnat predmetlari -** mehnat ta‘siri natijasida tovar mahsuloti tayyorlanadigan barcha xom ashyolar massasidir. Masalan, sanoatda ishlatiladigan xom ashyolar, qishloq xo’jaligidagi ishlab chiqarishda ishlatiladigan - urug’liklar, mineral o’g’itlar, yoqilg’ilar, materiallar, yer, suv shular jumlasidansir. Mehnat predmetlari tabiat mahsuli yoki oldingi davrlardan qolgan mehnat mahsulotlaridan iborat bo’ladi.

Mehnat predmeti va mehnat qurollarini birga qo’shilishi **ishlab chiqarish vositalari**ni tashkil etadi.

**Ishlab chiqarish omillari** barcha iqtisodiy tizimlarda amal qilib kelmoqda. Bu omillarga turlicha ma‘no berilgan. Masalan, “Siyosiy iqtisod” darsliklarida ishlab chiqarish omili 2 turga bo’lingan edi, ya‘ni:

1. Moddiy omil;
2. Shaxsiy omil.

**Moddiy** omilni tashkil etuvchi mehnat qurollari va mehnat predmetlari (er, suv, yer usti va yer osti boyliklari - ko’mir, neft‘, gaz, ruda, metall...) ham ishlab chiqarish vositalari deb ta‘rif berilgan edi, ishchi kuchi esa ishlab chiqarishning deb **shaxsiy omili** yuritiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi adabiyotlarda ishlab chiqarishning to’rt omili ko’rsatilmoqda: mehnat, kapital, yer-suv, tadbirkorlik faoliyati tan olindi.




Mehnat bilan ishchi kuchi bir xil ma‘noga ega emas. Mehnat turli omillarning birikishi natijasida amal qiladi. Ya‘ni, mehnat ishchi kuchini ishlab chiqarish vositalari bilan qo’shilishi natijasida sodir bo’ladi va uning pirovard natijasi daromad topish bilan tugallanadi.

**Ishchi kuchi** insonning mehnatga bo’lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig’indisidir. Bunda bilim, malaka, tajriba qo’llaniladi.

**Kapital** tushunchasi turlicha ta‘riflanadi. Ko’pchilik adabiyotlarda kapitalni kapitalizmga xosligi aytilgan va o’z egasiga qo’shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o’z-o’zidan ko’payuvchi, o’suvchi qiymat deyilgan.

Ayrim g’arb iqtisodchilari ham, masalan, J. Keark, L. Valras, I. Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb ta‘riflaganlar. Kapitalni qiymat tomonini e‘tiborga olib, ayrim iqisodchilar, kapitalning moddiy ob‘ektini (mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va hakozolar) narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko’rsatadilar. Shu sababdan ular kapitalni doimiy, o’zgarmas tushuncha sifatida qarab, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. Bu tushunchalarni umumlashtirgan holda kapitalni moddiy va ashyoviy hamda uni qiymat ko’rinishidan iborat deb qarab, uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatiladi.

**Kapital** o’z egalariga daromad keltiradigan ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishning hamma sohalarida ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo’ljallangan pul mablag’laridan iboratdir. “Kapital” moddiy va qiymat ko’rinishiga ega bo’lgan iqtisodiy tushunchadir.

**Tadbirkor -** iqtisodiy resurslar, ya‘ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resursining bir-biriga qo’shilishini ta‘minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, iqtisodiy va xavf-xatardan, javobgarlikdan qo’rqmaydigan kishidir.

Barcha resurslarni harakatga keltirish **tadbirkorlik qobiliyati** deb yuritiladi.

## 2-savol. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.

**Ishlab chiqarish jarayoni** - bu insonlarning o’z iste‘mollari uchun zarur bo’lgan moddiy va nomoddiy ne‘matlarni ishlab chiqarishga yo’naltirilgan maqsadga muvofiq bo’lgan faoliyatlar majmuasidir. Ishlab chiqarish bu kishilarning real mehnat faoliyatidir.

Ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalariga bo’linadi. **Moddiy ishlab chiqarish** sohalariga (sanoat, qishloq xo’jaligi, qurilish va boshqalar) zaruriy moddiy ne‘matlar yaratiladi, **xizmat ko’rsatish** sohalarida esa turli xil ma‘naviy ne‘matlar yaratiladi (ta‘lim, sog’liqni saqlash, sport, turizm va h ). Bu sohalar bir-biri bilan uzviy bog’langan holda rivojlanadi. Masalan, O’zbekistonda 2007 yilda ishlab chiqarilgan tovarlar qiymati yalpi ichki mahsulotda 13529,4 mlrd yoki 48,0 foiz, ko’rsatilgan xizmatlar qiymati 11979,1 mlrd yoki 42,5 foizni tashkil etgan edi. Sof soliqlar esa 2677,7 mlrd so’m yoki 9,5 foiz bo’lgan edi.

Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonini chizmada ko’rsatamiz.




Tovar va xizmatlar nafligi va qiymatining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining rolini chizmada tasvirlaymiz.




## *3-savol. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari*

Ma‘lumki, ishlab chiqarish ijtimoiy bo’lib, barcha resurslar harakatga keltiriladi, natijada juda kup turdagi tovarlar va xizmatlar yaratiladi, ularni barcha massasi yalpi ijtimoiy mahsulotni hosil qiladi.

Jami tovarlar va xizmatlar, ya‘ni milliy mahsulotning yil davomidagi yig’indisi **mamlakat boyicha ishlab chiqarishning umumiy natijasi** deyiladi. Mamlakatda yil davomida yaratilgan milliy mahsulot natural jihatdan uch qismdan iborat bo’ladi: ishlab chiqarish vositalari, iste‘mol buyumlari va turli xildagi xizmatlardan iborat.

Yaratilgan mahsulot qiymat jihatdan ham uch qismdan iborat bo’ladi.

1. Ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalar qiymatining mahsulotga utgan qismi (S);
2. Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar, va jamiyat uchun ishlab chiqarilgan qo’shimcha mahsulot qiymati (J);
3. Yangidan yaratilgan mahsulotning bir qismi, ishchilarga tegishli qismi zaruriy mahsulot qiymati (Ya) dan iboratdir.

**T = C + Ya + J** (1) ni tashkil etadi.

Yaratilgan mahsulotdan iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiyomati chegirib tashlansa, qolgan qismi **sof mahsulot** deyiladi.

***YaiM - Aa=SMM*** (2) bo’ladi.

Sof mahsulot bevosita ishlab chiqarishda band bo’lgan menejerlar, ishchilar, dehqonlar va muhandislar, texnik xodimlar va boshqalarning yangidan sarf qilingan mehnati bilan yaratilgan zaruriy (ZM) va qo’shimcha (QM) mahsulotdan iboratdir.

**Zaruriy mahsulot** - bu ishchi va xizmatchilar tomonidan ish vaqtining bir qismi bo’lgan zaruriy ish vaqtida zaruriy mehnat bilan yaratiladi va ularga ish haqi, mehnat haqi ko’rinishida beriladi.

**Ish haqi** - ish kuchini qayta tiklash va takror ishlab chiqarish va oila a‘zolari ehtiyojlariga sarflanadi.

Sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi bo’lib, ishchi tomonidan **qo’shimcha mehnat** bilan yaratiladi.

Uni quyidagi ko’rinishda tasvirlash mumkin.




Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona qo’shimcha mahsulotni ko’paytirish yo’li bilan foyda olishga erishadi. Qo’shimcha mahsulot uch yo’l bilan olinadi:

1. Ishchilar sonini ko’paytirish;
2. Ish kunini uzaytirish;
3. Ish kuni chegarasi o’zgarmagan holda zaruriy ish vaqtini kamaytirish hisobidan qo’shimcha ish vaqtini ko’paytirishdir.

Ish kunini o’zgartirish yo’li bilan olingan qo’shimcha mahsulot **absolyut qo’shimcha mahsulot** deyiladi.

Ish kunini o’zgartirmasdan zaruriy ish vaqtini kamaytirib, qo’shimcha ish vaqtini ko’paytirish hisobiga olingan qo’shimcha mahsulot esa **nisbiy qo’shimcha mahsulot** deb ataladi.

Yil davomida olingan barcha qo’shimcha mahsulotlar yig’indisi **qo’shimcha mahsulot massasi**, uning zaruriy mahsulotga nisbatini foizda ifodalanishi **qo’shimcha mahsulot normasi** deyiladi. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin.

$$M' = \frac{M}{V} \times 100\,\% \quad (1)$$

Bunda: M’ – qo’shimcha mahsulot normasi; M - qo’shimcha mahsulot massasi; V - zaruriy mahsulotni bildiradi.

Ishlab chiqarish omillari bilan uning samaralari o'rtasidagi bog'liqlikni **ishlab chiqarish funktsiyasi** deyiladi.

Ya'ni: ***M = F (E, K, I)*** *(2)* dan iborat bo'ladi.

Bunda: ishlab chiqarish funktsiyasi – M; yer - Ye, kapital – K; ishchi kuchi - I bilan belgilangan.

***5-savol. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlar***

**Samaradorlik** iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbatdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishning samaradorligi olingan foydaning (F) ishlab chiqarishga sarflangan resurs xarajatlariga (IX) nisbati bilan aniqlanadi.

Ya'ni: ***I/ch = F x 100%*** *(3).*

***Rx***

$$S = \frac{M}{Rc} \times 100\ \% \quad (4).$$

Samaradorlik qanchalik yuqori bo'lsa, olinadigan foyda va foyda normasi oshib boradi.

Ya'ni: ***R' = F x 100 %*** *(5).*

Bunda: R'- foyda normasi; IX - iqtisodiy resurs xarajatlari; F -foyda.

**Samaradorlikning bosh mezoni** haqida foyda, boshqalari esa yalpi milliy mahsulot, sof mahsulot, milliy daromad, qo'shimcha mahsulot deb ko'rsatadilar.

Ko'pchilik olimlar bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning bosh ko'rsatkichi olingan foydaning xarajatlarga nisbati, ya'ni **rentabellik foydalilik darajasi** bilan belgilanadi deb ko'rsatadilar.

Ishlab chiqarishda qatnashadigan omillarning unumdorligi, ulardan samarali foydalanish darajasini bildiradigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bosh mezonlardan biri mehnat unumdorligidir.

**Mehnat unumdorligi** – ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi. Bu esa sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi.

Ya'ni: ***MU= M/V*** *(6).*

Bunda: MU- mehnat unumdorligi; M - yaratilgan mahsulot; V - sarflangan vaqt.

**Mehnat unumdorligi** – bu sarflangan inson mehnatining har bir birligi evaziga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. **Vaqt birligi** ish kuni, ish soatidan iborat bo'ladi.

Samaradorlikni aniqlashda kapital unumdorligidan foydalanish mumkin.

Ya'ni: *KU = M/K; KU= Yad/K; KU= F/K;*

Bunda: KU - kapital unumdorligi, M – mahsulot, K - ishlab chiqarishda qatnashgan kapital miqdori:

Samaradorlikni anqilashda ko'rsatib o'tilgan mezonlardan tashqari mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, energiya sig'imi degan ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan, yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat, moddiy ashyolar, energiya miqdorini hisobiga olinadi.

**Samaradorlikni oshirishga ta'sir qiladigan omillar**ga qoyidagilar kiradi:

1. *Ishchi kuchi salohiyati;*
2. *Fan-texnika taraqqiyoti va uning yangiliklari;*
3. *Ilg'or texnologiya;*
4. *Ishlab chiqarish sarflarini tejash;*
5. *Iqtisodiyotni tarkibiy tuzilish va ratsional joylashtirish;*
6. *Ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi;*
7. *Tabiiy, modiy va mehnat resurslaridan tejash va tejamkorlik bilan foydalanish;*
8. *Sub'ektlarni ya'ni ishlab chiqaruvchilarni moddiy rag'batlantirish.*

*9. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash.*

*10. Ishlab chiqarishda innovatsiyalarni qo'llash.*

*Samaradorlikni asosida mashinalashgan mehnat turadi, uni fan texnika va inson yaratadi. Fan texnika taraqqiyotini ikkita yo'li bor*:

1. **Evolyutsion yo'lidir** - mavjud texnika texnologiya asosida, mashinalar va uskunalar qisman modernizatsiyalashtiriladi, rivojlanish asta-sekinlik bilan amalga oshirib boriladi.

2. **Revolyutsion yo'ldan rivojlanish** – ***bu fan-texnikaning bir qancha sohalarida birdaniga katta o'zgarishlar qilinadi, texnikaning eng so'nggi yangiliklarini, avlodlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi, shu tufayli yuqori samaradorlikka erishiladi.***

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini hozirgi zamon fan va texnikasining eng yangi yutuqlari bilan qayta qurollantirish lozimligi Prezident I.Karimov asarlarida ko'rsatib o'tilgan.

*Asosiy tayanch tushunchalar*:

**Ishchi kuchi** - mehnat qilishga yaroqli bo'lgan insonning jismoniy va aqliy mehnatining majmuidir.

**Mehnat predmetlari** – inson mehnati ta'sir etadigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan barcha narsalardir. Masalan yer, suv, xom ashyo, barcha materiallardan tashkil topadi.

**Mehnat qurollari** – bu insonni tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatishda qo'llaniladigan (ishlatiladigan) vositalar-narsalardir. Ya'ni: mashinalar, stanoklar, asboblar, traktorlar, uskunalar, arra, bolta va boshqalardan tashkil topadi.

**Kapital** – bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoq va sohalarda ishlatilib, o'z egasiga daromad keltiradigan tovarlar, ishlab chiqarish vositalari va pul mablag'laridir.

**Tabiiy resurslar** - yer-suv, unumdor tuproq, o'rmon, qazilma boyliklar, utloqlar foydalanishga tortilsa, ular ham daromad keltiradi.

**Tadbirkorlik** – bu insonning yaratuvchilik faoliyati bo'lib, uni amalga oshirish uchun insonda tashabbus, tashkilotchilik ishbilarmonlik qobiliyatlari bo'lishi kerak va iqtisodiy xaf-xatardan, tavakkalchilik hamda javobgarlikdan ham cho'chimasligi lozim degan ma'noni bildiradi.

**Ishlab chiqarish jarayoni** – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, o'zini va insonlarni iste'moliga zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar yaratish maqsadida o'z qobiliyatini ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishidir. Ishlab chiqarish tufayli iste'mol qiymat va qiymat yaratiladi.

**Ishlab chiqarishning umumiy samarasi** - bu ishlab chiqarishga sarf qilingan resurslar xarajatlari bilan hosil qilingan daromadlar o'rtasidagi nisbatdan iboratdir.

**Zaruriy mahsulot** – bu ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning (ishchi, xizmatchi, dehqon, fermer va h.k) zaruriy ish vaqtida yaratgan va ularni ishchi kuchini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulotlardan iboratdir.

**Qo'shimcha mahsulot** - bu ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan mahsulotidir. U sof mahsulotining zaruriy mahsulotdan oshiqcha qismi bo'lib, tadbirkorlarga, mulkdorlarga va davlatga tegishli bo'ladi.

**Ishlab chiqarish funktsiyasi** - bu ishlab chiqarish omillari bilan uning samaralari o'rtasidagi bog'liqlikdan iborat.

**Qo'shilgan kapital** - bu ishlab chiqarishda band bo'lgan kapital miqdoriga yangi qushimcha ravishda qo'shilgan kapital yoki kapital yoki kapital miqdorining o'sgan qismidir.

**O'rtacha mahsulot** - ishlab chiqarishga jalb qilingan to'g'ri keladigan mahsulot miqdoridan iborat.

**So'nggi qo'shilgan mahsulot** - so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga kupaygan (o'sgan) mahsulotni bildiradi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Ishlab chiqarish va uning omillarini tushuntirib bering.
2. Kapital deganda nima tushuniladi va unga ta‘rif bering.
3. Kapital tarkibiga nimalar kiradi?
4. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini tushuntirib bering.
5. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntirib bering.
6. Ishlab chiqarilgan (yaratilgan) mahsulotning natural va qiymat tarkibi nimalardan iborat?
7. Zaruriy va qo’shimcha mahsulotni tushuntiring.
8. Qo’shimcha mahsulot normasi va massasi formulasini mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
9. Qo’shilgan mehnat, qo’shilgan kapital va qo’shilgan mahsulot tushunchalarini mazmunini tushuntirib bering.
10. So’nggi qo’shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonunining mohiyati nimadan iborat?
11. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonini tushuntirib bering.

## 3 – mavzu: IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

***Kirish:*.**

Ushbu mavzuda kishilik jamiyati paydo bo’lgan davrdan boshlab shakllangan va turli ko’rinishda amal qilib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularni taraqqiyot bosqichlari haqida tushunchalar beriladi, ishlab chiqarishning ijtimoiyligi tizimlari va ularni modellari hamda xususiyatlari tushuntiriladi. Ishlab chiqarish - bu moddiy borliqqa egalik qilish asosida tashkil etilganligi sababli, mulk ob‘ektlari bo’ladi. Shunday ekan mulk tushunchasi beriladi, mulk turlari, mulkning iqtisodiy mohiyati va mazmuni hamda bozor tizimi sharoitida mulk shakllarining o’zgarishi haqida ilmiy tushunchalar beriladi

***Reja:***

1. Ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo’lgan turlicha yondashuvlar.
2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari.
3. Mulkchilik munosabatlarning mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk ob‘ektlari va sub‘eklari.
4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.
5. O’zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish maqsadi, yo’llari va usullari.

### *1 - savol. Ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo’lgan turlicha yondashuvlar*

Iqtisodiyotning shakllanishi, rivojlanishi va uni taraqqiyotini o’rganishda turlicha **yondashuvlar**dan foydalaniladi:

1. Tarixiy-formatsion yondashuv;
2. Madaniylashish (tsivilizatsiya) darajasi jihatidan yondashuv;
3. Texnika va texnologiya taraqqiyot darajasi jihatidan yondashuv;
4. Sotsial-iqtisodiy shakllar o’zgarishi jihatidan yondashuv.

**Tarixiy-formatsion yondashuv**da ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlari o’rganiladi. Ya‘ni, **ishlab chiqarish usuli** - bu ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarning birligidan iboratdir.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** - bu ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarini birligidir, ya‘ni ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillarini tashkil etadi.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** - bu mehnatga layoqatli bo’lgan kishilar bilan tabiat o’rtasida bog’lanishni hosil qiluvchi munosabatlar ham deyish mumkin.

Kishilar tabiatni o’zlashtirishda bir-birlari bilan o’zaro aloqa bo’lib, munosabatlar bog’laydilar. Bu bog’lanish ishlab chiqarish munosabatlaridir. Demak, ishlab chiqarishda

tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanadi, ammo ular biri-ikkinchisidan farq qiladi. Ya‘ni, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar bevosita ishlab chiqarishda va uni tashkil etishda shakllanadi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o’rtasidagi aloqalar ko’rinishida tashkil topadi.

Ishlab chiqarish doimo ijtimoiy xarakterga ega bo’lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qaror toptiradi, uning asosini ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish belgilaydi. Egalik qilish esa mulkchilik munosabatlari hosil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kishilar uchun hayotiy zarur bo’lgan moddiy va nomoddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste‘mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy aloqalar **ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** deyiladi.

Ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi **ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyan**i tashkil etadi. Ya‘ni:

**Ishlab chiqarish usuli** - bu ishalab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining birligidir.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** - bu ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarining qo’shilishidir.

**Ishlab chiqarish munosabatlari** - bu mulkchilik, ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste‘mol munosabatlaridan tashkil topadi.

**Ustqurma** - bu siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni jamisidir. Kishilik jamiyati taraqqiyoti quyidagi ishlab chiqarish usullari bilan tavsiflanadi: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar bo’lib, ular asosan Yevropa hududida bir-biri bilan almashinib turgan. **Jamiyat taraqqiyoti** oddiy kooperatsiya, manufaktura, yirik mashinalashgan ishlab chiqarish bosqichlarini bosib o’tdi.

**Oddiy kooperatsiya** - bu bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi eng oddiy shaklidagi uyushmasi bo’lib, ma‘lum tartibda faoliyat ko’rsatadigan kishilar guruhidir.

**Manufaktura** - bu mashina mavjud bo’lmagan sharoitdagi mehnat taqsimotiga asoslangan kooperatsiyadir.

**Yirik mashinalashgan ishlab chiqarish** – bu mehnat taqsimoti hamda mashinali mehnatga asoslangan kooperatsiyadir.

Jamiyat taraqqiyoti va texnika hamda texnologiyaning vujudga tovar xo’jaligi va bozorning vujudga kelishi kuchli ta‘sir ko’rsatgan bo’lib, texnika taraqqiyotining va axborotlashgan jamiyat bosqichlari keyingi 250-300 yildagi davri tovar xo’jaligini rivojlanishi bilan bevosita bog’liq bo’lgan.

### *2 – savol. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari*

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amal qiladigan xo’jalik yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishi birgalikda **iqtisodiy tizim**ni tashkil qiladi.

Iqtisodiy tizimlar quyidagi ko’rinishlarda turkumlanadi:

1. An‘anaviy iqtisodiyot;
2. Ma‘muriy boyruqbozlik iqtisodiyoti;
3. Bozor iqtisodiyoti tizimi.

**A‘anaviy iqtisodiyot** - barcha mamlakatlar uchun xos bo’lib, unda natural yoki mayda tovar xo’jaligi xukmronlik qilgan. Texnika taraqqiyoti va uning yangiliklarini joriy qilish cheklangan bo’lgan.

**Ma‘muriy-boyruqbozlik iqtisodiyoti** - bu bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi bo’lgan tizim bo’lib, bu tizimda davlat mulkchiligi hukmron bo’ladi va iqtisodiyot markazdan boshqariladi.

Bozor iqtisodiyoti tizimi – bu iqtisodiyotni rivojlantirishda eng muhim bo’lgan tizimdir. Bu ikki bosqichga egadir. Birinchisi, erkin raqobatga asoslagan klassik bozor iqtisodiyoti, ikkinchisi esa, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo’lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deyiladi.

**Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti** - tadbirkorlikda erkinlik amal qiladigan va shaxsiy manfaat ustun turadigan tizimdir. Iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi cheklangan bo'lib, davlat xususiy mulkni himoya qiladi va erkin bozorni amal qilishini ta'minlovchi huquqiy tartiblar o'rnatib boradi.

**Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti** – bu hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti sof bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot, unsurlarini qo'shilishidan hosil bo'lgan aralash iqtisodiyotdir. Bunda mulkchilikning har xil shakllari, tadbirkorliklar turli bo'ladi, rejalashtirish, prognozlash, aholini ijtimoiy himoyalash kuchayadi. Masalan, hozirgi vaqtda Xitoy Xalq respublikasida davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvi va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari qo'llanishi natijasida iqtisodiy o'sish va iqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda.

### *3 – savol. Mulkchilik munosabatlarning mohiyati va iqtisodiy mazmuni mulk ob'ektlari va sub'eklari*

Iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida kishilarni narsalarga va barcha moddiy va nomoddiy borliqqa munosabatining paydo bo'lishi mulkchilikni keltirib chiqaradi.

Aytish mumkinki, **mulkchilik munosabatlari** – bu iqtisodiy va doimiy kategoriya bo'lib, bu mulkka egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

**Mulkka egalik qilish** – bu mulkni egasi qo'lida mavjud bo'lishidir va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shaklidir. Shuning bilan bir qatorda mulk kishiga boshqa kishilar foydalanishi mumikn.

**Mulkdan foydalanish** – bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishini bildiradi.

**Mol-mulkni o'zlashtirish** - bu daromad olish uchun yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatilishidir.

**Mulkni tasarruf etish** – bu mol–mulk taqdirini mustaqil hal etishni bildiradi. Bu mustaqillik mol-mulkni sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish, davlat ixtiyoriga o'tkazish kabi ko'rinishlardan iboratdir.

Mulkchilikning munosabatlarining iqtisodiy mazmunini mulkka egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf etish belgilaydi va jamiyatdagi huquqiy, iqtisodiy munosabatlar mazmunini o'zida ifodalaydi. Mulkchilik shu sababli bir vaqtning o'zida ham huquqiy, ham iqtisodiy ham doimiy kategoriya hisoblanadi. **Mulkchilikni huquqiy normalari** bu sub'ektning mulkka xo'jayinlik qilishini yuzaga chiqaradi. Demak, **huquqiy norma** - bu mulkka egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf qilishdagi iqtisodiy munosabatlarning aniqlashtirilgan real ko'rinishi hisoblanadi.

Mulkning ob'ekti va sub'ekti bo'lish lozim. **Mulkning ob'ekti** - bu inson yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, tabiiy boyliklar, aqliy mehnat mahsuli, insonning mehnat qilish qobiliyati – ishchi kuchi hisoblanadi. **Mulkni sub'ekti** - unga egalik kiluvchilar (insonlar) bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa guruhlarga birlashgan bo'ladilar.

Mulk ob'ektlari va sub'ektlari birgalikda mulkchilik munosabatlarini shakllantiradi. Demak, **mulkchilik munosabatlari** - bu mulk ob'ektini o'zlashtirish boyicha sub'ektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir.

**Mulkchilik huquqlari** – bu mulk sub'ektining mulk ob'ektiga nisbatan munosabati bo'lib, mulkdan foydalanish va nazorat qilish yuzasidan hosil bo'ladigan huquqlar majmuidir degan ta'rifni berish mumkin.

### *4 – savol. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni*

Ma'lumki, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish mulkchilik munosabatlarisiz amalga oshirilmaydi va jamiyatning rivojlanishi ham mulkka egalik qilishni talab qiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik munosabatlariga quyidagi **mulk turlari** kiradi:

1. Davlat mulki;

2. Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va matlubot sohalaridagi jamoa mulkining xilma-xil turlari;

3. Ijtimoiy tashkilotlar mulki;

4. Uy xo'jaligi va shaxsiy tomorqa xo'jaligi mulki;

5. Yakka tatibdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarning shaxsiy mulki;

6. Tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasidagi aralash mulk shakllari;

7. Xususiy mulklardan iboratdir.

"O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risida"gi Qonunida turli-tuman mulklar quyidagi **mulk shakllari**ga kiritilgandir:

*1. Davlat mulki;*

*2. Jamoa mulki;*

*3. Xususiy mulk;*

*4. Shaxsiy mulk;*

*5.Aralash mulk.*

Mulkchilik shakllari

| | | |
|---|---|---|
| **Davlat mulki** - mulk deb hisoblangan narsalarni davlat tomonidan bajarish uchun o'zlashtirilishi | **Jamoa mulki** - ishlab chiqarish va iste'mol narsalarni muayyan maqsad yo'lida ayrim jamoalarga birlashgan kishilar tomonidan birgalikda o'zlashtirilishi | **Xususiy mulk** - ayrim kishilar va guruhlarga tegishli bo'lgan hamda daromad topishga qaratilgan mulk |
| **Aralash mulk** - bu turli mulk shakllari birikishidan tashkil topib, har bir sub'ekt o'z ulushini o'zlashtirish | **Yakka tartibdagi xususiy mulk** - moddiy borliqni mulkdor tomonidan o'zlashtirilishi | **Korporativ xususiy mulk** - bu birlashgan kishilar tomonidan korxonalar mulkni o'zlashtirilishi. |

**Davlat mulki** – bu mulkka egalik qilish, foydalanish, o'zlashtirish va tasarruf qilish davlat ixtiyorida bo'lgan barcha mulk ob'ektlaridan iborat. Bu mulk asosan ikki yo'l bilan hosil bo'ladi: birinchisi, xususiy mol-mulk milliylashtirilib, davlat ixtiyoriga o'tkaziladi, ikkinchisi, davlat mablag'lari hisobidan korxonalar qurish, davlatga qarashli korxona va tashkilotlarga investitsiyalar kiritish. Bunga misol qilib takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslarni, yirik inshootlar va transport vositalari, yo'llarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Fuqarolik Kodeksiga muvofiq davlat mulki Respublika mulkidan va ma'muriy-xududiy (munitsipal) tizilmalar mulkidan iborat bo'ladi. Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va havonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hoqimiyati va boshqaruvi tuzilmalari mol-mulki, davlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudet mablag'lari, oltin zahirasi, valyuta fondi va boshqa davlat fondlari **respublika mulki** hisoblanadi.

**Ma'muriy-xududiy (munitsipal) tuzilmalar mulki**dan davlat hokimiyati mahalliy organlar mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo'jaligi korxonalari va boshqa mulkiy majmualari, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari kabi mol-mulki bo'ladi.

**Jamoa mulki** – bu ixtiyoriy ravishda jamoaga birlashgan kishilar tomonidan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va uni hamjihatlik bilan o'zlashtirilishidir. Jamoa mulki davlat

mulkini korxona jamoasi sotib olishi, badal to'lab korxona qurishi, aktsiya chiqarib uni sotish yo'llari bilan shakllanadi.

Jamoa mulkiga kooperativlarnig, ijara va jamoa korxonalarining, aktsionerlar jamiyatlari, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarning, jamoa tashkilotlari va diniy tashkilotlarining mulki kiradi, bu mulkka ayrim shaxslar emas, balki ma'lum guruh, kishilar egalik qiladilar.

**Shaxsiy mulk** - bu har bir kishining mulki bo'lib, bu mulkdan shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojni qondirish uchun foydalaniladi va qonun bilan himoya qilinadi. Shaxsiy mulk har bir kishining mehnat daromadlari evaziga hosil bo'ladi va ko'payib boradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy mulk aktsiyadan kelgan dividend, bank foizlari, xususiy sohibkorlik daromadi, mulkini ijaraga berishdan kelgan daromad kabi yangi manbalarga asoslanadi.

**Shaxsiy mulk ob'ektlari** – bu turar joylar, bog'-hovli va uylar, transport vositalari, pul jamg'armalari, uy-ruzg'or va shaxsiy iste'mol buyumlari, yakka tartibda faoliyati uchun kerakli bo'lgan ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi.

**Xususiy mulk** – bu ayrim tadbirkolarga, sohibkorlarga, ishbilarmonlarga qarashli yollanma mehnatga asoslangan va egasiga foyda keltiruvchi mulkdir.

O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonunda (7-modda), xususiy mulk o'z mol-mulkiga xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir deb ko'rsatilgan va qonunlar doirasida uning miqdori va qiymati cheklanmasligi ham qayd etilgan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, turli shakldagi mulklarning qo'shilishi natijasida **aralash mulk** paydo bo'ladi va bu mulkdan hosil bo'lgan daromaddan har bir sub'ekt - mulk egasi - o'zining ulushini oladi va bu mulkni rivojlanishidan manfaatdor bo'ladi.

### *5 – savol. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish maqsadi, yo'llari va usullari*

Iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor yo'li - bu kup mulkchilikdir yoki ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobatlashuvchi muhitni shakllantirishdir. Buning asosida davlat tasarrufida bo'lgan mulkni xususiylashtirib, uni jamoa, ijara korxonalariga, aktsiya jamiyatlarga, ma'suliyatli cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

**Xususiylashtirish** - fuqarolarning va davlatga taaluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki obe'ktlarini yoki davlat aktsiyali jamiyatlarining aktsiyalarini davlatdan sotib olishdir.┐ Prezident I. Karimov mulkchilik masalasini hal qilishni "....bozorni vujudga keltirishga qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qiladi"┐ deb ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga muhim ahamiyat berilib, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuni 1991 yil 19 noyabr qabul qilindi.

Xususiylashtirish davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishini bildiradi.

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** – bu xususiylashtirishdan tashqari, bu mulk hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirishning ham ko'zda to'shadi. U bir qator yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Davlat korxonalarini hissadorlik jamiyatiga aylantirish;
2. Davlat korxonasini sotib, uni jamoa mulkiga aylantirish;
3. Mulkni qiymatga qarab chiqarilgan cheklar (vaucher) boyicha fuqarolarga bepul berish;
4. Mulkni ayrim tadbirkor va ish boshqaruvchilarga sotish;
5. Ayrim davlat korxonalarini chet el firma va fuqarolariga sotish yoki qarz hisobiga berish;
6. Davlat mol-mulkini auktsionlarda kimoshdi savdosi orqali sotish va hakozo.

Xususiylashtirishning usullari ham turli-tuman bo'lib, ularni 3-guruhga ajratish mumkin:

1. Davlat mulkini bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish;
2. Davlat mulkini sotish orqali xususiylashtirish;
3. Davlat mulkini bepul bo'lib berish hamda sotishni uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish.

Davlat mulkini xususiylashtirish usullari

↓

| Mulkni bepul bo'lib berish orqali xususiylashtirish | Mulkni sotish orqali xususiylashtirish |
| --- | --- |
| ↓ Mehnat jamoalariga bepul topshirish | ↓ Mehnat jamoalariga sotish |
| ↓ Barcha jamiyat a'zolariga bepul bo'lib berish | ↓ Barcha jamiyat a'zolariga sotish |
| ↓ Aholining ayrim ijtimoiy qatlashmlariga bepul berish | ↓ Kim oshdi savdosida fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga sotish |
| ↓ Har bir jamiyat a'zosining davlat mulkini hosil qilishdagi ishtiroki, ya'ni qo'shgan hissasiga qarab bo'lib berish | ↓ Korxonalarni keyinchalik mehnat jamoalari tomonidan sotib ijaraga berish |
| | ↓ Chet el firmalariga va fuqarlariga tashqi qarzni o'zish evaziga berish yoki sotish |

↓

Mulkni bepul bo'lib berish hamda sotish usullarini uyg'unlashtirish orqali xususiylashtirish.

***O'zbekiston mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari***

| | | |
| --- | --- | --- |
| **Birinchi bosqich. (1992-1993 yillar)** | → | Umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash tizimi korxonalarini xususiylashtirish |
| **Ikkinchi bosqich. (1994-1995 yillar)** | → | Ko'plab o'rta va yirik korxonalar hissaborlik jamiyatlariga aylantirsh hamda ularning aktsiyalarini respublika qimmatbaho qog'ozlar bozorida sotish |
| **Uchinchi bosqich. (1996-1998 yillar)** | → | Aktsiyalarning nazorat paketi davlat mulkida bo'lgan yirik korxona va tarmoqlarini xususiylashtirish |

| | | |
|---|---|---|
| **To’rtinchi bosqich (1998-2002 yillar)** | → | Xususiylashtirilgan korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, boshqaruv samaradorligini oshirish va mulkchilik yangi munosabatlarini to’laqonli amal qilishi uchun sharoitlar yaratish |
| **Beshinchi bosqich (2003 yildan boshlab)** | → | Xususiylashtirish jarayonlari samaradorligini oshirish va jadallashtirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning ishtirokini faollashtirish va salmog’ini oshirish |

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichi natijasida kichik xususiylashtirish amalda tugallandi.

Ikkinchi bosqichda kuplab o’rta va yirik korxonalar hissadorlik jamiyatlariga ayчlantirildi.

Uchinchi bosqich 1996 yildan boshlandi va xususiylashtirilmaydigan ob‘ektlar ruyxatiga kirmagan barcha ob‘ekt va korxonalar 3146 ta davlat tasarrufidan chiqarildi.

To’rtinchi bosqichda asosiy vazifalar sifatida davlat byudjetiga xususiylashtirishdan tushgan mablag’lar yo’naltirildi.

Beshinchi bosqich O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 yanvardagi “O’zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni bilan bog’liq. Farmonga ko’ra iqtisodiy nochor davlat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish. Mazkur korxonalani modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish uchun to’g’ridan–to’g’ri invetitsiyalarni jalb etish maqsadida xususiylashtirilgan ob‘ektlarga narx belgilashning samarali mexanizmi joriy etildi, ya‘ni past likvidli ob‘ektlarni nol darajadagi xarid qiymati boyicha tanlov asosida investitsiya majburiyatlarini qabul qilish sharti bilan investorlarga sotish tartiblari tasdiqlanadi.

**Respublikada xususiylashtirishning adresli yo’naltirilganligi** uning navbatdagi xususiyatidir. Bu esa aholini mazkur jarayonda qatnashish imkonini beradi, uy-oylarning o’z egalariga imtiyozli yoki bepul berilishida, aholining ko’proq muhtoj va zaif qatlamlarini qo’llab-quvvatlashning turli xil dasturlari byudjet mablag’lari hisobiga qoplanishida, qishloq aholisi o’z yordamchi xo’jaligi uchun chek, yerlar olishida o’z ifodasini topadi.

**Xususiylashtirishning to’lovliligi** ham muhim xususiyatdir. Pulni to’lash orqali davlat tasarrufidagi korxona va ob‘ektlarni xususiylashtirishda mulkni bepul taqsimlash bilan bog’liq salbiy holatlar bartaraf etilishining imkoniyati yaratildi.

Yana bir xususiyat - respublikada mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog’ida aholi uchun kuchli ijtimoiy kafolatlar yaratildi va ta‘minlandi.

Masalan, xususiylashtirilayotgan korxona mehnat jamoasiga aktsiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotish, yangi mulkdorga eskirgan asosiy fondlar hamda ijtimoiy infrastruktura ob‘ektlarini bepul topshirish, davlat korxonalarining mol-mulki, fermalari, bog’larni imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirish, hamda soliq to’lashda ayrim imtiyozlar berish kabilardir.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Ishlab chiqarish usuli** - bu ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarini bir-biriga qo’shilishidir.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** – bu ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarini o’zaro birligidan iborat.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** – bu insonlarni yashashi uchun zarur bo’lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish jarayonida hosil bo’ladigan iqtisodiy aloqalar birligidir.

**Ishlab chiqarishning texnologik usuli** - bu mehnat vositalari, materiallari, texnologiya, energiya axborotlari va ishlab chiqarishni tashkil etish usulidir.

**Mulkchilik munosabatlari** – bu tabiatda mavjud bo’lgan narsalarga egalik qilish, ulardan foydalanish, uni o’zlashtirish va tasarruf etish jarayonida hosil bo’ladigan iqtisodiy aloqalar majmundir.

**Mulkdan egalik qilish** – bu mulkdorlik huquqi bo’lib, amaldagi qonunchilik bilan tavsiflanadi.

**Mulkni o’zlashtirish** – bu mulkni o’zini va undan olingan daromadlarni iste‘mol qilishdir.

**Mulkni tasarruf etish** – bu mulkni taqdirini mulkni taqdirini o’zi beligilashidir.

**Mulk ob‘ektlari** – bu mulk bo’lgan barcha boylik turlari tashkil etadi.

**Mulk sub‘ektlari** – bu mulk egalari bo’lgan barcha sub‘ektlari va uni o’zlashtirishdagi barcha ishtirokchilardir.

**Xususiylashtirish** – bu davlat ixtiyoridagi mulkni huquqini xususiy shaxslarga berilishidir.

**Davlat tasarrufidan chiqarish** - bu davlat mulki hisobidan boshqa ko’rinishidagi davlatga qarashli bo’lmagan mulk shakllarni hosil qilishdir.

***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

1. Ishlab chiqarish usuli va uni tarkibiy qismlari nimadan iborat ekanligini tushuntiring.
2. Ishlab chiqarish usullarining boshqa aylanishiga sabab nima?
3. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.
4. Iqtisodiy tizim va uning nusxalari hamda farqlarini tushuntirib bering.
5. Mulkchilik va uning mohiyatini tushuntiring.
6. Mulkchilikni turli shakllarini iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
7. Mulk ob‘ektlari va sub‘ektlarini tushuntirib bering.
8. Bozor iqtisodiyotiga o’tish nima sababdan mulkchilikning turli shakllarda bo’lishini taqozo etadi?
9. Xususiylashtirish va uning bosqichlarini tushuntirib bering.
10. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish deganda nimani nazarda tutiladi?

## 4 – mavzu. TOVAR –PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BOZOR IQTISODIYotI ShaKLLANISHI VA AMAL QILISHINING ASOSIDIR

### *Kirish*

Ushbu mavzudan oldingi mavzularda taraqqiyotning asosi bo’lgan ishlab chiqarishning shakllanishi va uning amal qilishning umumiy tomonlari, ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari, ularning turlari va ularni o’zgarib turishi bilan bog’liq bo’lgan qoida qonunlar va iqtisodiy tushunchalarni ko’rib o’tilgan edi.

Bu mavzuda ibtidoiy jamoa tizimi yemirilishi zaminida vajudga kelgan tovar xo’jaligi va tovar ayirboshlash barcha iqtisodiy tuzumlarda rivojlanib va tokamillashib borishning qonuniyatlarini, tovar va uning xususiyatlari, tovar qiymatining miqdori, pulning vujudga kelishi va uning vazifalarini o’rganamiz.

### *Reja:*

1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o’tish va uning rivojlanishi.
2. Tovar va uning xususiyatlari.
3. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo’shilgan miqdor nafligi nazariyasi.
4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.

### *1-savol. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o’tish va uning rivojlanishi*

Ijtimoiy xo’jalik yuritishnig ikki shakli mavjud. Birinchisi, **natural ishlab chiqarish xo’jalik** yuritishning bu shaklining mazmuni shundan iboratki, yaratilgan barcha mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning o’z ehtiyojlari uchun sarf qilingan. Natural xo’jalik avvalo ibtidoiy

jamoada, keyinchalik patriarxal dehqon xo'jaligi, feodal pomestyalarida amal qilingan. Xo'jalik yuritishning bu shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo'jalik doirasida qatiy cheklab qoyadi, tashqi iqtisodiy aloqalarga imkoniyat berilmaydi, ishchi kuchi shu xo'jalik doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ishlab chiqarish maqsadlarini nihoyatda cheklab, ishlab chiqarish hajmi jihatdan juda oz va turi jihatidan kam xil bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga boysundirilgan. Natural ishlab chiqarish o'rnini asta sekinlik bilan tovar ishlab chiqarish egallagan.

**Tovar xo'jaligi**ni shakllanishi va rivojlanishi natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchilaning o'zlarini iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Natural va tovar xo'jaliklarining bir-biridan farqini quyidagicha ifodalash mumkin.

| № | Asosiy jihatlar | Natural xo'jalik | Tovar xo'jaligi |
|---|---|---|---|
| 1. | Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadi. | Shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish | Boshqa tovarlarga ayirboshlash, bozorda oldi-sotdi qilish |
| 2. | Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining aniqlanishi | Ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oldindan aniqlanadi. | Bozordagi muayyan talab va ishlab chiqarishning xususiy manfaati asosida aniqlanadi. |
| 3. | Iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash | Bunday kurash mavjud emas | Bunday kurash mavjud va tovar xo'jaligining rivojlanishi bilan kuchayib beradi. |
| 4. | Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilinishini darajasi | Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'laligicha iste'mol qilinadi. | Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ayrim turlari va qismlarining sotilmay qolishi, ya'ni iste'mol qilinmasligi. |
| 5. | Ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining ishtirok etish tamomillari | Ishlab jarayonida faqat o'zining va oila a'zolarining ishchi kuchidan foydalaniladi. | Ishlab chiqarish jarayonida yollanma ishchi kuchidan ham foydalanish mumkin. |

Tovar xo'jaligida mehnat taqsimoti chuqurlashadi, mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi, ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishning u yoki bu turiga ixtisoslashib boradilar, xususiy mulkka ustuvorlik beriladi, ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tovar ayirboshlash asosida vujudga keladi, vaqt va moddiy resurslar tejaladi, tovarlarni ayirboshlashda ishtirok etuvchilarni bir-birlariga bog'liqligi kuchayadi.

Tovar xo'jaligini rivojlanishi jamiyat iqtisodiyotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Xullas, tovar xo'jaligining vujudga kelishi va amal qilishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va uni turlarini ko'payishi va kengayishi;
2. Ishlab chiqarishni ixtisosilashuvi;
3. Ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi, mehnat natijalarini o'zlari tasarruf etishlari.

Tovar ishlab chiqarish natural xo'jaligining rivojlanishi, mahsulotlar turi va miqdorini ko'payishi natijasida paydo bo'ldi deyish mumkin.

Tovar xo'jaligining mohiyatini keng ma'noda tushunish uchun uning xususiyatlarini o'rganmoq zarur.

### *2-savol. Tovar va uning xususiyatlari*

Ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarilgan mahsulotlar tovarga aylanishi uchun u sotilishi va sotib olinishi kerak, ya'ni, mahsulotni ishlab chiqarishga sarf qilinadigan xarajatlar qiymat shaklidagi namoyon bo'lishi va uning real ko'rinishi pulda ifodalanishi lozim.

Ya'ni, tovar-pul (T-P) va pul–tovar (P-T) shakliga aylanishi hamda T-P-T ko'rinishini hosil qilishi lozim. Tovarga iqtisodchi omillar turlicha ta'rif berganlar. Masalan, Ye.F. Borisov "Tovar – bu bozorda boshqa tovarga ekvivalent asosida ayirboshlashga mo'ljallangan, mehnat orqali yaratilgan ijtimoiy naflikdir"┐ . degan ta'rifni bergan. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, tovar inson mehnatining mahsulidir deb qaragan. V.I. Vidyapin va boshqalar tahriri asosida

tayyorlangan darslikda “ne‘mat” va “tovar” tushunchalariga kengroq ta‘rif berilgan: “Tovar - bu ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan maxsus iqtisodiy ne‘mat”┐ .

Tovarga berilgan ta‘rifga asoslanib aytish mumkinki, **tovar** iqtisodiy kategoriya bo’lib, inson mehnatining mahsuloti, biron-bir naflik va qiymatga ega bo’lgan va sotish-sotib olishga mo’ljallangan mahsulotlar majmuasidir.

Tovar ikki xususiyatga ega: birinchidan, tovar insonning biron-bir ehtiyojini qondiradi; ikkinchidan, tovar boshqa mahsulotga ayirboshlana oladigan buyumdir. Boshqacha aytganda tovar iste‘mol va almashuv qiymatlariga egadir. Tovarning iste‘mol qiymati kishiga foydaliligi va nafligidir. U shaxsiy iste‘mol buyumi yoki ishlab chiqarish vositalari sifatida insonlarning biron-bir ehtiyojini qondiradi.

**Tovarning almashuv qiymati** – bu biror turdagi naflikning boshqa turdagi naflikka ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbatdir. Masalan, bitta bolta 20 kg doga ayirboshlash qilinadi.

Tovarda mujassamlashagan ijtimoiy mehnat uning qiymatini tashkil qiladi. Bu qiymat tovarlar ayirboshlaganda ko’rinadi, shuning uchun ham almashuv qiymati-qiymat shakli bo’lib, uning ichki mazmunini tashkil etadi. (ya‘ni iste‘mol qiymatlarini ayirboshlash nisbatini bildiradi).

L. M. Kulikov qiymat va almashuv qiymatini tovarning alohida asosiy xususiyatlari sifatida ajratib ko’rsatadi. Ya‘ni, “qiymat - bu tovar ishlab chiqarish va uni sotish (ko’pincha qisqacha qilib “ishlab chiqarish xarajatlari” deb ataydilar) qanchaga tushganligining ifodasidir.

Tovar ayirboshlaganda (sotilganda) ishlab chiqaruvchi (sotuvchi), tabiiyki, o’z xarajatlarini qoplashni istaydi, biroq bozorda boshqacha nisbatlar tarkib topishi mumikn endi ularni boshqa ko’rsatkich-almashuv qiymati ifodalaydi. Bu bir tovar boshqasiga ayirboshlanadigan nisbatdir.┐ Tovarning o’zi esa ikki tomon-naflilik va qiymatning uzviy esa birligidan iboratdir.

Shu o’rinda aytish mumkinki, ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatining bir qismi bo’lib, miqdor jihatdan undan kamdir.

**Tovar qiymatining miqdori** ijtimoiy-zaruriy ish vaqti orqali hisoblab chiqiladi. **Ijtimoiy zaruriy ish vaqti** muayyan ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va muayyan jamiyatdagi mehnat malakasi va jadallashuvi darajasi o’rtacha bo’lgan sharoitida biron bir tovarni ishlab chiqarish uchun bo’lgan ish vaqtidir.

Tovarning ikki xil xususiyatga ega bo’lishiga sabab tovar ishlab chiqaruvchi mehnati tabiatining **ikki tomonlamaligidadir.** Bir tomondan, bu - muayyan turdagi aniq mehnatdir. Shuning uchun, iste‘mol qiymatni yaratgan mehnat aniq mehnat deb aytiladi. Ikkinchi tomondan, mehnat - aniq shakldan qat’iy nazar, umuman sarflangan inson ishchi kuchidir, jami ijtimoiy mehnatning bir qismidir va bu mehnat tovar qiymatini yaratadi.

Mehnatning ikki yoqlama xarakteridan kelib chiquvchi tovarning ikki xil xususiyatini chizmada tasvirlab ko’rsatish mumkin.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Aniq mehnat | → | Ijtimoiy nafligi | → | Ijtimoiy zaruriy naflik |
| ↓ | | ↓ | | ↓ |
| Mehnat | → | Tovar | → | Talabga mos miqdordagi tovar |
| ↓ | | ↓ | | ↓ |
| Abstrakt mehnat | → | Ijtimoiy qiymat | → | Ijtimoiy zaruriy mehnat |

Tovar qiymatining miqdorini hisoblashda mehnatning oddiy va murakkab, malakali va malakasiz, aqliy yoki jismoniy turlari hisobga olinadi. Tovar qiymatining miqdorida mehnat yotadi.

Tovarlar qiymatining miqdori mehnat unumdorligiga qarab o’zgaradi.

**Mehnat unumdorligi** ma‘lum ish vaqti birligi mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori uchun sarflangan ish vaqti bilan o’lchanadi.

Mehnat intensivligi mehnat unumdorligining oshishiga ta‘sirini o’tkazadi.

**Mehnat intensivligi** ish vaqti birligi mobaynida sarflangan mehnat miqdori orqali ifodalanuvchi ko’rsatkichdir. Mehnatning intensivligi deganda ish vaqti birligi jadalligining darajasi bo’lib, u mehnatni kuchayishi, tig’izligi va zo’rayishi degan ma‘nolarni bildiradi.

Mehnat intensvligini jadallik darajasini aniqlashda ish kunining davomiyligi yoki bir soat ichida yaratilgan mahsulot va ko’rsatilgan xizmat miqdori ko’rsatkichdan foydalaniladi.

### *3-savol. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo’shilgan miqdor nafligi nazariyasi*

Tovar qiymatini aniqlashda ikki asosiy yo’nalish mavjud:

1. Kiymatning mehnat nazariyasi;
2. Kiymatning keingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi.

Qiymatning mehnat nazariyasi asoschilari Uilyam Petti, Adam Smit, David Rikardolar hisoblanadi. U. Petti qiymatning manbai mehnat hisoblanadi degan ta‘limotni asoschisidir. Aynan mehnat sarfi tovar qiymati miqdorini belgilab berishini ko’rsatib o’tdi. Ammo, U. Petti tovarning iste‘mol qiymati va qiymati o’rtasidagi farqni ko’ra olmagan. U.Petti tovarning qiymati faqat qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishga sarflanuvchi mehnat orqali yaratiladi deb fikrni bildirgan.

A. Smit o’zining “Xalqaro boyligining tabiati va sabablari to’g’risidagi tadqiqotlar” (1776 yil) nomli asarida tovarning iste‘mol va almashuv qiymatining farqini ochib bergan. U tovar qiymatining yagona manbai bo’lib moddiy ishlab chiqarishning har qanday sohasida sarflangan mehnat hisoblanadi deb ko’rsatgan. Tovar qiymatining miqdorini har qanday mehnat emas, balki jamiyat uchun zarur bo’lgan o’rtacha mehnat belgilab berishini ko’rsatib o’tgan.

D. Rikardo qiymatning yagona mezoni bo’lib tovar ishlab chiqarishga sarflangan holda ish vaqti sarflari orqali aniqlanuvchi mehnat hisoblanishini isbot qilib bergan. U tovarning iste‘mol qiymati va qiymati o’rtasidagi farqni aniq ko’rsatib, har qanday ishlab chiqarishda tovarning qiymati sarflangan mehnat orqali aniqlanishining ko’rsatib bergan.

Demak, qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlarning fikricha, tovarni ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Qiymatning miqdori esa, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan, ya‘ni ijtimoiy zarur ish vaqti bilan o’lchanadi.

Qiymatning mehnat nazariyasiga asosan tovar ishlab chiqaruvchilari o’rtasida o’zaro aloqalar, ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag’batlantirishni tartibga soluvchi, ob‘ektiv qiymat qonuni mavjud bo’lishini tan olingan.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlarining fikricha tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi.

Qiymat qonuni indivual mehnat sarfi ijtimoiy zarur mehnat sarfidan ozroq bo’lgan ishlab chiqaruvchilarni rag’batlantiradi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshiradi.

Qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtiradi, mehnat va moddiy sarflarni kamaytirishni rag’batlantiradi va mehnatning ishlab chiqarish sohalari boyiach taqsimlanishini tartibga solib turadi.

Masalan, eng yuksak mehnat unumdorligiga erishgan ishlab chiqaruvchilar o’z tovarlarini ijtimoiy zarur sarflaridan kamroq, lekin ayrim individual sarflaridan yuqori foyda olishlari mumkin.

Qiymat qonunining tartib solib turuvchi mexanizmi raqobat kurashi natijasida bozor narxlarining stixiyali ravishda tebranib turishidan, ularning ijtimoiy qiymatdan farq qilib turishidan iborat.

Tovar narxining ijtimoiy qiymatidan chetga chiqish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Talab = taklif bo'lgan holda narx = qiymat.
2. Talab › taklif bo'lgan holda narx › qiymat.
3. Talab ‹ taklif bo'lgan holda narx ‹ qiymat.

Xullas, tovar narxining ular qiymatidan farq qilishi tovar ishlab chiqaruvchilarning xohishi bilan sodir bo'lmay, balki ob'ektiv qiymat qonunining kuchi ta'siri ostida.

Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasining asoschilari Avstriya maktabi vakillari K.Menger (1840-1914), F.Vizer (1851-1926), Ye. Bem Baverk (1851-1914) lar hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra, kishilar tomonidan juda xil-xil moddiy va ma'naviy ne'matlar hamda xizmatlar ularni ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy mehnat sarflanganligi uchun emas, balki ushbu ne'matlar nafliliklarga ega bo'lishi sababli qadrlanadi.

"Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi" atamasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha atamalar bilan ifodalanmoqda: ya'ni, "me'yoriy naflilik", "me'yoriy foydalilik", "chegaraviy naflilik", "chegaraviy faydalilik" kabilardir.

Lekin "keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi" atamasi esa bu mazmunga ko'proq mos keladi. Shuning bilan bir qatorda "so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligi", "qushilgan miqdor nafliligi", "keyingi qo'shilgan naflilik" atamalari ham qo'llaniladi.

"Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi" nazariyasining tarafdorlari bu muammoni o'rmonda yashovchi chol ega bo'lgan besh qop don misolida, uning ongida sodir bo'lgan psixologik xayol orqali tasvirlab ko'rsatganlar. Bu qoplardagi donning nafliligi kamayib boruvchi tartibda joylashadi: Birinchi qopdagi don eng zarur, ya'ni cholning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun iste'mol qilinadi, ikkinchisi - ovqatlanishni yaxshilash uchun, uchinchisi - uy parrandalarini boqish, to'rtinchisi - pivo tayyorlash, beshinchisi - cholning o'z uyi atrofida sayrab yurgan qushlarni boqib, ko'ngil xushlik qilish uchun ishlatish mo'ljallangan. Aytish mumkinki, chol uchun beshinchi qopdagi donning nafliligi unchalik ahamiyatli emas. To'rtinchidan qopdagi donning yo'q bo'lishi cholni pivosiz, uchinchidan esa parrandalarsiz qoldirishi mumkin. Faqat bitta qopdagi don qolgan taqdirda chol uchun uning nafliligi eng yuqori darajasiga yetadi, ya'ni u ovqatlanish ehtiyojini ta'minlaydi.

### 4-savol. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari

Biron bir tovarning qiymati uni boshqa tovarga ayirboshlash orqali aniqlanadi (T-T). Bir qarashda ikki tovar bir-biriga ayirbosh qilinganda, ular bir xil rol oynaydigandek ko'rinadi. Aslida esa ularni roli esa turilichadir ya'ni, bir tovar o'z qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa birinchi tovarning qiymatini o'zida ifodalab, ekvivalent rolini pul tovari bajara oladi. Qiymat shakllarini rivolanishi bosqichlari pulning paydo bo'lishida muhim rol oynagan. Qiymatning bir qancha shakllari amal qilgan.

1. Oddiy yoki tasodifiy;
2. To'la yoki kengaytirilgan;
3. Umumiy va pul shaklidir.

Oddiy hamda kengaytirilgan shakllarda umumiy o'lchov bosh sifatida tovarni tovarga almashtirish yoki bir tovar bir necha tovarga ayirbosh qilingan bo'lsa, keyinchalik umumiy ekvivalent rolini nodir metallar bajara boshlagan.

Nodir metallar, jumladan oltin bu vazifani bajarishining sabablari bor:

1. Sifat jihatdan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;
2. Uzoq muddat saqlash mumkinligi;
3. O'zining tarkibiy tuzilishining o'zgartirmasligi;
4. Yumshoqligi, tez bo'linishi va yana yaxlit holga keltirish mumkinligi;
5. Bo'linganda ham o'z qiymatini saqlab qola olishi;

6. Tabiatda nisbatan kamyobligi;

7. Ozgina miqdordagi va og'irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi.

Qiymat shakllarini rivojlanib, takomillashuvi natijasida barcha tovarlar uchun umuiy ekvivalent rolini oynovchi tovarlar ichidan maxsus tovar-pul ajralib chiqqan.

Shunday qilib, **pul** - bu umumiy ekvivalent rolini oynovchi maxsus tovardir. Pul paydo bo'lgandan keyin tovarlar dunyosini ikkiga bo'lish mumkin bo'ldi. Bir tomondan, naflilikning ifodasi bo'lgan tovarlarga, ikkinchi tomondan, qiymatning moddiylashgan ifodasi bo'lgan pul tovariga ajraladi.

Tovarlar dunyosi → tovarlar
Tovarlar dunyosi → pullar

Pulning mohiyatini u bajaradigan asosiy vazifalardan ko'rish mumkin:

1. Qiymat o'lchovi;
2. Muomala vositasi;
3. Boylik to'plash vositasi;
4. To'lov vositasi.

**Pulning qiymat o'lchovi** vazifasini ideal pul bajaradi, ya'ni tovar egasi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi. Tovarning narxi talab va taklif muvofiq qilgan taqdirdagina uning qiymatiga mos keladi. Tovarning narxi ularning qiymati, pulning qiymati, talab va taklifning nasbati kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

Tovar almashuv qiymatining pul bilan ifodalanishi uning narxini anglatadi. Tovarning almashuv qiymatini o'lchash uchun muayyan miqdordagina pul materialini birlik qilib olinadi. Bunday birlik **narxlar o'lchovi** (masshtabi) deb ataladi. Shuning uchun davlat pul birligi huquqini qonun bilan mustahkamlaydi, bu birlik shu tariqa rasmiy tan olinadi.

Tovar muomalasi jarayonida naqd pul bo'lishi kerak, chunki tovarlarni oldi-sotdi paytida ularning narxlari real pulga aylanadi. Tovarlar va xizmatlarni ayirbosh (oldi-sotdi) qilish jarayonida pul **muomala vositasi vazifasi**ni bajaradi.

Dastlab tovarlarni ayirbosh qilishda pulning bevosita kumush yoki oltin qoymalar ishlatilgan. Shuning bilan bir qatorda ayirboshlash vaqtida qiynchiliklar tug'dirgan. Monetalar - ya'ni oltin tangalar uzluksiz muomalada bo'lishi natijasida siyqalanib, yoyilib hajmi kamayib boradi.

Pul muomaladan chiqarilganda boylik to'plash vazifasini bajaradi. Natural xo'jalik sharoitida boylik to'plash, jamg'arish mahsulot jamg'arish shaklida amalga oshirilgan bo'lsa, tovar xo'jaligining rivojlanishi bilan pul jamg'arish ko'rinishida amal qiladi.

Tovarlar nasiyaga to'lov muddati kechiktirib sotilganda pul to'lov vositasi vazifasini bajaradi. Pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to'lashda to'lov vositasi bo'ladi. Qog'oz pullar veksel va banknotlar pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasini bajaradi.

Pul alohida tovar bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymatini ifodalaydigan uumiy ekvivalent sifatida xizmat qiladi. Bu tovar ham iste'mol qiymatga va qiymatga egadir.

Qog'oz pullar ikkita tarkibiy qismga ajratiladi: naqd pullar (qog'oz pul tangachalar) va kredit pullar (chek, veksel, sertifikat, to'lov talabnomalari).

Xulosa qilib aytganda, tovar ayirboshlash, ishlab chiqarish va pulning kelib chiqishi hamda tovar-pul muomalasining rivojlanishi bozor va bozor iqtisodiyotining kelib chiqishiga sabab bo'ldi va bozorning rivojlanishiga shart-sharoit yaratib berdi.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Natural ishlab chiqarish** - bunda mehnat mahsulotlari ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo'jalik ehtiyolari uchun ishlatiladi.

**Tovar ishlab chiqarish -** bunda tovarlar uning egasini iste'moli uchun emas, balki bozorda sotishga mo'ljallangan bo'ladi.

**Tovar** - bu iste'mol qiymatiga va qiymatga ega bo'lgan, ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulotdir.

**Iste‘mol qiymat (naflilik**) – tovarlarning kishilarning biron-bir narsaga bo’lgan ehtiyojini qondirishga yaroqliligidir.

**Qiymati (almashuv qiymati**) – bu biron bir tovarning boshqa tovarga ayirbosh qilinadigan miqdoriy nisbatidir.

**Aniq mehnat** - muayyan aniq iste‘mol qiymatlarni vujudga keltiradigan mehnat.

**Abstrakt mehnat** - mehnatning aniq shaklidan qatbiy nazar umuman inson ishchi kuchining sarflanishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.

**Mehnat unumdorligi** – ma‘lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

**Mehnat intensivligi** - mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligi.

**Pul** - hamma turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalentlik rolini bajaruvchi maxsus tovardir. Qog’oz pullar esa shu tovar pulning vakilidir.

***Nazorat savollari va topiriqlari***:

1. Ijtimoiy xo’jalik shakllarini tushuntiring.
2. Nima uchun tovar naflilik (iste‘mol qiymati) va almashuv qiymatning birligi sifatida tavsiflanadi?
3. Tovardagi bu ikki xil xususiyat nimadan kelib chiqadi?
4. Keyingi (so’nggi) qo’shilgan miqdor (tovar va xizmat) nafligi nima va uning pasayish sababini tushuntiring.
5. Tovarlarning qiymatini aniqlashga bo’lgan quyidagilarga o’zingizni fikringizni bildiring:

a) Ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan belgilanadi;
b) Keyingi qo’shilgan tovarlarning nafliligi bilan aniqlanadi;
v) Keyingi qo’shilgan tovarlarning nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi.

# II BO’LIM. BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI

## 5-MAVZU: BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI

***Kirish***

Ushbu mavzuda xo’jalik yuritish shakli bo’lgan bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining ob‘ektiv zarurligi sabablari nimalar bilan bog’liqligi tushuntiriladi. Keyin bozor iqtisodiyotining mazmuni, mohiyati va asosiy belgilari, bozor xo’jaligining afzalliklari, ziddiyatlari hamda rivojlanishidagi muammolari yoritib beriladi. Undan keyin esa bozor turlari, tarkibiy qismlari va bozor infratuzilmasi haqida tushunchalar beriladi.

***Reja:***

1. Bozor iqtisodiyotiing mazmuni va uning asosiy belgilari.
2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari
3. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.
4. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.

### *1-savol. Bozor iqtisodiyotiing mazmuni va uning asosiy belgilari*

Ma‘lumki, tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash jarayonlarining rivojlanishi natijasida pulning kelib chiqishi tovar-pul munosabatlarining shakllanishiga va ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki berdi, shuning bilan bir qatorda bozor- iqtisodiyotini vudujga kelishiga shart-sharoit yaratib berdi.

Bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo’lishining umumiy sharoitlari, **birinchidan**, xususiy mulkchilikning paydo bo’lishi, **ikkinchidan**, ijtimoiy mehnat taqsimoti hisoblanadi.

Bu ikkala shart ijtimoiy xo'jalikning tovar shaklini vujudga keltiradi. Tovar ishlab chiqarishning mavjud bo'lishi pul muomalasi, ayirboshlash, taqsimlash va iste'molning bozor orqali hal bo'lishini bildiradi.

**Bozor iqtisodiyoti** – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bozor iqtisodiyotining asosida tovar-pul munosabatlari yotadi.

Bozor iqtisodiyotining ob'ekti va sub'ekti bo'ladi. **Ob'ekt** - bu moddiy narsalardir. **Sub'ekti** esa moddiy narsalarga egalik qiluvchi kishilardir, ya'ni yollanma ishchilar, tadbirkorlar, ssuda kapitali egalari, qimmatli qog'ozlar egalari va barcha iste'molchilar.

Bozor xo'jaliginig barcha **asosiy sub'ektlari** uchta guruhga bo'linadi:

*1. Uy xo'jaliklari;*

*2. Korxonalar (tadbirkorlik sektori);*

*3. Davlat.*

**Uy xo'jaliklari** - iste'molchilar bo'lib, ular ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiladilar. Ular mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini yetkazib beradilar, iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlarini shaxsiy ehtiyojlariga sarflaydilar.

**Tadbirkorlik sektori** – bu daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini hisoblanadi.

**Davlat** – foyda olishni maqsad qilib qoygan, asosan iqtisodiyotni tartibga har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo'ladi.

**Bank** – iqtisodiyotning me'yoriy amal qilishi uchun zarur bo'lgan pul massasi harakatini tartibga solib turuvchi moliya-kredit muassasasidir.

Bozor iqtisodiyotini to'rtta iqtisodiy mexanizm tartibga solib turadi:

1. Narx;
2. Talab;
3. Taklif;
4. Raqobat.

Bozor xo'jaligi sub'ektlari o'zaro aloqasining umumiy modelini (nusxasini) quyidagicha tasvirlash mumkin:




**Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari** quyidagilardan iborat:

1. Turli shakllardagi mulkchilik va xususiy mulkning ustuvorligi;
2. Tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
3. Raqobat kurashining mavjudligi;
4. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi;
5. Korxona va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligidir.

Bozor iqtisodiyotining taraqqiyotini ikki turga ajratib ko'rsatish mumkin.

**Birinchisi**, **klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti** bo'lib, g'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asrning oxirlariga davom etgan. Uning asosiy belgilari quyidagicha bo'lgan:

1. Xususiy mulkchillikka asoslagan holda iqtisodiy faoliyat yuritish;
2. Kapital va ishlab chiqarishning korxona miqyosida umumlashganligi;
3. Tadbirkorlar, ishchilar, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning shaxsiy erkinligi;
4. Tadbirkorlarning yuqori foyda olishlar uchun kurashlari;

5. Iqtisodiyotning talab va taklif, king bozor narxi va raqobat kurashlari asosida tartiblanishi;

6. Aholining ijtimoiy himoyaqilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqalashuvining kuchayishi.

**Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko'rinishi - hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti** bo'lib, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qilib kelingan. **Uning** asosiy belgilari:

1. Mulkchilikning turli shakllariga, ya'ni, xususiy, davlat, jamoa, aralash ko'rinishlariga amal qilgan holda iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati yuritilishi;
2. Kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi, mulkning bir qismi yirik monopoliyalar va davlat qo'lida to'planib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi;
3. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki. Davlat fan-texnika taraqqiyotini qo'llash, turli iqtisodiy tadbirlarni o'tkazish, rivojlanish istiqbolini aniqlash, turli sohalar va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni tartibga solish chora-tadbirlarini belgilash vazifalarini bajaradi.
4. Xo'jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes rejasi, marketing tizimi orqali boshqarish).
5. Ijtimoiy himoyaing kuchayishi. Bunda davlatga, jamoalar va xususiy kishilarga tegishli turli xil ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta fondlarining vujudga kelishi.

Hozirgi zamon bozor xo'jaligi iqtisodiy xususiy va davlat sektorlarining o'zaro aloqasiga asoslanadi.

Har qanday iqtisodiy tizim singari bozor iqtisodiyoti ham iqtisodiyotnig umumiy muammolarini ifoda etuvchi qoyidagi savollarga javob topishi zarur: Ya'ni, nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur? Qanday texnika va texnalogiya bilan ishlab chiqarish zarur? Kim uchun ishlab chiqarish zarur?

Bozor iqtisodiyoti sharoitida:

1. Ko'proq foyda beradigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariladi;
2. Puli bor, tovarlarni yuqori foyda olish imkonini beradigan narxlarda sotib olish layoqatiga ega xaridorlar uchun ishlab chiqariladi;
3. Yuqori foyda olishni ta'minlaydigan, tejash imkonini beradigan texnika va texnologiya yordamida ishlab chiqariladi.

Umuman olganda: aholi ehtiyoji uchun zarur miqdor va turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish; mavjud resurslardan samarali foydalanib, yangi texnika va texnologiyaar asosida ishlab chiqarish; aholi iste'moli uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish kerak deyish mumkin.

| **Mezonlar** | **Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari** | | |
|---|---|---|---|
| | ***Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti*** | ***Aralash iqtisodiyot*** | ***Korporativ iqtisodiyot*** |
| ***Davlat dasturlarining maqsadga yo'naltirilganligi*** | Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish | Tadbirkolikni rivojlantirish boyicha shart-sharoitlar yaratish | Yirik ishlab chiqarish manfaatlarini himoya qilish |
| ***Iqtisodiyotni tartibga solish tamoyillari*** | Uzoq muddatli dasturlarning ishlab chiqilishi | Taktik usullardan ustun ravishda foydalanish | Asosiy ustuvorliklarni belgilab olish |
| ***Davlat sektorining iqtisodiyotga ulushi*** | 30 % | 10 % | Ahamiyatsiz darajada |
| ***Ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq keluvchi davlatlar*** | Germaniya | AQSH | Yaponiya, Shvetsiya |

Iqtisodiyotga ta'sirining intensivligi darajasi hamda davlat tomonidan hal etiluvchi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonoviy bozor iqtisodiyotining modellari bir-biridan farq qiladi.

### *2-savol. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari*

Bozor iqtisodiyotining quyidagi **afzalliklari** mavjud:

1. **Resurslarning taqsimlashni samaradorligi**. Bozor iqtisodiyoti raqobatli bo'lgani sababli, resusrlarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiriladi. Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalar qo'llaniladi.
2. **Erkinlik.** Bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u shaxsiy erkinlikka imkoniyat yaratib beradi. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini yaratadi.
3. **Harakatchanlik** . Bozor iqtisodiyoti har bir shaxs, korxona, firma va korparatsiyalar tinimsiz harakatda va izlanishda bo'ladi.

Chunki, xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavayron qilishga olib keladi. Bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni harakatga soladi.

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari bilan birga uning ko'plab ijobiy jihatlari ham bor. Ya'ni:

1. Ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishning yuqori darajasi;
2. Fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishning jadal surati;
3. Turli tuman ehtiyojlarni qondirish, mahsulot sifatini oshirish qobiliyati;
4. Buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;
5. Cheklangan axoborot - turli resurslarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amal qila olish imkoniyati.

**Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyati** ham mavjud: raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qoyish va uni rag'batlantirish.

Raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud:

**Birinchisi**, bozor iqtisodiyotidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z iqtisodiy mavqeini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo'lidan ozod bo'lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo'shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, shavqatsiz raqobat - bularning hammasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tatibga soluvchilik ta'sirining pasayib borishiga olib keladi;

**Ikkinchisi**, bozor tizimi rag'batlantiriladigan texnika taraqqiyoti ham raqobatning zaiflashuviga olib keladi. Eng yangi texnologiya:

juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni;

yirik bozorlar bo'lishini;

kampleksli, markazlashgan va qatiyan bir butun bo'lib birlashgan bozorning tarkib topishi;

boy va i shonchli xom-ashyo manbalarini talab qiladi.

Jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikni kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi **- bozor iqtisodiyotining navbatdagi ziddiyatidir.**

Ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarni ishab chiqarish, bozorga taklif qilishga qodir emasligi - bu **umumiy e'tirof qilingan ziddiyatlaridan biridir**. Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi roy berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf etaolmasligi ham uning ziddiyatli tomonlarini bildiradi.

Bozor tizimi jamiyatni ehtiyoji yuqori bo'lgan tovarlar bilan ta'minlashga ham kafolat bermaydi. Raqobatning kuchsizlanib borishi iste'molchining erkinligiga ham putur yetkazadi. Bozor tizimi o'zining iste'molchining xohishiga ancha mos keluvchi resusrlarni taqsimlash layoqatini ham yo'qotib borishi mumkin.

### *3-savol . Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari*

**Bozor** tushunchasi bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham qo'llaniladigan ilmiy-amaliy tushunchadir. "Bozor" va "bozor iqtisodiyoti" tushunchalari bir-biridan farq qiladi.

**Bozor** jamiyatda bozor iqtisodiyotiga shakllangunga qadar mehnat taqsimotining roy berishi atijasida vujudga kelib, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ayirboshlash jarayonini o’z ichiga oladi.

**Bozor iqtisodiyoti** esa bozor va bozor munosabatlarining tarixan uzoq davr mobaynida rivojlanishining natijasi sifatida paydo bo’ladi va bozor qonunlari asosida tashkil etiluvchi va faoliyat ko’rsatuvchi iqtisodiy tizimni anglatadi.

Bozor takror ishlab chiqarishning bitta fazasini, ya‘ni ayirboshlash fazasini o’z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti esa barcha fazalarni - ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va nihoyat iste‘mol jarayonlarini ham o’z ichiga oladi:

**Bozorning asosiy belgilari***:*

sotuvchi va xaridorning o’zaro kelishuvi, ekvivalentlilik tamoyili asosidagi ayirboshlash;

sotuvchilarning xarajatlarni qoplashi;

foyda olish va pul to’loviga qodir bo’lish;

raqobatchilik muhitini yaratishdir.

Bozor ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o’rtasidagi pul orqali ayirboshlash (oldi-sotdi) jarayonida bo’ladigan **iqtisodiy munosabatlar yig’indisidir.**

Bozor talab bilan taklifni moslashtirsa muvozanat hosil bo’ladi va aksincha bo’ladi.

Misol: tovarlar va xizmatlar miqdori ko’p taklif qilingan bo’lsa, narx pasayadi, sotuvchilar zarar ko’radi, talabga nisbatan kam tovarlar va xizmatlar bozorga chiqarilsa, narxlar oshib ketadi, sotuvchi ko’p daromad topadi, xaridorlar zarar ko’radi.

**Bozorning asosiy vazifasi** ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste‘molchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Iste‘molchi bilan sotuvchi bozor ishlab chiqarish orqali bog’laydi. Ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishiga yordam beradi.

Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini talab, raqobat va narxlar yordamida bajaradi. Talab va taklifni jamlab, bu bilan nimani, qancha miqdorda va qaysi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi.

Bozor bajaradigan vazifalarni chizma orqali tasvirlash mumkin.




Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo’lganligi sababli uni turkumlashda **asosiy mezonlar**ga asoslaniladi:

a) bozorning yetuklik darajasi;

b) sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi;

v) bozor sub‘ektlari xususiyatlari;

g) bozor miqyosi;

d) iqtisodiy aloqalar tavsifi.

**Bozorning yetuklik darajasi**ga qarab rivojlanmagan bozor, klassik (erkin) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo’linadi.

**Rivojlanmagan, shakllanayotgan bozor** ko'proq, tasodifiy tavsifga ega bo'lib, unda tovari tovarga ayirboshlash usuli (barter) ko'proq ko'llaniladi.

**Erkin (klassik) bozor** - tovar va xizmatlarning har bar turi boyicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, ya'ni sotuvchilar va sotib oluvchilardan iborat bo'lib, pul orqali ayirboshlash jarayonida ular o'rtasida erkin raqobat kelib chiqadi.

Narxlar talab va taklif o'rtasidagi nisbatga qarab erkin shakllanadi, raqobatning turli usullari qo'llaniladi, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin tabaqalashadi.

**Hozirgi zamon rivojlangan bozor** - bunda davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, bozor ancha tartiblashtiriladi va boshqariladi.

**Bozor hududiy jihatdan** quyidagi turlarga bo'linadi:

- mahalliy bozorlar (Qarshi, Surxandaryo, Samarqand, Pekin, Moskva bozorlari);
- milliy bozorlar (O'zbekiston bozori, Rossiya bozori, Ukraina bozori, Moldaviya va boshqalar);
- xududiy bozorlar (Markaziy Osiyo yoki Osiyo bozor, G'arbiy Yevropa bozori)
- jahon bozori.

**Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra** bozorlar quyidagi turlarga bo'linadi:

*- iste'mol tovarlar va xizmatlari bozori,*

*- ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori,*

*- valyuta bozor va fond birjalari,*

*- ilmiy texnika kashfiyoti va ishlanmalar bozori.*

### *4-savol. Bozor infratulilmasi va uning unsurlari*

**Bozor infratuzilmasi** – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalari tizimidir. Unga ombor xo'jaligi, transport, aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalari (birjalar, auktsionlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentlari kabilar), moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar (bank turidagi muassasalar, kreditlash idoralari) va ijtimoiy sohaga xizmat qiluvchi muassasalar (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari) kiradi.

**Birja** - namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassaslaridir.

**Broker (makler)lar** – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.

**Auktsionlar** – alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi.

**Savdo uylari** - savdo muassasasining maxsus turi. U ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.z), universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi.

**Ulgurji savdo firmalari** - ulgurji holda (katta partiyalarda) tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, iste'molchilarga sotuvchi savdo tashkilotlaridir.

**Chakana savdo firmalari**- tovarlarni so'ngi iste'molchilarga sotuvchi savdo muassasalaridir.

**Supermarket** – bu xaridorning o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi bo'lib, u tovarlarning deyarli hamma turlari bilan savdo qiladi, xaridorlarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma boyicha xaridor uyiga yetkazadi, ularga madaniy- maishiy xizmat ko'rsatadi.

Infratuzilma tizimida moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar alohida o'ringa ega. Ular moliya bozori, uning asosi bo'lgan kapital bozorini shakllantiradi va amal qilish tartib-qoidalarini o'rnatadi.

Moliyaviy muassasalar mablag'lari ortiqcha bo'lgan sub'ektlardan pul qarz oladi va o'z nomidan mablag'lari yetishmagan sub'ektlarga pul qarz beradi.

Bozor infratuzilmasining banklar, sug'urta kompaniyalari, soliq va bojxona idoralari kabi muassasalari moliya-kredit munosabatlarida alohida o'ziga xos o'ringa ega. Bozor iqtisodiyoti sub'ektlarini moliyaviy axborotlar bilan bilan ta'minlash bozor infiratuzilmasinig axborot xizmati idoralari, shu jumladan auditorlik firmalari zimmasiga tushadi.

**Auditor firmalar** - korxona, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi idora. Auditor idorasi aktsioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat ko'rsatadi va to'liq mustaqillikka bo'ladi.

Xullas, bozor infratuzilmasi va uning unsurlari barcha bozor turlarining faoliyat ko'rsatishi hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizmlardir.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonuni-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** - bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bozor ob'ekti** - bozorga, ayirbosh munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

**Bozor sub'ekti** – bozorning ayirboshlash munosabatlarining qatnashuvchilaridir.

**Bozor infratuzilmasi** - ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.

***Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar:***

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlari va farqlarini tushuntirib bering?
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor iqtisodiyotining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qaday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating?
7. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
8. Bozor infiratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering?

## 6-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI

***Kirish***

Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun maxsus o'tish davri zarur bo'lganligi sababli, ushbu mavzuda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari, Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning mazmuni, maqsadi va asosiy yo'nalishlari o'rganiladi va ko'rsatib o'tiladi.

***Reja:***

1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari.
2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari.
3. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.

### *1-savol. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari*

Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun islohotlar o'tkazilib, butun iqtisodiy munosabatlar tizimi qayta quriladi va o'zgartiriladi. **Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri** - ma'muriy buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakillantirish jarayonlari amalaga oshiruvchi tarixiy davrdir. Jahondagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning tajribalari umumlashtirilib, iqtisodiyotning yangi taraqqiyot yo'li - ilmiy asosda (ravishda) boshqariladigan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti deb tan olindi. Bir qator davlatlar shu yo'lni tanladilar. Ya'ni:

*1. Rivojlangan mamlakatlar yo'li;*

*2. Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;*

*3. Sobiq sotsiolistik mamlakatlar yo'li;*

*4. Sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan qo'shib olib borish yo'li (Xitoy, V'etnam)*

Bozor iqtisodiyotiga o'tish har bir mamlakat uchun xos bo'lgan model (nusxa yoki andozaga) ga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiyligi va farqi bo'ladi. **Umumiyligi** – ularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning qonun-qoidalariga amal qiladi. Shuning bilan birga ko'rsatib o'tilgan har bir yo'lning o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Masalan, bozor munosabatlariga o'tishning rivojlangan mamlakatlar yo'lida oddiy tovar xo'jaligidan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki erkin bozor iqtisodiyotiga va undan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tiladi.

**Mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarni bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lining xususiyati** - bu qoloq, ananaviy iqtisodiyotga erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishdir.

Sobiq **sotsialistik mamlakatlar yo'lining muhim belgisi** markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga **inqilobiy yo'li** bilan ya'ni jadal usulda yoki **evolyutsion yo'li** (tadrijiy) bilan, ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin.

**Revolyutsion yo'li** qo'llanganda tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdaniga va batamom sindirish talab etilib, "karaxt qilib davolash" usuli ("shokovaya terapiya") deb ataladi.

Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikatsiz vujudga keltirish mumkin. Bu o'tish davrining ma'qul yo'li ekanligini islohotlar tajribasi ko'rsatadi, ya'ni kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi.

Ma'muriy – buyruqbozlik tizimi ikkita ahamiyati **kamchilik**ka ega:

*1. Roy berayotgan o'zgarishlarga tezda moslashuvchan emasligi, asta-sekinlik bilan moslashib borishi;*

*2. Samaradorlikning o'ta darajada pasayib ketganligi*.

Ma'muriy-boyruqbozlik iqtisodiyotini bozor iqtisodiyotiga aylantirish uchun tizim islohotlari utkazish amal qiladi. O'tish davrda bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

**1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish.** Bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'liq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat:

- xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda davlat manopoliyasini bekor qilish;
- resurslarning markazlashgan ko'rinishidagi taqsimotini to'gatish;
- narxlarning asosan talab va taklif nisbati asosia shakillantirishga o'tish;
- ichki va tashqi bozorlarda transaktsion bitimlar ustidan davlat nazoratini pasaytirish.

**2. Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish**.

- barcha iqtisoiy agentlarning ish faoliyati uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi;
- bozorga xorijiy raqobatchilar ham kirishi uchun imkon berilishi;

- kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlash;

**3. Instuttsional o'zgarishlar.** Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi;

- mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;
- bozor infratuzilmasini (tijorat banklar, tovar va fond birjalari, invesyotitsiya fondlari va h.k) shakillantirish;
- iqtisodiyotni davlat tomonian tartibga solishning yangi tizimini yaratish;
- bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish.

**4. Tarkibiy o'zgarishlar**. Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbatda iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta kurishdan asosiy maqsad-ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qadar talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishini rivojlantrishdan iborat.

**5. Makroiqtisodiy,** asosan, **moliyaviy barqarorlashtirish**. Bu yo'nalishi muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi eng avvalo va kuchli ravishda moliyaviy sohada, ayniqsa yuqori inflyatsiya shaklida namoyon bo'ladi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi.

**6. Bozor xo'jaligiga mos bo'lgan aholini ijtimoiy himoyalash tizimini shakllantirish.**

Aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu ko'satib o'tilgan bozor tizimining asosiy unsurlarini shakllanishi o'tish davri tugaganligini bildiradi.

***2-savol. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari***

Ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishning revolyutsion va evolyutsion yo'llari mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'lini tanlab, birdaniga katta o'zgarishlar qilishni ma'qul topdilar.

O'zbekiston esa o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, itimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani ko'chaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qay'iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan va boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi.

Mamlakatimiz Prezidenti ko'rsatib o'tdiki, **"Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, ananalar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama, besunaqay rivojlantirishning mudhush merosiga barham berishga asoslanadi**".

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'lni amalga oshirishga, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan **5 ta tamoyil** asos qilib olingan:

1. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, uning ustunligining ta'minlash;
2. O'tish davrida davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
3. Butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanishi, qonunlar ustuvorligini ta'minlanishi;
4. Bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
5. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun tegishli huquqiy negizni, bozor infratuzilmalarini yaratish, odamlarda bozor ko'nikmalarini hosil qilish, yangi sharoitlarda ishlay oladigan kadrlarni tayyorlash uchun vaqt kerak bo'ladi. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi deb ko'rsatib berilgandir. Bundan tashqari, bozor

munosabatlariga o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy sohalarni, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni ham taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotinig boschiqma-bosqich, evolyutsion yo'li bilan o'tish haqidagi goya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich bo'lishi Prezident I.Karimov asarlarida belgilab berilgandir.

**Birinchi bosqich** quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib quyilganligi ta'kidlanadi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;
- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakillantirish.[1]

Bu vazifani bajarish birinchi bosqichda isloh qilishning qoyidagi muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi:

- o'tish jarayonining haqiqiy asoslarini shakillantirish islohatlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;
- mahaliiy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash. Bu vazifalarni baarilishi keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini belgilab olish imkonini berdi.

**Ikkinchi bosqichda** investitsiya faoliyatini ko'chaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qoyiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I. A. Karimov asarida bu bosqich uchun quyidagi bir qator vazifalar ajratib ko'rsatildi:

- *davlat mulklarini xussiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;*
- *ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;*
- *milliy valyuta - so'mni yana ham mustahkamlash;*
- *iqtisodiyotning tarkibiy to'zilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayor mahsulo ishlab chiqarish o'tish*[2]**.**

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni ko'chaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'li davom ettiriladi.

Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi bosqichda "erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarini hal qilishning asosiy shartidir"┐ . Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- *iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;*
- *xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish;*
- *mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni jalb etish uchun qo'lay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;*
- *kichik va o'rta biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rin olishiga erishish;*
- *mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash;*

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекситон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида. Т.: "Ўзбекистон", 1995, 19-бет

[2] Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари Т.: Ўзбекистон, 1998, 332-333 бетлар

- *iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish kabi vazifalar ikkinchi bosqichda sobit qadalik bilan bajarilmoqda.*

### *3-savol. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.*

Iqtisodiy aloqalar va iqtisodiy munosabatlarni yangi turiga o'tish uchun iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqishni talab etadi.

**Iqtisodiy islohotlar** – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmundir. Iqtisodiy islohotlardn ko'zda tutilgan maqsad - mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-ahloqiy yetukligiga erishishi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga utishning nazariy model yaratildi. Bu modelda yangi iqtisodiyotga utishning umumiy tomonlari va milliy xussiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi. **Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari** quyidagilardan iborat:

- *Mulkiy munosabatlarni isloh qilish;*
- *Agrar islohotlar;*
- *Moliya-kredit va narx-navo islohoti;*
- *Boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;*
- *Ijtimoiy islohotlar.*

**Mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish** - bu iqtisodiy islohotlarni bosh bo'g'inidir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga utishning shart-sharoitlari yaratiladi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishining dastlabki bosqichidayoq **qishloq ho'jaligini isloh qilishga** ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

- Respublikada va uning iqtisodiyotigsha agrar soha ustunlikka egaligi, aholining kupchiligi qishloq xo'jaligda bandligi, iqtisodiy o'sishning kup jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog'liqligi;
- Respublika butun sanoat potentsialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigaen sanoatning kupgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasizligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqligi;
- Qishloq xo'jalik mahsulotlari paxta hozirgi vaqtda valyuta resurslari, respublika uchun zarur bo'lgan ozoq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manba ekanligi;
- Mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagi rolining ortib borishi.

**Moliya-kredit sohasini isloh qilish** iqtisodiy tizimni izchillik bilan bozor munosabatlariga o'sib utishida alohida o'rin egallaydi. Moliyaviy munosabatlarda davlat byudjeti tanqisligini kamaytirib borish, byudjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchun ehtiyojlari uchungina byudjetdan mablag' ajratish, xalq xo'jaligini rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish islohatlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri **narxlarni** erkinlashtirishdir. Narxlarni erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda xomashyo va mahsulot ayrim turlarining, narx-navo bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi. Narxlar islohoti boshlangana 1994 yilgacha hamma turdagi xomashyo va mahsulotlar boyicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi.

**Isloh qilishning dastlabki davrida (1992 yil)** keng doiradagi ishlab chiqarish – texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlar va tariflarga utildi. Aholining hisoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarning chegarasi belgilab qoyildi.

**Narxlar islohotining navbatdagi bosqichida (1993 yil)** kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish tulig'icha to'xtatildi.

**Narxlarning erkinlashtirishning oxirgi bosqichida (1994 yil oktabr-noyabr)** xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qoyib yuborildi. Shundan qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshqarishning tegishli tizimni yaratishni talab qiladi. Shunga asosan kuplab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi:

*1. Davlat reja qo'mitasi;*

*2. Davlat ta'minot qo'mitasi;*

*3. Davlat narxlar qo'mitasi;*

*4. Davlat agrosanoat qo'mitasi va boshqalar*.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman va shahar) ijrosiga boshqaruv vazifalarini bojorish uchun hokimlik joriy qilindi. Bozor islohotlari **bozor infratuzilmasini yaratish** chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari, sug'urta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi. Bu birqancha yo'nalishlar boyicha bordi.

**Birinchi yo'nalish** boyicha tovar xom ashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu o'z navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keldi.

**Ikkinchi yo'nalishd**a kapital bozorining ishini ta'minlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valyuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo'lmagan sug'urta kompaniyalari tuzildi.

**Uchinchi yo'nalish** ishchi kuchi bozorini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichga oluvchi katta tarmoq tuzildi.

Bozor islohotlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasidagi respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan muassasalar (tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi - insonga munosib yashash va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri davomida aholini ijtimoiy himoyalash boyicha chora-tadbirlar qo'rish ob'ektiv zaruriyatdir.

Respublikada **aholini ijtimoiy himoyalash** chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlar boyicha amalga oshirildi.

**Birinchi yo'nalish** - narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanishi darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish.

**Ikkinchi yo'nalish** - Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda ozoq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish.

**Uchinchi yo'nalish** - islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash.

Shunday qilib, islohatlarning barcha yo'nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga qaratiladi.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**O'tish davri** - bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga, mavjud iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish taqozo qilinadigan davrdir.

**Bozor islohotlari** - bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmundir.

**Iqtisodiy islohotlar** - turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish** - nima va qancha ishlab chiqarishni qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o'zi belgilashi lozim.

**Iqtisodiyotning barcha sohalari va tamoqlarini erkinlashtirish** - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirish uchun barcha shart-sharotlarni yaratish demakdir.

**Islohotlar kontseptsiyasi** - itimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarini umumiy g'oyasidir.

**Iqtisodiyotni barqarorlashtirish** - tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (modellari)ni ta'riflab bering.
2. O'tish davridagi ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.
3. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega?
4. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?
5. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish printsipining mazmunini batafsil tushuntiring.
6. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini tularoq bayon qilib bering.
7. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'nalishlar boyicha amalga oshiriladi? Har bir yo'nalish boyicha o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.
8. Bozor munosabtlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar o'z oldiga qanday vazifalarni quyadi?
9. Bozor iqtisodiyotni shakllantirish davrida davlatning yetakchilik faoliyati nimadan iborat eknligini tushuntirib bering.
10. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishningsh qanday davlat davsturlarini bilasiz?
11. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o'z oldiga qanday vazifalarni qoyadi?
12. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning asosiy ustuvor vazifalarini tushuntirib bering.

## 7-mavzu. TALAB VA TAKLIF NAZARIYasI. BOZOR MUVOZANATI.

***Kirish***

Tovar ishlab chiqarishni rivojlangan darajasi bozor iqtisodiyotini barqaror amal qilishda ta'sir ko'rsatganidek, talab va taklif qonunlari ham muhim o'rinni egallaydi. Chunki, talab va taklif qonunlari yordamida narxlar shakllantiradi hamda ular o'rtasidagi nisbatni aniqlab beradi. Shu sababli ushbu mavzuda talab va taklif tushunchalari, ularga ta'sir etuvchi omillar, muvozanatli narxlarni vujudga kelishi, talab va taklif qonunlarini mohiyati, bajaradigan vazifalari o'rganiladi.

***Reja***:

1. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. Talab qonuni.
2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. Taklif qonuni.
3. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati.
4. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi.

### *1-savol. Talab tushunchasi va uning miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar. Talab qonuni.*

Kishilarning ehtiyoji ilmiy va hayotiy tushuncha bo’lib, iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida amal qilib kelmoqda, chunki bu tushuncha kishilarning hayotiy vositalarga bo’lgan zaruriyatini bildiradi. Ehtiyojning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ko’rinishi va amal qilishi talabdir. Lekin talab ehtiyojdan farq qiladi va mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Uning farqi shundan iboratki, kishilarning ehtiyoji o’sib boraveradi, cheksizdir. U pul bilan ta‘minlansa va sotib olish kurbiga ega bo’lgan taqdirda talabga aylanadi.

Demak, aytish mumkinki, **talab** – bu pul bilan ta‘minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj sotib olish uchun zarur bo’lgan pul bilan ta‘minlanmasa, u “xoxish”, “istak” bo’lib qolaveradi.

Bozordagi narxlarni o’zgarib turish darajasida iste‘molchilarning tovar va xizmatlarning ma‘lum turlarini va ma‘lum miqdorlarini sotib olishga layoqati bo’lgan ehtiyoj talab deyiladi.

Talablar turlicha bo’ladi. Bir xil tovar va xizmatga bo’lgan talabning ikki turi bor va ular bir-biridan farq qilinadi. Shu boisdan, yakka talab va bozor talabi bo’ladi.

Har bir iste‘molchining, ya‘ni alohida shaxs, oila, korxona, firmaning moddiy va nomoddiy ne‘matlarga bo’lgan talabi – bu **yakka talab** deyiladi. Bir qancha **iste‘molchilarning tovarlar va xizmatlarga bo’lgan talablari yig’indisi** bozor talabi deyiladi.

Misol keltiramiz. Bir kg kartoshkani narxi 600 so’m bo’lsa, talab 5 kg bo’ladi (bir oy davomida). 500 so’m bo’lsa, 7 kg bo’ladi, 300 so’m bo’lsa, talab 10 kg chiqadi. Bozor talabi esa, 1 tonna, 2 tonna, 4 tonna va xaqozo bo’lishi mumkin.

Mahsulot narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o’zgarishi o’rtasida bo’ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog’liqlik **talab qonuni** deyiladi.

Talab miqdori va hajmi faqat narxga bog’liq bo’lib qolmasdan, bir qator omillar ham ta‘sir qiladi:

1. Iste‘molchilarning didi, ya‘ni tovarlar va xizmatlarni sotib olishga yoki olmaslikka moyilligi yoki moyil emasligidir.
2. Bozor iste‘molchilarning soni.
3. Iste‘molchilarning daromadlari
4. Bir-biriga bog’liq tovarlarning narxi
5. Kelajakda narx va daromadlarning o’zgarishi ehtimoli.

Ana shu omillar o’zgarishi talab hajmining o’zgarishiga qanday ta‘sir ko’rsatishga harakat qilamiz:

1. Biron-bir tovarga iste‘molchining didida ijobiy o’zgarish roy bersa, narxning tegishli darajasida unga bo’lgan talab ortadi va aksincha bo’ladi.

2. Bozorda iste‘molchilar soni ko’paysa, talab ortadi, iste‘molchilarning soni kamaysa talab qisqaradi.

Masalan, aloqa vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini, undagi qimmatli qog’ozlarning oldi-sotdi jarayonlarida ishtirok etuvchilar sonini mislsiz kamaytiradi hamda aktsiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga bo’lgan talabning o’sishiga olib keladi. Tug’ilish darajasining pasayishi bolalar bog’chasi va maktabga bo’lgan talabni kamaytiradi.

3. Pul daromadi o’zgarishining talab hajmiga ta‘siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Daromad yuqori bo’lsa, iste‘molchilar yuqori sifatli tovarlarni xarid qiladilar va aksincha. Masalan, non, kartoshka o’rnida go’sht, asal va sut maxsulotlari xarid qilinadi.

Daromadning o’zgarishi bilan talab miqdori to’g’ri bog’liqlikda o’zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi. Daromadlar o’zgarishi bilan talab miqdori teskari bog’liqlikda o’zgaradigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi.

Iste‘molchilar daromadi va ular tomonidan sotib olinadigan tovarlar miqdori o’rtasidagi bog’liqlik nemis iqtisodchisi va statisti Ernst Engel (1821-1896) tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shunga ko’ra, iste‘molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo’lgan tovarlar miqdori o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik **Engel qonuni** deyiladi. Haqiqatan ham, aholi daromadlari o’sib borishi bilan tovarlar ko’proq xarid qilinadi, daromadlar pasaysa (kamaysa) xarid qilish ham pasayadi.

Past toifali tovarlar uchun Engel egri chizig'i pasayuvchi ko'rinishda bo'lib, daromadlar oshib borishi bilan iste'molchilar ularni kamroq miqdorda sotib oladilar. Agar tovarning iste'moli daromad darajasiga bog'liq bo'lmasa, u xolda Engel egri chizig'i tik holda bo'ladi.




4. O'zaro bog'liq tovarlar narxi o'zgarishining talabga ta'sirini o'rganishda ularning 2 guruhga ajratish maqsadida muvofiq bo'ladi:

1) o'zaro bir-birini almashtiruvchi yoki o'rinbosar tovarlar;

2) o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlar.

Masalan, sariyog' narxining oshishi margaringa bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Agar avtomobilning narxi oshsa benzindan bo'lgan talab qisqaradi va aksincha bo'ladi.

5. Kelgusida iste'molchi daromadlari, tovar narxi o'zgarishining kutilishi va tovarlar miqdorining yetarli bo'lishi yoki bo'lmasligi kabi omillar talab hajmining o'zgartirishi mumkin. Kelgusida narxning nisbatan oshishining kutilishi, iste'molchi jooriy talabining oshishiga olib keladi va aksincha bo'lishi mumkin.

### *2-savol. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. Taklif qonuni.*

Bozor narxlarining amaldagi darajasida ma'lum davr oralig'ida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan tovarlar va xizmatlarning belgilangan miqdorini bozorga chiqarilishi **taklif** deyiladi.

Bozor narxining o'zgarishi bilan taklif ham o'zgaradi. Taklif narxlarning turli darajasida qancha miqdordagi mahsulotning sotishga chiqarilishini bildiradi. Masalan, 1 kg kartoshka 450 so'm bo'lsa, bir oy davomida uning yakka taklifi miqdori 60 kg bo'ladi, 1 kg 300 so'm bo'lsa, 50 kg taklif bo'ladi. Bir oy davomida uning bozor taklifi miqdori quyidagi bo'ladi: (tonna) 350 – 6,0; 300 – 5,0; 200 – 2,0 va 150 – 1,0 tn taklif qilinadi.

Narxning o'zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi **taklif qonuni** deyiladi.

Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga narxdan tashqari boshqa bir qator omillar ham ta'sir qiladi:

1. Resurslarning narxi;
2, Ishlab chiqarish texnologiyasi;
3. Soliq va subsidiyalar;
4. Boshqa tovarlarning narxi;
5. Narx o'zgarishining kutilishi;
6. Bozordagi sotuvchilarning soni;
7, Xaridorlarning daromadlari.

Bu omillarni har birini tushuntirishga harakat qilamiz:

- resurslarga sarf qilinadigan xarajatlar bilan taklif o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxi pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Natijada taklif qilinadigan

tovarlar va xizmatlar ko'payadi va aksincha bo'ladi. Masalan, mineral o'g'itlar narxini oshib borishi g'alla taklifini kamaytiradi.

- texnologiyalarni takomillashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Masalan, paxta zararkunandalariga qarshi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini oshiradi, taklifni ko'payadi.

- ko'pchilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.

- boshqa tovarlar narxlarining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qoy go'shti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qoy go'shti taklifini oshiradi.

- kelgusida mahsulot narxining o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berish xohishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.

- tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Taklif hajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va tansport-tashish imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdan-kam o'zgaruvchan bo'ladi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi (renta) qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi.

Ijodiy kasb soha xodimlarining (masaln, olimlar, shoirdar, yozuvchilar, musavvirlar va boshqalar) mehnat mahsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham noo'zgaruvchan bo'ladi.

### *3-savol. Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati*.

Talab bilan taklif miqdorlari bir-birlari bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi va nisbatlar o'zgarib turadi. Ba'zan talab miqdori taklif miqdoridan oshib ketib, narx ko'tarilsa, ayrim paytda taklif miqdori talab miqdoridan oshib ketib, narx pasayib qoladi.

Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat **bozor muvozanati** deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi.

Talab va taklif tushunchalari tahlili, sotuvchi va xaridorlar manfaatlari mos kelishini qarab chiqish imkonini berdi, ular o'rtasidagi mos kelishlik o'z ifodasini **muvozanatli narx**da topadi.

Talab narxga qandaydir darajada egiluvchan bo'ladi. Masalan, narxning bir foizga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodaluvchi ko'rsatkich talabning narx boyicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi.

**Talabning narx boyicha egiluvchanligi (Et)** darajasi quyidagi formula boyicha hisoblanadi: $Et = \Delta Q / \Delta P$ (1);

Bu yerda: Et - talabning egiluvchanligi; $\Delta Q$ – talab miqdorining foizli o'zgarishi; $\Delta P$- narxlarning foizli o'zgarishi.

**Talab egiluvchanligini belgilab beruvchi bir kator omillar** mavjud bo'ladi, ularga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulotning o'rnini bosuvchanligi. Iste'molchiga biror mahsulotning o'rnini bosuvchi boshqa mahsulotlar ko'proq tavsiya qilinsa, unga talab shuncha egiluvchan bo'ladi. Masalan, sariyog' bilan margarin, mol go'shti bilan qoy go'shti va haqozo.

2. Mahsulot qiymati (narx)ning iste'molchi daromadidagi salmog'i. Iste'molchi daromadida mahsulotlar narxi qanchalik katta o'rinni egallasa, unga talab shuncha yuqori bo'ladi. Masalan, daftar yoki qalam narxining 10 fozga o'sishi bir necha so'mni tashkil qiladi va bu talab bildirgan mahsulot miqdorida juda kam o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga,

avtomobil yeki uy narxining 10 foizga o’sishi mos ravishda 0,5 yoki 1,5 mln so’mni tashkil qiladi. Narxlarning bunday oshishi juda ko’p oilalar bir necha yillik daromadining katta qismini tashkil qiladi va aytish mumkinki, bu sotib olinadigan mahsulot miqdorini sezilarli ravishda kamaytiradi.

3. Mahsulotlarning iste‘mol xususiyatlari. Zeb-ziynat buyumlariga talab egiluvchan bo’ladi, hayotiy zarur buyumlarga esa talab noegiluvchandir. Masalan, non va elektr energiyasini iste‘mol qilishning kesin kamayishiga olib kelmaydi, lekin zeb-ziynat mahsulotlarini (buyumlarining) narxi oshganda, ularni iste‘mol qilishni to’xtatish mumkin.

4. Vaqt omili. Mahsulotlar narxi to’g’risida qaror qabul qilish vaqt oralig’i qancha uzoq bo’lsa, mahsulotga talab shuncha egiluvchan bo’ladi. Masalan, agar mol go’shtining narxi 10 foizga ko’tarilsa, iste‘molchi uni xarid qilishni birdaniga qisqartirmasligi mumkin. Lekin bir qancha vaqt o’tishi bilan iste‘molchi o’zining moyilligini tovuq go’shti yoki baliqqa o’tkazishi mumkin.

Daromad boyicha talab egiluvchanligi ham mavjud. Daromad ko’payishi bilan tovar va xizmatlarga bo’lgan talab ham oshib boradi, daromad talabga ta‘sir etadi. Uni aniqlash uchun daromad boyicha talab egiluvchanligi ko’rsatkichidan foydalaniladi va quyidagi formula bilan aniqlanadi: $Et = \Delta Q / \Delta D$ (2);

Iste‘molchi daromadning 1 foizga o’zgarishi talabning necha foizga o’zgarishini **ifodaluvchi ko’rsatkich** talabning daromad boyicha egiluvchanligi ko’rsatkichi deyiladi. 2 formulada Et – talabning egiluvchanligi; ΔQ – talab miqdorining foizli o’zgarishi; ΔD – daromadning foizli o’zgarishini bildiradi.

Taklif hajmiga ta‘sir qiluvchi boshqa omillar o’zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o’zgarishi taklifning necha foizga o’zgarishini ifodalovchi ko’rsatkich **taklifning narx boyicha egiluvchanligi ko’rsatkichi** deyiladi yoki buni taklifning egiluvchanligi deb ham ataladi. Taklifning narx boyicha egiluvchanligi:

$Etf = \Delta Q / \Delta P$(3);

Bu yerda: Etf – taklifning egiluvchanligi; ΔQ - taklif miqdorining foizli o’zgarishi; ΔP- narxlarning foizli o’zgarishi.

Taklif egiluvchanligiga ta‘sir ko’rsatuvchi muhim omil, mahsulotga narxning mavjud o’zgarishini hisobga olish uchun zarur bo’lgan vaqt oralig’i hisoblanadi.

## *4-savol. Iste‘molchi hatti-harakati nazariyasi*

Hozirgi kunda bozor talabini shakllanishi va namoyon bo’lishi iste‘molchining hatti-harakati orqali tushuntirilmoqda va G’arb adabiyotlarida mavjud bo’lib kelgan turli nazariyalardan foydalanib, iste‘molchi hatti-harakati nazariyasi alohida yo’nalish sifatida bayon etilmoqda.

Iste‘molchining bozordagi hatti-harakati so’nggi qo’shilgan naflilik nazariyasi hamda iste‘molchi tanlovi nazariyasi orqali izohlanadi. Agar naflilikka iste‘molchi o’lchami bilan qaralsa, u iste‘molchining biron-bir ne‘matni iste‘mol qilishdan olinadigan qoniqishni anglatadi.

Iste‘molchi tomonidan o’zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi **iste‘molchining afzal ko’rishi** deyiladi.

**Naflilik funktsiyasi** ma‘lum miqdordagi tovarlarga boshqa bir miqdordagi tovarlarni taqqoslashni bildiradi.

**So’nggi qo’shilgan naflilik** muayyan ne‘matning navbatdagi birligini iste‘mol qilishdan olingan qo’shimcha naflilikdir. Iste‘molchi tovarlarning turli to’plamini xarid qilishda doimo naflilikni maksimallashtirish qoidasiga amal qiladi. Bu qoidaning mazmuni quyidagicha bayon etiladi: iste‘molchi o’zining daromadini shunday sarflashi kerakki, daromad to’liq sarflangan holda tovarni xarid qilishda olingan so’nggi qo’shilgan naflilikning tovar narxiga nisbatan barcha tovarlar uchun bir xil qiymatga ega bo’lishi lozim. Ya‘ni:

$MVx / Px = MVy / Py$ (4);

Bu yerda: MVx va MVy – tovarlarning so’nggi qo’shilgan nafliligi; P – ularning narxini bildiradi.

Bu qoida iste‘molchining muvozanatli holatini ifodalaydi.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Talab** – iste‘molchi ma‘lum vaqtda narxlarning har bir darajasida sotib olishga qodir bo’lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridir.

**Talab egri chizig’i** – narx va talabning hajmi o’rtasidagi teskari bog’liqlikni ko’rsatadigan tushunchadir.

**Talab qonuni** – tovarlar narxi bilan uning sotib olinadigan miqdori o’rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog’liqlikni ifodalaydi.

**Taklif** – ishlab chiqaruvchi ma‘lum vaqtda ishlab chiqarishga qodir bo’lgan, narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar miqdoridir.

**Taklif egri chizig’i** – narx va taklifning hajmi o’rtasidagi to’g’ridan-to’g’ri bog’liqlikning grafikdagi tasviridir.

**Taklif qonuni** – narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o’rtasidagi bevosita yoki to’g’ridan-to’g’ri bog’liqlikni ifodalaydi.

**Taklif (talab)ning egiluvchanligi** – narx bir foiz o’zgarganda talab necha foiz o’zgarishini ko’rsatadi. Bu talabning narx boyicha o’zgaruvchanligi ham deyiladi.

**Daromad samarasi** – narx pasayganda iste‘molchi pul daromadlarining sotib olish layoqatining ortishidir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Talab va talab qonunini tushuntirib bering.
2. Talabga qanday omillar ta‘sir ko’rsatadi?
3. Taklif va taklif qonunini tushuntirib bering.
4. Taklifga qanday omillar ta‘sir qiladi**?**

## 8-MAVZU. RAQOBAT VA NARXNING ShaKLLANISHI

***Kirish***

Ushbu mavzuda bozor iqtisodiyotining rivojlanishida raqobat va narxning o’rni beqiyos bo’lganligi sababli, raqobat va narxning shakllanishi tamoyillari, iqtisodiy mazmuni, vazifalari va turlari o’rganiladi. Shundan so’ng raqobat va narxga ta‘sir etuvchi omillar, davlatning narx siyosati va uning O’zbekiston iqtisodiyotidagi o’ziga xos xususiyatlari atroflicha ko’rib chiqiladi.

***Reja:***

1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari
2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari
3. O’zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik
4. Narxning mazmuni, vazifalari va turlari
5. Narx siyosati va uning O’zbekistonda amalga oshirilishi xususiyatlari

### *1-savol. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari*

Bozor va bozor iqtisodiyotini tartiblashtirish va uni boshqarishda talab, taklif, narx va raqobat usullari qo’llaniladi. Raqobat ko’p qirrali iqtisodiy xodisa bo’lib, u bozorning barcha sub‘ektlari o’rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

**Raqobat** – bozor sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarining to’qnashuvidan iborat bo’lib, ular o’rtasidagi yuqori foyda va ko’proq naflilikka ega bo’lish uchun kurashni anglatadi. Raqobatning mazmuni, uning vazifalarini ko’rib chiqish orqali yanada kengroq namoyon bo’ladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida **raqobatning quyidagi asosiy vazifalari**ni ajratib ko’rsatish mumkin:

1. Tartibga solish vazifasi;
2. Resurslarni joylashtirish vazifasi;

3. Innovatsion vazifa;
4. Moslashtirish vazifasi;
5. Taqsimlash vazifasi;
6. Nazorat qilish vazifasi.

Raqobat ishtirokchilari quyidagi **sub‘ektlar**dan iborat bo’ladi:
1. Ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar o’rtasida;
2. Iste‘molchi va xaridorlar o’rtasid*a*.

Ularning **asosiy maqsadlari** ko’proq foyda olish va ko’proq naflilikka erishishdir. Buni chizma ko’rinishda ham tasvirlash mumkin.




Raqobatning **tartibga solish vazifasi** - bu ishlab chiqarishni talabga (iste‘mol) muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta‘sir o’tkazishdan iborat. Talab ko’p bo’lsa, taklif ko’payadi va narxga ham bog’liq bo’ladi, iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning **resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini ular eng ko’p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi.

Raqobatning **innovatsion vazifasi** – fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub‘ektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli kurinishdagi yangiliklarning joriy etilishini bildiradi.

Raqobatning **taqsimlash vazifasi** – ishlab chiqarilgan ne‘matlar yalpi hajmi (YaiM)ning iste‘molchilar o’rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta‘sir o’tkazadi.

Raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozordagi ba‘zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o’rnatishiga yo’l qoymaslikka yo’naltiriladi.

**Raqobatning to’rtta shakli** mavjud:
1. Erkin raqobat;
2. Monopolistik raqobat;
3. Monopoliya;
4. Oligopoliyadir.

**Erkin raqobat** sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko’p sonli korxonalar mavjud bo’ladi. Korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi, chunki korxonalar soni ko’p bo’lganligi sababli umumiy ishlab chiqarish hajmi unga katta bo’lmaydi.

**Sof** monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo’lishi sabali, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi.

**Monopolistik raqobat** o’z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning unlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar.

**Oligopoliya** tarmoqda u qadar ko’p bo’lmagan korxonalarning mavjud bo’lishi va hukmronlik qilishidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan ham sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi. Masalan, po’lat, mis, alyuminiy, qo’rg’oshin, temir sanoatning bir turdagi mahsulotlaridir, iste‘molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektrbuyumlarini ishlab chiqaruvchilar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

**Turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o’rtasida mavjud bo’lishiga ko’ra quyidagi raqobat turlar**i mavjuddir:

1) monopllashmagan korxonalar o’rtasidagi raqobat;

2) monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o’rtasidagi raqobat;

3) turli monopoliyalar o’rtasidagi raqobat;

4) monopolistik birlashmalar o’rtasidagi raqobat.

**O’z miqyosiga ko’ra raqobat ikki turga** bo’linadi:

1. Tarmoq ichidagi raqobat
2. Tarmoqlararo raqobat.

**Tarmoqlar ichidagi raqobat** ishlab chiqarish va sotishning qo’layroq sharoitiga ega bo’lish, qo’shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o’rtasida boradi. Korxonalarning (tarmoqlar ichida) har bir tarmoqda texnika bilan ta‘minlash darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo’lganligi sababli, shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir hil bo’lmaydi.

**Tarmoq ichidagi raqobat** tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o’rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo’lgan korxonalar qo’shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o’zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo’qotadilar va zarar ko’radilar.

**Tarmoqlararo raqobat** turli tarmoqlar korxonalari o’rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Masalan, sanoat, qishloq xo’jaligi va qurilish sohalarida raqobatda qaysi tarmoqda foyda ko’p bo’lsa, kapital shu tarmoqda ko’chiriladi, keyin esa boshqasiga qaytadi, chunki shu tarmoq mahsulotlariga talab ko’payadi. Bu kurash teng kapital uchun teng foyda olishiga intilishini ta‘minlaydi.

Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o’rtacha foyda normasiga “baravarlashtiradi”.

**Raqobat kurashining ikki usuli** farqlanadi: narx vositadagi raqobat va narxsiz raqobat.

**Narx vositasida** raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli bo’lib, ishlab chiqaruvchilarning o’z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – **demping** – narxlarni qo’llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o’zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo’lgan narxlarda sotadi.

**Narxsiz raqobat** shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashning asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko’rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obru-e‘tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat usullari ichida **marketing** muhim ahamiyatga ega bo’lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat.

### *2-savol. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari*

“**Monopoliya**” atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya‘ni, grekcha “monos” – yagona, bitta, va “poleo” - sotaman) tarkib topadi, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqoladi.

**Monopoliya** – *monopol* yuqori narxlarni o’rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari bo’lib, **monopoliyalarning vujudga kelishining moddiy asosi** ishlab chiqarishning to’planishi hisoblanadi.

**Ishlab chiqarishning to'planishi** ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi. Asosiy sabab – olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi, foydaning (qo'shimcha mahsulot) bir qismi kapitallashtirib boriladi.

**Kapitalning to'planishi –** bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Ya'ni, korxonadagi ishchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xom ashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. **Kapitalning markazlashuvi** – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aktsiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.

**Monopoliyalarning turlari** quyidagilardan iborat:

**1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra**:

a) sof monopoliya;

b) oligopoliya;

v) monopoliY.

**Sof monopoliya** – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakka hukmronlik holati hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida "O'zbekiston havo yo'llari" DAK, "O'zbekiston temir yo'llari"DAK, toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi shular jumlasidandir.

**Oligopoliya** – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist–ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda tsement (asosan, Bekobod, Kuvasay, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Shargun) va Boysun (To'la) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

**Monopoliya** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakka hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga "O'zDEUavto" korxonasi yaqqol misol bo'la oladi.

**2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra**:

a) tabiiy monopoliya;

b) legal monopoliya;

v) sun'iy monopoliY.

**Tabiiy monopoliya** – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talbni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaradorlik amalga oshiruvchi tovar bozorining holatidir. Bunda ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlari kamayib boradi.

**Legal (qonuniy) monopoliya** – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holatdan iborat. Ular tarkibiga himoya qiluvchi qoyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

**1) Patent tizimi** – bu ixtirochi yoki mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi.

**2) Mualliflik huquqi** – ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilari yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

**3) Tovar belgilari –** bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari nomi va haqozo.

**Sun'iy monopoliya** – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarining shartli nomi. Sun'iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsortsium, kontsern kabi aniq shakllarda namoyon bo'ladi.

**Kartel** – bitta sanoat tarmoqdagi bir necha korxonalarning uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi,

yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya‘ni maxsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo’lib olinishi va h.q. boyicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

**Sindikat** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarning o’zida saqlanib qolgan holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

**Trest** – ishlab chiarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta‘minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko’rinishdagi birlashmasi.

**Konsortsium** – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosi loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qoyish).

**Kontsern** – rasmiy jihatdan mustaqil bo’lgan, ko’p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank turli soha korxonalari)ning majmuisi o’z ichiga oluvchi birlashma. Bunda bosh tashkilotqolgan ishtirokchilar faoliyati ustidan moliyaviy nazorat olib boradi. Hozir kontsernlar keng tarqalgan tashkilotdir.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta‘sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning **ijobiy tomoni** asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo’ladi:

1. Monopoliya ma‘lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi.

2. Monopolist bo’lmagan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalarda nisabtan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko’proq rag’bat va imkoniyat mavjud bo’ladi.

Monopoliyaning **salbiy tomoni** sifatida qoyidagi jihatlarni ko’rsatish mumkin:

1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi;
2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi;
3) iqtisodiy turg’unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi;
4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to’sib qoyilishi.

Bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo’llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etadi.

### *3-savol. O’zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik*

Raqobatning shakllanishi va amal qilishi ma‘lum shart-sharoitlarni talab qiladi. Bu esa faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo’lishi mumkin. Respublikada sog’lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy sub‘ektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblandi. Prezident I. A. Karimov ta‘kidlaganadek, bugungi kunda “...kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish ob‘ektiv shart qilib qoymoqda. Bu borada ham juda ko’p yechilmagan muammolar bor. Ya‘ni, eski ma‘muriy-taqsimot tizimi koliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini yanada cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta‘minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to’loqonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo’lidagi mavjud g’ov-to’siqlarini bartaraf etishimiz zarur.”┐

Shu maqsadda O’zbekistonda “Monopol faoliyatini cheklash to’g’risida”gi Qonun (1992 yil, avgust) kuchga kiritildi. Mazkur qonunga ko’ra, bozorda ataylab, taqchilik hosil qilish, raqobatchilarning bozorga kirib bozoriga to’sqinlik qilish, raqobatning g’irrom usullarini qo’llash man etiladi. Qonunni buzuvchilar raqibiga yetkazgan zararni qoplashladi, jarima to’lashlari, g’irramlik bilan olgan foydadan mahrum etilishi shart.

Iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi amaliyot sohasidagi ahamiyatli o’zgarishlar tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirishni taqfozo etdi. Shunga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996 yil 27 dekabrda “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to’g’risida”gi yangi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun monopolistik faoliyat va g’irron raqobatning oldini olish, uni cheklash, to’xtatishning tashkiliy va huquqiy asoslari belgilab berib, respublikaning tovar bozorlarida raqobat munosabatlarini shakllashtirish va samarali amal qilishga qaratilgan. Qonunda asosan ikkita muhim yo’nalishni hal etish, **birinchidan, monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni qo’llash, bozorda ularning hukmronligini cheklash, ikkinchidan, monopoliyadan chiqarish va sog’lom raqobat muhitni shakllantirish belgilab qoyilgan**.

Hozirgi davrda respublikada agar korxona ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi mahsulotning 35 foizdan ortiq bo’lsa, bu korxona monopolistik korxona sifatida Davlat reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlarni guruhi uchun bunday mezon darajasi 20 foiz deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar royxatiga kirgan korxona (tarmoq)larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat **bir qator usullardan foydalanadi**:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellikni chegarasini belgilab qoyishi.

2. O’z monopol mavqeini suiste‘mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo’lib tanlash yoki maydalashtirish.

Bu usul VMning (1994 yil 18 iyuldagi 366-sonli) qarori bilan tasdiqlangan “Ob‘ektlarning xo’jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to’g’risidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi. O’zRning “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida” Qonuni (1996 yil, aprel) asosida g’irrom raqobatga, shu jumladan respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo’l qoymaydigan mexanizmini yaratishga ham alohida e‘tibor beriladi.

### *4-savol. Narxning mazmuni, vazifalari va turlari*

Tovarlar qiymati va ularning nafligi o’zlariniga namoyon bo’lishini narxda topadi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, naflilik esa iste‘molchilarni rag’batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi. Tovarlarni xarid qilinishi jamiyat uchun nafliligini va shu bilan birga ijtimoiy qiymatni ham tan olishni bildiradi. Narx o’zida faqatgina naflilik yoki sarflarning birini emas, alki harikkalasining bir vaqtda mavjudligini va ularning ma‘lum miqdorli pul ko’rinishda ifoda etadi.

Tovarlarning ikki xil xususiyatlarning narxdagi ifodasini chizmada tasvirlash mumkin




Tovardagi ikki xususiyat birdaniga tan olmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotdi sodir bo’lmaydi, chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafligi (iste‘mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi.

Tovar egasi o’z tovari uchun ketgan sarflarni qoplab, ma‘lum darajada, iloji boricha ko’proq foyda olishni ta‘minlashi mumkin o’lgan qiymatni pul shaklida o’zlashtirishga intilsa, xaridor iloji boricha sarf qilayotgan pulning har bir birligiga ko’proq naflilikka (iste‘mol qiymatiga) ega bo’lishga harakat qiladi. Ularning manfaatlari to’g’ri kelgan nuqtada, darajada narx o’rnatilib, tovar pul almashuvi, oldi-sotdi sodir bo’ladi.

**Narx** – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligini puldagi ifodasidir. Narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo’lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy naflilik (iste‘mol qiymat) o’z ifodasini topadi.

Tovardagi ikki xil xususiyatni ifodalovchi narxlarning mahsulot hajmini hisoblashda qo’llanishi




Narxning mazmunini to’laroq tushunishda, uning darajasiga ta‘sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiylari qoyidagilardan iborat:

1. Qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari;
2. Tovarning naflilik darajasi;
3. Mazkur tovarga talab va taklif nisbati;
4. Raqobat holati;
5. Davlatning iqtisodiy siyosati;
6. Pulning qadr-qiymati.

Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo’lib xizmat qiladi.

Narxning iqtisodiy mazmuni, uning vazifalari ko’rib chiqilganda yanada yaqqol namoyon bo’ladi. Narx qoyidagi **asosiy vazifalar**ni bajaradi:

**1. Muvozanatlikni ta‘minlash vazifasi**. Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta‘sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

**2. Qiymat va naflilikni o’lchash vazifasi**. Narx - qiymavt va naflilikning puldagi ifodasidir. Hisob-kitob uchun joriy va qiyosiy narxlar qo’llaniladi. Joriy narxlar amaldagi narxlar bo’lib, ular yordamida yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblanadi. Qiyosiy narxlarda ma‘lum yil asos qilib olinib (bazis yil) ishlab chiqarishning natijalari shu narxda hisoblanadi va boshqa yillar bilan taqqoslanadi.

**3. Tartibga solish vazifasi**. Bozor holati (kon‘yukturasi) talab va taklif holda ularning nisbatiga bog’liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirish, aksincha hol esa tovar ortiqchasini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi.

**4. Raqobat vositasi vazifasi**. Narx raqobat kurashining eng muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar o’z raqobatlarini yengish uchun narxni pasaytirish usulidan foydalanishlari mumkin. Raqobatda narx o’zgartirilib turiladi.

**5. Ijtimoiy himoya vazifasi**. Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy

dotatsiyalashgan narxlar boyicha sotilganda bajariladi. Bunda ular davlat byudjeti va turli xayriya mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlanadi. Bozor iqtisodiyotida narxlar tizimni tashkil qilinadi.

Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari **narx tizimi**ni tashkil qiladi. Narxlar tizimiga quyidagi narxlar kiradi:

**1. Ulgurji narxlar** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la kutarasiga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va ta'minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma'lum miqdorda foyda ko'rishini ta'minlashi zarur. Ulgurji narxlar tovar birjalari va savdo uylarida ham qo'llaniladi.

**2. Shartnoma narxlar** – bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlardir. Mazkur narxlar ham milliy va ham xalqaro bozorda qo'llaniladi. Xalqaro bozorda qo'llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yakin turadi. Shartnoma narxlar odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o'zgarmaydi.

**3. Chakana narxlar**. Bu narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladi. Chakana narxga tovarning ulgurji ( s + v + p) narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ulardan olinadigan foydasi kiradi: (Fx+ p )dir. Chn = s + v + p+ Fx+ p ko'rinishda bo'ladi. Firma xarajatlari – bu savdodagi unumli xarajatlari va savdo foydasidan iborat bo'ladi. Chakana narxlar tovarlarga bo'lgan talab va taklif bog'lovchi rolini oynaydi. Chakana narx talab va taklifning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi.

4. **Chegaralangan narxlar**da davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi, ular shu doirada o'zgarishi mumkin. Bunday narxlar yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi.

5. **Dotatsiyalangan narx** – bu davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlardir. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

6. **Demping narx**. Bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

7. **Nufuzli narx** – bu sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish firmalar monopol vaziyat hosil qiladigan narxdir. Aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar yuqori narxlarda sotilishi nufuzli narxdan iborat bo'ladi. Masalan, dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, ohirgi nusxadagi kiyimlar kiyish yangi modeldagi avtomashinada yurish – martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Bu tovarlar va xizmatlarni xarid qilish qurbi nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi.

8. **Qat'iy (standart) va o'zgaruvchan narxlar**. Iste'mol qilinadigan shunday tovarlar ham borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarmasligini afzal ko'radi. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati tariflarni shunday narxlar hisoblanadi.

9. **Erkin bozor narxlari** – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir.

**Narx diapazoni** narxlar oralig'ining pudagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bu narxlardan tashqari, **bozor qo'lami hisobga olinganda** xududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar ham mavjud.

**Hududiy narx** faqat ma'lum xududiy bozorga xos bo'lib, u shu xudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi.

**Milliy bozor narxi** bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir.

**Milliy narx** mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafliligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi.

**Jahon bozori narxi** muayyan tovarga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida **narx nisbati** degan tushuncha bor, u **narx pariteti** deb ham yuritiladi.

### *5-savol. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi xususiyatlari*

**Narxlarni erkinlashtirish** – iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko'p jihatdan shu muammoning hal etilishiga bog'liq bo'ladi.

Narxlarni erkinlashtirish xom ashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, **narxlar quyidagi yo'llar bilan erkinlashtiradi**:

1) narxlarni birdaniga yoki "esankiratadigan" tarzda qoyib yuborish;

2) narxlarning o'sishini sun'iy ravishda to'xtatib qoyish;

3) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish.

O'zbekistonda iqtsodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi.

Shu yo'l bilan narxlarni **dastlabki bosqichi**da (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish – texnik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iiste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholining himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qoyildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning **keyingi bosqichda (1993 yil)** kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. Qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turinadigan narxlarda sotiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarning erkinlashtirishning **navbatdagi bosqichi (1994 yil oktabr-noyabr)** xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qoyib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi.

Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni bosqichma-bosqich (uch bosqichda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Narxlarni erkinlashtirish aholini ishonchli iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensatsiyalar maqsadidaga jamg'armalar tuzildi, ish haqi, pensiya va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam sur'atda oshirib borildi, bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Aholining muhtoj qismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

Bugungi kunda O'zbekiston bo'g'doy, un, paxta yog'i, meva-sabzavot, quruq mevalar va uzum, poliz mahsulotlari kabi o'ta zarur oziq-ovqat tovarlari bilan nafaqat o'z ichki ehtiyojlarini, balki ularni yurtimizdan tashqariga ham eksport qilmoqda.

***Asosiy tayanch tushunchalar***:

**Raqobat** – bozor sub'ektlari ijtimoiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

**Tarmoqlar ichidagi raqobat** – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tamoq korxonalari o'rtasida boruvchi kurash.

**Tarmoqlararo raqobat** – turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash.

**Monopoliya** – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

**Sof monopoliya** – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va, binobarin, foyda olishdagi yakka hukmronlik holati.

**Oligopoliya** – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.

**Monopolistik raqobat** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati.

**Monopsoniya** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakka hukmronlik holati.

**Tabiiy monopoliya** – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiruvchi tovar bozorining holati.

**Kartel** – bitta sanoat tarmoqdagi bir necha korxonalarining uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi,yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi boyicha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

**Sindikat** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi.

**Trest** – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishdagi birlashmasi.

**Konsortsium** – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qoyish).

**Kontsern** – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari)ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma.

**Narx** – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.

**Ulgurji narx** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar katta partiyalarda bir yo'la kutarasiga sotilganda qo'llashuvchi narx.

**Chakana narx** – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotilganda qo'llanuvchi narx.

**Dotatsiyalashgan narx** – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxdir.

**Demping narx** – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun foydalanuvchi narx.

**Nufuzli narx** – aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan tovarlarni sotishda qo'llanuvchi narx.

**Narx diapazoni** – narxlar oralig'idagi farqning puldagi ifodasidir.

**Erkin narx** – talab va taklif ta'sirida shakllanadigan bozor narxdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatning asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga mos belgilarini ko'rsating.
4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Raqobatlashuvning demping narxlarni qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
6. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat?
7. Monopoliyalarning qanday turlari mavjud?
8. Kapitalning to'planuvi (to'planishi) va markazlashuvi nima va ular o'rtasida qanday farq bor?
9. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.

10. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
11. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
12. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?
13. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering.
14. Narx asosiy turlarini aytib va tushuntirib bering.
15. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud?
16. Bu nazariyalarni afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.
17. Narx siyosati nima? O'zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?

## 9-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYatI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI

***Kirish***

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanib, inson omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, mazmuni, maqsadi va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida amal qiladigan shakllarini bayon etish va o'rganish juda muhimdir, chunki tadbirkorliksiz mukammal iqtisodiyotni yaratish qiyin bo'ladi. Shunday ekan ushbu mavzuda tadbirkorlik kapitalining mazmuni va uning harakati shakllari, kapital harakatida vujudga keladigan jarayonlar va namoyon bo'lishi, kapitalning aylanish tezligi va undan foydalanish samaradorligini oshirish kabi masalalar yoritiladi va tahlil etiladi.

***Reja*:**

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
3.Tadbirkorlik kapitali va uning harakat bosqichlari.
4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.
5. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish.

### *1-savol. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari*

Ilmiy-nazariy iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyatiga doir olimlarning fikrlari, mulohazalari mavjud bo'lib, ularda ko'pincha tadbirkorlik faoliyati va biznesni bir xil tushuncha sifatida talqin qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida ta'riflarinishicha "**Tadbirkorlik** (tadbirkorlik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir."1

**Tadbirkorlik** – bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish bilan bog'liq faoliyatdir. Biznes (inglizcha "ish va odam") esa unga nisbatan keng tushuncha bo'lib, umuman foyda olish nuqtai-nazaridan yuritiluvchi faoliyatdir.

**Tadbirkorlik faoliyati** – shakli va sohasidan qat'i nazar foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy foliyatdir, deyish mumkin. Tadbirkorlikka shart-sharoitlar zarur, shunda u rivojlanadi, uning asosida tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

**Birinchidan**, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning biron turini tanlash, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish, uni o'zgartirishga moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar boyicha ma'lum huquq va erkinliklar mavjud bo'lishi kerak.

**Ikkinchidan**, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqarilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik huquqiga ega bo'lishi kerak.

**Uchinchidan**, xo’jalik yuritish yo’lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyatini real ta‘minlaydigan ma‘lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoit yaratish zarur.

**To’rtinchidan**, tadbirkorlik mulkchilik va o’zlashtirish turli-tuman shakllari va o’zlashtirish sohalaridagi turli-tumanlikning o’zi ob‘ektiv hodisa bo’lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

**Beshinchidan,** yetarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma‘lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo’lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq boyicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo’lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Aytish mumkinki, ko’rsatib o’tilgan shart-sharoitlar mavjud bo’lsa tadbirkorlik shakllanadi va rivojlanadi.

### *2-savol. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari*

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha mamlakatlarda mukammal iqtisodiyotni yaratishda tadbirkorlik muhim faoliyat hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar jadal rivojlanib, bir-biriga qo’shilib ketishi sodir bo’lmoqdaIshlab chiqaruvchi kuchlardan jamoa, guruh, xususiy va shaxsiy maqsadlarda ishlatiladigan turlari mavjud. Shunga mos ravishda **tadbirkorlikning turli-tuman shakllari** mavjud:

a) davlat;
b) jamoa;
v) shaxsiy;
g) xususiy;
d) aralash va boshqa hosila shakllari rivojlanadi.

**Davlat korxonalari** uchta guruhga bo’lish mumkin:

1) Byudjet korxonalari;
2) Davlat ishlab chiqarish korxonalari;
3) Aralash korxonalar.

Huquqiy va xo’jalik mustaqilligiga ega bo’lmagan korxonalar **byudjet korxonalari**ga kiradi. Bu korxonalar davlatning ma‘muriy-boshqarish tizimiga kiradi va biron-bir vazirlik, mahkama yoki mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlariga bevosita boysunadi. Ular olgan foydasidan soliq to’lamaydi, barcha daromad va xarajatlar davlat byudjeti orqali o’tadi.

**Davlat ishlab chiqarish korxonalari** - bu korxonalarning ancha keng tarqalgan tashkiliy, huquqiy shaklidir. Ular alohidalashgan mol-mulkka ega bo’lib, xo’jalik faoliyati bilan birga davlat tomonidan belgilangan doirada boshqarish va tartibga solish vazifalarini ham bajaradi.

**Aralash kompaniyalar** – hissadorlik jamiyatlari va majburiyatlari cheklangan shirkatlar shaklida tashkil qilinib, aktsiyalari davlatga va xususiy omonatchilarga taaluqli bo’ladi. Ular qonun doirasida ish yuritadigan yuridik shaxslar siftaida ish yuritadilar. Ularga davlat tomonidan moliyaviy yordam va dotatsiyalar beriladi, chet el litsenziyalarini yengil shartlar bilan oladilar, davlat korxonalaridan xom ashyo va yarim narxlarda olish, ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun bozor bilan ta‘minlangan bo’ladilar.

Korxonalar xo’jalik jamiyatlari va shirkatlari, ishlab chiqarish kooperativlari, jamoa korxonalari, ijara korxonalari, xo’jalik birlashlamalari shaklida tuzilishi mumkin.

**Kooperativ tadbirkorlik** – jamoa tadbirkorlikning alohida shakli bo’lib, jamoa mulkiga asoslanadi va kooperatsiya a‘zolarining uning faoliyatida o’z mehnati bilan ishtirok etishini taqozo qiladi.

**Kooperativ mulkchilikning asosiy belgilari** bor:

a) ishlovchilar ishlab chiqarish vositalari bilan bevosita qo’shiladi;
b) kooperatsiya a‘zolarining ishlab chiqarish vositalaridan keng foydalanadi;
v) iqtisodiy jihatdan teng huquqlidir;
g) jamoa o’z-o’zini boshqaradi;

d) jamoani va shaxsiy manfaatlari uyg'unlashadi.

**Xususiy tadbirkorlik** alohida shaxs yoki korxona tomonidan xususiy tashabbus asosida tashkil qilinadi. Bunda mulk va ishlab chiqarish natijasida xususiy shaxslarga tegishli bo'lib, ishlab chiqarishni tashkil qilish yollanma mehnatga asoslanadi.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik** shaxsiy mulkka asoslanadi, ishlab chiqarishni tashkil qilish o'zi yoki olgan oila a'zolari mehnati asosida amalga oshiriladi. Odatda kichik magazin, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar, dehqon xo'jaliklari, xuddi shuningdek, huquqshunos, vrach, advokat, o'qituvchi kabi turli malakali mutaxassislar xizmati ko'rinishida tashkil qilingan tadbirkorlardir. Ularni egasi cheklanmagan ma'suliyatga ega bo'lib, faqat daromad solig'i to'laydilar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning muhim shakllaridan biri **hissadorlik (aktsionerlik) jamiyatlari**dir. Aktsiya chiqarish va uni erkin joylashtirish hissadorlik munosabatlarining muhim tomonlaridan birini tashkil qiladi.

**Aktsiya** – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir va korxonani boshqarish huquqini ham beradi.

Aktsiya tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi, u narxga egadir. Aktsiyada ifodalangan pul summasi uning **nominal qiymati** deyiladi. Aktsiyaning fond bozorida sotiladigan narxi **aktsiya kursi** deb atalib, u olinadigan dividend miqdoriga to'g'ri mutanosib, foiz miqdoriga esa teskari mutanosiblikda bo'ladi. Xaridor aktsiyani undan olinadigan daromadi bankka quyilgan puldan keladigan foizdan kam bo'lmagan taqdirdagina sotib oladi. Aktsiya kursi quyidagicha aniqlanadi:

$$AK = D / Fs \times 100\% \quad (1),$$

Bu yerda: AK – aktsiya kursi; D- dividend; Fs – ssuda foizi.

Ssuda foizi o'sganda aktsiya kursi tushadi. Agar dividend ssuda foiziga qaraganda yuqori darajada o'ssa, aktsiya kursi ko'tariladi. Hissadorlik jamiyatlari aktsiya bilan birga obligatsiya ham chiqaradi.

**Obligatsiya** – uning egasiga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qoyganligini tasdiqlaydi. Aktsiya egasi korxona mulkdori, obligatsiya egasi uning kreditori hisoblanadi. Undan tashqari, obligatsiya akitsyadan farq qilib, o'z egasiga yillik kafolatlangan daromad keltiradi, ammo hissadorlik jamiyati ishlarini hal qilishda ovoz berish huquqini bermaydi. Obligatsiyalar boyicha to'lanadigan daromad odatdagi ssuda foizi miqdoridan ortiq bo'lmaydi. Uning qiymati hissadorlik amiyati tomonidan ma'lum muddat o'tishi bilan to'lanadi. Aktsiyaga qoyilgan mablag' obligatsiyaga joylashtirilgandan farq qilib, aktsioner talabi boyicha qaytarilishi mumkin emas va faqat sotish orqali qoplanadi.

Hissadorlik jamiyatining tashkil topishi ta'sischilik foydasi kabi daromad turining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. **Ta'sischilik foydasi** sotilgan aktsiyalar summasi va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qoyilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan iborat. Hissadorlik korxonasida ta'sischilik foydasi bilan bir qatorda dividend kabi daromad turi shakllanadi.

**Dividend** (lotincha dividendus – bo'linishga tegishli) – aktsiya egasiga to'lanadigan daromad. Dividend vositasida aktsiya egasi qimmatli qog'ozning shu turiga qoyilgan pul mablag'lari (kapital) ning tegishli qismiga o'zining mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan royobga chiqaradi. Dividend orqali faqat hissadorlik jamiyati olgan foydaning bir qismi taqsimlanadi, qolgan qismi jamg'arishga, soliq to'lashga ketadi. Dividend miqori olinadigan foyda va chiqarilgan aktsiya miqdoriga bog'liq bo'lib, odatda ssuda foizlari yuqori bo'ladi.

### *3-savol. Tadbirkorlik kapitali va uning harakat bosqichlari*

Tadbirkor ixtiyorida bo'lib, foyda olish maqsadida ishlatiladigan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari birgalikda **tadbirkorlik kapitali** deb ataladi. Tadbirkorlik kapitali doimo ishlab chiqarish va muomala jarayonida harakatda bo'ladi. Bu harakatda kapital bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi. Ishlab chiqarishga sarflanadigan har fanday sarmoya o'z harakatini **pul shakli**dan boshlaydi. Pul (P) tegishli resurslar bozoridan zarur tovarlar, ya'ni

ishlab chiqarish vositalari (Iv) va ishchi kuchi (Ik) sotib olishga sarflanadi (avanslanadi). Sotib olingan tovarlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslardir

$$P \rightarrow T \begin{matrix} \nearrow Iv \\ \searrow Ik \end{matrix} \qquad (1)$$

Pul ko'rinishidagi kapital (mablag'lar) **unumli kapital shakli**ga aylanadi. Kapital harakatdagi ikkinchi bosqich ishlab chiqarish (Ich) jarayoni hisoblanib, uning natijasida **unumli tovar (T)** shaklini oladi. Bu yerda hosil qilingan tovarlar qiymati ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchiga sarflangan qiymatdan ortiq bo'ladi, ya'ni

$$T \begin{matrix} \nearrow Iv \\ \searrow Ik \end{matrix} \ldots\ldots IT' \quad (2)$$

Bu bosqichda hosil qilingan tovarlar qiymatida ishlab chiqarish vositalarining ko'chgan qiymati, ishchi kuchi qiymatining ekvivalenti va ular tomonidan vujudga keltirilgan qo'shimcha mahsulot qiymati ham mavjud bo'ladi.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish sodir bo'ladi. Ya'ni, $T' \rightarrow P'$ *(3)* aylanadi.

$T' = T + \Delta t; \; P' = P + \Delta n$ bo'ladi.

Tovarlarni sotishdan tushgan pul kapitali yana ishlab chiqarish omillari sotib olish uchun sarflanadi va jarayon takrorlanaveradi.

Tadbirkorlik kapitalining o'z harakatidagi uch bosqichni izchil bosib o'tib, muntazam ravishda bir shakldan boshqa bir shaklga aylanib, yana dastlabki shakliga qaytib kelishi uning **doiraviy aylanishi** deyiladi. Doiraviy aylanishning birinchi va uchinchi bosqichlari muomala sohasida, ya'ni resurslar va tovarlar bozorida, ikkinchi bosqich esa ishlab chiqarishda roy beradi. Formuladagi (.....) ishlab chiqarish jarayoni va muomala sohasi o'rtasidagi oraliqlar bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Kapital **birinchi bosqichda pul shakli**da, **ikkinchi bosqichda unumli yoki ishlab chiqarish omillari** va **uchinchi bosqichda tovar shakli**da yuzaga chiqadi. Kapital doiraviy aylanish jarayonida uning har bir shakli alohida vazifani bajaradi va shunga ko'ra ular kapitalning harakati shakllari deyiladi.

Kapital pul shaklining harakati iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishda iborat. Bu jarayonda pul avanslanib, unga ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib olishga sarflanadi. Kapital unumli shaklining harakati tovarlar ishlab chiqarish va xuddi shu jarayonda qiymatning o'sishiga erishishni ta'minlash sodir bo'ladi. Kapital tovar shaklining harakati orqali ishlab chiqarilgan tovarlar qiymatining narx shaklida royobga chiqishi sodir bo'ladi va o'sgan qiymatning pul aylanishi bilan tadbirkorning foyda olish maqsadi ta'minlanadi. Tadbirkorlik kapitalining har uchala shakli bir vaqtda o'z doiraviy aylanishiga ega bo'ladi.

Tadbirkorlik kapitali pul shaklining doiraviy aylanishi:

$$P \rightarrow T \begin{matrix} \nearrow Iv \\ \searrow Ik \end{matrix} \ldots.I\ldots.T' \rightarrow P' \quad (4)$$

Unumli kapitalning doiraviy aylanishi:

$$T \begin{matrix} \nearrow Iv \\ \searrow Ik \end{matrix} \ldots.I\ldots.T' \rightarrow P' \quad (5)$$

Tadbirkorlik kapitali tovar shaklining doiraviy aylanishi

$$T \to P \to T \begin{cases} Iv \\ Ik \end{cases} \ldots I \ldots T' \to P' \quad (6)$$

Xullas, kapital o'z harakatini puldan boshlasa P-bilan, unumli-ishlab chiqarishdan boshlasa unumli ishlab chiqarish bilan, tovar shaklidan yana tovar shakliga qaytib kelishi lozim.

### *4-savol. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi*
### *Asosiy va aylanma kapital*

Kapitalning harakati doimiy va uzluksiz aylanma harakatda bo'lishi lozim. Shu jumladan tadbirkorlik kapitali ham o'z aylanma harakatida takrorlanib turadi.

Kapital harakatining ketma-ket uzluksiz aylanishi, takrorlanib, yangilanib turishi **tadbirkorlik kapitalining aylanishi** deyiladi. Aylanma harakatda bo'lgan kapitalning harakati bir xil tezlikda bo'lmaydi. Masalan,unumli iste'molda bo'lgan xom ashyo va materiallar qiymati bir doiraviy aylanishdan keyin, boshqa qismi, masalan, mehnat qurollari qiymati bir necha doiraviy aylanishdan keyin o'zining boshlang'ich shakliga qaytadi.

Kapital o'zining aylanishiga ko'ra **ikki qism**ga bo'linadi:

1. Asosiy kapital;
2. Aylanma kapital.

Ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta doiraviy aylanishda ishtirok etib, o'zining qiymatini tayyor mahsulotga va xizmatga bo'lib-bo'lib o'tkazib borishi va o'zining ashyoviy-buyum shaklini o'zgartirmasligi **asosiy kapital** deyiladi.

Bir doiraviy aylanish davomida to'liq iste'mol qilinib, o'zining qiymatini mahsulot va xizmatlarga to'liq o'tkazishi va ashyoviy-buyum shaklini o'zgartirishi yoki yo'qotishi **aylanma kapital** deyiladi.

Asosiy va aylanma kapitallar bir-birlaridan farq qiladi:

**1. Ishlab chiqarishda (jarayoni) harakat qilishi boyicha farqi bo'ladi**. Asosiy kapital aylanma harakatda o'zining buyum ko'rinishini uzoq davrlar saqlab qoladi. Masalan, stanok 10 yil, bino 5-100 yil davomida faoliyatda ishtirok etadi. Aylanma kapital (masalan, paxta, jun, metall) har bir doiraviy aylanishda to'liq unumli iste'mol qilinadi va qiymatini mahsulotga yoki xizmatga to'liq o'tkazadi.

**2. Qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga o'tkazishi boyicha ham farqi bo'ladi**. Asosiy kpital ishlab chiqarishda uzoq davrlarda qatnashib, qmyatini qisman-qisman mahsulot va xizmatlarga ko'chirib boradi. Xom ashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya kabi aylanma kapital unsurlari har bir doiraviy aylanishda to'lig'icha unumli iste'mol qilinadi va ularning qiymati mahsulot va xizmatlar qiymatiga to'lig'icha o'tadi.

**3. Kapital qiymatining aylanish usuli boyicha farq qiladi**. Asosiy kapital qiymati ikkiga bo'linadi. Qiymatning mahsulotga o'tgan qismi tovarlar va xizmatlar bilan birga muomalada bo'ladi va pul shakliga o'tib, qoplash fondi shaklida asta-sekin jamg'arilib boradi. Mahsulotga o'tmagan qismi ishlab chiqarish doirasida mavjud bo'lgan asosiy kapitalda gavdalanganicha qolaveradi. Iste'mol qilingan mehnat predmetlari qiymati to'la-to'kis aylanib, yangi mahsulotlar qiymati tarkibiga kiradi.

4. **Qayta tiklanish usuli**. Asosiy kapital ishlab chiqarish jarayonida to'xtovsiz ishtirok etishi natijasida yoyiladi, eskiradi, uni yaroqli holatiga qaytarish uchun uning jamg'arilgan qiymatidan sarf qilinadi va yangilanadi. Aylanma kapital har bir doirviy aylanishdan keyin ashyoviy byyum shaklida qaytib tiklanadi.

Tadbirkorlik kapitali o'z harakatida **ishlab chiqarish va muomala bosqichlari**ni bosib o'tadi. Shu sababli uning aylanish vaqti (Av) ishlab chiqarish vaqti (Iv) bilan va muomala vaqti (Mv) yig'indisida iborat bo'ladi:

$$\boldsymbol{Av = Iv + Mv} \quad (7)$$

**Ishlab chiqarish vaqti uch qismdan iborat bo'ladi:**

1) Bevosita mehnat jarayoni yoki ish davri (Id);

2) Turli tanaffuslar davri (Td);

3) Ishlab chiqarish vositalarining ishlab chiqarish zahiralarida bo'lish davri (Zd).

Demak,

$$Iv = Id + Td + Zd \quad (8)$$

**Ish davri –** ishlab chiqarish vaqtining asosiy tarkibiy qismidir. Bu vaqt davomida mahsulot mehnatning bevosita ta'siri ostida bo'ladi. Ish davrining uzunligi ishlab chiqariladigan mahsulot xususiyatiga, qo'llaniladigan mehnatning miqdori va uning unumdorligi darajasiga bog'liqdir.

Kapitalning aylanish tezligi ulardan foydalanish samaradorligiga jiddiy ta'sir qiladi. Aylanish tezligi muayyan davr ichida (A) qilingan aylanishlar soni (n) yoki bir aylanishning uzun-qisqaligi (a) bilan belgilanadi:

$n = A / a ;\ a = A / n$ (9) ga teng bo'ladi.

**Ishlab chiqarish** – tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt, ishlab chiqarish vositalari sotib ol ish va tayyor tovarlarni sotish uchun ketgan vaqt muomala vaqtini tashkil etadi.

### *5-savol. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish*

Kapitalning samaradorlik darajasi turli omillarning ta'siri ostida shakllanadi. **Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish** o'zaro bog'langan ichki jarayonga: asosiy kapitalning eskirishi, ya'ni amortizatsiya jarayoni va amortizatsiya fondidan mehnat vositalarini jismoniy shaklda tiklash uchun foydalanishga tayanadi.

Mehnat vositalari **jismoniy eskirishi**ning ikki shakli mavjud: ularni foydalanish jarayonida va harakatsiz turishi natijasida, tabiiy kuchlarning ta'sirida jismoniy eskirish. Mehnat vositalari jismoniy eskirish binoan birga ma'naviy jihatdan ham eskiradi. **Ma'naviy eskirishn**ing ikki xil turi mavjud bo'lib, u bir-biridan farq qiladi. **Ma'naviy eskirishning birinchi turi** mehnat vositalari tayyorlanadigan tarmoqlarda mehnat unumdorligi oshganligi natijasida ular qiymatining pasayishida ifodalanadi. Bu ishlab turgan uskunalarni yangilari bilan almashtirishni zarur qilib qoymaydi, chunki ishlab turgan va yangi uskunalarning texnika darajasi bir xil bo'lib qolaveradi.

**Ma'naviy eskirishning ikkinchi turi**da ancha mukammal, arzon va unumli mashinalarning ishlab chiqarishga kirib kelishi bilan ilgari o'rnatilgan mehnat vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi va yangilari bilan almashtiriladi.

Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir qismi amortizatsiya fondi yordamida qoplanadi. Amortizatsiya asosiy kapital eskirib borishiga qarab, uning qiymatini asta-sekin (qayta tiklash maqsadlarida) ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkazish, asosiy kapitalni keyinchalik qayta tiklash maqsadlarida mahsulotning amortizatsiya miqdoriga tng qismini jamg'arish jarayonidan iborat. **Amortizatsiya normasi** amortizatsiya ajratmalari yillik summasining shu asosiy kapital qiymatiga nisbatan aniqlanadi va foizda ifodalanadi. Amortizatsiya ajratmalarining umumiy normasi asosiy kapitalni takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda ikki qismdan iborat bo'ladi: bir qismi asosiy kapitalni to'la qoplashga (qayta tiklashga), ikkinchisi ularni qisman qoplashga (kapital ta'mirlashga) mo'ljallanadi.

Amaliyotda umumiy yillik amortizatsiya normalarini (An) belgilashda asosiy kapital qiymati (Kas) asosiy kapitalning harakat qilishi muddati davomida kapital ta'mirlash uchun sarflar (Tk), eskirgan mehnat vositalarini tugatishdan olingan mablag' (Mt) va shu vositaing xizmat davri (Xd) hisobiga olinadi:

$$An = Kas + Tk + Mt / Xd \times 100\% \quad (10)$$

Agar amortizatsiya normalari oshirib yuborilsa, mahsulot tannarxini sun'iy ravishda o'stirib yuboradi, pasaytirilgan normalar esa asosiy kapital tiklanish davrini kechiktiradi. Bu esa taraqqiyotga to'siq bo'ladi. Jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalarining yuqori normalarini belgilash orqali asosiy fondlar qiymatini nisbatan qisqaroq vaqt ichida royxatdan chiqrish

imkonini beradi. Odamda, jadallashtirilgan amortizatsiyani qo'llash asosiy fondlarning aktif qismi uchun ruxsat etiladi. Ammo, bu holat nafaqat asosiy kapitalning tezroq yangilanishini, balki ishlab chiqarish xarajatlarini amortizatsiya ajratmalariga to'g'ri keluvchi qismining olib ketishiga ham olib keladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshishi, avvalo qo'shimcha kapital mablag' sarflanmasdan turib mahsulot hajmini ko'paytirishda o'z ifodasini topadi:

$$S = M / Rs \times 100\% \qquad (11)$$
$$IChs = F / Rx \times 100\% \qquad (12)$$

Bir tomondan, milliy mahsulot yoki milliy daromadning o'sish sur'atlari bilan, ikkinchi tomondan, asosiy kapitalning o'sish sur'atlari o'rtassidagi nisbat milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligining umumlashuvi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan asosiy kapital qiymati o'rtasidagi aloqani aks ettirib, u o'zaro bog'liq ikki ko'rsatkich – kapitaldan olinadigan (Ks) va mahsulotning kapital sig'imi (K sig') ko'rsatkichlari bilan ifodalandi.

Milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitaldan olinadigan samara darajasi ishlab turgan asosiy kapitalning har bir so'miga to'g'ri kelaigan yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromadni, kapital sig'imi darajasi esa ishlab chiqarilgan milliy daromad yoki yalpi ichki mahsulotning bir so'mi hisobiga asosiy kapital qiymatining to'g'ri kelishini tavsiflaydi:

$$Ks = YaiM / Kas \text{ yoki } Ks = MD / Kas \qquad (13)$$
$$Ksig' = Kas / YaiM \quad \text{yoki } Ksig' = Kas / MD \quad (14)$$

Korxona miqyosida kapitaldan olinadigan samara darajasi asosiy kapitalning bir so'mi evaziga korxona ishlab chiqaradigan mahsulot miqdori (M) bilan, kapital sig'imi esa korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotning (M) bir so'm hisobiga qancha asosiy kapital qiymati to'g'ri kelishi bilan ifodalanadi.

$$K\ samarasi = M / Kas; \quad Ksig'.kor = Kas / M \qquad (15)$$

Korxonadagi mehnat vositalarining ayrim turlaridan foydalanish samaradorligi natural ko'rsatkichlar yordami bilan aniqlanadi. Masalan, bir to'quv dastgog'ida metr hisobida bir kunda to'qilgan mato, bir avtomobilda bir kunda tonna hisobia tashilgan yuk va hokazo.

Asosiy kapital (fondlar) harakati aylanma kapital va muomala mablag'lari harakati bilan uzviy bog'liq. Shu sabali aylanma kapital va (oshirish) aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini aniqlash va uni oshirish omillarini ko'rsatib berish muhim ahamiyatga ega.

Aylanma kapitaldan foydalanishning umumlashuvchi ko'rsatkichi hisoblangan iqtisodiyot miqyosida mahsulotning material sig'imi (Msig') mahsulot yaratishda iste'mol chilingan aylanma kapital qiymatining yalpi ichki mahsulot (YaiM) yoki milliy daromadga (Md) nisbati orqali aniqlanadi:

$$Msig' = Ak / MD \quad (16)$$

Korxona miqyosidagi material sig'imi (Msig'.korx) unda iste'mol qilingan aylanma kapital qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$Msig'.korx = AK / M \quad (17)$$

Sarflangan aylanma kapital birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori material sig'imi ko'rsatkichiga teskari miqdordir. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi u bilan aylanma kapital o'rtasidagi nisbatga bog'liqdir. Bevosita ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan aylanma kapitalning salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lardan shunchalik samarali foydalaniladi.

Amaliyota aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish koefitsienti bilan o'lchanadi. Bu koeffitsient bir yil ichida sotilgan mahsulot qiymatining aylanma mablag'larning o'rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Aylanish davri (a) yildagi kunlar sonining aylanishlar soniga (n) nisbati bilan aniqlanadi:

$$a = 360 / n \qquad (18)$$

Aylanma mablag’lar atslanishini tezlashtiradigan asosiy omil ishlab chiqarish vaqtini avvalo ish davrini, shuningdek, muomala vaqtini qisqartirishdir.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Tadbirkorlik faoliyati** – shakli va sohasian qat‘iy nazar foyda olishga qa undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat;

**Hissadorlik jamiyati** - ko’proq foyda olish maqsadida aktsiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital) larini birlashtirgan uyushma;

**Aktsiya** – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o’zining ma‘lum hissasini qo’shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish uchun huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog’oz;

**Aktsiya kursi** – qimmatli qog’ozlar bozorida aktsiyalarning sotiladigan narxi;

**Obligatsiya** – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qoyilganligini tasdiqlovchi qimmatli qog’oz;

**Ta‘sischilik foydasi** – sotilgan aktsiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qoyilgan mablag’lar summasi o’rtasidagi farq;

**Dividend** – aktsiya egasi o’zlashtiradigan daromad turi;

**Tadbirkorlik kapitali** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag’lari;

**Aylanma kapital** – unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomiagi ishlab chiqarish jarayonida to’liq iste‘mol qilinadigan o’z qiymatini yaratilgan mahsulotga to’liq o’tkazadigan va ashyoviy buyum shaklini ham yo’qotadigan qismi;

**Asosiy kapital** – unumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko’rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o’zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo’lib-bo’lib o’tkazib boradigan kapital qiymatiga nisbatining foizagi ifodasi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta‘rif bering. “Tadbirkorlik faoliyati” va “biznes” tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab bering (ko’rsating). Nima uchun tadbirkor tahlika (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko’rsatadi?
3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart-shartoitlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlikning shakllarini va ularning xususiyatlarini ko’rsating.
5. Hissadorlik jamiyatiga ta‘rif bering. Aktsiya nima, aktsiya kursi qaydan (shakllanadi) aniqlanadi? Aktsiya kursiga ta‘sir qiluvchi omillarni ko’rsating.
6. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning takribiy tuzilishi qanday?
7. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o’tadi hamda qanday shakllarga kiradi?
8. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. Aylanish vaqti qanday vaqtlarni o’z ichiga oladi? Ularga tushuncha bering.
9. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanma uzunligi ikki oyni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilga necha marta aylanadi va bir aylanishning uzunligi qancha davom etadi?
10. Unumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar boyicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.
11. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat? Uning normasi qanday aniqlanadi?
12. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko’rsatkichlar orqali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag’lardan foydalanish samaradorligi ko’satkichlarini tushuntiring.

## 10-mavzu. KORXONA (FIRMA) XARAJATLARI VA FOYDASI. ISH HAQI

### *Kirish*

Tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslardan foydalanishni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul va pul-tovar munosabatlari bilan bog'liq bo'lganligi sababli resurlar ham sotiladi va sotib olinadi, ular narx bilan hisob-kitob qilinadi. Resurslarni ishlab chiqarishga qo'llash sarf-xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi. Korxona bozorga taklif qiladigan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlar (resurslar narxlari) darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog'liq.

Ushbu mavzuga ishlab chiqarish xarajatlarini hosil bo'lishi kishilarning hayot negizini va turmush darajasini aniqlab beruvchi daromadlarning asosiy turi bo'lgan ish haqi uni shakllanishi bilan bog'liq muammolar, ish haqining shakllari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi darajasiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

### *Reja*:

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi
2. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarish tamoyillari
3. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi
4. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari.

### *1-savol. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi*

Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq barcha sarflar **ishlab chiqarish xarajatlari** deyiladi.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yokilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf xarajatlarning puldagi ifodasi **mahsulot tannarxi**ni tashkil qiladi,

ya'ni: ***T = C + V + M (1)***dan **C + V** yig'indi ishlab chiqarish xarajatlari yoki tannarx deb yuritiladi.

**ICHX = C + V yoki TMTN = C + V** (2)ni tashkil etadi.

**Ishlab chiqarish xarajatlari ikki qismga bo'linadi**:

1. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari
2. Muomala xarajatlari.




Ushbu chizmada xarajatlarning namoyon bo'lishi ko'rsatilgan **muomala xarajatlari** tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib, iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi.

**Muomala xarajatlari ikki guruhga bo'linadi**:

1. Qo'shimcha muomala xarajatlari
2. Sof muomala xarajatlari.

Tovarlarni o’rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari **qo’shimcha muomala xarajatlari** hisoblanadi.

Bu xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi.

**Sof muomala xarajatlari** sotuvchi maoshi, marketing (iste‘molchilar talabini o’rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo’ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalanadigan resurslar o’z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo’lishi mumkin. Shunga ko’ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo’linadi.

**Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko’ra turkumlanishini** chizmada tasvirlash mumkin:




Korxonaning o’ziga tegishli bo’lgan resurslardan foydalanishi bilan bog’liq xarajatlar **ichki xarajatlar** deyiladi.

**Tashqi xarajatlar** korxona tomonidan zarur resurs va xizmatlarni tashqaridan to’lov asosida jalb etishi natijasida vujudga keladigan xarajatlar summasidir.

Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo’lgan to’lov – **normal (me‘yordagi) foyda** ham renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Normal foyda iqtisodiy foydadan farq qiladi. **Normal foyda** – bu iqtisodiy resurs sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini rag’batlantirib turish uchun to’lanadigan haq hisoblanadi.

Sarf-xarajatlarni ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo’llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

**Ishlab chiqarish hajmini o’zgarishiga ta‘sir qilish yoki qilmasligiga qarab** xarajatlar doimiy va o’zgaruvchi xarajatlarga bo’linadi.




Ishlab chiqarish hajmining o’zgarishiga (qisqarishi yoki ortishiga) ta‘sir qilmaydigan xarajatlar **doimiy xarajatlar** deyiladi. Bunga korxonaning to’lov majburiyatlari (zayomlar boyicha foiz va boshqa), soliqlar (ishlab chiqarish hajmiga bog’liq bo’lmagan turlari), amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo’riqlash xizmatiga to’lov, uskunalarga xizmat ko’rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va boshqa xarajatlar kiradi.

**O’zgaruvchi xarajatlar** deb ishlab chiqarish hajmining o’zgarishiga ta‘sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Unga xomashyo, material, yoqilg’i-transport xizmati, ishchilar ish haqi va boshqa sarf-xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o’zgaruvchan xarajatlar yig’indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

***2-savol. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarining o’zgarish tamoyillari***

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda vaqt omili, ya‘ni xarajat qilinadigan pirovard natija olinguncha o’tgan davr sezilarli ta‘sir ko’rsatadi. Vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi. Korxona ishlab chiqarish hajmini o’stirish uchun qisqa davrda faqat o’zining o’zgaruvchi xarajatlari miqdorini o’zgartirishi *mumkin*. Bu **qisqa muddatli xarajatlar**dir.

**Uzoq muddatli davr** – bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va barcha band bo’lgan resurslari miqdorini o’zgartirish uchun yetarli bo’lgan davrdir.

Ishlab chiqarish rivojlanib borishi uchun ishlab chiqarishni o’rtacha xarajatlari kamayishi lozim, unga quyidagi omillar ta‘sir qilib boradi:

1. Mehnatning ixtisoslashuvi
2. Boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi
3. Kapitaldan samarali foydalanishi
4. Qo’shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarishi.

Vaqt o’tishi bilan firmaning mahsulot birligi ishlab chiqarish xarajatlarining o’sishiga olib kelishi mumkin. Firmalar faoliyati yiriklashib, kengayib borish, firmaning faoliyatini samarali nazorat qilish va muvofiqlashtirishga harakat qilish va uni boshqarishda qiyinchiliklarni kamaytirib chiqaradi. O’rtacha hajmdagi korxonada bitta yagona boshqaruvchi uning faoliyatiga doir barcha muhim qarorlarni shaxsan o’zi qabul qiladi, shu boshqaruvchi barcha ishlab chiqarish jarayonini tezlik bilan tahlil qilishi, ular asosida aniq va samarali qaror chiqara oladi.

Firma miqyosini kengayishi bilan bunday holat o'zgaradi. Buning natijasida ma'muriy xodimlar va ishlab chiqarish jarayonini alohidalashtiruvchi boshqaruv qatlamlari ko'payib boradi, yuqori rahbariyat korxonadagi haqiqiy ishlab chiqarish jarayonidan alohidalashib qoladi Yirik korxona miqyosida oqilona qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni yig'ish, tushunish va qayta ishlash bir kishi uchun imkon darajasidan tashqarida bo'ladi. Boshqaruv apparatining chuqurlashuvi va kengayishi esa axborot almashishuvi, qarorlarni muvofiqlashtirishdagi muammolarni hamda byurokratik holatni keltirib chiqaradi, boshqaruvning turli bo'g'inlari tomonidan qabul qilingan qarorlar bir-biriga zid kelish ehtimoli kuchayadi. Natijada samaradorlikka putur yetib, ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlarni oshiradi. Boshqacha aytganda, barcha resurslar miqdorining 10 foizga o'sishi ishlab chiqarish hajmining nomuvofiq ravishda, aytaylik 5 foizga o'sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishidan doimiy ravishda olinuvchi samara ikki holat o'rtasidagi tafovutdan kelib chiqadi. Bu ijobiy va salbiy miqyosdir. Bu ikkala chegara orasidagi maydonda barcha resurslarning 10 foizga o'sishi ishlab chiqarish hajmining mutanosib ravishda 10 foizga ko'payishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish miqyosining kengayib borishi chuqur ixtisoslashuv tufayli boshqarish boyicha mutaxassislar mehnatidan ancha yaxshi foydalanish imkoniyatini beradi. Bu samaradorlikning oshishi va mahsulot birligiga ishlab chiqarish harajatlarining kamayishiga imkoniyat yaratib beradi.

### *3-savol. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi*

Korxona faoliyatiga baho berilganda, eng avvalo mehnat faoliyatining biron bir turiga ixtisoslashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga sarf qilingan xarajatlar, hosil qilingan daromad va olingan foyda miqdoriga e'tibor qaratiladi.

Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar hamda ularning **pul tushumlari yoki pul daromadlari** deyiladi.

Korxona pul daromadlaridan sarflangan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi **foyda yoki iqtisodiy foyda** deb yuritiladi. Foydaning tarkib topishi ikki bosqichdan o'tadi.

Birinchi bosqichda foyda ishlab chiqarish jarayonida yalpi qiymatning yaratilish chog'ida vujudga keladi. Yangidan yaratilgan qiymat tarkibidagi qo'shimcha qiymat foydaning asosiy manbai hisoblanadi, biroq u hali aniq foyda shaklida namoyon bo'lmaydi.

Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan foyda tovarlarni sotgandan so'ng olingan pul daromadi bilan xarajatlarning farqi ko'rinishda to'liq namoyon bo'ladi.

Demak, tovar va xizmatlar sotilganda ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha qiymati esa foydaga aylanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, foydaning haqiqiy manbai **qo'shimcha mahsulot yoki qo'shimcha qiymat**dir.

$$Fich = Hy - T \quad (1)$$

Ishlab chiqaruvchi foydasi (Fich) – bu maxsulot tannarxi (T) va ulgurji narxi (Hy) o'rtasidagi farqdan iborat.

Ushbu formuladan ko'rinadiki, mahsulot birligidan olinadigan foyda ikkita asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

1. Mahsulot tannarxi darajasi (c + v);
2. Ulgurji narxlar darajasi.

**Tannarx** – bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir: $c + v + m > c + v$.

Tannarx bu mahsulot qiymatidan kichikdir. Mahsulot qiymati (MQ) o'z ichiga sarflangan ishlab chiqarish vositalari qiymati (Qiv), hamda yangidan yaratilgan qiymatni (Qya) to'liq oladi.

Demak, $$MQ = Qiv + Qya \quad (2).$$

O’z navbatida yangidan yaratilgan qiymat ish haqi (IH) yalpi foydaga (Fya) ajraladi:




Foyda miqdoriga ta‘sir ko’rsatuvchi ikkinchi omil – korxona o’z maxsulotlarini sotuvchi narx darajasi bo’lib, bu o’rinda mahsulot narxi. Qiymati va tannarxi o’rtasidagi nisbatning beshta asosiy holatini ajrayib ko’rsatish mumkin:




Bu chizmada tovar qiymati va narxining nisbati tasvirlanganligini ko’rsatish mumkin. N1, N2, N3, N4 va N5larni holatini tannarx va foydaga nisbatan ifodalab berish mumkin.

Korxona yalpi foydasining taqsimlanishi ham chizmada tasvirlash mumkin:



**Buxgalteriya foydasi** sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.




Bu chizmada umumiy pul tushumi tarkibidagi iqtisodiy va buxgalteriya foydasining farqlanishi ko'rsatilgan.

Korxona foydasining mutlaq miqdori uning **massasini** tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi **foyda normasi** deyiladi. Foyda normasining hisoblashning amaliyotda ikki variantidagi foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga – korxona xarajatlariga yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma kapital) nisbatidir. Bular quyidagicha aniqlanadi:

$$1.\ P' = \frac{P}{W} \times 100\%\ (3).$$

Bu yerda: P' - foyda normasi; P - foyda massasi; W – ishlab chiqarish xarajatlari.

$$2.\ P' = \frac{P}{Kavans} \times 100\%\ (4).$$

Bu yerda: P' - foyda normasi; P - foyda massasi; Kavans (asosiy kapital + aylanma kapital) - korxona avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi to'g'ri mutanosib hamda ishlab chiqarish xarajatlari yoki avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxona ish samaradorligining integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foydaning o'sishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmagan holda ikki yo'l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxni oshirish hisobiga erishish mumkin.

### *4-savol. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari*

**Ish haqi** – ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan unumining puldagi ifodasidir. Ish haqi ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan zaruriy (v) mahsulot bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki ish haqi uning asosiy qismini tashkil etadi.

**Ish haqining asosiy vazifasi** – ishchi va xizmatchining turmush va mehnat sharoitini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minotdan iboratdir. Ish haqining mazmunini to'laroq tushunish uchun nominal va real ish haqi tushunchalarini bilish zarurdir. Ishchi uchun qanday shaklda va qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhimdir. Shu sababli nominal va real ish haqi bir-biridan farqlanadi.

**Nominal ish haqi** – bu ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi.

**Real ish haqi** – bu nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridir. Real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda, nominal ish haqiga to'g'ri

mutanosibdir va iste‘mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bu miqdorlar nisbatini formulada qoyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Vp = \frac{Vn}{R} \quad (5)$$

Bu yerda: Vp – real ish haqi; Vn – nominal ish haqi; R- iste‘mol buyumlari va xizmatlarining narx darajasi.

Nominal ish haqi ishlab topilgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa xodimlarning iste‘moli va farovonlik darajasini tavsiflaydi.

**Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli** - vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi.

**Vaqtbay ish haqi** – xodimning malakasi, mehnatning sifati va ishlagan vaqtiga qarab to’lanadigan ish haqidir. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo’lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, injener-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlarga haq to’lashga) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog’liq bo’lmagan paytlarda (masalan, konveyerlar va avtomat liniyalarda ishlash) qo’llaniladi.

**Ishbay ish haqi** - ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori va sifati yoki bajargan ishining hajmiga qarab beriladigan ish haqidir.

Haq to’lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari **ish haqining tizimi**ni tashkil qiladi.

1. **To’g’ri ishbay tizimi** – bunda ishlab chiqarish me‘yori qay darajada bajarilishidan qat‘iy nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan tarif boyicha to’lanadi.

2. **Ishbay-mukofot tizimi** bir qancha ko’rsatkichlar uchun mukofot berishni nazarda tutadi.

3. **Ishbay-progressiv haq to’lashd**a ishchining belgilab qoyilgan me‘yor (darajasida) doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif boyicha ish haqi beriladi, normadan yuqorisiga esa oshirilgan haq (tarif) boyicha pul to’lanadi.

Ishchilarning ish haqini tabaqalashtirish eng avvalo **davlat tarif tizimi** yordamida amalga oshiriladi. Tarif tizimi yordamida tarmoqlar va mamlakat miqyosi boyicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasi tartibga solib turiladi.

**Tarif-malaka ma‘lumotnomalari** – bu aniq ish bajaruvchining bilim va ko’nikmalariga qoyiladigan talablardan iborat bo’ladi.

**Tarif setkasi**da razryadlardan tashqari tarif koeffitsientlari bo’lib, ular birinchi razryad va keyingi razryadlar o’rtasidagi nisbatini ko’rsatadi.

**Tarif stavkalari** tegishli razryadga ega bo’lgan ishchining mehnatiga to’lanadigan haq miqdorini belgilab beradi.

Mehnat qilish sharoiti og’ir va zararli bo’lgan ishchilarga tarif stavkasiga **qo’shimcha haqlar** belgilanadi.

Mamlakatimizda o’tgan 20 yil mobaynida har yili ish haqi miqdori ikki marta oshirib borildi. Xususan, 2006 yilning ohirida o’rtacha real oylik ish haqi 185 ming so’mni yoki 150 AQSH dollarini tashkil etgan edi, 2007 yilda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori 1.5 barobar ko’paytirildi va byudjet sohalarini hisobga olganda, 210 AQSH dollarga teng bo’ldi, 2008 yilda 1,5 barobar oshirildi yoki 310 dollarga yetdi, 2009 yilda 1,4 barobarga oshirildi.[3]

***Asosiy tayanch tushunchalar*:**

**Ishlab chiqarish xarajatlari** – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste‘molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflardir.

---

1 Yangilash va bararor taraққiyot yўlidan yanada izchil ҳarakat қilish, xalқimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. ЎzR Prezidenti I. Karimovning 2006 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iқtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iқtisodiy isloҳotlarni chuқurlashtirishning eng muҳim ustuvor yўnalishlariga baғishlangan VM malisidagi ma‘ruzasi. “Xalқ sўzi” gazetasi, 2007 yil, 13 fevral.

**Ichki xarajatlar** – korxonaning o’ziga tegishli bo’lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar.

**Tashqi xarajatlar** – tashqaridan jalb qilingan resurslarga to’lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlar.

**Doimiy xarajat** – ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir etmaydigan, u o’zgarganda ham miqdorini o’zgartirmaydigan xarajatlar.

**O’zgaruvchi xarajat** – ishlab chiqarish hajmining o’zgarishiga ta‘sir etadigan xarajatlar.

**O’rtacha xarajatlar** – mahsulot birligiga to’g’ri keladigan xarajatlar.

**Qo’shimcha xarajatlar** – mahsulotning navbatdagi qo’shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

**To’g’ri xarajatlar** – mahsulot tannarxiga bevosita qo’shilib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlar.

**Egri xarajat** – mahsulot tannarxiga ustama bo’lib, narxda aks etadigan xarajatlar.

**Iqtisodiy yoki sof foyda** – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

**Foyda normasi** – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo’lgan nisbatining foizdagi ifodasi.

**Ish haqi** – ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan unumining puldagi ifodasi.

**Vaqtbay ish haqi** – ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib, to’lanadigan ish haqidir.

**Ishbay ish haqi** – ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ishi hajmiga qarab to’lanadigan ish haqidir.

**Real ish haqi** – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo’lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining layoqati.

**Nominal ish haqi** – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Ishbay-mukofot tizimi** – bajarilgan ish uchun haq to’lashni erishilgan turli natija kursatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo’shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.

**Ishbay-progressiv haq to’lash tizimi** – ishchining belgilab qoyilgan me‘yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif boyicha, me‘yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) boyicha ish haqi to’lanishini ko’zda tutuvchi tizim.

**Tarif tizimi** – ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini tarmoqlar va mamlakat mintaqasi boyicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab tartibga solib turuvchi me‘yorlar tizimi.

**Tarif-malaka ma‘lumotnomalari** – ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta‘rifi, ishchi va mutaxassislarning bilim va ko’nikmalariga qoyiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni tariflash uchun qoyiladigan razryadlar majmui.

**Tarif setkasi** – turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmui bo’lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to’lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to’lashning o’zaro nisbatini ko’rsatadi (birinchi razryadning tarif koeffitsienti hamma vaqt birga teng bo’ladi).

**Tarif stavkalari** – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo’lgan ishchilarning mehnatiga to’lanadigan haq miqdori majmui.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Ishlab chiqarish sarf—xarajatlarining mohiyatini va tarkibini tushuntiring.
2. Ichki va tashqi xarajatlar o’rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.
3. O’rtacha doimiy, o’zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Foydaning mazmuni va manbaini tushuntirib bering.
5. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqi nimada?
6. Ularning shakklanish tartibini tushuntirib bering.
7. Yalpi foydaning taqsimlanish tartibini tushuntirib bering.

8. Mulkchilik va xo’jalik yuritish shakllarning turliligi foydaning taqsimlanish tartibiga qanday ta‘sir ko’rsatadi?
9. Foyda massasiga ta‘sir ko’rsatuvchi omillarni izohlab bering.
10. Ish haqi bilan zaruriy mahsulot o’rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
11. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta‘siri ostida o’zgaradi?
12. Tarif tizimi o’z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.

## 11-MAVZU. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNES.

### *Kirish*

Iqtsodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo’g’inlari uchun umumiy bo’lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy sharoitga bog’liq holda o’ziga hos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o’ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo’ladi. Chunki, bu yerda takror ishlab chiqarish ko’p jihatdan tirik organizm (hayvon, o’simlik va boshqalar) bilan ham bog’liq.

Ushbu mavzu iqtisodiyotning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning agrar sohada namoyon bo’ladigan o’ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqamiz. Agrar munosabatlarini mazmuning tahlil qilib, keyin yer rentasi tushuntiriladi. Yer rentasining vujudga kelishi va uni taqsimlanishi muammosiga turlicha yondashuvlar bayon qilinadi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning tarkibi va vazifalari yoritiladi. Shundan so’ng agrobiznes va uning turlari yoritiladi.

### ***Reja*:**

1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo’jalik ishlab chiqarishning xususiyatlari.
2. Renta munosabatlari
3. Agrosanoat integratsiyasi va uning asosiy ko’rinishlari
4. Agrobiznes va uning turlari

### ***1-savol. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo’jalik ishlab chiqarishning xususiyatlari***

Ma‘lumki, agrar sohadagi ishlab chiqarish ko’pincha yer bilan bog’liq bo’ladi. Yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish hamda o’zlashtirish bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar **agrar munosabatlar** deyiladi.

Qishloq xo’jaligidagi ishlab chiqarishining o’ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu yerda iqtisodiy qonunlar bilan tabiiy qonunlar bevosita bog’lanib ketadi, chunki agrar sohadagi ishlab chiqarish tirik mavjudotlar – yer, o’simlik, chorva mollari bilan bevosita bog’liqdir. Bu yerda **yer -** mehnat ashyosi (predmeti) va asosiy ishlab chiqarish vositasi, xo’jalik yuritish ob‘ekti bo’lib, u eskirmaydi, yeyilmaydi, unga munosabat yaxshi bo’lsa, uning unumdorligi yaxshi bo’ladi.

Uzoq yillar davomida tabiiy o’zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o’simlik “oziqlanishi” mumkin bo’lgan turli moddalarning vujudga kelishi **yerning tabiiy unumdorligi** deyiladi.

Agrar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta‘siri natijasida, ya‘ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun‘iy yo’l bilan (masalan, yerni organik va kimyoviy o’g’itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan sug’orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda shu kabi yo’llar bilan) amalga oshirilsa, bu **iqtisodiy unumdorlik**ni tashkil qiladi.

Qishloq xo’jaligida foydalanadigan barcha ishlab chiqarish vositalari xususiy, shaxsiy, jamoa mulk shaklida bo’lish mumkin. Hozirgi paytda qishloq ho’jaligida xo’jalik yuritishning asosiy ko’rinishlari fermer va dehqon shakllarida bo’lib, ulardan ishlab chiqarish jarayonlari turli iqlim va tuproq sharoitlaridan foydalanish asosida olib boriladi.

Qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalar (traktorlar, mashinalar, transport vositalari, bino, inshootlar, ko'p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva hamda ish hayvonlari) **kapital tarkibi**ni tashkil qiladi. Aylanma kapitalga quyidagilar kiradi: yosh va boquvdagi hayvonlar, yem-xashak, urug'lik fondlari, kimyoviy o'g'itlar, hizmat muddati bir yildan kam bo'lgan turli xil ishlab chiqarish vositalari – invertarlar, yoqilg'i va moylash materiallaridan iborat bo'ladi. Kapital doiraviy aylanib turadi, ya'ni pul shaklidan ishlab chiqarish shakliga, undan tovar shakliga o'tib, yana pul shakliga qaytib keladi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vaqti uzoq davom etadi va ish vaqti kunlar bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni mavsumliyligi bilan xususiyatlidir. Masalan, kombaynlar, turli ekish asboblaridan qisqa vaqtda foydalaniladi. Aholini nisbatan zichligi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning cheklanganligini hisobga olib, yerga xususiy mulkchilik joriy qilinadi, unga davlat mulki saqlanib qoldi.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olinishini bildiradi. Yerga egalik kishi deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik va uni iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilish ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor yoki davlat amalga oshiradi.

**Yerdan foydalanish huquqi** – bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ham **to'rt omil** – yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, ishchi kuchi qatnashadi. Bunda yer muhim ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi. Bu omillarni barchasini harakatga keltirish ishchi kuchi omiliga bevosita bog'liqdir. Kapital foyda yoki foiz, yer esa renta yaratadi degan tushunchalar – xato fikr-mulohazalardir, uni barchasini jonli mehnat egasi bo'lgan ishchi kuchi yaratadi. Aytish mumkinki, ishchi kuchi - moddiy vositalarni harakat keltiruvchi ishlab chiqarishning ustuvor omilidir.

### *2-savol. Renta munosabatlari*

**Yer rentasi** - yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir. Yer rentasining bir qancha tarixiy ko'rinishlari mavjud. Masalan, uch shaklida bo'lgan barshina (ishlab berish), obrok berish (natura soliq) va pul solig'i shakllaridan feodal rentalaridan iboratdir. Hozirgi vaqtda renta quyidagi turlarga bo'lingandir:

1. Absolyut yer rentasi;
2. Differentsial (tabaqalashgan) renta I va II;
3. Monopol renta;
4. Qazilma boyliklar rentasi;
5. Qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Rentaning mohiyatini tushunishdagi asosiy qiyinchilik - tadbirkorlar o'rtasida qayta taqsimlanmaydigan qo'shimcha sof daromadning vujudga kelishi shart-sharoit va sabablarini ochib berilishi hisoblanadi. Bunday holat vujudga kelishining sabablaridan biri samarali xo'jalik yuritish uchun yaroqli bo'lgan yerlarning cheklanganligi va qayta tiklab bo'lmasligida o'z ifodasini topadi. Ikkinchi sababi – yerga boshqa tabiiy resursga mulkchilik ob'ekti yoki xo'jalik yuritish ob'ekti sifatidagi monopoliyaning mavjudligi hisoblanadi. Uchinchi sababi esa, ko'p mamlakatlarda qishloq xo'jaligidagi kapital uzviy (organik) tuzilishi, ya'ni doimiy va o'zgaruvchi kapital o'rtasidagi nisbatning pastligi hisoblanadi.

Yer uchastkalarining unumdorligi va joylashgan farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha daromad (qiymat)ning bir qismi renta shaklini oladi hamda u **differentsial renta** deb ataladi. Yerning miqdori va uning sifati (tabiiy unumdorligi) cheklanganligi sababli, yaxshi, o'rtacha va yomon yerlardan foydalaniladi, renta hosil qilinadi.

Yerning mahsuldorligi yoki joylashuvi jihatidan yomon sharoiti qishloq xo'jalik tovarlariga narx shakllantirishni tartibga soluvchi ijtimoiy normal sharoit hisoblanadi. Natijasida o'rtacha yoki yaxshi yerlarda xo'jalik yurituvchi ishlab chiqaruvchilar qo'shimcha mahsulot va binobarin foyda oladilar. Demak, differentsial renta hosil bo'lishining tabiiy sharti miqdori

cheklangan yerning sifati (unumdorligi)dagi farqlardir. Uning ijtimoiy-iqtisodiy sababi esa foydalaniladigan yerlarda iqtisodiy jihatdan alohidalashgan tarzda mustaqil xo'jalik yuritishdir.

Differentsial renta o'zining kelib chiqish sharoitlariga qarab differentsial renta I va differentsial renta II ga bo'linadi.

**Differentsial renta I** yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan. Sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga yakin joylashgan serunum yer uchastkalarida vujudga keladi. Differentsial renta I ning hosil bo'lishini misol yordamida ko'rsatish mumkin.

***Differentsial renta I ning hosil bo'lishi***

| Yer uchastkasi | Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari (so'm) | O'rtacha foyda (so'm) | Ijtimoiy qiymat (so'm) | Yalpi mahsulot (tonna) | Mahsulotning individual qiymati (so'm) | Ijtimoiy qiymat. Bozor narxi (so'm) | Sotilgan yalpi mahsulot qiymatining pul ifodasi (so'm) | Differentsial renta I |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| A | 8000 | 2000 | 10000 | 20 | 500 | 500 | 10000 | - |
| B | 8000 | 2000 | 10000 | 25 | 400 | 500 | 12500 | 2500 |
| V | 8000 | 2000 | 10000 | 30 | 333 | 500 | 15000 | 5000 |

Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, uch xil yer uchastkalaridan olingan mahsulotning ijtimoiy qiymati bir xil, ya'ni 10000 so'mni tashkil qiladi. Yalpi hosildorlik A-uchastkasida 20 tonna, B va V uchastkalarida 25 va 30 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda yeetkazilgan mahsulotlarning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi. Ya'ni, A-uchastkasida har bir mahsulot birligining qiymati 500 so'm bo'lsa, B-uchastkasida 400 so'm, V-uchastkada esa 333 so'mni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida sotiladi (misolda 500 so'm). Natijada yomon yer uchastkasi (A) o'zining yakka ishlab chiqarish xarajatlari 8000 ming so'm qoplaydi va 200 so'm foyda oladi, lekin differentsial renta I hosil bo'lmaydi. O'rtacha (B) va yaxshi (V) yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasi (A)ga nisbatan 2500 va 5000 so'm miqdorda qo'shimcha daromad olinadi. Bu olingan qo'shimcha daromad yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan differentsial renta I ni tashkil qiladi.

***Differentsial renta II ning hosil bo'lishi***

| Ishlab chiqarish davri | Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari (so'm) | Yalpi mahsulot (tonna) | Bir tonna mahsulotning individual qiymati (so'm) | Bir tonna mahsulotning ijtimoiy qiymati (so'm) | Sotilgan mahsulot summasi (so'm) | Qo'shimcha mahsulot, ya'ni differentsial renta II (so'm) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1- yil | 10000 | 20 | 500 | 500 | 10000 | - |
| 2-yil | 15000 | 40 | 375 | 500 | 20000 | 10000 |

**Differentsial renta II** xo'jaliklarni intensiv rivojlantirish, yerning hosildorligini oshirish uchun qo'shimcha xarajatlar sarf qilish bilan, ya'ni qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'itlarni qo'llash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mexanizatsiyalash va elektrlashtirish darajasi bilan bog'liq holda vujudga keladi. Keltirilgan misolda yerga qo'shimcha 5ming so'm xarajat sarf qilish natijasida qo'shimcha 20 tonna mahsulot olinsa, u holda birinchi yilga nisbatan qo'shimcha olingan 10 ming so'm daromad differentsial renta II ni tashkil etadi.

Intensiv rivojlantirishni amalga oshirish qishloq xo'jaligi taraqqiyotida bosh yo'l hisoblanadi. Buni amalga oshirmasdan kengaytirrilgan takror ishlab chiqarishni va jamiyat a'zolarining o'sib borayotgan talabini qondirib bo'lmaydi. Buning uchun qishloq xo'jaligini agrar sanoatlashgan asosga qo'uish. Intensivlashtirishni tezkorlik bilan amalga oshirish choralari ishlab chiqilishi lozim. Hozirgi vaqtda qishloq ho'jaligi sanoat asosida intensiv rivojlantirilmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotining ijtimoiy qiymati bilan yakkka tartibdagi qiymati o'rtasidagi tafovut xo'jaliklarning ustama qo'shimcha mahsulotini tashkil qiladi. Ya'ni, differentsial rentaning har ikkala ko'rinishini (renta I va renta II ni) o'z ichiga oladi. Differentsial renta I va II mahsulotning muayyan ijtimoiy qiymati bilan zona boyicha yoki alohida olingan xo'jalikning individual qiymati o'rtasidagi tafovutdan iboratdir. Shu hosil qilingan daromadlar davlat bilan xo'jalik o'rtasida taqsimlanadi. Uning davlatga to'langan qismi yer rentasi ko'rinishini oladi. Chunki yer – davlat mulkidir.

Differentsial renta I xo'jaliklar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki bo'lganligi sababli uning manfaatlari yo'lida sarf qilish maqsadida markazlashtirilgan davlat fondida (byudjetida) to'planishi lozim. Bu markazlashtirilgan fonddan (differentsial renta I) mamlakat oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, xususan yangi yerlarni o'zlashtirish va yer unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflash mumkin bo'ladi.

Differentsial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqtisodiy unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu xildagi rentaning asosiy qismi xo'jaliklarning o'zlarida qoldirilishi ta'minlanadi. Uning faqat bir qismi davlat foiziga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma'lum darajada bu rentani hosil qilishda o'z hissasini kutadi, ya'ni transport yo'llari qo'rilishiga, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o'g'itlar yetkazib beradi. Shunday qilib, differentsial renta I va differentsial renta II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanadi.

**Absolyut renta.** Yerga xususiyat mulkchilik bilan bir qatorda boshqa mulkchilik shakllari ham mavjud. Masalan, davlat mulki, vaqf (machit, cherkov) mulklari va boshqalar. Yerga bo'lgan bu mulkchilik monopoliyasi ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat'iy nazar, yer egalariga **absolyut renta** deb atalgan rentani olishga imkon beradi.

Yer egalari yerni ishlovchi ijarachilarga foydalanish uchun ijarga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar oladilar. Mana shu to'lov **absolyut yer rentasi** deb nom olgan. Agar yer ijaraga berilganda shu yerda turli xil inshootlar, binolar qo'rilgan bo'lsa, ularning ijara haqi alohida hisoblanadi.

Agrar munosabatlarni o'rganishda qoyidagi savollar kelib chiqadi:

- nima uchun qishloq xo'jalik ishchilari yaratadigan qo'shimcha mahsulot jamiyat miqyosida barcha mulk egalari o'rtasida qayta taqsimlanadi?

- nima uchun qishloq xo'jaligida olinadigan daromad o'rtacha foydadan yuqori bo'ladi? Bu xodisaning sababi nimada?

Ko'pgina mamlakatlarda va O'zbekiston Respublikasida ham qishloq xo'jaligi kapitalning uzviy tuzilishi (c : v) sanoatdagidan pastdir. Shuning uchun qishloq xo'jaligida yaratilgan tovarlarning bozor qiymati ishlab chiqarishning ijtimoiy qiymatidagi qo'shimcha qiymat (m) miqdori jamiyatda ishlangan o'rtacha foydadan ortiq bo'ladi. Qishloq xo'jalik

tovarlarining bozor narxi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish narxi o’rtasidagi tafovut **absolyut renta manbai** bo’lib xizmat qiladi.

**Monopol renta** – bu tabiiy sharoit bilan bevosita bog’liq. Ya‘ni noyob qishloqxo’jalik mahsulotlari (uzumning alohida navlarni, tsitrus ekinlari, choy va boshqalar) yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlar bilan sotiladi. Bunday tovarlarni individual qiymatidan monopol narxdar yuqori bo’ldai, yer egalariga monopol renta olish imkoniyatini beradi.

**Undirma sanoatdagi renta**. Foydagi qazilmaqonlari joylashuvi jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Huddi qishloq xo’jaligidagi singari, o’rta va yaxshi konlaridan korxonalar qo’shimcha foyda oladilar, u ham differentsial rentaga aylanadi.

**Ijara haqi**. Renta munosabatlarining qarab chiqishda rentaning ijara haqidan farqiga e‘tiborni qaratish zarur. Agar ijaraga beriladigan yerga oldin bino, inshoot va shu kabilar qurish bilan bog’liq ravishda kapital qoyilmalar sarflanmagan bo’lsa, ijara haqi va renta miqdori bir-biriga to’g’ri keladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqi qoyidagilardan iborat: yerdan foydalanganlik uchun to’langan renta (R), yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz (F), yer uchastkasini ijaraga berguncha qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi (A). Buni formulada qoyidagicha yozish mumkin:

$$\mathbf{IX = R + F + A} \quad (1)$$

Ma‘lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara ob‘ekti emas, balki oldi-sotdi ob‘ekti hamdir. Yer ham qishloq xo’jalik mahsuloti yetishtirish va tabiiy qazilma boyliklar qazib olish uchun, har xil ishlab chiqarish va turar joy binolari, inshootlar, yo’llar, aeroportlar qurish uchun sotib olinadi. Bunday hollarda yerning narxi nima bilan belgilanadi?

Ma‘lumki, yer inson mehnati mahsuli bo’lmaganligi sababli almashuv qiymatga ega emas. Shunga ko’ra, nazariyotchilar yer va boshqa tabiat in‘omlari narxini irratsional narxlar deb aytaydilar. Yer uchastkasining egasi uni sotishdan olingan summani bankka qoyilganda, u keltiradigan foiz tarzidagi daromad shu yer uchastkasidan olinadigan rentadan kam bo’lmagan taqdirdagina yerni sotadi. Boshqacha aytganda, **yerning narxi** kapitallashtirilgan rentadir. Boshqa sharoitlar teng bo’lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to’g’ri va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Shunday qilib, yerning narxi ikkita miqdorga bog’liq:

1) yer uchastkasi egasi olish mumkin bo’lgan yer rentasi miqdoriga;

2) ssuda foizi me‘yoriga.

Shundan kelib chiqib, yerning narxi quyidagi formula boyicha aniqlanadi:

$$Yeb = \frac{R \times 100\%}{F'} \quad (2).$$

Bunda: Yeb – yerning bahosi, narxi; R – renta; F’- ssuda foizi me‘yori.

Misol keltiramiz: R – 15 ming dollar, F’- 5% bo’lsa, bunda yerning narxi Yeb – 300 ming dollarga teng bo’ladi. Yerning egasi faqat shu narxdagina yerini sotish mumkin, chunki muayyan miqdordagi kapitaldan olinadigan foiz unga bankdan shunday yillik daromad olishga imkon beradiki, u rentaga teng bo’ladi.

Renta miqdori o’sib, ssuda foizi me‘yori passayib borgan taqdirda yerning narxi o’sib boradi. Yer narxini aniqlashning bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta‘sir ko’rsatuvchi ko’plab omillarga bog’liq. Jumladan, yerga narxning o’sishini, unga noqishloq xo’jalik maqsadlari uchun foydalanishga talabning o’sishi bilan tushuntirilishi mumkin. Inflyatsiya va asosan giperinflyatsiya sharoitida yer narxining o’sishiga olib keladi.

### *3-savol. Agrosanoat integratsiyasi va uning asosiy ko’rinishlari*

Iqtisodiy rivojlanish qishloq xo’jalik tarmoqlarida doimo sanoat, savdo, transport va boshqa sohalar bilan bog’liq bo’ladi. Mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo’jalik xom ashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish faqat qishloq

xo'jaligining holatiga emas, balki sanoat tarmoqlari bilan uyg'un rivojlanishiga ham bog'liq bo'ladi. Bu holat tarmoqlarning yagona, yahlit tizimini keltirib chiqarishga asos bo'ladi.

**Agrosanoat integratsiyasi** – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

**Agrosanoat majmuasi (ASM)** – bu qishloq xo'jalik mahsulotdari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib borish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlaridir.

**ASM to'rtta sohani o'z ichiga oladi**:

- **birinchi soha** – qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalri yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga texnika xizmati ko'rsatish bilan band bo'lgan tarmoqlar;
- **ikkinchi soha** – qishloq xo'jaligi o'zi;
- **uchinchi soha** – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga yetkazib berishni ta'minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish);
- **to'rtinchi soha** – odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan infrato'zilma (yo'l-transport xo'jaligi, aloqa, moddiy texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo'jaligi)dan iborat.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalrni (uy-joy, madaniy maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va boshqalarni) o'z ichiga oladi.

Masalan, qishloq xo'jaligida yerni unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan ishlarga 75 mlrd so'mdan ortiq mablag' o'zlashtirildi. Bu mablag'ni ko'p qismi kollektor-drenaj tarmoqlarini qayta tiklash va tozalash, pudratchi va suv xo'jaligi tashkilotlarini lizing asosida zamonaviy texnika bilan ta'minlashga ishlatildi.

Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Qishloqni yangilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega". Shu sababli respublikada qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash Dasturini amalga oshirish boyicha 2009 yilda bir qator ishlar amalga oshirildi va davom ettirilmoqda. (Konstitutsiyaning qabul qilinganligiga 17 yilligi munosabati Prezident i. A. Karimovning ma'ruzasiga qaralsin. "Xalq so'zi" gazetasi 6 dekabr, 2009 yil)

### *4-savol. Agrobiznes va uning turlari*

Qishloq xo'jalik sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati **agrobiznes** deyiladi. Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xo'jaligi sohasiga kirmaydigan, iroq u bilan bevosita bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy ta'mirlash xizmat kursatish, uni mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi.

**Agrobiznes faoliyatining maqsadi –** iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

**Agrobiznesning asosiy shakli** va bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir. chunki bu xo'jaliklar bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaradi. **Fermer va dehqon xo'jaliklar** o'z yerida yoki ijaraga olingan yerd ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanishlari ham mumkin. **Fermer xo'jaligining afzalligi** shundan iboratki, unda mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa ishlab chiqarishni yuqori samaradorligini ta'minlaydi va ular bozor kon'yuktura (holati)siga tez moslashaoladilar. Unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligini

fermerlashtirish agrar islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida zarar ko'rib ishlash natijasida og'ir ahvolga tushib qolgan davlat xo'jaliklarining tarkibi fermer xo'jaliklaridan iborat shirkatlar uyushmasiga aylntirish, mavjud davlat va jamoa xo'jaliklari tarkibida ular resurslari hisobidan fermer xo'jaliklari tashkil etish hamda dehqonlarning mol-mulklari negizida dehqon xo'jaliklarini tarkib toptirish yo'li bilan hozirgi uyushgan va mulkka ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklari rivojlantirilmoqda. Fermer xo'jaliklarining barcha tashkiliy shakllarining umumiy tomoni shundaki, ular ijaraga olingan davlat yerida faoliyat ko'rsatadi.

Fermer va dehqon xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi (1998), "Dehqon xo'jaligi to'hrisida"gi (1998), "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi" (1998) Qonunlarga hamda qishloq xo'jaligi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilagn boshqa huquqiy bitimlarga va hukumat qarorlariga asoslanadi. Bu qonuniy hujjatlarda fermerlarga ajratilgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli (50 yil) ijaraga olish huquqi mustahkamlab qoyildi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun ham huquqiy, ham tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Buning natijasida 2007 yilda respublikada fermer xo'jaliklarini soni 185492ta bo'lgan bo'lsa, 2009 yilda 220, 1taga yetdi. Qashqadaryo viloyatda 33447tani tashkil qildi. Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jalik foydalanishidagi yerlar maydoni 4881,9 ming gektardan ko'proqni tashkil qilib, bir xo'jalik ixtiyoridagi yer maydoni 26,3 gektarga, har bir kishiga 3,49 gektarni tashkil etadi.

O'zbekistonda xo'jalik toifalari boyicha yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarilishini chizmada tasvirlash mumkin.

| t/r | Xo'jaliklar | Yillar | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2008 |
| 1 | Qishloq xo'jalik korxonalari | 28,5 | 25,9 | 22,2 | 19,6 | 15,2 | 10,1 |
| 2 | Dehqon xo'jaliklari | 66 | 64,1 | 63 | 59,7 | 60,2 | 57,6 |
| 3 | Fermer xo'jaliklari | 5,1 | 10 | 14,8 | 20,4 | 24,6 | 32,3 |

**O'zbekistonda xo'jalik toifalari boyicha yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi (ulushi), foiz hisobida**



Respublikada fermer xo'jaliklari samarali ishlash uchun zarur xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma – agrofirmalar, mashina-traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalar tizimi, aholiga xizmat qiluvchi ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash va boshqa maqsadida ham infratuzilmalarga e'tibor berilmoqda. Birgina 2007 yili qishloq joylarda 1,6 ming kilometrdan ortiq suv quvurlari va 710 kilometr gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi. Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash 84 foizga. Shu jumladan qishloq joylarida 77 foizga yetdi, tabiiy gaz bilan ta'minlanish 82 foiz, qishloqlarda 77 foizgacha ko'paydi.[4]

Agrobiznes ham qishloqlardagi tarkibiy o'zgarishlardan biridir. **Agrobiznes** – bu qishloqdagi agrofirmalar bilan sanoat xos resursdagi birgalikda ishlatib, iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi.

**Agrofirma** – ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir. Bunday korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik aosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin.

Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.

**Agrosanoat birlashmalari** – bir turdagi mahsulot ishlab chmqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir nechta xo'jalik hamda korxonalarning birlashmasidir. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi tsex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtiroqchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

**Agrosanoat kombinatlari** qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududida birlashuvidir. Qishloq xo'jaligidagi davlat korxonalari, jamoa xo'jaliklari va shirkatlari, turli xil mulkchilik asosida tashkil qilingan qo'shma korxonalar ham agrobiznes turlari sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Agrobiznes turiga ko'ngilli va paychilik mablag'lari asosida tashkil qilingan turli xil uyushma va ittifoqlarni ham kiritish mumkin.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Agrar munosabatlar** – yerga egalik qilish, o'zlashtirish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish bilan bog'liqlikda vujudga keldaigan munosabatlar;

**Renta munosabatlari** – yerdan foydalanish natijasida vujudga kelaigan qo'shimcha sof daromadni taqimlash va o'zlashtirish bilan bog'liqlikda vujudga keladigan munosabatlar ;

**Differentsial renta** – yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad;

**Differentsial renta I** – yerlarning tabiiy unumdorligidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad;

**Differentsial renta II** – yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad;

**Absolyut renta** – qishloq xo'jaligida yerga bo'lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdari yaxshi, o'rtacha va yomon yerlardan olinadigan renta;

**Monopol renta** – alohida tabiiy sharoitga ega bo'lib, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta;

**Undirma sanoatda renta** – foydali qazilma konlarining joylashishi (er yuzasiga nisbatan) va ularning boyligi jihatdan farqlar natijasida vujudga keladi;

**Agrosanoat majmuasi** – qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi;

[4] "Халқ сўзи" газетаси, 2008 йил, 9 февраль

**Qishloq xo’jalik ishlab chiqarish infratuzilmasi** – bevosita qishloq xo’jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko’rsatuvchi sohalar;

**Ijtimoiy infratuzilma** – odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan sohalar;

**Agrosanoat integratsiyasi** – qishloq xo’jaligi bilan unga xizmat qiluvchi a mahsulotni iste‘molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o’rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir;

**Agrobiznes** – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo’jaligi va u bilan bog’liq sohalardagi namoyon bo’lish shakli;

**Agrofirma** – ma‘lum turdagi qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo’shib olib boradigan korxonadir;

**Agrosanoat birlashmalari** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog’liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug’ullanuvchi bir necha xo’jalik hamda korxonalarning birlashmasidir. Masalan, bog’dorchilik va uzumchilik bilan shug’ullanuvchi xo’jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi tsex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi;

**Agrosanoat kombinatlari** – qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo’jalik va korxonalarning ma‘lum bir hududida birlashuvidir;

**Agrobiznes** - qishloq xo’jalik sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati. Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo’g’ini fermer va dehqon xo’jaliklaridir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o’rnini va xususiyatlarini ko’rsatib bering.
2. “Yerga egalik” va “erdan foydalanish” tushunchalarini izohlang.
3. Yer rentasi (nazariyasining) nazariya larining umumiy tomonlari va tub farqlarini ko’rsatib bering.
4. Yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.
5. Differentsial (I va II) va absolyut rentasining hosil bo’lish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini tushuntiring.
6. Monopol renta nima?
7. Qazib oluvchi va undirma anoatda renta qanday hosil bo’ladi?
8. “Ijara haqi” va “er rentasi”ning farqlarini izohlang.
9. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga ta‘rif bering.
10. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalari iqtisodiy mazmuniga o’z fikringizni bildiring.

# III bo’lim. MILLIY IQTISODIYot (MAKROIQTISODIYot)NING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIYatLARI

## 12-MAVZU. MILLIY IQTISODIYot VA UNING MAKROIQTISODIY O’LCHAMLARI. YalPI MILLIY MAHSULOT VA UNING HARAKAT ShaKLLARI

### *Kirish*

Ushbu mavzudan boshlab, iqtisodiy munosabatlar makroiqtisodiy darajada tahlil qilinadi. Dastlab milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiyot ko’rsatkichlariga tavsif beriladi. Milliy ishlab chiqarishning natijasi hisoblangan ijtimoiy mahsulot, yalpi milliy mahsulot, ularning harakat shakllari va tarkibiy qismlarining iqtisodiy mazmuni yoritiladi. Shunday so’ng milliy hisoblar tizimi hamda uning asosiy ko’rsatkichlarini hisoblash usullari yoritiladi va aniqlanadi.

***Reja:***

1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari.
3. Yalpi milliy mahsulot (YaiM)ni hisoblash usullari**.**

***1-savol. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari***

Milliy iqtisodiyot ko'plab o'zaro bog'liq iqtisodiy tizimlar birikmasidan iborat bo'lgan murakkab iqtisodiy tizimni vujudga keltirdi.

**Milliy iqtisodiyot** - barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funktsional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir. Milliy iqtisodiyot bu turli shakldagi xo'jaliklarning tarkib topgan tuzilishi bo'lib, uning asosida mehnat taqsimoti va uning rivojlanishi yotadi. Turli shakldagi xo'jalik shakllari milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini tavsiflab beradi.

Makroiqtisodiy jihatdan qaralganda milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mamlakatda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslari; ularning ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ajralib chiqqan iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi taqsimoti hajmi; mazkur sub'ektlar ishlab chiqarish hajmlari, milliy mahsultni ishlab chiqarish jarayonlarida shakllanuvchi tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini chizma orqali tasvirlash mumkin:




Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi.

**Makroiqtisodiyot** – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarini bir butun qilib birlashtirish natijasida hosil bo'lgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohalarini oladi. Milliy iqtisodiyotning asosiy funktsional ahamiyati mamlakat barcha aholisining doimiy ravishda o'sib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda namoyon bo'ladi. Milliy iqtisodiyotning mazkur asosiy muammosi naqadar samarali hal etilayotgan makroiqtisodiy tahlilyordamida aniqlanadi.

**Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi** – takror ishlab chiqarish jarayonini ob'ektiv ravishda aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni ochib berishdan iboratdir. **Bu maqsadga erishishning muhim shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:**

1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning holati va harakatini ob'ektiv aks ettiruvchi statistik (holat, vaziyat) ma'lumotlarning mavjudligi;
2. Mamlakat iqtisodiyotini tahlil qilishda keng miqyosda va tarixiy jihatdan yondashuv;

3. Iqtisodiy tizim salohiyatini haqqoniy ravishda baholamasdan hamda iqtisodiy qonunlarning ob'ektiv amal qilishini bilmasdan turib mamlakat iqtisodiyotiga aralashuv salbiy holatlarni keltirib chiqarishini anglash;

4. Makroiqtisodiy nazariya muayyan mamlakatlarning iqtisoiyotini ob'ektiv ravishda tadqiq etish asosida yaratilishini hamda undan boshqa mamlakatlar amaliyotida o'ta ehtiyotkorlik bilan foydalanish mumkinligini tushunish;

5. Ishlab chiqarishni mamlakat barcha aholisining daromalari va iste'mol darajasini o'stirishga yo'naltirish;

6. Aholi daromadlari, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik o'sishining yagona manbai bo'lib mamlkatning barcha aholisining ish joylari hamda aromadlarning oshishi bilan ta'minlovchi milliy ishlab chiqarishning barqarorva samarali o'sishi ekanligini tushunish.

Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim **makroiqtisodiy ko'rsatkichlar** – yalpi milliy mahsulot (YamM), yalpi ichki mahsulot (YaiM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatlarining umumiy va pirovard natijalarini qarab oladi. Ko'pgina maroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho beriladi va ular faoliyatining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati, uning o'sishi yoki pasayishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi, ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi.

### *2-savol. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari*

Jamiyat a'zolarining ehtiyojlari muntazam ravishda yangilanib, miqdoran ko'payib va sifat jihatdan takomillashib borgani sababli, bu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish jarayoni ham to'xtovsiz yangilanib, takroran amalga oshib boradi. Jamiyat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlarining muntazam ravishda yangilanib va takroran amalga oshirilib turilishi **ijtimoiy takror ishlab chiqarish** deyiladi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish ikki ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin:

1. Oddiy takror ishlab chiqarish;
2. Kengaytirilgantakror ishlab chiqarish.

**Oddiy takror ishlab chiqarish** – bu ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarmagan holda takrorlanishini ifodalaydi. Bu o'zini ichki ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'lib, an'anaviy iqtisodiyot sharoitidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun xos bo'lgan.

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish** – bu ishlab chiqarish miqyoslarini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishidir.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida mamlakat miqyosida milliy mahsulot yaratiladi. Milliy mahsulot barcha moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlarni o'z ichiga olib, milliy hisobchilikda yalpi milliy mahsulot (YamM) deb yuritiladi.

**Yalpi milliy mahsulot (YamM)** – bu o'z mamlakati yoki xorijda joylashuvidan qat'iy nazar, milliy korxonalar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmining jami qiymatidir.

Mamlakat ichkarisida yaratilgan iqtisodiyt bu yalpi ichki mahsulotni tashkil etadi. **Yalpi ichki mahsulot (YaiM)** – bu ma'lum vaqt mobaynida (davomida), masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidir.




Hozirgi vaqtda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi hisobga olinmoqda. 2007 yilda yalpi ichki mahsulot 9,5 foizga o'sdi, 2008 yilda 9,0 foiz, 2009 yilda – 8,21 foiz o'sish ta'minlandi.

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaiM hajmini topishda sotilgan va qayt sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi.

**Qo'shilgan qiymat** – bu korxona yalpi mahsuloti bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

**T =c + v + m** (1) lar yig'indisi va xizmatlar hajmi YaiMni tashkil qiladi, undan Aa (amortizatsiya ajratmasi) chiqariladi va sof milliy mahsulot (SMM) qoladi.

**YaiM – Aa = SMM** (2)

Tovar qiymatidagi (c + v) moddiy xarajatlarni mahsulotni bozor narxidan ajratib tashlansa qolgan miqdor qo'shilgan qiymatni hosil qiladi.

Yalpi milliy mahsulotga baho berishda nominal va real milliy mahsulot hisobga olinadi. Joriy bozor narxlarida hisoblangan milliy mahsulot nominal milliy mahsulot, o'zgarmas qiyosiy narxlarda hisoblangan milliy mahsulot esa real milliy mahsulot deb yuritiladi. Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari summasini, xuddi shunay tovarlar va xizmatlar miqdorining bazis davridagi narxlari summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri "bazis yili" deyiladi. Agar aytilganlarni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\textbf{Narx indeksi} = \frac{\textbf{joriy yildagi iste'mol tovarlari narxi}}{\textbf{bazis yildagi iste'mol tovarlari narxi}}$$

Joriy tsikldagi nominal YaiMni real YaiMga aylantirishning ancha oddiy va to'g'ridan-to'g'ri usuli nominal YaiMni narx indeksi (Ni) ga bo'lishdir, ya'ni:

$$\textbf{Real YaiM} = \frac{\textbf{nominal YaiM}}{\textbf{Ni}}$$

Yalpi ichki mahsulot (YaiM) dan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa **sof milliy mahsulot (SMM)** ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

**YaiM – amortizatsiya yillik summasi = SMM**

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxona tomonidan o'rnatiladigan narxga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushai va uning hisobiga o'zlarining daromadining bir qismini

yo'qotadi. Shuning uchun, SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa **milliy daromad (MD)** ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

***SMM – biznesga egri soliqlar = milliy daromad***

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan milliy daromad farqlanadi. **Ishlab chiqarilgan milliy daromad (MD) –** bu yangidan yaratilgan qiymatning butun hajmidir, ya'ni:

***MD = ZM + QM*** *dan iborat.*

**Foydalanilgan milliy daromad (MD)** – bu ishlab chiqarilgan milliy daromaddan yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, mahsulotlarni zaxirada saqlashdagi yo'qotishlar va h.k.) va tashqi savdo qoldig'i chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

Milliy daromadning bir qismi, jumladan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, korxona foydasidan to'lanuvchi soliqlar (10%, 9% hozir 8 % ga tushirildi) va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi amalda uy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydi. Aksincha, uy xo'jaliklari oladigan daromadning bir qismi, masalan, ijtimoiy to'lovlar – ular mehnatining natijasi hisoblanmaydi.

**Shaxsiy daromad** ko'rsatkichini topish uchun milliy daromaddan uy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydigan daromadlarning yuqoridagi uchta turini chiqarib tashlashimiz hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlarni unga qo'shishimiz zarur.

**Milliy daromad – ijtimoiy sug'urta ajratmasi – korxona foydasiga soliqlar + ijtimoiy to'lovlar = shaxsiy daromad**

Shaxsiy daromaddan soliqlari to'langandan keyin, uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi.

Milliy mahsulot hajmining aniq baholanishiga xufyona iqtisodiyot ta'sir ko'rsatadi. **Xufyona istiqodiyot** – bu tovar-moddiy boyliklar va xizmatlarning jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan harakati, ya'ni davlat boshqaruv organlaridan yashirin holda alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida amalga oshiriluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Bu munosabatlar o'z ichiga iqtisodiy faoliyatning barcha hisobga olinmagan, tartibga solinmagan turlarini oladi. Xufyona iqtisodiyot tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. **Jamiyatga aloqador iqtisodiyot** – rasmiy iqtisodiyot tarkibiga iqtisodiy jinoyatning kiritilishi (boyliklarning talon-taroj qilinishi; nazoratning har qanday shaklidan yashiringan holdagi xufyona iqtisodiy faoliyat – narkobiznes, qimor oyinlari, fohishabozlik; daromadlarni noiqtisodiy qayta taqsimlash shakli sifatidagi fuqarolarning shaxsiy mulkiga qarshi mulkni zo'rlik bilan tortib olish, o'g'irlash, reket);

2. **Soxta iqtisodiyot** – hisobga olish va hisobotlarning amaldagi tizimiga soxta natijalarni haqiqiy natijalarni haqiqiy natija sifatida kirituvchi rasmiy iqtisodiyot (qo'shib yozishlar);

3. **Norasmiy iqtisodiyot** – iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi norasmiy o'zaro aloqalar tizimi bo'lib, u mazkur sub'ektlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar va bevosita aloqalarga asoslanadi;

4. **Yashirin ikkilamchi iqtisodiyot** – yakka tartibdagi va kooperativ faoliyatining nazoratdan yashiringan, ya'ni qonun tomonidan taqiqlangan yoki belgilangan tartibda royxatdan o'tmagan turi.

### *3-savol. Yalpi milliy mahsulot (YaiM)ni hisoblash usullari*

Milliy mahsulotni hisoblashda milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi. **Milliy hisoblar tizimi (MHT)** – bu barcha asosiy iqtisodiy jarayonlarni, takror ishlab chiqarish sharoitlari, jarayonlari va natijalarini tavsiflovchi o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, tasniflar va guruhlar tizimi.

MHT BMT tomonidan e'lon qilingan "milliy hisoblar va yordamchi jadvallar tizimini" nomli hujjat asosida xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953 yildan boshlab qo'llana boshladi. Hozirgi davrda dunyoning 100 dan oshiq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda mazkur tizim keng qo'llaniladi.

**Milliy hisoblar tizimi** asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo'lishi mumkin. Daromad xo'jalik birliklari va aholi daromadlari (ish

haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to'rtta guruhdan iborat bo'ladi:

*1. Iste'mol;*

*2 . Investitsiyalar;*

*3. Davlat xaridi;*

*4. Sof eksport.*

Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yordagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi. Ushbu milliy hisoblar tizimi asosida YaiM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

**Birinchi usul –** bu YaiMni hisoblashga ko'shilgan qiymatlar boyicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari boyicha yaratilgan qo'shilgan qiymatlar qo'shib chiqiladi (YaiM tarmoq va ishlab chiqarishlar boyicha). Bu usul bilan hisoblangan YaiM alohida tarmoq (va ishlab chiqarishlar) larning o'z mahsulotini yaratishdagi o'rnini va hissasini aniqlash imkonini beradi.

**Ikkinchi usul** - bu YaiMni hisoblashga sarf-xarajatlar boyicha yondashuv. Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo'shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqrailgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida xo'jalikning uchta sub'ekti – uy xo'jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda tashqaridan chet ellik iste'molchilar sotib olishi mumkin**.**

**Uy xo'jaliklarning iste'mol sarflari –** bu kundalik ehtiyojdagi tovarlarga, xizmatlarga, uzxoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir**.**

**Investitsion sarflar –** tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni yalpi jamg'arishga qilinadigan sarflardir. Investitsion sarflar asosan 3 ta qismdan iborat**:**

a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va stanoklarning barcha xaridi;

b) barcha qurilishlar;

v) zahiralarning o'zgarishi.

YaiM o'z ichiga yil davomidagi zag'iralar va ehtiyojlar barcha o'sishining bozor qiymatini oladi. Zahiralarning bu o'sishi YaiMga joriy ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi sifatida qo'shiladi. Milliy hisoblar tizimida YaiMni hisoblashda yalpi, xususiy va ichki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ichki investitsiyalar mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi.

**Yalpi investitsiyalar** o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rnini qoplash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni hamda iqtisodiyotda kapital qoyilmalar hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investitsiyalar ohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash summasini va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi.

**Davlat sarflari –** bu mahsulotlarni va iqtisodiy resurslarni, xususan, ishchi kuchini sotib olishga davlatning (boshqaruvning quyi va mahalliy organlari bilan birga) qilgan barcha sarflarini o'z ichiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YaiMni sarflar boyicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq tovar va xizmatlarning sof eksport deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo'lsa ijobiy, import eksportdan rtiq bo'lsa salbiy bo'ladi. YaiM hajmi – kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlarning sarflari va moddiy aylanma vositalari zaxirasidagi o'zgarishlarni qo'shib chiqish yo'li bilan aniqlanadi.

**Uchinchi usul –** bu YaiMni hisoblashga daromadlar boyicha yondashuv. Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo'jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Ana shu daromadlarni barchasini qo'shib chiqish orqali YaiM aniqlanadi.

Amortizatsiya ajratmasi shu yil ishlab chiqarilgan mahsulot (YaiM) qiymati tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kirib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklida qaytib keladi va amortizatsiya fondi hisobida to'planib boradi.

Egri soliqlar korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlari sifatida chiqadi va shu sababli mahsulot narxiga qo'shiladi. Bunday soliqlar o'z ichiga aktsiz to'lovlari, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig'i, litsenziya va bojxona to'lovlarini oladi.

YaiMni daromadlar boyicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxona va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin.

***YaiMni hisoblashga sarflar va daromadlar boyicha yondashuv***

| | **Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi boyicha hisoblash** | | **Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi boyicha hisoblash** |
|---|---|---|---|
| **1** | Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari<br>+ | 1 | Daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarf va to'lovlar<br>a) amortizatsiya<br>b) egri soliqlar<br>+ |
| **2** | Tadbirkorlarning investitsion sarflari<br>+ | 2 | Ish haqi<br>+ |
| **3** | Tovar va xizmatlarning davlat xaridi<br>+ | 3 | Renta to'lovlari<br>+ |
| **4** | Chet elliklar sarfi<br>+ | 4 | Foiz<br>+ |
| **5** | Notijorat muassasalari sarfi<br>+ | 5 | Foyda<br>+ |
| **6** | Moddiy aylanma vositalar zaxirasidagi o'zgarishlar | | |
| | **YaiM** | | **YaiM** |

Daromadlarning eng muhim turi ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta to'lovlari va nafaqa ta'minotining har xil xususiy fondlari, ishsizlik nafaqalari va boshqa har xil mukofot hamda imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ish haqiga bu qo'shimchalar ishchi kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xarajatining bir qismi sifatidai chifadi va shu sababli korxonaning ish haqi to'lashga umumiy sarflarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Foiz pul kapitali egalariga pul daromadi to'lovlaridan iborat. Bunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan foizli to'lovlar, foizli daromadlar tarkibidan chiqariladi. Mulkdan olinadigan daromadlar ikki turga bo'linadi: bir qismi mulkga daromad va boshqa qismi esa korporatsiyalar foydasi deyiladi.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Makroiqtisodiyot** – modiy va nomoddiy ishlab chiqarish saohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir;

**Milliy hisoblar tizimi** – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi;

**Yalpi milliy mahsulot (YamM)** – milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi;

**Yalpi ichki mahsulot (YaiM**) - yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati;

**Sof milliy mahsulot (SMM**) – amortizatsiya ajratmalari summasiga kamaytririlgan YaiM sifatida chiqib, tarkiban milliy daromad va egri soliqlardan iborat bo'ladi;

**Milliy daromad** – yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo’lib, SII dan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo’li bilan aniqlanadi;

**Shaxsiy daromad** – milliy daromaddan ijtimoiy sug’urta ajartmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo’liga kelib tushadigan ijtimoliy to’lovlar summasini qo’shish yo’li bilan aniqlanadi;

**Nominal YaiM** – joriy narxlarda hisoblangan YaiM;

**Real YaiM** – narxlarning o’zgarishini hisobga olib, o’zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YaiM;

**Qo’shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste‘mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati;

**Oraliq mahsulot** – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar;

**Pirovard mahsulot** – ishlab chiqarish jarayoni, yakunlangan, shaxsiy va unumli iste‘mol qilishga tayyor bo’lgan mahsulotlar;

**Xufyona iqtisodiyot** – YaiMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foyalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirigan qismi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari***:

1. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nima?
2. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
3. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol oynaydi?
4. YaiM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SIM va milliy daromad-chi?
5. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.
6. YaiM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat?
7. Nominal va real YaiM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko’rsating.
8. Agar joriy yildagi nominal YaiM hajmi 700 mlrd so’mga, narx indeksi 1,5 ga teng bo’lsa, real YaiM hajmi qancha bo’ladi? Agar narx indeksi 0,8 ga teng bo’lsa-chi?
9. Takroriy hisob, qo’shilgan qiymat, oraliq mahsulot va pirovard mahsulot tushunchalarini izohlab bering.
10. Sof iqtisodiy farovonlik ko’rsatkichining mohiyati hamda hisoblash tartibini tushuntirib bering.

## 13-mavzu. ISTE‘MOL, JAMG’ARMA VA INVESTITSIYALAR

***Kirish***

Ushbu mavzuni tushuntirishda milliy mahsulotning tarkibiy qismi bo’lgan milliy daromad (MD)ni shakllanishni tushunmoq lozim. Milliy daromadni tahlil qilish jarayonida, uning iste‘mol hamda ishlab chiqarishni kengaytirishga ketadigan qismi bo’lgan jamg’arishning iqtisodiy mazmunini qarab chiqiladi.

***Reja:***

1. Iste‘mol va jamg’armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o’zaro bog’liqligi.
2. Jamg’arishning mohiyati, omillari va samaradorligi.
3. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar.
4. Jamg’arma va investitsiya o’rtasidagi muvozanatni ta‘minlash muammolari.

### *1-savol. Iste‘mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi*

Milliy iqtisodiyotning yaratishdan hosil bo'lgan milliy daromad iste‘mol va jamg'arish maqsadlarida ishlatiladi. Iste‘mol jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlaran foydalanishni bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste‘mol farqlanadi.

**Unumli iste‘mol** bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste‘mol qilinishini, ya‘ni ulardan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish jarayonining anglatadi.

**Shaxsiy iste‘mol** ishlab chiqarish sohasidan tashqarida roy berib, bunda iste‘mol buyumlaridan bevosita foydalaniladi. Iste‘mol jarayonida turli xil moddiy va ma‘naviy ne‘matlardan foydalaniladi. Iste‘mol yakka tartibda va jamoa bo'lib iste‘mol qilinadi va ularni farqi bo'ladi. Alohida shaxsning o'z ixtiyorida bo'lgan ne‘matlarni iste‘mol qilishi yakka tartibdagi iste‘molga, jamiyat a‘zolari turli guruhlarining ne‘matlardan birgalikda foydalanish jamoa bo'lib iste‘mol qilishni bildiradi.

Milliy daromadning (MD=ZM+QM) jamiyat a‘zolarining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga sarflanuvchi qismi **iste‘mol fondi** deb ataladi.

Iste‘mol fondi barcha aholining shaxsiy iste‘molini aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek ilmiy muassasalardagi barcha sarflarni o'z ichiga oladi. Aholi va davlatni jamg'armasi milliy daromaning (QM) qismidan shakllantiriladi.

**Jamg'arma** – bu aholi, korxona (firma) va dalat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishidir.

**Jamg'arish fondi** – bu barcha xo'jaliklar daromadidan iste‘mol sarflarini ayirib tashlansa uning hajmini tashkil qiladi. Barcha xo'jaliklar daromadi quyidagi yig'indidan iborat bo'ladi:

$$XD = C + S \quad (1)$$

Bu yerda: XD – barcha xo'jaliklar daromadi; S - iste‘mol miqdori; S -jamg'arma miqdorini bildiradi.

Iste‘mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvchi asosiy omil milliy daromad hisoblanadi. Milliy daromad tarkibida turli soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli soliqlar to'langandan keyin aholi qo'lida qoladigan daromad iste‘mol sarflari va shaxsiy jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Aholi qo'lidagi qoladigan daromad ixtiyordagi yoki sof daromad deb ataladi.

Iste‘mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta‘sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik **iste‘mol va jamg'arma funktsiyasi** deyiladi. Bu funktsiyalar bayon etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning nuqtai nazarlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, kishilar o'z mablag'larini qo'shimcha daromad keltirgan taqdirda jamg'armaga yo'naltirishga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning jamg'armaga qiziqishlari shu qadar kuchli bo'ladi, ya‘ni jamg'arma real foiz stavkasining o'sib boruvchi funktsiyasi deyiladi (hisoblanadi). Aholi daromadlari iste‘mol va jamg'arma mablag'larinig yig'indisidan iborat ekan, real foiz stavkasining o'sishi bilan iste‘mol kamayib, pasayishi bilan esa ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra iste‘mol real foiz stavkasining pasayib boruvchi funktsiyasi hisoblanadi.

J. M Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qarshi chiqib, uy xo'jaliklarining iste‘mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq emasligini, kishilar uchun hamma vaqt joriy iste‘molnig kelgusidagi iste‘moldan afzalligini ta‘kidlaydi. U iste‘mol sarflari darajasida ta‘sir ko'rsatuvchi aosiy omil sifatida uy xo'jaliklarining joriy daromalarini ko'rsatadi. Demak, Keyns fikriga ko'ra **iste‘mol uy xo'jaliklari joriy daromadlarining o'sib boruvchi funktsiyasi** hisoblaadi:

Ya‘ni, **C = G' (XD**). (2)

Aholi daromadlarining iste‘molga sarflanadigan ulushi **iste‘molga o’rtacha moyillik (IO’M)** deyiladi va qoyidagicha aniqlanadi:

$$IO'M = \frac{Iste'mol\ sarflari\ hajmi}{Sof\ daromad\ xajmi} = \frac{C}{XD} \quad (3)$$

Aholi daromadining jamg’armaga ketadigan ulushi esa **jamg’armaga o’rtacha moyillik (JO’M)** deyiladi:

$$c\ \frac{Jamg'arma\ hajmi}{Sof\ daromad\ hajmi} = \frac{S}{XD} \quad (4)$$

Daromad hajmining o’zgarishi natijasida iste‘mol sarflari hajmining o’zgarishi darajasi **iste‘molga keyingi qo’shilgan moyillik (IQM)** deyiladi, yoki

$$IKM = \frac{Iste'moldagi\ o'zgarish}{Sof\ daromaddagi\ o'zgarish.} \quad (5)$$

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatining samarali amalga oshishida jamg’arish jarayonlarining ahamiyati beqiyosdir. Shunga ko’ra, jamg’arishning mohiyati, uning omillari va samaradorligi ko’rsatkichlarini alohida ko’rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### *2-savol. Jamg’arishning mohiyati, omillari va samaradorligi*

**Jamg’arish** deb, milliy daromadning bir qismi asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek ehtiyot zahiralarini ko’paytirish uchun sarflanishiga aytiladi.

Jamg’arilgan mablag’larining moddiy ishlab chiqarish sohasinig asosiy kapitallarini va aylanma mablag’larini kengaytirishga ketadigan qismi ishlab chiqarish sohasidagi jamg’arish summasini hosil qiladi. Itimoiy-madaniy sohadagi jamg’arish (noishlab chiqarish jamg’arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o’quv muassasalari, madaniyat, sog’liqni saqlash, spart muassasalari, ya‘ni nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruktsiyalash, yangilashga sarflanadi. Jamg’arish summasi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish suratlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omillardir.

**Jamg’arish normasi** bevosita jamg’arish summasining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$JN = \frac{JS}{MD} x100\% \quad (6)$$

Bunda: JN-jamg’arish normasi; JS-jamg’arish so’mmasi; MD – milliy daromad.

Jamg’arish normasining ham o’z chegarasi bo’lib, uni oshirish iqtisodiy va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, uning haddan tashqari ortishi natijasida investitsion sarflar samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki kapital mablag’lar hajmi bilan qurilish tashkilotlarining quvvatlari, materiallar va uskunalar yetkazib berish imkoniyatlari, infratuzilmaning rivolanishi o’rtaida omutanosiblik paydo bo’ladi. Oqibatda iqtisodiy o’sish pasayib ketishi tamoyiliga ega bo’ladi. Jamg’arish hajmi milliy daromadining bir qismini tashkil etadi va shu ababli milliy daromad hajmi ko’payishini belgilaydigan omillar jamg’arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiysi qo’llaniladigan resurslar masasi va ularning unumdorligidir. Jamg’arish miqdori ishlab chiqarish jarayonida xam ashyo, materiallar, energiyani tejab-tergab sarflashga ham bog’liq. Mahsulot birligiga ularni sarflashni kamaytirish moddiy vosilaraning o’sha miqdorida mahsulotlarni ko’proq hamida ishlab chiqarishga imkon beradi.

### *3-savol. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar*

**Investitsiyalar** – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko’paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini sarflarining pul shaklidagi ko’rinishidir. U pul mablag’lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog’ozlar ko’rinishida amalga oshiriladi. Pul

mablag'lari ko'rinishidagi investitsiya nominal investitsiya, ana shu mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiya deyiladi. Investitsiyalarni royobga chiqarish boyicha amaliy harakatlar – investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs - investor deyiladi.

Investitsiyalarning manbalaridan biri bo'lib, aholi keng qatlamlarining jamg'armalari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, azalda jamg'arma egasi va investor bir shaxsda namoyon bo'lishi va bo'lmasligi ham mumkin. Investitsiya jamg'armalari ko'pchilik sub'ektlar tomonidan amlga oshiriladi, ulardan investitsiya sifatida foydalanish esa butunlay boshqa sub'ektlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa korxonalar jag'armasi ham ivestitsiya manbai bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda "jamg'aruvchi" va "investor" bir sub'ektda mujassamlashadi.

**Investitsion faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin**:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foya, amortizatsiya aratmalari, pul jamg'armalari va h.k)
- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligitsiya, zayomlari, bank kreditlari).
- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aktsiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoiy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa tulovlari)
- davlat byujeti mablag'lari;
- chet elliklar mablag'lari.

Mamlaktimizda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tuzilishi ham yillar davomida o'zgarib bormoqda. Jumladan, yildan yilga davlat byudjeti mablag'larining ulushi kamayib, korxona mablag'lari; to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investiiyalar hamda nobyudjet fondlar mablag'larining ulushi oshib bormoqda.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

Investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi;

Foiz stavkasi.

Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning harakatlantiruchi motivi foyda hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki ular foyda keltiradigan bo'lsa, sotib oladilar.

**Investitsiya darajasiga** kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa **quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi**:

1) Mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;
2) Tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori;
3) Texnologik o'zgarishlar.

Yalpi sarflar tarkibining investitsiya sarflariga oid qismi yalpi xususiy **ichki investitsiyalar** deb yuritiladi. Shunga ko'ra yalpi va sof investitsiyalarni ham bir-biridan farqlash zarur.

**Yalpi investitsiyalar** - joriy yil davomida iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplashga muljallangan (amortizatsiya) hamda iqtisodiyotdagi kapital hajmiga har qanday sof qo'shimchalardan iborat barcha investitsion tovarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

**Sof investitsiyalar** esa joriy yil davomida qo'shimcha ravishda jalb qilingan investitsion tovarlardan iborat.

### *Asosiy kapitalga investitsiyalar va ularning moliyalashtirish manbalari boyicha tarkibi (%):*

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar (mln. so'm) | 744,5 | 1320,9 | 1442,4 | 1867,4 | 2473,2 | 3012,9 | 3838,3 | 5479,7 |
| Davlat byudjeti | 29,2 | 21,5 | 25,0 | 17,7 | 14,9 | 12,8 | 10,7 | 9,0 |
| Korxonalar mablag'lari | 27,1 | 31,0 | 40,0 | 41,8 | 43,2 | 48,5 | 48,3 | 59,0 |
| Aholi mablag'lari | 12,0 | 10,3 | 12,0 | 11,1 | 12,4 | 11,8 | 11,7 | 12,8 |
| Hukumat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar | 19,8 | 23,2 | 15,7 | 19,2 | 14,5 | 6,0 | 4,9 | 22,8 |
| To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar | 3,4 | 4,8 | 4,7 | 7,1 | 10,0 | 13,2 | 14,1 | .- |
| Bankning markazlashgan kreditlari | 5,2 | 5,9 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Tijorat banklarning kreditlari | 1,7 | 2,2 | 1,5 | 1,9 | 2,3 | 2,9 | 3,4 | 3,1 |
| Nobyudjet fondlar mablag'lari | 1,2 | 0,5 | 0,3 | 0,4 | 2,4 | 4,7 | 6,9 | 6,1 |
| Boshqa qarz mablag'lari | 0,4 | 0,6 | 0,7 | 0,8 | 0,3 | 0,2 | 0,0 | 0,0 |
| **JAMI:** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** | **100** |

***Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat staistika ko'mitasi ma'lumotlari***

Sof investitsiya yalpi investitsiya bilan amortizatsiya ajratmalarining ayirmasiga teng sof investitsiya asosiy va aylanma kapitalning o'sishini ta'minlaydi.

### *Asosiy tayanch tushunchalar:*

**Iste'mol** – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi) dan foydalanish jarayoni.

**Shaxsiy iste'mol** – iste'molchilik tasifidagi ne'matlar va xizmatlaridan foydalanishini, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol.

**Unumli iste'mol** – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.

**Iste'mol sarflari** – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

**Jamg'arish** – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida tuplanib borilishi.

**Iste'molga o'rtacha moyillik** – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

**Jamg'arishga o'rtacha moyillik** – shaxsiy daromadning jamg'arishga ketadigan ulushi.

**Iqtisodiy jamg'arish** - milliy daromadning bir qismidan asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyoj va zahiralarini ko'paytirish uchun foydalanish.

**Jamg'arish normasi** – jamg'arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Investitsiya** – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qoyilma.

**Investitsiyalar samaradorligi** – milliy daromad (foyda) o'sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

### *Nazorat savollari va topshiriqlari:*

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarni sanab ko'rsating.

3. Iste‘mol va jamg’armaga funktsiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo’llagan holda tushuntiring.
4. Jamg’arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta‘sir ko’rsatadi?
5. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi?
6. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o’zgarishning iqtisodiyotga ta‘siri qanday?

## 14-mavzu. IQTISODIY O’SISH VA MILLIY BOYLIK

***Kirish.***

Ushbu mavzuda mamlakat, hudud, mintaqalarda ijtimoiy va iqtisodiy masalalar atroflicha hal etishning birdan bir yuli ishlab chiqarishni va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o’sishni ta‘minlash ekanligi o’rganiladi.Iqtisodiy o’sish barqaror bo’lsa uning pirovard natijasida aholi bahramand bo’ladi, turmush farovonligi oshib boradi. Shu boisdan mavzuda iqtisodiy o’sish, uning mazmuni, mohiyati va uning turlari haqida nazariy tushunchalar berib, iqtisodiy o’sishning omillari, milliy boylik tushiuntiriladi. Keyin esa milliy boylikning tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy o’sishga qo’llaniladigan modellar bayon qilinadi.

***Reja:***

1. Iqtisodiy o’sishning ma‘zmuni, turlari va ko’rsatqichlari.
2. Iqtisodiy o’sishning omillari.
3. Iqtisodiy o’sish modellari.
4. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.

### *1-savol. Iqtisodiy o’sishning ma‘zmuni, turlari va ko’rsatkichlari*

Iqtisodiyotda qiyin bo’lgan masalalardan biri iqtisodiy o’sishni ta‘minlashdir. Uni aniqlash mezonlaridan biri bo’lgan iqtisodiy o’sishni tahlil qilish yo’li bilan iqtisodiy rivojlanishni aniqlash mumkin bo’ladi. Iqtisodiy o’sish deb ishlab chiqarishga sarf qilinadigan iqtisodiy resurs xarajatlari hisobidan erishilgan ijobiy natijalar yalpi ichki mahsulotda hisoblanib uni aholi jon boshiga taqsimlanishida ifodalanishiga aytiladi.

**Iqtisodiy o’sish** bo’lsa YaiM hajmi ko’payadi, aholi jon boshiga taqsimlaganda real YaiM miqdori ortib borishi ko’zatiladi. Mamlakat aholisining turmush darajasi real YaiM miqdorini, uni hajmini oritib borishida qo’rinadi.

Mamlakatning iqtisodiy o’sish sur‘atini ko’rsatadigan ko’rsatkichlar quyidagilaridan iborat (real YaiM mahsulot miqdorining ijobiy darajasi o’sishi):

- aholi jon boshiga real YaiMning taqsimlaganda uni ko’payib borishi - bu ko’rsatkichlarda mahsulot sifatini to’liq hisobga olmaydi, real YaiM va aholi jon boshiga YaiMning o’sish bo’sh vaqtining kamayishini bildirmaydi, natijada farovonlik real darajasining pasaytirib ko’rsatilishiga olib keladi. Iqtisodiy o’sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muhitga va insonning hayotiga salbiy ta‘sirini hisobga olmaydi. Shu sababli iqtisodiy o’sishning barcha tavsifi yillik o’sish suratlarining foizdagi o’lchovida to’liq o’z ifodasini topadi:

O’S = (1)

Bu yerda: O’C – iqtisodiy o’sish surati, foizda; YaiM joriy davr – joriy davr (yil)dagi real YaiM hajmi; YaiM bazis davr- taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaiM hajmi;

**O'zbekiston aholi jon boshiga Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi**

| Yillar | Ko'rsatkichlar | | |
|---|---|---|---|
| | Nominal YaiM (mlrd so'm) | Real YaiMning o'sish so'rati | YaiMning aholi jon boshiga o'sishi(%) 28,0 mln. |
| 1999 | 2128.7 | 4.3 | 2.8 |
| 2000 | 3255.6 | 4.0 | 2.5 |
| 2001 | 4868.4 | 4.2 | 3.1 |
| 2002 | 7469.3 | 4.2 | 3.2 |
| 2003 | 9664.1 | 4.4 | 3.2 |
| 2004 | 12189.4 | 7.7 | 6.5 |
| 2005 | 15932.4 | 7.0 | 6.0 |
| 2006 | 20759.3 | 7.3 | 6.2 |
| 2007 | 28186.2 | 9.5 | 8.0 |
| 2008 | 36839.4 | 9.0 | 8.0 |
| 2009 | | 8.1 | |

Iqtisodiy o'sish so'ratining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llanuvchi "70 miqdori qoidasi" yordamida ham ko'rsatish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaiMning 2 barovarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sanini yillik o'sish suratiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish suratining 9,5 % darajasida YaiM ning 2 barobar oshirish uchun 7,3 yil talab etilgan (70:9,5). Holbuki, iqtisodiy o'sishning 2000 yildagi 4,0 % darajasida bu ko'rsatiqichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin bo'lgan. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish suratining yanada oshirilishi bu muddatning sezilarli ravishda qisqarishga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish surati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish omillari miqdorini ko'payishi va oldingi texnikaviy ta'minlanishi saqlab qolgan holda iqtisodiy o'sishga erishish ekstensiv iqtisodiy o'sish deyiladi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarishning ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi boyicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof hoda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarib qoladi.

Ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan takomillashtrish, modernizatsiya qilish – ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchini malakasini oshirish, mavjud ishlab chiqarish potentsialidan to'laroq foydalanish yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga erishish iqtisodiy o'sishini intensiv turi deb aytiladi.

Bu o'sishni ta'minlash - ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning harbiy birligidan olinadi samara, pirovard mahsulot miqdorining o'sishi, mahsulot sifatining oshishiga erishmoq lozim.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda ayrim-ayrim mavjud bo'lmaydi, balki ular bir-biri bilan qo'sh ilgan holda uyg'unlashadi.

Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi;

Mehnat unumdorligining o'sishi;

Ish vaqtini tejash

Shaxsiy daromad;

Foyda massasi;

Milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

. Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;

. Xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;

. Ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

. Mehnat taqsimoti

. Ishlab chiqarishning tashkil etilishi;

. Ishlab chiqarishning ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sish tarmoqlari boyicha hisoblab chiqilib YaiM ko'rsatkichi asosida ham tahlil qilinadi, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat o'rganiladi.

### *2- savol. Iqtisodiy o'sishning omillari*

Iqtisodiy o'sishga erishish nima hisobidan hosil bo'lishini unga ta'sir etuvchi omillar keltirib chiqarishini bilmoq lozim. Bu omillarni ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruh omillari taklif omillari deb aytiladi va iqtisodiy o'sishni belgilab beradi:

a) tabiiy resursning miqdori va sifati;

b) ishchi kuchi resurslar miqdori va sifati;

v) asosiy kapital (asosiy fondlar)ning hajmi;

g) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti ma'lumki, Yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiy resurslar sarflarining funktsiyasi hisoblanadi, ya'ni:

U=F (L,K,N) (2)

Bu yerda: U - Yalpi milliy (ichki) mahsulot; L – ishchi kuchi sarflari; K - kapital sarflari; N - tabiiy resurslar sarflari.

Bu funktsional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

Mehnat unimdorligini (U/L) - mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

MO'= (3).

Mehnat sig'imi (L/U) - jonli mehnat sarflarining mahsuloti ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

MS= (4).

Kapital samaradorligini (U/K) - maxsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

KS= (5).

Kapital sig'imi (K/U) – kapital xarajatlarining mahsuloti ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

KS= (6).

Tabiiy resurslar samaradorligini (U/N)- mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlarini nisbati;

TRS= (7).

Mahsulotning resurslar sig'imi (N/U) - tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati.

MRS= (8).

Ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L)- ishlab chiqarish jarayonida qullanilayotgan kapital hajmining ish kuchi miqdoriga nisbati;

IKKQ = (9).

Yuqoridagi ko'rib o'tilgan iqtisodiy o'sishga qo'llaniladigan omillar ko'rsatqichlardan tashqari yana keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko'rsatqichlari ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatgichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

1. Keyingan qo'shilgan mehnat unimdorligi ;

2. Keyingi qo'shilgan kapital unimdorligi

3. Keyingi qo'shilgan tabiy resurslar unimdorligi ;

Bu ko'rsatqichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etadi. Bu o'sish qoyidagiyig'indi bilan aniqlanadi:

U= L+ K+ N.(10)

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi. Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin:

***Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar***




**Real mahsulot** ikki asosiy usulda ko'paytiriladi:
Resurslarning ko'proq hajmini jalb etilishi;
Ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan ko'paytirishga erishish mumkin;
Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni susaytirib turuvchi omillar ham bor:
1) mehnat muhofazasi;
2) atrof muhitni ifloslanishi.

Xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini muhofaza qilishni tartibga solish, atrof-muhitni ifloslanishini oldini olish uchun muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Bunday tadbirlarni bajarish tegishli xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli mehnat unimdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar boshqa tomonga sarf qilinadi.

***3-savol. Iqtisodiy o'sish modellari***

Iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan omillarni iqtisodchi omillar tomonidan o'rganilishi iqtisodiy o'sish modellarini yaratilishiga sabab bo'ladi. Bu modellar asosida ikkita nazariya-makroiqtisodiy muvozanating keyinscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyondalari qoyidagi noto'g'ri nazariy shartlarga asoslanadi:

Mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;

Ishlab chiqarish omillarining har biri o'zining keyingi qo'shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;

Mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik mavjud;

Ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilish hamda ular o'rtasida o'zaro bir-birining o'rnini bosish imkoniyati mavjud.

Shuning bilan birga neoklassik nazariyachilar koyidagi hatoga yo'l qoyganlar:

1) Ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatini yaratishda barovar ishtirok etadi deb hisoblaganlar. Lekin barcha ishlab chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o'zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi yaratilgan mahsulotga o'tkazadilar. Ular barcha omillar yaratilgan va o'sgan (ko'paygan) mahsulotning foydaliligini yaratishda qatnashadilar.

2) Omillar ichida doimo barcha omillar kabi ishtirok etadigan jonli mehnatning faol rol oynashini qolganlar esa passiv rol oynashini unutadilar. Chunki hech bir tabiiy resurs, kapital resurslari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o'ziga harakatga kelaolmasligi, irib-chirib o'z oyida ham jismonan, ham qiymati yo'q bo'lib ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi million yillar beri milliard martalab taqrorlanib kelmoqda.

### *4-savol. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi*

Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida ajdodlar tomonidan yaratilgan, qoldirilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy boyliklarning yig'indisi **milliy boylik**ni tashkil etadi.

Milliy boylikni 3ta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

Moddiy – buyumlashgan boylik.

Nomoddiy boylik.

Tabiiy boylik.

**Moddiy-buyumlashgan boylik** - bu ishlab chiqarishning unumli mehnatning natijasi hisoblanadi. Ishlab chiqilgan moddiy va nomoddiy mahsulotlarning iste'mol qilingan qismidan ortiqcha qismini jamg'arish hisobidan hosil bo'ladi va o'sib boradi.

Milliy boylik inson mehnati bilan yaratiladi, moddiylashadi, qiymat shakliga ega bo'ladi va tarkibiy tuzilishga ega bo'ladi:

Ishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlar);

Noishlab chiqarish xususiyatidagi asosiy kapital (fondlari);

Aylanma kapital (fondlar);

Moddiy zaharlar tomorqa va yordamchi xo'jaligida jamg'arilgan molk-mulk.

**Moddiy–buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:**

Mehnat unumdorligini o'sishi;

Ishlab chiqarish samaradorligini ortishi;

Milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi;

Milliy boylik tarkibiga tabiat ne'matlari qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va yer resurslari bo'lib, ular ishlab chiqarishda faol qatnashadi. Tabiiy boyliklar jamiyatning potentsial boyligi hisoblanadi, ular inson mehnatining ta'siri natijasida real boylikka aylanadi. Milliy boylikning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida ham yaratiladi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohalarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun, aholining turmush darajasini ta'minlash yaxshilash uchun xizmat qiladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'liqi saqlash, fan, madaniyat, sanat, sport sohalarida vujudga keltiriladi.

### *Asosiy tayanch tushunchalar*:

**Iqtisodiy rivojlanish** - jamiyatning itimoiy iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

**Iqtisodiy o'sish** - YaiM, SMM, MD miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

**Iqtisodiy o'sish mezoni** - iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini (aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy beradigan ko'rsatgichni xarakterlaydi, naflik va natural (jismoniy) kursatqichlari tizimidan iborat.)

**Iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari** - iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalanadigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko'rsatqich tizimidan iborat.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sish** - ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishidir.

**Intensiv iqtisodiy o'sish** - ishlab chiqarish omillarining mavjud darajasida, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishidir.

**Iqtisodiy o'sish omillari** - iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishda o'z o'rniga ega bo'lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini beldiradi.

**Milliy boylik** – insoniyat jamiyati taraqqiyoti ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy va ma'naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tadiat in'omlarining yig'indisidir.

**Moddiy-buyumlashgan boylik** - milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy buyum ko'rinishiga ega bo'lgan qismidir.

**Tabiiy boylik** - milliy boylikning tabiat inomlaridan iborat bo'lgan, foydalanishga jalb qilingan, ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladigan qismidir.

**Ma'naviy boylik** - ashyoviy-buyum ko'rinishiga ega bo'lmagan nomoddiy qimmatliklardan va insoniyatning iktellentual salohiyati natijalaridan iborat.

***Nazorat savollari va topshiriqlari*:**

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarini ta'riflang hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini tushuntiring.
2. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?
3. Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o'sish turlari uchramaydi?
4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishning samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatqichlaridan foydalaniladi?
5. O'zbekistonda nominal YaiM 2001 yil 4868,4 mlrd so'mni, 2002 yil 7469,3 mlrd so'mni, 2003 yil 9664,1 mlrd so'mni, 2004 yil 12189,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Uning yillar boyicha o'sish suratlarini aniqlash. Respublika aholisi 2001 yil 25116, 2002 yil 25428, 2003 yil 25707, 2004 yil 26007 ming kishini tashkil qilganligini hisobga olsak, jon boshiga nominal YaiM o'sish surati qanday o'zgargan?
6. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibiy tuzilishini tushuntiring.
7. Milliy boylik tarkibida moddiy-buyumlashgan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?
8. Nima uchun yer, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o'lchovida baholab, milliy boylik tarkibiga kiritish mumkin emas?
9. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaysiz?

## *15 – mavzu.* MILLIY IQTISODIYOTNING NISBATLARI, MUVOZANATI VA TSIKLLI RIVOJLANISH TAVSIFI

### *Kirish*

Milliy iqtisodiyot miqyosida jamiyatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat asosiy o'rin tutadi. Bu yalpi takliflar (yaratilga milliy daromad MD=3M+QM) o'rtasidagi muvozanatning o'ziga xos namoyon bo'lishini bildiradi. Ushbu mavzuda dastlab iqtisodiy muvozanat tushunchasi va ishlab chiqarish muvozanati darajasini aniqlash qarab chiqiladi. Makroiqtisodiy muvozanatga erishishning bozor mexanizmlari yoritib beriladi. Shundan keyin iqtisodiy tsikkillarga, ya'ni iqtisodiyot uchun xususiyatli bo'lgan ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasining davriy tebranishlariga umumiy tavsif beriladi. So'ngra iqtisodiy tsikl fazalari va davriy tebranishning sabablari ko'rib chiqamiz. Shuning bilan birga agrar inqirozlar va ularning xususiyatlari yoritib beriladi.

*Reja:*

1. Makroiqtisodiy mutanosibliklar va ularning turlari.
2. Makroiqtisodiy muvozanatlikka erishishning bozor mexanizmi.
3. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiy tsikl nazariyalar.
4. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari.

***1-savol. Makroiqtisodiy mutanosibliklar va ularning turlari***

Milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik uning to'rli tomonlari va sohalari o'rtasida mutakasiblik bo'lishini taqozo qiladi. **Iqtisodiy mutanosiblik** iqtisodiyotning turli va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik bo'lishi shart emas. Ular mos keluvchi (2:3, 5:3, 3:1) nisbatlarida bo'lishi mumkin.

Makroiqtisodiyot juda murakkab jarayon bo'lib, ular o'rtasidagi mutanosib turlari ham ko'p bo'ladi . Ularni barchasini umumiylashtirib quyidagi guruhlarini mutanosiblikning tarkibiga keritishi mumkin:

1. **Umumiqtisodiy xarakterdagi mutanosibliklar**. Bunga milliy daromaddagi tarkibiy qismlar: iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi; aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtaidagi mutanosiblik; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. **Tarmoqlararo mutanosibliklar**. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rin to'tadi. Xalq xo'jaligida bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ko'pchilik qismi (paxta, g'alla, pilla, sut va h.z. ) sanoatining tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste'molchilik tovarlari bozoriga chiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohalarining mahsulotlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari (qishloq xo'jaligi, kurilish va h.z) mutanosibliklariga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va iqtisiyotning boshqa tarmoqlari o'tasidagi mutanosibliklari misol bo'ladi va ular bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladilar.

3. **Tarmoq ichidagi mutanosibliklar**. Tarmoq ichida mutanosiblik bo'lsa, tarmoqlararo mutanosiblik hosil bo'ladi. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyulari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligini dehqonchilik va chorvachilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar va h.z. Shu bilan birga ta'kidlab o'tilgan sohalarning ichidagi tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikning sut va gusht ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi va boshqalar.

4. **Hududiy (territorial) mutanosibliklar**. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqazo qiladi. Hududlar o'rtaisdagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivoida muhim rol oynaydi. Masalan, viloyat, tuman, shahar birliklari bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liq bo'ladi. Ularning bog'liqligi ixtisoslashish, ishlab chiqarish nooperatsiyasi va komunikatsiya nuqtai nazardan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinadi.

5. **Davlatlararo mutanosibliklar**. Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. Birinchidan, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, ikkinchidan, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltiriladigan mahsulotlar hisobiga qoldiriladi.

**Milliy ishlab chiqarishning muvazanatli rivojini ta'minlab borishdan quyidagilar ko'zda tutiladi**:

- mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyolarini to'laroq qondirib borish.
- to'la bandlikka erishish, ya'ni mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni hohlaganlarni to'liq va samarali ish balan ta'minlash.

- narx-navoning nisbiy birvarorligiga erishish va uni inflyatsiya ta'siridan holi qilish.
- iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomiladagi pul massasiga bog'la borish.
- eksport va importni muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining faolligiga erishish.

Kursatib o'tilgan maqsadlarga erishishga kishilar intiladi, lekin mutloq muvozanatga erishish mumkin emas, u buzib va qaytadan tiklanib turishi orqali iqtisodiy o'sish notekis boradi.

***2- savol. Makroiqtisodiy muvozanatlikka erishishning bozor mexanizmi***

Iqtisodiyot barqaror rivojlanish uchun uning tomonlari o'rtasida mu'lum muvozanat bo'lishi lozim. **Iqtisodiy muvozanat** deb iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelgan holatiga aytiladi. Bunda jarayon va hodisalarning tomonlari deganda ishlab chiqarish va iste'mol, tarmoqlar, iqtisodiy hududlarda bo'layotgan o'zgarishlar tushuniladi. Muvozanat xususi va umumiy xarakterdagi bir qator muvozanatlar tizimini o'z ichiga oladi.

**Xususiy muvozanatlik** - bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelish. Masalan, ishlab chiqarish va iste'mol, aholining sotib olish layoqati a tovar taklifi masalalari, byudjet daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatliklar ko'rinishida yuzaga chiqadi.

**Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlb o'tganlaridek**: "...ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblikka erishish, ya'ni chiqarilgan pul miqdori bilan unga sotib olinadigan mollar salmog'i o'rtasida to'g'ri nisbatni ta'minlash g'oya katta rol oynaydi....."┐ .

**Umumiy muvozanatlik** - barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi. Bu muvozanat bozor sharoitida, yalpi talab va yalpi taklifning teng kelishida ko'rinadi. Bu birqancha shart-sharoitlarni taqozo etadi:

**Birinchidan,** bu ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishidir.

**Ikkinchidan,** iqtisodiy muvozanatlik mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo'jalik mexanizmini taqazo qiladi.

**Uchinchidan**, muvozanatli ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi lozimligini bildiradi.

**To'rtinchidan,** iqtisodiyotda muvozanatlikning umumiy shart-sharoitlari bo'lib, bozor muvozanati, (ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy to'zilishi) ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hakozolar)da talab va taklif muvozanatga erishish xizmat qiladi.

Iqtisodiy muvozanatlik erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqazo qiladi. Xullas, **makrodarajada umumiy iqtisodiy muvozanatlik – bu mamlakat butun iqtisodiyotning mutanosibligidir.**

**Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda asosan ikkita o'zaro bog'liq usuldan foydalanish mumkin**:

Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli.

Jamg'arish va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

To'liq bandlik sharoitida yalpi sarflar SIM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik **retsession (inqiroz va tug'rilik fazasini bildiradi) yoki inflyatsion farq**da ifodalanadi.

**Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati** shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning harqanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir qismini iste'mol qilmasdan jamg'arishag qoyish mumkin. Jamg'arish, sarflar-daromadlar oqimidan potentsial sarflarni olib qoyish hisoblanadi. Bunda jamg'armaga qoyilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi. Investitsion sarflarning ko'payishi, ishlab chiqarish hajmiga va daromad darajasining o'sishiga olib keldi. Bu o'zaro natija multirlikator samarasi – bu sof

milliy mahsulotdagi o'zgarishning sarflardagi (investitsiyalardagi) o'zgarishga nisbati. "Xarajat va natija"larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs xarajatlari miqdori olingan mahsulot hajmi bilan taqqoslanib muvozanatlik darajasi o'rganiladi.

### *3-savol. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiy tsikl nazariyalar*

Dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiy va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladilar. Lekin iqtisodiy o'sish bir tekis va uzliksiz bo'lmaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzilib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan ob'ektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ositida takror ishlab chiqarish harakatida uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish **iqtisodiyot nomutanosibliklarning keskin shaklda namoyon bo'lishidir**. Bunda iqtisodiyotda yuz beradigan o'zgarishlar davriy ravishda ruy berib, iqtisodiy holatidan yoki bir inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'lqinsimon harakati tushiniladi. Tsikl inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazolarini o'z ichiga oladi.

**Inqiroz** - ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi va tsiklning qayd etuvchi ifodasidir. U bir tsikli nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan to'gaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi, inqiroz vaziyatda asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funktsional shakillarida namoyon bo'ladi.

Inqirozdan keyin t**urg'unlik** keladiki, uning davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlarda vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

**Jonlashish** fazasining boshlanishi ozmi-ko'pmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga o'tishini bildiradi.

Yuksalish fazasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga holda ish haqining o'sishiga olib keladi, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qadar talab kengayadi.

**Iqtisodiy inqiroz** deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi.

**Inqirozning sababi** shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qabil talabga mos kelmaydi (undan oshib ketadi yoki kam buladi) qoladi. Iqtisodiy inqirozga ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi.

**Tashqi omillar:**

- urimlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;

oltin, uran, neft va boshqa qimmatlik resurslar yirik konlarning ochilishi;

yangi hududlarnig ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migiratsiyasi;

yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;

ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

Iqtisodiy tsikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyalar eksternal nazariya deb atash qabul qilingan.

Internal nazariya iqtisodiy tsikillarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillar to'g'diradi deb hioblaydi.

**Ichki omillar**:

- shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

### *4-savol. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari*

Iqtisodiyotdagi inqirozlardan bor ko'rinish yoki uning bir turi tarkibiy inqirozlardir. **Tarkibiy inqirozlar** bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, bayramlar arafasidagi xarid qilish, iste'molchilik tovarlarning faollik suratida, asosan chakana savdogar sezilarli har yillik

tebranishlarga olib keladi. Qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qndaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar **agrar inqirozlar** deb ataladi. **Agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:**

Qishloq xo'jalik mahsulotlarinig nisbat ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zahiralarining to'planishi;

Narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarnig kamayishi;

Fermerlarning ommaviy ravishda xanavayron bo'lishi, ularning qarzlarini ortishi.

Qishloq aholisi o'rtaida ishsizlarning ko'payishi.

Birinchi agrar inqiroz o'tgan asrning 70 yillarida boshlanib, har xil shakillarda 90 yillarda o'rtasigacha davom qilgan edi.

Ikkinchi jahon urishidan keyin, aholining xarid qobiliyati jada pasayib ketgan sharoitda, 1920 yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanishiga qadar davom etdi . Uchinchi agrar inqiroz 1948 yildan boshlanib, 80 yillargacha daom etdi.

**Agrar inqirozlarning cho'zilib ketishinig asosiy sabablari quyidagilar**:

a) yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida, u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning rivojlanishia sanoatga nisbatan orqada qolishi taqazo etadi;

b) yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz suratda o'sib borishi. Yer rentasining, avvalo absolyut rentasining ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi.

v) ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarining majud bo'lishi.

Agrar inqirozlar tsiklli xarakterga ega bo'lmaydi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortiqcha ishlab chiqarish absolyut xarakterga emas balki nisbiy xarakterga ega. Xullas, inqiroz ruy bergan mamlakatlarda millonlab kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydilar.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Iqtisodiy muvozanat** - iqtisodiy arayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelishi holati.

**Xususiy muvozanatlik** – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdori teng kelishi.

**Umumiy muvozanatlik** - jamiyat ehtiyojlari bilan mavjud iqtisodiy resurslar va ishlab chiqarish hajmining o'zaro mos kelishi.

**Retsession farq** - yalpi sarflarning sof milliy mahsulo hajmidan kam bo'lgan miqdori.

**Inflyatsion farq** - yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori.

**Multirlikator samarasi** – bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishlarning yalpi sarflardagi o'zgarishlardagi nisbati.

**Iqtisodiy mutanosiblik** –iqtisodiyotning turli tomonlari va sahalari o'rtasida miqdor va sifat o'lchamlarining mos kelishlik darajasi.

***Nazorat savollari va topishiriqlari:***

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday? Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalanadi?
2. Iqtisodiy tsiklning ta'rifini bering va uning har bir fazasinig o'ziga xos belgilarini ko'rsating.
3. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Tsiklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rating.
4. Agrar inqirozlarining xususiyatlarini bayon qiling.
5. Iqtisodiy tsikl asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.
6. Iqtisodiy tsiklning oqibatlarini baholang.

## *16 – mavzu.* YALPI ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK

### *Kirish*

Jamiyatda yaratilayotgan jami yalpi ichki mahsulot muayyan davrda ya'ni bir yil mobaynida moddiy va nomoddiy sohalarda takror ishlab chiqariladi. Iste'mol qiladi, jamg'ariladi va investitsiya qilinadi. Yaim ni yaratuvchisi inson ishchi kuchidir. Ishlab chiqarishning shaxsiy omili bo'lgan ishchi kuchi, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi sifatida takror hosil qilinadi va sifat jihatidan yuqori darajada hosil qilinadi. Barcha ishlab chiqarish vositalarini va uning qiymatini ishchi kuchi yaratadi. Yangi qiymat hosil qiladi, shu jumladan o'zini qiymatini ham yaratadi.

Mavzuni o'rganishdan maqsad: mamlakat miqyosida yalpi ishchi kuchining mazmunini muhim ahamiyatga egadir. Ishchi kuchini takror hosil qilish, uning xususiyatlarini yoratib berish, ishchi kuchi bozor va ishsizlik muammolarini nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib beriladi. Shuning bilan birga ishsizlik a uning to'rlari, ishsizlik darajasini aniqlash ususllarini ko'rsatib berishdan iborat. Bundan tashqari ishsizlarni ijtimoiy himoyalash yo'llarini ham ko'rsatib beriladi.

### *Reja*:

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.
2. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchi Yalpi talabi va Yalpi taklifi nisbati.
3. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash.
4. O'zbekiston bandlik muammosi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

### *1-savol. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari*

**Ishchi kuchi** - bu insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda eng avvalo o'zining aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ishlatib, charchagan ishchining qobiliyatini qayta tiklash, ya'ni uning va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish mustaqil va ijtimoiy muammo bo'lib bu muammo aholining tabiiy harakatlari shaklida namoyon bo'ladi . Demak, ishchi ko'chini takror hosil qilishning asosi aholining tabiiy ko'payishidir.

Respublikada mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni 12,6 mln kishini tashkil etadi. Bu mamlakat aholining o'otacha 51,1 foiziga tengdir. Iqtisodiyotda band bo'lgan aholining o'rtacha yillik soni 9,0 mln kishiga teng bo'lib, ishchi kuchi resurslari tarkibiga 71,3 foizni tashkil qiladi.

Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqatli bo'lgan qimi orqali ifodalanib, u **ishchi kuchi resurslari** deb ham yuritiladi. Ishchi kuchi resurslariga kiritilishining asosiy mezoni bo'lib uning yoshi va mehnatga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi . Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa sohalarda band bo'lgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Ishchi kuchi resurslarinig faol va potentsial qismi bo'lib, ular farqlanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan shaxslar **ishchi kuchi resurslarining faol qismi** hisoblansa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligida band bo'lganlar **potentsial qism**ini tashkil etadi. Mamlakatda doimiy aholi soni 2009 yilning birinchi yanvar holatiga ko'ra 27,6 mln kishini tashkil etib, u oldingi yilga nisbatan 483,1 ming kishiga yoki 1,8 foizga o'sgan. Aholining tabiiy o'sishi 508,9 ming kishini tashkil etib, shundan 331,8 ming kishi yoki 65,2 foiz qishloq joylariga to'g'ri keladi.

O’zbekistonda aholining tabiiy harakati qoyidagi ma‘lumotlar bilan tavsiflanadi.

***Respublika aholisining tabiiy harakatlanishi***

| **Yillar** | **Ko’rsatkichlar (har 1000 ming kishi hisobiga)** | | |
|---|---|---|---|
| | **tug’ilish** | **o’lish** | **tabiiy o’sish** |
| 1991 | 34.5 | 6.2 | 28.3 |
| 1995 | 29.8 | 6.4 | 23.4 |
| 1996 | 27.3 | 6.2 | 21.1 |
| 1997 | 26.0 | 5.9 | 20.1 |
| 1998 | 23.0 | 5.8 | 17.2 |
| 1999 | 22.3 | 5.3 | 17.0 |
| 2000 | 21.5 | 5.5 | 16.0 |
| 2001 | 20.4 | 5.3 | 15.1 |
| 2002 | 20.9 | 5.4 | 15.5 |
| 2003 | 19.8 | 5.3 | 14.5 |
| 2004 | 20.4 | 5.0 | 15.4 |
| 2005 | 20.3 | 5.4 | 14.9 |
| 2006 | 20.9 | 5.3 | 15.6 |
| 2007 | 22.6 | 5.1 | 17.5 |
| 2008 | 23.6 | 5.0 | 18.6 |
| 2009 | | | |

Respublikada ishchi kuchi resurslarining o’rtacha yillik soni 2008 yilda 16,3 mln kishini tashkil qilgan, bu mamlakat aholisining 59,1 foiziga tengdir. Iqtisodiyotda band bo’lgan ishchi kuchi o’rtacha yillik soni 11.0 mln kishidan ortiq bo’lib, jami ishchi kuchi resurslari tarkibida 67,5 foizni tashkil qiladi.

Aholining tabiiy harakatlanish, uni takror ishlab chiqarish xususiyati kupgina holatlar bilan mamlakatning industrial taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy shart-sharoitlar madaniyat va maishiy turmush ananalari, aniq tarixiy omillar bilan belgilanadi. Ular jumlasi demografiya omilini hisobga olgan holda uy-joy sharoitlarini yaxshilash, bolalarga nafaqalar berish, ularni bolalar muassasalari bilan ta‘minlash, homiladorlik va bola tug’ilgandan keyingi ta‘tillarni uzaytirish, oilani mustahkamlash, shuningdek, jamoada ma‘naviy muhitni yaxshilash kiradi.

Mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga tabiiy o’sishdan tashqari ishchi kuchi migratsiyasi ham ta‘sir qiladi**. Ishchi kuchi migratsiyasi** murakkab jarayon bo’lib, turli omillar ta‘sir ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o’zgarishlar, ishsizlik va h.k) ishchi kuchining bir hududidan boshqa bir hududga ko’chib o’tishini bildiradi. Migratsiya ikki darajada, ya‘ni mamlakat ichida va xalqaro darajada roy bergan migratsiya **ichki migratsiya** deb ataladi, u quyidagi shakllarda bo’lishi mumkin:

**Tugal migratsiya** - aholinig doimiy yashash joyini o’zgartirish bilan bog’liq migratsiya;

**Tebranuvchi migratsiya** –ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qaynab ishlashi bilan bog’liq migratsiya;

**Mavsumiy migratsiya** – mavsumiy ish faoliyati bilan bog’liq migratsiya;

**Tasodifiy migratsiya** – ishchi kuchining ba‘zi hollarda boshqa hududlarga birib kelishi bilan bog’liq migratsiY.

Ishchi kuchi migratsiyasi shunchaki roy-bermay, uning negizada ma‘lum ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi sifatida mamlakat boylab mehnat resurslari samarali ishchi kuchiga bo’lgan talab va taklif nisbatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu vazifaning amalga oshishi natijasida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi oshadi.

**Ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy vazifasi** - aholi turmush darajasini oshirish, inson omilining ijtimoiy hayotdagi roli va maqeini yanada yuksaltirishdan iborat. Aholini ish bilan to’la band bo’lishni mutloq ma‘noda tushunmalik ham kerak. Birinchidan, ishsizlikning ma‘lum darajasi iqtisodiyot uchun me‘yordagi hol xisoblanadi. Ikkinchidan, ish bilan to’la band bo’lish mehnatga layotqatli barcha kishilar albatta umumlashgan (davlat va jamoa korxonalarida ) ishlab chiqarishag jalb etilishi zarurligini anglatmadi. Ularning bir qismi o’zini oilada xizmat ko’rsatishga, bolalar tarbiyasiga, shuningdek, xususiy korxonalar va shaxsiy yordamga xo’jalikda mehnat qilishag, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug’ullanishning ajratadilar. Uchunchidan, ish bilan tula band bo’lish uning samaradorligi bilan, mehnat resurslaridan g’oyat oqilona foydalanish bilan kuchib olib borishlari maqsadga muvofiq bo’ladi.

***2-savol. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchi Yalpi talabi va Yalpi taklifi nisbati***

**Ishchi kuchi bozori** - bu xo’jalik faoliyati arayonida “ishchi kuchi” tovari egalari va uning asosiy iste‘molchilari-davlat va tadbirkorlar o’rtaisda mehnat sharoitlari va unga haq to’lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning hajmi, intensivligi va masuliyat darajasi boyicha tarkib topuvchi ijtimoiy –iqtisodiy munosabatlarining murakkab tizimi. Ishchi qiymati va iste‘mol qiymati (nafligi) bor.

**Ishchi kuchining qiymati** nafaqat ishchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, balki ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda uning sifatini oshirish jarayonlarni yetarli darajada ta‘minlash uchun zarur bo’lgan barcha hayotiy ne‘matlarning jami qiymatini o’z ichiga oladi.

Ishchi kuchi qiymati o’zgaruvchan ko’rsatigich bo’lib, u turli omillar ta‘sirida oshib yoki pasayib turishi mumkin. **Ishchi kuchi qiymatini oshiruchi omillar** qatoriga quyidagilarni keritish mumkin:

ishchi kuchiga bo’lgan ehtiyojlarning ob‘ektiv ravishda o’sishi;

mehnat intensivligining oshishi;

o’qish va kasbiy bilimlar olishga sarflarning ko’payishi va h.k.

**Ishchi kuchini qiymatini pasaytiruvchi asosiy omil** bo’lib moddiy ishlab chiqarish sohasidagi ijtimoiy mehnat unumdorliginig o’sishi hisoblanadi. Bu esa ishchi va uning oilasi ehtiyojlarini qondiruvchi hayotiy vositalar qiymatining pasayishiga olib keladi. Ishchi kuchi tovarining nafliligi uning kapital egasining foyda olishga bo’lgan ehtiyojini qondirish layoqati orqali namoyon bo’ladi.

Ishchi kuchi bozori tovar va kapitallar bozori bilan birgalikda bozor xo’jaligining iqtisodiy tizimini tashkil etadi. Ishchi kuchining bu bozordagi harakati bir qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga egadir.

**Birinchidan**, ishchi kuchi bozori ikki mustaqil sub‘ekt-kapital egasi va ishchi kuchi egasi magfaatlarinng o’zaro to’qnashish munosabatlari hisoblanadi. Ularni bozorga o’zaro qarama – qarshi istak va maqsadlar yetaklaydi.

Ikkinchidan, ishchi kuchi bozorida ham ishchilar o’rtasida bo’sh ishchi o’rnini egallash borasida raqobat kurashi vujudga keladi.

**Uchinchidan**, ishchi kuchi bozori ishchi kuchi yalpi taklifning unga bo’lgan yalpi talabdan doimiy ravishda to’proq bo’lishi tendentsiyasi bilan tavsiflanadi. Bu esa bozorda ishchilar band bo’lmagan qismi (ishsizlar) ning paydo bo’lishiga olib keladi.

**To’rtinchidan**, bozor iqtisodiyotining tsiklli rivojlanishi odatda inflyatsiya va ishsizlik bilan birga boradi. Ya‘ni ishchilar hayot darajasining pasayib ketishi (narxlarning oshishi, ish haqining qisqarishi, to’lovga qodir talabning pasayishi va h.k.) orqali namoyon bo’ladi.

Mehnatga layoqatli aholi umumiy sonida ishsizlarning ulushi qanchalik oz bo'lsa narxlarning inflyatsiya ta'siri ostida o'sish sur'atlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Ingliz iqtisodchisi A. Fillij ishsizlik va inflyatsiyaning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berib, bu bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq **Filips egri chizig'i** deb nom oli. Unga ko'ra, inflyatsiya darajasini 1% ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2% ga o'stirish lozim bo'ladi.

***Filips egri chizig'i***

*W, P %*



*U.%*

*W-nominal ish haqining o'sish surati;*

*R-inflyatsiya darajasi*;

*U-ishsizlik darajasi*.

Ishsizlik va inflyatsiya darajasidagi nisbatni tartibga solishda davlatning iqtisodiy siyosati asosiy rol oynaydi. Davlat ish bilan bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi va ish haqi darajasi o'rtasidagi oqilona nisbatni ta'minlash nafaqat ishsizlik va inflyatsiya darajasini nazorat qishilish, balki ularning iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirining oldini olish ham mumkin bo'ladi.

### *3- savol. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash*

Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi.

Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlikni quyidagi turlari mavjud:

1) friktsion;
2) tarkibiy;
3) tsiklik;
4) institutsional;
5) texnologik;
6) regional;
7) yashirin;
8) turg'un ishsizlikdir.

Bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan davrdagi ishsizlik friktsion (oraliq) ishsizlik deyiladi.

Yangi kasb va mutaxasislikni o'zlashtirib yoki boshqa joyga ko'chib o'tib, yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan ishsizlik tarkibiy ishsizlik deb ataladi. Friktsion va tarkibiy ishsizlik birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini tashkil qiladi.

Tsiklik ishsizlik - iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lmib, u ishlab chiqarishnig pasayish va yalpi talabning qisqarishi natijasida vujudga keladi.

Institutsional ishsizlik ishchi kuchi bozori infratuzilmasi, ya'ni ishchi kuchini ish bilan ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning yetarli darajasida rivojlanmaganligi yoki

samarali faoliyat ko'rsatmasligi natijasida paydo bo'ladi. Uni ham tabiiy ishsizlik tarkibiga kirishi mumkin.

Texnologik ishsizlik ishlab chiqarish jarayoniga texnologik usullarining kirib kelishi bilan bog'lik bo'ladi. Ularning ichida asosiylari ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, robotlashtirish va informatsion texnalogini qo'llash hisoblanadi.

**Hududiy ishsizlik** muayyan hududagi tarkibiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy – ruhiy xususiyatdagi bir qator kompleks omillar ta'siri ostida ishchi kchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi.

Yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida tuliq band bo'lmaslik xos.

**Turg'un ishsizlik** mehnatga layoqatli aholining ish joyini yo'qotgan, ishsizlik boyicha nafaqa olish huquqidan mahrum bo'lgan va faol mehnat faoliyatiga hech qanday qiziqishi bo'lmagan qismini qamrab oladi.

**Ishsizlik darajasi** ishsizlar sonining ish kuchi tartibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

$$\textit{Ishsizlik darajasi} = \frac{\textit{ishsizlar soni}}{\textit{ishchi kuchi soni}} \times 100\ \%.$$

Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaiM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi. Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YamI hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonun sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YaiM hajmining orqada qolishi 2,5 % ni tashkil qilishini ko'rsatadi.

### *4 – savol. O'zbekiston bandlik muammosi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash*

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat aholining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhimi masalalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy islohatlar daridagi ushbu masalani hal etish uchun malkatda bir qator tadbirlarni amlaga oshirish rejalashtirilgan.

**Birinchidan**, keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag'batlantirish.

Prezident Islom Karimov ta'kidlab utganidek "...Kichik o'rta va xususiy tadbirkorliknig yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, oyni vaqtida uning aholi farovonligi va daromadlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylanishiga erishmog'imiz lozim".¬

**Ikkinchidan**, xizmat sohasini rivojlantirish aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish boyicha hizmat turlarini ancha kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarida xizmat sohasini rivojlantirishna ustunlik beriladi.

**Uchinchidan**, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish oylarini ochish yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

**To'rtinchidan**, ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish.

**Beshinchidan**, vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo'lmagan mehnatga yaroqli aholini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash.

Aholining ish bilan bandligi masalasi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini iqtisodiyotda tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalrni ham o'z ichiga oladi.

*Asosiy tayanch tushunchalar:*

**Ishchi kuchini takror hosil qilish** - insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta‘minlab turish, ularning mehnat malakasini oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o’sishini ta‘minlash demakdir.

**Ishsizlik** - mehnatga layoqatli bo’lib, ishlashni hohlagan, lekin ish bilan ta‘minlanmagan ishchi kuchi.

**Friktsion ishsizlik** – malakasiga mos ish qidirayotganlar.

**Tarkibiy ishsizlik** - ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o’zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik.

**Tsikllik ishsizlik** - iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog’liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik.

**Ishsizlik darajasi** - ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.

**Ouken qonuni** – ishsizlik darajasi va YaiM hajmining orqada qolishi o’rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.

*Nazorat savollari va topshiriqlari:*

1. Ishchi kuchini takror hosil qilish deganda nimani tushunasiz va uning xususiyatlari qanday?
2. Ishchi kuchining sifati nima? U qanday omillarga bog’liq? Fan-texnika taraqqiyotidagi ishchi kuchining sifatiga qanda talablar kuchayadi?
3. Ish bilan to’la bandlik nima uchun nisbiy ma‘noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?
4. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?

## 17-mavzu. MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT. PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI

### *Kirish*

Mamlakatda muayyan davrda yaratilgan yalpi milliy mahsulotni taqsimlash, ayirboshlash, iste‘mol qilish jarayonlarida pul ishlatiladi va turli ko’rinishdagi xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarning, uy xo’jaliklari va davlatning pul mablag’lari fondini tashkil etadi. Pul fondlarini hosil bo’lishi, ishlatish maqsadlari, foydalanish usullari va manbalariga qarab, moliya va kredit shakllarini hosil qiladi.

Ushbu mavzuda moliya tizimi, davlat byudjeti, byudjet mablag’larining shakllanishi, soliqlar va uning mohiyati yoritib beriladi. Shundan keyin pul muomalasi qonunlari, pulga bo’lgan talab va taklif, inflyatsiyaning mohiyati ko’rsatib o’tiladi. Keyin esa kredit tizimi, banklar va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ochib beriladi.

### *Reja:*

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi
2. Soliq tizimi va uning vazifalari
3. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari
4. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari
5. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari

### *1-savol. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi*

**Moliya** – pul mablag’laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar tizimi bo’lib, uning vositasidan turli darajada pul mablag’lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya iqtisodiyot jarayonlarida o’zaro bog’liq bo’lgan bir qator **vazifalar**ni bajaradi:

1. Moliya iqtisodiy jarayon va tadbirlarni moliyaviy ta'minlash, ularga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi.

2. Moliya taqsimlovchi vazifasini bajaradi. Moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi.

3. Moliya rag'batlantiruvchilik vazifasini bajaradi. Birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayoni orqali, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi orqali amalga oshiradi.

4. Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliya korxona (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'rish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

**Moliya tizimi** o'z ichiga turli darajadagi byudjetlarni, ijtimoiy, mol-mulk va shaxsiy sug'urta fondlarini, davlatning valyuta zahiralarini, korxona va firmalar, tijorat va notijorat tuzilmalarning pul fondlarini, boshqa maxsus pul fondlarini mujassamlashtiradi.

Korxonalar (tarmoqlar) va umumdavlat mohiyati bir-biridan farq qiladi. Korxona va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiladi.

**Umumdavlat moliyasi** davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondlari hamda davlat mol-mulkiy va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi.

**Davlat byudjeti –** bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir. Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Davlat byudjetining ikki tomoni bor. Byudjetning bir tomonida byudjetga kelib tushadigan daromadlar, manbalari va uning takibi bo'lsa, ikkinchi tomonida asosiy xarajatlarning tarkibi va miqdori o'z ifodasini topadi.

Davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi umumdavlat moliyasining keyingi bo'g'ini hisoblanadi. Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxona va aholining to'lovlari hisobiga shakklanadi. Fond mablag'lari mol-mulkiy sug'urtasiga va shaxsiy sug'urtaga pul to'lashni ko'zda tutadi. Shaxsiy sug'urta aholining pul jamg'armalarini tashkil qilishning shakllaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va byudjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi)ning ahamiyati ortib boradi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatli bo'lishini taqozo qiladi. Lekin ko'pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarning daromadlardan ortiqchaligi ko'zatiladi, buning oqibatida **byudjet taqchilligi** ruy beradi. Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi. Byudjet taqchilligining o'sishi yoki pasayishi mutlaq miqdorda va uning yalpi ichki mahsulot (YaiM)ga nisbatn aniq namoyon bo'ladi. O'rnatilgan xalqaro standartlarga ko'ra byudjet taqchilligi YaiMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Ohirgi 6 yil ichida o'rtacha hisobda davlat byudjeti taqchilligi YaiMga nisbatan 0,6% foizni tashkil etdi.

Byudjet taqchilligi asosan davlat qimmatli qog'ozlarini sotish, nobyudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik boyicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishdagi davlatning ichki va tashqi qarzlari hisobiga qoplanadi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlardan biri davlat krediti hisoblanadi**. Davlat krediti** deganda, davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

O'zbekistonda tashqi qarzni me'yoriy darajasida ushlab turish borasida qat'iy choralar-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan tashqi qarz 2007 yilda 17 foizni, eksportning yillik hajmiga nisbatan 44 foizni tashkil etgan bo'lsa. 2008 yilda bu ko'rsatkich 13 foiz va 31 foizni tashkil etdi.

Davlat o'z majburiyatlari boyicha vaqtida hisob-kitob qilish kafolatini beradigan eng ishonchli, to'lovga qodir hamkorlar qatoridan bo'lishi maqsadida banklarni likvidligini ta'minlab boradi. Bu borada davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtirib, ancha yuqori foiz boyicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olish mumkin.

Xullas, **moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifalarni bajaradi:**

1. Iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.
2. Taqsimlovchi vazifani bajaradi. Bunda moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bundan milliy daromadning bir qismi korxona va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lovlari, aktsiz yig'imlari kabilar orqali davlat qo'lida to'planadi. Milliy daromadni qatta qismini davlat moliya vositasida aholining ijtimoiy madaniy ehtiyojlariga (uy-joy qurilishi, tibbiyot xizmati, maorif, nafaqa, stipendiyalar to'lashga, milliy mudofaaga, atrof-muhitni muhofaza qilishga sarflaydi).
3. Rag'batlantiruvchilik vazifasi – bunda, birinchidan, yaratilagn mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish vositasi sifatida foydalaniladi.
4. Nazorat vazifasi – bunda korxona (firma)larning moliya intizomiga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi.

## 2-savol. Soliq tizimi va uning vazifalari

Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlardir. Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

**Soliq** – bu davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun zurur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish maqsadida jismoniy va huquqiy shaxslardan byudjetga majburiy to'lovlarni undirishni bajaradi. Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilish shakli va usullari birgalikda **soliq tizimi**ni tashkil qiladi.

**Milliy iqtisodiyotda soliqlar qoyidagi uchta muhim vazifasini bajaradi:**

1. Davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal) vazifasi;
2. Ijtimoiy tenglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
3. Iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Hozirgi vaqtda **soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi**:

1. Aholi sonining o'sishi;
2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya;

3. Atrof muhitning ifloslanishi;

4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish;

5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta‘minlash xarajatlari hajmining o’sishi.

**Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi**:

1. Barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog’liq bo’lmagan holda soliq undirishning majburiyligi;

2. Soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;

3. Samarali ishlovchi korxonalarda hamda xo’jalik yuritishning ilg’or shakllari uchun soliq me‘yorlarining rag’batlantiruvchi rolini ta‘minlash;

4. Soliq to’lovi boyicha barcha sub‘ektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

**Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi:**

1. **Naflilik tamoyili** – turli shakllardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirishni kerakligini bildiradi.

Soliq summasining (R) soliq olinadigan summaga (D) nisbatining foizdagi ifodasi soliq stavkasi (R’) deyiladi:

$$R' = \frac{R}{D} \times 100\% \quad (1);$$

2. **To’lovga layoqatlilik tamoyili** – soliq miqdori soliq to’lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.

3. **Adolatlilik tamoyili** – daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi boyicha teng bo’lgan kishilar teng miqdorda soliq to’lash zarur.

Soliq boyicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o’rnatiladi. Amaliyotda soliq imtiyozlarining qoyidagi turlari teng tarqalgan:

- ob‘ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to’lashdan alohida shaxs yoki ma‘lum guruhlarni (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi (stavka)sini pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma‘lum miqdorda kamaytirish);

Soliqlarning turkumlashga turli xil mezonlar asosida yondashiladi.

Soliq stavkasi va daromadlar o’rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar odatda progressiv (o’sib boruvchi), proportsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo’linadi.

Daromad hajmi o’sib borishi bilan o’rtacha stavkasi o’sib boruvchi soliqlar **progressiv soliqlar** deyiladi.

Daromad hajmi o’sib borishi bilan o’rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar **regressiv soliqlar** deyiladi.

Daromad hajmi o’sib borishi bilan o’rtacha stavkasi o’zgarishsiz qoluvchi soliqlar **proportsional soliqlar** deyiladi.

***Soliq stavkasi***



Soliqlar amal qilish doirasi (markaziy va mahalliy soliqlar), mahsulot tannarxiga qo'shilish usuli (to'g'ri va egri soliqlar) va iqtisodiy mazmuniga qarab ham turkumlanadi.

Soliqlarni pasaytirish, iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o'sishiga olib kelishini birinchi bo'lib amerikalik iqtisodchi A. Laffer asosladi. A. Lafferning mulohazalariga ko'ra, korporatsiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish ularning kapital qoyilmalariga bo'lgan rag'batini susaytiradi, fan-texnika taraqqiyotini to'xtatadi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va bular ohiri oqibatda, davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavkasi o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikning grafikda tasvirlanishi "**Laffer egri chizig'i**" nomini oldi.

***Bu chizma Laffer egri chizig'idir:***




Chizmada: R - soliq stavkasi, V- davlat byudjetiga tushumlarni bildiradi, R1 - soliq stavkasining optimal miqdorini, V1 – davlat byudjetiga eng yuqori tushumni ifodalaydi.

Soliqlar oshirilganda ishlashga va tadbirkorlikka qiziqish susayadi, 100%lik soliq olishda davlat daromadi nolga teng bo'ladi, chunki hech kim tekincha ishlashni xohlamaydi. Boshqacha aytganda, uzoq muddatli istiqbolda haddan tashqari yuqori o'rnatilgan soliqlarni pasaytirish, jamg'armalar, investitsiyalar, bandlikning ortishi orqali soliq tushumlari summasi ko'payadi, davlat daromadlari hajmi o'sadi, taqchillik kamayadi va inflyatsiyaning susayishi ruy beradi. Lekin, o'z-o'zidan tushunarlikki, Laffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmi me'yorida amal qilgan holdagina namoyon bo'ladi.

Soliq yuki darajasini miqdoran aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi soliqlar miqdorini to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichiga nisbati yoki soliq to'langandan keyingi daromad miqdorini to'lovga layokatlilik ko'rsatkichiga nisbati sifatida ifodalash mumkin:

$$Q \text{ soliq yuki} = \Sigma Nx / P \qquad \text{yoki}$$
$$Q \text{ soliq yuki} = DN / PN;$$

Bu yerda: Nx – aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi soliqlarning o'rtacha miqdori; DN – aholining soliqlar to'langanlan keyingi daromadi; PN – aholining to'lovga layoqatliligi.

Soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi (YaiM) salmog'i boyicha ham aniqlash mumkin:

$Q \text{ soliq yuki} = \Sigma N / \Sigma \text{YaiM};$

Bu yerda: N – soliqlar miqdori, YaiM – yalpi ichki mahsulot hajmi.

### *3-savol. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari*

Moliyaviy mexanizmlar va moliyaviy munosabatlarni ishlash uchun pul tovarining mavjudligi va uni aylanma harakati muhim rol oynaydi. Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi to'xtovsiz harakati **pul muomalasi** deyiladi.

Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlanib qoyilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi.

**Mamlakat pul tizimining muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat**:

1. Milliy pul birligi (so'm, dollar, yena, marka va x.q.);

2. Naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi;

3. Pul emissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;

4. Pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. **Naqd pul** muomalasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi.

**Naqd pulsiz** hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, vekselllar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi **pul agregati** deb yuritiladi.

Muomalada mavjud bo'lgan **pul massasi** (naqd va kredit pullari) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Shunday qonunlardan biri va eng muhim muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi omillarga bog'liq:

1. Muayyan davr davomida sotilishi va sotib olinishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga;

2. Pul birligining aylanish tezligiga;

3. Kreditning rivojlanishiga, puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq bo'ladi:

$$Pm = \frac{Tb - Xk + Xt - O'x\text{-}k}{At};$$

Bu yerda: Pm - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

Tb - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori narxi);

Xk – kreditga sotilgan tovarlar summasi;

Xt – to'lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to'lovlar summasi;

O'x-k – naqd pulsiz o'zaro hisob-kitoblar;

At – pulning aylanish tezligi.

Pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olib, pul muomalasi qonuniga quyidagicha ta'rif berish mumkin: boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori sotishga chiqariladigan tovarlar narxi summasiga to'g'ri mutanosib, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosibdir.

Oltin va qog'oz pul muomalasi qonunlarining o'ziga xos xususiyatlari va bir-biridan farqlari mavjud. Masalan,

1. Oltin pul muomalada bo'lganda:

a) ortiqcha oltin pul xazinaga jalb qilinadi va har xil bezaklar uchun foydalanishga chiqariladi;

b) tovarlar hajmi ko'payib, muomala uchun qo'shimcha pul zarur bo'lganda xazinadagi oltin pullar muomalaga kiritiladi. Shu yo'l bilan muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori o'z-o'zidan tartiblanadi.

2. Muomala uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdori tovarlar qiymatining miqdoriga teskari mutanosiblikda, oltinning o'z qiymatiga nisbatan esa to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradi:

a) oltin pul qiymati va tovarlar hajmi o'zgarmagan taqdirda tovarlar qiymati qancha past bo'lsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ham shunga kam bo'ladi, agar tovarlar qiymati o'zgarmasa, pulning miqdori tovarlar hajmining ortishiga qarab unga mutanosib ravishda ko'payadi;

b) agar tovarlar hajmi va qiymati o'zgarmaydi, deb faraz qilsak, muomaladagi oltin pul miqdori oltinning o'z qiymatiga qarab o'zgaradi, ya'ni uning qiymati oshsa, pul miqdori kamayadi, qiymati pasaysa, pul miqdori ko'payadi.

Qog'oz pul muomalasi qonunlari oltin pul muomalasidan farq qilib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Qog'oz pul qancha miqdorda chiqarilmasin, unda belgilangan qiymat miqdori muomalaga uchun zarur bo'lgan oltin pul miqdorining qiymatiga teng bo'ladi.

2. Qog'oz pulning har birligida belgilangan qiymat miqdori muomalaga uchun zarur bo'lgan oltin pul qiymatining muomalaga chiqarilgan qog'oz pul miqdori nisbatiga mos keladi.

Naqd pullar rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda umumiy pul massasining 9-10 fozni, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida 35-40 foizni tashkil qiladi.

**Pul bozori** – bu mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag'lariga bo'lgan talab va pul taklifining o'zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.

Pul taklifi ko'p jihatdan inflyatsiya jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi. "**Inflyatsiya**" atamasi (lotincha "inflation" – shishmoq, kengaymoq) ilk bora Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davrida qo'llanilib, muomalada qog'oz pullarning haddan ortiq ko'payib ketishini ifodalagan edi. Iqtisodiy adabiyotlarda esa bu atama XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi.

**Inflyatsiya** deb pul muomalasi qonunlari buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishiga aytiladi. **Inflyatsiya** – bu qog'oz pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishidir.

Qog'oz pul tovarlarga, oltinga va xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanadi. Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan aniqlanadi. Masalan, iste'molchilik tovarlariga narx indeksi 2008 yilda 113,6; 2009 yilda 118,3ga teng bo'lsa, inflyatsiya sur'ati qoyidagicha bo'ladi:

$$\text{Inflyatsiya sur'ati} = \frac{118{,}3 - 113{,}6}{113{,}6} \times 100\% = 4{,}1\%$$

Kelib chiqish sabablari va o'sish sur'atlariga qarab, inflyatsiyaning bir qancha turlari mavjud.

**Talab inflyatsiyasi –** iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotning real hajmining ko'paytirib ortiqcha talabni qondira olmaydi, chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi.

**Taklif inflyatsiyasi** – bu inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi keltirib chiqadigan inflyatsiya mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi.

Inflyatsiyaning o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya kabi turlari ham mavjud: urmalab boruvchi inflyatsiya holatida narxlar yiliga 10 foizgacha, jadal inflyatsiyada 20dan 200 foizgacha, giperinflyatsiyada 200 foizdan yuqori darajada o'sishi ko'zatiladi.

### *4-savol. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari*

Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlariuchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital **ssuda kapitali** deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini tashkil qiladi. Kredit munosabatlari ikki sub'ekt o'rtasida, ya'ni pul egasi (qarz beruvchi) va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi. Turli xildagi korxonalar (firmalar), tashkilotlar, davlat hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlarining sub'ektlari hisoblanadi. Kredit munosabatlarining ob'ekti jamiyatda vaqtincha bush turgan pul mablag'laridir. Kredit munosabatlarining mavjud bo'lishini takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi taqozo qiladi.

**Kredit resurslarining asosiy manbalari** qoyidagilardan iborat:

1. Korxonalarning amortizatsiya ajratmalari;
2. Mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;
3. Korxonalarning ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari;

4. Korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek uning tegishli qismi korxona ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;

5. Bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;

5. Aholining bush mablag’lari.

**Kredit quyidagi vazifalarni bajaradi**:

1. Qayta taqsimlash – bunda korxonalar, davlat va aholining bush pul mablag’lari ssuda fondi shaklida to’planib, keyin bu mablag’lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

2. Kredit pulga tenglashtirilgan to’lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va haqozo) yuzaga chiqarib, ularni xo’jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

3. Kredit naqd pullar o’rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

4. Kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiyot o’sishni rag’batlantirish vazifasini bajaradi.

5. Kredit o’z muassasalari orqali iqtisodiy sub‘ektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

6. Kredit iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini bajaradi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.

Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi. Jamiyatning taraqqiyot davomida kreditning ikki – pul va tovar shakllaridan foydalanilib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida pul kreditdan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste‘mol va xalqaro kredit shakllarini tashkil etadi.

**Bank krediti** – kreditning asosiy va yetakchi shakli bo’lib, u pul egalari – banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo’jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.

**Tijorat krediti** – bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir.

**Iste‘mol krediti** – xususiy shaxslarga, hammadan avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste‘mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma‘lum muddatga beriladi.

**Ipoteka krediti** – ko’chmas mulklar (er, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

**Davlat krediti** – kredit munosabatlarining o’ziga xos shakli bo’lib, bunda davlat pul mablag’lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo’lib chiqadi.

**Xalqaro kredit** – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyon qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi.

Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So’nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, farfeyting, trast kabi shakllarining rivojlanib bormoqda.

**Lizing** – bu kreditning pulsiz shakli bo’lib, odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalashuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq yo’nab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat.

**Faktoring –** bu boshqa iqtisodiy sub‘ektlarning qarzdorlik boyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlarini anglatadi.

**Farfeyting** – bu uzoq muddatli faktoring munosabatlari bo'lib, qarzdorlik boyicha huquqlarini sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o'tgandan so'ng undirishi mumkin bo'ladi.

**Trast** – bu mijozlarning kapitallarini boshqarish boyicha operatsiyalarni bildiradi.

**Kredit berish bir qator tamoyillariga asoslanadi**. Bular quyidagilar: ssuda berishning maqsadli tavsifi, kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarilishi, ssudaning moddiy ta'minlanganligi va to'lovliligi.

Qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad **foiz yoki foizli daromad** deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi foiz stavkasi yoki foiz normasini tashkil qiladi:

$$R' = \frac{R}{K\ ssuda} \times 100\%;$$

Bu yerda: R' – foiz normasi; R – foiz summasi; K ssuda – qarzga berilagn pul (kapital) summasi.

### *5-savol. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularnin vazifalari*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta'minlashda banklar muhim rol oynaydi. Banklar pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasalardir.

Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo'lib, o'z ichiga Markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi.

**Davlat banki** – mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi. Davlat banki **Markaziy bank** hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklari va jamg'arma muassasalaridan mablag'larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko'ra Markaziy bank "baklar banki" deyiladi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga ijtimoiy faoliyat qilmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qo'maklashadi.

**Markaziy bank ko'plab xilma-xil vazifalarni bajaradi:**

1) boshqa bank muassasalarining majburiy zahiralarini saqlash;

2) cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta'minlash va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish, ularga kreditlar berish;

3) davlatning monetar siyosatini amalga oshirish;

4) barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtirish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish;

5) xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlash;

6) pul taklifi ustidan nazorat qilish, milliy valyutani muomalaga chiqarish.

Tijorat banklari o'zlarining xo'jalik mavqeiga ko'ra aktsionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Tijorat banklar sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarni omonat tarzida jalb etilgan pul mablag'lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o'rtasida hisob-kitobni amalga oshiradi.

**Ixtisoslashgan tijorat banklar** – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi.

**Xalq banki** – mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki** eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxona va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi.

**Investitsion banklar** –maxsus kredit muassasalari bo’lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo’li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar)ga taqdim qiladi.

**Ipoteka banklar** – bu ko’chmas mulk (er va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalaridir, uning resurslari o’zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi.

Bugungi kunda respublika hududida mulkchilikning turli shaklidagi 30dan ziyod tijorat ixtisoslashgan banklar va ularning 3,7 mingdan ko’proq filiallari faoliyat qilib turadi. Prezidentimiz “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” nomli asarlarida bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarning bush mablag’larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag’batlantirish ishlari ham 2009 yilda ustuvor vazifa bo’lib qolishini ko’rsatib o’tdilar: “Hech kimga sir emaski, bugun keng ko’lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozining asosiy sabablaridan biri – bu banklar likvidligi, ya‘ni to’lov qobiliyatining zaifligi bilan bog’liq, muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag’larining yetishmasligi bilan izohlanadi”1

***O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatining asosiy ko’rsatkichlari***

| Ko’rsatkich | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Tijorat banklari aktivlari (mlrd so’m) | 3198,0 | 3918,2 | 4419,0 | 6400,0 | 6630,6 | 7208,0 | 9276,2 | 12065,0 |
| Tijorat banklari yalpi kapitali hajmi (mlrd so’m) | 602,0 | 714,7 | 791,0 | 824,0 | 930,9 | 1250,0 | 1502,6 | 2104,0 |
| Faoliyat ko’rsatayotgan mini-banklar soni (birlik) | 309 | 530 | 795 | 1122 | 1450 | 1500 | 2038 | 2161 |
| Kichik tadbirkorlik sub‘ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd so’m) | 206,0 | 256,0 | 294,0 | 353,9 | 419,9 | 547,9 | 743,7 | 1251,0 |
| Tijorat banklarda aholi omonatlari qoldig’i (mlrd so’m) | 91,5 | 170,1 | 245,0 | 323,0 | 449,5 | 975,0 | 994,6 | 1724,0 |
| O’rta va uzoq muddatli kreditlarning jami ktredit qoyilmalaridagi ulushi (foiz) | 74,0 | 81,0 | 81,0 | 82,8 | 81,0 | 85,0 | 86,7 | - |

### *Asosiy tayanch tushunchalar*

**Moliya** – pul fondlarining harakati, ya‘ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog’liq ravishda vujudga keladigan munosabatlardir.

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir.

**Davlat byudjeti** – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta‘minlash manbalarining tartiblashtirishga rejasi.

**Byudjet taqchilligi** – byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo’lishi natijasida vujudga kelgan farq..

**Pul muomalasi** – tovarlar aylanishiga holda notovar xarakteridagi to’lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

**Pul tizimi** – tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli.

**Inflyatsiya** – qog’oz pul birligining qadrsizlanishi.

**Kredit** – bush turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'rlash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

**Foiz normasi (stavkasi)** – foiz yoki foizni daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

**Banklar** – kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.

**Bank operatsiyalari** – mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish boyicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

**Bank foydasi** – olingan va yo'langan foiz summalari o'rtasidagi farq..

**Bank foyda normasi** – bank sof foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Laffer egri chizig'i** – davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi.

L**izing** – kreditning pulsiz shakli bo'lib, odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat.

**Faktoring** – boshqa iqtisodiy sub'ektlarning qarzdorlik boyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.

**Farfeyting** – uzoq muddatli faktoring munosabatlari bo'lib, qarzdorlik boyicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o'tgandan so'ng undirishi mumkin bo'ladi.

**Trast** – mijozlarning kapitallarini boshqarish boyicha operatsiyalaridir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari***:

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.
2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo'g'inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat byudjetining o'rni qanday?
3. Davlat byudjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol oynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?
4. Byudjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy byudjet taqchilligini tushuntiring.
5. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va ularning turlarini, asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday soliqlarga bog'liq?
7. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
8. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
9. Talab va taklif inflyatsiyalarning grafikdagi ko'rinishlarini tasvirlang va izohlang.
10. Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?
11. Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.

## 18-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

### *Kirish*

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos bo'lgan vazifalarni bajarib, har biri mustaqil harakat qilib kelgan. Lekin turli iqtisodiy tizimlar bir-biridan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining mutanosibligi boyicha keskin farq ham qiladi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasida bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik berilgan.

Ushbu mavzuni yoritishdan maqsad milliy iqtisodiyotni boshqarishda dvlatning rolini ko'rsatish, keyin esa uning iqtisodiy vazifalariga tavsif beriladi, keyin esa davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari ko'rsatib beriladi.

*Reja:*

1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari.
3. Davlatning iqtisodiyotga ta‘sir qilish usullari va vositalari**.**

## *1-savol. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar*

Iqtisodiyot nazariyasi tarixida davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda dastlab A.Smit tomonidan o’rganilgan va tegishli nazariy ta‘limot berilgan. A.Smitning “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida”  (1776 yil) degan kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o’zini-o’zi tartibga solishning zarurligi ta‘kidlab o’tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to’liq ozod bo’lishi zarur. Bu qoidaga amal qilinsa, iste‘molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni vujudga keladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi. A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir oqibatda faqat yomonlashtiradi deb hisoblagan. Biroq, uning mazkur nazariyasi 1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishchizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirishmasalasi J.M.Keynsning “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936 yil) nomli kitobida o’z aksini topdi. J.M.Keyns o’zining kitobida davlat fiskal va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag’batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta‘minlashi zarurligini isbotlaydi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko’rsatmalardan bozor iqtisodiyoti amalda ustun bo’lgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat tsiklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandliki ta‘minlash, balki iqtisodiy o’sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish (maqbullashtirish)ni rag’batlantirish tan olinadi.

Ma‘muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida lavlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi:

**Birinchidan**, davlat o’ziga milliy iqtisodiyotda bozor vositasida o’zini-o’zi tartibga solish orqali bajarish mumkin bo’lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo’lmaydigan vazifalarni oladi.

**Ikkinchidan**, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste‘molning xususiy tavsifi bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarni tug’diradi. Davlat yakka tadbirkor yoki iste‘molchidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo’shimcha ijobiy samarani rag’batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog’liq faoliyatni tartibga solishi va cheklashga harakat qilishi zarur.

**Uchinchidan,** davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli roy beradiki, inividual iste‘molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste‘mol qilishning oqibatlarini ob‘ektiv baholay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste‘molni kamaytirish va aksincha sog’liqqa salbiy ta‘sir ko’rsatuvchi tovarlar iste‘molini cheklash vazifasini o’z zimmasiga oladi.

**To’rtinchidan**, dvlat o’z zimmasiga bozorning tabiatian kelib chiqadiga ayrim holatlari yengillashtirish vazifasini oladi.

**Beshinchidan,** hozirgi sharoitda barqaror izchil iqtisodiy o’sishni rag’batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ma‘lum chegaralari ham mavjud bo’lib, ular davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘chiridan kelib chiqadi. Iqtisodiyotga davlating har qanday aralashuvi ma‘lum xarajatlarni taqozo etadi. Ularga eng avvalo tartibga solishni tashkil etish va amalga oshirish boyicha xarajatlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, tartibga solishning u yoki bu shakli bozor muvozanati, ishlab chiqarish hajmi, resurslarning qayta taqsimlanishiga ko'rsatish mumkin bo'lgan ta'sirni ham hisobga olish mumkin. 90 yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda Keynscha tendentsiyalar yangidan kuchaya boshladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni royobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri aralashuv shakllari va byurokratik nazoratning namoyishi bilan tavsiflanadi.

## 2-savol. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish haqida ko'plab iqtisodchilar turli fikrlarni bildirganlar. Ya'ni, bozorning kamchiliklari, uning ko'plab iqtisodiy muammolarni hal eta olmaslik holatini ko'rsatadilar. Bular ma'lum ma'noda to'g'ri bo'lsada, biroq, iqtisodiyotga davlat ta'sirining ob'ektiv zarurligini eng avvalo ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ob'ektiv asosi bo'lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi. Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarishning ixtisoslashgan tarmoqlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi yanada kuchayadi;

-ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasia alohida xo'jalik birliklarining mayda bo'laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;

-ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planuvi jarayoni o'sadi;

-turli iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagiiqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallashadi.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** deganda davlatning jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishiga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish boyicha faoliyat tushuniladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonian tartibga solish mexanizmi to'g'risida to'laroq tasavvurga ega bo'lish uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi** iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bunda iqtisodiy tsiklni barqarorlashtirish, milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomiilashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni bajarish lozim.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vaziflarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqamiy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning quyidagi vazifalarida aniq namoyon bo'ladi:**

1) Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) Raqobatni himoya qilish;

3) Daromad va boylikni qayta taqsimlash;

4) Resurslarni qayta taqsimlash;

5) Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Bozor xo’jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo’ladi.

Davlat bozor iqtisoiyotini samarali amal qilishining shart-sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta‘minlash vazifalarini o’z zimmasiga oladi. Buning uchun xususiy korxonalarning huquqiy mavqeini mustahkamlash; xususiy mulkchilik huquqini ta‘minlash va shartnomalarga amal qilishni kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste‘molchilar o’rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va boshqalar.

Davlat ijtimoiy muhitni ta‘minlaydi, ya‘ni ichki muhitni tartibga soladi, daromadlar tengsizlikini kamaytiradi, yordamga muhtojlarga yordam beradi, iqtisodiyotda to’liq bandlikni ta‘minlash uchun umumiy sarflar, ya‘ni xususiy va davlat sarflarining hajmi yetarli bo’lmasa, davlat bir tomondan ijtimoiy ne‘matlar va xizmatlarga o’z xarajatlarini ko’paytiradi, xususiy sektorning sarflarini rag’batlantirish maqsadida soliqlarni qisqartiradi.

### 3-savol. Davlatning iqtisodiyotga ta‘sir qilish usullari va vositalari

**Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi**. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Bevosita ta‘sir qilish usullari;
2. Bilvosita ta‘sir qilish usullari;
3. Tashqi iqtisodiy usullar.

Ma‘lumki, markazdan boshqarish tartibi ustun bo’lgan mamlakatlarda dvlatning qitisoiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta‘sir qilish usullari ustun bo’lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda, iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog’langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. **Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi uchta yo’l orqali shakllanadi**:

1) Ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog’ozlar bilan tomon to’lash orqali mulkni milliylashtirish;

2) Davlat byudjeti mablag’lari hisobiga yangi korxonalar, ba‘zi hollarda yaxlit tarmoqlarni barpo etish;

3) Davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aktsiyalarini sotib olish va apralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish. Bu uchinchi yo’l ustun ravishda amal qilmoqda.

**O’zbekiston iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi,**

umumiy hajmga nisbatan foizda

| **Ko’rsatkichlar** | **Yillar** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | **2004** | **2005** | **2006** | **2007** | **2008** |
| Yalpi ichki mahsulot | 24,2 | 24,2 | 22,2 | 20,7 | 20,6 |
| Sanoat mahsuloti | 20,7 | 21,6 | 20,6 | 20,1 | 18,7 |
| Qishloq xo’jaligi mahsuloti | 0,8 | 0,5 | 0,3 | 0,2 | 0,1 |
| Qurilish ishlari | 10,1 | 9,0 | 12,6 | 10,6 | 10,4 |
| Transport | 64,3 | 62,1 | 61,6 | 52,9 | 51,7 |
| Aloqa | 3,2 | 3,0 | 3,0 | 3,2 | 3,3 |
| Chakana savdo aylanmasi | 1,1 | 0,4 | 0,3 | 0,2 | 0,2 |
| Aholiga pullik xizmat ko’rsatish | 28,7 | 25,7 | 23,4 | 20,2 | 20,5 |
| Tashqi savdo aylanmasi | 26,6 | 23,4 | 17,6 | 17,4 | 23,8 |
| Iqtisodiyotda band bo’lgan ishchilar soni | 23,0 | 22,9 | 22,4 | 22,1 | 21,6 |

*Manba: O’zbekiston Respublikasi davlat Statistika qo’mitasi ma‘lumotlari*.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma‘muriy vositalardan foydalanadi. Ma‘muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi tadbirlarni o’z ichiga oladi. Ayniqsa ishlab chiqarish tanazzulga uchragan

davrda iqtisodiyotga bilvosita ta‘sir qilish tadbirlari kam samarali bo’lib, **ma‘muriy vositalar**dan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko’rsatish mumkin:

1) Iqtisodiyotning ayrim bo’g’inlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish;

2) Narxlar va ish haqini “muzlatib” qoyish siyosati. Inflyatsiyani yumshatishga qaratiladi;

3) Ish bilan bandlik xizmati faoliyati (mehnat birjalari)ni tashkil qilish;

4) Iqtisodiy sohani tartibga solishni ko’zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabutsl qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirkorlik to’g’risidagi, bank sohalari, qimmatli qog’ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko’zda tutuvchi qonunlar).

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida o’z ifodasini topadi. **Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari** quyidagilardan iborat bo’ladi:

1) Hisob stavkasini tartibga solish;

2) Moliya-kredit muassasalarining markaziy bankdagi zahiralari minimal hajmini o’rnatish va o’zgartirish;

3) Davlat muassasalrining qimmatli qog’ozlar bazoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to’lash)

4) Davlat Markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag’larining qarzga beriladigan va zahirada turadigan qismlari o’zgartiradi;

5) Markaziy boshqa banklarga past foiz stavkasida qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o’sishiga ta‘sir qilishini ta‘minlaydi;

6) Davlat Markaziy bank orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o’z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog’ozlarini sotib oladi. Natijada taklif etilgan pul miqdori o’zgarib, bu foizga ta‘sir qiladi.

Davlatning pulga bo’lgan talab va taklifini o’zgartirish borasidagi siyosati **monetar siyosat** deb yuritiladi.

**Davlatning byudjet siyosati** uning daromadlar va xarajatlar qismii o’zgartirishga qaratiladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag’larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Soliqlardan xo’jalik sub‘ektlari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikka ta‘sir ko’rsatishda ham keng ravishda foydalandi.

Davlat iqtisodiyotni tartib solish vositasi sifatida byudjet xarajatlaridan ham foydalanadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizatsiya ajratmalari alohida rol oynaydi. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qoyilmalari muhim rol oynaydi. Jumladan, bozor kon‘yunkturasi yomonlashgan, turg’unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qoyilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odamda o’sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o’sishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Shuningdek, **iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bir qator shakllari**ni ham ajratib ko’rsatish mumkin:

1. Davlat iqtisodiy dasturlarining ishlab chiqilishi;

2. Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-tadqiqot konstruktorlik ishlanmalari, ixtirolarni davlat tomonidan rag’batlantirish hamda iqtisodiyotdagiikibiy siljishlarni ta‘minlash;

3. Investitsiya jarayoni va iqtisodiy o’sishni davlat tomonidan tartibga solish;

4. Ishchi kuchi bozoriga davlat tomonidan ta‘sir ko’rsatish;

5. Qishloq xo’jaligini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning shakllaridan eng ustuvori **davlat iqtisodiy dasturlari** hisoblanadi. Dasturning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foyalanishdan iborat. Iqtisodiy dasturlar o’rta muddatli, favqulodda va maqsadli bo’lishi mumkin. O’rta muddatli umumiqtisodiy dasturlar odatda 5 yilga tuziladi. Favquloddagi dasturlar tig’iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyaga ega bo’ladi. Bunday maqsadli

dasturlarning ob‘ekti tarmoqlar, mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo’nalishlari bo’lishi mumkin.

Iqtisodiyotga davlat tomonidan tartibga solish tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag’batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksportlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreitlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to’lovlarini o’zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

Xullas, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda qo’llaniladigan vosita va dastaklari birgalikda milliy iqtisoiyotni takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlkatlarning tashqi iqtisodiy aloqalariga o’z ta‘sirini ko’rsatib boradi.

***Xulosalar:***

Iqtisodiyotni tartibga solib borishda turli xil qarashlar va turli xil yondashuvlar mavjud:

-A.Smitning fikri boyicha, xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to’liq ozod bo’lishi zarur deb ko’rsatgan edi.

-J.M.Keyns davlat fiskal va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag’batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta‘minlash zarurligini o’zining “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936 yil) kitobida ko’rsatib o’tgan.

-Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga davlat iqtisodiyotni davlat sektorini boshqarishda mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi usullarni qo’llaydi:

-ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog’ozlar bilan tovon orqali mulkni milliylashtiradi;

-davlat byudjeti mablag’lari hisobiga yangi korxonalar qurish;

-davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aktsiyalarini sotib olish va aralash davlat xususiy korxonalarini tashkil etish;

-davlat iqtisodiyotga bevosita va bilvosita aralashish va uni tartibga solish orqali milliy iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida o’z ta‘sirini ko’rsatib boradi.

***Asosiy tayanch tushunchalar*:**

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** – qonunchilik, ijro va nazorat qilish tadbirlar tizimini ishlab chiqishi va amalga oshirishdir;

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi –** iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o’zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi;

**Davlatning iqtisoiy vazifalari –** iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o’sishni ta‘minlashga qaratilgan qora-tadbirlardan iborat.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari** – tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy vositalari birligidir.

**Bevosita usullar** – iqtisoiyotni tartibga solishning ta‘qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish shaklidagi ma‘muriy vositalarir.

**Bilvosita usullar –** iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklaridir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarni baholab izohlab tushuntiring.
2. Davlat asosiy iqtisoiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tasnifini bering.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
4. Tartibga solish o’z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qoyadi?

5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
6. Tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko’rsating.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol oynaydi?
8. Davlat iqtisodiy dasturlari qanay amalga oshiriladi?

## *19-mavzu* . AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI.

### *Kirish*

Mavzuda aholi daromadlarining shakllanishi, uning iqtisodiy mazmuni, aholi daromadlarining turlari nazariy jihatdan tushuntirib beriladi. Keyin esa daromadlar tengsizligi va uning sabablari tushuntiriladi hamda davlat olib borayotgan ijtimoiy siyosat va unga xizmat qiladigan dasturlarni bajarilishi va uning ahamiyati haqidagi fikrlar beriladi.

Mavzuni o’rganishdan maqsad-talabalarga bozor itqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarini shakllanishi va uning manbalari, aholi turmush darajasini belgilashdagi ko’rsatkichlarni tushuntirib berish hamda daromadlar tengsizligini qisqartirishda davlatnig ijtimoiy siyosatini tushuntirishan iborat.

### *Reja:*

1. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko’rsatkichlari.
2. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.
3. Davlatning ijtimoiy siyosati.

### *1-savol. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko’rsatkichlari*

Mehnatga qobiliyatli aholi o’zining kasbi va hunar boyicha faoliyat ko’rsatib ishlaydi. Bajargan ishga qarab unga haq to’lanadi. Berilgan pul ko’rinishidagi to’lov uning daromadi bo’ladi.

**Aholi daromadlari** ma‘lum vaqt oralig’ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shaklidagi tushumlar miqdorini bildiradi.

**Iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko’rsatkich “daromad” nomi bilan yuritiladi.** Daromad bir vaqtning o’zida biron-bir faoliyat natijasida olingan tushumning mablag’larining, natural ko’rinishda olingan mahsulotlarni, iqtisodiy resurslar keltiruvchi nafni bildiradi. Daromad umumiy tushuncha bo’lib, uning tarkibida aholi daromadlarni muhim o’rin tutadi.

Aholi daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklida olinadigan daromadlarni, qimmatli qog’ozlar, ko’chmas mulk, qishloq xo’jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko’rsatishdan kelib tushadigan daromadlarni o’z ichiga oladi.

**Natural daromad** mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo’jaliklarining o’z iste‘mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo’ladi. Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo’lgan va real daromad tushunchalaridan foydalanadi.

**Nominal daromad** - aholi tomonidan ma‘lum vaqt oralig’ida olingan daromadlarning pul ko’rinishidagi miqdori hisoblanadi.

**Ixtiyorida bo’lgan daromad** - shaxsiy iste‘mol va jamg’arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo’lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to’lov summasidan kam bo’ladi.

**Real daromad** – narx darajasi o’zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo’lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko’rsatadi, ya‘ni daromadnig xarid quvvati bildiradi.

Aholinig nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanadi va ular quyidagilar hisoblanadi.

1. Ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
2. Davlat yordam dasturlari boyicha to'lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;
3. Moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari.

**Aholi nominal daromadlari** - bu ish haqi, pensiya ta'minoti, davlat sug'urtasi boyicha tulovlar; shaxsiy qurilishiga va matlubot jamiyati a'zolariga bank ssudalari; jamg'arma bankiga qoyilmalar boyicha foizlar; aktsiya, obligatsiya bahosining ko'payishidan olinadigan daromad va zayom boyicha tulovlar; lotereya boyicha yutuqlar; tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan, vaqtincha bo'sh mablag'lar, har xil turdagi kompensatsiya to'lovlari va h.k.

**Aholi turmush darajasi** tushunchasiga ularning hayot kechirish uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlari bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin. Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimi o'z ichiga qoyidagi guruhlarni oladi:

1. Tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar.
2. Hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari.
3. Oziq-ovqat tovarlarni iste'mol qilish.
4. Turar joy sharoitlari.
5. Ma'lumot va madaniyat.
6. Mehnat qilish va bandlik sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va xarajatlari.
8. Hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari.
9. Transport vositalari.
10. Dam olishni tashkil etish
11. Ijtisoiy ta'minot
12. Inson erkinligi.

Turmush darajasini **mamlakat darajasida (butun aholi uchun)** va **tabaqalashgan mikrodarajasida (aholinig alohida guruhi uchun)** qarab chiqish mumkin.

**Birinchidan,** yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi boyicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruxlari boyicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste'mol byudjeti asosida amalga oshiriladi. Iste'molchi byudjetlarinig bir qator turlari mavjud bo'ladi: o'rtacha oila byudjeti, yuqori darajada ta'minlangan byudjet, minimal darajada moddiy ta'minlanganlar byudjeti, nafaqaxo'rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari byudjeti shular jumlasidandir.

**Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad** "o'rtacha sinf" deb ataladigan tabaqalar daromadlari boyicha aniqlanadi. Bunday gurux iste'mol savati to'plamiga uy, avtomashina, dal hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalar o'qitishi imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi. Bozor iqtisodiyoti aholining **yuqori ta'minlangan yoki "boy" qatlam**inig mavjud bo'lishini taqazo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz miqdori kiradi.

Faravonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qishloqning boshlanishi) sifatida chiqadi. Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq.

**Turmush tarzi** - bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya, turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya'ni:

1. Mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari.
2. Turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;

3. Siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtiroq etish;
4. Moddiy va manaviy ehtiyojlarini qondirish shakllari;
5. Kishilarning kundalik hayotidagi hulq-atvori me‘yorlari va qoidalar*i*.

**Kishilar hayoti faoliyati uchun zarur ne‘matlar to'plami** mehnat sharoiti, ta‘lim, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarini o'z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a‘zolarining aholida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Ya‘ni, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste‘mol hajmi va boshqalar daromad manbalari hisoblanadi.

### *2-savol. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash*

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu esa daromadlar o'rtasida tengsizlik mavjudligi bildiradi o'rtacha daromadlar ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf qilmaydi.

**Daromadlar tengsizligi darajasi**ni miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida **Lorents egri chizig'i**dan foydalaniladi.




Chizmaning yotiq chizig'ida aholi guruxlarining foizdagi ulushi tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlarning mutloq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) OYe chiziqda ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarining mos keluvchi foizni olishini ko'rsatadi. Ya‘ni aholining 20% barcha daromadlarining 20% ni, aholining 40% daromadlarining 40% ni, aholining 60% daromadlarining 60%ni olishini bildiradi va h.k.

Demak, OYe chizig'i daromadlarining taqsimlanishidagi mutloq tenglikni ifodalaydi. Real xayotda mutloq tenglik va mutloq tengsizlik holatlari mavjud bo'lmaydi. Balki aholining ma‘lum guruxlari o'rtasidagi daromadlarning taqsimlanishi notekis ravishda boradi. Bunda taqsimlanishini Lorents egri chizig'i deb nomlanuvchi OYe egri chizig'i orqali kuzatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar mavjud. Bularning asosiylari quyidagilar:

1. Kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;
2. Ta‘lim darajasidagi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
3. Tadbirkorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
4. Ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o'rnatishga layoqatli darajadagi farqlar (bozordagi hamkorlik darajasidan kelib chiqqan holda).

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasiga daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a‘zolari uchun ancha qo'lay moddiy hayot sharoitini ta‘minlashga qaratiladi.

### *3-savol. Davlatning ijtimoiy siyosati*

**Davlatning ijtimoiy siyosati** tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo'li bilan shakllantirish va uni byudjet orqali turli guruhlari o'rtasidagi qayta taqsimlashdan iborat.

Davlat daromadlarini qayta taqsimlashdan ijtimoiy to'lovlar bilan birga bozor narxlarini o'zgartirish va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

**Ijtimoiy to'lovlar** – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizini bo'lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog'liq bo'lmaydi.

**Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi** jamiyatdagi munosabatlarni inson parvarishlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholini daromadlari darajasiga inflyatsiya sezilarli ta'sir ko'rsatish sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste'mol tovarlarni narxnig o'sishini hisobga olish va nominal daromadlarini narxlar o'sishiga bog'liqlikdan oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi aholining kambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o'zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoniy) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning minimal me'yor bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarni ham o'z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko'zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan malakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulkni miqdori, oilaviy ahvoli kiritiladi.

**Ijtimoiy siyosat** – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishag yo'naltirilgan siyosatdir.

**Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish** – bu narxlar erkinlashtirilishni va pulning qadrsizlanish darajasiga ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. "Ma'lumki, malakatimzda kam ta'minlangan oilalarni bepul sigir berish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, 2006 yildan hozirga qadar nan shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi. Natijasida 2009 yilning birinchi yanvargacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari qoramol boquvchi sifatida royxatga olingan fuqarolarning umumiy soni bir million 100 mingdan ko'proqni tashkil etdi. Shulardan 54 ming kishiga yangi mehnat darajasiga berildi, bir yuz o'n bir ming fuqaroning esa mavjud mehnat daftarchasiga ish staji tegishli tartibda qayd etildi" [1].

**Aholining ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi** – ichki iste'mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq – ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishida muhim mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ulrga yuqori boj to'lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyaga ega bo'ladi.

**Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi** - aholining kam ta'minlangan tabaqalarning ijtimoiy himoyalash va qullab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o'tkazganligi bo'ldi. Masalan, pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

Yalpi ijtimoiy kafolatlar tizimdan ishonchli ijtimoiy kafolatlari va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tiziiga izchillik bilan o'tish-ijtimoiy siyosati amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlanishini bildiradi.

Mamlakatimizda ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar davlat byudjetining umumiy xarajatlariga nisbatan 2006 yilda 51,9 foizni, 2007 yilda 53 foizni 2009 yilda 54,6 foizni, 2009 yil 56,3 fozni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 59,1 foizni yetkazish rejalashtirilgan.

Mamlakatda 2008 yilda ijtimoiy inftuzilma boyicha qilingan ishlar salmoqli bo'ldi. Ya'ni, "Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23ta akademik litsey qurildi va rekonsturuktsiya qilindi. Shu bilan birga, 69ta yangi maktab barpo etildi va 582ta maktab kapital rekonstruktsiya qilindi. Shular qatorida 184ta bolalar sport inshooti, 26ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr to'rar joy binolari va boshqa ob'ektlar qo'rildi"┐

Bularning barchasi mamlakat aholisini ijtimoiy har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, uning turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, islohotlar davridagi davlat aholining muhtoj tabaqalarni qo'llav-quvvatlash bilan birga, o'z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta'minlashga haraqat qilayotgan kishilar uchun teng sharoit va qo'lay imkoniyat yaratib bormoqda.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Aholi daromadlari** – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlar miqlori.

**Nominal daromad** - aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi.

**Ixtiyorida bo'lgan daromad** - barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumikn bo'lgan daromad.

**Real daromad** - narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga yetadigan quvvatidir. Qisqa qilib aytganda aholi daromadining xarid qo'vvatidir.

**Lorents egri chizig'i** – daromadlar tengsizligi darajasini miqoriy aniqlashni xarakterlaydi.

**Ijtimoiy to'lovlar** - kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar.

**Ijtimoiy siyosat** - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosatdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy adolatni ta'minlashda aholi daromadlarini shakllantirish siyosatni roli qanday?
3. Aholi daromadlari tushunchasi va uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsatib bering.
4. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering.
5. Turmush darajasi qanday ko'rsatkichlar xarakterlab beradi?
6. Daromadlar tengsizligii asosiy sabablarini sanab ko'rsating va ularga tushuntirish bering.
7. O'zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo'nalishlariga o'z farqingizni bildiring.

## 20-mavzu. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI. JAHON XO'JALIGI

***Kirish***

Hozirgi zamon jahon xo'jaligining rivojlanishining boynalmillanishuvi, shu asosda jahon xo'jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishidan iborat.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uning milliy xo'jaligi ko'p darajada uning xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashishi darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan ham aniqlanadi. Ushbu mavzuni o'rganishdan maqsad - talabalarga jahon xo'jaliginig tarkib topish, uning baynalmillanishuvi va globallashuvini ahamiyati, jahon infratuzilmasining rivojlanishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, jahon xo'jaligi aloqalarining xalqaro tartibga solish kabi masalalar iqtisodiyotda tutgan o'rni tushuntiriladi. Bundan tashqari xalqaro integratsiyaning mohiyati, maqsad va shakllari, iqtisodiy integratsiyaning turlicha nazariyalari, asosiy integratsion guruhlar ko'rib chiqiladi. Shuning bilan birga

xalqaro savdo orqali milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari bilan bog'lanishi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, valyuta tizimi, valyuta kursi, valyuta siyosati, xalqaro munosabatlarning moliyaviy yoki valyutaga oid tomonlari ham ko'rib chiqiladi.

***Reja:***

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmillashuvi.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari.
4. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.

### *1-savol. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmillashuvi*

**Jahon xo'jaligi** – bu xalqaro mehnat taqsimoti, savdo-ishlab chiqarish, moliyaviy va milliy–texnikaviy aloqalar orqali birlashgan turli mamlakatlar xo'jaliklar tizimidir.

**Jahon xo'jaligi sub'ektlari** bo'lib quyidagilar hisoblanadi

O'z xo'jaligi sub'ektlarini majmuini oluvchi davlat;

Transmilliy korporatsiyalar;

Xalqaro tashkilot va institutlar;

Milliy iqtisodiyot chegarasidan chiqqan, xo'jalik barcha sohalari tarkibidagi firmalar.

Jahon xo'jaligi milliy xo'jalikdan yagona jahon bozorining mavjudligi bilan farqlanadi. Jahon bozorining rivojlanishining va uni amal qilishiga mamlakatlarning iqtisodiy siyosati ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Jahon bozorining o'ziga xos xususiyati bo'lib **jahon narxlari va xalqaro raqobat** tizimining amal qilishi hisoblanadi.

Aynan xalqaro raqobatning mavjudligi turli darajada milliy qiymatlari yagona baynalminal qiymatga keltiriladi. Mamlakatlar o'rtasidagi sotish bozorinig egallash uchun keskin raqobat kurash olib boriladi.

Mamlaktlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiy ko'rsatkichlari bir xil bo'lmaydi. Ular quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

1. Milliy va nisbat YaiM;
2. Milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
3. Milliy iqtisodiyotning tormoq tuzilmasi;
4. Mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi;
5. Aholining turmush darajasi va sifati.

Iqtisodiyotni farqi pasaytirish va undagi farqni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqarish baynalminallashuv boradi, iqtisodiy aloqalar kuchayadi hamda iqtisodiy munosabatlar kengayib boradi.

Iqtisodiy jarayonlarni baynalmillashuvi natijasida jahon xo'jaligining quyidagi **tarkibi** vujudga keldi:

1) Tovar va xizmatlar bozori;
2) Kapitallar jahon bozori;
3) Ishchi kuchi jahon bozori;
4) Xalqaro valyuta tizimi;
5) Xalqaro kredit-moliya tizimi.

Iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi. **Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT)** alohida mamlakatlarning ma'lum

turlarini ishlab chiqarish boyicha ixtisoslashuvini ifodalaydi. Mehnat taqsimotining rivojlanishuvi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan edi.

Mehnat turlarini kupayib boradi, ularning negizida barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynallminallashuvi o’zining har ikkala shaklida: **integratsion** (milliy xo’jaliklarning yaqinlashuvi, o’zaro moslushuvi orqali) va **transmilliy** (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi.

Iqtisodiy hayotnig baynalminallashuvi jarayoni ham muhim o’rin tutadi. Bu har ikkala tushuncha o’zaro bog’li bo’lib, ular jahon xo’jaligi sub‘ektlarining umumiy maqsadlarga erishish yo’lidagi xatti-harakatlarining birlashuvi jarayonini aks ettiradi. Shuningdek, bu tushunchalar bir-biridan farq qilib, ular bir hilda bo’lmagan xo’jalik birlashmalari miqyoslarini ifodaladilar.

**Baynalminallashuv** - bu jahon xo’jaliginig bir necha sub‘ektlari o’rtasidagi o’zaro aloqalarini o’rnatilishi va rivojlanishnig dastlabki bosqichidir.

**Globallashuv (lotincha “globus” - yer kurrasi)** - jahon xo’jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog’ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.

Globallashuv jarayoninig quyidagi yo’nalishlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

1) Mulkchilik munosabatlarining globallashuvi;

2) Kooperatsiya va mehnat taqsimotining nistabat yuqori darajasiga o’tish;

3) Xo’jalikning tashkil etishning butunlay yangi shakillarining paydo bo’lishi va rivojlanishi;

4) Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi rolini rivojlanishi.

Shuningdek, jahon xo’jaligi globallashuv jarayonlarining **ziddiyatli tomonlari** ham mavjud. Bu ziddiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi;
- boy va qashshoq mamlakatlar o’rtasidagi farqning qo’chayishi;
- ekologiya halokat tahdidlarinig kuchayib borishi;
- turli mamlakatlarda aholi sonining o’zgarishining farqlanishi va hakozo.

### *2-savol. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari*

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** - bu jahonning turli mamlakatlari o’rtasidagi xo’jalik aloqalari majmundir. Bu xalqaro iqtisodi munosabatlarni tashqi iqtisodiy aloqalar, jahon xo’jaligi deb ham yuritiladi.

Bu aloqalar quyidagi **shakllar**da namoyon bo’ladi:

· Tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi;

· Kapital va chet el investitsiyalarining harakati;

· Ishchi kuchi migratsiya; ishlab chiqarishing davlatlararo kooperatsiyasi;

· Fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;

· Valyuta – kredit munosabatlari.

Tovar va xizmatlarning **xalqaro savdo**si eng avvalo milliy xo’jaliklarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokida bog’liq. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi.

**Kapitalning xalqaro harakati** – bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va harakat qilish. U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

1. Xususiy yoki davlat kapitali shaklida;
2. Pul va tovar shaklida;
3. Qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;
4. Ssuda va tadbirkorlik kapitali shaklid*a*.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchinig xalqaro migratsiyasi bo’lib, u ishchi kuchini ish bilan ta‘minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko’chib o’tishida namoyon bo’ladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismini o'z ichiga oladi: emigratsiya va immigratsiY. **Emigratsiya** - mamlakatlardan doimiy yashash oyiga chiqib ketishni, immigratsiya - mamlakatda doimiy yashash uchun kirib kelishini bildiradi.

Xalqaro migratsiya shuningdek repatriatsiya ya'ni fuqarolarni ilgari chiqib ketgan mamlakatlariga qaytarilishi jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro migrantlar 5 ta asosiy toifaga ajratiladi:

*1) Immigrantlar va noimmigrantlar;*

*2) Shartnoma boyicha ishlashga kelgan mingratlar;*

*3) Nolegal, yashirin immigrantlar;*

*4) Boshpana so'rovchi shaxslar;*

5) Qochoqlar.

**Fan–texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash** bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish boyicha qo'shma tadbirkorlik o'z ichiga oladi.

Ilmiy-texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri xalqaro injenering hisoblanadi. **Xalqaro injenering** bir davlat tomonidan boshqasiga san'at va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish va qo'rish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmati kursatishdan iborat bo'lib, loyihaga binoan ob'ektlar quriladi.

### *3-savol. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari*

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** - bu turli mamlakatlar iqtisodiy aloqalarining baqarorlashib, chuqurlashib rivojlanishi, ular xo'jaliklarining chambarchas birlashishi jarayonlaridir. Integratsiya mikrodarajada va makrodarajada amal qiladi.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari** quyidagilar:

1. **Erkin savdo hududlari** - bu iqtisodiy integratsiyaing eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Erkin savdo xududlarining tashkil etilishi ichki bozorda milliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, bu bir tomondan, milliy ishlab chiqaruvchilarning bankrot (kasod) bo'lishi xafini ko'chaytirsa, boshqa tomondan ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish uchun rag'bat yaratadi. Bunga Yevropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitim misol bo'la oladi;

2. **Bojxona ittifoqi**. Iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo xududlarining faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo tariflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo (tariflari) siyosatini yuritishni taqozo qiladi. Yevropa ittifoqi (Yei) bojxona ittifoqiga yorqin misoldir;

3. **To'lov ittifoqi** - bu milliy valyutalarning o'zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligini amal qilishini ta'minlaydi. Yevropa hamjamiyati, janubiy-sharqiy Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to'lov ittifoqi pirovard maqsaddir;

4. **Umumiy bozor** - bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro savdo va yagona tashqi savdo tarifi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta'minlanadi. Bunga Yevropa iqtisodiy itifoq yoki Yevropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Bu umumiy bozorda barcha boj to'lovlari va import me'yor (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Yevropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi, pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi;

5. **Iqtisodiy va valyuta ittifoqi** - bu davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. Bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari umumiy iqtisodiy va valyuta moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini** ob'ektiv tavsifdagi bir qator omillar taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rinni egallaydi:

- *Xo'jalik aloqalarinting baynalminallashuvi va globallashuvi;*
- *Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;*
- *Umumjahon fan-texnika revolyutsiyasi;*
- *Milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.*

Integratsiya jarayonlarini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri - **milliy iqtisodiy ochiqligi darajasining oshishidir.**

**Ochiq iqtisodiyotning o'ziga xos belgisi** quydagilar hisoblanadi:

1. Mamlakat iqtisodiyotning jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga chuqur kirishganligi;
2. Tovarlar, kapital, ishchi kuchining mamlakatlararo harakati yo'lidagi tusiqlarnig kamaytirilishi yoki tuliq bartaraf etilishi;
3. Milliy valyuta konvertatsiyasinig ta'minlanganligi;

**Davlatlararo iqtisodiy integratsiyan**ing rivojlanishida quyidagi bir qator shart-sharoitlarning majudligi ta'sir kursatadi:

1. Integratsion aloqaga kirishayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot jihatidan bir xil darajada bo'lishi hamda bir turdagi xo'jalik tizimlariga ega bo'lishi;
2. Ularning hududiy jixatdan yaqinligi, yagna mintaqada joylashganligi va umumiy chegaraga egaligi;
3. Ularning tarixan iqtisodiy aloqalarga egaligi;
4. Iqtisodiy manfaatlar va muammolarning umumiyligi hamda ularni hal etishda birgalikdagi harakatning samaradorligi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo'jaligi rivojining tarixiy jihatdan uzoq davr davom etgan natijasi hisoblansada, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Hozirgi kunda ham mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integrallashuv jarayonida hal etilmagan kupdan-kup muammolar majudki, bizning Respublikamiz uchun tashqi iqtisodiy va valyuta siyosatini yanada erkilashtirishdan iborat."[5]

### *4-savol. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari*

Hozirgi jahon xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarian biri tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdoning tezlik bilan o'sishida namoyon bo'lmoqda. Barcha mamlakatlar tashqi savdosi majmui xalqaro savdoni tashkil qiladi.

**Xalqaro savdo** - bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Masalan, tashqi savdo (xalqaro savdo) xamkorlikda ishlab chiqarish, ilmiy-texnika, kadrlar tayyorlash, turizm va haqoza.

Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo'lsada, faqat XIX asrga kelib, ya'ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi.

Xalqaro savdo tashqi savdo aylanmasi, eksport va import, savdo balansi kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

**Eksport** - bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Eksportning iqtisodiy samaradorligi** shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradilar.

---

[5] Karimov I.A Isloҳotlar va investitsiyalar bўyicha idoralararo muvofiқlashtiruvchi kengash yiғilishidagi ma'ruzasi. " Xalқ sўzi" 2000 yil 2 fevral.

Xalqaro savdoda **tovarlarning eksport tarkibi** fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda xalqaro savdoning eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayirboshlashning ¾ qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xomashyo va yoqilg'i ulushi faqat ¼ qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar eksporti** tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan chet el kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va hakozo).

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aktsiyalariga maqsadli qoyilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqazo qiladi va shu orqali tassarufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksport chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarini ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qo'lay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki divident shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tovar ichki bozorga bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur bo'lgan archa tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun import kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Agar mamlakatni o'zida mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari tashqaridan sotib olinganidan qimmatga tushsa, usha tovarlar import qilinadi.

Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari) - bu mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur yetkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan mahsulotlar miqdoridir. Masalan, O'zbekiston eksportga paxta tolasi, qimmatboho metallar, uran, mineral o'g'itlar chiqariladi. Asosan, bulardan tashqari avtomobillar, neft-kimyo va metall mahsulotlari, mineral o'g'itlar, ip-kalova va gazlama, trikotaj buyumlari, sim-kabel mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlarni eksport tovarlari hajmi va turlarini kupaytirish hisobiga erishilmoqda. Eksport hajmida tayyor mahsulotlar ulushi 38 foizdan tashkil etgani, paxta tolasining ulushi esa 16,8 foizgacha kamayganini ham ko'rsatib o'tish mumkin┐ .

Tovarlar eksporti va import summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tashqi tovar aylanmasini tashkil etadi.

Qandaydir mamlakat ishlab chiqaruchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport roy beradi. Reeksport bilan reimport o'zviy bog'liq.. Reimport - iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlariga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi;
2. Mamlakatlarning turli valyutalaridan foydalanish ular o'rtasidagi mamlakat xalqaro savdosini amalga oshirishda muayyan qiynchiliklarni to'g'diradi.
3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichiki tadbirlardan tavsifi va darajasi boyicha sezilarli farqlanadi.

Xalqaro savdoni tashkil etish shakllari ham takomillashib bormoqda. Ananaviy ko'rishdagi tovar birjalari, auktsionlar, savdo-sanoati yarmarkalari, savdo ko'rgazmalari bilan bir qatorda **ikki tomonlama bitimlarning quyidagi shakllari** ham keng qo'llanilmoqda:

1. **Barter** - tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri, pul ishtirokisiz bir-biriga ayirboshlash. Barterda pul ishtirok etmasada, tovarlarning qiymatini o'lchovi vazifasi orqali baholab olinadi;

2. Eksport qiluvchilar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar qiymatining bir qismiga import tovarlarni xarid qilish;

3. Texnikaning yangi modellarini sotishda eskirgan modellarni sotib olish;

4. Import qiligan abob-uskunalar qism va detallarni importga sotuvchi mamlakat tomonidan butlab berish;

5. **Kompensatsion bitimlari** - mazkur bitimlar shartiga ko'ra, texnologik asbob-uskunalar yetkazib beruvchi tomonlarning biri taqdim etgan kredit (moliyaviy, tovar ko'rinishidagi) boyicha to'lovlar ana shu asbob-uskunalarda tayyorlangan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish orqali amalga oshiriladi;

6. Bir mamlakatda undirilgan xom ashyoni boshqa bir mamlakat ishlab chiqarish quvvatlar yordamida qayta ishlashda ushbu qayta ishlash va tashib berish xizmatlarini qo'shimcha xomashyo yetkazish orqali to'lash;

7. **Kliring operatsiyalari**, ya'ni o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olish orqali naqd pulsiz hisoblashuv.

Xalqaro savdoda ishtirok etish har bir mamlakat uchun **milliy ishlab chiqaruvchilarni tashki raqobatdan himoya qilish vazifasi**ni dolzarb qilib qoyadi. Bu vazifa mamlakatlarning savdo siyosati orqali amalga oshadi. Jahon amaliyotida bu siyosatning **protektsionizm** (tashki ta'sirdan himoyalash) va **fritrederlik** (savdoga to'liq erkinlik berish) kabi shakllari keng tarqalgan.

**Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar** mavjud bo'ladi:

1. **Boj to'lovlari**. Boj to'lovlari import tovarlarga aktsiz soliqlari hisoblanadi. U daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin.

2. **Import kvotalari**. Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi.

3. **Tarifsiz to'siqlar**. Tarifsiz to'siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qoyish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar tushuniladi.

4. **Eksportni ixtiyoriy cheklash** – bu savdo to'siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holat chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini ixtiyoriy ravishda cheklandi.

Erkin savdo (fritrederlik) siyosati protektsionizm siyosatining aksi bo'lib, tashki savdoni erkinlashtirishga qaratilgan.

Xalqaro savdoni tartibga solish xalqaro va milliy darajalarda amalga oshadi.

**Milliy darajadagi tartibga solish** eksport va importni tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Eksporni tartiblash tashkiliy va kredit-moliyaviy usullar yordamida uni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. **Eksportni rag'batlantirishning tashkiliy usullari**ga quyidagilar kiritish mumkin:

1. Eksport qiluvchilarga axborot va maslahat berish xizmatlarini ko'rsatish uchun maxsus bo'linmalarni tashkil etish.

2. Savdo bitimlarini to'zishda davlat idoralarining ishtirok etishi.

3. Tashki savdo uchun malakali kadrlarni tayyorlashga ko'maklashuv

4.Xorijiy mamlakatlarda ko'rgazmalar tashkil etishda yordam ko'rsatish

5. Milliy kompaniyalarni diplomatik jihatdan qo'llab-quvvatlash va haqozo.

**Eksportni rag'batlantirishning kredit-moliyaviy usullari** quyidagilardan iborat:

1. Eksportga tovarlarni yetkazib berishini subsidiyalash

2. Eksport qiluvchilar uchun davlat kreditlarni berish va xususiy kreditlar berilishini rag'batlantirish

3. Xorijda amalga oshiruvchi savdo bitimlarini davlat tomonidan sug'urtalash

4. Eksportdan olinuvchi foydadan soliq to'lashdan ozod etish va h.

**Importni tartibga solish** asosan uni tarifli va tarifsiz vositalar orqali cheklashdan iborat. Asosiy tarifli to'siq sifatida bojxona bojlarini keltirish mumkin.

**To'lov balansi** – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

**Iqtisodiy bitimlar** – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya‘ni tovarlar, ko’rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o’tishi boyicha kelishuvlardan iborat. Har bir bitim to’lov balansining debet va kredit qismlarida o’z ifodasini topadi.

**Kredit** – qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo’lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qonlovchi to’lovlar ekvivaletini oladi.

**Debet** – qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo’lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarining sarflaydi.

To’lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo’lishi zarur.

To’lov balansidagi hamma bitimlar o’z ichiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli, u **uchta tarkibiy qismdan iborat** bo’ladi:

1. Joriy operatsiyalar hisobi
2. Kapital harakati hisobi
3. Rasmiy zahiralarning o’zgarishi

***To’lov balansining to’zilishi***

<table>
<tr><td colspan="2">I. Joriy operatsiyalar hisobi</td></tr>
<tr><td>1. Tovar eksporti</td><td>2. Tovar importi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tashki savdo balansi qoldig’i</td></tr>
<tr><td>3. Xizmatlar eksporti (chet el turizmdan daromadlar va h.) – kreditli xizmatlar</td><td>4. Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to’lovlar va h.) – kreditli xizmatlar</td></tr>
<tr><td colspan="2">5. Investitsiyalardan sarf daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)</td></tr>
<tr><td colspan="2">6. Sof transfertlar</td></tr>
<tr><td colspan="2">Joriy operatsiyalar boyicha balans qoldig’i</td></tr>
<tr><td colspan="2">II. Kapital harakati hisobi</td></tr>
<tr><td>7. Kapital kirishi</td><td>8. Kapital oqib chiqishi</td></tr>
<tr><td colspan="2">Kapital harakati balansi qoldig’i</td></tr>
<tr><td colspan="2">Joriy operatsiyalar va kapital harakati balansi qoldig’i</td></tr>
<tr><td colspan="2">III. Rasmiy zahiralarning o’zgarishi</td></tr>
</table>

Mamlakatning tashki savdo balansi (to’lov balansi) mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning holatini ifodalab, uning pul-kredit, valyuta, byudjet-soliq, tashki savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarini tartibga solish uchun indikator bo’lib xizmat qiladi.

Tovarlar eksporti va importi o’rtasidagi farq savdo balansini tashkil qiladi. Investitsiyalardan sof daromadlari (chet eldan sof olimni daromadlari) kreditli xizmatlardan olinadigan sof daromad hisoblanib, u chet ellarga qoyilgan milliy pul kapitali hisobiga keladi. Agar chet elga qoyilgan milliy kapital mazkur kapitalga qoyilgan chet el kapitaliga qaraganda qo’proq miqdorda foiz va divident keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda salbiy bo’ladi.

Sof transfertlar xususiy va davlat bomlog’larining boshqa mamlakatlarga o’tkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovg’a, chet elga pul o’tkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday to’lovlar mamlakatda mavjud chet el valyutalari zahirasini kamaytiradi.

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobiga qoldig’i quyidagicha ifodalanadi:

$$X\ (eksport)\text{-}M\ (import) = Xn = Y\text{-}(C+1+G)\ \ absorbtsiY.$$

**Absorbtsiya** - yalpi ichki mahsulotining mazkur mamlakatdagi uy-xo’jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

**Kapital harakati balansi** = Aktivlar sotishdan tushumlar - chetdan aktivlar sotib olishga sarflar.

Markaziy bank tomonidan chet el valyutlarining sotilishi va sotib olinishi **rasmiy zahiralar boyicha operatsiyalar** deyiladi.

### *5-savol. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari*

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ichki kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlari, qarzlar va subsidyalar oqimi, ilmiy-texnikaviy mahsulotlarning ayirboshlash, turzim va h.k) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar **xalqaro valyuta-kredit munosabatlari** deb ataladi. **Valyuta** - bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt stering va h.k).

**Milliy valyuta tizimi** - valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi. Uning tarkibiga quyidagi unsurlar kiradi.

- milliy pul birligi;
- valyuta kursi tartibi;
- valyutaning muomalada bo'lish shart-sharoitlar;
- valyuta bozori va oltin bozor tizimi;
- mamlakatning xalqaro hisoblashuv tartibi;
- mamlakat oltin-valyuta zahirasining tartibi va uni boshqaruv tizimi;
- mamlakat valyuta munosabatlarining tartibga soluvchi milliy muassasalar mavqei.

**Xalqaro valyuta tizimi –** xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

**Xalqaro valyuta tizimining tartib unsurlari** quyidagilar:

- asosiy xalqaro to'lov vositalari ( milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari SDR, YevRO);
- valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi;
- xalqaro to'lovlarning balanstirlashtirish tartibi;
- valyutaning muammoga qilish shart-sharoiti;
- xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi.

**Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqichdan o'tdi** va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z tiplari mos keladi.

**Birinchi bosqich - 1879-1934** yillarni o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatida pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan.

**Ikkinchi bosqich – 1944-1971** yillarni o'z ichiga olib, bunda oltin-devizli (Breton, Vudsk tizim deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan.

**Uchinchi bosqich - hozirgi davrda amal qiluvchi** jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimi nomini oldi. Chunki davlat ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini kuzda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarini oltinga almashtirgan.

**Mamlakat uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan, deb hisoblangan**, ya'ni:

a) o'z pul birligini ma'lum oltin oltin mazmuni o'rnatadi;

b) o'zining oltin zahirasi va pulning ichiki taklif o'rtasidagi qattiq nisbatini ushlab turadi;

v) oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. **Valyuta kursi** - bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko'rsatadi.

**Valyuta kursini tartibga soluvchi tashkilotlar** bor. Ularni tartibiga quyidagilar keradi:

- Xalqaro valyuta fondi (XVF);
- Xalqaro tarqqiyot va tiklanish banki (XTTB);
- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT);
- Xalqaro rivojlanish assotsiyasi (XRA).

**Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar** ham mavjud:

- Milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlar darajasi;
- Milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;
- Valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balans holati;
- Mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- Valyutaga jahon bozoridagi ishonch h.k.

**Xalqaro valyuta fondi (XVF)** o'ziga a'zo mamlakatlarning valyuta kursi va to'lov balanlarini tartibga soladi, kreditlar ajratadi, to'lov tizimlarini va tashqi qarzlarini nazorat qiladi.

**Yevropa valyuta tizimi** 1979 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga kiruvchi davlatlar tomonidan valyuta kurslarini barqarorlashtirish maqsadida tashkil etilib, bu davlat o'rtasidagi to'lov jarayonlarida amal qiluvchi Yevropa valyuta birligi EKYu muomalaga kiritiladi.

**Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IVI)** - Yevropa valyuta tizimi amal qilishi natijasida tashkil etilib, u quyidagilarni taqozo etadi:

- Moliya bozorlarining to'liq itegratsiyalashuvi;
- Kapitallar harajatining to'liq erkinlashuvi;
- Barcha valyutalarning to'liq konvertatsiyasining ta'minlash va piravordida milliy valyutalarni yagona valyuta bilan almashtirish.

**Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTTB)** ham faoliyati halqaro valyuta-moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan bo'lib, u o'zining ikkita filiali – **Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK)** hamda **xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi (XRA)** bilan birgalikda Jahon banki tarkibiga kiradi.

**Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK)**ning faoliyati ustun ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarning xususiy sektorini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

**Xalqaro rivojlanish assotsiyasi (XRA)**ning asosiy faoliyati esa ko'proq qoloq mamlakatlarga imtiyozli yoki foizsiz kreditlar ajratishga qaratilgan.

**Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IRHT)** tarkibiga barcha sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar keradi.

**Xalqaro hisoblashuvlar banki (XHB)** Shveytsariyaning Bazel shahrida joylashgan bo'lib, u xalqaro moliyaviy tashkilot hisoblansada, bank faoliyatining xalqaro tartibga solishda yetakchi rol oynaydi. U o'z tartibiga 70 dan ortiq markaziy banklarni kiritgan bo'lib, ular o'zlarining oltin-valyuta zahiralarini XHB hisob varaqalarida saqlaydilar.

**Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YetTB)** sharqiy Yevropa hamda sobiq ittifoq mamlakatlariga valyuta –moliya sohasidagi ko'maklashishni muvofiqlashtirish maqsadida 1990 yilda tashkil etildi. Bugungi kunda ko'rsatib o'tilgan davlatlararo tashkilotlarning xalqaro valyuta-moliya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va yanada takomillashtirishga qaratilgan faooliyatning ahamiyati tobora oshib bormoqda . Bundan keyin ham bu banklarning moliyaviy-iqtisodiyo yordami zarur bo'lib keladi.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Jahon xo'jaligi** – xalqaro mehnat taqsimoti, savdo ishlab chiqarish, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy aloqalar orqali birlashgan turli mamlakatlar xo'jaliklari tizimi.

**Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi** – mamlakatlarning jahon mikyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabholarini qamrab olishi jarayoni.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** – alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarining ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

**Globallashuv** – jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishi.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** – jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari majmui.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** – jahon mamlakatlari o'zaro iqtisodiy aloqalarining chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

**Erkin savdo hududlari** – iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida savdo cheklamlari beqor qilinadi.

**Bojxona ittifoqi** – yagona tashki savdo tariflari o'rnatilish va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashki savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi.

**To'lov ittifoqi** – milliy valyutalarning o'zaro almashishuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

**Umumiy bozor** – bunda uning qatnashchilari o'zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashki savdo siyosati o'tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta'minlanadi.

**Iqtisodiy va valyuta ittifoqi** – iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo'lib, bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari iqtisodiy va valyuta moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

**Eksport** – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Import** – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritishi.

**Xalqaro valyuta tizimi** – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlashgan shakli.

**Valyuta kursi** – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishining bahosi.

**To'lov balansi** – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxona va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yil) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari*:**

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga hos xususiyati nimadan iborat?
2. Jahon xo'jaligining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
3. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?
4. Globallashuv jarayoni nima va uning qanday yo'nalishlari mavjud?
5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.
6. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillariga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol oynaydi?
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qoyadi? Hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarni bilasiz?
8. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
9. Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rni qanday?
10. Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
11. Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?
12. Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
13. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega bo'lishini ayting.

***QARSHU MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI***

# “IQTISODIYOT NAZARIYASI” FANIDAN AMALIY (SEMINAR) MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

## (O’QUV-USLUBIY QO’LLANMASI)

***Qarshi - 2023***

## *1-amaliy mashg'ulot*
## *Mavzu:* IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA BILISH USULLARI
***(2 soat)***

Ushbu amaliy mashg'ulotda kishilik jamiyati rivojlanishining asosi bo'lgan iqtisodiyot tushunchalari, iqtisodiy bilimlarning shakllanishi, iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishi va uning rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar o'rganiladi. Keyin iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bosh masalasi hamda uning vazifalari ko'rsatib beriladi. Shundan so'ng iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilish mexanizmlari bayon qilinadi, iqtisodiyotni ilmiy bilish usullarining mazmuni hamda mohiyati tushuntiriladi.

***Reja:***

1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi.
2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.
3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari.
4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar).

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari.
2. Hozirgi davrdagi yangi iqtisodiy g'oyalar va ularning asosiy yo'nalishlari.

***Asosiy tayanch tushunchalar*:**

**Iqtisod** – bu tejash va tejamkorlik degan ma'noni bildiradi;

**Iqtisodiyot** – bu insonlarni iste'moli uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni cheklangan iqtisodiy resurslardan ishlab chiqarishda omilkorlik bilan foydalanish yo'li bilan yetkazib berishdagi faoliyatdir;

**Siyosiy iqtisod** – bu grekcha so'zdan olingan bo'lib, " politeya" (ijtimoiy tuzum), "oykos" (uy xo'jaligi) va "nomos" (qonun, ta'limot) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, ijtimoiy tuzum, uy xo'jaligini boshqarish qonunlari yoki ta'limoti ma'nosini anglatadi;

**Merkantilizm** – bu iqtisodiyotdagi boylikning manbai savdodan iborat ekanligi haqidagi ta'limot. Boylikni pul bilan tenglashtirishdir, chunki "merkantil" so'zining ma'nosi "pullik" degan tushunchani bildiradi;

**Fiziokratlar** – bu "tabiat hukmronligi" ma'nosini angalatadi. Bu nazariya boyicha boylikning manbai faqat qishloq xo'jaligidagi mehnatdan hosil bo'ladi degan tushunchadir;

Monetarizm – bu iqtisodiyotni barqarorlashtirish nazariyasi bo'lib, unda pul asosiy rolni bajaradi;

**Neoliberalizm** – iqtisodiyotga davlatning aralashuvini cheklash to'g'risidagi nazariyadir;

**Marjinalizm** – iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tadqiq qilishda me'yoriy o'lchamlardan foydalanish to'g'risidagi uslubiy tamoyillardan biridir;

**Keynschilik** - bu iqtisodiyotni tartiblashtirishda, uni muvozanatga keltirishda iqtisodiyotga davlatning aralashuvini ma'qullaydigan ta'limotdir;

**Instituttsionalizm** – sotsiologik yo'nalish – bu lotincha "institutum" so'zidan olingan bo'lib, o'rnatish, tuzilma, muassasa degan ma'noni bildiradi;

**Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi nazariyasi** - bu erkin narx va erkin raqobatning zarurligi, talab va taklif o'rtasidagi to'g'ri nisbat, iqtisodiyotni muvozanatliligini bildiradi.

**Iqtisodiy faoliyat** - bu kishilarning ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol fazalaridagi iqtisodiy munosabatlaridir;

**Iqtisodiy munosabatlar ob'ekti** – bu iqtisodiy va tabiiy resurslar, kishilar mehnati bilan yaratilgan tovar va xizmatlardan iborat;

**Iqtisodiy munosabatlar sub'ekti** - bu kishilar, xonadon, firma, davlat idora va tashkilotlaridan iborat;

**Tadqiqot metodologiyasi** – bu fanning predmetini o'rganishga qo'llaniladigan ilmiy tamoyillar hisoblanadi, ya'ni tizimiy yondashuv, tabiat va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro

bog'lanish, iqtisodiyotning tabiatga qayta ta'siri, xronologik o'zgarishlar, iqtisodiyotni dinamika holati kabilardir;

**Tahlil uslublari** – kuzatish, gipoteza qilish, abstraktsiyalash, pozitiv va normativ, mikrodaraja, mezadaraja, makrodaraja va metadaraja kabilar;

**Ehtiyoj** – kishilarning yashashi va rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lgan zaruriyatdir.

**Ehtiyojlarning yuksalish qonuni** – bu insonlarning talabini miqdor jihatdan ko'payib borishi, yangi-yangi talablarning paydo bo'lishi demakdir;

**Ishlab chiqarish** – bunda ish kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarining birikishi natijasida mahsulotlar va xizmatlarni yaratish tushuniladi;

**Barter** – bu mahsulotni mahsulotga almashtirishdir. Bunda pul ishtirok etmaydi;

**Tovar ayirboshlash** – bu mahsulotni tovarga aylanishi natijasida ular uchun ekvivalent bo'lgan pul bilan savdo-sotiq orqali bir tovarni ikkinchi tovarga aylantirish ma'nosini bildiradi;

**Taqsimlash** – bu mehnat natijalaridan hosil bo'lgan mahsulot va xizmatlarni uni yaratuvchilariga berish deganidir;

**Iste'mol** – bu mahsulot va xizmatlarni insonning ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlatilishidir;

**Iste'mol turlari** – bu xususiy (shaxsiy) iste'mol, ishlab chiqarish iste'moli va davlat iste'molidir. Iste'mol natural va tovar shaklida bo'ladi;

**Iqtisodiy resurslar** – mamlakat ixtiyoridagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ularni iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarida qo'llaniladigan barcha vositalar, imkoniyatlar va manbalar to'plamidir;

**Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti** – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitida jamiyat cheksiz ehtiyojlarini qondirib borish maqsadida moddiy, nomoddiy ne'matlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va ularni iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimini, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o'rganishdir.

**Iqtisodiy qonunlar** – iqtisodiy jarayonlarning turli tomonlarini, iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibatlarning o'zaro bog'liqligini ifodalab beradi.

**Iqtisodiy kategoriyalar** – iqtisodiy hayotda doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarning ayrim tomonlarini ifodalovchi ilmiy mantiqiy tushunchalardir.

**Uslubiyat** – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy nazariy bilishning tamoyillari, yo'llari, qonun-qoidalari tizimidir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Iqtisodiy bilimlarning shakllanishini tushuntirib bering?
2. Siyosiy iqtisod (iqtisodiyot nazariyasi) fanining vujudga kelishini aytib bering?
3. Iqtisodiy bilimlarni rivojlanishining bosqichlari va ular o'rtasidagi farqlari nimalardan iborat?
4. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarining asosiy yo'nalishlari va ularning mohiyatini tushuntirib bering?
5. Siyosiy iqtisod fanini iqtisodiyot nazariyasiga aylantirishning sabablari nimalar bilan bog'liqligini tushuntiring?
6. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasini ta'riflab bering.
7. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti nima?
8. Fanning predmeti to'g'risidagi turli qarashlarni izohlab bering?
9. Ehtiyoj deganda nimani tushunasiz?
10. Iqtisodiy faoliyatga tushuncha bering?
11. Ehtiyojlarning qanday turlari bor?
12. Iqtisodiy resurslar nimalardan iborat va uni turlariga nimalar kiradi?
13. Ehtiyojlarni qondirish nimalarga bog'liq bo'lishi mumkin?
14. Iqtisodiy kategoriya va qonunlarni ta'riflang va misollar bilan tushuntirib bering?

15. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa iqtisodiy fanlar bilan o’zaro aloqasini izohlab bering?
16. Iqtisodiyot nazariyasining vazifalari nimalardan iborat?
17. Iqtisodiyot nazariyasi fanini o’rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
18. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotni tushuntiring va ularning farqini aytib bering?
19. Hozirgi zamon iqtisodiy qarashlarning asosiy yo’nalishlari nimalardan iborat?

### *Test savollari:*

**1. Markaziy Osiyoda yashab o’tgan qaysi mutaffakkir asarlarida iqtisodiy g’oyalar o’z aksini topgan**?

A) Farobiy, Ibn Sino;
B) A.Beruniy, Yusuf Xos Xojib;
S) A.Navoiy, A.Temur;
D) yuqoridagilarning barchasini asarlarida.

**2. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblangan?**

A) merkantilizm;
B) Keyns maktabi;
S) monetarizm;
D) fizokratlar.

**3. Iqtisodiyot nazariyasi fanlarning qanday guruhiga kiradi?**

A) iqtisodiy fanlar;
B) ijtimoiy fanlar;
S) ijtimoiy-gumanitar fanlar;
D) siyosiy fanlar.

**4. “Iqtisodiyot nazariyasi” iqtisodiy jarayonlarni qanday ketma-ketlikda o’rganadi?**

A) iste‘mol, ayirboshlash, taqsimot, ishlab chiqarish;
B) ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste‘mol;
S) taqsimot, ishlab chiqarish, iste‘mol, ayirboshlash;
D) ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste‘mol.

**5. Cheklangan resurslar bilan cheksiz ehtiyojlarni to’laroq qondirib borishga qanday erishiladi?**

A) ehtiyojlarni qondirishning maqbul darajasini aniqlash;
B) cheklangan resurslardan oqilona foydalanish;
S) resurslarni samarali taqsimlash;
D) yuqoridagi barcha yo’llar bilan**.**

### *Adabiyotlar:*


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.
4. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
5. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995y.
6. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
7. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
8. Shodmonov Sh., Alimov H., Jo’raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2000.
9. O’lmasov A., Sharifxo’jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Mehnat”, 1995.

### *2-amaliy mashg'ulot*
### *Mavzu: ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI*
### *(2 soat)*

Ushbu amaliy mashg'ulotda inson hayotiy ehtiyojlarini ta'minlovchi va jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lgan ishlab chiqarish haqidagi tushuncha beriladi. Ishlab chiqarish tufayli moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi, inson va jamiyat ehtiyoji qondiriladi. Shunday ekan ishlab chiqarishning mazmuni, mohiyati tushuntiriladi. Ishlab chiqarishni tashkil etuvchi omillar, uning tarkibiy qismlari yoritiladi, ishlab chiqarishning pirovard natijasi va samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shundan keyin yaratilayotgan qo'shimcha mahsulot (keyingi qo'shilgan mahsulot) va uning miqdorining kamayib borishi, keyingi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borishi qonunining marjinalistik nazariya ko'rib chiqiladi.

**_Reja:_**

1. Ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibi.
2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.
3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.
4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi.

**_Talaba mustaqil ishi:_**

1. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari.
2. Sof milliy mahsulot va milliy daromad.

**_Asosiy tayanch tushunchalar_**:

**Ishchi kuchi** - mehnat qilishga yaroqli bo'lgan insonning jismoniy va aqliy mehnatining majmuidir;

**Mehnat predmetlari** – inson mehnati ta'sir etadigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan barcha narsalardir. Masalan yer, suv, xom-ashyo, barcha materiallardan tashkil topadi;

**Mehnat qurollari** – bu insonning tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatishda qo'llaniladigan (ishlatiladigan) vositalar-narsalardir. Ya'ni: mashinalar, stanoklar, asboblar, traktorlar, uskunalar, arra, bolta va boshqalardan tashkil topadi;

**Kapital** – bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning tarmoq va sohalarida ishlatilib, o'z egasiga daromad keltiradigan tovarlar, ishlab chiqarish vositalari va pul mablag'laridir. Tabiiy resurslar - yer-suv, unumdor tuproq, o'rmon, qazilma boyliklar, o'tloqlar foydalanishga tortilsa, ular ham daromad keltiradi;

**Tadbirkorlik** – bu insonning yaratuvchilik faoliyati bo'lib, uni amalga oshirish uchun insonda tashabbus, tashkilotchilik, ishbilarmonlik qobiliyatlari bo'lishi va iqtisodiy xavf-xatardan, tavakkalchilik hamda javobgarlikdan ham cho'chimasligi lozim degan ma'noni bildiradi;

**Ishlab chiqarish jarayoni** – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, o'zining va insonlarning iste'moliga zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar yaratish maqsadida o'z mehnat qobiliyatini ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishidir. Ishlab chiqarish tufayli iste'mol qiymat va qiymat yaratiladi;

**Ishlab chiqarishning umumiy samarasi** - bu ishlab chiqarishga sarf qilingan resurslar xarajatlari bilan hosil qilingan daromadlar o'rtasidagi nisbatdan iboratdir;

**Mehnat unumdorligi** - mahsulot va xizmatlarga yoki ular birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtidir;

**Zaruriy mahsulot** – bu ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning (ishchi, xizmatchi, dehqon, fermer va h.k) zaruriy ish vaqtida yaratgan va ularni ishchi kuchini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulotlardan iboratdir;

**Qo'shimcha mahsulot** - bu ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan mahsulotidir. U sof mahsulotining zaruriy mahsulotdan oshiqcha qismi bo'lib, tadbirkorlarga, mulkdorlarga va davlatga tegishli bo'ladi;

**Ishlab chiqarish funktsiyasi** - bu ishlab chiqarish omillari bilan uning samaralari o'rtasidagi bog'liqlikdan iborat;

**Qo'shilgan kapital** - bu ishlab chiqarishda band bo'lgan kapital miqdoriga yangi qo'shimcha ravishda qo'shilgan kapital yoki kapital miqdorining o'sgan qismidir;

**O'rtacha mahsulot** - ishlab chiqarishga jalb qilingan mehnat resursi va kapitalning bitta birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdoridan iborat;

**So'nggi qo'shilgan mahsulot** - so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga ko'paygan (o'sgan) mahsulotni bildiradi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Ishlab chiqarish va uning omillarini tushuntirib bering.
2. Ishlab chiqarish omillariga nimalar kiradi.
3. Kapital deganda nima tushuniladi va unga ta'rif bering?
4. Kapital tarkibiga nimalar kiradi?
5. Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini tushuntirib bering.
6. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini tushuntirib bering.
7. Ishlab chiqarilgan (yaratilgan) mahsulotning natural va qiymat tarkibi nimalardan iborat?
8. Zaruriy va qo'shimcha mahsulotni tushuntiring.
9. Qo'shimcha mahsulot normasi va massasi formulasining mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
10. Qo'shilgan mehnat, qo'shilgan kapital va qo'shilgan mahsulot tushunchalarini mazmunini tushuntirib bering.
11. So'nggi qo'shilgan mehnat va kapital unumdorligining pasayib borish qonunining mohiyati nimadan iborat?
12. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonini tushuntirib bering.

***Test savollari:***

**1. Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanadi**?

A) ishchi kuchi;
B) tabiiy omillar;
S) xom ashyo, materiallar, bino va inshootlar, asbob va uskunalar;
D) tadbirkorlik faoliyati.

**2. Iqtisodiy faoliyat turlaridan qaysi birining natijasi bo'lib moddiy-ashyoviy qo'rinishdagi natijalar olinadi?**

A) ayirboshlashda;
B) ishlab chiqarishda;
S) taqsimotda;
D) iste'molda.

**3. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?**

A) vaqt birligida yaratilgan mahsulot hajmi bilan:
B) qancha resurs sarflab qanday natija olinganligi bilan;
S) sarf-xarajatlarning qoplanganligi bilan;
D) foydaning ko'pligi bilan.

**4. Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarishning moddiy omili hisoblanmaydi?**

A) bino va inshootlar, mashina, asbobva uskunalar;
B) ishchi kuchi;
C) transport vositalari;
D) xomashyo va materiallar.

**5. Ishlab chiqarish omillari qaysi qatorda to'liq berilgan?**

A) yer-sus, kapital;
B) tabiat, ishchi kuchi, kapital, tadbirkorlik qobiliyati, axborot (informatsiya);
C) yer-sus, tadbirkorlik, ishchi kuchi;
D) ishchi kuchi, kapital, axborot (informatsiya), tabiat**.**

***Adabiyotlar:***

1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
6. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
7. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
8. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T.: "Moliya", 2005.
9. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.

## *3-amaliy mashg'ulot*

## *Mavzu: IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI*

***(2 soat)***

Ushbu amaliy mashg'ulotda kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan boshlab shakllangan va turli ko'rinishda amal qilib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularni taraqqiyot bosqichlari haqida tushunchalar beriladi, ishlab chiqarishning ijtimoiyligi tizimlari va ularni modellari hamda xususiyatlari tushuntiriladi. Ishlab chiqarish - bu moddiy borliqqa egalik qilish asosida tashkil etilganligi sababli, mulk ob'ektlari bo'ladi. Shunday ekan mulkka tushuncha beriladi, mulk turlari, mulkning iqtisodiy mohiyati va mazmuni hamda bozor tizimi sharoitida mulk shakllarining o'zgarishi haqida ilmiy tushunchalar bayon qilinadi.

***Reja:***

1. Ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishga bo'lgan turlicha yondashuvlar.
2. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari.
3. Mulkchilik munosabatlarning mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.
4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. O'zbekiston mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning maqsadi, yo'llari va usullari.
2. Aralash mulk va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Iqtisodiy tizim** – bu jamiyatning sotsial-iqtisodiy tuzilishidir;

**Ijtimoiy-iqtisodiy tizim belgilari** – ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakli, iqtisodiy faoliyati tartibga solinuvchi va boshqariluvchi uslublar bilan ifodalanadi;

**An'anaviy iqtisodiyot** – bu mehnat mahsulotlarini natural va mayda tovar xo'jaligi ko'rinishidir;

**Bozor tizimi** – bu erkin raqobatga asoslangan tovar-pul munosabatlari shaklidagi tizimdir;

**Rejali tizim** – bu ishlab chiqarish vositalariga davlat mulkchiligiga va buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidir;

**Aralash iqtisodiyot tizimi** – turli mulkchilik shakllarining aralashmasidir;

**Ishlab chiqarish usuli** - bu ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarini bir-biriga qo'shilishidir;

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** – bu ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarini o'zaro birligidan iborat;

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** – bu insonlarni yashashi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida hosil bo'ladigan iqtisodiy aloqalar birligidir;

**Ishlab chiqarishning texnologik usuli** - bu mehnat vositalari, materiallari, texnologiya, energiya axborotlari va ishlab chiqarishni tashkil etish usulidir;

**Mulkchilik munosabatlari** – bu tabiatda mavjud bo'lgan narsalarga egalik qilish, ulardan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida hosil bo'ladigan iqtisodiy aloqalar majmuidir;

**Mulkdan egalik qilish** – bu mulkdorlik huquqi bo'lib, amaldagi qonunchilik bilan tavsiflanadi;.

**Mulkni o'zlashtirish** – bu mulkning o'zini va undan olingan daromadlarni iste'mol qilishdir;

**Mulkni tasarruf etish** – bu mulkning taqdirini mulk egasining o'zi belgilashidir;

**Mulk ob'ektlari** – bu mulk bo'lgan barcha boylik turlari tashkil etadi;

**Mulk sub'ektlari** – bu mulk egalari bo'lgan barcha sub'ektlari va uni o'zlashtirishdagi barcha ishtirokchilardir;

**Xususiylashtirish** – bu davlat ixtiyoridagi mulkning huquqini xususiy shaxslarga berilishidir;

**Davlat tasarrufidan chiqarish** - bu davlat mulki hisobidan boshqa ko'rinishidagi davlatga qarashli bo'lmagan mulk shakllarni hosil qilishdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Ishlab chiqarish usuli va uni tarkibiy qismlari nimadan iborat ekanligini tushuntiring.
2. Ishlab chiqarish usulining boshqa ko'rinishga
3. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini tushuntirib bering.
4. Iqtisodiy tizim va uning nusxalari hamda farqlarini tushuntirib bering.
5. Mulkchilik va uning mohiyatini tushuntiring.
6. Mulkchilikni turli shakllarini iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
7. Mulk ob'ektlari va sub'ektlarini tushuntirib bering.
8. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima sababdan mulkchilikning turli shakllarda bo'lishini taqazo etadi?
9. Xususiylashtirish va uning bosqichlarini tushuntirib bering.
10. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish deganda nimani nazarda tutiladi?
11. Xususiylashtirishning qanday usullari bor?

***Test savollari:***

1. **Iqtisodiy tizim nima**?
A) ijtimoiy ishlab chiqarish shaklidir;
B) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosidir;
S) jamiyatning asosiy yo'nalishidir;
D) yuqoridagilarning barchasi.

**2. Iqtisodiy tizimning qaysi modelida xususiy mulkning ustunligi va boshlqarishning bozor mexanizmi ta'minlanadi**?
A) ma'muriy –buyruqbozlik tizimi;
B) an'anaviy tizim;
S) aralash iqtisodiyot;
D) yuqoridagilarning barchasi.

**3. Mulk ob'ekti to'g'ri ifodalangan qatorni ko'rsating:**
A) mulkka aylangan barcha boyliklar:
B) qimmatbaho qog'ozlar;
S) bino va inshootlar;
D) yer, suv va konlar.

**4. Xususiy mulk to'g'ri ta'riflangan qatorni ko'rsating**:
A) ijaraga berilgan mulk;
B) o'z egasiga daromad keltiruvchi mulk;
S) egalik huquqini beruvchi mulk;
D) jamoaga tegishli umumiy mulk.

**5. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarishning qaysi yo'li erkin tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochib beriishi mumkin**?
A) hissadorlik jamiyatiga aylantirish;
B) jamoa mulkiga aylantirish;
S) ijaraga berish;
D) xususiylashtirish**.**

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O'zbekiston", 1996.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
10. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T.: "Moliya", 2005.
11. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.


## *4-amaliy mashg'ulot*
## *Mavzu: TOVAR –PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BOZOR IQTISODIYotI ShaKLLANISHI VA AMAL QILISHINING ASOSIDIR*
***(2 soat)***

Ushbu amaliy mashg'ulotda oldingi mavzularda taraqqiyotning asosi bo'lgan ishlab chiqarishning shakllanishi va uning amal qilishning umumiy tomonlari, ijtimoiy iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari, ularning turlari va ularni o'zgarib turishi bilan bog'liq bo'lgan qoida qonunlar va iqtisodiy tushunchalarni ko'rib o'tilgan edi..

Bu mavzuda ibtidoiy jamoa tizimi yemirilishi zaminida vajudga kelgan tovar xo'jaligi va tovar ayirboshlash barcha iqtisodiy tizimlarda rivojlanib va tokamillashib borishining qonuniyatlarini, tovar va uning xususiyatlari, tovar qiymatining miqdori, pulning vujudga kelishi va uning vazifalari o'rganiladi.

***Reja:***

1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish va uning rivojlanishi.
2. Tovar va uning xususiyatlari.
3. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor nafligi nazariyasi.

***Talabi mustaqil ishi:***

1. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.
2. Tovar xo'jaligining vujudga kelishining ob'ektiv zarurligi.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

Natural ishlab chiqarish - bunda mehnat mahsulotlari ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, ichki xo'jalik ehtiyolari uchun ishlatiladi.

Tovar xo'jaligi – bu mahsulotlar va xizmatlarni bozor talabi (ehtiyoji) uchun ishlab chiqarishdir;

Oddiy tovar xo'jaligi – bu dehqonlar va hunarmandlarning o'z mehnatlari bilan yaratilgan tovar va xizmatlarning ular o'rtasida ayirbosh qilinishidir;

Rivojlangan tovar xo'jaligi – bu ishlab chiqarish omillarining barchasini tovarga aylanishi, bozor orqali oldi-sotdi jarayonidan o'tib, iste'molni ta'minlashni bildiradi;

Tovar ishlab chiqarish - bunda tovarlar uning egasini iste'moli uchun emas, balki bozorda sotishga mo'ljallangan bo'ladi.

Tovar - bu iste'mol qiymatiga va qiymatga ega bo'lgan, ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulotdir.

Tovarning iste'mol qiymati (naflilik) – bu insonlar ehyotijini qondirishdagi nafliligi, foydaliligini bildiradi;

Tovarning qiymati (almashuv qiymati) – bu tovarni ishlab chiqarish uchun sarf qilingan inson mehnati bo'lib, bir tovarni boshqa tovarga ayirbosh qilinishini bildiradi;

Konkret (aniq) mehnat – tovarni iste'mol qiymatini yaratuvchi insonning jismoniy mehnati mahsulidir;

Abstrakt (mavhum) mehnat – tovarning qiymatini yaratadigan insonning jismoniy va aqliy qobiliyatining sarf qilishidir (abstrakt –mavhum degan ma'noni bildiradi)

Mehnat unumdorligi – ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

Mehnat intensivligi - mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligi.

Pul - hamma turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalentlik rolini bajaruvchi maxsus tovardir. Qog'oz pullar esa shu tovar pulning vakilidir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari*:**

1. Ijtimoiy xo'jalik shakllarini tushuntiring?
2. Nima uchun tovar naflilik (iste'mol qiymati) va almashuv qiymatning birligi sifatida tavsiflanadi?
3. Tovardagi bu ikki xil xususiyat nimadan kelib chiqadi?
4. Keyingi (so'nggi) qo'shilgan miqdor (tovar va xizmat) nafligi nima va uning pasayish sababini tushuntiring?
5. Tovarlarning qiymatini aniqlashga bo'lgan quyidagilarga o'zingizni fikringizni bildiring:

a) Ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan belgilanadi;
b) Keyingi qo'shilgan tovarlarning nafliligi bilan aniqlanadi;

6. v) Keyingi qo'shilgan tovarlarning nafliligi va ishlab chiqarish xarajatlari bilan aniqlanadi.

***Test savollari:***

**1. Tovar xo'jaligining vujudga kelishi va rivojlanish shart-sharoitlari nimadan iborat?**

A) ijtimoiy mehnat taqsimoti;
B) bozorlarning vujudga kelishi;
S) mulk egalarining alohidalashuvi;
D) yuqoridagilarning barchasi.

**2. Tovar xo'jaligini ifojda etuvchi javobni aniqlang**:

A) o'z shaxsiy ehtiyojini qondirish maqsadida mahmulot ishlab chiqaruvchi xo'jalik;
B) sanoat mahsuloti ishlab chiqaruvchi xo'jalik;
S) mukammal mashinalashgan xo'jalimk;
D) sotish maqsadida bozorga mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchi xo'jalik

**3. Pul deganda nimani tushunasiz**?

A) oldi-sotdi vositasi;
B) jamiyat boyligi;
C) iste'mol qiymatiga ega bo'lgan tovar;
D) barcha tovarlar uchun umumiy ekvivalentlik vazifasini bajaruvchi maxsus tovar.

**4. Pulning vazifalaridan qaysi biri uning muomaladan chiqarilishini taqozo qiladi**?

A) boylik to'plash vositasi;
B) jahon puli;
S) qiymat o'lchovi;
D) to'lov vositasi.

**5. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog'liq**?
A) jahon puli;
B) to'lov vositasi;
S) muomala vositasi;
D) jamg'arish vositasi**.**

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
10. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T.: "Moliya", 2005.
11. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Universitet", 2003.
12. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.
13. O'lmasov A.Iqtisodiyot asoslari. T.: "Mehnat", 1997.


## *5-amaliy mashg'ulot*
## *Mavzu: BOZOR IQTISODIYotINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI*
## *(2 soat)*

Ushbu amaliy mashg'ulotda xo'jalik yuritish shakli bo'lgan bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining ob'ektiv zarurligi sabablari nimalar bilan bog'liqligi tushuntiriladi. Keyin bozor iqtisodiyotining mazmuni, mohiyati va asosiy belgilari, bozor xo'jaligining afzalliklari, ziddiyatlari hamda rivojlanishidagi muammolari yoritib beriladi. Undan keyin esa bozor turlari, tarkibiy qismlari va bozor infratuzilmasi haqida tushunchalar beriladi.

***Reja:***

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.
2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari
3. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.
2. Bozor xo'jaligini rivojlanishida infratuzilmani roli.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonuni-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** - bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bozor** – bu sotuvchi bilan sotib oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatni amalga oshiruvchi vosita maydoni;

**Bozorning afzalliklari** – kishilarning iqtisodiy erkinligini ta'minlaydi, talab va taklifni muvozanatga keltiradi;

**Bozor infratuzilmasi** – bozordagi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda xizmat qiladigan institutlardir (firmalar, idora, tashkilotlar va muassasalar);

**Bozorning vazifasi** – ishlab chiqaruvchi bilan iste‘molchini tovar va xizmatlarni ayirbosh qilishda vositachilik qiladi;

**Erkin bozor –** bu sotuvchilar va xaridorlar soni ko’p bo’lib, ulardan hech biri hukmron bo’la olmaydi;

**Monopollashgan bozor** – bunda ozchilik sotuvchilar va xaridorlar xo’jayinlik qiladilar;

**Iste‘molchilar bozori** – iste‘molchilarni shaxsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida oldi-sotdi qilinadigan maxsus joy;

**Resurslar bozori** – ishlab chiqarish uchun zarur bo’lgan moddiy narsalarni sotib oladigan joydir;

**Mehnat bozori** – ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalariga ishchi kuchini shartnoma asosida yollaydigan bozordir;

**Moliya bozori –** bu pul va qimmatbaho qog’ozlarni xarid qilinadigan institutlardir;

**Bozor ko’lami –** bu tovarlarning miqdori va ularning narxini bildiradi;

**Mahalliy bozor** – kichik hududdagi bozor bo’lib, unda sotuvchilar va xaridorlar o’sha joyda yashovchi kishilardir;

**Hududiy bozor –** bu mahalliy bozorlar majmuidan tashkil topadi, chegaradosh hududlar ichida amal qiladi;

**Milliy bozor** – mamlakat ichkarisida amal qiladi, unda mahalliy va hudud aholisi qatnashishi mumkin;

**Jahon bozori** – dunyo mamlakatlari ishtirokida savdo-sotiq boyicha iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladi;

**Bozor ob‘ekti** - bozorga, ayirbosh munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir;

**Bozor sub‘ekti –** bozorning ayirboshlash munosabatlarining qatnashuvchilaridir;

**Bozor infratuzilmasi** - ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlari va farqlarini tushuntirib bering?
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o’rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor iqtisodiyotining ta‘rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko’rsating.
6. Bozor nima va u qachon vujudga kelgan?
7. Bozor qanday vazifalarni bajaradi?
8. Bozorni turkumlashda qaday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko’rsating?
9. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
10. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta‘rif bering?

***Test savollari:***

**1. Bozor iqtisodiyotining sub‘ektlari qaysi qatorda berilgan?**

A) davlat;
B) tadbirkorlar;
S) uy xo’jaliklari;
D) yuqoridagilarning barchasi.

**2. Bozor iqtisodiyotining muhim belgilarini nimalar tashkil qiladi?**

A) tadbirkorlik va tanlash erkinligi;
B) raqobatning mavjudligi;
S) xususiy mulkchilik, davlatning cheklangan roli;
D) yuqoridagilarning barchasi.

**3. Bozor tushunchasi nimani anglatadi?**

A) sotuvchi bilan xaridor uchrashadigan joy;
B) bozor sub'ektlarining iqtisodiy munosabatlari yuzaga chiqadi;
S) talab, taklif, narx va raqobat asosida tartibga solinadi;
D) yuqori dagilarning barchasi.

**4. Moliya bozorida nima sotiladi**?
A) intellektual boyliklar;
B) qimmatbaho qog'ozlar va pul;
S) ishchi kuchi;
D) ishlab chiqarish resurslari.

**5. Mehnat birjasi (ishchi kuchi bozori) qanday vazifani bajaradi?**
A) ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifini o'rganadi, vositachilik rolini bajaradi;
B) qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanadi;
S) aqliy mehnat mahsullarining oldi-sotdisi bilan shug'ullanadi;
D) yuqoridagilarning barchasi.

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyoti nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
10. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T.: "Moliya", 2005.
11. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Universitet", 2003.
12. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.
13. O'lmasov A.Iqtisodiyot asoslari. T.: "Mehnat", 1997.


## *6-amaliy mashg'ulot*
## *Mavzu: BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI*
***(2 soat)***

Ushbu amaliy mashg'ulotda bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun maxsus o'tish davri zarur bo'lganligi sababli, ushbu mavzuda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari, Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning mazmuni, maqsadi va asosiy yo'nalishlari o'rganiladi va ko'rsatib o'tiladi.

***Reja:***

1. O'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari.
2. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari.

***Talabi mustaqil ishi:***

1. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.
2. 2009 yilda mamlakatimizda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**O'tish davri** - bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga, mavjud iqtisodiy munosabatlardan butunlay boshqa, yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish taqozo qilinadigan davrdir.

**Bozor islohotlari** - bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

**Iqtisodiy islohotlar** - turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish** - nima va qancha ishlab chiqarishni qaerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o'zi belgilashidir.

**Iqtisodiyotning barcha sohalari va tamoqlarini erkinlashtirish** - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirish uchun barcha shart-sharotlarni yaratish demakdir.

**Islohotlar kontseptsiyasi** - itimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarini umumiy g'oyasidir.

**Iqtisodiyotni barqarorlashtirish** - tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (modellari)ni ta'riflab bering.
2. O'tish davridagi ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.
3. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega?
4. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?
5. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish printsipining mazmunini batafsil tushuntiring.
6. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini tularoq bayon qilib bering.
7. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'nalishlar boyicha amalga oshiriladi? Har bir yo'nalish boyicha o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.
8. Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar o'z oldiga qanday vazifalarni qoyadi?
9. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida davlatning yetakchilik faoliyati nimadan iborat ekanligini tushuntirib bering.
10. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz?
11. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning mazmunini tushuntiring. Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish o'z oldiga qanday vazifalarni qoyadi?
12. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning asosiy ustuvor vazifalarini tushuntirib bering.

***Test savollari:***

**1. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishda nimaga ustunlik beriladi?**
A) iste'molga;
B) raqobatga:
S) chetdan qarz olishga;
D) iqtisodiy erkinlikni kengaytirishga.

**2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda islohotlar qachon sezilarli samara beradi?**
A) milliy valyuta muomalaga kiritilganda;
B) chinakam mulkdorlar sinfi shakllanganda;
S) ijtimoiy himoya tizimi yaratilganda;
D) makroiqtisodiy barqarorlikka erishilganda.

**3. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning qaysi tamoyili bozor munosabatlariga o'tishning izchilligini ta'minlaydi**?
A) davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
B) aholini ijtimoiy himoyalashda;
S) bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish;
D) qonunlarga asoslanish.

**4. Agrar islohotlarning negizini nima tashkil qiladi?**
A) yerga mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish;
B) qishloqda boshqaruv tizimini takomillashtirish;
S) qishloq aholisini ijtimoiy kafolatlarini mustahkamlash;

D) ishsizlikni bartaraf etish.

**5. O’zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o’tish yo’li boshqa MDH mamlakatlari yo’lidan avvalo nimasi bilan farq qiladi**?

A) chet el tajribalarini hisobga olish bilan;

B) o’ziga xos va o’ziga mos yo’lni tanlab olganligi va bozor iqtisodiyotiga o’tish tamoyillari ishlab chiqilganligi bilan;

S) madaniy bozorga yuz tutishi bilan;

D) milliy jihatlarni e‘tiborga olish bilan**.**

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
7. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. T.: “O’zbekiston”, 1992.
8. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
9. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
10. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.
11. Yo’ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot. T.: “Moliya”, 2005.
12. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Sharq”, 2004.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002.


## *7-amaliy mashg’ulot*

## *Mavzu: TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI*

***(2 soat)***

Tovar ishlab chiqarishni rivojlangan darajasi bozor iqtisodiyotining barqaror amal qilishida ta‘sir ko’rsatganidek, talab va taklif qonunlari ham muhim o’rinni egallaydi. Chunki, talab va taklif qonunlari yordamida narxni shakllantiradi hamda ular o’rtasidagi nisbatni aniqlab beradi. Shu sababli ushbu amaliy mashg’ulotda talab va taklif tushunchalari, ularga ta‘sir etuvchi omillar, muvozanatli narxlarning vujudga kelishi, talab va taklif qonunlarining mohiyati, bajaradigan vazifalari o’rganiladi.

***Reja:***

1. Talab tushunchasi va uning miqoriga ta‘sir etuvchi omillar. Talab qonuni
2. Taklif tushunchasi. Taklif miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar. Taklif qonuni
3. Talab miqdori va taklif miqdori o’rtasidagi nisbatning o’zgarishi. Bozor muvozanati.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Iste‘molchi hatti-harakati nazariyasi.
2. Ishlab chiqarishga talab va taklif ta‘siri.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Talab** – iqtisodiy kategoriya sifatida to’lovga qodir bo’lgan ehtiyojdir;

**Individual (yakka) talab** – bu ayrim shaxsning xarid qilish istagidir;

**Bozor talabi** – bu ma‘lum sondagi xaridorlarning u yoki bu tovarni sotib olishga bo’lgan ishtiyoqidir;

Talabga ta‘sir etuvchi omillar – bu xususan narx va xaridorlarning daromadi hamda boshqalar;

**Talab qonuni** – tovarlar narxi  bilan uning sotib olinadigan miqdori o’rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog’liqni ifodalaydi;

**Talabning elastikligi** – narxlarning o'zgarishiga nisbatan talabning o'zgarish darajasini bildiradi;

**Tovarning nafligi** – u yoki bu tovarni iste'mol qilganda xaridorning qoniqish hosil qilishidir;

**Taklif** – ishlab chiqaruvchi ma'lum vaqtida ishlab chiqarishga qodir bo'lgan, narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar miqdoridir;

**Taklifga ta'sir etuvchi omillar** – bular ishlab chiqarilgan tovarlar miqdori, ishlab chiqaruvchilar soni, soliqlar va subsidiyalar hamda boshqalar;

**Taklif qonuni** – narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri bog'liqliki ifodalaydi;

**Taklifning elastikligi** – bu narx o'zgarishiga nisbatan taklifning o'zgarish darajasidir;

**Daromad samarasi** – narx pasayganda iste'molchi pul daromadlarining sotib olish layoqatining ortishidir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Talab haqida tushuncha bering.
2. Talabning qanday turlari bor va ularning bir-biridan farqi nimada?
3. Talabning miqdoriga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Talab qonunini izohlang.
5. Talabning eastikligi nimalar bilan bog'liq?
6. Taklif haqida tushuncha bering.
7. Taklif miqdoriga ta'sir etuvchi omillarni sanab ko'rsating va izohlang.
8. Taklif elastikligi deganda nimani tushunasiz?
9. Taklif qonunini tushuntiring.
10. Bozor muvozanati deganda nimani tushunasiz?

***Test savollari:***

**1. Mahsulot narxi va uning sotib olinadigan miqdori o'rtasidagi teskari bog'liqlik qaysi qonunga xos**?

A) taklif qonuni;
B) ehtiyojlarning yuksalish qonuni;
C) raqobat qonuni;
D) talab qonuni

**2. Talab va taklif egri chiziqlarining kesishish nuqtasi nimani ko'rsatadi?**

A) talabning egiluvchanligini;
B) bozor narxini;
S) taklifning yuksak darajasini;
D) taklifning talabdan ko'pligini.

**3. Tovar va xizmatlarning nafligi nima?**

A) foydaliligi;
B) bahoga ega bo'lishi;
S) iste'mol xususiyatiga ega bo'lishi;
D) ehtiyojni qondinish layoqati.

**4. Quyidagilarning qaysi biri alohida tovarlar taklifiga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi**?

A) resurslarning narxi;
B) iste'molchilar soni;
S) soliq miqdorining o'zgarishi;
D) sotuvchilar soni.

**5. Talab mazmuni qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan**?

A) insonlarning kundalik ehtiyojlari;
B) pul bilan ta'minlangan ehtiyoj;
S) ehtiyojlarni o'z vaqtida qondirilishi;
D) qondirilishi zarur bo'lgan ehtiyoj**.**

***Adabiyotlar:***

1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
7. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
8. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
9. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.
10. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
11. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003.
12. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002.

## *8-amaliy mashg’ulot*
## *Mavzu: RAQOBAT VA NARXNING ShaKLLANISHI*
## *(4 soat)*

Ushbu mavzuda bozor iqtisodiyotining rivojlanishida raqobat va narxning o’rni beqiyos bo’lganligi sababli, raqobat va narxning shakllanishi tamoyillari, iqtisodiy mazmuni, vazifalari va turlari o’rganiladi. Shundan so’ng raqobat va narxga ta‘sir etuvchi omillar, davlatning narx siyosati va uning O’zbekiston iqtisodiyotidagi o’ziga xos xususiyatlari atroflicha ko’rib chiqiladi.

***Reja:***

1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari.
2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari.
3. O’zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik.
4. Narxning mazmuni, vazifalari va turlari.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Narx siyosati va uning O’zbekistonda amalga oshirilishi xususiyatlari.
2. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Raqobat** – bozor sub‘ektlari ijtimoiy manfaatlarining to’qnashuvidan iborat bo’lib, ular o’rtasidagi yuqori va ko’proq naflilikka ega bo’lish uchun kurashni anglatadi;

**Tarmoq ichidagi raqobat** – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo’lish, qo’shimcha foyda olish uchun bir tamoq korxonalari o’rtasida amal qiluvchi kurash;

**Tarmoqlararo raqobat** – turli tarmoqlar korxonalari o’rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash;

**Monopoliya** – monopol yuqori narxlarni o’rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari;

**Sof monopoliya** – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va foyda olishdagi yakka hukmronlik holati;

**Oligopoliya** – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati;

**Monopolistik raqobat** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko’p hamda ular o’rtasida ma‘lum darajada raqobat mavjud bo’lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi

yoki sotuvchi o’z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma‘lum darajada hukmronlik holati;

**Monopsoniya** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko’p bo’lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste‘molchisi yoki xaridori mavjud bo’lgan sharoitdagi yakka hukmronlik holati;

**Tabiiy monopoliya** – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo’lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo’lmagan sharoitda samaraliroq amalga oshiruvchi tovar bozorining holati;

**Kartel** – bitta sanoat tarmoqdagi bir necha korxonalarining uyushmasi bo’lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o’z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya‘ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo’lib olinishi boyicha kelishuv asosida amalga oshiriladi;

**Sindikat** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarning birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o’zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti orqali amalga oshiriladi;

**Trest** – ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta‘minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko’rinishdagi birlashmasi;

**Konsortsium** – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit berish yoki investitsiyalar qoyish);

**Kontsern** – rasmiy jihatdan mustaqil bo’lgan, ko’p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari)ning majmuini o’z ichiga oluvchi birlashma;

**Narx** – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir;

**Ulgurji narx** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar katta partiyalarda bir yo’la ko’tarasiga sotilganda qo’llaniladigan narx;

**Chakana narx** – tovarlar bevosita iste‘molchilarga sotilganda qo’llanuvchi narx;

**Dotatsiyalashgan narx** – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxdir;

**Demping narx** – bozorda o’z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun foydalanuvchi narx;

**Nufuzli narx** – aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan tovarlarni sotishda qo’llanuvchi narx;

**Narx diapazoni** – narxlar oralig’idagi farqning puldagi ifodasidir;.

**Erkin narx** – talab va taklif ta‘sirida shakllanadigan bozor narxdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatning asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga mos belgilarini ko’rsating.
4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Raqobatlashuvning demping narxlarni qo’llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
6. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat?
7. Monopoliyalarning qanday turlari mavjud?
8. Kapitalning to’planuvi (to’planishi) va markazlashuvi nima, ular o’rtasida qanday farq bor?
9. Tabiiy, legal va sun‘iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko’rsating.
10. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo’ladi?
11. Raqobat muhitining shakllanishiga qanday omillar ta‘sir ko’rsatadi?
12. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday7
13. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering.
14. Narx asosiy turlarini aytib va tushuntirib bering.
15. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud?

16. Bu nazariyalarni afzallik va kamchilik tomonlarini ko’rsatib bering.
17. Narx siyosati nima? O’zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?

***Test savollari:***

**1. Raqobat - bu...**
A) iqtisodiy manfaatlarning o’zaro to’qnashuvi;
B) hammaning hammaga qarshi kurashi;
S) bir tomonlama manfaatning yuzaga chiqishi;
D) iqtisodiy erkinlik.

**2. Raqobatning mavjud bo’lish shartlarini ko’rsating**.
A) tarmoqda ishlab chiqaruvchilarning ko’p bo’lishi;
B) iqtisodiy aloqalarning rivojlangan bo’lishi;
S) kishilarning mulk egalari sifatida alohidalashuvi va tvoar-pul munosabatlarining mapvjud bo’lishi;
D) tovar-pul munosabatlarining mavjud bo’lishi.

3**. Tovar ishlab chiqaruvchilar o’rtasidagi raqobatdan qanday maqsad ko’zda tutiladi?**
A) iqtisodiy resurslarni arzon bahoda sotib olish, tovarlarni qulay sharoitlarda ishlab chiqarish
B) tovarlarni foyda keltiradigan yuqori narxlarda sotish;
S) bozor o’z mavqeini saqlab qolish va iste‘molchilarni o’ziga og’dirib olish;
D) har bir javob to’g’ri.

**4. Narxlarning quyi va yuqori darajasini belgilab qoyilishi nima deb ataladi?**
A) narx miqdori;
B) narx darajasi;
C) narx pariteti;
D) narx diapazoni.

5**. Xo’jalik sub‘ektlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda qaysi narx qo’llaniladi**?
A) demping narx;
B) standart narx;
S) shartnoma va kelishilgan narx;
D) erkin narx.

**6. Bozorni tartibga soluvchi mexanizmlari qaysi javobda to’liq berilgan**?
A) narx, raqobat, talab, iste‘mol;
B) talab, taklif, narx va raqobat;
S) qiymat, baho, xarajat va talab;
D) baho, foyda, taklif va talab.

**7. Bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch nima**?
A) narx;
B) talab;
S) taklif;
D) raqobat.

**8. Bozor iqtisodiyotining tub belgilaridan biri narxlarning liberallashuvi nimani anglatadi**?
A) narxlarni xaridorlarga qulay tarzda shakllantirish;
B) narx-navoni erkin tashkil topishi;
S) narxlarning davlat tomonidan belgilanishi;
D) bozor iqtisodiyotiga xos belgi emas**.**

***Adabiyotlar:***

1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.

4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modeonizatsiya va isloh etishdir. T.: “O’zbekiston”, 2005.
6. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
7. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
8. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
9. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
10. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.
11. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.S. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
12. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003.
13. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002.

## *9-amaliy mashg’ulot*
## *Mavzu: TADBIRKORLIK FAOLIYatI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI KORXONA (FIRMA) XARAJATLARI VA FOYDASI. ISH HAQI*
## *(2 soat)*

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisoiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanib, inson omilining tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, mazmuni, maqsadi va bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida amal qiladigan shakllarini bayon etish va o’rganish juda muhimdir, chunki tadbirkorliksiz mukammal iqtisodiyotni yaratish qiyin bo’ladi. Shunday ekan ushbu amaliy mashg’ulotda tadbirkorlik kapitalining mazmuni va uning harakati shakllari, kapital harakatida vujudga keladigan jarayonlar va namoyon bo’lishi, kapitalning aylanish tezligi va undan foydalanish samaradorligini oshirish kabi masalalar yoritiladi va tahlil etiladi.

Tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish resurslardan foydalanishni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul va pul-tovar munosabatlari bilan bog’liq bo’lganligi sababli resurlar ham sotiladi va sotib olinadi, ular narx bilan hisob-kitob qilinadi. Resurslarni ishlab chiqarishga qo’llash sarf-xarajatlar bilan bog’liq bo’ladi. Korxona bozorga taklif qiladigan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlar (resurslar narxlari) darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotiladigan narxlarga bog’liq.

Ushbu amaliy mashg’ulotda ishlab chiqarish xarajatlarini hosil bo’lishi kishilarning hayot negizini va turmush darajasini aniqlab beruvchi daromadlarning asosiy turi bo’lgan ish haqi uni shakllanishi bilan bog’liq muammolar, ish haqining shakllari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi darajasiga ta‘sir etuvchi omillar o’rganiladi.

### *Reja:*

1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifalari va rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
3. Tadbirkorlik kapitali va uning harakat bosqichlari.
4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.
5. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi.
6. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda ishlab chiqarish xarajatlarining o’zgarish tamoyillari.
7. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi.

### *Talaba mustaqil ishi:*

1. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish
2. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari.

*Asosiy tayanch tushunchalar:*

**Tadbirkorlik faoliyati** – shakli va sohasian qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat;

**Hissadorlik jamiyati** - ko'proq foyda olish maqsadida aktsiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital) larini birlashtirgan uyushma;

**Aktsiya** – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish uchun huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz;

**Aktsiya kursi** – qimmatli qog'ozlar bozorida aktsiyalarning sotiladigan narxi;

**Obligatsiya** – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qoyilganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz;

**Ta'sischilik foydasi** – sotilgan aktsiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qoyilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq;

**Dividend** – aktsiya egasi o'zlashtiradigan daromad turi;

**Tadbirkorlik kapitali** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari;

**Aylanma kapital** – unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinadigan o'z qiymatini yaratilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan va ashyoviy buyum shaklini ham yo'qotadigan qismi;

**Asosiy kapital** – unumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradigan kapital qiymatiga nisbatining foizagi ifodasi.

**Ishlab chiqarish xarajatlari** – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflardir.

**Ichki xarajatlar** – korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar.

**Tashqi xarajatlar** – tashqaridan jalb qilingan resurslarga to'lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlar.

**Doimiy xarajat** – ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etmaydigan, u o'zgarganda ham miqdorini o'zgartirmaydigan xarajatlar.

**O'zgaruvchi xarajat** – ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etadigan xarajatlar.

**O'rtacha xarajatlar** – mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar.

**Qo'shimcha xarajatlar** – mahsulotning navbatdagi qo'shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

**To'g'ri xarajatlar** – mahsulot tannarxiga bevosita qo'shilib, uning tarkibiga kiradigan xarajatlar.

**Egri xarajatlar** – mahsulot tannarxiga ustama bo'lib, narxda aks etadigan xarajatlar.

**Iqtisodiy yoki sof foyda** – yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

**Foyda normasi** – foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lgan nisbatining foizdagi ifodasi.

**Ish haqi** – ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

**Vaqtbay ish haqi** – ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib, to'lanadigan ish haqidir.

**Ishbay ish haqi** – ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ishi hajmiga qarab to'lanadigan ish haqidir.

**Real ish haqi** – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining layoqati.

**Nominal ish haqi** – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Ishbay-mukofot tizimi** – bajarilgan ish uchun haq to'lashni erishilgan turli natija kursatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo'shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.

**Ishbay-progressiv haq to'lash tizimi** – ishchining belgilab qoyilgan me'yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif boyicha, me'yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) boyicha ish haqi to'lanishini ko'zda tutuvchi tizim.

**Tarif tizimi** – ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini tarmoqlar va mamlakat mintaqasi boyicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab tartibga solib turuvchi me'yorlar tizimi.

**Tarif-malaka ma'lumotnomalari** – ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta'rifi, ishchi va mutaxassislarning bilim va ko'nikmalariga qoyiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni tariflash uchun qoyiladigan razryadlar majmui.

**Tarif setkasi** – turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmui bo'lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to'lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to'lashning o'zaro nisbatini ko'rsatadi (birinchi razryadning tarif koeffitsieti hamma vaqt birga teng bo'ladi).

**Tarif stavkalari** – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo'lgan ishchilarning mehnatiga to'lanadigan haq miqdori majmui.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta'rif bering. "Tadbirkorlik faoliyati" va "biznes" tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab bering (ko'rsating). Nima uchun tadbirkor tahlika (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko'rsatadi?
3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart-shartoitlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlikning shakllarini va ularning xususiyatlarini ko'rsating.
5. Hissadorlik jamiyatiga ta'rif bering. Aktsiya nima, aktsiya kursi qanday (shakllanadi) aniqlanadi? Aktsiya kursiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsating.
6. Tadbirkorlik kapitali nima? Uning takribiy tuzilishi qanday?
7. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o'tadi hamda qanday shakllarga kiradi?
8. Kapitalning aylanishiga tavsif bering. Aylanish vaqti qanday vaqtlarni o'z ichiga oladi? Ularga tushuncha bering.
9. Kapitalning aylanish tezligi qanday aniqlanadi? Kapitalning aylanma uzunligi ikki oyni tashkil qiladi deb faraz qilsak, bir yilga necha marta aylanadi va bir aylanishning uzunligi qancha davom etadi?
10. 10.Unumli kapital asosiy va aylanma kapitalga qanday mezonlar boyicha ajratiladi? Asosiy va aylanma kapitalga tavsif bering.
11. Amortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni nimadan iborat? Uning normasi qandayts aniqlanadi?
12. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi? Aylanma kapital va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi ko'satkichlarini tushuntiring.
13. Ishlab chiqarish sarf—xarajatlarining mohiyatini va tarkibini tushuntiring.
14. Ichki va tashqi xarajatlar o'rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.
15. O'rtacha doimiy, o'zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
16. Foydaning mazmuni va manbaini tushuntirib bering.
17. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqi nimada?
18. Ularning shakklanish tartibini tushuntirib bering.
19. Yalpi foydaning taqsimlanish tartibini tushuntirib bering.
20. Mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarning turliligi foydaning taqsimlanish tartibiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
21. Foyda massasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni izohlab bering.
22. Ish haqi bilan zaruriy mahsulot o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
23. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta'siri ostida o'zgaradi?

24. Tarif tizimi o’z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.

*Test savollari:*

**1. Korxonaning foydasi qanday aniqlanadi?**
A) mahsultdan sotishdan olingan yalpi pul tushumlari yalpi xarajatlar bilan taqqsolanadi;
B) daromaddan muomala xarajatlari chegiriladi;
S) daromaddan ishlab chiqarish xarajatlari chegiriladi;
D) ishlab chiqarish xarajatlaridan xomashyo xarajatlari chegiriladi.

**2. Ishlab chiqarish xarajatlarining ta‘rifi qaysi javobda to’g’ri berilgan?**
A) firma tomonidan ma‘lum bir vaqt ichia tovar ishlab chiqarish sarflangan mablag’;
B) firmaning iqtisodiy resurslar uchun qilgan sarfi;
S) firmaning jalb qilingan mablag’lari;
D) mahsulotni sotish uchun qilingan sarflar.

**3. O’rtacha xarajat qanday aniqlanadi?**
A) doimiy va o’zgaruvchan xarajatlar qo’shiladi;
B) ichki va tashqi xarajatlar qo’shiladi;
C) barcha xarajatlar jamlanib, ularning o’rtachasi olinadi;
D) umumiy xarajatlar mahsulot birligi miqdoriga bo’linadi.

**4. Tadbirkorlik kapitali qanday shaklda bo’ladi?**
A) pul va unga tenglashtirilgan qimmatli qog’ozlar shaklida;
B) unumli kapital shaklida, tovar kapitali shaklida;
S) yangi texnika va texnologiya ishlanmalari shaklida;
D) har bir javob to’g’ri.

**5. Tadbirkorlik deganda nimani tushuniladi?**
A) qonunga xilof bo’lmagan faoliyat yuritish;
B) moddiy va pul mablag’larini harakatga solish
S) bankka pul qoyib, daromad olish;
D) amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan ish yuritish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, kishilarga naf keltirish va daromad topish

**6. Asosiy kapital aydanma kapitaldan nimasi bilan farq qiladi?**
A) o’z qiymatini mahsulotga ko’chirmaydi
B) qayta tiklanmaydi;
C) o’z qiymatini mahsulotga to’liq o’tkazadi;
D) o’z qiymatini mahsulotga qisman o’tkazib boradi va uzoq muddatli xizmat qiladi.

**6. Tadbirkorlarga ixcham, zamonaviy texnologiyalarni yetkazib berishda qaysi tizim katta ahamiyat kasb etadi**?
A) lizing;
B) konsalting;
S) auditorlik;
D) soliq tizimi.

**7. Muomala xarajatlariga qaysi bir xarajatlar mansub?**
A) ishlab chiqarishni samarali yuritish bilan bog’liq xarajatlar;
B) ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish bilan bog’liq xarajatlar;
S) moliyaviy faoliyat bilan bog’liq xarajatlar;
D) resurslarni sotib olish xarajatlari**.**

*Adabiyotlar:*

1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.

4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
7. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyoti nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
8. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
9. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.
10. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
11. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003.
12. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002.

## *10-amaliy mashg’ulot*
## *Mavzu: AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROBIZNes*
## *(2 soat)*

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning amal qilishi iqtisodiyotning barcha sohalari, tarmoqlari va bo’g’inlari uchun umumiy bo’lsada, lekin ulardagi tabiiy va ijtimoiy sharoitga bog’liq holda o’ziga hos xususiyatlar ham kasb etadi. Ayniqsa, bu o’ziga xos xususiyat agrar sohada yaqqol namoyon bo’ladi. Chunki, bu yerda takror ishlab chiqarish ko’p jihatdan tirik organizm (hayvon, o’simlik va boshqalar) bilan ham bog’liq.

Ushbu amaliy mashg’ulotda iqtisodiyotning umumiy tomonlari bilan birgalikda uning agrar sohada namoyon bo’ladigan o’ziga xos xususiyatlarini ko’rib chiqamiz. Agrar munosabatlarini mazmuning tahlil qilib, keyin yer rentasi tushuntiriladi. Yer rentasining vujudga kelishi va uni taqsimlanishi muammosiga turlicha yondashuvlar bayon qilinadi. Agrosanoat integratsiyasi va agrosanoat majmuasining mazmuni, ularning  tarkibi va vazifalari yoritiladi. Shundan so’ng agrobiznes va uning turlari haqida tushunchalar beriladi.

### *Reja:*

1. Agrar munosabatlarning iqtisodiy mazmuni. Qishloq xo’jalik ishlab chiqarishning xususiyatlari.
2. Renta munosabatlari.
3. Agrosanoat integratsiyasi va uning asosiy ko’rinishlari.

### *Talaba mustaqil ishi:*

1. Agrobiznes va uning turlari.
2. O’zbekistonda agrar munosabatlarning yangi turlarini vujudga kelishi va uning mohiyati.

### *Asosiy tayanch tushunchalar:*

**Agrar munosabatlar** – yerga egalik qilish, o’zlashtirish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini taqsimlash bilan bog’liqlikda vujudga keldaigan munosabatlar;

**Renta munosabatlari** – yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo’shimcha sof daromadni taqsimlash va o’zlashtirish bilan bog’liqlikda vujudga keladigan munosabatlar ;

**Differentsial renta** – yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo’shimcha sof daromad;

**Differentsial renta I** – yerlarning tabiiy unumdorligidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo’shimcha sof daromad;

**Differentsial renta II** – yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo’shimcha sof daromad;

**Absolyut renta** – qishloq xo’jaligida yerga bo’lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, yaxshi, o’rtacha va yomon yerlardan olinadigan renta;

**Monopol renta** – alohida tabiiy sharoitga ega bo’lib, noyob qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta;

**Undirma sanoatda renta** – foydali qazilma konlarining joylashishi (er yuzasiga nisbatan) va ularning boyligi jihatdan farqlar natijasida vujudga keladi;

**Agrosanoat majmuasi** – qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq xo'jalik tarmoqlarining birligi;

**Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish infratuzilmasi** – bevosita qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat ko'rsatuvchi sohalar;

**Ijtimoiy infratuzilma** – odamlarning yashashi va turmush tarzining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalar;

**Agrosanoat integratsiyasi** – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi mahsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir;

**Agrobiznes** – tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jaligi va infratuzilma bilan bog'liq sohalardagi namoyon bo'lish shakli;

**Agrofirma** – ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir;

**Agrosanoat birlashmalari** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarning birlashmasidir. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi tsex va zavodlar, yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi;

**Agrosanoat kombinatlari** – qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir hududida birlashuvidir;

Qishloq xo'jalik sohalaridagi tadbirkorlik faoliyati **agrobiznes** deyiladi. Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini fermer va dehqon xo'jaliklaridir.

**-Ye.B. = R / F1 x 100% (1)**

**U.X. = R + K + A** (2)

Ye.B. – yerning bahosi; R - renta; F1 – ssuda foizi me'yori;

R – 15 ming so'm; F1 – 5%; Ye.B. = 300 ming so'm bo'ladi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rnini va xususiyatlarini ko'rsatib bering.
2. "Yerga egalik" va "erdan foydalanish" tushunchalarini izohlang.
3. Yer rentasi (nazariyasining) nazariya larining umumiy tomonlari va tub farqlarini ko'rsatib bering.
4. Yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.
5. Differentsial (I va II) va absolyut rentasining hosil bo'lish shart-sharoitlari, manbalari va taqsimlanishini tushuntiring.
6. Monopol renta nima?
7. Qazib oluvchi va undirma sanoatda renta qanday hosil bo'ladi?
8. "Ijara haqi" va "er rentasi"ning farqlarini izohlang.
9. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga ta'rif bering.
10. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalari iqtisodiy mazmuniga o'z fikringizni bildiring.

***Test savollari:***

**1. Yerning tabiiy sharoiti noyob qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish imkonini berganda qanday renta hosil bo'ladi**?

A) absolyut yer rentasi;

B) monopol renta;

S) differentsial renta I;

D) differentsial renta II;

**2. Yerni ijaraga berishdan daromad olinganda qanday renta hosil bo'ladi?**
A) monopol renta;
B) differentsial renta;
S) absolyut renta;
D) undirma sanoat rentasi.
**3. Agrar munosabatlar qanday munosabatlar?**
A) yer bilan bog'liq munosabatlar;
B) ijara munosabatlari;
C) tadbirkorlik bilan bog'liq munosabatlar;
D) xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlar.
**4. Agrosanoat majmuasiga kirmaydigan soha qaysi biri?**
A) qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchi sanoat tarmoqlari;
B) qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi soha;
S) energetika tarmoqlari;
D) qishloq xo'jaligi infratuzilmasi.
**5. Fermer xo'jaligiga qaysi ta'rif mos keladi?**
A) yirik ishlab chiqarish korxonasi;
B) qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi mayda tovar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxs;
C) chorvachilik bilan shug'ullanuvchi korxona;
D) texnika o'simlikli yetishtiruvchi korxona**.**

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
10. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
11. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
12. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Universitet", 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.


## *11-amaliy mashg'ulot*

## *Mavzu: MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O'LCHAMLARI. YALPI MILLIY MAHSULOT VA UNING HARAKAT SHAKLLARI ISTE'MOL, JAMG'ARMA VA* INVESTITSIYALAR

**(2 soat)**

Ushbu amaliy mashg'ulotdan boshlab, iqtisodiy munosabatlar makroiqtisodiy darajada tahlil qilinadi. Dastlab milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga tavsif beriladi. Milliy ishlab chiqarishning natijasi hisoblangan ijtimoiy mahsulot, yalpi milliy mahsulot, ularning harakat shakllari va tarkibiy qismlarining iqtisodiy mazmuni yoritiladi. Shundan so'ng milliy hisoblar tizimi hamda uning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash usullari yoritiladi va aniqlanadi.

Ushbu amaliy mashg'ulotda milliy mahsulotning tarkibiy qismi bo'lgan milliy daromad (MD)ni shakllanishni tushunmoq lozim. Milliy daromadni tahlil qilish jarayonida, uning iste'mol hamda ishlab chiqarishni kengaytirishga ketadigan qismi bo'lgan jamg'arishning iqtisodiy mazmunini qarab chiqiladi.

***Reja:***

1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
2. Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllari.
3. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi.
4. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi.
5. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Yalpi milliy mahsulot (YaiM)ni hisoblash usullari.
2. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammolari.

***Asosiy tayanch tushunchalar*:**

**Makroiqtisodiyot** – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish saohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir;

**Milliy hisoblar tizimi** – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi;

**Yalpi milliy mahsulot (YamM**) – milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi;

**Yalpi ichki mahsulot (YaiM)** - yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati;

**Sof milliy mahsulot (SMM**) – amortizatsiya ajratmalari summasiga kamaytririlgan YaiM bo'lib, u tarkiban milliy daromad va egri soliqlardan iborat bo'ladi;

**Milliy daromad (MD**) – yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi;

**Shaxsiy daromad** – milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajartmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo'liga kelib tushadigan ijtimoliy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi;

**Nominal YaiM** – joriy narxlarda hisoblangan YaiM;

**Real YaiM** – narxlarning o'zgarishini hisobga olib, o'zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YaiM;

**Qo'shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste'mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati;

**Oraliq mahsulot** – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar;

**Pirovard mahsulot** – ishlab chiqarish jarayoni, yakunlangan, shaxsiy va unumli iste'mol qilishga tayyor bo'lgan mahsulotlar;

**Xufyona iqtisodiyot** – YaiMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foyalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirilgan qismi;

**Iste'mol** – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi) dan foydalanish jarayoni;

**Shaxsiy iste'mol** – iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlaridan foydalanishini, ya'ni ularning individual tarzdagi iste'mol;

**Unumli iste'mol** – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish;

**Iste'mol sarflari** – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi;

**Jamg'arish** – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'planib borilishi;

**Iste‘molga o’rtacha moyillik** – shaxsiy daromadning iste‘molga ketadigan ulushi; Jamg’arishga o’rtacha moyillik – shaxsiy daromadning jamg’arishga ketadigan ulushi;

**Iqtisodiy jamg’arish** - milliy daromadning bir qismidan asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyoj va zahiralarini ko’paytirish uchun foydalanish;

**Jamg’arish normasi** – jamg’arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi;

**Investitsiya** – ishlab chiqarishni va xizmat ko’rsatish sohalarini kengaytirishga, ya‘ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qoyilma;

**Investitsiyalar samaradorligi** – milliy daromad (foyda) o’sgan qismining investitsion sarflar summasiga nisbatining foizdagi ifodasi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari*:**

1. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nima?
2. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
3. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol oynaydi?
4. YaiM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy daromad-chi?
5. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.
6. YaiM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat?
7. Nominal va real YaiM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko’rsating.
8. Agar joriy yildagi nominal YaiM hajmi 700 mlrd so’mga, narx indeksi 1,5 ga teng bo’lsa, real YaiM hajmi qancha bo’ladi? Agar narx indeksi 0,8 ga teng bo’lsa-chi?
9. Takroriy hisob, qo’shilgan qiymat, oraliq mahsulot va pirovard mahsulot tushunchalarini izohlab bering.
10. Sof iqtisodiy farovonlik ko’rsatkichining mohiyati hamda hisoblash tartibini tushuntirib bering.
11. Iste‘mol, jamg’arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta‘riflang.
12. Iste‘mol va jamg’armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarni sanab ko’rsating.
13. Iste‘mol va jamg’armaga funktsiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo’llagan holda tushuntiring.
14. Jamg’arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta‘sir ko’rsatadi?
15. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi?
16. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o’zgarishining iqtisodiyotga ta‘siri qanday?

***Test savollari:***

1**. Investitsiya - bu...**

A) sarmoya kiritish;

B) kredit berish;

S) ish kuchini sotib olish;

D) boshqarish.

**2. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar qaysi qatorda to’g’ri berilgan?**

A) YaiM, YamM, sof milliy mahsulot, ishsizlik, inflyatsiya, bandlik, milliy daromad;

B) foyda, xarajat, renta, foiz;

S) daromad, iste‘mol, xarajat;

D) ishlab chiqarish, taqsimot, iste‘mol.

**3. Makroiqtisodiyot tushunchasi nimadan iborat?**

A) yirik korxonalar iqtisodiyoti;

B) milliy xo’jaliklarning tashkil topishi;

S) milliy daromaddan;

D) muayyan mamlakat miqyosidagi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalar majmuasidan iborat.

**4. YamM (yalpi milliy mahsulot) dan amortizatsiya qiymati ayirib tashlansa, qaysi ko’rsatkich hosil bo’ladi?**

A) yalpi ichki mahsulot;

B) jami ijtimoiy mahsulot;
C) sof milliy mahsulot
D) milliy daromad.

**5. Yalpi ichki mahsulot (YaiM) mazmunini qaysi javob to'g'ri ifodalaydi?**

A) ma'lum vaqt davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilishga tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati;
B) milliy xo'jaliklarda ma'lum vaqt davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilishga tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati;
S) joriy narxlarda hisoblangan milliy mahsulot;
D) qator yillar davomida yaratilgan milliy mahsulot**.**

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyoti nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
10. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
11. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
12. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Universitet", 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.


## *12-amaliy mashg'ulot*
## *Mavzu: IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK*
## *(2 soat)*

Ushbu amaliy mashg'ulotda mamlakat, hudud, mintaqalarda ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni atroflicha hal etishning birdan bir yuli ishlab chiqarishni va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash ekanligi o'rganiladi. Iqtisodiy o'sish barqaror bo'lsa uning pirovard natijasida aholi bahramand bo'ladi, turmush farovonligi oshib boradi. Shu boisdan mavzuda iqtisodiy o'sish, uning mazmuni, mohiyati va uning turlari haqida nazariy tushunchalar berib, iqtisodiy o'sishning omillari, milliy boylik tushuntiriladi. Keyin esa milliy boylikning tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy o'sishga qo'llaniladigan modellar bayon qilinadi.

***Reja:***

1. Iqtisodiy o'sishning ma'zmuni, turlari va ko'rsatkichlari.
2. Iqtisodiy o'sishning omillari.
3. Iqtisodiy o'sish modellari.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi.
2. Milliy boylikni ko'paytirishning asosiy omillari.

***Asosiy tayanch tushunchalar*:**

**Iqtisodiy rivojlanish** - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi;

**Iqtisodiy o’sish** - YaiM, SMM, MD miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko’payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi;

**Iqtisodiy o’sish mezoni** - iqtisodiy o’sishni nisbatan to’liq darajada baholash imkonini aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik ko’rsatkichini xarakterlaydi hamda natural ko’rsatkichlar tizimidan iborat;

**Iqtisodiy o’sishning ko’rsatkichlari** - iqtisodiy o’sishni aniqlashda foydalanadigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural ko’rsatkich tizimidan iborat;

**Ekstensiv iqtisodiy o’sish** - ishlab chiqarishga qo’shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishidir;

**Intensiv iqtisodiy o’sish** - ishlab chiqarish omillarining mavjud darajasida, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko’payib borishidir;

**Iqtisodiy o’sish omillari** - iqtisodiy o’sishga ta‘sir ko’rsatishda o’z o’rniga ega bo’lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi;

**Milliy boylik** – insoniyat jamiyati taraqqiyoti ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg’arilgan moddiy va ma‘naviy boyliklar hamda foydalanishga jalb qilingan tabiat in‘omlarining yig’indisidir;

**Moddiy-buyumlashgan boylik** - milliy boylikning inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy buyum ko’rinishiga ega bo’lgan qismidir;

**Tabiiy boylik** - milliy boylikning tabiat inomlaridan iborat bo’lgan, foydalanishga jalb qilingan, ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muhitini tashkil qiladigan qismidir;

**Ma‘naviy boylik** - ashyoviy-buyum ko’rinishiga ega bo’lmagan nomoddiy qimmatliklardan va insoniyatning intellektual salohiyati natijalaridan iborat;

**Ishchi kuchini takror hosil qilish** - insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta‘minlab turish, ularning mehnat malakasini oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o’sishini ta‘minlash demakdir;

**Ishsizlik** - mehnatga layoqatli bo’lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta‘minlanmagan ishchi kuchi;

**Friktsion ishsizlik** – malakasiga mos ish qidirayotganlar;

**Tarkibiy ishsizlik** - ishlab chiqarish va yalpi talab tarkibidagi o’zgarishlar natijasida vujudga keladigan ishsizlik;

**Tsikllik ishsizlik** - iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog’liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik;

**Ishsizlik darajasi** - ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati;

**Ouken qonuni** – ishsizlik darajasi va YaiM hajmining orqada qolishi o’rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.

***Nazorat savollari va topshiriqlari*:**

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o’sish tushunchalarini ta‘riflang hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini tushuntiring.
2. Iqtisodiy o’sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?
3. Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o’sish turlari uchramaydi?
4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishning samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o’sishning qanday ko’rsatkichlaridan foydalaniladi?
5. Milliy boylik tushunchasining ta‘rifini bering va tarkibiy tuzilishini tushuntiring.
6. Milliy boylik tarkibida moddiy-buyumlashgan boylik qanday o’ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o’z ichiga oladi?
7. Nima uchun yer, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o’lchovida baholab, milliy boylik tarkibiga kiritish mumkin emas?

8. Madaniy, tarixiy obidalar va arxitektura yodgorliklarining milliy boylik tarkibida aks etishini qanday izohlaysiz?

***Test savollari:***

**1. Iqtisodiy o’sish omillariga qaysi biri xos emas**?

A) ishchi kuchi migratsiyasi;
B) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
C) mehnat resurslarining miqdori va sifati;
D) moddiy kapitalning miqdori va sifati.

**2. Quyidagi omillardan qiysi biri ekstensiv o’sishga mansub?**

A) fan-texnika yutuqlarining joriy qilinishi;
B) mehnatni jalb etishni takomillashtirish;
S) mahsulotning sifatini yaxshilash;
D) kapital qoyilmalarni ko’paytirish va ishlab chiqarishning shu asosda miqdoran o’sishi.

**3. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining qaysi oqimida iqtisodiy o’sishni ta‘minlashning va iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi**?

A) keynschilik;
B) monetarizm;
C) marjinalizm;
D) merkantilizm.

**4. 2009 yil yakunlari boyicha respublikamiz YaiM o’sishi necha foizni tashkil qildi?**

A) 9 foiz;
B) 8,5 foiz;
S) 8,1 foiz;
D) 8,3 foiz.

**5. Protektsionizm qanday chora-tadbirlarni amalga oshiradi?**

A) mamlakatga chet tovarlar kirib kelishiga qarshi chora-tadbirlar;
B) importga keng yo’l ochib berish;
C) boj to’lovlarini bekor qilish;
D) ochiq hudud siyosatini yuritish**.**

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
7. O’zbekiston Respublikasining “Fermer xo’jaliklari to’g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O’zbekiston Respublikasining “Dehqon xo’jaliklari to’g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
10. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
11. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.
12. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002.

### *13-amaliy mashg'ulot*

### *Mavzu: MILLIY IQTISODIYOTNING NISBATLARI, MUVOZANATI VA TSIKLLI RIVOJLANISH TAVSIFI*

### *YALPI ISHCHI KUCHI, UNING BANDLIGI VA ISHSIZLIK*

***(2 soat)***

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Milliy iqtisodiyotning nisbatlari, muvozanati, tsiklli rivojlanishi bayon qilinadi. Mamlakat miqyosida yalpi ishchi kuchining mazmunining muhim ahamiyatga egadir. Ishchi kuchini takror hosil qilish, uning xususiyatlarini yoritib berish, ishchi kuchi bozori va ishsizlik muammolarini nimalardan iborat ekanligini ko'rsatib beriladi. Shuning bilan birga ishsizlik va uning turlari, ishsizlik darajasini aniqlash usullarini ko'rsatib berishdan iborat. Bundan tashqari ishsizlarni ijtimoiy himoyalash yo'llarini ham bayon qilinadi.

***Reja:***

1. Makroiqtisodiy mutanosibliklar va ularning turlari.
2. Makroiqtisodiy muvozanatlikka erishishning bozor mexanizmi.
3. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiy tsikl nazariyalari.
4. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.
5. Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchi yalpi talabi va yalpi taklifi nisbati.
6. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari.
2. O'zbekistonda bandlik muammosi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Iqtisodiy muvozanat** - iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelishi holati;

**Xususiy muvozanatlik** – bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdorining teng kelishi;

**Umumiy muvozanatlik** - jamiyat ehtiyojlari bilan mavjud iqtisodiy resurslar va ishlab chiqarish hajmining o'zaro mos kelishi;

**Retsession farq** - yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan kam bo'lgan miqdori;

**Inflyatsion farq** - yalpi sarflarning sof milliy mahsulot hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori;

**Multiplikator samarasi** – bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishlarning yalpi sarflardagi o'zgarishlarga nisbati;

**Iqtisodiy mutanosiblik** –iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat o'lchamlarining mos kelishlik darajasi.

***Nazorat savollari va topishiriqlari:***

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday? Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalanadi?
2. Iqtisodiy tsiklning ta'rifini bering va uning har bir fazasining o'ziga xos belgilarini ko'rsating.
3. Tarkibiy inqirozlarning mohiyatini tushuntiring. Tsiklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rsating.
4. Agrar inqirozlarining xususiyatlarini bayon qiling.
5. Iqtisodiy tsikl asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.
6. Iqtisodiy tsiklning oqibatlarini baholang.

*Test savollari:*

**1. Tsikl nima**?

A) krizislarning uzoq vaqt davom etishi;

B) bir krizisdan ikkinchi krizis boshshlanguncha bo'lgan davr;

C) turg'unlik davri;

D) yuksalish davri.

**2. Bugungi kunda jahondagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozning boshlanishiga qaysi kredit turining ommaviy berilganligi (AQShda) sabab bo'ldi**?

A) ipoteka krediti;

B) istemol krediti;

C) tijorat krediti;

D) lizing.

**3. Iqtisodiy inqirozlarning asosiy sababini toping?**

A) takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklarning mavjud bo'lishi;

B) iste'molchi pul daromadlarining yetarli bo'lmasligi;

C) ishlab chiqarishning sust rivojlanishi;

D) talabning taklif miqdoridan orqada qolishi.

**4. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyili Prezident I.Karimovning qaysi kitobida birinchi marta to'liq bayon etilgan**?

A) "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat";

B) "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li";

S) "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li";

D) "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida".

**5. Retsessiya nima?**

A) inqiroz;

B) yuksalish va gurkirab o'sish;

S) inqiroz va turg'unlik;

D) gurkirab o'sish.

*Adabiyotlar:*


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
10. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
11. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
12. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Universitet", 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.

### *14-amaliy mashg'ulot*
### *Mavzu: MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY SIYOSAT. PUL-KREDIT TIZIMI. BANKLAR VA ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI ROLI*
***(2 soat)***

Mamlakatda muayyan davrda yaratilgan yalpi milliy mahsulotni taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilish jarayonlarida pul ishlatiladi va turli ko'rinishdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, uy xo'jaliklari va davlatning pul mablag'lari fondini tashkil etadi. Pul fondlarining hosil bo'lishi, ishlatish maqsadlari, foydalanish usullari va manbalariga qarab, moliya va kredit shakllarini hosil qiladi.

Ushbu amaliy mashg'ulotda moliya tizimi, davlat byudjeti, byudjet mablag'larining shakllanishi, soliqlar va uning mohiyati yoritib beriladi. Shundan keyin pul muomalasi qonunlari, pulga bo'lgan talab va taklif, inflyatsiyaning mohiyati ko'rsatib o'tiladi. Keyin esa kredit tizimi, banklar va ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ochib beriladi.

***Reja:***

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.
2. Soliq tizimi va uning vazifalari.
3. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.
4. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari.
2. O'zbekistonda banklar va ularning iqtisodiyotdagi o'rni.

***Asosiy tayanch tushunchalar:***

**Moliya** – pul fondlarining harakati, ya'ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlardir;

**Moliya tizimi** – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir;

**Davlat byudjeti** – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta'minlash manbalarining tartiblashtirish rejasi;

**Byudjet taqchilligi** – byudjet xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishi natijasida vujudga kelgan farq;

**Pul muomalasi** – tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati;

**Pul tizimi** – tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli;

**Inflyatsiya** – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi;

**Kredit** – bush turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish;

**Foiz normasi (stavkasi**) – foiz yoki foizni daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi;

**Banklar** – kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar;

**Bank operatsiyalari** – mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish boyicha amalga oshiriladigan operatsiyalar;

**Bank foydasi** – olingan va to'langan foiz summalari o'rtasidagi farq;

**Bank foyda normasi** – bank sof foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi;

**Laffer egri chizig'i** – davlat byudjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlanishi;

**Lizing** – kreditning pulsiz shakli bo’lib, odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to’lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat;

**Faktoring** – boshqa iqtisodiy sub‘ektlarning qarzdorlik boyicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari;

**Farfeyting** – uzoq muddatli faktoring munosabatlari bo’lib, qarzdorlik boyicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o’tgandan so’ng undirishi mumkin bo’ladi;

**Trast** – mijozlarning kapitallarini boshqarish boyicha operatsiyalaridir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari*:**

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.
2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo’g’inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat byudjetining o’rni qanday?
3. Davlat byudjeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol oynaydi? Bunda qanday usullardan foydalaniladi?
4. Byudjet taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy byudjet taqchilligini tushuntiring.
5. Soliqlarning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va ularning turlarini, asosiy vazifalarini ko’rsating.
6. Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdori qanday soliqlarga bog’liq?
7. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
8. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
9. Talab va taklif inflyatsiyalarning grafikdagi ko’rinishlarini tasvirlang va izohlang.
10. Kreditning asosiy turlarini sanab ko’rsating va ularning tavsifini bering. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?
11. Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko’rsating.

***Test savollari:***

**1. Moliyaviy munosabatlarning sub‘ektlarini aniqlang.**
A) aholining keng qatlami;
B) molyaiviy munosabatlarning barcha ishtirokchilari;
S) chet ellik jismoniy va yuridik shaxslar;
D) davlat tashkilotlari va muassalari.

**2. Inflyatsiya – bu...:**
A) talabning taklifga nisbatan o’sishi;
B) pulning qadrsizlanishi;
S) taklifning talabga nisbatan o’sishi;
D) qog’oz pullar qadrining oshishi.

**3. Ipoteka krediti nima?**
A) iste‘mol tovarlari hisobiga kredit berish;
B) pul mablag’lari hisobiga kredit berish;
S) ko’chmas mulk hisobiga kredit berish;
D) lizing asosida kredit berish.

**4. Pulning likvidligini qaysi javob ifodalaydi?**
A) pulning xohlagan vaqtda va osongina boshqa narsaga aylana bilish xususiyati;
B) aniq moddiy shaklga ega bo’lib, qo’ldan-qo’lga o’tib yuruvchi pullar;
C) pulning xarid qobiliyati;
D) pulning muntazam ravishda muomalaga chiqarilib turishi.

**5. Byudjet profitsiti qachon yuzaga keladi?**
A) byudjetning daromad va xarajatlar qismi teng bo’lganda;
B) byudjetning daromadlar qismi xarajatlar qismidan ortib qolganda;
C) byudjetning daromadlar qismi xarajatlar qismidan kam bo’lganda;
D) sof eksport ijobiy bo’lganda.

**6. O’zbekistonda milliy valyutasi – so’m qachon muomalaga kiritildi**?

A) 1993 yil noyabr;
B) 1991 yil sentabr;
C) 1994 yil iyul;
D) 2001 yil avgust.

**7. Byudjet taqchilligi (defitsiti) qachon yuzaga keladi?**
A) byudjetning daromadi va xarajatlar qismi teng bo'lganda;
B) xarajatlar qismi daromadlardan ortiq bo'lganda;
S) sof eksport ijobiy bo'lganda;
D) byudjetning daromadlari xarajatlar qismidan kam bo'lganda.

**8. Dividend – bu ...:**
A) aktsiya egasi oladigan daromad;
B) ish haqidan olinadigan daromad;
C) foiz hisobiga olingan daromad;
D) mol-mulk ijarasidan olinadigan daromad.

**9. "Bank" tushunchasini to'liq ifoda etuvchi javobni aniqlang?**
A) pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy muassasa;
B) pul mablag'larini yig'ish va joylashtirish bilan shug'ullanuvchi muassasa;
C) pulning harakatini nazorat qiluvchi iqtisodiy muassasa;
D) pul mablag'larini yig'ish va unga muhtoj bo'lgan subektlarga ma'lum shartlar asosida qarz berish bilan shug'ullanuvchi muassasa.

***Adabiyotlar:***


1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston", 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: "O'zbekiston", 1999.
6. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: "O'zbekiston", 1995.
7. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Iqtisodiyot", 2009y.
10. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: "Sharq", 2006y
11. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Fan va texnologiya", 2005.
12. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.s. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Universitet", 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: "Moliya", 2002.


## *15-amaliy mashg'ulot*
## *Mavzu: BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI*
## *(2 soat)*

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos bo'lgan vazifalarni bajarib, har biri mustaqil harakat qilib kelgan. Lekin turli iqtisodiy tizimlar bir-biridan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining mutanosibligi boyicha keskin farq ham qiladi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasida bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik berilgan.

Ushbu amaliy mashg'ulotni yoritishdan maqsad milliy iqtisodiyotni boshqarishda davlatning rolini ko'rsatish, uning iqtisodiy vazifalariga tavsif beriladi, keyin esa davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari ko'rsatib o'tiladi.

Amaliy mashg'ulotda aholi daromadlarining shakllanishi, uning iqtisodiy mazmuni, aholi daromadlarining turlari nazariy jihatdan tushuntirib beriladi. Keyin esa daromadlar tengsizligi va uning sabablari tushuntiriladi hamda davlat olib borayotgan ijtimoiy siyosat va unga xizmat qiladigan dasturlarni bajarilishi va uning ahamiyati haqidagi fikrlar bayon qilinadi.

Aamaliy mashg'ulotning maqsadi - bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarini shakllanishi va uning manbalari, aholi turmush darajasini belgilashdagi ko'rsatkichlarni tushuntirib berish hamda daromadlar tengsizligini qisqartirishda davlatnig ijtimoiy siyosatini tushuntirishan iborat.

***Reja:***

1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli haqidagi nazariya va qarashlar.
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari.
3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.
4. Aholi daromadlari va uning tarkibi. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari.
5. Davlatning ijtimoiy siyosati.

***Talaba mustaqil ishi:***

1. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash.

***Asosiy tayanch tushunchalar*:**

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** – qonunchilik, ijro va nazorat qilish tadbirlar tizimini ishlab chiqishi va amalga oshirishdir;

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi** – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirishga qaratiladi;

**Davlatning iqtisoiy vazifalari** – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardan iborat;

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari** – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligidir;

**Bevosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish shaklidagi ma'muriy vositalar mavjud;

**Bilvosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklaridir;

**Aholi daromadlari** – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlar miqdori;

**Nominal daromad** - aholi tomonidan pul shaklida olingan daromadlari summasi;

**Ixtiyorida bo'lgan daromad** - barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad, ya'ni shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumikn bo'lgan daromad;

**Real daromad** - narx darajasi o'zgarishini hisobga olib aholi ixtiyoridagi daromadning zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni sotib olishga ketadigan quvvatidir. Qisqa qilib aytganda aholi daromadining xarid quvvatidir;

**Lorents egri chizig'i** – daromadlar tengsizligi darajasini miqoriy aniqlashni xarakterlaydi;

**Ijtimoiy to'lovlar** - kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan turli xil to'lovlar;

**Ijtimoiy siyosat** - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosatdir.

***Nazorat savollari va topshiriqlari:***

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarni baholab izohlab tushuntiring.
2. Davlatning asosiy iqtisoiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
4. Tartibga solish o’z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qoyadi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
6. Tartibga solishning ma‘muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko’rsating.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol oynaydi?
8. Davlat iqtisodiy dasturlari qanay amalga oshiriladi?
9. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tushunasiz?
10. Ijtimoiy adolatni ta‘minlashda aholi daromadlarini shakllantirish siyosatni roli qanday?
11. Aholi daromadlari tushunchasi va uning darajasiga ta‘sir ko’rsatuvchi omillarni ko’rsatib bering.
12. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering.
13. Turmush darajasi qanday ko’rsatkichlar xarakterlab beradi?
14. Daromadlar tengsizligii asosiy sabablarini sanab ko’rsating va ularga tushuntirish bering.
15. O’zbekistonda davlat yordam dasturlari tizimini isloh qilish va uni hozirgi davrdagi asosiy yo’nalishlariga o’z farqingizni bildiring.

***Test savollari:***

**1. Aholi daromadlari ichida asosiy o’rinni qaysi daromad egallaydi**?
A) shaxsiy (yordamchi) xo’jalikdan olingan daromad;
B) dividend;
S) ish haqi;
D) stipendiY.

**2. Qaysi iqtisodiy maktab vakillari davlatning iqtisodiyotga keng aralashuvini yoqlab chiqadilar?**
A) merkantilizm maktabi vakillari;
B) monetaristlar;
S) keynschilar;
D) fiziokratlar.

**3. Real ish haqi - bu...:**
A) pul shaklida olingan ish haqi summasi;
B) bajarilgan ish uchun olingan ish haqi;
S) olingan foiz, renta va dividend;
D) nominal ish haqining sotib olish layoqati

**4. Iqtisodiy plyurazim deganda nimani tushunasiz?**
A) xususiy mulkning ustuvor mavqega ega bo’lishi;
B) davlat mulkining qisqarishi;
C) mulk shakllari va xo’jalik yuritish usullarining turli-tuman bo’lishi;
D) raqobatga asoslangan iqtisodiyotning yo’lga qoyilishi.

**5. Transfert to’lovlari davlat tomonidan qaysi maqsadni ko’zlab amalga oshiriladi?**
A) monopoliyatik faoliyatning cheklash maqsadida;
B) kam ta‘minlangan oilalarga yordam berish uchun;
C) byudjet kamomadini qoplash uchun;
D) moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarishni rag’batlantirish uchun.

**6. Qaysi holda oila kambag’al hisoblanadi?**
A) oila daromadlarining umumiy miqdori kam bo’lsa;
B) oila daromadlari pul jamg’arishga imkon bermasa;
C) oilaning real daromadlari yashash uchun yetmasa;
D) oilada olingan daromad jon boshiga tirikchilik qiymatidan past bo’lsa.

**7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi nima?**
A) narxlarni o’z nazoratida ushlab turish;
B) iqtisodiy erkinlikka yo’l qoymaslik;

C) iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash, uni o’zgaruvchi sharoitga moslashtirish;
D) aholini ijtimoiy himoya qilish.

**8. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni tartiblash qaysi tizim orqali amalga oshiriladi?**
A. marketing tizimi orqali;
B) menejment tizimi orqali;
C) samarali soliq solish tizimi orqali;
D) davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali.

**9. Aholining muhtoj qatlami qanday daromad oladi?**
A) mehnat bilan topilgan daromad;
B) nobozor daromadi;
C) bozor daromadi;
D) mol-mulkdan topilgan daromad**.**

***Adabiyotlar:***

1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
7. O’zbekiston Respublikasining “Fermer xo’jaliklari to’g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O’zbekiston Respublikasining “Dehqon xo’jaliklari to’g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
10. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
11. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2005.
12. Ekonomicheskaya teoriY. Uchebnik. – Izd. ispr. i dop. / Pod obsh.red. akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrnina, G.P. Juravlevoy, L.S. Tarasevicha. - M .:INFRA-M, 2005.
13. Hoshimov P., Umarov K. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Universitet”, 2003.
14. Shodmonov Sh. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Moliya”, 2002.

## *16-amaliy mashg’ulot*
## *Mavzu: JAHON XO’JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI. JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI. JAHON XO’JALIGI.*
## *(2 SOAT)*

Hozirgi zamon jahon xo’jaligining rivojlanishining baynalmillanishuvi, shu asosda jahon xo’jaligi va avvalo jahon bozorining shakllanishi va rivojlanishidan iborat.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi uning milliy xo’jaligi ko’p darajada xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimotida qatnashishi darajasi va miqyosi, butun insoniyat resurslari bilan ham aniqlanadi. Ushbu amaliy mashg’ulotni o’rganishda jahon xo’jaligining tarkib topishi, uning baynalmillashuvi va globallashuvining ahamiyati, jahon infratuzilmasining rivojlanishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, jahon xo’jaligi aloqalarining xalqaro tartibga solish kabi masalalarning iqtisodiyotda tutgan o’rni tushuntiriladi. Bundan tashqari xalqaro integratsiyaning mohiyati, maqsad va shakllari, iqtisodiy integratsiyaning turlicha nazariyalari, asosiy integratsion guruhlar ko’rib chiqiladi. Shuning bilan birga xalqaro savdo orqali milliy iqtisodiyotning dunyo mamlakatlari bilan bog’lanishi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, valyuta tizimi, valyuta kursi, valyuta siyosati, xalqaro munosabatlarning moliyaviy yoki valyutaga oid tomonlari ham ko’rib chiqiladi.

*Reja:*

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmillashuvi.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob‘ektiv asoslari.
4. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.

*Talaba mustaqil ishi:*

1. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.
2. O’zbekistonning jahon xo’jaligida tutgan o’rni.

*Asosiy tayanch tushunchalar:*

**Jahon xo’jaligi** – xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish, savdo, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy aloqalar orqali birlashgan turli mamlakatlar xo’jaliklari tizimi.

**Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi** – mamlakatlarning jahon mikyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olishi jarayoni.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** – alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarining ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

**Globallashuv** – jahon xo’jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog’ining tashkil topishi va rivojlanishi.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** – jahonning turli mamlakatlari o’rtasidagi xo’jalik aloqalari majmui.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** – jahon mamlakatlari o’zaro iqtisodiy aloqalarining chuqurlashtirish va barqaror rivojlanishi hamda milliy xo’jaliklar o’rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo’jalik aloqalarining birlashish jarayoni.

**Erkin savdo hududlari** – iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo’lib, uning doirasida savdo cheklamlari bekor qilinadi.

**Bojxona ittifoqi** – yagona tashki savdo tariflari o’rnatilish va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashki savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi.

**To’lov ittifoqi** – milliy valyutalarning o’zaro almashishuvi va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishi.

**Umumiy bozor** – bunda uning qatnashchilari o’zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o’tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta‘minlanadi.

**Iqtisodiy va valyuta ittifoqi** – iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli bo’lib, bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari iqtisodiy va valyuta moliyaviy siyosat o’tkazish bilan birga uyg’unlashadi.

**Eksport** – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo’lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Import** – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritishi.

**Xalqaro valyuta tizimi** – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlashgan shakli.

**Valyuta kursi** – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishining bahosi.

**To’lov balansi** – mamlakat rezidentlari (uy xo’jaliklari, korxona va davlat) va chet elliklar o’rtasida ma‘lum vaqt oralig’ida (odatda bir yil) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

*Nazorat savollari va topshiriqlari*:

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o’ziga hos xususiyati nimadan iborat?
2. Jahon xo’jaligining milliy iqtisodiyotga ta‘siri qanday?
3. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?
4. Globallashuv jarayoni nima va uning qanday yo’nalishlari mavjud?

5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.
6. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillariga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol oynaydi?
7. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qoyadi? Hozirgi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarni bilasiz?
8. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?
9. Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rni qanday?
10. Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
11. Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?
12. Integratsiyaning qanday turlarini bilasiz? Har biriga misollar keltiring.
13. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega bo'lishini tushuntirib bering.

***Test sinovlari:***

1. **Jahon xo'jaligi mazmunini to'g'ri aks ettiruvchi javobni toping:**
A) bitta qit'ada joylashgan qo'shni mamlakatlar xo'jaligi;
B) xalqaro mehnat taqsimoti tizimi;
S) xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi va ularni amalsha oshirish mexanizmi majmuasi;
D) xalqaro valyuta fondi.

2. **Jahon xo'jaligi qachon shakllangan?**
A) ikkinchi jahon urushidan so'ng;
B) XIX asr o'rtalarida;
S) iqtisodiy aloqalar o'rnatila boshlagan vaqtdan beri mavjud;
D) XIX asr oxiri - XX asr boshlarida.

**3. Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatli tomonlarini ko'rsating:**
A) xo'jalikni tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'lishi va rivojlanishi;
B) mulkchilik munosabatlarining globallashuvi;
S) ishsizlikning kuchayishi;
D) iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bo'lmasligi, mamlakatlar o'rtasida farqning kuchayishi, ekologik halokatning kuchayib borishi.

**4. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari qaysi javobda to'liq berilgan?**
A) erkin savdo huquqlari, bojxona ittifoqi, to'lov ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi;
B) iqtisodiy ittifoq, siyosiy ittifoq, valyuta ittifoqi;
S) erkin savdo, iqtisodiy ittifoq, valyuta ittifoqi;
D) iqtisodiy ittifoq, siyosiy ittifoq.

**5. Xalqaro savdo bu...:**
A) turli kompaniyalar o'rtasidagi savdo aloqasi;
B) turli davlat – milliy xo'jaliklari o'rtasidagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash jarayoni;
C) tovar va xizmatlarni import qilish;
D) tovar va xizmatlarni eksport qilish.

**5. Boj to'lovlari deganda nimani tushunasiz?**
A) chet eldan kirib kelgan tovarlar uchun qo'shimcha to'lov;
B) mamlakatdan chiqib ketayotgan tovarlar uchun to'lov;
C) import tovarlariga qoyiladigan soliqlar;
D) import tovarlariga qoyilgan foiz**.**

***Adabiyotlar:***

1. Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. T.: "O'zbekiston", 2010.

2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: “O’zbekiston”, 2010.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.: “O’zbekiston”, 2009.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O’zbekiston”, 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. T.: “O’zbekiston”, 1995.
7. O’zbekiston Respublikasining “Fermer xo’jaliklari to’g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
8. O’zbekiston Respublikasining “Dehqon xo’jaliklari to’g’risida”gi Qonuni, 1998 yil 30 aprel.
9. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Iqtisodiyot”, 2009y.
10. O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: “Sharq”, 2006y
11. Shodmonov Sh., G’afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: “Fan va texnolo

# IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN MUSTAQIL ISHLAR MAZMUNI

## Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishlar mavzular boyicha yozma ish shaklida tayyorlanadi. Kuzgi semestr davomida Prezident Islom Karimovning adabiyotlar royxatida ko'rsatilgan asarlaridan konspektlashtirib boriladi hamda semestr yakunida topshiriladi. Bahorgi semestr yakunida Prezident I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari", "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimmz farovonligini yanada yuksaltirishdir" asarlaridan referat shaklida mustaqil ish topshiriladi.

## Mustaqil ishlarning mavzulari

1. Iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning usullari.
2. Hozirgi davrdagi yangi iqtisodiy g'oyalar va ularning asosiy yo'nalishlari.
3. Ishlab chiqarishning samaradorligi va uning ko'rsatkichlari.
4. Sof milliy mahsulot va milliy daromad.
5. O'zbekiston mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning maqsadi, yo'llari va usullari.
6. Aralash mulk va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
7. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari.
8. Tovar xo'jaligining vujudga kelishining ob'ektiv zarurligi
9. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.
10. Bozor xo'jaligini rivojlanishida infratuzilmaning roli
11. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.
12. 2009 yilda mamlakatimizda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
13. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi.
14. Ishlab chiqarishga talab va taklif ta'siri.
15. Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi xususiyatlari.
16. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat.
17. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish.
18. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari.
19. Agrobiznes va uning turlari.
20. O'zbekistonda agrar munosabatlarning yangi turlarini vujudga kelishi va uning mohiyati
21. Yalpi milliy mahsulot (YaiM)ni hisoblash usullari
22. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammolari
23. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi
24. Milliy boylikni ko'paytirishning asosiy omillari.
25. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari
26. O'zbekistonda bandlik muammosi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.
27. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari.
28. O'zbekistonda bandlik muammosi va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash.
29. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari
30. O'zbekistonda banklar va ularning iqtisodiyotdagi o'rni
31. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash
32. Xalqaro valyuta - kredit munosabatlari va valyuta tizimlari
33. O'zbekistonning jahon xo'jaligida tutgan o'rni.

**Kuzgi semestr davomida Prezident Islom Karimovning adabiyotlar royxatida ko'rsatilgan asarlaridan konspektlashtirib boriladi hamda semestr yakunida topshiriladi.**

**Bahorgi semestr yakunida Prezident I.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari", "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimmz farovonligini yanada yuksaltirishdir" asarlaridan referat shaklida mustaqil ish topshiriladi.**

***Iqtisodiyot –*** grekcha "Oikonomia" so'zidan olingan va uy xo'jaligini tashkil etish, yuritish va boshqarish ma'nosini bildiradi. Hozirgi paytda iqtisodiyot:

xonadon, tuman, hudud, mamlakat, mamlakatlar guruhi yoki butun jahon xo'jaligiga doir tushuncha. Ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol jarayonlarida odamlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni ifodalovchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir

***Ehtiyoj*** - bu iqtisodiy kategoriya sifatida kishilarning yashashi, tirikchilik imkoniyatlariga va hayotiy vositalariga ega bo'lishining ob'ektiv zaruriyatidir

***Iqtisodiy resurslar*** - bu mamlakatda ishlab chiqarishni tashkil qilishga va xizmat ko'rsatishga ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalari, xom ashyolar, yoqilg'i, energiya, zahiralar majmuidir

***Siyosiy iqtisod*** - grekcha "politeya" (ijtimoiy davlat tuzilmasi), "oykos" (uy xo'jaligi) va "nomos" (ta'limot, qonun) so'zlaridan olingan bo'lib, davlat miqyosida xo'jalikni tashkil qilish va boshqarish qonunlarini o'rgatadi degan ma'noni bildiradi

***Ekonomika*** - bu siyosiy iqtisod bilan marjinalizmni qo'shib o'rganadigan fan bo'lib, G'arbda uni hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasi nomi bilan yuritiladi

***Iqtisodiyot nazariyasi*** - qadimiy fan bo'lib, insonlarni moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida ular o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar va qonunlarni o'rgatadi

***Marjinalizm*** - inglizcha so'z bo'lib, "chegaraviy" ma'nosini bildiradi, ya'ni uning bosh kategoriyalari: chegaraviy foydalilik, chegaraviy unumdorlik, chegaraviy xarajatlar ko'rinishida aniqlanadi

***Marginal*** - qo'shimcha ravishda so'nggi mahsulot, ish va xizmat birligi uchun ketadigan qo'shimcha xarajat

***Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti*** - cheklangan iqtisodiy resurslardan ishlab chiqarishda foydalanish va tejamkorlikka amal qilgan holda kishilarning cheksiz o'sib (uzluksiz ko'payib) borayotgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bilim berish, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida ularni taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilishda yuzaga chiqadigan iqtisodiy munosabatlarni hamda xo'jalikni oqilona boshqarish qoida-qonunlarini o'rgatadi

***Iqtisodiy kategoriyalar*** - iqtisodiy hodisa, iqtisodiy jarayon va o'zgarishlarni o'rganishda qo'llaniladigan ilmiy tushunchalar majmuasidir

***Iqtisodiy qonunlar*** - kishilar iqtisodiy faoliyatining turli jabhalaridagi o'zgarishlar, sabab-oqibatlari va aloqalarini o'zaro bog'liqligini ko'rsatib beradigan nazariy-ilmiy voqelikdir

***Uslubiyat (metodologiya)*** - iqtisodiy holat va jarayonlarni ilmiy bilishning qonun-qoidalariga turlicha yondashuvlar tizimidir

***Ilmiy abstraktsiya*** - iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni ilmiy o'rganishda qo'llaniladigan usullardan biridir

***Merkantilizm*** - "merkantil" italyancha so'z bo'lib, "pullik" ma'nosini bildiradi. Bu boylikning kelishi manbai haqidagi ta'limot. Boylik muomalada – savdoda paydo bo'ladi deb tushuntiriladi

***Fiziokratlar*** - grekcha so'z bo'lib, "tabiatning hukmronligi" ma'nosini bildiradi. Bu ta'limotning asoschisi Fransuo Kene (1694-1774 yy) bo'lib, boylikning manbai faqat qishloq xo'jaligidagi mehnat deb hisoblagan, uning ta'limoti cheklangan. U merkantelistlarning ta'limotini inkor qilgan

***Monetrizm*** - iqtisodiyotni barqarorlashtirish nazariyasidan biri, bunda asosiy vosita pul hisoblanadi. Monetaristlar iqtisodiyotni boshqarishda pul massasi, pul emissiyasi, muomaladagi pulning miqdori ustidan davlatning nazorat qilishini tavsiya qilganlar

***Neoliberalizm*** - iqtisodiyotga davlatning aralashuvini kamaytirish g'oyasini ma'qullaydilar

***Klassik siyosiy iqtisod*** - asoschilari A.Smit (1723-1790 yy) va D.Rikardo (1772-1823yy). Ular qiymatni, mehnat nazariyasining asoslarini yaratganlar

***Keynschilik*** - asoschisi Lord Djon Meynard Keyns (1883-1946yy). Uning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936) asarida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish dasturi bayon qilingan. U davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari aralashuviga qarshi bo'lgan iqtisodiyot nazariyasidagi ta'limot bo'lib, bu qarash hozir ham dolzarbligicha qolmoqda

***Institutsional*** - sotsiologik yo'nalish – lotincha "institutum" bo'lib, o'rnatish, tuzilma, muassasa so'zidan olingan. "Institut" tushunchasi juda ko'p ma'noni bildiradi, davlat, korporatsiya, kasaba uyushmalar, raqobat, monopoliya, soliqlar, barqaror turmush tarzi va yuridik normalar. Bu yo'nalish (kontseptsiya) hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining uchinchi ta'limoti. T.Veblen, Dj. Kommons, U.Mitchell, Dj. Gelbreyt bu yo'nalishning namoyondalaridir

***Protektsionizm siyosati*** - bu ta'limot merkantelizmga yaqin bo'lib, bojxona to'siqlarini joriy qilish, mamlakatga chet el tovarlarini va kapitallarini kirib kelishini cheklaydi. Bu siyosat milliy iqtisodiyotni xorijiy mamlakatlarning raqobatidan himoya qilishni ko'zlaydi

***Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligi nazariyasi*** - nemis nazariyotchisi Lyudvich Erxard (1897-1977) neoliberalizatsiya nazariyasiga asoslangan holda ushbu nazariyani yaratadi va amaliyotda qo'llaydi. Nazariyaning asosiy qoidalari: erkin narx va erkin raqobatning zarurligi, talab va taklif o'rtasidagi to'g'ri nisbat, iqtisodiyotning muvozanatliligi. Davlat bozor xo'jaligini kafolatlashi va uning rivojlanishida ijtimoiy yo'naltirilganlikni amalga oshirib borishi zarur

***Ehtiyojlar*** - kishilarning yashashlari, hayot kechirishlari, tirikchilik vositalariga ega bo'lishlarini talab qilish, ularning organizmlari rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy mahsulotlarga bo'lgan ob'ektiv zaruriyatni bildiradi

***Ehtiyojlarning yuksalish qonuni*** - umumiqtisodiy qonun bo'lib, unga binoan jamiyat a'zolarining barcha aholining ehtiyojlari barcha tuzumlarda mavjud bo'ladi, uzluksiz o'sib boradi, u miqdoran va tarkiban yangilanib turadi, insoniyat hayotining barcha bosqichlarida amal qiladi, eski ehtiyojlar o'rnida yangisi paydo bo'ladi

***Ishlab chiqarish*** - iqtisodiy kategoriya bo'lib, mehnatga layoqatli bo'lgan ish kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarining ko'shilishi va birikishidir

***Ishlab chiqarish munosabatlari*** - yashash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida shakllanadigan iqtisodiy aloqalar munosabatlaridir

***Iqtisodiy ne'matlar*** - moddiy ne'matlar – oziq-ovqat, kiyim-kechak, tura joylar, uy asbob-anjomlari va boshqalardan iborat

***Barter*** - ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi sub'ektlar (xonadon, korxona, firma, aholi, davlat) bir mahsulotni boshqa bir mahsulotga to'g'ridan-to'g'ri almashtiradilar, bunda pul ishtirok etmaydi

***Tovar ayirboshlash*** - mahsulot tovarga aylanishi paytida unga ekvivalent bo'lgan boshqa bir tovar bilan sotib olinadi. Bunday holatda ekvivalent tovar – pul vositachilik qiladi, ya'ni, T-P, P-T yoki T-P-T bo'ladi

***Taqsimlash*** - mehnat natijalari va tabiatdagi moddiy narsalar (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari, kapital va ishchi kuchi) kishilar va jamiyat o'rtasida taqsimlanadi

***Iste'mol*** - kishilar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlarning bir qismini mehnatga qarab taqsimlash orqali egalik qilish, o'zlashtirish va sarflashdir

***Iste'mol turlari*** - kishilarning shaxsiy iste'moli, ishlab chiqarish iste'mol va davlat iste'molidan iborat

***Iqtisodiy resurslar*** - moddiy ne'matlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan narsalar – ishlab chiqarish qurollari, vositalari, xom ashyolar, yoqilg'i, energiya va ishchi kuchidan iborat

***Iqtisodiy resurslar tarkibi*** - moddiy resurslar, mehnat resurslari, informatsion resurslardan tashkil topadi

***Individual ehtiyoj*** - bu insonning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, nomoddiy mahsulotlarga bo'lgan yakka tartibdagi talabi

***Guruhiy (korporativ)***

***ehtiyoj*** - jamoaga birlashgan kishilarning umumiy ehtiyoji

***Umumjamiyat ehtiyoji*** - umummilliy ehtiyoj

***Resurslarning kamyobligi*** - ehtiyojlarning cheksizligi va uni qondirib borishda ishlab chiqarish resurslarining (tabiiy resurslar, mehnat resurslari, texnika va texnologiyalar) cheklanganligidir

***Iqtisodiy manfaat*** - kishilar tomonidan iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon etilishidir

***Turmush darajasi*** - ayrim kishilar va aholi ehtiyojlarining ta'minlash va qondirilishini me'yoridir

***Ishlab chiqarish*** - iqtisodiy kategoriya sifatida kishilarning yashashi, tirikchilik vositalariga ega bo'lishi va jamiyatning rivojlanishi hamda taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy noz-ne'matlarni yaratishda ishlab chiqarish vositalari bilan ishchi kuchining birikishidir

***Mehnat (ishchi kuchi)*** - bu mehnat qilishga yaroqli bo'lgan insonning turli tuman maqsadni amalga oshirishdagi aqliy va jismoniy qobiliyatlarining majmuasidir

***Mehnat qurollari*** - bu inson mehnati bilan mehnat ashyolariga ta'sir etadigan narsalar (mashina, stanoklar, asbob-uskunalar va boshqalar) majmuasidir

***Mehnat predmetlari*** - ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyolar, yer-suv, metall, ruda, toshko'mir, paxta, o'rmon mahsulotlari majmuasidir

***Mehnat vositalari*** - ishlab chiqarishni tashkil qilishga ko'maklashadigan narsalardir (ko'priklar, kanallar, yo'llar, inshootlar, turar-joylar va boshqalar)

***Ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omili*** - barcha ishlab chiqarish vositalari (mashina, asbob-uskunalar, inshootlar va barcha xom ashyolar) kiradi

***Ishlab chiqarishning shaxsiy omili*** - ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy va intellektual (aqliy) qobiliyatli ishchi kuchidir

***Informatsion omil*** - bu ishlab chiqarishga ko'maklashadigan turli axborotlar (reklama, novatsiya, innovatsiya, motivatsiya) majmuidir

***Ekologik omil*** - iqtisodiy o'sishni tezlashtirish yoki zararligi, gaz chiqindisining ko'pligi, iflosligi sababli uni chegaralash demakdir

***Ishlab chiqarish omillarining birikish usullari*** - ishlab chiqarish vositalari bilan ish kuchining birikishi. U ikki xil bo'ladi. Bevosita va bilvosita birikish

***Bevosita birikish*** - moddiy va shaxsiy omillar mulk egasining ixtiyorida bo'ladi

| | |
|---|---|
| ***Bilvosita birikish*** - | mulk (moddiy omillar) bir kishida bo'lsa-da, o'zi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda mulk bilan birlashmaydi. Ya'ni, mulk egasi bo'lmagan kishi moddiy omil bilan birikadi |
| ***Ishlab chiqarish samaradorligi*** - | tovar mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun ketgan xarajatlar ishlab chiqarishning pirovard natijalari bilan taqqoslab ko'rilganda, olingan daromadlar sarf qilingan xarajatlardan ortiq bo'lsa – ishlab chiqarish yoki xizmatlar samarali bo'ladi. S = Mq / Rs |
| ***Mehnat unumdorligi*** - | bu vaqt birligida yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdori yoki mahsulot va xizmatlar birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtidir. Mu = Mm / Is ko'rinishida bo'ladi |
| **Iqtisodiy salohiyat** - | xodimlarning ilmiy potentsiali bo'lib, murakkab texnika va texnologiyalarni boshqarishda chuqur texnikaviy bilim va ish tajribasini tashkil etadi |
| ***Tadbirkorlik*** - | bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchasi bo'lib, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, iqtisodiy xavfdan, javobgarlikdan, tavakkalchilikdan qo'rqmaydigan xislatlarining birligidir |
| ***Biznes*** - | bu barcha xo'jalik yurituvchilarning o'z ichiga oluvchi va ularning faoliyatini umumlashtiruvchi – ish va odam degan ma'noni bildiradi yoki pul topishga, foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir |
| ***Kapital*** - | sohibkor tomonidan daromad keltirishga yo'naltirilgan sarmoya, vosita, mablag'dir. Kapital o'z egasiga o'sib, ko'payib kelgan yangi qiymat yaratadi vqa u pul, unumli va tovar ko'rinishlarida bo'ladi |
| ***Zaruriy mahsulot*** - | ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning zaruriy ish vaqtida ishlab chiqargan mahsuloti bo'lib, ish haqi va mehnat haqi qilib beriladi |
| ***Qo'shimcha mahsulot*** - | ishlab chiqarishdagi xodimlarning qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan mahsulot bo'lib, sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismidir. Qo'shimcha mahsulot foyda shaklida bo'ladi va tadbirkorlarga, ishbilarmonlarga, mulkdorlarga va davlatga tegishli bo'ladi |
| ***Yalpi milliy mahsulot (YamM)*** - | bir yil mobaynida ishlab chiqarilgan, yaratilgan, tayyorlangan tovar mahsulotlar va xizmatlarning massasi hamda uning iste'molchilarga borib yetadigan tayyor qismining bozor narxidagi (bahosi) qiymatidir |
| ***Yalpi ichki mahsulot (YaiM)*** - | muayyan vaqt mobaynida (bir yilda) mamlakatning chegarasi doirasida ishlab chiqarilgan tovar-mahsulotlar va yaratilgan |

xizmatlarning iste‘molga mo’ljallangan qismining bozor narxidagi qiymatidir

***Sof milliy mahsulot (SMM)*** - bevosita ishlab chiqarishda band bo’lgan ishchilar, dehqonlar, fermerlar, tadbirkorlar, bizneschilar, menejerlar va texnik xodimlarning yangidan yaratilgan zaruriy va qo’shimcha mehnatining natijasidir. Ya‘ni, YaiM – Aa = SMM

***Qo’shimcha mahsulot massasi*** - bu muayyan vaqtda, yil davomida olingan qo’shimcha mahsulotlar yig’indisidir

***Qo’shimcha mahsulot normasi*** - qo’shimcha mahsulot massasining zaruriy mahsulotga nisbatining foizda ifodalanishidir. Ya‘ni, m’ = m /v x 100%

***Foyda*** - iqtisodiy kategoriya bo’lib, ishlab chiqarishga sarf qilingan xarajatlar bilan yaratilgan (olingan) daromadlar o’rtasidagi farqdan iboratdir

***Foydaning taqsimlanishi*** - soliqlarga to’lovlar to’lanadi, mulk egalari daromad oladilar, ssuda egalari foiz oladilar, yer egalari renta oladilar, qzshimcha ish haqi beriladi, xodimlar rag’batlantiriladi, ishlab chiqarish kengaytiriladi va nihoyat jamg’ariladi

***Absolyut qo’shimcha mahsulot*** – ish kunini uzaytirish hisobiga olingan qo’shimcha mahsulotga aytiladi

***Nisbiy qo’shimcha mahsulot*** - zaruriy ish vaqtini qisqartirish hisobiga qo’shimcha ish vaqtini ko’paytirish hisobidan yaratilgan mahsulotga aytiladi

***Milliy boylik*** - mamlakat ixtiyorida bo’lgan tabiat in‘omlari, avlod-ajdodlardan meros qolgan boyliklar, insonlar mehnati blan yaratilgan moddiy va nomoddiy ne‘matlar majmuasiga aytiladi

***Ijtimoiy-iqtisodiy tizim*** - umumtexnologik va iqtisodiy asoslarda turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar shakllanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar ishlab chiqarish usullarini ifodalaydi. (Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – 5 ta bo’lgan)

***Tizim*** - bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasidir. (Ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm)

***Ijtimoiy-iqtisodiy tizim belgilari*** - har qanday iqtisodiyotning shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyotining asosiy shart-sharoitlarini tayyorlab beruvchi usullar bo’lib, ular ijtimoiy-sinfiy farqlar, texnologik darajasi, trikchilik

ne‘matlarini yaratish usullari, boshqarishning turlicha bo’lishi mumkin

***Ijtimoiy-iqtisodiy tizim turlari*** - an‘anaviy, bozor, totalitar-rejali va aralash iqtisodiy tizim ko’rinishida bo’ladi

***An‘anaviy tizim*** - insonlar iqtisodiy faoliyatidagi dastlabki shakllangan ishlab chiqarish – natural xo’jalik shaklidir

***Bozor tizimi*** - iqtisodiy kategoriya bo’lib, turli mulkchilikka asoslangan ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko’rsatuvchilar o’rtasidagi ayirboshlashga amal qiladigan iqtisodiyotdir. Bozor tizimining harakati tovar-pul munosabatlariga asoslanadi. Unda mahsulotlar va xizmatlar tovar shakliga kiradi, sotiladi va sotib olinadi. Ya‘ni, T-P va P-T

***Totalitar-rejali tizim*** - bu ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulk o’rnatilgan va mulk davlatlashtirilgan bo’lib, bu mulkni ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalaridagi faoliyati bir markazdan rejalashtiriladigan va boshqarishning ma‘muriy-buyruqbozlik siyosatiga asoslangan iqtisodiyotdir

***Aralash iqtisodiy tizim*** - bu xonadonlar, korxona, firmalar, davlat va xorijiy mamlakatlar shakllanadigan va rivojlanadigan hamda har bir sub‘ekt o’z mulkini oladigan iqtisodiyotdir

***O’rin almashuvi*** - kishilik jamiyati taraqqiyoti bir iqtisodiy tizimdan unga nisbatan rivojlangan va ustun bo’lgan tizimga almashishiga shart-sharoitlar yaratib beradi. Ya‘ni, an‘anaviy iqtisodiy tizim o’rniga bozor iqtisodiyotiga o’tish, rejali tizimdan bozor tizimiga qaytish sodir bo’ldi

***Bozor tizimiga o’tish yo’llari*** - bu klassik yo’l; mustamlakadan ozod bo’lgan mamlakatlar yo’li; sobiq rejali iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiyotiga o’tish yo’li

***Bozor tizimiga o’tishning “O’zbek modeli”*** - yangi andozalarga amal qiladigan, bosqichma-bosqich bozor xo’jaligiga o’tish yo’li, besh tamoyil qoidasiga amal qiladi. Ya‘ni, iqtisodiyotning mafkuradan ustunligi; davlat bosh islohotchi bo’lishi; qonunlar va ularga rioya qilishning ustuvorligiga erishish; faol ijtimoiy siyosat yuritish; bozor iqtisodiyotiga sekin asta evolyutsion (tadrijiy) yo’l bilan ijtimoiy larzalarsiz bosqichma-bosqich o’tish

***Tizimlarning ichki transformatsiyasi*** - iqtisodiyotning dastlabki yovvoyi shaklidan mukammallashgan, madaniylashgan (aralash) insonparvar iqtisodiyotga aylanishini bildiradi

***Yangi iqtisodiy tizim*** - bu XX asrning ikkinchi yarmidan keyin vujudga kelgan aralash iqtisodiyotdir. U uch xil mulkchilikka asoslanadi: xususiy mulk;

jamoa mulki; davlat mulki. Aralash iqtisodiyot – bu bozor iqtisodiyotining insonlashgan, ijtimoiy himoya qilish qoidalariga amal qiladigan birgalikdagi iqtisodiyotdir

***Bozor*** - bu iqtisodiy va doimiy kategoriya bo'lib, tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) bilan xaridorlar (sotib oluvchilar) o'rtasidagi tovar va xizmatlarni tovar-pul munosabatlariga aylantirish yo'lidagi ayirboshlash iqtisodiy munosabatlarining majmuasidir. Ya'ni, T-P va P-T;T-P-T

***Bozorning tuzilishi*** - bozor o'zining ichki tuzilishiga ega va uning o'zining mezonlari bilan baholanadi. Bu mezonlar tarkibiga quyidagilar kiradi: raqobat, bozor sub'ektlarining ahvoli, bozor ob'ektining xarakteri, bozor muammosining miqyosi, bozor aloqalarining qonuniyligi

***Bozor iqtisodiyoti*** - tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muoamalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiyotdir

***Bozor ob'ekti*** - bozorga ayirboshlash uchun yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va boshqalardir

***Bozor sub'ekti*** - bozorda ishtirok etuvchi va ayirboshlashda qatnashuvchi ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) xarid qiluvchilar (sotib oluvchilar) dan iboratdir

***Bozor infratuzilmasi*** – tovarlar va xizmatlarni ayirbosh qilishda xizmat qiladigan muassasalar tuzilmalaridir

***Bozor tizimi*** - turli-tuman mezonlar asosida alohida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuidir

***Iste'mol tovarlari bozori*** - odamlarning xaridi, tirikchiligiga kerak bo'ladigan tovar va xizmatlar bozoridir

***Ishlab chiqarish vositalari va resurslar bozori*** - moddiy ne'matlar ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan ishlab chiqarish vositalari (mashina, asbob-uskuna, xom ashyolar, tabiiy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqalar) bozoridir

***Ishchi kuchi yoki mehnat bozori*** - mehnatga yaroqli va ishlashni xohlaydigan ishchi kuchini oldi-sotdi qilinishidir

***Xaridorlar*** - tovarlar va xizmatlarni bozor narxida sotib oluvchi iste'molchilardir

***Sotuvchilar*** - mahsulotlarini tovarga aylantirish maqsadida bozorda ayirboshlash qilish uchun ishtirok etuvchi sub'ektlar (odamlar)dir

| | |
|---|---|
| ***Erkin (klassik) bozor*** - | sotuvchilar ko'p bo'lib, ularning hech biri monopol mavqega ega bo'lmagan, raqobat to'la-to'kis hukmron bo'lgan, narxlar erkin savdolashuv asosida shakllangan ayirbosh qilinishidir |
| ***Monopol bozor*** - | monopol narx hukmronlik qilgan, raqobat cheklangan yoki raqobat umuman bo'lmagan ozchilikni tashkil qiladigan sotuvchilar va xaridorlarning o'zaro iqtisodiy ayirbosh qilinishidir |
| ***Rivojlangan bozor*** - | tovar ko'rinishidagi (barter) usuliga asoslanadigan ayirbosh qilishdir |
| ***Tsivilizatsiyalashgan (tartiblanuvchi) bozor*** - | bozorning salbiy oqibatlarini cheklash, uni bartaraf etish va insonparvarlashtirishda davlat tomonidan tartibga keltirib turishdir |
| ***Deformalashtirilgan bozor*** - | davlatning bozor iqtisodiyotiga haddan tashqari ko'p aralashuvini bildiradi (ma'muriy iqtisodiyot davrida bozor deformalashtirilgan edi) |
| ***Tovarlar birjasi*** - | ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi tijoriy korxonasidir |
| ***Savdo firmalari*** - | amaldagi bozor segmentida (bo'g'inlarga ajralishi) tijorat ishini amalga oshiruvchi ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonalaridir |
| ***Savdo yarmarkalari*** – | belgilangan vaqtda o'tkaziladigan savdo-sotiq, tovarlar ulgurji (ko'tara) ravishda sotiladi va sotib olinadi |
| ***Bozor segmenti*** – | bozordagi savdo-sotiqning shart-sharoitlariga qarab bir qancha bo'g'inlarga ajratilishini bildiradi |
| ***Moliya bozori*** - | moliya resurslariga (vositasiga) aylangan pul mablag'lari va pulga tenglashtirilgan qimmatbaho (qiymatga ega bo'lgan) qog'ozlar (veksel, aktsiya, obligatsiya, chek, akkreditivlar) ayirbosh qilinadi |
| ***Intellektual tovarlar bozori*** - | kishilardagi aqliy mehnat va salohiyat mahsuli hisoblangan tovarlar va va xizmatlar ayirbosh qilinadi |
| ***Innovatsiyalar bozori*** - | yangiliklar, ratsionalizatorlik, kashfiyotlar taklifi ayirbosh qilinadi |
| ***Axborotlar (ma'lumotlar) bozori*** - | oldi-sotdi predmeti bo'lgan va kishilarga yetkaziladigan gazetalar, jurnallar, rasmlar, kitoblar, turli ko'rinishdagi reklamalar ayirbosh qilinadi |
| ***Investitsiyalar bozori*** - | ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga kiritiladigan (sarmoya) kapital qoyilmalari ayirbosh qilinadi va u pul bozorining bir turidir |
| ***Valyuta bozori*** - | bu bozorda mamlakatlarning milliy puli – valyutasi oldi-sotdi qilinadi. O'zbekistonda milliy valyuta konvertatsiyasi (erkin |

almashuvi) 2003 yil 15 oktabrga joriy qilindi. (Valyuta – dollar, marka, funt sterling, iena, dinor, frank, so'm, rubl va boshqalar ko'rinishida bo'ladi)

***Mahalliy bozor*** – bunda mahalliy aholi sotuvchi va xaridor bo'lib, uning hajmi kichik bo'ladi (tuman, qishloqdagi bozorlar)

***Hududiy bozor*** - bu mahaliy bozorlar birikmasidan iboratdir (viloyatdagi turli bozorlar – dehqon va mol bozori)

***Milliy bozor*** - bu mamlakatning milliy chegarasi doirasidagi – ichki bozordir. Uning qatnashchilari barcha ishlab chiqaruvchilar va barcha xaridorlardan tashkil topadi

***Davlatlararo bozor*** - bu ikki va undan ortiq mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini amalga oshiradigan jarayon bo'lib, unda yirik firmalar va davlat idoralari qatnashadi

***Jahon bozori*** - bu dunyo mamlakatlari o'rtasida bo'ladigan savdo-sotiqdir. Unda tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi sotiladi va sotib olinadi (erkin savdo, erkin iqtisodiyot va umumiy bozor ko'rinishida amal qiladi)

***O'tish davri*** - bu bir iqtisodiy tizimdan boshqa tizimga, o'sha tizimdagi iqtisodiy munosabatlaridan butunlay yangi iqtisodiy munosabatlariga o'tish uchun zarur bo'lgan vaqtni bildiradi

***Bozor islohotlari*** - iqtisodiyotni boshqarishni tubdan o'zgartirish (qayta qurish) larni amalga oshirishdagi tadbirlar majmuasidir

***Iqtisodiy uklad*** - bozor xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritish shakllari va turlarini bildiradi

***Iqtisodiyotni erkinlashtirish*** - bu mulk egalari tomonidan nima, qancha ishlab chiqarish, qaerga, kimga va qanday baholarda sotishni mulk egalari – ishlab chiqaruvchilarning o'zlari hal etishga imkoniyat yaratishdir. Xo'jalik yurituvchi sub‘ektlarning erkinligi va mustaqilligini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratib berish, ularni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotga davlatning aralashuvini kamaytirish

***Islohotlar kontseptsiyasi*** – yangi tizim – bozor iqtisodiyotiga o'tishning maqsadi, vazifalari va strategik yo'nalishning umumiy ta‘limotidir

***Iqtisodiyotni barqarorlashtirish*** - makroiqtisodiy o'sishni ta‘minlash va muvozanatlikni saqlash, iqtisodiyotda kelib chiqishi mumkin bo'lgan tanglikka yo'l qoymaslik

***O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining tamoyillari***:

***Birinchi tamoyil*** - iqtisodiyotning siyosatdan ustun bo'lishi; iqtisodiyotning mafkuradan xoli qilinishi, biron-bir mafkura iqtisodiyotdan ustun bo'lmasligi

***Ikkinchi tamoyil*** - davlat bosh islohotchi bo'lishi; bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda emas, balki davlat rahbarligida amalga oshiriladigan islohotlar yo'li bilan amalga oshirilishi lozim

***Uchinchi tamoyil*** - islohotlarning barcha bosqichlarida va undan keyin ham qonunlarga amal qilinishining ustuvorligini ta'minlash

***To'rtinchi tamoyil*** - iqtisodiyotda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; xalqning ijtimoiy himoyasini ta'minlay oladigan, uning faolligini birlashtira oladigan ijtimoiy siyosat olib borish

***Beshinchi tamoyil*** - bozor iqtisodiyotiga chet el tajribalarini o'rganib, respublikaning o'ziga xos xususiyatlariga amal qilgan holda asta–sekin, bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash

***Talab*** - bu iqtisodiy kategoriya sifatida kishilarning va jamiyatning moddiy va nomoddiy tovar mahsulotlari hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini bozorda namoyon bo'lishidir. Talab shunchaki ehtiyojdan iborat bo'lmay, moddiy va nomoddiy ne'matlarni xarid qilishga to'lov imkoniyatidir. To'lov pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir

***Individual va bozor talabi*** - har bir kishining moddiy va nomoddiy tovar hamda xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji (ishtiyoqi) individual talab deb ataladi. Moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlarga barcha xaridorlarning bildirgan ehtiyoji (ishtiyoqi) bozor talabi deb aytiladi

***Talabga ta'sir etuvchi omillar*** - tovarlarning narxi; daromadlar miqdori; o'rinbosar tovarlar narxi; xaridorlarning didi; xaridorlar soni; xaridorlarning o'zgarishlarni kutishi. Tovar va xizmatlarning narxi oshirilganda talab qisqaradi yoki aksincha. Narx o'zgarmagan taqdirda daromadda o'zgarish sodir bo'lsa, kishilarning xarid qurbi o'zgaradi, ya'ni talab ortadi yoki kamayadi. Biron bir tovarning narxi oshsa, uning o'rnini bosuvchi boshqa tovarga talab ko'payadi. Masalan, sarig'moy bilan margarin yoki go'sht bilan tuxumni taqqoslash mumkin. Xaridorlar ko'pchilikni tashkil qilgani holda, ularning har birining didi bir-biridan farq qiladi. Daromadiga qarab didiga mos keladigan tovar xarid qilinadi. Bozorda xaridorlarning soni ham muhim rol oynaydi. Xaridor ko'p bo'lsa tovar va xizmatga talab oshadi yoki aksincha bo'ladi, bu albatta narxga ta'sir ko'rsatadi. Tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar bozordagi o'zgarishlarni kutishlari ikki narsaga bog'liq bo'ladi. Birinchisini, daromadlarning o'zgarishi, ikkinchisini narxlarning o'zgarishi bilan izohlash mumkin

| | |
|---|---|
| ***Talab qonuni -*** | bu bozor iqtisodiyotida amal qiladigan qonunlardan biri bo'lib, u tovarlar va xizmatlar narxiga teskari proportsionallikni (mutanosiblikni) ifodalaydi |
| ***Talab qonuni -*** | bozor iqtisodiyoti sharoitida narxga teskari bog'lanishdagi iqtisodiy o'zgarishlar nomutanosibligi talab qonuni deyiladi |
| ***Talabning elastikligi -*** | talab qonunining miqdoran talab elastikligi (o'zgaruvchanligi) ifoda etadi, ya'ni narxning o'zgarishiga nisbatan talabning o'zgarish darajasini bildiradi |
| ***Tovarning nafliligi -*** | iste'molchilar (xaridorlar)ning oladigan qoniqishini bildiradi |
| ***Marginal (cheklangan) naflilik qonuni -*** | bu qonunga ko'ra talab qondirilgan sari qo'shimcha xarid etiladigan so'nggi tovarlarning nafliligi pasayishiga moyil bo'ladi |
| ***Taklif -*** | bu iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar (sotib oluvchilar) talabini qondirish yo'lida tovarlar va xizmatlarni bozorlarga taklif etilishidir. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar va yaratilgan xizmatlar narx vositasida bozorga chiqarilsa taklifni yuzaga keltiradi |
| ***Individual taklif -*** | ayrim sub'ektlar tovari va xizmatini bozorga kiritilishi individual taklifni hosil qiladi, ya'ni dehqon, fermer, firma mahsulot yoki xizmatlari misol bo'ladi |
| ***Bozor taklifi -*** | barcha tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning mehnat natijalarini bozorga kiritilgan qismi yalpi bozor taklifini tashkil qiladi |
| ***Taklif qonuni -*** | iste'molchilarning talablarini qondirishga xizmat qiladigan mahsulotlar va xizmatlarning bozorga kiritilgan qismini narxga bevosita bog'liqligi taklif qonuni deyiladi. Talab bilan taklif to'g'ri mutanosiblikda bo'lgani narx bilan bog'liq bo'ladi. Shu boisdan nraxga to'g'ri mutnosiblik (proportsionallik) taklif qonunining mazmunini tashkil qiladi |
| ***Taklif elastikligi -*** | taklifning o'zgarish darajasi narx o'zgarishiga nisbatan bog'liqligini (egiluvchanligini) bildiradi |
| ***Taklifga ta'sir etuvchi omillar -*** | resurslarning narxi; ishlab chiqarish texnologiyasi; soliq va dotatsiyalar; boshqa tovarlarning narxi; narx o'zgarishining ehtimoli; bozordagi sotuvchilar soni. Resurslar narxi baland bo'lib ketsa, tovarlar va xizmatlar taklifi kamayadi, chunki ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketadi. Xaridorlar qimmat tovarlarni xarid qila olmaydi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash talab qilinadi. Soliqlarning ko'pchiligi ishlab chiqarish xarajatlariga kiradi, soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklif qisqaradi. Shuning uchun davlat qandaydir tovarlarni ishlab chiqarishga dotatsiya, subsidiya beradi. Qoy go'shti narxining |

pasayishi mol go’shti taklifini oshiradi yoki aksincha bo’ladi. Agarda neft narxining pasayishi sezilsa neftning taklifini kamaytiradi. Tovar ishlab chiqaruvchilarning soni qanchalik ko’p bo’lsa, bozorga (xaridorlarga) tovarlar va xizmatlar taklifi ko’payadi

***Resurslar narxi*** - ishlab chiqarishga sarf qilinadigan resurslar narxi taklifga ta‘sir etishi tabiiydir. Resurs narxi baland bo’lsa, taklif kamayadi. Resurs narxi past bo’lsa taklif ko’padyai, chunki narx ishlab chiqarish xarajatlariga to’g’ri mutanosiblikda bo’ladi

***Xaridorlarning daromadlari*** - xaridor daromadi taklifga aktiv va passiv ta‘sir etadi. Daromad ko’p bo’lsa, narx o’zgarishidan qat‘iy nazar, iste‘molchi xarid qilish qurbiga ega bo’ladi yoki aksincha.

***Talab narxi*** - sotuvchilarning tovar va xizmat bozorlarida mo’ljalga olgan narxlariga xaridorlar belgilagan narxdir

***Taklif narxi*** - bozorda ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) o’zining tovarlari va xizmatlarga belgilagan narxidir

***Muvozanat narxi*** - sotuvchi bilan sotib oluvchi o’rtasida o’zaro kelishilgan narxdir. Bunday narxda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va xaridor (sotib oluvchi) ning manfaati muvozanatga keladi

***Tadbirkor*** - bu iqtisodiy kategoriya bo’lib, ishni tashkil etuvchi, ishlab chiqarishni boshqaruvchi – omilkor insondir, xavf-xatardan, javobgarlikdan qo’rqmaydigan, yangilikka intiluvchan kishidir

***Tadbirkorlik faoliyati***- mulk va mulkiy javobgarlikka ega bo’lgan, amaldagi qonunchilikka boysunadigan, mahnat faoliyatidan foyda olishga intiladigan kishilarning iqtisodiy harakatlar majmuasidir

***Tadbirkorlik belgilari***- mulkchilikka tayanadi; pul topadi, foyda oladi va boy bo’lishi, risk qilishi, noyob qobiliyati, yaratuvchilik, sabr-toqat, raqobatbardoshlik va, ahloqiy qoidalar va boshqalar. Mulkchilik – xususiy, jamoa-guruh va davlat mulkchiligiga asoslanadi. Foyda olish, pulni ko’paytirish uchun tovarlar ishlab chiqarish va uni turli bozorlarda sotish, iste‘molchilarning talab-ehtiyojini qondirish kerak. Risk qilinganda har qanday xavf-xatalardan qo’rqmaydi. Bunda boy bo’lik yoki sinib xonavayron bo’lish ehtimoli mavjud bo’lib turadi. Raqobatbardoshlik - ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko’rsatuvchilar va xaridorlar o’rtasida doimo olib borayotgan faoliyatlari boyicha bellashuv amal qiladi. Yaratuvchilik novatsiya (yangilik) yaratishga intilik va unga moyillki bildirish, aks holda raqbatda g’olib chiqish mumkin bo’lmaydi. Sabr-toqat - maqsad yo’lida shoshma-shosharlik qilmaslik kerak

*Tadbirkorlik tizimi*:

| | |
|---|---|
| ***tadbirkorlik ob'ekti*** **–** | tovar ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, pulli xizmat ko'rsatish kiradi |
| ***tadbirkorlik sub'ekti*** **-** | yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar |
| ***tadbirkorlik qonun-qoidalari*** **-** | yozilgan qonun-qoidalar, yozilmagan qonun-qoidalar |
| ***tadbirkorlikning ahloqiy me'yorlari*** **-** | davlat o'rnatgan me'yorlar, odat yo'liga kirgan me'yorlar |
| ***tadbirkorlik siyosati*** **-** | davlat siyosati, tadbirkorlarni o'zlarining siyosati |
| ***tadbirkorlik infratuzilmasi*** **-** | ishlab chiqarish infratuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, tijorat infratuzilmasi, tadbirkorlarning nodavlat uyushmasi |
| ***Tadbirkorlik turlari*** **-** | xususiy tadbirkolrlik, individual tadbirkorlik, korporativ (guruhiy) tadbirkorlik, jamoaviy-ruguhiy tadbirkorlik, davlat tadbirkorligi mavjuddir. Bulardan tashqari, oshkora tadbirkorlik va yashirin tadbirkorlik turlari ham bor |
| ***Tadbirkorlik toifasi*** **-** | bu tadbirkorlik qiluvchilarning birgalikda uyushmasi (toifasi) bo'ladi. Toifa – o'z faoliyatidan foyda oluvchi tadbirkorlar, foyda olish bilan o'z ishidan qoniqiy oluvvi tadbirkorlr, yuqori foyda olish va biznes olamida hukmron bo'lgan tadbirkorlar (biznesda super elitani hosil qiladilar) |
| ***Industrial biznes*** **-** | bu sanoat, qurilish, aloqa va transport sohasidagi tadbirkorlikdir |
| ***Agrobiznes*** **-** | bu qishloq xo'jaligida tadbirkorlikdir. U fermer va dehqon xo'jaliklari ko'rinishida bo'ladi |
| ***Servis biznesi*** **-** | bu aholiga xizmat qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unga ta'lim, tibbiyot, sport, turizm, madaniy-maishiy sohalar kiradi |
| ***Kichik tadbirkorlik*** **-** | kichik korxonalar, mikrofirmalar, mayda fermer va dehqon xo'jaliklaridan iborat bo'ladi |
| ***O'rta tadbirkorlik*** **-** | faoliyati o'rtacha korxonalar va fermer xo'jaliklari kiradi |
| ***Yirik tadbirkorlik*** **-** | yirik firmalar, korporatsiyalar, katta fermer xo'jaliklaridan tashkil topadi |
| ***Firma*** **-** | bu xo'jalik yuritish va tijorat qilish (yuritish) shakli bo'lib, mahsulotlar, xizmatlar yaratadi va iste'molchilarga taklif qilish uchun bozorga chiqaradi |

***Firmalarning tashkiliy-huquqiy shakllari*** - firma(korxona) va individual yakka ko'rinishda bo'ladi. Firma(korxona) yuridik maqomga ega bo'lgan shaxslar, individual shakli – jismoniy shaxslarga xos bo'lgan tadbirkorlikdir

***Firmalarning iqtisodiy uyushmalari*** - firmalar uyushmasi, tadbirkorlar toifasining uyushmasi ko'rinishida bo'ladi

***Firmalar uyushmasi*** - turli faoliyat bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan firmalarni o'zaro birlashuvidir

***Tadbirkorlar uyushmasi*** - bu uyushmaga sanoatchilar, tijoratchilar, banklar kiradi. Bu yo'ldagi tadbirkorlarning umumiy manfaati foydani ko'proq olishdir, ular nodavlat uyushmalarni tashkil etadi

***Firma*** - tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxona bo'lib, uning quyidagi turlari mavjud: individual xususiy firma -individual firma, oilaviy firmadan iborat. Shirkat firma - ma'suliyati cheklanmagan kooperativ firma shaklida bo'ladi, ma'suliyati cheklangan firma aktsionerlik jamiyatlari kiradi. Davlat firmasi.

***Xususiy firma*** - xususiy mulkka asoslangan ayrim kishilar va oilalar faoliyatidir. Bunga misol tariqasida do'kon, magazin, kichik korxonalarni ko'rsatish mumkin

***Shirkat firma*** - sherikchilik asosida tashkil etiladigan firmalar bo'lib, foyda ular o'rtasida kelishilgan holda taqsimlanadi.

***Firmalarning belgilari*** – partnyorligi (sherikchiligi) – firmalarning kichik kapitallarini qo'shilishi asosida tashkil qilinadi. Tadbirkorlik riski (tavakkalchiligi) bo'lib, bu risk tadbirkorlarga yuklatiladi. Foydani sheriklar birgalikda o'zlashtiradilar

***Ma'suliyati cheklangan firmalar*** - firmalar kapitallari sheriklar mulki hisoblanadi. Korxonani tashkil qilishdv dastavval qoyilgan mablag'i Ustav kapitali deyiladi

***Ma'suliyati cheklangan firmalar*** – sheriklar kapitaliga asoslanadi va foyda ular o'rtaisda taqsimlanadi, lekin javobgarligi cheklangan bo'ladi. Firmalarning ma'suliyati cheklanganligi shundan iboratki, ular majburiyatlariga o'zining Ustav kapitali chegarasida javob berishidir

***Aktsionerlik jamiyatlari***- ma'suliyati cheklangan firmalarning ko'p tarqalgan shaklidir. Bunday korxonalar aktsiya chiqarib sotadilar. Aktsiyani sotib olganlar aktsionerlar deyiladi. Korxonada topilgan foydaning bir qismini dividend (ulush) sifatida oladilar. Aktsionerlik jamiyatlari yopiq va ochiq bo'ladi. Yopiq jamiyatda aktsiya faqat shu korxoanadagi xodimlarga sotiladi. Korxonada foyda yaratilmasa

dividend olinmaydi. Ochiq jamiyatda aktsiyalar xohlagan kishilarga sotiladi. Ularga dividend berilishi shart

***Davlat firmalari*** - davlat mulki hisobidan tashkil qilinadi va uning nazorati ostida faoliyat ko'rsatadi

***Aralash firmalar*** - turli mulkchilikning sherikchiligi asosida tashkil qilinadi. Ularga xorijiy va milliy kapital, mamlakat ichidagi turli mulkchilikka sohiblarini mablag'lar ham sohiblarining mablag'lari ham ishtirok etishi mumkin. Turli mulkchilik qorishmasida tashkil topgan korxonalarni qo'shma korxonalar nomi bilan yuritiladi

***Kichik biznes*** - kapital faqat birinchi darajali sohalarga sarflanadi. Bunga sanoat va qurilish tarmog'ida yangi tashkil etilgan korxonalar kiradi. Bu ham tadbirkorlik turlaridan biridir

***Shaxsiy tadbirkorlik*** - har bir insonning shaxsiy mulkiga asoslangan bo'lib ishlab chiqarishni tashkil qilinishi o'z mulki va o'z mehnatiga yoki oila a'zolarini mehnatiga tayanadi

***Kapital*** - Iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish omillari harakati tufayli yaratilgan yangi qiymat, o'sib-ko'payib kelgan qiymat ma'nosini, mazmunini bildiradi. Ishlab chiqarish omillari o'z holiga kapital bo'la olmaydi. Ya'ni, mehnat predmeti, mehnat qurollari va ishchi kuchi - bu iqtisodning ilmiy tayan tushunchalarini bidiradi. Agar mehnat predmeti, mehnat qurollari va ishchi kuchi birikib, ishlab chiqarishda yangi qiymat yarata olsa – kapitalga aylanadi. Kapital o'sib, ko'payib kelgan qiymatdir, uni ishchi kuchi yaratadi. Kapitalni mashina yoki xom ashyo yaratmaydi, balki uni harakatga keltiruvchi ishchi kuchi yaratadi. Ko'p hollarda pulni kapital deb aytiladi. "Kapital" so'zi lotincha "kapit" – bosh (ko'pchilikda kapita) so'zidan olingan bo'lib, "chorva" so'zi bilan bog'liq, chunki chorva mol boshiga qarab hisoblangan. Kapital ikki qismga asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi

***Asosiy kapital*** - bu ishlab chiqarish vositalari –mashina, asbob-uskunalar, inshootlar va boshqalarning bozor narxidagi qiymati bo'lib, ular yordamida yaratilgan tovar va xizmatlar narxiga bu qiymat birdaniga emas, balki uzoq vacht davomida qisman-qisman bo'laklarga bo'lib o'tkazilib boriladi va to'la tiklanadi. Masalan, stanokning qiymati 100,0 ming so'm tursa va ishlab chiqarishda 10 yil xizmat qilsa, har yili uning qiymatining 1/10 bo'lagi yaratilayotgan tovarga ko'chadi va shu muddatda to'la tiklanishi kerak

***Aylanma kapital*** - ishlab chiqarish va xizmat larga ishlatilib, uning bozor qiymati yaratilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlarga bir yo'la to'lig'icha o'tkaziladi. Masalan, xom ashyo, yoqilg'i, elektroenergiya, butlovchi qismlar, ish kuchi qiymatlari bular jumlasidandir

***Tadbirkorlik kapitali*** - tadbirkorning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar,

tovarlar va pul mablag'lariga ega bo'lishidir va ular yordamida yangi qiymat yaratilishidir

***Doimiy xarajatlar*** - ishlab chiqarishda faoydalanilganda uning miqdori va qiymati o'zgarmay qolaveradi. Masalan, ishlab chiqarishda ishlariladigan bino, bankdan olingan qarz, buxgalterga bir oyda to'lanadigan ish haqi ishlab chiqarishning oz yoki ko'p bo'lishiga qarab o'zgarmaydi, balki qanday bo'lsa, shundayligicha qolaveradi

***O'zgaruvchan xarajatlar*** - ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki kamayishiga bog'liq bo'ladi, Masalan, gazlama, ip, tugmalar, ishchi xodimga to'lanadigan ish haqi va hokazo

***O'rtacha xarajatlar*** - mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish birligi uchun qilinadigan sarflar yig'indisidan iborat bo'ladi

***Marginal xarajat*** – bu qo'shimcha ravishda so'nngi mahsulot, ish va xizmat birligi uchun ketadigan qo'shimcha sarflar jamisidir

***Xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar*** - bu ishlab chiqarish ko'lamini o'zgartirish, resurslarni tejab ishlatish, resurslar narxi va soliqlardan iborat bo'ladi

***Obligatsiya*** - foaiz olish sharti bilan pul qoyilganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir

***Qimmatli qog'ozlar*** - pul egasi pulini nominal qiymati hisobidan beriladigan va pulga ekvivalent bo'lgan qog'ozdir. Masalan, chek, veksel, banknot, aktsiya, obligatsiya, akkreditiv, plastik kartochka shular jumlasidandir

***Daromad*** - Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning mahsulot va xizmatlarini sotganlaridan olgan pul mablag'lari daromadni tashkil qiladi. Daromad xarajat bilan taqqsolab ko'riladi

***Yalpi daromad*** - bir yilda firma (korxona) tadbirkorni topgan pul tushumlaridan iborat bo'ladi. Bu pul tushumlar tovarlar, xizmatlar va bajargan ishlari hisobidan hosil bo'lgan pul tushumlaridir

***O'rtacha daromad*** - tovar va xizmat birlgini sotishdan topilgan pul bo'lib, u yalpi daromad (Yad) ni sotilgan tovar va xizmatlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi

***Marginal daromad*** - bu qo'shimcha tovar birligini sotishdan kelgan qo'shimcha pul mablag'lar summasidan iborat bo'ladi

***Foyda*** - bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarni topgan pul daromadlari bilan sarf qilingan xarajatlar o'rtasidagi farqdan tashkil topadi Foyda ikki qismdan iborat bo'ladi. Me'yoriy foyda va iqtisodiy foydadir

***Foyda turlari*** - Me'yoriy foyda, iqtisodiy foyda, omad foydasi

***Me‘yoriy foyda*** - bu ishlab chiqarishga sarf qilingan xarajatlar hisobidan belgilangan foydadir. Bu foyda tadbirkorning qobiliyati yoki uddaburonligi tufayli yaratiladi. Albatta, bu foyda ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibiga kiritiladi. Bu foydadan tadbirkorga ish haqi, yollanib ishlaydiganlarga ish haqi beriladi

***Iqtisodiy foyda*** - bu ishlab chiqarishga sarf qilingan xarajatlarni qoplagandan ortib qolgan daromad bo’lib, uni sohibkorning kapitali yaratadi. Bu daromad kapital egasiga tegishli bo’ladi

***Omad foydasi*** - bu narxlarni ko’tarilishi tufayli hosil bo’ladi. Bunga hamma firmalar erisha olmaydi. Masalan, neft narxning oshishidan hosil bo’lgan omad foydasini neft kompaniyalari oladilar.

***Rentabellik*** - bu iqtisodiy kategoriya bo’lib, ishlab chiqarishga sarf qilingan xarajatlardan olingan foydaning ko’rsaktichidir. Yoki qilingan xarajatlarni samaradorligini bildiradi. Rentabellik foyda normasi (Rn) ham deb yuritiladi

***Foydani maksimumlashtirish*** - bu imkoni boricha ko’proq foyda olishga intilishdir. Bu esa foydaning normasini, ya‘ni rentabellikni oshirishni va kpitalni ko’paytirib ishlab chiqarish ko’lamini kengaytirishni talab chiqaldi. Foydani maksimumlashuvi korxonaning rentabellik darajasi hamda investitsiya qilingan kapital hajmiga to’g’ri mutanosiblikda bo’ladi

***Zarar*** - bu iqtisodiy kategoriya bo’lib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishga ixtisolashgan firma (korxona) lar o’z faoliyatlariga sarf qilgan xarajatlarini qoplay olmasliklarini bildiradi. Masalan, firma tovar mahsulotlari ishlab chiqarishga 10 mln. so’m sarf qiolgan bo’lsa, tovarlarini sotgandan tushgan pul summasi 8 mln. so’mni tashkil qilsa, u 2 mln. so’m zarar ko’radi. Zarar ko’rishning sabablari ikkiga bo’linadi: ichki va tashqi sabablar. Ichki sabablar firmaga bog’liq bo’ladi, tashqi sabablar firma faoliyatiga bog’liq bo’lmaydi. Bozorga kerakli tovarlarni o’z vaqtida yetkazib bera olmaslik, xarajatlarni ko’payib ketishi ichki sabalar bo’ladi. Bozor holatining o’zgarishi, soliqlarning birdaniga oshib ketishi, firmaga tashqaridan beriladigan yordamning (dotatsiya va subsidiya)ni to’xtatib qoyilishi tashqi sabablar bo’ladi. Zarar me‘yordan oshib ketganda firma bankrotga uchraydi va u tugatiladi

***Bankrotlik*** - firma (korxona)ning zarar ko’rib ishlashi natijasida shartnoma asosida boshqa tashkilotlar bilan ish yuritganda ularga to’lov majburiyatlarini qaytara olmasdan yopilib ketishini bildiradi, ya‘ni, firma sinadi. Firma singanda u tugatiladi, yopiladi, unga qarashli mol-mulk sotiladi yoki boshqa firmaga qo’shilib ketadi

***Tadbirkorlik riski*** - firmaning iqtisodiy maqsadiga yoki boshqa maqsadiga erishishi yo’lidagi xaf-xatar yoki tavakkalchilikka qo’l urishini bildiradi

***Simmetrik axborot (informatsiya)*** - bozordagi ahvolni, vaziyatni, holatni to’liq aks ettirishidir. Masalan, bozor signali narxning ortib borishi haqida xabar beradi. Masalan, muayyan tovar birligi narxi $R1 < R2 < R3 ... < Rp$ va hokazo ko’rinishida bo’ladi

***Assimetrik axborot*** - bu bozordagi holatni borligicha to’la to’kis aks ettrimasligini bildiradi. Masalan, dastlab $R1 < R2 < R3 ... < Rp$ bo’lgan bo’lsa, birdaniga u keskin kamayib $R1 > R2 > R3 ... > Rp$ bo’lib qoladi, ya‘ni $Rp < R1$ hosil bo’lib qoladi

***Riskka munosabat*** - riskka (xavf-xatarga) borish tabiiy, lekin uni boshqarish mumkin. Bu riskka har xil munosabatda bo’lishni bildiradi. Ya‘ni, riskka qo’l urmaslik, riskka befarq bo’lik, riskka borish, riskka bormaslik va hokazo

***Riskni kamaytirish*** - avvalo ishlab chiqarish diversifikatsiyalanadi, risk sheriklar o’rtasida taqsimlanadi, firmaning xavf-xatari sug’urtalanadi

***Narx*** - ishlab chiqarilgan mahsulotlarning birorta birligi yoki ma‘lum hajmi qiymatini tovar ko’rinishidagi ifodasi uning bahosi yoki narxi deyiladi. Yoki boshqacha aytganda, tovarlar qiymatining puldagi ifodasi uning narxini bildiradi

***Bozor narxi*** - tovar sotuvchi bilan tovarni sotib oluvchi (xaridor) o’rtasida o’zaro kelishilgan narx - bu bozor narxi hisoblanadi

***Narxning vazifalari*** - narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalarida ko’rish mumkin. Shu bosidan narx beshta vazifani bajaradi. 1. Bozor muvozanatini ta‘minlaydi, ya‘ni talab bilan taklif o’rtasidagi muvozanatga bevosita ta‘sir ko’rsatadi. Masalan, taklif talabga nisbatan kamayib ketsa, narx ko’tarilib ketadi va aksincha bo’ladi. 2. Hisob-kitob va o’lchov vazifasini bajaradi, ya‘ni tovarlarni ishlab chiqarishda sarf qilingan xarajatlar, olingan daromadlar, topilgan foyda, ko’rilgan zarar, ish kuchi qiymati va hokazolar. 3. Iqtisodiy tartiblovchi vazifa – bozorda talab bilan taklif o’rtasidagi nisbat narx vositasida ifoda etiladi, ya‘ni agar bozorda talab taklifga nisbatan yuqori bo’lsa, narxlar ko’tarilib ketadi. Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) katta daromad oladilar, bozorlar tovarlar bilan to’ldiriladi, natijada narx pasayadi, talab va taklif o’rtasida muvozanat holat vujudga keladi. 4. Raqobat vositasi - ishlab chiqaruvchilar, firmalar, tadbirkorlar va boshqa sub‘ektlar o’rtasidagi raqobat kurashi narx vositasida ham amal qiladi. Ular raqobat kurashida yengishi uchun narxlarni pasaytirishga moyillik qiladilar. Buning uchun esa ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar birligiga sarf qilinayotgan moddiy va mehnat xarajatlarini qisqartirishlari lozim bo’ladi. 5. Ijtimoiy (sotsial) himoyalash – bunda davlat aholining kambag’al va nochor qatlamini ijtimoiy himoyalash maqsadida ayrim turdagi tovrlarga dotatsiyalashgan narxlar (arzonlashtirilgan) ni belgilaydi. Ya‘ni oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechaklar narxi arzonlashtirib beriladi

***Narxlarning tashkil topishi*** – bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarning shakllanishi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi: 1. Qiymat. 2. Talab va taklif. 3. Tovarning nafliligi. 4. Raqobat. 5. Aholining daromadining darajasi

***Narxga ta'sir etuvchi omillar*** – xarajat, talab va taklif, raqobat

***Xarajat*** - narxning shakllanishining umumiy asosi hisoblanadi, chunki sarf-xarajatsiz biron bir tovarni yoki xizmatni yaratib bo'lmaydi

***Talab va taklif nisbati*** - talab ko'paysa narx oshadi, talab kamaysa narx pasayadi. Aksincha, taklif ko'paysa narx tushadi, taklif kamaysa narx oshadi

***Raqobat muhiti*** - raqobat kuchli bo'lsa narx pasayadi, agar u cheklansa narxni ortishiga olib keladi. Raqobat narxga taklifni ko'paytirish orqali ta'sir qiladi

***Narxlarning quyi chegarasi*** - bu aholining xarid (sotib olish) qobiliyati hisoblanadi. Narxlar past va yuqori chegara oralig'ida tebranadi

***Erkin bozor narxlari*** - bu talab va taklif asosida vujudga keladi, raqobat erkin bo'ladi. Sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lganida har biri o'z narxini o'rnata olmaydi

***Monopol bozor narxlari*** - bunda bozordagi sotuvchi hukmronlik qiladi. Ya'ni sof monopoliya bozorida tovarlar taklifi bir qo'lda to'planadi, sotuvchilar raqobati bo'lmaydi. Narxlar odatla marginal xarajatlarga yaqin tursa-da, bu bozorda narxni marginal xarajatlardan ancha yuqori belgilash imkoniyati paydo bo'ladi

***Monopol raqobatli bozordagi narx*** – bunda monopoliyalar ko'p bo'ladi. Narx belgilashda haddidan oshib ketish bir muncha cheklanadi. Narx marginal xarajatlardan biroz yuqoriroq belgilanadi, chunki monopol hukmronlik amal qiladi. Ustama foyda unchalik ko'p bo'lmaydi

***Oligopoliya bozoridagi narx*** - bunda ozchilik tovar ishlab chiqaruvchilar – firmalar hukmron bo'ladi va narx belgilashda ikki xil usul qo'llaniladi. 1. Firmalar narxni bozorga qarab o'rnatadilar, raqobat hisobga olinadi. Narx belgilashda peshqadamlik qoidasiga amal qiladi. Masalan, avtomobil bozorida " Krayler" peshqadam narxni o'rnatsa, shunga qarab "Ford" va "Jeneral Motors" kompaniyalari o'z narxini o'rnatadi. 2. Firmalar narxni til biriktirib, kelishib belgilaydilar. Bunda kartel bitimi kelib chiqadi, ya'ni har bir ishtirokchi qancha tovarni sotuvga chiqarishi (kvotasi) ni belgilab beriladi. Narxni qanday oraliqda belgilash ham kelishib olinadi

***Monopsoniya bozoridagi narx*** - narxni sotuvchi emas, balki xaridor belgilaydi, chunki bu yerda xaridor yagona bo'ladi

***Narxlarni turlarga ajratish mezoni*** - bu narxlarni shakllanish mexanizmi, amal qilish sohalari va miqyosi, narxni qo’llashdan kutilgan maqsadlarni o’z ichiga oladi

***Narxlarning shakllanish mexanizmi*** - bu erkin va monopollashgan narxlar hisoblanadi

***Narxlarning amal qilish jihati*** - ulgurji va chakana narxlardan iborat bo’ladi

***Ulgurji narx*** - sotuvchi bilan sotib oluvchi o’rtasidagi tovarlarni bir yo’la ko’tarasiga sotish va sotib olishdan iboratdir. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchi uchun xarajatlarni qoplash va ma‘lum miqdorda foyda olishni ta‘minlashi kerak. Ulgurji narxlar tovar birjalarida, savdo uylarida yoki sotuvchi bilan xaridorning bevosita kelishuvida qo’llaniladi. Bu kelishuv kontrakt (shartnoma) narxi shaklida amal qiladi. Dehqon bozorlaridagi ulgurji savdoda kontrakt narxlarisiz ko’tarasiga savdo qilish mumkin. Bunda tovarlar og’zaki kelishilgan narxlarga sotiladi

***Chakana narxlar*** - tovarlar va xizmatlar bevosita iste‘molchilarga, aholiga sotiladi. Chakana narxga ulgurji narx, savdo qiluvchi firmaning xarajatlari va oladigan foydasi kiradi

***Maxsus arzonlashtirilgan chakana narxlar*** - bu narx bilan tovarlar muhtojlarga xayr-ehson tariqasida sotiladi

***Standart narxlar*** - bu ma‘lum davrda o’zgarmay turadigan narxlardir. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati narxi, konfet narxi (konfet narxi o’zgarmagani holda uni oddiy qog’ozga o’rash, arzon paketga joylash, qadoqlashni sodda qilishga o’tiladi

***O’zgaruvchan narxlar*** - sharoitga qarab tez-tez qaytadan belgilab turiladi. Bunday narxga ta‘sir etuvchi omillar, xususan, xarajatlarda o’zgaishlar, raqobat sharoiti, talabdagi siljishlar e‘tiborga olinadi

***Mavsumiy narxlar*** - mavsumga qra o’zgarib turadigan meva-sabzavot, sut-qatiq va kiyim-kechaklar narxi shular jumlasidandir. Bu narxlar yilning to’rt fasliga qarab o’zgarib turadi

***Preyskurant narxlar*** - bu sotuvchi uchun mo’ljal narx, xaridor uchun esa bildirgich yoki ma‘lumotnoma narx hisoblanadi

***Yashirin narx*** - bu siylov narxi bo’lib, u sir tutiladi. U garchand man etilsada, lekin raqobatda qo’llaniladi

***Dotatsiya narxi*** - bu davlat byudjetidan qo’llanildaigan narxlar bo’lib, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida ayrim tovarlar va xizmatlar arzonlashtirilgan narxlarda sotiladi. Zarar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, ba‘zi kommunal xizmatlar (elektroenergiya, gaz, suv to’lovlari)

***Mintaqaviy, hududiy, milliy va xalqaro narxlar*** - mavjud bo’lib, hududiy narx unga ta‘sir etuvchi omillarning ma‘lum hudud doirasida amal qilishidan hosil

bo’ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiladi. Mitlliy narxda raqobat, sarf-xarajatlar, talab va taklif hisobga olinadi. Jahon bozori narxida tovarga ketgan internatsional sarf-xarajatlar, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasi, talab va taklif nisbati, raqobat darajasi hisobga olinadi

***Narxlar pariteti*** - narxlar turli ko’rinishlarda bo’lsa-da, ular uchun umumiylik va o’zaro bog’liqligi iqtisodiyotda narxlar pariteti (nisbati) hodisasini keltirib chiqaradi. Narxlar nisbati tovar ayirbosh qilinganda hosil bo’lgan miqdoriy tenglik narx pariteti bo’ladi

***Miqdoriy tenglik*** - iqtisodiyotni yagonaligi narxlar zanjirli reaktsiya kabi bir-birini yuzaga chiqaradi. Masalan, ruda narxi metall narxiga, metall narji tikuv mashinasi narxiga, mashina narxi kiyim narxiga kiritiladi, chunki bu narxlar xarajatlarni shakllantiradi

***Kon‘yunktura*** - bu bozorning holatini bildiradi, ya‘ni bozorda tovarlar va xizmatlar qanday miqdorda, qanday narx bilan sotilishini bildiradi

***Mutlaq daraja*** - bu narxning umumiy summasini bildiradi va har bir tovarning qancha turishini ko’rsatadi

***Nisbiy daraja*** - bu narxning xarid qobiliyatiga nisbati, undagi hissasidir. Masalan, fermerning bir oyda topgan puli 40000 so’m desak, bir kilogramm go’shtning narxi o’rtacha 2000 so’m bo’lsa, guo’t narxining bir oylik daromadda hissasi 5 foiz bo’ladi

***Demping narx*** - bozorga kirib borish va raqiblarini so’rib chiqarish uchun qo’llaniladigan pasaytirilgan narxdir. Bu narx bozorga kirib olish narxi deyiladi

***Narxlarni pasaytirish*** - yangi bozorlarni egallab olish uchun qo’llaniladigan narxdir. Bunda ommabop tovarlar ko’p miqdorda sotiladi va foyda olish ko’payadi

***Nufuzli narx*** - bu puldorlarga mo’ljallangan yuqori narx bo’lib, xaridor tanlagan va saylagan tovarlar ishlab chiqarilib, ularga taklif qilinadi

***Diversifikatsiyalash*** - bu firmalar tomonidan narxlarni tabaqalashtirish yo’lidan borishini bildiradi. Ya‘ni narxlar xaridorning qurbiga, qancha tovarni sotib olishiga, uning doimiyts xaridor bo’lishi yoki bo’lmasligiga, tovarning mavsumiyligiga qarab har xil belgilashdir

***Narx diapazoni*** - bu narxlar farqining miqdoriy ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o’rtacha va yuqori narxlardan tashkil topadi

***Raqobat*** - bu iqtisodiy kategoriya bo’lib, ko’p foyda olish, foyda normasi va massasini ko’paytirish uchun tovar va xzmatlar ishlab chiqaruvchilarning o’rtasidagi beg’araz kurash va o’zaro bellashuvdir

***Mukammal (erkin) raqobat*** - bu bozorda tovarlarni sotuvchilar va xaridorlarni sonlarining ko'p bo'lishini, ulardan hech biri tovar yoki xizmat narxiga ta'sir etolmasligini bildiradi. Savdo-sotiq erkin bo'ladi

***Nomukammal raqobat*** - bunda sotuvchilar yoki xaridorlar narxlar darajasiga mustaqil ta'sir ko'rsata oladilar. Bu bozordagi vaziyat bo'lib, sof monopoliya, oligopoliya, monopol raqobatning ko'rinishidir

***Sof monopol raqobat*** - bunda tovarlar va xizmatlarni faqat bitta ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqaradi va bozordagi vaziyatni hal etadi

***Monopol raqobat*** – bunda ko'pchilik firmalar tabaqalashtirilgan tovarlarni sotadilar. Bozorga kirish erkin, narx ustidan nazorat bo'ladi, bu bozorga ko'p narxdan xoli bo'lgan raqobat hukmron bo'ladi

***Monopsoniya*** - bunda bitta xaridorga ko'p sonli sotuvchilar qarama-qarshi bo'lib, bozorning vaziyatini hal etadi

***Oligopoliya*** - bunda raqobatd ko'p bo'lmagan, lekin yirik firmalar ishtirok etib, ular ishlab chiqarishni yo yoki bu sohalarini o'z qo'llarida to'playdilar va ishlab chiqarilgan tovarlar sotishni ham o'z ixtiyorlarida saqlaydilar

***Duopoliya*** - raqobatning bir turi bo'lib, oligopliyaning sodda ko'rinishidir. Bu iqtisodiy hamkorlikda ikki firma kelishib bitim tuzadi va kartelni tashkio qiladi. Tuzilgan bitimga ko'ra har ikki tomondan biri qancha va qanday tovar ishlab chiqaradi, qanday narxda sotishini oldindan belgilab oladilar

***Raqobatbardoshlik*** - bu bozor tizimiga xos bo'lgan va uni harakatga keltiruvchi vositalaridan biri sifatida tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning o'zaro bellashuvlarida bardosh berishlik qobiliyatidir. Bunda uch narsa e'tiborga olinadi. Birinchisi, tovarning raqobatga bardosh bera olishi, ikkinchisifirmaning raqobatbardoshligi, uchinchisi, mamlakat iqtisodiyotini raqobatda o'z o'rnini topishi

***Raqobatdosh tovar*** - bu bozorga keltirilgan tovar va xizmatlar o'zining sifti, narxi, chiroyli, bejirim ko'rinishi kabi xususiyatlari blan xaridorlar didiga mos kelishi va ular qoygan talablarga javob bera olishidir

***Bozor hokimiyati*** - bu bozor kontsentratsiyasi (takomillashuvi) kuchli bo'lganda sodir bo'ladi, ya'ni bozorda biron-bir firmaning hukmronligi ta'minlansa, tovar yoki xizmat taklifi ham shu firmaning qo'lida bo'ladi, firma faqat resurs bozorida raqobatlashadi

***Bozor hokimiyati koeffitsienti*** – bozordagi amal qilib turgan narxlarning marginal xarajatdan naqadar yuqori bo'lishini ko'rsatadi

***Raqobat maydoni*** - bu bozor bo'lib, unda raqobat ishtirokchilari sotuvchilar-ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilar, xaridorlardan iborat bo'ladi

***Raqobat qonuni*** - bu bozor iqtisodiyoti qonunlaridan biri bo'lib, bozorning shakllanishi, rivojlanishi, takomillashuvi va kasod bo'lishida namoyon bo'ladi. Raqobat ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar, xarid qiluvchilar, sotib oluvchilar, iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro bellashuvdir. Sub'ektlarning o'z faoliyatlari yo'li bilan foyda olishlariga intilishlari raqobat kurashi qonuni deyiladi

***Raqobat usullari*** - bu narxni o'zgartirish, tovar sifatini oshirish, yangi texnologiyalarni qo'llash, bozorlarga egalik qilish, servis xizmatini yaxshilash, reklama kabilardir

***Raqobat shakllari*** - bu sof (erkin) raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir

***Tarmoq ichidagi raqobat*** - bir xil tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi bellashuvdir. Masalan, g'alla, paxta, sabzavot, poliz, chorva mahsulotlari kabilardir

***Tarmoqlararo raqobat*** - tovar ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning o'z mablag'larini eng foydali tarmoq sohalariga joylashtirish uchun bo'ladigan kurashdir

***Defitsitli bozor*** - bu xaridor o'rtasidagi raqobat maydonidir. Ya'ni bozorga arzonlashtirilgan tovarlar kiritilganda, xaridorlar ko'proq sotib olishga intiladilar

***Mehnat bozoridagi raqobat*** - bu malakali ishchilarni yollovchilar o'rtasida amal qiladi va ular ko'proq malakali, tajribali ish kuchini sotib olishga intiladilar

***Moliya bozoridagi raqobat*** - bu qimmatli qog'ozlarni ishlab chiqargan sotuvchilar o'rtasida yuzaga chiqadigan raqobat bo'lib, ular qulay sharoit va qulay narxlarda sotish va o'z faoliyatlariga ko'proq mablag'ni kiritishga intilishdir

***Pul bozoridagi raqobat*** - bu banklar va parobank (bankdan tashqari) tashkilotlar qatnashadigan bozor bo'lib, unda mijozlar pulini ko'proq bank depozitlariga jalb etish va uni qarz oluvchilarga qulay shartlar bilan berish qo'lidagi raqobat kurashidir

***Davlat bozoridagi raqobat*** - bunda asosan xaridorlar qatnashadigan va davlat buyurtmasini olish maqsadida firmalar o'zaro raqobatlashadilar. Ular davlat o'tkazadigan tenderlar (maxsus ulgurji savdo) da o'zlarining takliflari bilan qatnashadilar

***Jahon bozoridagi raqobat*** - bunda yirik firmalar qatnashadi, oddiy xaridor –iste'molchi qatnasha olmaydi, davlat o'z milliy firmalariga yordam beradi

***Bozor to'siqlari*** - bu ishlab chiqarish miqyosi keltirib chiqaradigan to'siqlar bo'lib, unga moliyaviy, patent va litsenziyalar, xom ashyo yo'lidagi to'siqlar, g'irrom raqobat kabi to'siqlar amal qiladi

***Antimonopol siyosat*** - bu davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosati bo'lib, unga erishish uchun mulkni xususiylashtirish, davlat mulkini mulkchilikning boshqa shakllariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda raqobatni inkor etuvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishni bildiradi

***Antimonopol qonunchilik*** - bu monopoliyaga (tanho hukmronlikka) qarshi qaratilgan qonundir. O'zbekistonda "Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida"gi Qonun (avgust 1992 yil) qabul qilindi va kuchga kiritildi. Ushbu qonun bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarni bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llashni man etadi

***Raqobatchilik muhiti*** - raqobatni domiy, uzluksiz va cheklanmagan holatida unga shart-sharoitlar yaratilishi va barcha to'siqlarni man etilishidir

***Raqobat strategiyasi*** - bu raqobatni shakllantirish, uzluksizligini ta'minlash, maydonini kengaytirish, raqobatbardosh muhitni yaratishga qo'llaniladigan nazariy yo'l-yo'riqdir

***Partnyorlik*** - firma oldida iqtisodiy tanlov muhiti bo'lsa, u raqobatlashuv o'rniga til biriktirishi, partnyorlik (sherikchilik) qilishi ham mumkin bo'ladi

***Mehnat*** - bu iqtisodiy va domiy kategoriya bo'lib, insonda mujassamlashgan qobilyaitining mjmuidir. Tabiiydirki, inson qobiliyati (mehnati) ishlab chiqarish omillarini harakatga keltirmasa tovarlar va xizmatlar yaratilmaydi

***Mehnat jarayoni*** - kishilardagi aqliy va jismoniy qobiliyatlarini tovarlar va xizmatlar tayyorlash yo'lida ishlatilishidir, ya'ni biron-bir mehnat turida inson mehnati bilan birgalikda yer, suv, turli qurollar, kapital kabi omillarniing birikishida mehnat jarayoni hosil bo'ladi. Masalan, dehqonchilikda, sabzavotchilikda yoki chorvachilikda

***Mehnat resurslari*** - bu mehnatga yaroqli bo'lgan ishchi kuchi omili yoki mehnatga layoqatli inson kapitalini tashkil qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi aholisi 26 mln. bo'lib, shundan 51,6 foizi mehnat resursini tashkil qiladi

***Iqtisodiy faol aholi*** - bu mehnat resurslari tarkibidan ishlayotgan va ishlashga moyil bo'lgan aholini tashkil etadi. Bu degani mehnat resursining bir qismi ish bilan band bo'lsa, ikkinchi qismi esa ishsiz bo'ladi, ammo ular ish qilishga jazm qilgan kishilardir

***Mehnat bozori*** - bu mehnatga layoqatli va ishlashni xohlaydigan kishilar va ularga ish beruvchilar o'rtasidagi oldi-sotdi jarayonlaridagi iqtisodiy munosabatlardir

***Mehnat munosabatlari*** - bu yollanib ishlovchilar va ularni ishlatuvchilar o’rtasidagi o’zo’aro aloqalardan iborat bo’ladi. Bu aloqalar shartnoma usulida yuzaga chiqadi

***Mehnat kontarktlari*** – bu ish beruvchilar bilan yollanib ishlovchilar o’rtasida yakka tartibda tuziladigan shartnomadan iborat

***Jamoa bitimi*** - bu yollanib ishlovchilar jamoasi bilan ish beruvchilar o’rtasida tuziladigan shartnomadir

***Bosh bitim*** - bu yollanib ishlovchilar kasaba uyushmasi va ish beruvchi mulkdor (hukumat) o’rtasidagi bitim (kelishuv) bo’lib, mehnat munosabatlari sub‘ekti – ish beruvchilar va yollanib ishlovchilar, ularning kasaba uyushmalari va davlat o’rtasidagi vloqalarda amal qiladi. Mehnat munosabatlari mamlakat miqyosida belgilanadi va tartiblashtirib turishga xizmat qiladi

***Mehnatga talab*** - mehnat tovar bo’lganligi sababli uni nafliligi, ya‘ni ishlab chiqarish v xizmat ko’rsatishga qo’llashga bo’lgan muhtojlikni bildiradi

***Mehnat taklifi*** - mehnatga bo’lgan talabni qondirish uchun tovar bo’lgan ishchi kuchini tovar bozoriga (mehnat bozoriga) havola qilinishidir

***Mehnat narxi*** - mehnat ham tovar bo’lganligi sababli unga talab uning narxini bildiradi. Mehnatning bozor narxi – ish haqidir

***Mehnatning marginal mahsuloti*** - bu qo’shimcha mehnat bergan qo’shimcha mahsulotdir

***Mehnat bozoridagi muvozanat*** - talab va taklif qonuniga ko’ra mehnat bozoridagi talab va taklif tenglashgan holda mehnat muvozanati yoki muvozanatli narx shakllanadi. Bu muvozanatli ish haqidir

***Ish haqi*** - iqtisodiy kategoriya sifatida ish kuchi qiymatining bozor narxidagi bahosi (narxi) ning puldagi ifodasidir yoki boshqacha ta‘riflaganda, xodimlarning mehnati miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy daromadning zarur mahsulot qismida to’lanadigan puldir. Ish haqi iqtisodiyot nazariyasining ob‘ektiv iqtisodiy qonuni “mehnatga qarab taqsimot qonuni”ga amal qiladi

***Nominal ish haqi*** - pul shaklida hisoblangan ish haqining umumiy summasidir

***Real ish haqi*** - barcha chiqimoarni ushlab qolgandan keyin qo’lga berilgan pul bilan sotib olingan tovarlar va xizmatlar miqdorini bildiradi

***Vaqtbay ish haqi*** - yollanib ishlovchi xodimning ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) ni hisoblab chiqib to’lanadigan ish haqidir. Bu ikki turdan iborat bo’ladi, ya‘ni oddiy vaqtbay va mukofotli ish haqidir

***Bandlik*** – iqtisodiy kategoriya bo’lib, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo’lgan hamda mehnat qilishga xohishi bo’lgan xodimlarning ish o’rinlariga ega bo’lishi va ularni foydali mehnat bilan

shug'ullanishlarini bildiradi yoki kishilarning tovarlar va xizmatlar yaratishlari yo'li bilan daromad topishlarini ifodalaydi

***Bandlik shakllari*** - u miqdoran to'la va to'la bo'lmagan, sifat jihatidan oqilona va nooqilona bandlikdan iboart bo'ladi

***Bandlik darajasi*** – bu ishga yaroqli bo'lgan kishilarning qanchasi ishlab chiqarishda yoki xizmat sohalarida ishlab turishlarini ko'rsatadi

***Ishsizlik*** – bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, ishga yaroqli bo'lgan kishilarning ish kuchiga bo'lgan talabdan ortiqcha qismi yoki ish bilan ta'minlamagan ishchi va xizmatchilarning sonini bildiradi

***Ishsizlik shakllari*** - u quyidagilardan iborat, ya'ni friktsion, tarkibiy, mavsumiy, yashirin, tsiklli ishsizlikdir

***Friktsion ishsizlik*** - mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan xodimlarning ish o'rnini almashtirishi tufoyli vaqtincha bekor bo'lib qolishi friktsion ishsizlikni bildiradi. Ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlar (strukturaviy) bo'lishi natijasida vujudga keladigan ishsizlikdir

***Tarkibiy ishsizlik*** - biron bir tarmoq yoki sohada mavsumiy ishlarning tugashi bilan ishlab turgan xodimlarning vaqtincha bekor turib qolishini bildiradi. Bunga misol tariqasida quyidagi sohalardagi o'zgarishlarni ko'rsatish umkin, ya'ni churilish, turizm, qishloq xo'jaligi, chorvchilik va boshqalar

**Yashirin ishsizlik** - kishilar ish bilan band bo'lsa-da, lekin qisqartirilgan ish kuni yoki haftaning ma'lum kunlarida ishlaydilar, kam ish haqi beriladi, ba'zi hollarda haq to'lanmaydigan ta'tilga chiqariladilar

***Tsiklli ishsizlik*** - agarda ishlab chiqarish tanazzul (krizis) ga uchrasa, ish kuchi mehnatiga bo'lgan talab kamayib, qisqarib ketishi oqibatidir

***Ishsizlik sababi*** - agarda mavjud mehnat resurslarining taklifi unga bo'lgan talabdan oshib ketsa, iqtisodiyotda baqarorlik hukm sursa va ishlab chiqarish inqirozga uchrasa – ishsizlik kelib chiqadi

***Mehnatga bo'lgan talab*** - mamlakat mehnat resurslari hisobidan bozordagi ehtiyojni aniqlash va ishchi kuchining taklifini muvozanatga keltirish yoki jamiyat ehtiyojini mehnat bozorida yuzaga chiqishidir

***Tarif setkasi*** - belgilangan ish toifalari (kategoriyalari) nisbatiga qarab ish haqi to'lashni bildiradi

***Tarif stavkasi*** - belgilangan ish toifasiga ega bo'lgan xodimning mehnatiga to'lanadigan ish haqining miqdorini ko'rsatadi

***Mehnat shartnomasi*** - bu bozor iqtisodiyoti sharoitida yollanuvchi ishchi bilan unga ish beruvchi sub'ekt o'rtasida belgilangan ishni bajarish yuzasidan kelishilgan qog'oz boyicha ishchi kuchini sotish, sotib olish va unga haq to'lashni bildiradi

***Ishsizlik darajasi*** - ishga yaroqli bo'lgan mehnat resurslari (ish kuchi) umumiy soniga nisbatan ishsizlar (ish bilan ta'min etilmaganlar) sonining foizdagi ifodasi bilan aniqlanadi, ya'ni ID = IS / IKUS x 100%. Ish kuchining 96 foizi band qilinganda to'liq bandlilikka erishilishi tan olingan hozirgi davrda iqtisodchilar ishsizlikning "tabiiy darajasi" taxminan 5-6 foizga teng deb hisoblaydilar. O'zbekistonda ishsizlik darajasi – 0.4 foizni tashkil etishi ko'rsatilgan (Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi departamenti ma'lumotlari boyicha aniqlangan

***Bandlik*** – bu mehnatga layoqatli bo'lgan ish kuchi (mehnat resurslari) ning moddiy va nomoddiy (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish) tarmoq va sohalarida ish bilan ta'minlanishidir

***Bandlik shakllari*** - bu to'la va samarali ish bilan band bo'lishini bildiradi. Ish bilan to'la band bo'lik mutlaq tushuncha emas. Masalan, ishga layoqatli barcha kishilarni 100 foiz ish bilan qilish dagan ma'noda tushunilmaydi. Ish kuchining 96 foizi ish bilan ta'minlansa to'liq bandlikka erishildi deyish qabul qilingan. Ish bilan samarali band bo'lish deb mehnat resurslaridan foydalanishning intensivligi tushunilgan

***Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari*** - bu ishlab chiqarilmagan mahsulot taqqoslanib baholanadi. Ya'ni iqtisodiyotda ishlashni xohlagan va ishlay oladigan kishilarga ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratilmasa, u holda tovar ishlab chiqarish potentsiali (imkoniyati)ning ma'lum qismi yo'qotilgan bo'ladi. Bu esa yalpi milliy mahsulot (YamM) hajmining orqada qolishida ko'rinadir, ya'ni haqiqiy YamM < potentsial YamM ko'rinishini bildiradi

***Bandlik darajasi*** – bu ishga yaroqli bo'lgan aholining qancha qismi yoki necha foizi ish bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi

***Ouken qonuni*** - ishsizlik darajasi va YamM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nsbatning metmatik ifodasini bildiradi. Ya'ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YamM hajmining orqada qolishi 2,5 foizni tashkil qilishini ko'rsatadi. Masalan, 1:2,5 bo'lgan bu nisbat, ishsizlikning har qanday darajasi bilan bog'liq ravishda mahsulotning mutlag' yo'qotilish hajmini hisoblash mumkin bo'ladi. Mison: biron bir mamlakatda ishsizlik darajasi 7,5 foizga yetgan yoki ko'zda tutilgan 4 foizli tabiiy darajadan 3,5 foiz ko'p bo'lgan deb olinsa, u holda bu 3,5 foizni Ouken koeffitsientiga (2,5 foiz) ko'paytirib, shu yili YamM hajmining orqada qolishi 8,75 foizni tashkil etganligi aniqlanadi. Shu yili YamMning nominal qiymati 330 mlrd. so'm bo'lgan deb taxmin qilsak, ishsizlikning tabiiy darajasiga erishilmaganligi sababli iqtisodiyotda 29 mlrd. so'mlik (330:8,75) mahsulot ishlab chiqarilmgan bo'lishi mumkinligi kelib chiqadi

***Bozor mexanizmi*** - bu bozor xo'jaligi va uning tizimiga tegishli bo'lgan iqtisodiy kategoriya va qonunlarni birgalikda amal qilishini ta'minlaydigan

iqtisodiy vositalarning jamisidir. Masalan, talab, taklif, tovar narxlari, bozor kon‘yunkturasi, pul, foyda, zarar, foiz, raqobat shular jumlasidandir

***Bozor muvozanati* –** talab bilan taklifni tenglashib bir-biriga mos kelishini va unga narx vositasida erishilishini bildiradi

***Layoqatli bozor* -** ishlab chiqaruvchilar va xarid qiluvchilarning manfaatlarini yuzaga qiarib, ularning talabini, taklifini va ehtiyojini ta‘minlay oladigan bozoni bildiradi

***Layoqatsiz bozor* -** agar bozor iste‘molchilarni qondira olmasa, u layoqatsiz bo’ladi. Bunda bozor mexanizmlari ishlamaganligini bildiradi

***Iqtisodiy signal* -** bu bozordan keladigan narx-navo ma‘lumotidir. Ya‘ni xaridorldar nimani va qancha sotib olishini, ishlab chiqaruvchilar esa nimani, qancha ishlab chiqarishlari kerakligidan xabar oladilar

***Resurslarning taqsimlanishi* -** iste‘mol bozoridagi talab resurs bozoridagi talabni hosil qiladi, uni qondirish uchun esa resurslarni yaratib, ularni bozorga chiqarish signalini beradi. Shuning uchun bozor orqali resurslar taqsimlanib, ular kerakli tovarlarni ishlab chiqarishga yuboriladi. Masalan, bozorda koylak tez sotilib tursa, unga talab elastik bo’ladi, shunga ko’ra koylakni ko’proq miqdorda tikish uchun bozordagi gazlama,tugma, tikuvchilik mashinalarini ko’proq sotib olish lozim bo’ladi. Demak, bozorda resurslarni oqilonga taqsimlash mexanizmi yaxshi ishlashi kerak bo’ladi

***Novatsiya* -** bu ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalariga yangiliklar (texnika va texnologiya)ni joriy etilishi, yangi tovarlar va xizmatlar yaratilishi hamda ularni xaridorlarga taklif etilshini bildiradi

***Restrukturizatsiya* –** bozordagi xaridorlarga yangi tovarlar va xizmatlar taklif etish maqsadida ishlab chiqarishni tarkibiy tuzilishini qayta tashkil etishni bildiradi yoki yangi tovarlar ishlab chiqarishga o’tish degan ma‘noni bildiradi

***Iqtisodiy saralash* –** raqobatda bozor xo’jaligiga xos bo’lgan tushuncha bo’lib, ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmat bozorida sinib ketmaslik va xonavayron bo’lmasliklari maqsadida faoliyat turlarini saralab tanlaydilar. Bu eng avval foyda miqdori, investitsiya imkoniyati, kapital miqdori, qarzni to’lash qurbi, ish haqining har xil bo’lishida namoyon bo’ladi

***Iste‘molchi yutug’i* -** bozordagi kutilgan narx bilan haqiqiy narx o’rtasidagi farq mavjud bo’ladi. Agarda xaridor tovarni o’zi kutgan narxidan arzonroq narxga olishi mumkin bo’lsa, xaridor-iste‘molchining yutug’i bo’ladi. Raqobat bozorda iste‘molchi kutgan narxdan past narxni sodir qilishi mumkin

***Ishlab chiqaruvchi yutug'i*** – agar bozorda xaridorlar soni ko'p bo'lib, ular o'rtasida u yoki bu tovarni sotib olishga talab – raqobat kuchaysa, u holda sotuvchi tovarini o'zi mo'ljallagan narxdan qimmatroq sotishga erishadi. Ana shunda ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) yutuqqa erishadi

***Milliy iqtisodiyot*** - bu mamlakat iqtisodiyotidan iborat bo'lib, uni tashkil etishda firmalar, xonadonlar va davlat ishtirok etadi va ularni mehnat natijalarining umumiy yig'indisi mujassamlashtiradi. Masalan, yer yuzida 200 dan ortiq davlat bo'lab, har birining iqtisodiyoti milliy iqtisodiyotni tashkil etadi

***Makroiqtisodiy oborot (aylanish***) – milliy iqtisodiyot mamlakatni ichida mal qiladigan faoliyat bo'lib, makroiqtisodiyotdan iborat bo'ladi. Uning aylanma harakatida real va pul sektorlari vujudga keladi, ya'ni tayyor tovar mahsulotlar va xizmatlarni umumiy ekvivalent bo'lgan pulga ayirbosh qilinadi

***Iqtisodiyotning real sektori*** - bu makroiqtisodiyot oborotiga tegishli bo'lib, sub'ektlar tomonidan yaratilgan tovarlar va xizmatlar hamda ular o'rtasidagi harakatni bildiradi

***Iqtisodiyotning pul sektori*** - bu sub'ektlar yaratgan tovar va xizmatlar harakatida vositachilik qiluvchi pul aylanishining harakatini ifodalaydi.

***Yalpi ichki mahsulot (YaiM)***- bu iqtisodiyotni asosiy tushunchasi bo'lib, ma'lum davrda (bir yilda) u yoki bu mamlakatda sub'ektlar tomonidan ishlab chiqarilgan va yaratilgan tovar mahsulotlar va xizmatlarning iste'molga yaroqli bo'lganqismining bozor tnarxidagi qiymatidir. YaiM – bu mamlakat ichida hosil qilgan tovar va xizmatlarning pirovard natijasi bo'lib, pul bilan hisob-kitob qilingan qiymatidir. Ya'ni YaiM – bu oraliq va qayta ishlanadigan mahsulot emas. YaiM – bu iste'molga tayyor bo'lgan bozorga sotishga mo'ljallangan tovar mahsulotdir. Masalan, 2005 yilda O'ZDEU zavodi chiqargan turli rusumsli avtomashinalarning 50 mingtasi sotildi. Ularning bozor qiymati (narxi) YaiMga kiradi

***Nominal YaiM*** - makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, tovar va xizmatlarning amaldagi narxlarda hisoblangan bozor narxidagi qiymatidir. Masalan, "A" tovar ilgari 800 dona chiqarilgan bo'lsa va uning har birining narxi 500 so'mni tashkil qilsa, unda jami tvoarning narxi 400000 ming (800x50) so'm bo'ladi. Keyinchalik uningt narxi 20 foizga ko'paysa, YaiM 20% ga ko'paydi deyish xato bo'ladi

***Real YaiM*** - buni shunday tushunish kerakki, bu bazis narxlarida yoki o'zgarmas narxlarda hisoblangan mahsulotdir. Masalan, "A" tovardan 1200 dona chiqarilib, har biri joriy narxda 6000 so'mdan sotilganda uning bozor qiymati 72 mln so'm bo'ladi. Agar buni oldingi yildagi (bu bazis yili) narx 5000 so'mdan hisoblasak, uning haqiyi bozor qiymati 60 mln. so'mni tashkil qiladi. Be real iqtisodiy natija hisoblanadi

***YaiM deflyatori*** - bu hozirgi narxnip oldingi, ya'ni bazis narxiga nisbatan qanchalik o'zgarganligini bildiradi, ya'ni Df = Mn / Mr x100%

***Yalpi milliy mahsulot (YamM)*** - bu makroiqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda (bir yilda) mamlakatning ichida va tashqarisida sub'ektlar mehnati bilan yaratilgan iste'molga tayyor bo'lgan tovarlar va xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidir. YamM dan jami mahsulotlar va xizmatlarni yaratishda iste'mol qilingan mashina, asbob-uskunalar, bino-inshootlarning qiymati ajratib olinadi, bu amortizatsiya ajratmalarini tashkil etadi

***Sof milliy mahsulot (SMM)*** - bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, yalpi mahsulotdan amortizatsiya ajratmalarini ajratib tashlagandan qolgan qismidar, ya'ni YamM – Aa = SMM

***Milliy daromad (MD)*** - bu sof milliy mahsulotni realizatsiya qilinishi (sotilishi) natijasida hosil bo'lgan daromaddir yoki bir yil mobaynida hosil qilingan zaruriy mahsulot (ZM) bilan qo'shimcha qiymat (QM) yig'indisi milliy daromadni tashkil qiladi. Zaruriy mahsulot – ish haqi va mehnat haqi qilib berialdi, qhshimcha mahsulot foyda (R) ni tashkil etadi. Respublika milliy daromadining 46 foizi qishloq xo'jaligida yetishtiriladi

***Shaxsiy daromad*** - milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonalarning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo'liga kelib tushadigan ijtimoiy to'lovlar summasini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi

***Milliy hisoblar tizimi*** - YamM (YaiM) larni hisoblash tizimi uch xil usul bilan hisoblanadi. Birinchi usul – bu YamM ni hisoblashga qo'shilgan qiymat boyicha hisoblanadi, ya'ni milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari boyicha yaratilgan qo'shimcha qiymatlar qo'shib chiqiladi (YaiM tarmoq va ishlab chiqarish boyicha hisoblanadi). Bu usul bilan hisoblangan YaiM (YaiM) alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rni va hissasi aniqlanadi. Ikkinchi usul –bu YamM (YaiM) ni hisoblashga sarf-xarajatlar boyicha yondoshilib, hamma iqtisodiyot sub'ektlarining xarajatlari yig'indisi holiga keltiriladi. Bu yig'indi YaiMga teng bo'ladi, ya'ni bunga xonadonlar, firmalar va davlatning daromadlari kiradi. Uchinchi usul – iqtisodiyot sub'ektlarining barchasini xarajatlari jamlanadi. Bular iste'mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksportdan iborat bo'ladi

***a) Iste'mol sarflari*** - xonadonlarning tovar va xizmatlar xaridi uchun qilgan xarajatlarinng umumiy summasidir

***b) Investitsiya sarflari*** - bu mashina, asbob-uskunalar, ko'chmas mulk (bino, inshoot, yer) ni sotib olish va xonadonlarning uy qurish, tayyor uy yoki kvartiralar sotib olishga sarf qilinadigan xarajatlaridir

***s) Davlat xaridi (xarajati)*** - bu davlat idora va tashkilotlarining tovar va xizmatlarni sotib olishga ketgan sarmoyasidir

***Uy xo'jalik iste'molchilik sarflari*** - bu kundalik tovarlarga, uzoq muddt foydalanadigan iste'mol buyumlari va hamda turli xizmatlarga to'lanadigan pul mablag'idir

***Investitsion sarflar*** – bu tadbirkorlarning asosiy kapitalni yalpi jamg'arishga qiladigan sarflaridir. U uch qismdan iborat bo'ladi: 1. Mashina, asbob-uskunalar va barcha xaridlar. 2. Qurilishlarga sarflar. 3. Zaxiralarga qilinadigan sarflar

***Investitsiya*** - bu qurilishlarga, ishlab chiqarishga, yangi texnika-texnologiyalarga, modernizatsiyalash (yangilash) ga va inson omiliga yo'naltirilgan pul mablag'lari va sarmoyasini bildiradi

***Iqtisodiy o'sish*** – bu tushuncha iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, iqtisodiyotni rivojlanishi, kishilar tomonidan hayotiy ne'matlar bo'lgan tovar mahsulotlar va xizmatlarni yaratishning ko'payishi yoki shu narsalarni ishlab chiqarishga sarf qilingan xarajatlarga nisbatan olingan daromadlarning ko'pligini bildiradi

***Iqtisodiy o'sish omillari*** - bu ishlab chiqarishga bevosita ishtirok etadigan turli resurslar majmuasidan iboratdir, ya'ni ishlab chiqarishdagi jismoniy kapital (mashina, asbob-uskuna) ning yuqori unum berishi; inson kapitali, mehnat resurslarining sifat darajasi, insondagi bilim, ishlash mahorati va tajribasi; ishlab chiqarishning texnologik usullari – bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ishlarida qo'llaniladigan usullar – yangiliklardir; investitsilar – bu ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni kengaytirishga kiritiladigan moddiy va pul mablag'laridir

***Iqtisodiy o'sish turlari*** - ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish.

***Ekstensiv usuli*** - bunga ishlab chiqarishning oldingi texnikaviy holati saqlanib qolgan holda, ishlab chiqarish omilarini ko'paytirish hisobiga erishiladi, ya'ni mehnat, mehnat ashyolari, mehnat qurollari, mehnat vositalari, yer-suv, kapital va tadbirkorlik va hokazolarni.

***Intensiv usuli*** – bunga ishlab chiqarishda qo'llanidigan ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish hisobiga erishiladi, ya'ni yangi texnika, yangi texnologiyalarni qo'llash, ishlab chiqarish potentsialidan unumli foydalanish va hokazo

***Iqtisodiy o'sish samaradorligi*** – bu YaiM yaratishga sarf qilingan xarajatlar olingan daromadlar bilan atqqoslaganda, ular o'rtasidagi farqdan iborat bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish xarajatlari 3,5 mln. so'm bo'lib, olingan daromadlar 4,5 mln. so'mni tashkil qilsa, IS = 1,0 mln. so'mni tashkil qiladi

***Restrukturizatsiya*** - bu iqtisodiyotdagi tsrukturaviy (tarkibiy) o'zgarishlarni bildiradi. Masalan, mashinasozlik, kimyo, energetika sanoati, qishloq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar

***YaiMni ishlatilishi*** – aholi iste‘molini qondirishga, kelajakda iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflanadi.

***Iste‘mol fondi hisobidan –***

***xususiy iste‘mol*** - bu kishilarning doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishdir

***Davlat iste‘moli*** - bu davlat idora, tashkilot va muassalari tomonidan ijtimoiy ne‘matlarni birgalikda o'zlashtirishi – iste‘mol qilishidir, ya‘ni resurslar, iste‘mol buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar.

***Yalpi jamg'arma fondi*** - bu mamlakatda yaratilgan milliy daromaddagi foydaning bir qismi va boshqa to'lovlar orqali jamg'arilib, iqtisodiyotni o'stirishga, kengaytirishga yuboriladigan qismidir

***Xonadon iste‘moli*** - bu oilda mavjud bo'lgan kishilardan mehnatga yaroqli bo'lganlarning mehnat faoliyatlari bilan topilgan daromadlarni va davlat tomonidan beriladigan turli to'lovlardan hosil bo'lgan daromadlarni oila a‘zolari tomonidan birgalikda va alohida o'zlashtirilishi –iste‘mol qilinishidir

***Milliy boylik*** - bu azaldan tabiat in‘om qilgan, ajdodlarimiz yaratgan va meros qoldirgan, avlodlarimiz ularni ko'paytirib jamg'arib borgan moddiy, nomoddiy, intellektual va tabiiy boyliklarning jamisidir

***Moddiy-buyumlashgan boylik*** – bu inson mehnati bilan yaratilgan ashyoviy – milliy boylikning buyum ko'rinishidagi qismidir

***Ma‘naviy boylik*** - bu ashyoviy-buyum ko'rinishga ega bo'lmagan insonning intellektual salohiyati va nomoddiy qimatliklardan iboratdir

***Tabiiy boylik*** - bu milliy boylikning tabiat in‘omlaridan iborat qismidir. Masalan, yer va undagi boyliklar, o'rmonlar, tog'lar, daryolar, dengizlar va hokazolar

***Qo'shilgan qiymat*** - bu ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste‘mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymatidir, ya‘ni I/ch x = c +v + m yoki tannarx chiqarib olinsa qolgan “m” – qo'shimcha mahsulotni bozor tan olgan narxda sotilganda olingan daromadni bildiradi

***Oraliq mahsulot*** - bu ishlov berish, qayta ishlash, tayyor tovar mahsulotlari qilib sotish maqsadida sotib olingan mahsulotlarning jamisidir

***Xufyona iqtisodiyot*** – YaiMni ishlab chiqarish, taqsimlash va undan foydalanishning rasmiy amaldagi hisob-kitoblardan yashirin qismidir

***Pirovard mahsulot*** - bu ishlab chiqarish jarayoni yakunlangandan keyin, shaxsiy va unumli iste‘molga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar hajmidir

***Makroiqtisodiy muvozanatlar*** - mamlakat makroiqtisodiyoti (milliy iqtisodiyoti) ning barcha soha va tarmoqlarining bir-birlari o'rtasidagi uzviy aloqalarning muvofiqligi muvozanatni bildiradi. Muvozanatlar ikki

darajada bo'lishi mumkin. Mkirodarajada – bu firmalar va xonadonlar faoliyatini aks ettiruvchi muvozanat. Makrodarajai muvozanat – bu milliy iqtisodiyotni o'z ichiga oladi. Umumiqtisodiy muvozanatlar – bu jami talab va jami taklif muvozanati, tovar-pul muvozanati, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol va jamharma o'rtasidagi muvozanatlardan iborat

***Jami talab*** - iste'molchilarning amaldagi narxlarda tovarlar va xizmatlarni xarid qilib olish qurbidir (bular xonadonlar, firmalar va davlatdir)

***Jami taklif*** - talabni qondirish uchun ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarning bozordagi taklifidir (bular firmalar, individual tadbirkorlardir)

***Daromadlar va xarajatlar muvozanati*** - bu sub'ektlarning bir yil mobaynida ishlab topgan daromadlari va xarajatlarini bir-biriga muvofiq bo'lishini bildiradi

***Iste'mol va jamg'arish muvozanati*** – bu yaratilgan YaiMning iste'moli va jamg'arilishi o'rtasidagi optimal nisbatni bildiradi

***Tovar va pul muvozanati*** - mamlakat iqtisodiyotida jami tovarlar narxining miqdori va pul miqdori o'rtasida muvofiqlikni (mos kelishini) bildiradi

***Tsikkli iqtisodiy o'sish*** - bozor iqtisodiyoti tez o'zgaruvchan iqtisodiyot bo'lib, u bir ko'tarilib, bir pasayib turishi yo'li bilan rivojlanishi tsiklli iqtisodiy o'sishni bildiradi

***Fluktluatsiya*** - iqtisodiyotning tebranib turishidir, ya'ni iqtisodiyotni muvozanatli bo'lishi va muvozanatsizlik holatidir

***Yuksalish*** - bu iqtisodiyotning jonlanishi va yuksalib gurkirab o'sishini bildiradi. Masalan, dastlab iqtisodiy o'sish yiliga 3-4 % bo'lsa, keyin 5-6 % ga, keyin, 6-8 %ga o'qish cho'qqisiga ko'tariladi

***Bum*** - iqtisodiyotning ko'tarilib eng yuqori bosqichga ko'tarilishini bildiradi

***Retsessiy**a* - bu iqtisodiyotdagi krizis (inqiroz) va depressiya (turg'unlik) holatini bildiradi

***Stagnatsiya*** - bu krizis (tanglik)ning eng og'ir shakli bo'lib, bu tanglikning uzoq davom etishini bildiradi

***Katta tsikllar*** - bu iqtisodiyotda eng uzoq davom etgan davr bo'lib, u 50-60 yillar davom etadi

***O'rta tsikllar*** - bu katta tsikllar jarayonida bir necha bor takrorlanadi. Uning davri dastlab 8-12 yil bo'lgan bo'lsa, hozir 6-8 yilga tushdi

***Kichik-kon‘yunktura tsikllari*** - bu qisqa vachtda takrorlanuvchi tsikllar bo’lib, u bozor holatini juz‘iy o’zgarishi bilan izohlanadi va uning takrorlanib turish davri 3-4 yilni tashkil etadi

***Selektiv saralanish*** - beqarorlikdan chiqishning sharti bo’lib, tanglik sharoitida kam quvvat zaif firmalar yopiladi, kuchli firmalar o’zini saqlab qoladi, iqtisodiyot ularning qo’liga o’tadi, iqtisodiyotda rivojlanish, yuksalishni ta‘minlaydilar. Bunday holatni selektiv usul deyiladi

***Bozor kuchlari*** - bu raqobatdir. U kuchsiz va layoqatsiz bo’lib qolsa makroiqtisodiy muvozanatlar vaqti-vaqti bilan buzilib turadi va iqtisodiy to’lqinsimon ravishda rivojlanib boradi

***Iqtisodiyotni qondirish*** - bu jarayonda davlat iqtisodiyotgaaralashadi va uni tanglikdan olib chiqadi, iqtisodiyotni barqaror rivojlanish yo’liga soladi

***Iqtisodiyotni qizitish*** - tanglik yuz berganda bundan chiqish uchun davlat iqtisodiyotni qizitadi. Bunga davlat qo’lidagi vositalar bilan jami talab va taklifga ta‘sir etish orqali erishadi

***Iqtisodiyotni sovitish*** - tanglikning oldini olish uchun davlat iqtisodiyotni sovitishga kirishadi, ya‘ni ishlab chiqarishning o’sishini bir oz susaytirish choralarini ko’radi

***Iqtisodiy tsikl*** - rivojlanish jarayonidagi ko’tarilish va pasayish jarayonlarini o’z ichiga oluvchi, iqtisodiyotning tebranib turishi bilan ifodalanadigan davrdan iboratdir

***Iqtisodiy inqiroz*** - bu ishlab chiqarishni pasaya borishi va quyi nuqtaga tushish, ishlab chiqarish quvvatlarining bo’shab qolishi, tovarlarning turib qolishi, ishsizlikning ko’payib borishi va bozorni kasodga uchrashi bilan ifodalanadi

***Tarkibiy inqiroz*** - xom ashyo, tovarlarning keskin yetishmasligini bildiradi. Masalan, energiya inqirozi.

***Iqtisodiy muvozanatlik*** - iqtisodiy jarayonlarda iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlarining bir-biriga teng kelishidir

***Iqtisodiy mutanosibliklar*** - bu iqtisodiyot tarmoqlari va rivojlanishida iqtisodiy faoliyat natijalarining o’zaro imqdor va tarkibiy jihatdan mos kelishini bildiradi

***Turg’unlik*** - bu iqtisodiyotni ma‘lum davrgacha bir holatda qalqib turishini bildiradi

***Jonlanish*** - ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo’llanilishi tufayli sobir bo’ladi va yangi xaridorgir tovarlar va xizmatlar yaratila boshlanadi

***Yuksalish*** - ishlab chiqarish sur'atlari oshadi, to'la ish bilan band bo'lish vujudga keladi, ishlab chiqarish quvvatlari to'la ishlaydi, mahsulot ko'p yaratiladi, tezlik bilan sotilib ketadi

***Agrar inqirozlar*** - bu qishloq xo'jaligida sodir bo'ladigan inqirozlar bo'lib, sanoat tsikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi. Bunda qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqchaligi paydo bo'ladi, sotilmay qolgan tovarlar zahirasi ko'payib ketadi; daromadlar va foyda olish kamayib ketadi; narxlarning pasayishi sodir bo'ladi; ishsizlarning soni ko'payadi

***Kitchin tsikli*** - bu zahiralar tsikli deb yuritiladi. U 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiqot qilgan

***Juglar tsikli*** - bu biznes tsikl, sanoat tsikli, o'rtacha tsikl va katta tsikl nomlari bilan ataladi

***Kuznets tsikli*** - bu "qurilish tsikli" deb ataladi va 20 yilgacha bo'lgan iqtisodiy tebranishlarni bilan aniqlanadi

***Kondratev tsikli*** - bu "uzoq to'lqinlar" tsikli nomi bilan ham yuritiladi. Uning tadqiqoti Angliya, Frantsiya va AQShning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan

***Ortiqcha ishlab chiqarish iqtisodiy inqirozi*** - bu aholining xarid qurbiga nisbatan tovarlar va xizmatlarni ko'p miqdorda yaratilishini bildiradi

***Kam ishlab chiqarish iqtisodiy inqirozi*** - bunda ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida ishlab chiqarish bilan aholi ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqligi nisbtalari buziladi, ya'ni to'lovga vodir aholi talabi bozordagi tovarlar va xizmatlar hajmidan oshib ketadi

***Pul*** - iqtisodiy kategoriya bo'lib, barcha tovarlar va xizmatlar uchun ayirboshlashda ekvivalent bo'lgan tovardir

***Pul massasi*** - mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar muomalasida (muayyan vaqtda) ishtirok etuvchi barcha pul turlarining miqdorini jamisini bildiradi

***Pulning vazifasi*** - quyidagi vazifalarni bajaradi: 1. Hisob-kitob vositasi; 2 Muomala vositasi; 3. To'lov vositasi; 4. Jamg'arish (boylik to'plash) vositasi; 5. Jahon puli vazifasi.

***Hisob-kitob vositasi*** – bunda pul moddiy o'lcham va pul qiymat o'lchami bo'ladi. Moddiy jihatdan bir o'lchamga keltirib bo'lmaydi. Pul bilan qiymatni o'lchash degani ketgan sarf-xarajatlarni, yaratilgan tovar va xizmatlar miqdori va sifatining bozor narxida ifodalanishining pul bilan hal qilinishini bildiradi

***Muomala vositasi*** – pul barcha tovarlar va xizmatlar uchun oldi-sotdi muomalasida vositachilik qiladi, ya'ni T-P va P-t yoki T-P-T

***To'lov vositasi*** – tovarlar muomalasida tovarni sotib olinayotganda yoki ko'rsatilgan xizmatlar, tovarlar nasiyaga berilganda to'lash muddati kelganda –

pul to’lanadi. Qarz berilganda, renta va soliqlarni to’lashda - pul bilan to’lanadi

***Jamg’arish (boylik to’plash)*** – sub‘ektlarning iste‘molidan ortiqcha pul yoki boshqa tovarlarni xarid qilish uchun yoki kelajakdagi tadbirlar uchun pul jamg’ariladi. Shunda pul boylikka aylanadi. Boylik - bu jamlangan barcha aktivlarning jamisidir

***Jahon puli*** - xalqaro mehnat taqsimoti va uni rivojlanib borishi bilan tovarlar muomalasi bir mamlakat doirasidan chiqadi va jahon puliga aylanadi. Qaysidir mamlakatda pul miqdori bilan tovarlar massasi mutanosibligi mavjud bo’lsa, shu pulning qadr-qiymati oshib boradi. Hozirgi kunda “dollar” va “evro” ning qadri baland

***Pulning likvidligi*** - pulning tez va hech bir to’siqsiz tovarlarga va boshqa narsalarga ayirbosh qilinishini bildiradi

***Pulning qadr-qiymati*** - mamlakatdagi mavjud bo’lgan pul birligining tovarlar va xizmatlarni ayirbosh qilinishida uning xarid qurbini bildiradi. Masalan, 1 kg non uchun Angliyada 0,6 funt sterling to’lansa, Rossiyada 20 rubl to’lanadi. Quvayt dinorining qadri eng yuqoridir

***Pul birligining qadri*** - mamlakatda mavjud bo’lgan pulning umumiy massasiga, ya‘ni miqdoriga teskari mutanosiblikda bo’lishini bildiradi

***Pul turlari*** - dunyoda hozirgi kunda 200 dan ziyod mamlakat bo’lib, har birining pul birligi mavjud. Masalan, AQSH – dollar, Angliya – funt sterling, Germaniya – marka, Yaponiya – iena, Italiya – lira, Quvayt – dinor, Rossiya – rubl, Qozog’iston – tenga, O’zbekiston – so’m va boshqalar

***Milliy pul*** – har bir mamlakatda muomalada amal qiluvchi va tanho to’lov vositasi vazifasini bajaradigan pulni bildiradi

***Pul tizimi*** - pulning o’zi, pul emissiyasi (uni muomalaga chiqarish), pulning shakllari, valyuta rejimi (milliy pulni boshqa pulga almashtirish tartibi), pul bilan shug’ullanuvchi moliya institutlari (banklar), davlatning pul bilan bog’liq bo’lgan (monetar) siyosatidan iboratdir

***Naqd pullar*** - aholi qo’lida bo’lgan qog’oz va tanga pullardan iborat bo’lib, muomalada qo’ldan-qo’lga o’tib turadi va to’lov vositasi bo’lib xizmat qiladi

***Naqd bo’lmagan pul*** - bu bankdagi fuqarolar, firmalar, davlat tashkilotlari hamda xonadon oila a‘zolarining daromad topuvchilarining nomiga yozib qoyiladigan puldan iborat bo’ladi

***Aktiv pul*** - iqtisodiyot va xizmat ko’rsatish tarmoq hamda sohalarida ayirboshlashda to’lov vositasini bajarishini bildiradi

***Passiv pul*** - jamg’arma, pul rezervlari va kassa qoldiqlaridan iborat bo’lib, amalda iqtisodiyotda hamda xizmat qo’rsatish sohalarida ishtirok etmaydigan pulning massasidan iboratdir

***Aktiv pul aylanishi*** - bu muomalaga chiqarilgan pul massasini ishlab chiqarishda, xizmat sohalarida, oldi-sotdi jarayonlarijda qo'ldan-qo'lga o'tib aylanma harakatda bo'lishini bildiradi

***Pul taklifi*** - banklardan kreditga beriladigan foiz me'yori kamaysa, pul taklifi ortadi va aksincha bo'ladi. Demak, pul taklifi banklardan qarzga beriladigan pulga qoyilgan yuqori foizga teskari mutanosiblikda bo'lib, foiz me'yorining kam bo'lishiga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi

***Pulga talab*** - sotishga taklif qilingan tovar va xizmatlarni xarid qilib olish uchun zarur bo'lgan pul miqdori bildiradi

***Pul muomalasi qonuni*** - sotishga taklif qilingan tovarlar va xizmatlar narxining (bahosi) umumiy summasiga muomaladagi pul miqdori to'g'ri mutanosiblikda, pul harakatining tezligiga teskari mutanosiblikda bo'lishi bilan izohlanadi. Muomalada qancha pul zarur bo'lishini ushbu qonun belgilab beradi. Bu qonun iqtisodiyotda tovar va pul muvozanati bo'lishini ko'rsatadi, ya'ni Mr x V = Q x P tenglik bo'lishi kerak. Bunda Mr – pul miqdori, V – pulning aylanish tezligi, Q – tovarlar miqdori, P – har bir tovarning o'rtacha narxini bildiradi. Muvozanat tenglikdan muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini topish mumkin: Mm = Q x P / V ko'rinishida bo'ladi. Ushbu formulada Mm - Q x P miqdori va narxiga to'g'ri mutanosiblikda, V ga esa teskari mutanosiblikda bo'ladi

***Pulning aylanishi*** - iqtisodiyotda yaratilgan tovarlar va xizmatlar miqdorining ko'rligi, sifatining yaxshiligi va xaridorligi monand bo'lsa pul tez aylanadi va ko'p miqdorda pul lozim bo'ladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin

***Pulga talab*** - mamlakatda tovarlar va xizmatlar qancha ko'p yaratilsa va unga talab ko'p bo'lsa, ularni oldi-sotdisi uchun pul ko'p talab qilinadi. Masalan, AQShda yiliga 10 trln. Dollar miqdorida tovar va xizmatlar yaratiladi, uning oldi-sotdisida pul ko'p kerak bo'ladi

***Pul oboroti*** - pulning bankdan firmalar, davlat idoralari, nodavlat tashkilotlari kassasiga kelib tushishi, xodimlar, nafaqaxo'rlar, talabalar qo'liga berilishi, ular tovar va xizmatlar xarid qilishi, davlat va nodavlat tashkilotlari resurs va iste'mol tovarlari xarid qilishi, pulni yana bankka qaytib kelishi, xariddan ortib qolgan pulni bunkka omonat qilib qoyilishi jarayonlaridan iborat bo'ladi

***Monetazatsiyalash darajasi*** - bu iqtisodiyotning pul bilan naqadar ta'minlanishini bildiradi

***Pul emissiyasi*** - bu davlatning Markaziy banki tomonidan pul muomalaga chiqarilishini bildiradi

***Pulning qiymati*** - barcha tovarlar qiymatining ekvivalenti hisoblangan pul birligining xarid qurbidir

***Tovar-pul*** - milliy pullar tarkibida tovar shaklidagi pul ham bo'ladi. Shunday tovar-pul oltin hisoblanadi, chunki u qadr-qiymatli, ishlab chiqarish xarajatlari yuqori, boshqa tovarlarga ayirbosh qilinishi mumkin. Demak, oltin yuksak darajadagi likvidli tovar sifatida tovar-pul bo'la oladi

***Dekretlangan pul*** - bu davlat tomonidan pul deb e'lon qilingan va maxsus belgilariga ega bo'lgan qog'ozlar bo'lib, kupyura shakliga egadir hamda lar har xil qiymatga bo'lib chiqariladi. Masalan, O'zbekiston milliy puli so'm 10, 25, 50, 100, 200, 500 va 1000 so'mlik kupyura shaklida mavjuddir

***Inflyatsiya*** - bu tovarlar va xizmatlar taklifini talabdan kam bo'lishi, narxlarni o'sib borishi natijasida pulning qadrsizlanishini bildiradi

***Deflyatsiya*** - narxlarning pasayishi natijasida pulning xarid qurbini ortib borishini bildiradi

***Talab inflyatsiyasi*** – pulning tovarlar va xizmatlar miqdoriga nisbatan ko'payishi va muomalada pul emissiyasini vujudga kelishidir

***Taklif inflyatsiyasi*** - resurslarning qimmatlashishi, xarajatlarning ko'payishi, foydaning kamayishi natijasida tovarlarni ko'paytirishga intilishning susayishi tushuniladi

***Inflyatsiya darajasi*** - bu narxlarning umumiy o'sishini bildiradigan ko'rsatkichdir

***O'rmalovchi inflyatsiya*** - narx-navoni sekin orta borishi, ishsizlikni katta bo'lmasligi, iqtisodiy o'sishni bo'lib turishi, inflyatsiya sur'atlari 2-3 foiz atrofida bo'lishi bilan izohlanadi

***Suzib yuruvchi inflyatsiya*** – narx (baho) ning tez o'sib borishi, iqtisodiy o'sishning susayishi, ishsizlikning ko'payib borishi, inflyatsiya darajasining 8-12 foizga yetishini bildiradi

***Yuguruvchi yoki giper inflyatsiya*** – narx-navoning haddan tashqari o'sib ketishi, inflyatsiyaning ko'payishi, pul qadrining tushib ketishi bilan xarakterlanadi. Iqtisodiyot inqirozga yuz tutishini bilidradi

***Pul rentasi*** - ijarachining yer uchastkasidan foydalanganligi uchun yerning egasiga pul shaklida to'lanadigan to'lovdir

***Pul qoyilmalari*** - bu aholi, korxonalar va tashkilotlarning kredit muassasalari (banklar) da saqlash uchun omonatga qoyilgan pul jamg'armalari, qimmatbaho qog'ozlari (aktsiyalar) obligatsiyalar) dan tashkil topib, ularni depozitlar deb yuritiladi

***Adaptatsiya*** - bu inflyatsiyaga moslashishni bildiradi. Masalan, yollanib ishlaydiganlar inflyatsiyani hisobga olib ish haqini oshirishga erishadilar

***Antiinflyatsion siyosat*** - bu muomaladagi ortiqcha pulni olish, pul emissiyasini to'xtatishdan iborat bo'lib, inflyatsiya sur'ati oyiga 2-3 foizga ko'tarilsa, bu siyosat davlat tomonidan amalga oshiriladi

***Indeksatsiya*** - bunda daromadlar narxlarning o'sishiga qarab oshirib boriladi. Indeksatsiya 2 xil bo'ladi:to'la va qisman. To'la indeksatsiya – narxlar qanchaga oshsa, aholi daromadlari ham shunchaga oshiriladi. Qisman indeksatsiyada narxlarning oshishiga nisbatan daromadlar kamroq oshiriladi. Masalan, narx 10 foizga oshsa, daromad 8 foizga oshirilishi mumkin

***Inflyatsion kutish*** - bu inflyatsiya oqibatlari iqtisodiyotni, kishilarning turmush darajasini nimaga olib kelishini bildiradi

***Pul agregati*** - xarid qobiliyatini saqlovchi va jamg'arila borilayotgan barcha pul vositalaridan iborat. Bu naqd pullar, bankka qoyilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar iborat bo'ladi

***Tovar-pul muvozanati*** - iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirishni bildiradi, ya'ni Mr x V = Q x P tenglik pul massasini qisqartirish hisobidan emas, balki tovar massasini (Q) ko'paytirish hisobidan ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Shunda pulning tovarlar bilan ta'minlanish darajasini oshirishga erishiladi

***Moliya*** - iqtisodiy kategoriya bo'lib, mamlakat yalpi milliy mahsulotining tegishli qismidan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va undan belgilangan maqsadlarda foydalanishda pulning harakatini bildiradi

***Moliya sektori*** - bu moliya tashkilotlarida jamlangan mablag'lar (pul)ning aylanma harakatini bildiradi

***Real sektor*** - bu moddiy sohalarda tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish, nomoddiy tarmoqlarda xizmatlar yaratish va ularning aylanma harakatini bildiradi

***Moliya tizimi*** - bu bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan moliyaviy tashkilotlar, muassasalar, idoralar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yaxlitligini bildiradi. Bunga moliya ob'ekti, moliya sub'ekti, moliya mexanizmi, moliya siyosati, moliya institutlari va moliya munosabatlari kiradi

***Pulning oqimi*** - bu mamlakatda muomalaga chiqarilgan pul mablag'larini iqtisodiyot sub'ektlari (xonadonlar, firmalar vadavlat idoralari) o'rtasida uzluksiz harakati (aylanishi)ni bildiradi

***Davlat byudjeti*** - ma'lum davrda (bir yilda) davlatning pul daromadlari va xarajatlarining yig'indisidan iborat bo'lib, undan foydalanishda moliyaviy munosabatlari bildiradi

***Moliya ob'ekti*** - bu jamg'ariladigan (to'rlanadigan) pul resurslaridan iboratdir

| | |
|---|---|
| ***Moliya sub'ekti*** - | to'plangan pul mablag'lari (fondlari)dan foydalanuvchi sub'ektlardir, ya'ni xonadon, firma, davlat va nodavlat tashkilotlarini bildiradi |
| ***Moliya resursi*** - | mamlakatda to'plangan va markazlashtirilgan pul fondlaridan iboratdir |
| ***Moliya munosabatlari*** - | yalpi ichki mahsulot va milliy boylikni taqsimlash va undan foydalanish jarayonida iste'molchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalardir |
| ***Moliya mexanizmi*** - | bu mamlakatda, hudud va mintaqalarda moliyaviy resurslarni shakllantirishda, undan foydalanishda, rag'batlantirishda qo'llanadigan vositadir, ya'ni soliq, subsidiya, subventsiya, transfert, jarima, dotatsiya, sanatsiya hamda moliyaviy me'yorlardan tashkil topadi |
| ***Moliya siyosati*** - | bu davlatning moliyaviy resurslarni topish, taqsimlash va undan foydalanish hamda sarflash yo'lidagi iqtisodiyot sub'ektlarining yaxlit birligidir |
| ***Moliya institutlari*** - | bu turli ko'rinishdagi infratuzilmalar bo'lib, ular yordamida moliya aloqalari yo'lga qoyiladi. Masalan, firmalar, banklar, kompaniyalar va davlat idoralari, muassasalari, tashkilotlari shular jumlasidandir |
| ***Mikromoliya*** - | bu moliya tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lib, uni uy xo'jaligi, xonadon, firma (korxona), nodavlat hamda jamoat tashkilotlari tashkil etadi |
| ***Makromoliya*** - | bu milliy iqtisodiyotni tashkil etuvchi va unga xizmat qiluvchi davlat moliyasidir |
| ***Metamoliya*** - | bu davlatlararo pul munosabatlaridan iborat bo'lib, uni xalqaro miqyosdagi moliya deb yuritiladi |
| ***Daromad*** - | bu iqtisodiyot sub'ektlarining ixtiyoriga kelib tushadigan pul tushumlar massasidan iborat (Masalan, xonadon, firma daromadlari) |
| ***Xarajat*** - | bu pul tushumlarining sub'ektlarning har birini maqsadini ko'zlab, ular tomonidan sarflanishidir (xonadon, firma va boshqalar) |
| ***Davlat daromadlari*** - | bu boylik va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash borasida davlat oladigan ulushdir |
| ***Moliyaning funktsiyalari*** - | bu asosan mamlakatdagi barcha sub'ektlar (xonadon, firma, davlat tashkilotlari va idoralari) ni pul bilan ta'minlaydi va u to'rtta vazifani bajaradi: taqsimlash, rag'batlantirish, iqtisodiy informatsiya berish va ijtimoiy funktsiya |
| ***Taqsimlash funktsiyasi*** - | mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning va bozorga chiqarib yaotilgan milliy boylikning pul shaklidagi qiymati moliya |

vositasida taqsimlanadi. Birlamchi taqsimlashda xonadonlar, firmalar va dvlat ishtirok etadi. Firmalar yaratgan daromad 3 qismga bo'linadi, ya'ni firmalarning o'ziga qoladi, firmada ishlagan xonadon vakillariga tegadi, davlatga soliq shaklida beriladi. Ikkinchi taqsimotda davlat moliyasi orqali taqsimlanib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga sarflash fondlari tashkil qilinadi. Uchinchi taqsimlashda firmalar, xonadonlar va davlat o'z daromadlarining bir qismini nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish uchun turli xayriya fondlarini hosil qiladi. To'rtinchi tqsimotda daromadning bir qismi xayriya fondlaridan muhtoj xonadonlarga ijtimoiy yordam sifatida beriladi. Masalan, “Nuroniy” jamg'armasidagi pulning bir qismidan muhtoj pensionerlarga yordam sifatida beriladi. Beshinchi taqsimot – xonadon moliyasi bo'lib, xonadondagi iste'mol va jamg'arish fondlariga pul ajratiladi

***Rag'batlantirish funktsiyasi*** - firmadagi ishlovchilarni iqtisodiy faolliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida moliya vositasi orqali ularga qo'shimcha ish haqlari, mukofotlar, ijtimoiy yordam fondidan bir martalik to'lovlar berib boriladi, uy, avtomashina, mebellar olish uchun qarz beriladi

***Iqtisodiy informatsiya berish funktsiyasi*** - sub'ektlarning iqtisodiy ahvolidan xabardor bo'lish, xonadon yalpi daromadining miqdori, uning jamg'armasi va qarzining bor yoki yo'qligini aniqlanib hisobga olib boriladi hamda davlatning moliyaviy ahvoli to'g'risida ham axborot olib boriladi

***Ijtimoiy funktsiya*** - mamlakatdagi moliya resurslarining ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib borishga sarflanishini bildiradi. Ya'ni davlat, firmalar va aholi soliq sifatida ajratgan pul hisobidan ijtimoiy sohalar, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, ekologiyani asrab-avaylash sarf-xarajatlari moliyalashtiriladi. Davlat tomonidan, ayrim shaxslar va xayriya tashkilotlari tomonidan aholining muhtoj qatlamlariga yordam puli ajratiladi

***Mikromoliya*** - bu iqtisodiyotning quyi bo'g'inidagi xonadonlar, firmalar, nodavlat va jamoat tashkilotlari moliyasidan iborat bo'ladi

***Xonadon moliyasi*** - bu ish haqi, tadbirkorlik daromadi, individual mehnat faoliyatidan topilgan daromad, mulkdan kelgan daromad, qarz olingan pul, tomorqadan topilgan daromad, pensiya, stipendiya va boshqalardan tashkil topadi. Bu daromadning taxminan 8-10 foizi majburiy va ixtiyoriy to'lovlarga, 81 foizi iste'molga, 9 foizi jamg'armaga sarflanishi mumkin

***Makromoliya*** - bu davlat miqyosidagi umumjamiyat moliyasi hisoblanadi va u davlat byudjeti va byudjetdan tashqari pul mablag'laridan tashkil topadi va umumxalq manfaatlari yo'lida sarflanadi

***Davlatning xarajatlari*** - bu byudjetdan ajratilgan pul mablag'lari bo'lib, u ijtimoiy sohaga, investitsiyaga, milliy xavfsizlikka, boshqarish va qarzlarni uzishga sarflanadi

***Xalqaro moliya*** - bu davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish yo'lidagi pul mablag'lari, investitsiyalar, olingan qarzlardan tashkil topadi

***Davlatning daromadlari*** - bu soliqlardan, davlat mulkini sotishdan tushgan pul va davlat ko'targan qarz pulidir

***Byudjet taqchilligi*** - bu byudjetdan sarf qilinadigan xarajatlarning daromadlar qismidan ortiqcha bo'lishini bildiradi

***Davlat qarzlari*** - bu byudjet taqchilligi (etishmovchiligi) ni qoplash maqsadida olingan qarzlardan iboratdir. Bu qarzlar tashki va ichki ko'rinishda bo'ladi

***Ichki qarz*** - bu fuqarolar va firmalardan olingan qarz bo'lib, davlat obligatsiyalar chiqarib sotadi va sub'ektlar sotib oladi. Obligatsiyalar sotilganda davlat qarz olgan hisoblanadi, ular qaytadan sotib olinganda qarz uziladi

***Tashqi qarz*** - davlatning xalqaro moliya tashkilotlaridan, xorijdagi yirik banklardan va chet el davlatlari hukumatlaridan olgan qarzlaridan iborat bo'ladi

***Byudjet federalizmi*** - bu daromadlar va xarajatlarning markaziy va hududiy (munitsipal) byudjetlar o'rtasida taqsimlanishini bildiradi

***Balanslangan*** - bu byudjet daromadlar va xarajatlarining o'zaro muvofiqlashganligini bildiradi

***Byudjet defitsiti*** - xrajatlar daromadlardan ortib ketsa, taqchillik (kamomad) hosil bo'lishini bildiradi

***Byudjet profitsiti*** - bu daromadlarning xarajatlardan ortiq ekanligini bildiradi

***Moliyalashtirish*** - bu iqtisodiyot sub'ektlarining faoliyatlarini pul resurslari bilan ta'minlanishini bildiradi. Sub'ektlar – xonadonlar, firmalar, davlat muassasalaridir

***O'zini – o'zi moliyalashtirish*** - bu iqtisodiy faoliyatda qatnashayotgan barcha sub'ektlarning o'z xarajatlarini ishlab topgan daromadlari bilan qoplashini va foyda olishga erishishini bildiradi

***Byudjetdan moliyalashtirish*** - bu davlat idoralari, tashkilotlari va muassasalarini byudjetdan pul bilan ta'minlashni bildiradi. Bu albatta bozor usuli emas, davlat hisobidan istiqomat qilishni bildiradi

***Homiylar moliyalashtirishi*** - nodavlat va turli ko'rinishdagi jamoat tashkilotlarining davlat, firmalar, korxonalar va puldor kishilar tomonidan pul resurslari bilan ta'minlanishini bildiradi

***Moliya bozori*** - bu barcha moliyaviy aktivlarning oldi-sotdi qilinishida sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardir

***Moliya bozorining vazifalari*** - kapital hosil qilish, kapitalni demokratiyalashtirish, puldan-pul chiqarib olish, pulni daromad keltiradigan sohalarga joylashtirishdan iboratdir

***Moliyaviy aktivlar*** - bu sub'ektlarning pul mablag'lari va qimmatbaho qog'ozlaridan tashkil topadi, moliya bozorida sotiladi va sotib olinadi

***Moliya bozorining ob'ekti*** - bu sotiladigan aktsiyalar, obligatsiyalar, sertifikatlar va puldan iborat bo'ladi

***Moliya bozorining sub'ekti*** - firmalar, banklar, davlat, moliya institutlari va aholidir

***Moliya instituti vositachilari*** - bozor ishtirkochilariga xizmat qiluvchi banklar, brokerlar firmasi va yakka brokerlardan tashkil topadi

***Fond bozori*** - bunda qimmatbaho qog'ozlar sotiladi va sotib olinadi

***Pul bozori*** - vaqtincha bo'sh turgan puldan vaqtincha foydalanish uchun oldi-sotdi qilinadi. Bu muomalani maxsus banklar amalga oshiradi

***Emitent*** - bu qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan chiqarib sotishga qoyilishini bildiradi. Buni davlat, banklar va firmalar nomidan moliya vazirliklari amalga oshiradi va bozorga chiqaradi

***Aktsiya*** – bu bozor iqtisodiyotida ko'p tarqalgan qimmatbaho qog'oz bo'lib, o'z egasiga dividend ko'rinishida daromad keltirish ma'nosini bildiradi

***Aktsiyaning sotilish narxi*** - bozor kursini bildiradi va uning narxini belgilanishi birja kotirovkasi deb yuritiladi

***Obligatsiya*** - bu qarz majburiyati bo'lib, uni firmalar, banklar va davlat nomidan moliya vazirliklari tashkil etadi. Obligatsiya ham qimmatli qog'oz bo'lib, uni chiqarib sotgan emitent sotib oluvchilardan qarzdor hisoblanadi, obligatsiyani qaytarib sotib olganda qarzini uzadi va foiz to'laydi

***Dividend*** - bu aktsiya sotib olgan sub'ektga aktsioner jamiyati yaratgan foydadan beriladigan ulushdir. Har yili foyda aktsiyaonerlar o'rtasida qo'shgan hissalariga qarab taqsimlanadi

***Aktsioner jamiyati*** - korxona, tashkilot, bank, kompaniya va barcha xohlovchi kishilarning pul mablag'larini birlashtirish asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida va foyda olish uchun tashkil etilgan korxonadir

***Aktsiya kursi*** - bu bozordagi talab va taklif asosida shakllanadigan narxni bildiradi

***Dotatsiya*** - bu yordamga muhtoj bo'lgan korxona (firma), tashkilot, muassasa, xonadon va fuqarolarga, ya'ni iqtisodiyotga byudjetdan qaytarib olmaslik sharti bilan beriladigan moliyaviy yordamdir

| | |
|---|---|
| ***Subsidiya*** - | mahalliy byudjetlarga maqsadli ishlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan umumiy mablag'dir yoki dotatsiyadir |
| ***Subventsiya*** - | bu maqsadli dotatsiya bo'lib, mahalliy byudjetlarga davlat tomonidan beriladigan mul mablag'idir va uni sarflanishini davlat nazorat qilib boradi |
| ***Mahalliy byudjet*** - | bu mahalliy yoki hududiy sub'ektlarning tushumlaridan iborat bo'lib, u daromad hamda xarajatlardan iborat bo'ladi va mahalliy hokimiyatga qarashli bo'ladi |
| ***Davlat moliyasi*** - | bu mamlakatdagi sub'ektlardan olinadigan pul tushumlarini tashkil etadi va u daromad hamda xarajatlarga bo'linadi |
| ***Birlamchi fond*** - | bu qimmatli qog'ozlarning kishilarga dastlabki sotilishini bildiradi |
| ***Ikkilamchi fond*** - | kishilar (sub'ektlr) qo'lidagi qimmatbaho qog'ozlarni bozor orqali qaytadan boshqa sub'ektlar qo'liga o'tishini bildiradi |
| ***Soliqlar*** - | mamlakatda bir yil mobaynida yaratilgan milliy daromad (MD=ZM+QM) ni taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan uning ma'lum bir qismini dvlat byudjetiga kelib tushishini bildiradi |
| ***Soliq me'yori*** - | sub'ektlardan davlat ixtiyoriga olingan soliqlarning umumiy summasini soliq to'lovchi sub'ektlar ixtiyoridagi foydaga nisbatan hajmini bildiradiva foizda hisoblanadi |
| ***Soliq imtiyozlari*** - | ob'ektiv sabablarga va qonun bergan kafolatlarga ko'ra soliq to'lovchi sub'ektlarni soliq to'lashdan ozod qilish, soliq miqdorini kamaytirish yoki yengillashtirishni bildiradi |
| ***Emissiya –*** | bu davlat tomonidan muomalaga qo'shimcha qog'oz pullarni chiqarish va qo'shimcha kreditni tashkil qilishni bildiradi |
| ***Davlat zayomlari*** - | firma (korxona), tashkilotlar hamda aholidan qarz olish hisobiga dvlat o'zining qimmatli qog'ozlarini sotadi va moliya resursini tashkil etadi |
| ***Kredit*** - | bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, sub'ektlar qo'lidagi vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini turli xil banklar orqali muhtoj bo'lgan sub'ektlarga foiz to'lash sharti bilan ma'lum muddatga berilishini bildiradi |
| ***Kredit ob'ekti*** - | qarz beruvchi sub'ektlar qo'lidagi pul resursidan iborat |
| ***Kredit sub'ekti*** - | qarz beruvchi sub'ektlar bilan pulni qarzga oluvchi sub'ektlardir |
| ***Kreditor -*** | bu pulni qarzga beruvchi sub'ektlardir |
| ***Ssuda oluvchi*** - | qarz oluvchi sub'ektlardir |

***Kredit bozori -*** bu pul bozorining tarkibiy qismi bo'lib, bo'sh pullar bozoriga chiqarilgan kredit resursiga aylanadi

***Kredit vazifalari*** - bu to'rt vazifani bajarishi bilan izohlanadi. Ya'ni: Pul belgilari (miqdori) ga tenglashtirilgan to'lov vositalarini bajaruvchi – veksel, chek, sertifikat, akkreditiv va boshqa ko'rinishlarida bo'lib, ular xo'jalik faoliyatiga kiritish; Bo'sh turgan pul mablag'lari harakatga keltiriladi va o'sib kelgan pulga aylantirilish; qarz berish yo'li bilan pulni tarmoqlar va sohalar o'rtasida qayta taqsimlanishni amalga oshirish; qarz berish va muddat tugagandan keyin pulni qaytarib olish va iqtisodiyotni rag'batlantirishga ko'maklashish

***Kredit mexanizmi*** - bu kredit vositalari va shartlaridan iborat bo'lib, uning maqsadli va muddatli bo'lishi, kredit uchun foiz undirilishi, kreditning qaytarilishi va uning kafolatlanishini bildiradi

***Kreditning maqsadliligi tamoyili*** - bank sub'ektlarga kredit berishdan oldin ular (tadbirkorlar) ni "biznes-reja" sini ko'rib, nima maqsadda kredit olinayotganligiga ishonch hosil qiladi va nazorat qilib boradi

***Muddatliligi tamoyili*** - kreditni sub'ektlarga berilishi muddati ko'rsatiladi. Shunga binoan uzoq, o'rta va qisqa muddatli kreditlar bo'lib, olingan kredit qancha vaqtda qaytarilishini kafolatlaydi. Qisqa muddatli kredit – 1 yil, o'rta muddatli kredit – 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli kredit 5 yildan ortiq muddatlarga beriladi

***Kreditga haq to'lash tamoyili*** - banklardan ma'lum muddatga kredit olib foydalanadigan sub'ektlar ma'lum miqdorda foiz to'laydilar

***Moddiy jihatdan ta'minlanganligi tamoyili*** - qarz beruvchi sub'ektlar tomonidan olingan mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini kafolatli bo'lishini bildiradi. Kredit berganda real tovar moddiy boyliklar zahirasi hisobga olinadi, mavsumiy xarajatlarni qoplashga berilsa, xarajatlar real tovar moddiy qiymatliklar qiymatiga kiritiladi, savdo bitimlari uchun berilsa, shartnoma tuzilib, olingan qarz egasiga qaytarilishi belgilanadi. Kredit olishda "garov" qoyiladi. Dehqon xo'jaliklari, firmalar, fermerlar, ijarachilar, jismoniy shaxslar kafolatli shartnoma asosida kredit olishlari mumkin

***Foiz*** - bu bankdan vaqtincha foydalanish uchun qarzga (kredit) olingan pul uchun to'lanadigan haqning bozor narxidir

***Qarz oluvchilarning asosiy guruhlari*** - bu korxonalar, aholi va davlat kreditidir

***Ko'zlangan maqsadga ko'ra*** - qishloq xo'jaligi, savdo, investitsiya, byudjet kreditlaridir

***Funktsiya qilishi sohasiga ko'ra*** - bu oborot kapitalini shakllantirish – tor ma'nodagi kredit, asosiy kapital olish uchun sarflanadigan kredit – ssuda deb yuritiladi

***Berilish vaqtiga ko'ra*** - qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'ladi, ya'ni bir yil, 1-5 yil, 5 va undan ortiq yillardan iborat

***Kreditni qaytarish ta'minlanganligiga ko'ra*** - ta'minlanmagan yoki blankli yoki ta'minlangan kredit bo'ladi. Ta'minlanmagan yoki blankli kreditlarni – overdraft kontokorrent va avans krediti deyiladi

***Overdraft*** - mijoz olingan kreditga kunlik foizni to'lashi, iloji bo'lmagan hollarda bank shartlashilgan miqdorda qarz beradi, hatto bank kreditini ta'minlanmasligini talab qilmasligi ham mumkin. Bank mijoz hisobiga kelib tushgan pulni o'z hisobiga darrov o'tkazib olmaydi, ya'ni mijoz qarzni o'ziga qulay fursatda to'laydi

***Kontokorrent*** - bu moliyaviy jihatdan barqaror deb tan olingan mijozlarga oborot mablag'lari uchun kreditni qattiq cheklanmasligini bildiradi

***Avans*** - Yevropa mamlakatlarida bankning har xil shartga ko'ra (overdraft, kontokorrent) ko'rinishida qarz berilishidir

***Kredit berilish usuliga ko'ra*** - kompensatsion, ya'ni o'z mablag'larini to'ldirish uchun hisob schetiga (varaqasiga) o'tkaziladigan va to'lov to'g'ridan-to'g'ri qarzni qaytarish, haq to'lash topshirilgan kredit bo'ladi

***Kredit qaytarilshiiga ko'ra*** – to'lash muddati uzaytirilgan holda to'lanadigan hamda bira to'la qaytariladigan kreditlardir

***Qarz hajmi va muddatini cheklanishi darajasiga ko'ra*** - limitlangan va limitlanmagan kreditlarga bo'linadi

***Foiz darajasi*** - kreditning arzon yoki qimmatligini bildiradi

***Foiz stavkasi*** - bu foiz to'lovchi qarz pulining qanday qismiga tengligini yoki undagi hissasini bildiradi. U quyidagicha hisoblanadi: Fm = Ks x Kf / 100 %. Bunda Fm – kredit miqdori, Ks – kredit summasi, Kf – kredit foizi stavkasi. Ks = 20 mln., Kf = 12% bo'lsa, Fm = 2,4 mln. so'm bo'ladi

***Kredit turlari*** - bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga ishlatiladigan (qo'llaniladigan) shakllaridir. U tijorat, bank, iste'mol, ipoteka krediti, davlat krediti, xo'jaliklararo kredit shakllaridir

***Tijorat krediti*** - bu korxonalar, tadbirkorlar va boshqa xo'jalik sub'ektlarining bir-biriga tovar shaklida beriladigan qarzidir. Uni asosan veksel (qarz majburiyatnomasi) bilan rasmiylashtiriladi va cheklangan miqdorda qo'llaniladi

***Bank krediti*** - bu moliya krediti muassasalari (banklar, fondlar, assosiatsiyalar) tomonidan xo'jalik sub'ektlari (ishbilarmonlar, sohibkorlar, tadbirkorlar, korxonalar)ga pul shaklida – ssuda ko'rinishida beriladi

***Iste'mol krediti*** - bu qaytarib to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolarga, aholiga ehtiyojlarini qondirishga beriladi. U tovar hamda pul ko'rinishida

amalga oshiriladi. Xususan, uy-joy qurish, avtomashina olish, mebellar xarid qilish uchun kredit beriladi

***Ipoteka krediti*** - bu ko'chmas mulk (er, bino, uy-joy kabilar) ni garovga qoyib olinadigan kredit shaklidir

***Davlat krediti*** - bu aholidan, firma, korxonalar, tashkilotlar, banklar tomonidan davlatga beriladi. Bu qarz byudjet tanqisligini qoplashga ishlatiladi. Qarzni to'lashni kafolatlovchi guvohnomalar bo'ladi, uni markaziy va mahalliy hokimiyatlar chiqaradilar. Qarz va uning foizi byudjet hisobidan to'lanadi

***Xo'jaliklararo pul krediti*** - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – korxona, tashkilotlar, muassasalar, idoralar – aktsiya, obligatsiya, kredit biletlari chiqarib bir-birlariga ma'lum muddatga kreditga beradilar

***Xalqaro kredit*** - bu ssuda kapitalining xalqaro doirada harakat qilishidir. Bu tovar yoki valyuta (pul) shaklida amal qiladi. Qarz beruvchilar va qarz oluvchilar bular – banklar, xususiy firmalar, davlat organlari, hukumatlar, yirik korporatsiyalardan iborat bo'ladi

***Ssuda kapitaliga ta'sir qiladigan omillar*** - bular jumlasiga ishlab chiqarish hajmi, jamg'arilgan pul hajmi, ishlab chiqarish tsiklining tebranishi, ishlab chiqarishning mavsumiy sharoitlari, inflyatsiya sur'ati, davlat tomonidan foiz stavkasining boshqarilishi, xalqaro omillardir

***Kredit institutlari*** - pul egalari bilan qarz oluvchilar o'rtasida bilvosita xizmat ko'rsatadigan banklar, moliyaviy fondlar, yirik kompaniyalardan iboratdir. U 3 xil bo'ladi, ya'ni banklar, parobank tashkilotlari, kredit topishga xizmat qiluvchi kompaniyalar ko'rinishida bo'ladi

***Bank*** - bu muomala, to'lov vositalariga xizmat qiluvchi va faoliyat ko'rsatuvchi pul bozoridagi institut hisoblanadi

***Kredit tizimi*** - bu bank va boshqa kredit muassasalari – ularning kredit operatsiyalarini bajarish uslublari, kreditni tashkil etishning huquqiy shakllarini bildiradi

***Bank tizimi*** - kredit tizimi negizi sifatida o'zining markazlashuvi bilan kishining mohirona, tadbirkorona va mukammal faoliyati majmuidir

***O'zbekiston bank tizimi*** - bu asosan Markaziy bank va tijorat bnklaridan iboratdir. Uning tarkibi quyidagicha, ya'ni

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;
O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki;
Xalq banki;
Aktsiya, pay asosda, hatto chet el vakillari ishtirokida tuzilgan tijorat banklari. Bular "Sanoat qurilish banki", "Paxtabank", "G'allabank", "Savdogarbank", "Mikrokreditbank", "Asakabank", "O'ktambank", "Hamkorbank" va hokazo. Umuman 30 dan ortiq tijorat banklari mavjuddir.

***Bank foydasi*** - bu kredit summasi hisobidan olingan va to'langan foiz summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lib, uni marja deb yuritiladi

***Bank foyda normasi*** - sof foydasining uning o'z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasini bildiradi

***Bank operatsiyasi*** - bu sub'ektlar mablag'larini jalb qilish, ularni muomalaga chiqarish, qarz berish kabi ishlarni amalga oshirishdagi hatti-harakatdir

***Markaziy bank*** - bu davlat banki bo'lib, u muomalaga pul chiqaradi va pul qabul qiladi. Shuning uchun ham uni banklarning banki deb yuritiladi. Iqtisodiyotning lokomotivi hisoblanadi

***Parobank*** - bunga kredit institutlarining kichik kredit tashkilotlari kiradi. U kooperativ, kredit ittifoqilari va uyushmalaridan iborat

***Bankning tamoyillari*** - bu mijozlar manfaatini ustun qoyish, yuqori foyda olib ishlash, raqobatda ishtirok etish, likvidli bo'lish, riskka qo'l urish

***Milliy bank*** - bu Markaziy bank a'zosi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat uchun xizmat qiladi

***Investitsiya banklari*** - ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoq va sohalari – sanoat, savdo, transport va boshqa mijozlarga sarmoyalar beradi

***Innovatsiya banki*** - bu ilmiy texnikaviy loyihalarni sotish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarga qarz beradi

***Lizing firmalari*** - tovarlarni ijaraga berish bilash shug'ullanadi

***Faktoring firmalari*** - bu mijozlarning boshqalarga bo'lgan qarzlarini undirishni bajaradi

***Lombardlar*** - bu ko'chirib bo'ladigan mol-mulk evaziga kredit beradi

***Kredit birlashmalari*** - xususiy shaxslar guruhi yoki mayda kredit muassasalari birgalikda tashkil etadilar va 2 tipda bo'ladi: 1. Jismoniy shaxslar guruhi kasbi yoki territorial jihatiga qarab, qisqa muddatli iste'mol krediti berish uchun tashkil qilinadi; 2. Mustaqil mayda kredit muassasalari ixtiyoriy tarzda birlashuvi tufayli tashkil qilinadi

***O'zaro kredit beradigan jamiyat*** - bu mayda va o'rta biznesga qarz beradigan jismoniy, yuridik shaxslar birlashmasidan iborat

***Moliya kompaniyalari*** - bu savdo firmalariga nasiyaga sotilgan tovarlar hamda sanoat firmalariga qarzga sotilgan tovar uchun kredit beradigan muassasalardan iboratdir

***Sug'urta kompaniyalari*** - bu mablag'larini sanoat kompaniyalari obligatsiyalari, aktsiyalari hamda davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotib olishga qoyadigan tashkilotdir

***Pensiya fondi*** - bu nafaqa berish uchun pul mablag'lari fondini tashkil qiladi va bu mablag'larni sanoat kompaniyalari aktsiyalariga qoyadi

***Investitsion kompaniyalar*** - bu turli tarmoqlardagi qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish uchun o'z sarmoyalarini mayda mijozlar o'rtasida joylashtiradi

***Kredit shirkatlari*** - kooperativlar, ijara korxonalari, kichik biznes, jismoniy shaxslarga kredit hisob-kitob xizmatlar ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi. Kredit beruvchi shirkatning kapitali a'zolari to'laydigan paylar va kirish badallari hisobidan tashkil topadi, bu badallar a'zolar shirkatdan chiqqanda qaytarib berilmaydi

***Aktiv operatsiyalar*** - bu ssuda, vositachilik, savdo-o'rtachilik operatsiyalari hisoblanadi

***Qishloq xo'jalik krediti jamiyati*** - bu kredit beruvchi shirkatlarning bir turi, uni Markaziy, tijorat, maxsus banklar, hukumat, jismoniy, yuridik shaxslar birgalikda tashkil qiladi. Ular qishloq xo'jaligini rivojlantirishga kreditlar berish yo'li bilan shug'ullanadi. Mijozlari dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari bo'lib, ularga soliq imtiyozlari beriladi

***Xalqaro mehnat taqsimoti*** – bu jahondagi mamlakatlardan alohida har bir mamlakatning tovar va xizmatlarning u yoki bu turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini bildiradi

***Xalqaro iqtisodiy intgeratsiya*** - bu dunyodagi mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarini o'zaro yaqinlashuvi va ularni iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo'lidagi hamkorligidir

***Ochiq iqtisodiyot*** – bu ijtimoiy mehnat taqsimotiga asosan tashqi iqtisodiy aloqalarga kirgan va uning afzalliklariga tayanib rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotidir

***Yopiq iqtisodiyot*** - bu tashqi dunyo bilan aloqa qilmaydigan, o'z qobig'iga o'ralib qolgan va o'zini-o'zi ta'minlash maqsadida faoliyat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotdir. Masalan, o'rmonlarda, chakalakzorlarda istiqomat qilayotgan tsivilizatsiyadan batamom ajralib qolgan qabilalardir

***Jahon xo'jaligi*** - bu milliy va jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, uni barqarorligini ta'minlab berish yo'lida mustaqil davlatlarning ijtimoiy mehnat taqsimotiga asosan bir-birlari bilan iqtisodiy hamkorligini majmuasi bo'lib, yaxlit ichki va tashqi bozorlarda savdo-sotiq qilishdir

***Iqtisodiyotda taqqosiy afzallik*** – bu muayyan tovar yoki tovarlar guruhini sifatli va arzon ishlab chiqarish, tovarlarni ko'p bo'lishi va uni boshqa tovarlarga ayirbosh qilinishini taqqoslash yo'li bilan uni afzalligini ko'rsatadi

***Taqqosiy afzallik omillari*** - bu tabiiy resurslarning mavjudligi; geografik muhit (holat); ishlab chiqarish omillari narxlarining nisbati; to'plangan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan iborat

***Xalqaro savdo-sotiq*** - bu jahondagi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar (tovar ayirboshlash, ya'ni sotish va sotib olish) bo'lib, u taqqosiy afzallik qoidasiga amal qiladi

***Eksport*** - bu iqtisodiy aloqalarning eng muhti shakli bo'lib, tovarlar va xizmatlarni tashqi bozorlarga (jahon bozoriga) chiqarib sotishdir

***Import*** - bu iqtisodiy aloqalarda qo'llaniladigan tovar va xizmat ayirboshlashdirki, tovarlar va xizmatlarni tashqaridan sotib olish va uni mamlakat ichki bozorlariga kiritishni amalga oshiradi

***Tashqi savdo balansi*** - bu eksport va importning nisbatini bildiradi va u aktiv hamda passiv bo'lishi mumkin

***Sof eksport*** - bu eksport va import o'rtasidagi farqni bildiradi, ya'ni Eksport – import = sof eksport

***Kapital kiritish*** - bu davlatlar o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy hamkorlik bo'lib, bundan maqsad – milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga sharoit yaratishdir

***Kapital chiqarish*** - kapitalni mamlakat ichkarisida keltiradigan foydasi kamroq bo'lsa, ko'proq foyda olish maqsadida mamlakatlar tashqi mamlakatlarga o'z kapitallarini eksport qiladilar

***Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi*** - bu mehnat resurslarini ish bilan qulay sharoitlari bor joylarga joylashtirish maqsadida ish kuchini bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishini bildiradi. Bu mamlakat ichida yoki mamlakat tashqarisida amal qiladi

***Emigratsiya*** - bu mehnatga yaroqli bo'lgan ishchi kuchining bir mamlakatdan doimiy yashash va ishlash uchun boshqa mamlakatga ko'chib ketishini bildiradi

***Imigratsiya*** - bu mehnat resurslarining bir mamlakatdan ikkinchisiga domiy yashash va ishlash uchun kirib kelishini bildiradi

***Erkin savdo zonalari*** - bu iqtisodiy integratsiyaning eng ma'qul shakllaridan biri, bunda savdo cheklashlarini bekor qilish ta'minlanadi

***Boj ittifoqi*** - bu mamlakatlar o'rtasida yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni bidiradi

***To'lov ittifoqi*** - bu milliy valyutalarning o'zaro almashinuvi va hisob-kitobida yagona pul birligining amal qilishini bildiradi

***Umumiy bozor*** - erkin chsavdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o'tkazish maqsadida uning ishtirokchilari kapital va ishchi kuchining erkin harakatini ta'minlaydilar

***Iqtisodiy va valyuta ittifoqi*** - bu integratsiyaning barcha qoidalariga amal qilishi, iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o’tkazish bilan birga uyg’unlashishdir. Bunga:
XVF – Xalqaro vaoyuta fondi (MVF);
XTRB – Xalqaro ta‘mirlash va rivojlantirish banki (MBRR);
TSKB – Tariflar va savdo boyicha kelishuv (GATT);
IMUK – NATOning Iqtisodiy masalalarini uyg’unlashtiruvchi komiteti (KOKOM);
IXRO – Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR);
XRU – Xalqaro rivojlanish uyushmasi (MAR);
XMK – Xalqaro moliyaviy korporatsiya (MFK)

***Mehnat migratsiyasi*** - ish kuchini jahon mamlakatlari o’rtasida bir mamlakatdan ikkinchisiga ko’chib o’tishi xalqaro miqyosini bildiradi

***Valyuta kursi -*** bu bir yoki bir necha mamlakatlar guruhi pul birliklarini boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalanadigan narxini bildiradi. Valyutalar shu kursga binoan ayirbosh qilinganda kursga binoan ayirbosh qilinadi. Masalan, AQSH dollari Angliya funtiga almashganda ikki mamlakat valyutasi tenglashtiriladi yoki AQSH dollari yevroga almashganda esa bir amlakat valyutasi Yevropadagi bir guruh mamlakatlarning umumiy valyutasiga tenglashtiriladi

***Valyuta konvertatsiyasi*** - har bir milliy valyutaning boshqa milliy (davlat) valyutaga almash olish xususiyatini bildiradi

***Integratsiya*** - bu jahondagi turli amlakatlar milliy iqtisodiyotining bir-biriga yaqinlashib, asta-sekinlik bilan ularni qo’shilishi natijasida yagona mamlakatlararo xo’jalik yuritish tizimini hosil qilishidir. Masalan, yagona umumiy bozor, yagona iqtisodiy makon, iqtisodiy siyosatning muvofiqlashuvi, yagona pulning kiritilishi, erkin savdo tashkil topishidir

***Globalizatsiya*** - er yuzidagi (210 mamlakat) mamlakatlarning har birining milliy iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanishi, ulardagi o’zgarishlarga tarnsformatsiyalanishi, ya‘ni ta‘sirini qabul qilishi, moslashishini bildiradi

***Iqtisodiyotning ijtimoiy yo’nalishi*** - bu ko’p mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotiga xos bo’lgan umumiylik bo’lib, ko’pchilini tashkil etuvchi aholining farovonligini ta‘minlovchi ijtimoiy iqtisodiy faollikdir. Shuningdek, aholining muhtoj qatlamlariga o’zlarining daromadlaridan yordam berishni bildiradi

***Iqtisodiy farovonlik*** - bu aholi jon boshiga iste‘mol qilinishi lozim bo’lgan tovarlar va xizmatlar miqdori va sifati birligidan ibort bo’lib, ning qiymatini bozor narxida o’lchanishidir

***Farovonlik*** - bu kishilar iste‘mol qiladigan hayotiy moddjiy va nomoddiy mahsulotlar bo’lib, moddiy va nomoddiy ne‘matlarni iste‘mol qilish miqdori va uning sifati hayot kechirish uchun yetarli darajada bo’lishini bildiradi

***Shaxs va oila farovonligi*** - bu har bir mehnatga layoqatli bo'lgan shaxs va o'z oilasi farovonligini ishlab topgan daromadlari darajasida ta'minlanishidir

***Bozor daromadlari*** - bu mehnatga layoqatli har bir sub'ektning tovarlar va xizmatlar yaratishga qo'shgan mehnati evaziga beriladigan to'lovlarning ifodasidir. Ya'ni ish kuchi egasi – yollanib ishlovchi ish haqi, kapital egasi – foyda, ko'chmas mulk egasi – renta, pul egasi – foiz, aktsiya egasi – dividend ko'rinishlarida daromad oladilar

***Nobozor daromadlar*** - bu qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlarga beriladigan barcha turdagi nafaqalar, bir yo'la yordam pullari, stipendiyalar ko'rinishida bo'ladi

***Mehnatdan keladigan daromad*** - bu bozor qonun-qoidalariga asosan ishlab chiqariladigan barcha daromadlar bo'lib, u mehnat daromadi (ish haqi), foyda, dividend, foizlardan iborat bo'ladi

***Foyda*** - bu iqtisodiy kategoriya bo'lib, inson faoliyatining biron-bir turiga sarf qilingan xarajatlar va olingan daromadlar o'rtasidagi farqini bildiradi

***Iqtisodiy foyda*** - Bu kapital keltirgan daromad bo'lib, uning egasiga tegishli bo'ladi va u bozor iqtisodiyoti sharoitida kafolatlanmagan bo'ladi

***Dividend*** - bu sub'ektlarning sherikchilik asosida qo'shgan kapitalga ulushbay qo'shilgan hissasiga oladigan daromadidir va foydasidir

***Foiz*** - vaqtincha ortiqcha bo'lgan pul mablag'larini o'z egalari tomonidan, o'zgalarga muddatli qarz berish yo'li bilan ustama haq (pul) olishini bildiradi

***Renta daromadi*** - bu qo'chmas mulk egalarining o'z mulklarini ishlatishlaridan topgan daromadlari va mulkni ijaraga berish yo'li bilan olingan daromadlar majmuasini tashkil topishini bildiradi. Xususan, yer, binolar, inshootlar, uy-joylarni o'z egalari boshqa sub'ektlarga ijaraga berib daromad oladilar

***Mulkiy daromadlar*** - bu mulkdardan olingan daromad, foiz, foyda va dividendlarning umumlashgan shaklidir

***Taqsimot*** - iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiyotga doir taqsimot qonuniga amal qilgan holda turli foaliyat turlaridan topilgan daromadlarni sub'ektlar qo'liga o'tishini bildiradi. Daromadlarni taqsimlash jarayoni birlamchi taqsimlash (asosiy daromadlar – ish haqi, foyda, renta, foiz) dan iborat va qayta taqsimlash hosila daromad bo'lib, unga byudjetdan beriladigan daromad, turli fondlar beradigan daromad va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan tegadigan darmoadlardan iborat bo'ladi

***Byudjetdan beriladigan daromad*** - davlat pensiyasi, ish haqi, subsidiya, nafaqadan iborat

***Turli fondlar beradigan daromad*** - jamg'arma pensiyasi, xodimlarning ish haqi, grantlar

***Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlardan tegadigan daromad*** - xodimlar ish haqi, bir yo'la to'lovlardir

***Turmush darajasi -*** bu aholining uzluksiz oshib boradigan ehtiyojini iqtisodiyotning erishgan holatida qondirilishi bilan aniqlashni bildiradi

***Real daromad*** - bu sbu'ektlarning o'z ixtiyoridagi jamg'armalari hisobidan ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarni bozor bahosida xarid qila olish qurbi yoki imkoniyatining amalda bo'lishidir

***Tirikchilik qiymati*** - bu tovarlar va xizmatlarning to'plami iste'mol savatini tashkil qilgan sharoitda, ularni bozor narxida sotib olishga sarflanadigan pul miqdoridir

***Daromadlar differentsiyasi*** - bu daromadlarning farqlanishi bo'lib, ular tengsizlikdan iborat bo'ladi

***Aholining kvintelga ajralishi*** - bu daromadlar o'rtasidagi farqdan iborat bo'lib, u 5 guruhga ajratiladi

***Lorents chizig'i -*** bu mamlakatda yaratilgan jami daromadni aholiga taqsimlanishida tengsizlik amal qilishini ko'rsatib bergan. Masalan, agar daromadlar bir tekisda taqsimlansa, aholi sonidagi hissa bilan daromaddagi hissa teng bo'lishi kerak, ya'ni 20% aholi 20% daromadni, 60% aholi 60% daromadni olishi kerak. Unda daromadlarning taqsimlanishi AV to'g'ri chiziq boylab ketadi. Daromadlarni notekis taqsimlanishi natijasida aholining katta qismi davromadlarning kichik qismini oladi. Natijada daromadlarning taqsimlanishi AV yoysimon chiziqni hosil qiladi. Yoysimon chiziq AV bissektrisadan qanchalik yiroqlashsa shunchalik daromadlarda tengsizlik kuchli bo'lishini Lorents ko'rsatib bergan

**Kambag'allik** - bu nisbay mazmunga ega bo'lib, aholining ma'lum qismi boshqasiga nisbatan kambag'al deyiladi. Kambag'allik chegarasini tirikchilik minimumi deyiladi. Minimum mamlakatlarning iqtisodiy darajasiga qarab belgilanadi

***Aholining daromadga qarab taqsimlanishi*** – bu daromadlardagi va taqsimotdagi tengsizlikka qarab ajralishini bildiradi, ya'ni kambag'al, o'rta hol va boylarga ajaralishidir. Boylar oddiy va o'ta boylarga bo'linadi. Boylikning yuqori chegarasi bo'lmaydi. Masalan, 2003 yilda o'ta boylar qatoriga jami boyligi bir mlrd. dollardan yuqori bo'lganlar kiritilgan, ular milliarder bo'lgan va yer yuzida shu yili 476 ta milliarder bo'lgan va ularni jami boyligi 1 trln. 933 mlrd. dollarga tng bo'lgan. Planetaning eng boy kishisi Bill Geyts (AQSH) bo'lib, uning umumiy boyligi 40 mlrd. dollarni tashkil etadi. Dunydagi eng boy ayol Elis Uolton (AQSH) bo'lib, uning umumiy boyligi 16,5 mlrd. dollarni tashkil etgan

***Iste'mol savati*** - mehnatga layoqatli ishchi kuchini takror hosil qilish uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlari va xizmatlari yig'indisiga sarf qilinadigan xarajatlardir

***Kambag'allik darajasi*** - bu iqtisodiyotning umumiy darajasiga teskari mutnosiblikda bo'lishini bildiradi. Iqtisodiy o'sishning yuqori bo'lishi kambag'allikni kamaytiradi

***Kambag'allarga yordam*** - ish bilan bandlik ta'minlanadi va oshiriladi, minimal ish haqi belgilab qoyiladi. Ijtimoiy yordam tashkil etialdi, xayr-ehson ishlari uyushtiriladi, mehribonlik uylari ochiladi, chet elga borib ishlashga ruxsat etiladi. Daromadi tirikchilik minimumiga yetmagan aholini kambag'al deb aytish mumkin

***Aholi daromadlari tarkibi*** - bu quyidagilardan iborat bo'ladi: 1. Pul daromadlari; 2. Natura (mahsulot) daromadlari; 3. Natura-xizmat daromadlari. Makroiqtisodiyot (korxona, firma, xonadon va boshqa xo'jalik shakllarida) daromadlari manbai – ish haqi, foyda, dividend, foiz va rentadan iborat bo'ladi

***Xarajatlar tarkibi*** - sub'ektlar topgan daromadlari quyidagi maqsadlarga sarflanadi:
Oziq-ovqat mahsulotlariga;
Oziq-ovqat bo'lmagan tvoarlarga;
Iste'mol buyumlarini xarid qilishga;
Soliqlarni to'lashga;
Moddiy-maishiy xizmatlarga;
Dori-darmonlar xarid qilishga;
Alkogol ichimliklarni xarid qilishga va hokazo

***Ijtimoiy dasturlar*** - bu kambag'allikni bartaraf qilish maqsadida jamoatchilik Ishtirokida davlat tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasidir. Unga quyidagilar kiradi:

Yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikni oshirish;

Bandlik tufayli ishlab daromad topishga sharoit yaratib berish;

Qonun yo'li bilan minimal ish haqining joriy etilishi; Uning quyi chegarasini belgilab qoyish;

Ijtimoiy sug'urtani tashkil etish;

Sug'urta fondidan ishsizlik, kasallik, tug'ma nogironlik tufayli kambag'allashib qolganlarga, ko'p bolali xonadonlarga, bolasi bor yakka ayollarga molyaiviy yordam ko'rsatish;

Davlat, firmalar, jamoa tashkilotlari va o'ziga boy ayrim kishilar hisobidan turli xayr-ehson fondlarini tashkil etish, bu mablag'lar hisobidan bepul kiyim-kechak berish, ularni tekin ovqatlantirish va sog'liqlarini tiklab borish;

Ishsiz kambag'allarning chet elga borib ishlab pud topishlarini tashkil etish;

Qarovsiz va kambahal qariyalarni turli mehribonlik uylarida boqish, asrab-avaylash va hokazo

***Inson kamoloti indeksi*** - bu iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik birligini hosilasidir. Iqtisodiyotning taraqqiyot darajasi yuqori bo'lsa, indeks ham yuqori bo'ladi. Masalan, keyingi 20 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda jon boshiga yalri milliy ishlab chiqarish 30 foiz o'sgan, kambag'allar 1981 yilda yer shari aholisining 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilga kelib, kambag'allar 21 foizni tashkil etdi

***Iqtisodiy siyosat –*** bu iqtisodiyotda band bo'lgan kishilarning tanlab olgan faoliyatlarini yurgizishga oid yo'l–yo'riqlari va hatti-harakatlarining majmuasini ifodalaydi. Iqtisodiy siyosat uch xil darajada bo'ladi: Mikro, makro va meta (xalqaro) siyosatdir

***Mikrosiyosat*** - bu xonadon va firmalarning iqtisodiy faoliyatini bildiradi. Bu ko'p daromad (pul) topish va daromadni (pulni) oqilona sarflashdan iboratdir. Xonadonning maqsadi - o'zining iste‘molini ta‘minlashni ko'paytirish va kelajak uchun jamg'arma yaratish. Firmaning maqsadi – o'zi olib borayotgan faoliyatidan foydani ko'paytirish (maksimumlashtirish) va iqtisodiy barqarorlikni yaratishdir

***Makrosiyosat*** - bu davlatning milliy iqtisodiyotga oid olib borayotgan va amalga oshirayotgan ishidir. Davlatning maqsadi – milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va shu asosda xalq farovonligini uzluksiz ta‘minlab borishdan iborat bo'lgan siyosatdir

***Metasiyosat*** - bu turli davlatlar, xalqaro kompaniyalar va xalqaro tashkilotlarning jahon iqtisodiyotiga taaluqli siyosatidir

***Xonadon siyosati*** - o'zi va oila a‘zolarining iste‘molini kelajak istiqboli uchun jag'armalar yaratish va uni asrab-avaylab saqlab qolishga qaratilgandir

***Firma siyosati*** - yuritilayotgan faoliyatini iqtisodiy natijalarini ko'paytirish, olayotgan foydasini maksimumlashtirish va uni iqtisodiy barqaror bo'lishiga erishishdan iborat bo'ladi

***Davlatning siyosati*** - bu iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi kuch bo'lib, iqtisodiyotga bozor qonun-qoidalariga to'sqinlik qilmaydigan, balki bularga sharoit yaratib berish orqali milliy iqtisodiyotning integratsiyalashuvini va uni kelajagini ta‘minlab berishdan iboratdir

***Davlatning iqtisodiy siyosati*** - bu milliy iqtisodiyotni yaratish, uning barqaror o'sishini ta‘minlash, xalqning turmush darajasini yaxshilash, farovonligini oshirish, jamiyatdagi turli manfaatlarni uyg'unlashtirish, ularni yagona milliy manfaatlarga birlashtirish va nihoyat iqtisodiyotni tartiblab turuvchi siyosatdir

***Davlatning ijtimoiy siyosati*** - bu insonning hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, insonni himoya qilish va kamol topishiga qaratilgan va ko'maklashadigan yaora-tadbirkor majmuasidan iboratdir

***Davlatning iqtisodiyotdagi roli*** – bu ko'p qirrali bo'lib, xususan iqtisodiyotga aralashib boradi va ikki yo'nalishda ifodalanadi: Birinchidan, davlatga qarashli korxona va tashkilotlar milliy iqtisodiyotni bir bo'g'ini sifatida tovar va xizmatlar yaratib bozor munosabatlariga qatnashadi; Ikkinchidan, davlat umumiy manfaatlarini ifodalovchi kuch sifatida milliy iqtisodiyotni tartibtashtirib boradi

***Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi*** - bozor mexanizmlarini harakat qilishiga xalaqit bermasligi, uni ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratib berish va uni qo'llab-quvvatlashi qonunlar doirasida amalga oshirilishini bilidradi. Iqtisodiyotni tartiblashtirib borishda davlat mexanizmi bilan bozor mexanizmi birgalikda amal qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi

***Davlat siyosatining maqsadlari*** - bu barqaror iqtisodiy o'sishni, milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, iqtisodiy xavfsizlikni, milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini, aholi turmush farovonligini muttasil oshirishni, milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsiyalash va globalizatsiyalash, milliy iqtisodiyotni istiqbolini ta'minlashdir

***Monetar siyosat*** - bu davlatning pul-kredit siyosatidir. Bunda pul muomalasini tartibga keltirish, tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarib turishni bildiradi. Bu siyosat 2 xil bo'ladi: 1. Qattiq siyosat; 2. Yumshoq siyosat. Qattiq siyosat yuritilganda pul massasi qisqartiriladi, uning emissiya (pul chiqarish) hisobidan o'sishi chegaralanadi. Pul massasi qisqarib tovar massasiga tenglashadi. Yumshoq monetar siyosatda davlat pul massasining ortishiga to'sqinlik qilmaydi, pul emissiyasi cheklanmaydi, natijada pul ko'payib uning arzonlashuvi hosil bo'ladi

***Fiskal siyosat*** - bu davlatning soliq-byudjet siyosatidir, unga binoan soliqlar belgilanadi, byudjetga pul to'planadi

***Investitsiya siyosati*** - bu sarmoya resurslarini shakllantirish va uni iqtisodiyot va xizmat sohalariga yo'naltirishni bildiradi

***Agrar siyosat*** - bu davlatning agrar soha va tarmoqlarini rivojlantirish, uning iqtisodiy o'sishini ta'minlashga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirkoraini ifodalaydi

***Tashqi iqtisodiy siyosat*** - bu davlatning o'zaro manfaatli va foydali aloqalarini boshqa davlatlar bilan uzviy bog'lash va uni rivojlantirish natijasida mamlakat iqtisodiyotini jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvini ta'minlashni ko'zda tutadi

***Global iqtisodiy siyosat*** - bu xalqaro siyost bo'lib, iqtisodiy resurslar, yaratilgan tovar va xizmatlarni jahon mamalkatlari o'rtasida taqsimlash, bu aloqalardan mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali foydalanishini bildiradi

| | |
|---|---|
| ***Bandlik siyosati*** - | mamlakatda mavjud bo’lgan aholining ishga layoqatli va ishlash qobiliyati bo’lgan kishilarni ish bilan ta‘minlash, tirikchilik qilish uchun daromad topishga imkoniyat beradigan yaora-tadbirkorlar majmuidir |
| ***Daromadlar siyosati -*** | bu davlat ijtimoiy siyosatining muhim qismi bo’lib, mamlakatdagi davromadlarning taqsimlanishini tartiblashga xizmat qiladi. Ya‘ni bandlikni, pensiya bilan ta‘minlash, mehnatni ijtimoiy sug’urtalanishini ta‘minlash uchun firmalardan ular ajratgan mehnat haqi summasidan ijtimoiy soliqlar olinadi.Bu jamg’armadan ishsizlik nafaqasi, ish qobiliyatini yo’qotganlarga daromad qilib beriladi |
| ***Ijtimoiy himoya siyosati*** - | bu aholining nochor qatlamlariga yordam berish, ularni qo’llab-quvvatlash, aholining ma‘lum qismini (ishlab pul topishga qodir bo’lmagan kishilar) davlat byudjetidan pul bilan va moddiy narsalar bilan yordam ko’rsatishdir |
| ***Past daromadlilar*** - | bu kishilarning hayoti va yoshi davomida daromadlar o’rtasidagi tafovutlar kelib chiqadi. Shunga binoan yuqori va past daromadlarni yoshga nisbatan ko’rsatish mumkin: 1. Yoshlik davrida – past daromad; 2. O’rta yoshida – yuqori daromad; 3. keksaygan yoshda – past daromad oladilar |

# “IQTISODIYOT NAZARIYASI”

# FANIDAN TA‘LIM TEXNOLOGIYASI

# (O’qituvchiga mo’ljallangn metodikkomponenti)

**“Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ma‘ruza va amaliy mashg’ulot mavzulari va soatlari**

| t/r | Bo’lim va mavzular | Jami | ma‘ruza | Amaliy mashg’ulot |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va bilish usullari | 4 | 2 | 2 |
| 2 | Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari | 4 | 2 | 2 |
| 3 | Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari | 4 | 2 | 2 |
| 4 | Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir | 4 | 2 | 2 |
| 5 | Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi | 4 | 2 | 2 |
| 6 | Bozor iqtisodiyotiga o’tish davri va uning O’zbekistondagi xususiyatlari | 4 | 2 | 2 |
| 7 | Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati. | 4 | 2 | 2 |
| 8 | Raqobat va monopoliY. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari | 8 | 4 | 4 |
| 9 | Tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi. Korxona (firma) harajatlari va foydasi. Ish haqi va mehnat munosabatlari. | 4 | 2 | 2 |
| 10 | Agrar munosabatlar va agrobiznes | 4 | 2 | 2 |
| 11 | Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o’lchamlari. Yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari. Iste‘mol, jamg’arma va investitsiyalar. | 4 | 2 | 2 |
| 12 | Iqtisodiy o’sish va milliy boylik. | 4 | 2 | 2 |
| 13 | Milliy iqtisodiyotning nisbatlari, muvozanati va tsiklli rivojlanish tavsifi. Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik. | 4 | 2 | 2 |
| 14 | Moliya tizimi va moliyaviy siyosat. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli. | 8 | 4 | 4 |
| 15 | Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli. Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati. | 4 | 2 | 2 |
| 16 | Jahon xo’jaligi va uning evolyutsiyasi. Jahon bozori. Halqaro valyo’ta va kredit munosabatlari.<br>Halqaro iqtisodiy integratsiya va O’zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi. | 4 | 2 | 2 |
| | **Jami** | **72** | **36** | **36** |

## 1-mavzu. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va bilish usullari

### Ma‘ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| *Vaqti – 2 soat* | Talabalar soni: 50-60 nafar |
| *O’quv mashg’ulotining shakli* | Kirish, vizual ma‘ruza |
| *Ma‘ruza rejasi* | 1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi<br>2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi<br>3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari<br>4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar) |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi:* “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining predmeti va bilish usullari, rivojlanish tarixi, boshqa fanlar bilan aloqasi to’g’risida bilimlarni hamda to’liq tasavvurni shakllantirish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- Iqtisodiyot nazariyasi tushunchasi bilan tanishtirish va fanning predmetini tushuntirish;<br>- ilk iqtisodiy qarashlar bilan hamda ularning namoyondalari bilan tanishtirish;<br>- iqtisodiyotning bosh masalasini tavsiflash;<br>- iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarni guruhlash;<br>- ilmiy bilish usullarini izohlash va tasavvur hosil qilish | *O’quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- iqtisodiyot nazariyasi fanining predmetini izohlaydi;<br>- iqtisodiyot, ehtiyoj tushunchalariga ta‘rif beradi;<br>- iqtisodiy oqimlarni ifodalaydi va ularning asoschilarini aytib beradi;<br>-iqtisodiyotning bosh masalasiga tavsif beradi;<br>- iqtisodiy qonun va kategoriyalarga misollar keltiradi;<br>- ilmiy bilishning asosiy usullarini sanab beradi va izohlaydi;<br>- “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o’rnini tavsiflaydi. |
| *O’qitish uslubi va texnikasi* | Vizual ma‘ruza, blits-so’rov |
| *O’qitish vositalari* | Ma‘ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| *O’qitish shakli* | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| *O’qitish shart-sharoiti* | Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya |

### Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma‘lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich. Asosiy 60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.<br>- Iqtisodiyotga doir qanday atamalarni bilasiz?<br>- bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy tafakko'rni shakllantirish zarurati nimada deb oylaysiz?<br>- iqtisodiy tafakkurni qaysi fan shakllantiradi?<br>- Iqtisodiyot va uning bosh masalasi nima?<br>- Iqtisodiyot nazariyasi nimani o'rgatdi?<br>- Iqtisodiyot nazariyasi fanidagi asosiy oqimkarni ayting.<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi.<br>Iqtisodiyot, iqtisodiy faoliyat, takror ishlab chiqarish va uning bosqichlari, mikro va makroiqtisodiyotning doimiy va asosiy muammosi tushunchalarini sharhlaydi.<br>2.3. Ilk iqtisodiy g'oyalarning paydo bo'lishini va ularning namoyondalari to'g'risidagi taqdimotni namoyish qiladi. Ilmiy bilishg'a yondashish yo'llari, tamoyillari, qonun-qoidalari namoyish qilinadi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi.<br>Oylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishg'a harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Iqtisodiyot" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

**Iqtisodiyot** → Insonlarni iste'moli uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni cheklangan iqtisodiy resurslardan ishlab chiqarishda omilkorlik bilan foydalanish yo'li bilan yetkazib berishdagi faoliyatdir.

**Iqtisodiy faoliyat** → Insonlarning moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, iste'molchiga yetkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatishda qaratilgan, bir-biriga bog'liqlikda amalga oshiriladigan faoliyatdir.

**Iqtisodiyot fazalari**

Ishlab chiqarish → Tovarlar va xizmatlar yaratiladi.

Taqsimlash → Yaratilgan tovar (xizmat)lar hududiy birliklar, tarmoqlar, sohalar hamda resurs egalari o'rtasida taqsimlanadi.

Ayirboshlash — Turli xil bozorlarda tovar (xizmat)lar pul vositasida ayirboshlanib, ishlab chiqaruvchidan iste‘molchi qo’liga o’tadi.

Iste‘mol — Tovar (xizmat)lar pirovard foydalaniladi, ya‘ni ular shaxsiy va unumli iste‘mol qilinadi.

**Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi** jamiyat ehtiyojlarining cheksizligi hamda iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.

**Iqtisodiyotning asosiy muammosi –** bu iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qanday qilib to’laroq qondirib borish mumkinligi to’g’risidagi masaladir.

**“Iqtisodiyot nazariyasi” fan sifatida shakllanish jarayonida vujudga kelgan asosiy oqimlar**

**Merkantilizm –** jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo’lib, u savdoda, “asosan tashqi savdoda paydo bo’ladi va ko’payadi”, deb tushuntiriladi. Merkantilizm – italyancha “merkante” so’zidan olingan bo’lib, “savdogar” ma‘nosini anglatadi. Bu oqimning namoyondalari: Vil Shafford, Tomas Men, Antuan Monkreten, Gaspar Skaruffi va boshqalar.

**Fiziokartlar –** jamiyatning boyligi qishloq xo’jaligida vujudga keladi degan g’oyani ilgari suradilar. Bu ta‘limotning asoschisi: Fransua Kene (1694-1774 y.y.) hisoblanadi.

**Klassik siyosiy iqtisod –** boylik faqat qishloq xo’jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi. Asoschilari: U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, Sismondi, A.Sen-Simon, Sharl Fure, Robert Ouen va boshqalar.

**Iqtisodiyot nazariyasidagi yangi yechimlar (XIX asr oxiri va XX asr boshlari)**

**Marjinalizm vtaqillari (marginal-keyingi, qo’shilgan) –** keyingi tovar nafliligi, qo’shilgan mehnat yoki resurs unumdolrligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. Keyingi tovar nafliligining kamayib borish qonuni bu qonunning asosiy printsipi hisoblanadi. Shunga ko’ra narx harajatga bog’liq bo’lmay, keyingi naflilik asosida belgilanadi. Asoschilari: Karl Menger, Fridrix fon Vizer, Eygen fon Vem-Baverk, Uilyam Stenli Jevons va boshqalar.

**Neoklassik maktab (asoschisi Alfred Marshall**) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ralashuvini cheklash g'oyasini ilgari suradi. Bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini ko'rsatadi. Funktsional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor bahosini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb hisoblaydi. Asoschilari: Alfred Marshall, L.Valras, I.Shumpetter va boshqalar.

**Keynschilik** – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashg'a qaratiladi. Jon Meynard Keyns "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" (1936 y.) nomli kitobida bunday tartibna solish yalpi talabga hamda shu orqali inyaltsiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

**Neoklassik yo'nalishda yangidan vujudga kelgan oqimlar**

**Neoliberalizm** – asosiy e'tiborni davlatning iqtisodiyotga aralashuvini eng kam darajada keltirishg'a, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishg'a qaratish lozimligini uqtiradi. Asoschilari: F.Xayek, Shumpeter, L.Erkard va boshqalar.

**Monetarizm –** iqtisodiyotni boshqarishni pul muomalasini tartibga solish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi. Asoschisi: M.Fridman.

**Instituttsionalizm –** tarafdorlari fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchilar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy balki noiqtisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. Shu sababli, iqtisodiyotda muassasaviy o'zgarishlar orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asoschilari: T.Veblen, L.Gelbreyt va boshqalar.

**Fanning predmeti**

Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qoidalarini o'rganadi.

**Iqtisodiy munosabatlar** – bu moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida vujudga keladigan turli xil munosabatlardir.

**Fanning maqsadi**

Cheklangan iqtisodiy resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini topish orqali jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'laroq qondirib borishning nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdan iborat.

**Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari**

- **Ilmiy bilish vazifasi** – iqtisodiy hodisa va jarayonlarning tub mazmunini, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni, shakl va mazmun o'rganishlarni o'rganishg'a qaratiladi.
- **Uslubiy vazifasi** – boshqa iqtisodiy fanlar iqtisodiyot nazariyasi asoslab bergan qonun va kategoriyalarga tayangan holda o'z predmetlarini o'rganadi. Ayni vaqtda bu fan boshqa fanlar chiqargan xulosalarni nazariy jihatdan umumlashtiradi.
- **Amaliy vazifasi –** xo'jalik yuritishning oqilona usullari, asosiy qoidalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qiladi.
- **Bashorat qilish vazifasi** – jamiyat ijtimoliy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbollarini ilmiy asoslab beradi.
- "Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirishi, ularning dunyoqarashini o'zgarishi" (I.A.Karimov. O'zbekiston boyo'q kelajak sari. T. "O'zbekiston", 1999, 87-bet) vazifasi iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlarni amalga oshirishg'a xizmat etadi.

**Iqtisodiy qonunlar –** iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

**Iqtisodiy kategoriyalar –** doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushunchadir.

**Iqtisodiy tahlil uslubi –** bu ilmiy bilishning tamoyillari tizimi, yo'llari, qonun-qoidalari va aniq hadislaridir.

**Ilmiy bilish usullari**

| | |
|---|---|
| Dialektik usul | Iqtisodiy jarayonlarni doimiy o'zgarishda (oddiydan murakkablikka, quyidan yuqoriga) va rivojlanishda o'rganadi. |
| Ilmiy abstraktsiya usuli | Tahlil paytida halal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqea-hodisalarni fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tiborni qaratishdir. |
| Tahlil | O'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan o'rganishdir. |
| Sintez | O'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab umumiy xulosa chiqarishdir. |
| Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli | Jarayonlarni asosiy ichki zarur qonuniy bog'lanishlar va tarixiy rivojlanish nuqtai-nazaridan tahlil qilishdir. |
| Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilni qo'shib olib borish | Iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish korxona va firmalarning faoliyati va milliy iqtisodiyot tahlil qilinadi. |
| Induqtsiya va deduqtsiya | Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, ammo o'zaro bog'liqliqdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga qarab harakati induqtsiya, aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga tomon harakati deduqtsiya deb ataladi. |
| Taqqoslash, statistik, matematika va grafik usullar | Iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish. |

**Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar –** bu jamiyat a'zolarining yashashi va kamol topishi uchun kerakli, hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyatidir.

**Seminar mashg''ulotining o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| O'quv mashg'uloti shakli | Bilimlarni chu'qo'rlashtirish va kengaytirish boyicha seminar mashg'uloti |
| O'quv mashg'uloti rejasi | 1. 1. Iqtisodiyot va uning bosh masalasi<br>2. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi<br>3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari<br>4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar (ilmiy tushunchalar |
| O'quv mashg'ulotining maqsadi: Bu seminar mashg'uloti jarayonida savollar va muammolar borasida suhbat o'tkaziladi. Bu darsda "aqliy hujum" usulini ham kullash mumkin. Shuningdek, test va masalalar yechish mumkin. | |
| Pedagogik vazifalar:<br>- mavzu boyicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash.<br>- darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish | O'quv faoliyatining natijalari: Talaba:<br>- iqtisodiyot, ehtiyoj, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy resurslar tushunchalariga ta'rif beradi.<br>- iqtisodiyotning asosiy masalalarini tavsiflaydi;<br>- asosiy iqtisodiy okimlarni aytib, ular ilmiy karashlarining mazmunini yoritadi;<br>- iqtisodiyot nazariyasining predmetiga ta'rif berib, vazifalarini ko'rsatib beradilar;<br>- iqtisodiy qonun va kategoriyalarga ta'rif berib, misollar keltiradilar;<br>- iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda asosiy usullarni sanab, sharhlab beradilar. |
| O'qitish uslubi va | Blits-so'rov, birgalikda o'qiymiz, "iqtisodiyot", "ehtiyoj" so'zlariga klaster, munozara. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proektor, flipchart, marker, doska. |
| O'qitish shakli | Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh boyicha o'qitish. |
| O'qitish sharoitlari | Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishg'a moslashtirilgan auditoriY. |

**Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich. Kirish (10 min) | 1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini kullagan holda o'tishni ma'lum qiladi.<br>1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:<br>Iqtisodiyot bilan bog'liq qanday terminlarni bilasiz? Ularning mazmunlarini ham bilasizmi? Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi. | 1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich asosiy (60 min) | 2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova).<br>Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi.<br>2.2. Guruhda ishlash qoidaisi bilan tanishtiradi (1-ilova).<br>Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi.<br>2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.<br>Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.<br>2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi.<br>2.5. Talabalar javobini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi.<br>2.6. Talabalarga B. B. B usuli boyicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni tuldirishni aytadi.<br>Tushunchalarga izoxlarni to'g'rilaydi va savollarga javob kaytaradi. | 2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar.<br>2.2. Savollar beradi.<br>2.3. Javoblarni tuldiradi.<br>2.4. Jadval ustunlarini tuldiradi va muhokamada ishtirok etadi. |
| 3-bosqich Yakuniy (10 min) | 3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.<br>3.2. Mustaqil ish sifatida "Talabalar iqtisodiy dunyokarashini shakllantirishda iqtisodiyot nazariyasining urni" mavzusida "esse" yozishni topshiradi. | 3.1. Eshitadilar.<br>3.2 Topshiriqni oladilar. |

**1- ilova.**

**O'quv topshiriqlar**

**Guruh bilan ishlash qoidalari**

**Guruh a'zolarining har biri**
- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar boyicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda surashlari mumkin;
- yordam suraganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga chi'qamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

1. **Bitta gap bilan savolga javobni shakllantiring.**
- Iqtisodiyot, iste'mol, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy resurslar, iqtisodiyotning bosh masalasi tushunchalari qanday bog'liqlikda namoyon bo'ladi?
- "Iqtisodiy maktablar va ulardagi iqtisodiy yondoshuvlar" boyicha sxema tuzing.
- Ushbu tushunchalarning mazmunini yoriting.
- Iqtisodiyot, ehtiyoj, iqtisodiy resurslar, iqtisodiyot nazariyasi tushunchalarining mazmuni. Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi - ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir.
- Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy iqtisodiy okimlar, ularning ta'limotlari.

| | **Tushuncha** | **Bilaman "+", Bilmayman** | **Bildim "+", Bila olmadim "-".** |
|---|---|---|---|
| 1 | Iqtisodiyot va uning bosh masalasi | | |
| 2 | Iqtisodiy resurslar | | |
| 3 | Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi | | |
| 4 | Ehtiyojlarning cheksizligi | | |
| 5 | Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi | | |
| 6 | Asosiy iqtisodiy okimlar | | |
| 7 | Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida karor topishi | | |
| 8 | Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar | | |
| 9 | Ehtiyojlarning tarkibi | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 10 | Ehtiyojlarning turlari | | |
| 11 | Ehtiyojlarni kondirish muammolari | | |
| 12 | Shark va Garbdagi iqtisodiy goyalar | | |
| 13 | Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti | | |
| 14 | Iqtisodiy qonunlar | | |
| 15 | Iqtisodiy kategoriyalar | | |

**Test.**

1. Iqtisodiyotning bosh masalasi va doimiy muammosi:
a) nima, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish;
b) ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun kancha ishchi kuchi sarflash kerak;
v) davlatning milliy daromadini qanday oshirish mumkin;
g) mahsulotni yangi texnologiya orqali ishlab chiqarish kerak;
d) to’gri javob yo’q.
2. Iqtisodiyot nazariyasi fani qanday hodisalarni o’rganadi va ularni ommaga yetkazadi?
a) hayotiy;
b) jamiyat;
v) statistik;
g) iqtisodiy;
d) siyosiy.
3. Iqtisodiy nazariyaning qaysi okimida savdo-sotik va asosan tashki savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?
a) merkantilizm;
b) fiziokratlar;
v) klassik burjua iqtisodiy maktabi;
g) marksistik nazariya;
d) marjinalizm.
4. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining qaysi okimida iqtisodiy o’sishni ta‘minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?
a) keynschilar;
b) monitarizm;
v) institutsionalizm;
g) liberalizm;
d) barcha okimlarda.
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?
a) ijtimoiy munosabatlarni o’rganish;
b) siyosiy munosabatlarni o’rganish;
v) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo’jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidailarini o’rganish;
g) huquqiy munosabatlarni o’rganish;
d) tabiiy jarayon va hodisalarni o’rganish.
6. Fanning iqtisodiy hodisalarni o’rganish usullari:
a) ilmiy abstraktsiyalash, induqtsiya, deduqtsiya;
b) anketalar tuzish, so’rovlar olib borish;
v) matematik va statistik;
g) a) va v) javoblar to’g’ri;
d) a) va b) javoblar to’g’ri.

## *2-mavzu: ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI*

**Ma‘ruza mashg’’ulotining o’qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2 soat* | Talabalar soni: 30-60 nafar |
| *O’quv mashg’ulotining shakli* | Axborot, vizual ma‘ruza. |
| *Ma‘ruza mashg’ulotining rejasi* | 1. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi.<br>2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.<br>3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.<br>4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi. |
| *O’quv mashg’ulotining matssadi:* ishlab chiqarish jarayoni va uning omillari to’g’risidagi bilimlarni chuqurlashtirish, ularga taallo’qli turli nazariyalarni tahlil qilish. | |

| | |
|---|---|
| *Pedagogik vazifalar:*<br>-ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini ochib berish;<br>-ishlab chiqarish omillariga tavsif berish shu haqidagi turli nazariyalar bilan tanishtirish;<br>-ishlab chiqarish imkoniyatlari chizigining mohiyatini ochib berish va uni ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog'liq holda tushuntirish. | *O'quv faoliyatining natijalari*: Talabalar:<br>- ishlab chiqarish omillarini tavsiflaydilar;<br>- ishlab chiqarish natijalari tavsiflaydilar;<br>- ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizigining mohiyati to'g'risida tasavvur hosil qiladilar;<br>- ishlab chiqarish funktsiyasini aniqlaydilar. |
| *O'qitish uslubi va texnikasi* | Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, blits-so'rov |
| *O'qitish vositalari* | Proektor, tarqatma material, doska, |
| *O'qitish shakli* | Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash |
| *Oq'itish sharoitlari* | Proektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchining | talabaning |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(5 min.) | 1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.<br>1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarni ekranga chiqaradi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. E'tibor beradilar. |
| 2-bosqich.<br>Bilimlarni faollashtirish<br>(10 min.) | 2.1. Asosiy kategoriya va tushunchalarni va ma'ruza oxirida yechiladigan masalalarni namoyish qiladi.<br>2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlari ma'lum qilinadi. | 2.1. Aniqlik kiritadilar. Savollar beradi. |
| 3-bosqich.<br>Asosiy (55 min.) | 3.1. Quyidagi savolni o'rtaga tashlaydi:<br>Aytingchi, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qanday omillar ishtirok etadi?<br>Ana shu savol boyicha bilimlarni mustahkamlash uchun "Sinkveyn" usulidan foydalangan holda (10-ilova) har bir omilga ta'rif beradi. Ishlab chiqrish omillarini aks ettiruvchi chizmani namoyish qiladi. Ishlab chiqarish omillarini turkumlarga ajratadi.<br>3.2. Ishlab chiqarish jarayonining mohiyati bilan tanishtiradi, mehnat jarayoniga ta'rif beradi.<br>-moddiy ishlab chiqarish;<br>-nomoddiy (xizmat ko'rsatish sohasi); | 3.1. Omillarni sanaydi.<br>Ta'riflarni yozib oladilar.<br>Ishlab chiqarish omillarini turkumlaydi.<br>3.2. Yozib oladilar, muhokama qiladilar. |
| | -birinchi bulinma;<br>-ikkinchi bulinmalar tarkibini tushuntiradi.<br>3.3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalariga ta'rif beradi.<br>Zaruriy mahsulot, qo'shimcha mahsulot, sof mahsulotning mazmunini tushuntiradi. Ishlab chiqarish funktsiyasining mazmunini va formulasini tushuntiradi.<br>Umumiy mahsulot, o'rtacha mahsulot, sunggi qo'shilgan mahsulot kategoriyalarining mazmunini yoritadi. | Guruhlash mezonini tushuntiradilar.<br>Yozadilar. |
| 4-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi.<br>4.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun savolarni beradi: mehnat, ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositasi, mehnat predmeti kategoriyalariga "Sinkveyn" misoli yordamida ta'rif berishni topshiradi. | 4.1. Eshitadi. Aniqlashtiradi.<br>4.2. Topshiriqni yozib oladilar. |

## Vizual materiallar

**Iqtisodiy faoliyat**

- Ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)
- Ayirboshlash
- Taqsimlash
- Iste'mol

**Ishlab chiqarish** – kishilarning iste'moli uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni va boyliklarni yaratishg'a qaratilgan maqsadga muvofiq amalga oshadigan faoliyatdir.

Yaratilgan mahsulotning ashyoviy-boyum shakliga ko'ra, ishlab chiqarish quyidagi turlarga ajratiladi:

- **Moddiy ishlab chiqarish** – moddiy ko'rinishg'a ega bo'lgan ne'matlar va boyliklar ishlab chiqaradigan tarmoqlar hamda sohalardan iborat bo'ladi. Bular sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, o'rmon xo'jaligi kabi tarmoqlardir.
- **Nomoddiy ishlab chiqarish** – moddiy ko'rinishg'a ega bo'lmagan, lekin jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy ne'matlar yaratadigan va xizmatlar ko'rsatadigan sohalarni o'z ichiga oladi. Bular transport, aloqa, savdo, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish kabi sohalardir.

Yaratilgan mahsulotning iste'mol qilinish xususiyatiga ko'ra moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari ham ikkiga ajratiladi:

- Ishlab chiqarish vositalari, ya'ni investitsion tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar

**Ishlab chiqarish omillari**

- Ishchi kuchi
- Tadbirkorlik qobiliyati
- Yer
- Kapital

**Ishlab chiqarishning umumiy natijasi** – yaratilgan jami tovarlar va xizmatlar, ya‘ni milliy mahsulotning yil davomidagi yig’indisidir.

**Ishlab chiqarishning pirovard natijasi** – ishlab chiqarish sohasidagi o’z harakatini tugatgan, jamiyat a‘zolarining ehtiyojlarini yo bevosita (iste‘mol fondi orqali), yoki bilvosita, ya‘ni ishlab chiqarishni kengaytirish (jamg’arish fondi) orqali qondirishg’a tayyor mahsulot hisoblanadi.

Yaratilgan mahsulot qiymat jihatdan uch qismga bo’linadi:

- Ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymatiningmahsulotga o’tgan qismi (s)
- Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning bir qismi, ya‘ni ishchilarga tegishli qismi – zaruriy mahsulot qiymati (v)
- Yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar va jamiyat uchun ishlab chiqarilgan qo’shimcha mahsulot qiymati (m)

Yaratilgan mahsulotdan iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlansa, qolgan qismi **sof mahsulot** deyiladi.

**Sof mahsulot**

- Zaruriy mahsulot
  - Ish haqi
  - Ijtimoiy himoya fondlari
- Qo’shimcha mahsulot
  - Foyda
  - Foiz
  - Renta
  - Soliqlar

**Zaruriy mahsulot** deb ishchi va xizmatchilar ish vaqtining bir qismi bo’lgan zaruriy mehnat bilan yaratilgan, ishchi kuchini normal holatda saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo’lgan mahsulotga aytiladi.

Sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi, ya‘ni qo’shimcha ish vaqtida qo’shimcha mehnat bilan yaratilgan qismi **qo’shimcha mahsulot** deyiladi

Ish kunini uzaytirish yo'li bilan olingan qo'shimcha mahsulot **absolyut qo'shimcha mahsulot** deb, ish kuni o'zgarmaganda zaruriy ish vaqtini kamaytirib, qo'shimcha ish vaqtini ko'paytirish evaziga olingan qo'shimcha mahsulot esa **nisbiy qo'shimcha mahsulot** deb ataladi.

Yil davomida olingan qo'shimcha mahsulotlar yig'indisi qo'shimcha mahsulot massasi, uning zaruriy ahsulotga nisbati esa (foizda ifodalanishi) **qo'shimcha mahsulot normasi** deb yuritiladi:

$$m' = m / v \times 100\%$$

Ishlab **chiqarish omillari bilan uning samaralari o'rtasidagi bog'liqlik ishlab** chiqarish funktsiyasi deb ataladi:

$$M = f(Ye, K, I)$$

**Umumiy mahsulot** jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutlaq hajmidir**.**

**O'rtacha mahsulot** deb jalb qilingan barcha ishlab chiqarish omillarining bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulotga aytiladi**:**

$$O'M = M / (I, K)$$

**So'nggi qo'shilgan mahsulot** deb eng so'nggi qo'shilgan omil (kapital yoki ishchi kuchi) evaziga o'sgan mahsulotga aytiladi.

Har bir qo'shilgan omil evaziga olingan qo'shilgan mahsulot esa **so'nggi qo'shilgan omil unumdorligi** deb aytiladi.

**Ishlab chiqarishning samaradorligi** olingan foydaning (F) ishlab chiqarishg'a sarflangan resurs harajatlariga (IX) nisbati bilan aniqlanadi:

$$P' = F / IX \times 100\%$$

**Mehnat unumdorligi** deb ishchi kuchining vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish qobiliyatiga aytiladi va ishlab chiqarilgan mahsulotning (iste'mol qiymatining) sarflangan mehnat miqdoriga nisbati bilan belgilanadi:

$$MU = M / V$$

**"Sinkveyn" (5 qator) texnikasi**
**Maqsad - kategoriyaga harakteristika berish**

| Sinkveyn sxemasi: |
|---|
| 1-qator - tushuncha;<br>2-qator - tushunchani tavsiflovchi 2 sifat;<br>3-qator - ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l;<br>4-qator - ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z birikmasi;<br>5-qator - ushbu tushuncha sinonimi. |

**Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni 25-30 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Munozarali seminar |
| Seminar mashg'uloti rejasi | 1. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi.<br>2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni.<br>3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.<br>4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va uning chegarasi. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari borasidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish. | |

| | |
|---|---|
| *Pedagogik vazifalar*:<br>- mavzu boyicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash;<br>- darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish va o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish. | *O'quv faoliyatining natijalari*: Talaba:<br>- mavzudagi asosiy tushunchalar, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish kategoriyalaring mazmunini yorita oladi;<br>- ularni guruhlay oladi, tizimlashtiradi, ishlab chiqarish omillari va resurslarini farqlay oladi;<br>- ishlab chiqarish natijalari to'g'risida aniq bilimga ega bo'ladi. |
| *O'qitish uslubi va texnikasi* | Munozarali seminar, suhbat, aqliy hujum. |
| *O'qitish shakli* | Jamoada va guruhlarda ishlash. |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matnlari, proektor, konspektlar |

**Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min) | 1.1. Mavzuni, maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Seminar munozara tarzida o'tishini e'lon qiladi.<br>1.3. Bilimlarni faollashtirish maqsadida "Siz qanday yangi iqtisodiy atamalar bilan tanishdingiz?" savoli bilan murojaat qiladi.<br>1.4. Munozara qoidailarini eslatadi. | 1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi. |
| 2-bosqich<br>asosiy<br>(60 min) | 2.1. Talabalarni munozara savollari bilan tanishtiradi<br>- ishlab chiqarish jarayonining mazmuni qanday?<br>- ishlab chiqarish omillarining mazmunini va tarkibini bilasizmi?<br>- mehnat unumdorligi nima?<br>- ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini ayta olasizmi?<br>2.2. Talabalar munozarasini tashkil etadi.<br>Har bir javobning mazmuniga va mantikiyligiga e'tibor beradi. Savollar berishni taklif etadi. Turli nuktai nazarlar tinglanadi va umumlashtiradi. Har bir savol muhokamasi umumiy xulosa bilan tugaydi.<br>2.3. Talabalarning qo'snimcha savollariga javob beradi. | 2.1. Eshitadilar va javoblarni tayyorlaydilar.<br>2.2. Talabalar savollarga uz nuktai nazarlarini bildiradilar, qo'snimchalar qiladilar va savollar beradilar. |
| 3-bosqich<br>Yakuniy<br>(10 min) | 3.1. Seminar mashgulotini yakunlaydi, savollar boyicha xulosalar chiqaradi, munozara ishtirokchilarini baholaydi.<br>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. (Mavzu boyicha masalalar) | 3.1. Eshitadilar.<br>3.2 Topshiriqni oladilar. |

**Munozara qatnashchilariga eslatma**

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida hissiyotlarinni jilovlab, batafsil uylagan holda so'zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat kil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tankidiy va muloxazali yondash.
6. Munozara predmeti boyicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

**Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari**

**Boshlovchi** barcha vazifalarni uziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, ko'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri ko'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

**Taqrizchi -** tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishishlar boyicha belgilash va tulik harakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantikiyligi va masalalarning aniq qoyilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

**Raqib -** kabul qilingan tadkikot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tankid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda uzining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

**Ekspert -** barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

**Munozara reglamentini o'tkazish tartibi**

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarin e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi - 2 minut.
4. Raqib - ma'ruza mavzusi boyicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.

Jamoaviy muhokama - 5-10 minut.

**Muhokama va xulosalarni shakllantirish uchun savollar**

*Moddiy va nomoddiy ishlab chitsarish va ularning o'zaro bog'liqligi.*

1. «Moddiy» va «nomoddiy» ishlab chiqarish tushunchalarining iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Ushbu iqtisodiy kategoriyalarni paydo bulishiga nimalar ta'sir ko'rsatadi?
3. Ularning o'zaro bog'liqligi qanday?

*O'zbekistonning resurs potentsiali va ulardan samarali foydalanish muammolari.*

1. O'zbekistonning resurs potentsialini qanday tavsiflash mumkin?
2. Ishlab chiqarish jarayonida resurs potentsialidan samarali foydalanishning mohiyati nimada?
3. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning resurs potentsialidan samarali foydalanishning qanday muammolari mavjud?

*Mehnat unumdorligi iqtisodiy o'sish omili sifatida.*

1. Mehnat unumdorligi tushunchasining iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Mehnat unumdorligini ortishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish kategoriyalarining o'zaro bog'liqliklari nimada?

**Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar**

1. Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish jarayonining mazmuni nimadan iborat?
2. Ishlab chiqarish omillari, ularning tarkibi, o'zaro bog'liqligi va birikish usullarini aytib bering.
3. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir kiluvchi omillar nimalardan iborat?
4. Mehnat taksimoti, uning kooperatsiyasi va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi qanday?
5. Moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda ularning o'zaro bog'liqligi nimalardan iborat?
6. O'zbekistonning iqtisodiy resurslari va undan ishlab chiqarish jarayonida samarali foydalanish muammolarini aytib bering.
7. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalarini aytib bering.
8. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va uning ko'rsatkichlari nimalardan iborat?

## *3-mavzu: IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI*

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2 soat* | Talabalar soni: 30-60 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Axborot ma'ruza, vizuaj ma]ruza |
| *Ma'ruza mashg'ulotining rejasi* | 1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishg'an bo'lgan turlicha yondashuvlar.<br>2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning modellari.<br>3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.<br>4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi*: iqtisodiy tizim va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari hamda mulkchilik munosabatlari to'g'risida talabalarda aniq tasavvur hosil qilish. | |

| | |
|---|---|
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- formatsion, texnologik, madaniylashg'an yondashuv to'g'risida ma'lumot berish;<br>- iqtisodiy tizim mohiyatini ochib berish;<br>- mulk, mulkchilik munosabatlariga ta'rif berish;<br>- mulk shakllarini tavsiflash;<br>- mulkni xususiylashtirish yo'llarini ko'rsatib berish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- formatsion, texnologik va madaniylashg'an yondashuvning mohiyatini aytib beradilar;<br>- tizim, iqtisodiy tizim, uning turlarini tavsiflay oladilar;<br>- mulk, mulk ob'ekti, sub'ekti, mulkchilik munosabatlariga ta'rif beradilar;<br>- mulk shakllarini guruhlay oladilar va xususiylashtirish yo'llarini aytib berdilar. |
| *O'qitish uslubi va texnikasi* | Axborot ma'ruzasi, Insert, blits-so'rov, prezentatsiY. |
| *O'qitish shakli* | Frontal ma'ruza, individual, guruh bilan ishlash |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, proektor, doska, |
| *O'qitish sharoitlari* | Jihozlangan auditoriya |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish (10 min.) | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadi. Blits-so'rov o'tkazadi.<br>2.2. Bilimlarni yanada aniqlashtirish maqsadida B.B.B jadvalini daftarga chizishni taklif etadi.<br>Doskaga chiqaradi.<br>2.3. Muammoli savollarni o'rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi:<br>1. Qaysi ijtimoiy-iqtisodiy mulk shakllari samarali rivojlanadi deb uylaysiz?<br>2. Nima uchun mulkiy munosabatlar jamiyatning asosiy iqtisodiy munosabatlari deb tan olinadi?<br>Bu savollarga javob berish uchun avval tizim, iqtisodiy tizim, tarakkiyot bosqichlari, ularga formatsion, madaniylashish, texnologik jihatdan yondashuvlar, an'anaviy, bozor iqtisodiyoti, ma'muriy boyrukbozlik, aralash iqtisodiyot tushunchalarni yoritib beradi. Iqtisodiyot tizimlarining afzallik va kamchiliklarnini tushuntirib beradi.<br>2.4. Muammoni hal qilish uchun quyidagi savollarga aniqlik kiritadi.<br>Mulk munosabatlari qachon va nima sababdan paydo bo'lgan?<br>Mulk munosabatlariga nimalar kiradi?<br>Mulk ob'ekti va sub'ekti nima?<br>Mulkning qanday shakllari bor? degan savollarga sxemalar va jadvallar yordamida javob beradi.<br>2.5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda O'zbekistonda mulkchilik masalalari qanday hal qilinmokda?, degan savolni o'rtaga tashlaydi. | Yozib oldilar va uz bilimlari bilan solishtiradilar.<br>Muammo yuzasidan uz yechimlarini taklif qiladilar. Munozara qiladilar.<br>Javob beradilar.<br><br>2.5. Optimal echimlar yuzasidan takliflar beradilar.<br>B. B. B. jadvalining 5-ustunini tuldiradilar. |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 3.1. Mavzuga xulosa qiladi.<br>3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: "Mulkchilik munosabatlarining mohiyati" mavzusida esse yozishni topshiradi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

**Vizual materiallar**

**Iqtisodiy tizim –** bu har bir davr va makonda amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik yuritish mexanizmi va iqtisodiy muassasalarning o'zaro uzviy bog'liqlik asosida tarkib topgan yaxlit iqtisodiy tuzilmasidir.

**Iqtisodiy tizimlarning tarkibiy qismlari**

- Ishlab chiqaruvchi kuchlar
- Iqtisodiy munosabatlar
- Texnologiya va ishlab chiqarishning tabiiy shart-sharoitlari
- Xo'jalik yuritish mexanizmlari
- Iqtisodiy siyosat

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar –** bu ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtasidagi bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-boyumlashg'an elementlar tizimidan iborat.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar –** bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlardir.

Muayyan taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan to'rining birligi va o'zaro ta'siri **ishlab chiqarish usuli**ni tashkil etadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya**

- Ishlab chiqarish usuli
  - Ishlab chiqaruvchi kuchlar
    - (empty box)
    - Ishlab
  - Ishlab chiqarish munosabatlari
    - -mulkchilik
    - -ishlab chiqarish
- Ustqurma
  - Siyosiy, huquqiy, mafko'raviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar

Ishchi kuchi

chiqarish vositalari

-taqsimot
-ayirboshlash
-iste‘mol munosabatlari va boshqalar

**“Tsivilizatsiya”** so’zi lotinchada fuqarolarga oid, ijtimoiy degan ma‘nolarni anglatadi.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan birgalikda **ishlab chiqarishning texnologik usuli** deyiladi.

- Oddiy kooperatsiya → Bir xil ishni yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shaklidagi uyushishi, birgalashib ma‘lum tartib asosida ishlaydigshan kishilar guruhidir.
- Manufaktura → Bu mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mavjud bo’lmagan sharoitdagi kooperatsiyadir.
- Mashinalashg’an ishlab chiqarish → Mehnat taqsimoti hamda mashinali mehnatga asoslangan kooperatsiyadir.

**Iqtisodiy tizim modellari**

- An‘anaviy iqtisodiyot
- Ma‘muriy – boyruqbozlik tizimi
- Bozor iqtisodiyoti tizimi
  - Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti
  - Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti

**Mulkchilik munosabatlari** – bu mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

- **Mulkka egalik qilish** – mulkdorlik huquqining uning egasi qo’lida saqlanib turishini bildiradi va yaratilgan boyliklarni o’zlashtirishning ijtimoiy shaklini ifodalaydi.
- **Mulkdan foydalanish –** bu mol-mulkning iqtisodiy faoliyatida ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo’llanishidir. Bundan daromad olish yoki shaxsiy ehtiyojni qndirish maqsadi ko’zda tutiladi.

**Mulkni tasarruf etish** – bu mol-mulkning taqdirini mustaqil hal qilishdir. Bu mulk ob‘ektlarini sotish, meros qoldirish, hadya qilish, ijaraga berish kabi yo’llar bilan roy beradi.

**Mulkchilik** ham iqtisodiy va ham huquqiy kategoriya hisoblanadi.

Mol-mulk ishlab chiqarish jarayonida foydalanilsa va o’z egasiga daromad keltirsa, yoki uning iste‘molini qondirishda xizmat qilsa, u iqtisodiy munosabatlarini ifodalab, iqtisodiy kategoriya sifatida chiqadi.

Mulk tadbirkorlik faoliyatining biror-bir turi orqali royobga chiqarilmasa, ya‘ni iqtisodiy faoliyatda foydalanilmasa, bunda u “huquqiy” kategoriya sifatida qoladi.

**Mulkchilikning huquqiy me‘yorlari**ni quyidagilar belgilab beradi:
-ishlab chiqarish vositalari va yaratilgan moddiy ne‘matlarning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi;
-mulk egalarining qonun bilan himoyalanadigan vakolatlari;
-mol-mulkni himoya qilish usullari.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni (egalik qilish, foydalanish va tasarruf yetish) bitta mulk shakli doirasida ham royobga chiqarish usullariga qarab farq qilishi mumkin:

Mulkchilik mehnatga majbur qilish yo’li bilan royobga chiqarilsa quldor yoki feodal xususiy mulki vujudga keladi.

Mulkchilikni royobga chiqarish mulkdorning o’z mehnati yordamida amalga oshirilsa, mayda tovar ishlab chiqarish uchun harakterli xususiy mulk paydo bo’ladi.

Mulk ob‘ekti yollanma mehnatga asoslanib harakatga keltirilsa, korporativ (kapitalistik) xususiy mulk paydo bo’ladi.

**Mulk ob‘ektlari** – bu mulkka aylangan barcha boylik turlaridir. Bular:
-ishlab chiqarish vositalari;
-inson yaratgan moddiy va ma‘naviy boyliklar;
-tabiiy boyliklar;
-intellektual boyliklar;
-insonning mehnat qilish qobiliyati bo’lgan ishchi kuchi va h.k.

**Mulk sub‘ekti** – bu mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari, ya‘ni mulk ob‘ekti va ishlab chiqarish natijalarini o’zlashtirishda qatnashuvchilardir, Ular:
-davlat (turli darajadagi hO’qumat va boshqaruv organi);
-korxonalar, xo’jalik birlashma (uyushma)lari, jamoat va boshqa tashkilotlar;

-alohida kishilar va oilalar;
-chet elliklar (xorijiy fuqaro, tashkilot va davlatlar).

**“Bozor munosabatlarini rivojlantirishg’a qaratilgan O’zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi”.** (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O’zbekiston”, 2003, 11-bet)

**Davlat mulki** – bunda mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish davlat ixtiyorida bo’ladi. Davlat mulkidan foydalanish huquqi ko’pincha xo’jalik yurituvchi sub‘ektlarga beriladi.

**Davlat mulki ikki darajada mavjud bo’ladi**.

- **Respublika mulki** – bular yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo’shlig’i, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, respublika hO’qumati va boshqaruv tizimlari mol-mulki, avlatga qarashli madaniy va tarixiy boyliklar, byudjet mablag’lari, oltin zaxirasi, valyo’ta fondi va boshqa davlat fondlari.
- **Ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulki** – bular davlat hokimiyati mahalliy organlari mol-mulki, mahalliy byudjet mablag’lari, munitsipil uy-joy fondi va kommunal xo’jaligi korxonalari hamda boshqa mulkiy majmualar, xalq ta’limi, madaniyat, sog’liqni saqlash muassasalari kabilar mol-mulki.

**Davlat mulki quyidagi yo’llar bilan hosil bo’ladi:**
-boshqa mulklarni milliylashtirib, davlat qo’liga olish;
-davlat mablag’lari hisobidan korxonalar va boshqa ob‘ektlar qurish;
-davlat korxona va tashkilotlarida investitsiyalarni amalga oshirish.

**Jamoa mulki** – bunda ishlab chiqarish vositalari va uning natijalarini o’zlashtirish jamoa-guruh holatiga ega bo’ladi. **Turlari:**

- Kooperativlar mulki
- Ijara va jamoa korxonalari mulki
- Aktsionerlik jamiyatlari mulki
- Xo’jalik jamiyatlari va shirkatlari mulki
- Jamoat va diniy tashkilotlar mulki

**Shaxsiy mulk** – fuqarolar mulki bo’lib, ularning shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondiishg’a xizmat qiladi. **Shaxsiy mulkning manbalari**:

- ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtirokidan oladigan daromadlari;
- o’z xo’jaligi (oila, dehqon) ni yuritish hisobiga oladigan daromadlari
- aktsiyadan kelaigan dividend
- foizli daromadlar
- shaxsiy tadbirkorlikdan olinadigan daromad
- transfert to’lovlari hisobiga kelib tushadigan mablag’lar

**Shaxsiy mulk ob‘ektlari**:

- uy va turar joylar
- bog’ va dala hovli
- transport vositalari
- uy-ro’zg’or va shaxsiy iste‘mol boyumlari
- xo’jalik faoliyati uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari
- xo’jalik faoliyati hisobiga olingan mahsulotlar
- pul jamg’armalari

**Xususiy mulk** – ayrim tadbirkorlarga qarashli, yollanma mehnatga asoslangan va o’z egasiga foyda keltiruvchi mulkdir. Bunda mulkka egalik qilish va uni tasarruf etish huquqi xususiy shaxslarga tegishli bo’ladi.

**Aralash mulk** – olingan mulk ob‘ektlari va uning natijalarini turli mulkdorlar tomonidan o’zlashtirilishini bildiradi.

**Mulkchilik masalasini hal qilish “... bozorni vujudga keltirishg’a qaratilgan butun tadbirlar tizimining tamal toshi bo’lib xizmat qiladi”** (Karimov I.A. Vatan sajdagog’ kabi muqaddasdir. T.: “O’zbekiston”, 1996, 202-bet.)

**Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish** – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir.

**Xususiylashtirish –** bu davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan alohida shaxslarga o’tishidir.

| |
|---|
| **O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishg'a bo'lgan yondashuvning xususiyatlari**:<br>- dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;<br>- maqsadli va manzilli (adresli) yo'naltirilganligi;<br>- to'lovliligi. |

**Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2-soat* | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Bilimlarni chu'qo'rlashtirish va kengaytirish boyicha muammoli seminar |
| *Seminar mashg'ulotining rejasi* | 1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari va ularni bilishg'an bo'lgan turlicha yondashuvlar.<br>2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning modellari.<br>3. Mulkchilik munosabatlarining mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari.<br>4. Mulkchilikning turli shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari to'g'risida bilimlarini mustahkamlash | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- mavzu boyicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash;<br>- darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- ijtimoiy taraqqiyot bosqichlariga formatsion, texnologik, tsivilizatsion yondoshuvlarga ta'rif beradi;<br>- har bir bosqichni tavsiflay oladi;<br>- mulkchilik jihatlarining mazmunini yoritadi;<br>- mulk shakllarini sanab beradi;<br>- milliylashtirish va xususiylashtirishning mohiyati va yo'llarini ko'rsatib beradi. |
| *O'qitish uslubi va texnikasi* | Muammoli usul, aqliy hujum, blits-so'rov. |
| *O'qitish shakli* | Frontal, kollektiv, guruhlarda |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, proekt, doska, bo'r |
| *O'qitish sharoitlari* | Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |

**Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, reja va maqsad, seminar mashg'ulotining rejasi ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi va yozadilar. |
| 2-bosqich.<br>Bilimlarni faollashtirish<br>(10 min.) | 2.1. Asosiy tushunchalar boyicha blits-so'rov o'tkazadi (1-ilova). Bir necha javoblarni eshitadi va faoliyat kichiq guruhlarda davom etishini aytadi.<br>2.2. Asosiy tushunchalar boyicha kategoriyalar tasnifini tayyorlashni aytadi (2-ilova). | 2.1. Eshitadilar, savollar beradilar.<br>2.2. Javob beradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich. Asosiy (50 min.) | 3.1. Talabalarni kichiq guruhlarga bo'ladi va topshiriq beradi:<br>asosiy tushunchalar boyicha kategoriyalarni tasniflash;<br>ishning natijalarini taqdimot shaklida tayyorlash;<br>berilgan topshiriq boyicha umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish.<br>Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi.<br>Guruhda ishni boshlanganini e'lon qiladi. Guruhlar ishlariga maslahat beradi.<br>Taqdimot jarayonini va jamoa bo'lib muhokama qilishni tashkil qiladi.<br>O'zlashtirish darajasini tekshirish maqsadida har bir talabaga savollar to'plamini tarqatadi (4-ilova).<br>4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi va rag'batlantiradi.<br>4.2. Mustaqil ish sifatida "O'zbekistonda xususiylashtirish bosqichlari" mavzusida yozishni topshiradi. | 3.1. Guruhlarda ishlaydilar, jamoa bo'lib ma'lumotlarni tizimlashtiradi; kategoriyalar jadvalini taqdimot qog'ozlariga yozadi.<br>3.2. Taqdimotni namoyish etadi, savollarga javob beradi.<br>3.3. Jadvalni tuldiradi va topshiradi. |
| 4-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi va rag'batlantiradi.<br>4.2. Mustaqil ish sifatida "O'zbekistonda xususiylashtirish bosqichlari" mavzusida yozishni topshiradi. | Eshitadilar va topshiriqni yozib oladilar. |

**Asosiy kategoriyalar:**

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim, mulk, uzlashtirish, egalik qilish, foydalanish, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, milliylashtirish.

**Kategoriyalarni tavsiflashni o'tkazish qoidaisi**

1. Guruhda "Aqliy hujum" o'tkazasiz va mavzu boyicha barcha tushunchalarni yozib olasiz.
2. Biron-bir belgisi boyicha olingan ma'lumotlarni umumlashtiruvchi kategoriyalarni aniqlaysiz.
3. Kategoriyani qog'ozga yozing va olingan ma'lumotlarni ma'lum mezonlar boyicha taksimlang.
4. Taksimlash jarayonida biron-bir kategoriyani nomini uzgartirish yoki qo'shish mumkin.
5. Kategoriya jadvalini tuzing.

| **Mavzu** | **Turlari/ko'rinishlari/xususiyatlari /sifati** | | | |
|---|---|---|---|---|
| Kategoriyalar/belgilar | 1 | 2 | 3 | |
| | | | | |
| | | | | |

**Kategoriya boyicha tavsiflash uchun mavzular**

1-guruh. Ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini bilishg'a turli yondoshuvlar.
2-guruh. Ijtimoiy tizimlar turlari.
3-guruh. Mulkchilik munosabatlari.
4-guruh. Mulkchilik shakllarini uzgartirish usullari.
5-guruh. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonlari.
6-guruh. Mulk shakllari.

**Mavzu boyicha nazorat savollari**

| *Savollar* | *Javoblar* |
|---|---|
| 1.Taraqqiyot bosqichlarini bilishda qanday yondashuvlar mavjud? | |
| 2. Ishlab chiqarish usuli nima va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat? | |

| | |
|---|---|
| 3. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim o'ziga xos belgilarini ko'rsating. | |
| 4. Ishlab chiqarish texnologik usulining tarkibiy qismlarini sanang. | |
| 5. Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi? | |
| 6. Iqtisodiy tizim nushalarini farqlantiradigan asosiy belgilarini sanab ko'rsating. | |
| 7. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring. | |
| 8. Mulk sub'ektlarining kup darajali bulishiga sabab nima? | |
| 9. Bozor iqtisodiyotiga o'tish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini takozo qiladi? | |
| 10. Xususiylashtirishning qanday usullarini bilasiz? | |

## *4-mavzu: TOVAR –PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI BOZOR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHI VA AMAL QILISHINING ASOSIDIR*

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2 soat* | Talabalar soni: 25-60 nafar |
| *O’quv mashg’ulotining shakli* | Vizual ma‘ruza, ikki tomonlama tahlil. |
| *Ma‘ruza mashg’ulotining rejasi* | 1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishg’a o’tish va uning rivojlanishi.<br>2. Tovar va uning xususiyatlari. Tovar ishlab chiqarishg’a sarflangan mehnatning tavsifi.<br>3. Qiymatning mehnat nazariyasi va qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyalari.<br>4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari. |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi*: ijtimoiy xo’jalik shakllarining rivojlanishi bokichlarini tavsiflash, natural xo’jalikdan tovar xo’jaligiga o’tish sabablarini aniqlash, iqtisodiyotning rivojlanishida ijtimoiy mehnat taksimotining urnini belgilash, tovarning xossalarini tushuntirish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- ijtimoiy xo’jalik shakllarini rivojlantirishda tarixiylik tamoyillarini ko’llashning yaqqol misoli beradi. Natural xo’jalikdan tovar xo’jaligiga o’tish sabablarini aniqlaydi;<br>-iqtisodiyotning rivojlanishida ijtimoiy mehnat taqsimotining o’rnini belgilaydi;<br>-tovarning xossalarini tushuntiradi;<br>-pulning kelib chiqish mohiyati va vazifalarini tasvirlaydi. | *O’quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- tovar tushunchasiga ta‘rif beradi va uning kelib chiqish sabablarini ko’rsatadi;<br>- tovarning xossalarini tushuntiradi;<br>- tovar qiymatini va qiymatning mehnat nazariyasini asoslaydi.<br>- pulga ta‘rif berib, vazifalarini sanaydi. |
| *O’qitish uslubi va texnikasi* | Ma‘ruza, hikoya, axborot, tovar, pul |
| *O’qitish shakli* | Guruhiy, kollektiv |
| *O’qitish vositalari* | Ma‘ruza matni, proektor |
| *O’qitish shart-sharoiti* | Jihozlangan auditoriya |

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Ma‘ruza mavzusi va rejasi e‘lon qilinadi. Avvalgi mavzuga savol-javob orqali boglanadi. | 1.1. Eshitadilar, yozadilar, javob beradilar. |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | Mavzuni yoritish uchun muammoli savollarni taklif etadi. Dars avvalida va sungida "bilaman-bildim" jadvalini tuldirish uchun savollar tarqatiladi.<br>Tovar ishlab chiqarishning asosiy sabablarini yoritib beradi.<br>Tovar va uning xususiyatlarini ikki tomonlama tahlil usulini ko’llab yoritib beradi.<br>2.5. Qiymat va uning kelib chiqish sabablarini, qiymat qonunining mazmunini yoritib beradi.<br>2.6. Pulning kelib chiqishi uning turlari to’g’risida ma‘lumot berib pul bilan bog’liq muammolarni mohiyatini ochib beradi.<br>2.7. B.B.B. jadvalining 2-ustunini to’ldirishni taklif etadi. | 2.1. Muammoli savollarga e‘tibor beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1-ustunini tuldiradilar.<br>2.2. Eshitadilar, yozadilar.<br>2.3. B.B.B. jadvalining 2-ustunini to’ldiradi. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-boskich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga xulosa chiqaradi. Asosiy masala ustida to’xtaladi. B. B. B. jadvalini tuldirishdagi savol-javoblarni tahlil qiladi va faol talabalarni baholaydi.<br>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi: muammoli savollarga tayyorgarlik ko’rish. | 3.1. Eshitadilar, savollarini beradi yozib oladilar.<br>3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar. |

## Vizual materiallar

**Ijtimoiy xo’jalik** – insoniyat jamiyati taraqqiyotining alohida uzoq davrlari davomida ishlab chiqarishning maqsadini ancha to’liq ifodalab qoladigan, barqaror umumiy belgilarga ega bo’lgan va rivojlanishida ma‘lum bir qonuniyatlarga asoslangan xo’jalik yuritishning barqaror turlaridir.

**Ijtimoiy xo’jalik shakllari**

- **Natural xo’jalik** – bunda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning o’z iste‘molini qondirish va ichki ehtiyojlari uchun ishlab chiqariladi.
- **Tovar xo’jaligi** – bunda mahsulot bozor uchun, ayirboshlash orqali o’tib, boshqalarning ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko’zlab ishlab chiqariladi.

**Natural xo’jalik belgilari:**

- mehnat taqsimoti yetarlicha rivojlanmagan
- ishlab chiqarish biqiq xususiyatga ega bo’lib, ishlab chiqaruvchilarning o’z ehtiyojlarini qondirishg’a boysundirilgan
- ishlab chiqarish bilan iste‘mol o’zaro mos kelmb, bevosita xo’jalik ichida bir-biri bilan bog’langan
- mehnat tor doirada ijtimoiy harakterga ega bo’lgan
- ishchi kuchining harakatchanligi cheklangan

**Tovar xo’jaligining belgilari:**

- ijtimoiy mehnat taqsimotining mavjud bo’lishi
- ishlab chiqaruvchilarning mulk egasi sifatida bir-biridan alohidalashuvi
- mahsulotlarning bozor uchun erkin ayirboshlash maqsadida ishlab chiqarilishi

**Ijtimoiy mehnat taqsimoti** – bu mehnatning bir turidan boshqa turlarining ajralib chiqishi, ya‘ni ishlab chiqaruvchilarning biron-bir mahsulot to’rini ishlab chiqarishg’a ixtisoslashuvidir.

Ishlab chiqarishning alohidalashuvi xususiy mulkning paydo bo’lishi bilan yuzaga keladi.

**Tovar** – bu biron bir naflilikka va qiymatga ega bo’lgan ayirboshlash uchun yaratilgan mehnat mahsulidir.

**Tovarning xususiyatlari**:

- **Almashuv qiymatiga ega** – bu bir tovar boshqasiga muayyan miqdoriy nisbatlarda ayirboshlanishida namoyon bo’ladi.
- **Naflilikka ega** – bu tovarlarning kishilarning biror-bir ehtiyojini qondirishida ko’rinadi.

**Qiymat (ayirboshlash) shakllarining rivojlanishi**

- Oddiy yoki tasodifiy shakli (1 bolta = 1 qop don)
- To’la yoki kengaygan shakli (1 bolta = 1 qoy yoki1 qop don yoki 1 ketmon)
- Umumiy shakli (1 bolta yoki 1 qoy yoki 1 ketmon = 1 qop don)
- Pul shakli (bolta yoki 1 qoy yoki 1 qop don = 1 unsiya oltin)

**Pul** – hamma turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovardir. Qog’oz pullar esa shu tovar pulning vtaqilidir.

**Pulning vazifalari**

- **Qiymat o’lchovi vazifasi** – bunda tovar (xizmat)ning almashuv qiymati pul vositasida hisoblanadi va baholanadi. Shuningdek, iqtisodiy resurs sarf-harajatlari va daromadlarini hisoblashning yagona o’lchov birligi ham puldir.
- **Muomala vositasi vazifasi** – bunda pul tovarlar muomalasi jarayonida vositachi sifatida maydonga chiqadi.
- **To’lov vositasi vazifasi** – tovarlar nasiyaga to’lov muddati kechiqtirib sotilganda va turli xil to’lov majburiyatlari amalga oshirilganda pul bu vazifani bajaradi
- **Jamg’arish vazifasi** – pul muomaladan chiqarib olinganda bu vazifani bajaradi. Real ravishda oltin pul va oltin boyumlar boylik to’plash vazifasini bajaradi.

→ **Jahon puli vazifasi** – oltin pulga tegishli. Ba‘zi nufuzli valyo’talar ham ideal ravishda bu vazifani bajarishi mumkin.

**B.B.B. metodi asosida tarqatma materiallar**

| | **Tushuncha** | **Bilaman "+", Bilmayman** | **Bildim "+", Bilaolmadim "-".** |
|---|---|---|---|
| 1 | Natural ishlab chiqarish | | |
| 2 | Tovar ishlab chiqarish | | |
| 3 | Tovar | | |
| 4 | Naflilik | | |
| 5 | Tovar qiymati | | |
| 6 | Almashuv qiymati | | |
| 7 | Aniq mehnat | | |
| 8 | Abstrakt mehnat | | |
| 9 | Mehnat unumdorligi | | |
| 10 | Mehnat intensivligi | | |
| 11 | Pul | | |
| 12 | Ijtimoiy zaruriy naflilik | | |
| 13 | Ijtimoiy zaruriy ish vaqti | | |
| 14 | Qiymatning mehnat nazariyasi | | |
| 15 | Oddiy mehnat | | |
| 16 | Murakkab va malakaviy mehnat | | |
| 17 | Qiymat qonuni | | |
| 18 | Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi | | |
| 19 | Pul vazifalari | | |
| 20 | Hozirgi zamon pulining iqtisodiy mazmuni va tabiati | | |
| 21 | Oltin va qog’oz pullarning o’zaro bog’liqligi | | |
| 22 | Real naflilik | | |
| 23 | Rasmiy naflilik | | |
| 24 | Oltining qiymati | | |
| 25 | Qiymat belgisi | | |
| 26 | Naqd va kredit pullaring xususiyatlari | | |
| 27 | Naqd pullar | | |
| 28 | Kredit pullar | | |

**O’quv materiallar Qiymat qonuni**

Iqtisodiyot nazariyasi fanida tovar qiymatining negizini nima tashkil qiladi degan savolga javob berishda ikki xil yo’nalishish mavjud hamda ular o’rtasida doimiy ravishda tortishuvlar va munozaralar bo’lib kelmoqda. Biz quyida shu ikki xil yo’nalishdagi nazariyalarning mazmunini O’quvchiga havola qilamiz.

Qiymatning mehnat nazariyasi. Bu nazariyaning asoschilari bo’lib Uilyam Petti, Adam Smit, David Rikardolar hisoblanadi.

U.Petti - qiymatning mehnat nazariyasining dastlabki asoschisi bo’lib, u qiymatning manbai mehnat hisoblanishini, aynan mehnat sarfi tovar qiymati miqdorini belgilab berishini ko’rsatib o’tgan. Birok, U.Petti tovarning iste‘mol qiymati va qiymati o’rtasidagi farqni ko’ra olmagan. U tovarning qiymati faqat qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishg’a sarflanuvchi mehnat orqali yaratiladi, deb hisoblagan.

A.Smit o’zining «Halklar boyligining tabiati va sabablari to’g’risida tadqiqotlar» (1776 y.) nomli asarida tovarning iste‘mol va almashuv qiymatini farqlab bergan. U tovar qiymatining yagona manbai bo’lib moddiy ishlab chiqarishning har qanday sohasida sarflangan mehnat hisoblanadi, degan xulosaga kelgan. Shu bilan birga, tovar qiymatining miqdorini har qanday mehnat emas, balki jamiyat uchun zarur bo’lgan o’rtacha mehnat belgilab berishini ko’rsatib utgan.

D.Rikardo qiymatning yagona mezoni bo’lib tovar ishlab chiqarishg’a sarflangan hamda ish vaqti sarflari orqali aniqlanuvchi mehnat hisoblanishini isbotlab bergan. U tovarning iste‘mol qiymati va qiymati o’rtasidagi farqni aniq ko’rsatib, har qanday ishlab chiqarishda tovarning qiymati sarflangan mehnat orqali aniqlanishini ta‘kidlagan.

Qiymatning mehnat nazariyasiga ko’ra ijtimoiy zarur ish vaqti o’ziga xos ijtimoiy mehnat me‘yori rolini oynaydi. Bu me‘yor bozorda aniqlanadi va tovar ishlab chiqaruvchilar unga amal qilishlari zarurdir. Keragidan

ortiqcha mehnat sarflari qiymat yaratmaydi, ya‘ni jamiyat tomonidan e‘tirof etilmaydi, rad etiladi. Bozorda muayyan turdagi tovarlarning asosiy massasini ishlab chiqarish uchun zarur bo’lganidan amaldagi ortiqcha mehnat sarflariga xech kim xaq to’lamaydi.

Qiymat qonuni resurslarning turli ishlab chiqarish sohalari o’rtasida taqsimlanishini tartibga solib turish vazifasini bajarayotganda ham narxlar dinamikasi muhim rol oynaydi. Agar u yoki bu aniq tovar ijtimoiy ehtiyojini qondirish uchun zarur bo’lganidan kamroq ishlab chiqarilsa, bu talabning taklifdan oshib ketishiga sabab bo’ladi. Tovar narxi oshib ketadi. Narxlar, shu bilan birga daromadlar kamayadi, bu tarmoqdagi ishlab chiqarish resurslari daromad yuqori bo’lgan boshqa tarmoqlarga o’tib ketadi. Qiymatning mehnat nazariyasi modellarida qiymat qonuniga asoslangan ishlab chiqarish nisbatlarini tartibga soluvchi bozor mexanizmi ana shunday tavsiflanadi.

Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi. Yuqorida qarab chiqqanimizdek, qiymatning mehnat nazariyasiga ko’ra, mehnat sarflarining ijtimoiy zaruriy darajasi faqat bozorda, ayirboshlashda yuzaga chiqadi. Qiymat faqat bozorda almashuv qiymat ko’rinishida o’zining ifodalanish shaklini oladi. Qisqacha aytganda, qiymat ishlab chiqarishda yaratiladi, biroq bozorda, ya‘ni ayirboshlash vaqtida namoyon bo’ladi. Shu yerda qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyotchilari qarashlari bilan karama-karshilik paydo bo’ladi. Uning mohiyati nimadan iborat? Agar tovar bozorda sotib olinsa, bu kimdir tovar ishlab chiqarishiga ketadigan sarflarni ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari sifatida baholashi sababli emas, balki mazko’r tovar haridor uchun naflilikka ega bulishi sababli roy beradi, haridor ma‘lum naflilikka ega bo’lgan tovarni qadrlaydi.

Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasining asoschilari bo’lib avstriya maktabi vakillari K.Menger(1840-1921), F.Vizer(1851-1926), Ye.Bem-Baverk(1851-1914) va boshqalar hisoblanadi. Hozirda bu nazariya goyalarini bir qator olimlar qo’llab-quvvatlab, rivojlantirib kelmokdalar. Mazkur nazariyaga ko’ra, kishilar tomonidan juda xilma-xil moddiy va ma‘naviy ne‘matlar (hamda xizmatlar) ularni ishlab chiqarishg’a ijtimoiy zaruriy mehnat sarflanganligi uchun emas, balki ushbu ne‘matlar naflilikka ega bo’lishi sababli qadrlanadi. Insonlar tomonidan ma‘lum nafliliklarga ehtiyoj sezilganligi sababli u yoki bu tovarni ishlab chiqarishg’a mehnat sarflari amalga oshiriladi. U yoki bu mehnat sarflarining ijtimoiy zarurligi kim tomonidan yoki nima bilan aniqlanadi, degan savolga oddiy tarzda bozor tomonidan, deb javob berish to’g’ri bo’ladi, biroq bu javob umumiy va to’lik emas. Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi tarafdorlari fikrlariga ko’ra, faqat tovarning nafliligi mehnat sarflariga «ijtimoiy zaruriy» deb nomlanadigan tavsif berishi mumkin.

Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi bilan qiymatning mehnat nazariyasining bir-biriga to’g’ri kelmasligi turli xil iste‘mol qiymatlarini yoki nafliligini hisobga olish muammosi bilan bog’liq. Chunki, turli ko’rinishdagi ikkita tovarning nafliligini shunchaki umumiy tarzda o’zaro taqqoslash mumkin emas. E‘tibor berilsa, masalaning bu tarzda qoyilishining uzi keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasiga zidligini ko’rish mumkin. Iqtisodiy hayotda ham xo’jalik karorlari kabul qilish chogida umuman ehtiyojlarni taqqoslamasdan, u yoki bu moddiy va ma‘naviy ne‘matlarning foydali samarasiga baho bermasdan turib hech qanday iqtisodiy faoliyatni boshlash mumkin bo’lmaydi.

Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi tarafdorlari, naflilikning ikki to’rini ajratib ko’rsatish zarur deb hisoblaydilar: a) abstrakt yoki umumiy naflilik, ya‘ni ne‘matlarning kishilar biron-bir ehtiyojlarini qondirish layoqati; b) aniq naflilik, bu ne‘mat mazko’r nusxasi foydaliligining sub‘ektiv narxini bildiradi. Bu sub‘ektiv narx ikki omilga bog’liq: mazkur ne‘matning mavjud zahirasi va unga bo’lgan ehtiyojning toyinganlik darajasi.

Keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasi tarafdorlari sub‘ektiv naflilik miqdorini hisoblashda G.Gossen (nemis iqtisodchisi, 1810-1858 yy.) qonunidan foydalanadilar. Bu qonun sunggi qo’shilgan miqdor nafliligining pasayib borishini ifodalab, Gossenning birinchi qonuni deb ataladi. Mazkur qonunga binoan, ehtiyoj qondirilib borilishi bilan «toyinganlik darajasi» o’sadi, aniq qo’shilgan miqdor nafliligi esa pasayadi («zaruriy ehtiyoj» darajasi). Bu mazkur ehtiyojni qondiruvchi har bir navbatdagi qo’shimcha ne‘mat oldingisiga qaraganda kamroq naflilikka ega bo’lishini bildiradi, ne‘matlar zaxirasi cheklangan bo’lganda esa uning «zaruriy ehtiyojni» qondiruvchi keyingi nusxasi mavjud bo’ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mazko’r turdagi barcha ne‘matlarning qiymati ularning eng so’unggi qo’shilgan miqdorining nafliligi bilan aniqlanadi.

O’zining birinchi qonunidan kelib chiqqan holda, Gossen ikkinchi qonnuni ham ishlab chiqadi. Unga ko’ra, «iste‘mol qilinayotgan turli ne‘matlarning umumiy miqdori shunday tarzda aniqlanadiki, bunda sotib olingan bir necha turdagi ne‘matning so’nggi qo’shilgan miqdori nafliligi o’zaro bir-biriga teng bo’ladi». Boshqacha aytganda, har bir iste‘molchi bir vaqtning o’zida ko’plab turdagi ne‘matlarn iste‘mol qilish uchun ularning shunday to’plamini sotib oladiki, bu to’plamdagi har bir ne‘matning so’nggi qo’shilgan miqdori nafliligi o’zaro teng bo’ladi yoki iste‘molchida bir xil miqdordagi qoniqish hosil qiladi.

Qiymat va narx nazariyasida yangi yo’nalishni boshlab bergan kishi mashhur ingliz iqtisodchisi A.Marshall hisoblanadi. Tovarlarning qiymatini aniqlashda mehnat nazariyasi ham, qo’shilgan naflilik nazariyasi ham yetarli asosga ega emas, deb hisoblagan A.Marshall bir nechta nazariyalarni sintez qilish yo’li bilan aniqlik kiritishg’a harakat qildi. Qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasining bir tomonliligini u qiymatni faqat naflilik bilan tushuntirishda ko’rdi. A. Marshall keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi nazariyasini talab va taklif nazariyasi hamda ishlab chiqarish harajatlari nazariyasi bilan boglashg’a harakat qildi.

A. Marshall fikricha, tovar qiymati teng darajada keyingi qo’shilgan miqdor nafliligi va ishlab chiqarish harajatlari bilan aniqlanadi. Shunday kilib, A.Marshalldan boshlab iqtisodiyot nazariyasida turli nazariyalarni sintez qilishg’a o’tildi.

Lekin A.Marshall ushbu sintezni oxirigacha yetkaza olmadi. U ijtimoiy zaruriy naflilik va ijtimoiy zaruriy mehnat tovarning ikki tomoni ekanligini aniq ko’ra olmadi. Shuning uchun, u ijtimoiy naflilik urniga qo’shilgan

naflilikni, ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari urniga ishlab chiqarish harajatlarini qoydi. Natijada tovarning qiymati ham, nafliligi ham tulik hisobga olinmadi. Umuman aytganda uzoq tarixiy davrdan boshlab tortishuvga sabab bo'lgan narsa tovarda gavdalangan ijtimoiy mehnatning ikki yoqlama tavsifi va shu asosda hosil bo'ladigan tovarning ikki xil xususiyatiga ega bo'lishini inobatga olmaslikdir. Mehnat nazariyachilari tovarga sarflangan mehnat miqdoriga asosiy e'tiborni qaratgan bo'lsa, marjinalistlar uning nafliligiga e'tibor berib keladilar. Ularning biri ko'proq tovarni ishlab chiqaruvchilar manfaati huqtai nazaridan tahlil qilgan bo'lsa, ikkinchisi iste'molchi (haridorlar) manfaati huqtai-nazaridan qaraydilar. XolbO'qi tovarning qiymatini va binobarin narxini aniqlashda uning ikki tomoniga va sotuvchilar bilan haridorlar manfaati to'qnashg'an tugunga e'tiborq qaratish zarur.

**Ma'ruza yuzasidan muammoli savollar:**

**1-savol**.
1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishg'a o'tishning asosiy sabablari.
**2-savol.**
Ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining qiymati qaysi mehnat turi bilan yangi tovarga o'tkaziladi?
Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan uning qiymat tarkibida qanday uzgarish paydo bo'ladi? (O'tkazilgan qiymat va yangi yaratilgan qiymat ulushlari qanday uzgaradi?).
**3-savol**.
1. Marjinalistik tovar qiymatining asosini nima tashkil etadi:
A) marjinalistlar fikri boyicha;
B) klassik iqtisodiy maktab fikri boyicha;
V) Sizning fikringizcha?
**4-savol.**
Oltin va qog'oz pullarning qanday xususiyatlari bor?
Oltin pul xususiyatlaridan qaysi biri qog'oz pullarga o'tadi?
Hozirgi zamon qog'oz va kredit pullari tovarmi yoki tovar emasmi? Fikringizni asoslang.

**Seminar mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2-soat* | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilish boyicha muammoli seminar. |
| *Seminar mashg'ulotining rejasi* | 1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishg'a o'tish va uning rivojlanishi.<br>2. Tovar va uning xususiyatlari. Tovar ishlab chiqarishg'a sarflangan mehnatning tavsifi.<br>3. Qiymatning mehnat nazariyasi va qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyalari.<br>4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va vazifalari. |
| *O'quv mashg'ulotining matssadi:* mavzu boyicha bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish va mustahkamlash. Mavzu boyicha iqtisodiy kategoriyalarni mohiyatini o'rganish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- mavzu boyicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash.<br>- darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.<br>- iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- tovar, qiymat, iste'mol qiymati, almashuv qiymati, pul kategoriyalariga ta'rif beradi;<br>- tovar xususiyatlarini tavsiflaydi;<br>- pulning vazifalarini sanaydi.<br>- qiymat qonunining mazmunini yoritadi;<br>- qiymat qonuni bilan bog'liq muammoli vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo'llaydi. |
| *O'qitish uslubi* | Muammoli usul, blits-so'rov. |
| *O'qitish shakli* | Frontal, jamoa va guruhlarda ishlash. |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, proektor, konspektlar |
| *O'qitish shart-sharoiti* | Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |

**Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar,vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, reja va maqsad, seminar mashg'ulotining rejasi ma'lum qilinadi. | Eshitadilar va mavzuni yozadilar |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Muammoli masalalarni o'qib beradi muammoni shakllantiradi va muammoli dars qoidaisini eslatib o'tadi.<br>2.2. Bilimlarni faollashtirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida blits so'rov o'tkazadi.<br>2.2. Talabalarni guruhlarga bo'ladi va guruhlar e'tiboriga vazifani havola qiladi.<br>Uyga vazifa sifatida berilgan muammoli savollarning javoblarini guruhlarda o'zaro muhokama qiladi va taqdimotga tayyorlaydi.<br>2.3. Guruh sardorlari muhokamani, o'z prezentatsiyalarini taqdimotlarini namoyish qilishiga taklif etadi.<br>2.4. Noaniq jihatlarni aniqlashtiradi, savollarga javob beradi. Bajarilgan ishlarni, guruhlar faoliyatini baholaydi. Uzlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat savollari beradi. | 2.1. Eshitadilar, eslaydilar. Savollarga javob beradilar.<br>2.2. Guruhlarda ishlaydilar taqdimotga tayyorlanadilar.<br>2.3. Raqib guruhga savollar beradi. Munozarada ishtirok etadi.<br>Eshitadilar, yozib oladilar.<br>2.4. Savollarga javob beradilar. |
| 3- bosqich. Yakuniy (10 m`in.) | 3.1. Mavzuni yakunlaydi, umumiy xulosa chiqaradi, ishtirokchilarni baholaydi, rag'batlantiradi.<br>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq: "O'zbekiston milliy valyo'tasining muomalaga kiritilishi va uning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati" mavzu referat yozish. | Eshitadi, aniqlashtiradi va topshiriqni yozib oladilar. |

**Testlar**

1. Tovar xo'jaligining vujudga kelishi va rivojlanish shart-sharoitlari nimadan iborat?
a) ijtimoiy mehnat taksimoti;
b) mulk egalarining aloxidalashuvi;
v) mahsulotning ayirboshlash uchun ishlab chiqarilishi;
g) bozorlarning vujudga kelishi;
d) yo'qoridagilarning barchasi.
2. Tovar qiymati qanday mehnat sarflarini ifodalaydi?
a) individual;
b) zaruriy;
v) qo'shimcha;
g) ijtimoiy-zaruriy;
d) umumiy.
3. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog'liq?
a) muomala vositasi;
b) tulov vositasi;
v) qiymat ulchovi;
g) jamgarma vositasi;
d) jaxon puli.
4. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?
a) mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishg'a ketgan ish vaqtiga nisbati bilan;
b) mahsulot miqdorini qilingan sarf-harajatlarga nisbati bilan;
v) mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan;
g) mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yo'li bilan;
d) yo'qoridagi barcha usullarda.
5. Mehnat intensivligi nima?
a) mehnatning aniq to'rining maxsuldorligi;
b) mehnatning sarflanish tezligi va jadalligi;
v) kullaniladigan mehnat hajmining ortishi;
g) kullaniladigan mehnat hajmining kiskarishi;

d) yo’qoridagilarning barchasi.
6.Pulnning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog’liq?
a) muomala vositasi;
b) tulov vositasi;
v) qiymat ulchovi;
g) jamgarma vositasi;
d) jaxon puli.
7. Pulning vazifasi nimadan iborat?
a) pul iste‘moli bilan ijtimoiy talabga bo’lgan investitsiya omili;
b) ijtimoiy taklif va almashuv uchun zarur bo’lgan miqdorni belgilaydigan kapital qoyilmalar omili;
v) daromadlar va harajatlarni hisobga olish tizimi;
g) yagona hisob-kitob yurgizish, almashuv, jamgarma, muomala, tulov vositasi vazifasini bajaradi;
d) iqtisodiy faoliyatni rag’batlantiradi.
8. Pulning kutilmagan kadrsizlanishidan aholining qaysi qismi kuprok jabr ko’radi?
a) obligatsiya egalari;
b) ishlab chiqaruvchilar;
v) karz oluvchilar;
g) dehqon (fermer) xo’jaligi;
d) doimiy daromad oluvchilar.

**Mustaqil ish uchun topshiriq ushbu mavzuga referat yozing:**

"O’zbekiston milliy valyo’tasining muomalaga kiritilishi va uning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati".

**Munozara qatnashchilariga eslatma**

1. Munozara munosabatlar yigindisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Kup gapirmasdan, boshqalarning suzlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo’lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil uylagan holda suzla.
4. Rakiblaring vaziyatini o’rganib, ularga xurmat bilan murojaat kil.
5. Rakiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tankidiy va muloxazali yondash.
6. Munozara predmeti boyicha chetga chiqmagan holda to’g’ri yondashib gapir.

**Munozara reglamentini o’tkazish tartibi**

1. Boshlovchi ma‘ruza mavzusi va ma‘ruzachilarning taqdimotlarin e‘lon qiladi.
2. Ma‘ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi - 2 minut.
4. Raqib - ma‘ruza mavzusi boyicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama - 5-10 minut.

**Blits-so’rov uchun savollar**

1. Tovarning xususiyatlaridan qaysi biri asosiy hisoblanadi?
2. Tovar qiymatining miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar qaysilar?
3. Pul sotiladimi, sotilsa qiymati nimaga teng bo’ladi?
4. Tovarning nafliligi va aniq mehnat o’rtasida qanday bog’liqlik bor?
5. Tovarning almashuv qiymati va abstrakt mehnat o’rtasida qanday bog’liqlik bor?
6. Tovar qiymatining asosini nimalar tashkil etadi?

**Muammoli seminarga savollar**

**1-savol.**

1. Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishg’a o’tishning asosiy sabablari.

**2-savol.**

1. Ishlab chiqarish jarayonida iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining qiymati qaysi mehnat turi bilan yangi tovarga o’tkaziladi?
2. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan uning qiymat tarkibida qanday uzgarish paydo bo’ladi? (O’tkazilgan qiymat va yangi yaratilgan qiymat ulushlari qanday uzgaradi?).

**3-savol.**

1. Marjinalistik tovar qiymatining asosini nima tashkil etadi:
A) marjinalistlar fikri boyicha;
B) klassik iqtisodiy maktab fikri boyicha;
V) Sizning fikringizcha?

**4-savol.**

1. Oltin va qog’oz pullarning qanday xususiyatlari bor?
2. Oltin pul xususiyatlaridan qaysi biri qog’oz pullarga o’tadi?

3. Hozirgi zamon qog’oz va kredit pullari tovarmi yoki tovar emasmi? Fikringizni asoslang.

# *5-mavzu: BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI*

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2 soat* | Talabalar soni: 30-60 nafar |
| *O’quv mashg’ulotining shakli* | Axborot, vizual ma‘ruza, "Insert", "Venn" diagrammasi texnikasini kullagan holda. |
| *Ma‘ruza mashg’ulotining rejasi* | 1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.<br>2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.<br>4. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.<br>6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari. |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi:* talabalarga bozor iqtisodiyotining amal qilishi va rivojlanishi to’g’risida chuqurrok bilim berish. "Bozor iqtisodiyoti" va "bozor" tushunchasi o’rtasidagi farqni ifodalash. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>-bozor iqtisodiyoti mazmunini yoritish;<br>-asosiy belgilari, sub‘ektlari va ob‘ektlari bilan tanishtirish; -uning doimiy va asosiy muammolari to’g’risida tasavvur hosil qilish;<br>-afzalliklari va ziddiyatlarini tushuntirish;<br>-bozor va uning turlariga e‘tiborni qaratish. | *O’quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>-bozor iqtisodiyotiga ta‘rif bera oladilar va uni sharhlaydilar.<br>-bozor iqtisodiyotining 2 turi va ularga xos belgilarni ajratib beradilar;<br>-bozor iqtisodiyoti sub‘ekti va ob‘ektini aniqlaydilar;<br>- bozor iqtisodiyotiga xos muammolarni sanaydilar va ularning yechimini taklif qiladilar;<br>- bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatini asoslaydilar;<br>-"bozor" tushunchasiga ta‘rif berib, bozorlarni guruhlaydilar. |
| *O’qitish uslubi va texnikasi* | Munozarali ma‘ruza, insert, aqliy hujum, blits-so’rov, klaster. |
| *O’qitish shakli* | Frontal, guruhiy, juftlikda ishlash |
| *O’qitish vositalari* | Ma‘ruza matnlari, proektor, doska, |
| *O’qitish shart-sharoiti* | Namunadagi auditoriya |

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (5 min.) | 1.1. Darsning avvalida talabalarga ma‘ruzalar matni va o’quv topshiriqlarni tarqatadi.<br>1.1. Mashg’ulot mavzusini eslatadi va kutilayotgan natijani va darsni olib borish tartibini ma‘lum qiladi. | 1.1. Eshitadilar, va ma‘ruza matnni oladilar. |
| 2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.) | 2.1. Juftlikka ajralishlariga topshiriq beradi. Ma‘ruza matn va uz huqtai-nazaridan, bozor iqtisodiyoting asosiy farqlari, boyicha juftliklarda muhokama qilish va savollarga javob berishni taklif etadi. Blits-so’rov o’tkazadi. | 2.1. Topshiriqlarni bajaradi, muammolarni juftlikda muhokama qiladi, savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich.<br>Asosiy<br>(55 min.) | 3.1. Ma‘ruza matnidan kelib chiqqan holda quyidagi savolni oylab ko’rishni tavsiya etadi.<br>-bozor iqtisodiyotining alohida belgilari nimada?<br>2 kishi bo’lib savolni muhokama qilishni tavsiya etadi.<br>3.2. "Venn" diagrammasi asosida klassik (sof) bozor iqtisodiyoti va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotini taqqoslab, umumiy va xususiy belgilarini aniqlash vazifasini beradi.<br>-"Bozor iqtisodiyotining doimiy va asosiy muammosi nimada, u qanday hal qilinmokda?" savoliga javob berishni taklif etadi.<br>3.3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va mavjud kamchiliklarini sabablarini uylashni taklif etadi. Bu savol boyicha kamchiliklarni tuldiradi, xatolarni tugirlaydi va xulosa chiqaradi.<br>3.4. Bozor tushunchasiga ta‘rif berishni, uning turlarini sanab berishni taklif etadi. Bozorning asosiy vazifalarini sharhlab beradi.<br>-"Bozor" va "Bozor iqtisodiyoti" tushunchalari o’rtasida qanday farq bor?<br>3.5. "Bozor infratuzilmasi" deganda nimani tushundingiz? savoliga misollar yordamida javob berishni so’raydi. | 3.1. Ma‘ruza matnidagi belgilarga e‘tibor beradilar.<br><br>3.2. Savolga javob beradilar. "Insert" jadvalini tuldiradilar.<br>3.3. Daftarlariga "Vena" diagrammasini chizadilar va to’ldiradilar.<br><br>3.4. Savolni muhokama qiladilar va javob beradilar.<br>Afzalliklari va kamchiliklarini sanab beradilar.<br><br>3.5. Misollar keltiradilar. |
| 4-bosqich<br>Yakuniy<br>(10 min.) | "?" belgisi qoyilgan noaniq qolgan savollarga javob beradi.<br>Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi.<br>Uyga topshiriq beradi. | Eshitadilar. Yozib oladilar |

**Vizual materiallar**

**Bozor iqtisodiyoti** – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining tabiati taqozo qiladigan, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg’unlashtirishg’a qaratilgan iqtisodiy dastak hamda vositadir.

**Bozor xo’jaligi sub‘ektlari**

- **Uy xo’jaliklari** – iqtisodiyotning iste‘molchilik sohasini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo’jaliklari resurslarni yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchi ham hisoblanadi.
- **Korxona yoki tadbirkorlik sektori** – iqtisodiy resurslarning iste‘molchisi, iqtisodiyotning birlamchi bo’g’ini va tovar (xizmat) larning asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.
- **Davlat** – iqtisodiy resurslar va tovarlar iste‘molchisi hamda ijtimoiy iste‘mol harakteridagi ne‘matlar bilan ta‘minlovchi hisoblanadi.

**Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari**

- Xususiy mulk ustuvorligi
- Tadbirkorlik va tanlash erkinligi
- Iqtisodiy manfaatlarning rag'batlantirilishi
- Davlatning cheklangan roli

**Bozor iqtisodiyotining afzalliklari**

- Resurslarni samarali taqsimlaydi
- Erkinlikni ta'minlaydi
- Iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi
- Xo'jasizlik va isrofgarchilikka barham beradi

**Bozor iqtisodiyotining kamchiliklari**

- Raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qoyadi (sababi: korxonalarning qo'shilib ketishi, monopol tizimlarning vujudga kelishi, xufyona kelishuv, shafqatsiz raqobat va iqtisodiyotda avlat aralashuvchi kuchayishi hamda texnika taraqqiyoti natijasida).
- Ijtimoiy iste'mol turidagi tovarlar bilan ta'minlash layoqatiga ega emas.
- Daromadlar tengsizligining kuchayishiga va aholining mulkiy tabaqalanishiga olib keladi.
- Tovarlar hajmi va pul massasi o'rtasidagi roy berib turadigan nomuvofiqlikni bartaraf eta olmaydi.
- Qayta tiklanmaydigan resurslarni asrash, tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni ta'minlashg'a layoqatli emas.
- Ish haqi bilan narxlar darajasi muqobilligini ta'minlay olmaydi.
- Tezda foyda keltirmaydigan yoki jamiyat va kelajak

uchun muhim bo'lgan fundamental tadqiqotlar olib borish imkoniyatini cheklaydi.

**Bozor –** bu ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) bilan iste'molchi (haridor)ni bir-biri bilan bog'laydigan, ayirboshlash jarayonida xizmat qiladigan tartiblar, mexanizmlar va muassasaviy tuzilmalardir.

**Bozorning vazifalari**

- Ishlab chiqaruvchi, resurs egalari va iste'molchilarni bog'lash asosida tovarlar, xizmatlar hamda iqtisodiy resurslarning ayirboshlanishini ta'minlash.
- Ishlab chiqarishning uzlO'qsiz takrorlanib turishiga yordam beradi.
- Iqtisodiy resurslarni tarmoqlar, sohalar va korxonalar o'rtasida taqsimlash hamda qayta taqsimlash.
- Iqt`isodiyotni tartibga solib turish.

**Bozorning turkumlanish mezonlari**

**1. Ayirboshlashg'a chiqarilgan oldi-sotdi ob'ektining turiga ko'ra**:
-Iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori (oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlar bozori);
-Ishlab chiqarish omillari bozori (ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar hamda ishchi kuchi bozori);
-Ko'chmas mulk bozori (er va uy-joy bozori);
-Moliya bozori (qarz majburiyatlari, kapital va valyo'ta bozori);
-Intellektual tovarlari va nou xau bozori.

2. **Raqobatning yetO'qlik darajasi yoki bozor sub'ektlarining mavqeiga ko'ra**:
-Sof raqobatli bozor;
-Sof monopolistik bozor;
-Monopolistik raqobatli bozor;
-Oligopolistik bozor.

3. **Hududiy qamrov darajasiga ko'ra**:
-Mahalliy bozorlar;
-Milliy bozorlar;
-Jahon bozori.

4**. Savdo bitimlarini amalga oshirilish tartibiga ko'ra**:
-Chakana savdo bozorlari;
-Ulgurji savdo bozori.

5. **Mulk shakllariga ko'ra**:
-Davlat savdosi;
-Kooperativ savdo;
-Dehqon bozori.

6. **Bozor aloqalarining qonuniylik darajasiga ko'ra**:
-Qonuniy amal qiladigan bozor;
-Xufyona amal qiladigan bozor.

**Bozor infratuzilmasi** – bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishini ta'minlashg'a xizmat ko'rsatuvchi muassasalar. **Turkumlanishi:**

1. Ishlab chiqarish tipidagi muassasalar: ombor xo'jaligi, saqlash va uzatish moslamalari, transport hamda aloqa xizmati

2. Ayirboshlanish jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar: tijorat dukonlari, savdo uylari, supermarketlar, savdo agentliklari, birjalar, aO'qtsionlar va boshqa savo-sotiq muassasalari

3. Moliya kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasalar: kredit-bank muassasalari, sug'o'rta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari

4. Ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar: uy-joy va kommunal xizmati idoralari, mehat birjasi va agentliklari

5. Axborot xixmati idoralari: auditorlik firmalari, huquqiy maslahatxonalari, axborot agentliklari

**Blits-so'rov uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi?

**Venn diagrammasi**

**`Klassik bozor iqtisodiyoti** **Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti**



Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(u) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
(+) - yangi ma'lumot.
(-) - men bilgan narsaga zid.
(?) - meni oylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

| **Tushunchalar** | **V** | **+** | **-** | **?** |
|---|---|---|---|---|
| Bozor | | | | |
| Bozor iqtisodiyoti | | | | |
| Klassik bozor iqtisodiyoti | | | | |
| Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari | | | | |
| Bozor turlari | | | | |

**Seminar mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2-soat* | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilish boyicha muammoli seminar. |
| *Seminar mashg'ulotining rejasi* | 1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.<br>2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.<br>4. Bozor tushunchasi, uning vazifalari va turlari.<br>6. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* bozor iqtisodiyoti, uning turlari, bozor to'g'risida talabalarga chuqurroq bilim berish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- bilimlarni mustahkamlash va ular asosida dokladlar tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- bilimlar tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish, iqtisodiy kategoriyalarni tahlil qilish jarayonlarni tashkil etish;<br>- darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- bozorning turlarini sanab beradi;<br>bozor, bozor iqtisodiyoti tushunchalarining mazmunini bayon etadi hamda ularni bir-birlaridan farqini ochib beradi;<br>ijtimoiy yo'nalishtirilgan bozor iqtisodiyotini mazmunini yoritadi;<br><br>bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklarini farqlaydi;<br>bozor iqtisodiyotida resurslarning doiraviy aylanishini tavsiflaydi;<br>- klassik bozor iqtisodiyoti va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining farqlarini aytadi;<br>- bozor infratuzilmasini tavsiflaydi. |
| *O'qitish uslubi* | Konferentsiya - seminar, aqliy hujum, test, blits-so'rov, taqdimot |
| *O'qitish shakli* | Frontal, jamoa va guruhlarda ishlash. |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, proektor, konspektlar |
| *O'qitish shart-sharoiti* | Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

| Bosqichlar,vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, reja va kutilayotgan maqsad, seminar mashg'ulotining rejasi hamda uni o'tkazish tartibini ma'lum qilinadi. | Eshitadilar va mavzuni yozadilar |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich.<br>Bilimlarni faollashtirish<br>(10 min.) | 2.1. Ekranga testlarni chiqaradi (2-ilova), test oladi va tekshiradi.<br>2.2. Test natijalarini tahlil qiladi va xatolarga to'xtalib o'tadi. | 2.1. Test savollariga aloxida javob tanlaydi.<br>2.2. Test natijalarini tahlil qiladi. |
| 3-bosqich.<br>Asosiy<br>(55 min.) | 3.1. Talabalarni 3 ta guruhga bo'ladi va topshiriqlarni qaytaradi. Ish yakunlanganda qanday natijaga ega bo'lishi kutilayotgani bilan tanishtiradi.<br>Aqliy hujum yordamida muammoli savollarni yechish qoidailari bilan tanishtiradi (4-ilova).<br>3.2. Taqdimotni namoyishi va o'zaro baholash natijalarni hal etishni tashkil etadi.<br>Izoxlaydi, javoblarni tartibga soladi, o'quv jarayoni davomida olingan xulosalarga e'tibor qaratadi | 3.1. Topshiriklarni bajaradi: -guruh sardori muammoni hal etishni va prezentatsiyani tayyorlashni tashkillashtiradi.<br>3.2. Prezentatsiya bilan tanishtiradi. O'z fikrlarini aytadi, savollar beradi, boshqa guruhlarni baholaydi. |
| 4- bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 m`in.) | 4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholaydi, rag'batlantiradi.<br>4.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi: kelgusi mavzu boyicha ma'ruzani o'qib kelish, ma'ruzachilarga savollar tayyorlash.<br>Referat mavzularini taksimlaydi, ma'ruzachi, takrizchi, opponentlarni belgilaydi muhokama tartibi bilan tanishtiradi, referat yozish. | Eshitadi, aniqlashtiradi va topshiriqni yozib oladilar. |

**Ishlarni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**

Har bir talaba ko'rsatkich va mezonlar boyicha bal yigadi. 0,1 baldan testning to'g'ri javobi (maksimal 3 ball)

| | Javobning to'g'riligi (0,4) | Asoslanganligi (0,4) | Ko'rgazmalilik (sxema) (0,8) | Asoslanganlik (0,5) | lundaligi (0,5) | bal (2,6) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |

**Test.**

1. Bozorni tartibga solish mexanizmi:
a) talab, taklif, baho, raqobat;
b) monopoliya, oligopoliya, monopsoniya;
v) tadbirkorlik, biznes, foyda;
g) to'g'ri javob yo'q.
2. Bozor infratuzilmasi- bu:
a) monopoliya, oligopoliya, talab, taklif;
b) ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilma;
v) bozorga jalb etilgan tovar va xizmatlar;
g) hammasi to'g'ri.
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday modellari mavjud?
a) Osiyocha model;
b) Sobiq sotsiolistik mamlakatlar modeli;
v) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;
g) barcha javoblar to'g'ri.
4. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishning qanday yo'llari mavjud?
a) induktiv va deduktiv;
b) evolyutsion va inkilobiy;
v) «karaxt qilib davolash»;
g) barcha javoblar to'g'ri.

**Guruhlarda ishlash uchun topshiriqlar**

**1-guruh**

1-topshiriq Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang). Bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday tovar va xizmatlar ishlab chiqilishi kerakligini iste'molchi aniqlaydi.

2-topshiriq Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyoti tavsiflanadi, masalan, xususiy mulkchilik mavjudligi, ijtimoiy mehnat taksimoti, tovarni ekvivalentlik asosida pulga ayirboshlanishi.

**2-guruh**

1-topshiriq Ushbu fikr to'g'riyoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang). Aralash iqtisodiyoti - bozor iqtisodiyoti bulishiga karamasdan, nima, kancha, kim uchun kabi muammolarni davlat tomonidan narxlarni nazorat qilish orqali hal etilishi kerak. 2-topshiriq Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyotini ushbu tavsiflari yo'qori texnologik ishlab chiqarish, yo'qori sifatli mahsulot, bozorlarda tovar assortimentlarini ko'pligi va takchillikning yo'qligi qanday o'rin to'tadi?

**3-guruh**

1-topshiriq Ushbu fikr to'g'riyoki noto'g'riligini aniqlang (javobni asoslang). Avtomobilga yoqilgi qoyish shaxobchasi - bu bozorga misol bo'ladi.

2-topshiriq Muammoli savolga aqliy hujum usulida javob toping.

Bozor iqtisodiyoti tavsiflanadi, masalan, xususiy mulkchilik mavjudligi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovarni ekvivalentlik asosida pulga ayirboshlanishi.

**Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari**

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha goya, fikrlarni qog'ozga yozing.
2. Barcha goya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo'lsa, maxsus belgi qoying.
3. Goyalarni baholang.
4. Eng makbul goya guruh goyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan goyalar guruh muammosini yechish uchun guruhlashtirish mumkin.
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

## *6-mavzu: BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI*

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2 soat* | Talabalar soni: 30-60 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Ma'ruza - konferentsiY. |
| *Ma'ruza mashg'ulotining rejasi* | 1. O'tish davrining mazmuni, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari<br>2.O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarining xususiyatlari va tamoyillari. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining zarurligi va uning turli yo'llari haqida talabalarga chuqurroq bilim berish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining zarurligini asoslash;<br>- bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli yo'llarini bayon qilish va misollar keltirish;<br>- o'tish davrida O'zbekistonning xususiyatlarini tushuntirish;<br>- Respublikamizda bozor islohotlari strategiyasini va taktikasini tushuntirish | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- o'tish davri zarurligi sabablarini sanaydilar;<br>- bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarini aytib, ularga misol keltiradilar;<br>-o'tish davrining eng taniqli modellari nushalarini tahlil qiladilar;<br>- "O'zbek modeli"ning xususiyatlarini aniqlaydilar va mohiyatlarini tushuntiradilar. |
| *O'qitish uslubi va texnikasi* | Ma'ruza - konferentsiya, muammoli ma'ruza, aqliy hujum, munozara, taqdimot |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, proektor |
| *O'qitish shakli* | Frontal, individual, guruh bilan ishlash, |
| *O'qitish sharoitlari* | Namunadagi auditoriya |

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologiyasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (5 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi va o’quv mashg’ulotidan ko’zlangan natijalarni e‘lon qiladi. Mashg’ulot ma‘ruza konferentsiya-munozara tarzida o’tishini e‘lon qiladi:<br>1) mazkur mashg’ulotda hal etiladigan ma‘ruza mavzularini taklif etadi<br>2) ularning o’quv fanini uzlashtirishdagi ahamiyatini, shuningdek, bulajak mo’taxasislikni egallashdagi muhimligini tushuntiradi.<br>3) ma‘ruzaga tayyorgarlik ko’rish uchun adabiyotlar, jurnallarga yo’nalishtiradi.<br>4) barcha talabalarga ma‘ruza matni boyicha ma‘ruzachilarga savol tayyorlashlari aytiladi<br>6) tayyorlangan referatlar bilan tanishtiradi. Zarur holatlarda savollar tuzadi. | 1. Ma‘ruzaga tayyorgarlik ko’radilar.<br><br>Ma‘ruzachilar prezentatsiya tayyorlashlari va referat boyicha reja tuzishlari mumkin.<br><br>Baholash mezonlari bilan tanishadi.<br><br>Ma‘ruza qilishg’a tayyorgarlik ko’radi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Ma‘ruza va axborotlar yuzasidan chiqishlarni tashkil etadi:<br>-mavzu mazmunining yoritilishida mantikiylikka e‘tibor beradi; -bayon kilinayotgan materialni muxokama kilish zarurati tugilganda, ma‘ruzachini to’xtatib, kollektiv munozaraga imkon yaratadi.<br>2.2. Ma‘ruzaning kollektiv tarzdagi muxokamasini tashkil etadi. Boshlovchi bilan birga:<br>-savollar beradi;<br>-asosiy ko’rsatmalarni aniklashtiradi; -dokladga yangiliklar, statistik materialga e‘tibor qaratishni suraydi. | 2.1. Ishtirokchilar ma‘ruzalarini O’qib, eshitiradilar yoki ogzaki bayon qiladilar.<br>2.2.Ishtirokchilar kollektiv tarzda mashg’ulotni muhokama qiladilar.<br>2.3.Ekspertlar har bir mavzu boyicha munozara natijalarini baholaydi.<br>2.4.Eng yaxshi doklad rag’bat sifatida universitet konferentsiyasiga tavsiya etiladi.<br>2.5. Misollar keltiradilar. |
| 3-bosqich Yakuniy (10 min.) | 3.1. Barcha ishtirokchilarning faoliyatini umumlashtirib, mashg’ulotni yakunlaydi.<br>3.2. Ma‘ruza - konferentsiyadagi dokladchi, takrizchi va opponentlarning faolligini baholaydi.<br>3.3. Olingan bilim va ilmiy izlanish ko’nikmalarining kelajaqdagi faoliyatda ahamiyatini ta‘kidlaydi.<br>3.4. Konferentsiyada ishtirok etmagan talabalarga bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari mavzusida esse yozishni topshiradi.<br>3.5. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: I.A.Karimov asarlaridan birini konspekt qilish (4-ilova). | 3.1. Ekspertlar:<br>1) ma‘ruzachi takrizchi, opponetlarni tayyorgarligini belgilaydi;<br>2) baholash natijalarini e‘lon qiladi.<br>3.2. Eshitadilar, aniqlik kiritadilar, yozadilar. Topshiriqni oladilar. |

## Vizual mteriallar

**Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari**

- Rivojlangan mamlakatlar yo'li
- Rivojlanayotgan mamlkatlar yo'li
- Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li

**Bir iqtisodiy tizimdan boshqa iqtisodiy tizimga o'tish yo'llari**

- Revolyutsion yo'l
- Evolyutsion yo'l

***"Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishg'a, o'tmishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama beso'naqay rivojlanishining mudhish merosiga barham berishg'a asoslanadi"*** (Karimov I.A. O'zbekiston boyo'q kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998, 101-102-betlar)

**O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad**

- Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish

**O'zbekistonda iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda Prezident I.A.Karimov tomonidanishlab chiqilgan beshta muhim tamoyil asos qilib olindi.**

- Iqtisodiyotni mafko'radan xoli qilish, uning ustunligini ta'minlash
- O'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi
- Butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i, qonunlarning ustuvorligi ta'minlanishi
- Bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirish
- Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror

toptirish

**Iqtisodiy islohotlar –** bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirishg'a qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

**O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari:**

- Agrar islohotlar
- Moliya-kredit va narx-navo islohoti
- Boshqarish tizimini islohqilish va bozor infratuzilmasini yaratish
- Tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti
- Ijtimoiy islohotlar

**Makroiqtisodiy barqarorlik** – bu eng avvalo, makroiqtisodiyot darajasida muvozanatlikni ta'minlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qoymaslik, pul qadrsizlanishining oldini olish hamda to'lov balansini bir me'yorda saqlasho'ga qaratilgan siyosatdir.

**Ma'ruza mashg'uloti dokladlari mavzulari.**

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining zarurligi, asosiy yo'llari va xususiyatlari.
2. Shvetsiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Amerika modellarining xususiyati.
3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi va islohotlar strategiyasi, "O'zbek modeli".
4. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishishlari .

**Xulosani shakllantirish uchun savollar**

I. **Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining zarurligi, asosiy yo'llari va xususiyatlari.**

1. O'tish davrining zarurligi nimada?
2. O'tish davri davomiyligining uzun yoki kiskaligi nimalarga bog'liq?
3. O'tish davrining jaxon tajribasida sinalgan qanday yo'llari bor?

**II. Shvetsiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Amerika modellarining xususiyati**.

1. Nima uchun Shvetsiya modelida ijtimoiy himoya ustun turadi?
2. Turkiyaning iqtisodiy rivojlanishiga nimalar sabab buldi?
3. Janubiy Koreyaning qanday tajribalarini qo'llash mumkin?
4. Erkinlik, demokratiyaning uzi Amerikaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun yetarli bo'lganmi?

**III. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi va islohotlar strategiyasi**,

1. "O'zbek modeli ".
2. "O'zbek modeli"ning mohiyati nimada?
3. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishg'a qanday tamoyillar asos kilib olindi?
4. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich karor toptirish printsipining mazmuni nimada?

**IV. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirishning asosiy yo'nalishishlari** .

1. Respublikada qanday islohotlarni o'tkazish ko'zda tutilgan?
2. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishda davlatning yetakchilik faoliyati nimada?
3. Prezidentimizning qaysi asrlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi bayon etilgan?

**Seminarga tayyorgarlik ko'rish uchun savollar**

- Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bagishlangan ma'ruzasi.
- I.A.Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzasi.
- Karimov O'zbekistonda demokratik uzgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asosini shakllantirishning asosiy yo'nalishishlari haqida.
- A.Karimov islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish to'g'risida.
- Karimov iqtisodiyotni boshqarishda demokratik usullarni kuchaytirish to'g'risida.
- Iqtisodiyot nazariyasini rivojlantirishda I.A.Karimov asarlarining ahamiyati.
- Karimov O'zbekiston iqtisodiyotining integratsiyalashishi tamoyillari haqida.
- Karimov asarlarida iqtisodiy potentsialdan samarali foydalanish muammolari.
- I.A.Karimov 2008 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotida erishilgan asosiy natijalar hamda izchil rivojlanishning muhim omillari haqida.
- I.A.Karimov iqtisodiy o'sishni ta'minlash, makroiqtisodiy va moliyaviy barkarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiyotda muvozanatlikka erishilish haqida.
- Karimov kichiq biznes va fermerlikni rivojlantirish - ustuvor masala sifatida.
- I.A.Karimov moliya va bank tizimida islohotlarni chuqurlashtirish haqida.
- Jaxon moliyaviy inqirozining mazmuni, namoyon bulish shakllari va kelib chiqish sabablari (Prezident I.A.Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asari asosida).
- Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning aloxida mamlakatlardagi mikyosi, ko'lami va oqibatlarini belgilovchi omillar (Prezident I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asari asosida).

**Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi**

<table>
<tr><td>Vaqti-2 soat</td><td>Talabalar soni: 25-30 nafar</td></tr>
<tr><td>O'quv mashg'ulotining shakli</td><td>Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish boyicha seminar</td></tr>
<tr><td>Seminar mashg'ulotining rejasi</td><td>1. O'tish davrining mazmuni, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari<br>2.O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarining xususiyatlari va tamoyillari.</td></tr>
<tr><td colspan="2">O'quv mashg'ulotining maqsadi: bozor iqtisodiyoti va bozor borasidagi ma'ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash.</td></tr>
<tr><td>Pedagogik vazifalar:<br>- ma'ruzada olingan bilimlarni mustahkamlash va ular asosida dokladlar tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- bilimlarni tizimlashtirish, taqqoslash, umulashtirish, iqtisodiy kategoriyalarni tahlil qilish jarayonlarni tashkil etish;<br>- darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;<br>- iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.</td><td>O'quv faoliyatining natijalari: Talaba:<br>- bozor iqtisodiyoti o'tish davriga ta'rif beradi;<br>- o'tish davrining milliy andozalarini tavsiflaydi;<br>- O'zbek modelining xususiyatlarini sanaydi;<br>- islohotlashtirish strategiyasi mazmunini yoritadi;<br>- mulkdan samarali foydalanish uchun yo'nalishishlar ruyxatini tuzadi;<br>- islohotlar chuqurlashtirish borasida muammoli vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo'llaydi.</td></tr>
<tr><td>O'qitish usullari va texnikasi</td><td>Muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish.</td></tr>
<tr><td>O'qitish vositalari</td><td>Ma'ruza matni, o'quv materiallari.</td></tr>
<tr><td>O'qitish shakllari</td><td>Kollektiv, guruhlarda, individual</td></tr>
<tr><td>O'qitish sharoitlari</td><td>Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya</td></tr>
</table>

**Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Olingan bilimlarni tekshirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida savol-javob o'tkazadi (5-ilova).<br>1.3. Dars mashg'uloti guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e'lon qiladi. Guruhda ishlash qoidailarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi (1,2-ilova). | 1.1. Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalarni 3-6 nafardan qilib guruhlarga ajratadi. Nazorat va natijalarni baholash uchun ekspertlar guruhini shakllantiradi.<br>Guruhlarga o'quv topshiriqlarini topshiradi. Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan, qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi bilan (darslik, ma'ruzalar matni, Prezident I.A.Karimov asarlari) tanishtiradi. Guruhlarda ishlash boshlanganligini e'lon qiladi.<br>2.2. Taqdimot va natijalarni baholashni tashkil etadi.<br>Izohlaydi, javoblarni tartibga keltiradi, asosan ishlarni bajarish jarayonida shakllangan xulosalarni umumlashtiradi. | 2.1. O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taksimlaydi, umumiy ma'ruzani shakllantiradi.<br>2.2. Natijalarni prezentatsiya qiladi, nazorat savollariga javob beradi.<br>Kolgan ishtirokchilar taqdimotni tuldiradilar va savollar beradi. Ekspertlar baholaydi |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. O'quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar dikkatini asosiy jihatlarga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida golib bo'lgan guruhni aniqlaydi va baholaydi.<br>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | 3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar. |

**Seminarda ishlash tartibi va reglament**

- Guruhda ishlash va prezentatsiyani yozish - 20 min.
- Ishning natijalarini taqdimot etish - 5 min.
- Jamoa bo'lib muhokama qilish va guruhni baholash - 5 min.

**Guruh bilan ishlash qoidailari**

Guruhning har bir a'zosi:

- uz sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar boyicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- uzlariga yordam kerak bo'lganda surashlari mumkin;
- yordam suraganlarga kumak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

**Guruhlarga topshiriqlar.**

**1-guruh.**

*1-topshiriq. Test. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning qanday modellari mavjud*?

a) Osiyocha model;
b) sobik sotsialistik mamlakatlar modeli;
v) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;
g) barcha javoblar to'g'ri.

*2-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring. I. A. Karimov iqtisodiyotni* erkinlashtirish, mamlakatdagi siyosiy uzgarishlar va davlat ko'rilishi to'g'risida.

*3-topshirits. Kiskacha xulosa qiling.* Ma'muriy-boyrO'qbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari nimadan iborat?

**2-guruh.**

*1-topshiriq. Test. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishning qanday yo'llari mavjud?*

a) induqtiv va deduqtiv;
b) evolyutsion va inkilobiy;

v) «karaxt kilib davolash»;
g) barcha javoblar to'g'ri.

*2-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.*

I. A. Karimov o'tish davrida aholini ijtimoiy ximoya qilish to'g'risida.

*3-topshiriq. Qisqacha xulosa qiling.* O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar kontseptsiyasi va strategiyasini roli nimada?

**3-guruh.**

*1-topshiriq. Test. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish qaysi yo'l bilan boryapti*?

a) Turkiya modeli asosida;
b) «karaxt kilib davolash», yo'li bilan;
g) evolyutsion yo'l bilan;
d) barcha javoblar to'g'ri.

*2-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.*

I. A. Karimov mulk egalarini shakllanishi va valyo'ta bozorini shakllanishi to'g'risida.

*3-topshiriq. Qisqacha xulosa qiling.* Nima uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda turli islohotlar va masalalar mavjud bo'ladi?

**Muammoli savollar.**

- 1Boshqarishning ma'muriy usullariga asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning uziga xos xususiyatlari?
- O'tish davri iqtisodiyotida davlatning pul-kredti siyosati?
- Respublikada iqtisodiy islohotlarni bosqichlari, asosiy yakunlari va vazifalari?
- O'zbekistonda kup O'qladli iqtisodiyotni shakllantirish vazifalari?

## *Mavzu: TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI*

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| Vaqti - 2 soat | Talabalar soni: 30- 60 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Axborot vizual ma'ruza, aniq holatlarni yechish. |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Talab tushunchasi, uning egri chizigi va talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.<br>2. Taklif tushunchasi, uning egri chizigi va taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.<br>3.Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi:* talab va taklif, bozor muvozanati boyicha bilimlarni shakllantiri, bozor iqtisodiyotini rivojlanishi va muvozanatga erishishida talab va taklifning ahamiyatini ochib berish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>-talab tushunchasi, talab egri chizigi va talab qonuni to'g'risida tushuncha berish;<br>-unga ta'sir etuvchi omillar bilan tanishtirish;<br>-taklif tushunchasi, uning egri chizigi va taklif qonuni to'g'risida tasavvur hosil qilish -uning hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ajratish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- talab va talab qonuniga ta'rif beradilar;<br>- talab egri chizigini misol asosida chizadilar;<br>- unga ta'sir etuvchi omillarni guruhlaydilar va sanaydilar;<br>- taklif qonuniga ta'rif beradilar;<br>- taklif egri chizigini chizadilar;<br>- unga ta'sir etuvchi omillarni aytadilar;<br>- muvozanat holatini aniqlaydilar. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Ma'ruza, klaster, munozara, texnika: taqdimot, blits-so'rov, grafik organayzerlar. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, proektor, doska, bo'r |
| O'qitish shakli | Frontal ma'ruza, guruh va juftliklarda ishlash |
| O'qitish sharoitlari | Namunadagi auditoriya |

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchining | talabaning |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Ma‘ruzaning mavzusi, maqsadi va rejasini ma‘lum qiladi, mashg’ulotdan kutilayotgan O’quv natijalari bilan tanishtiradi.<br>1.2. Mashg’ulot davomida aniq holatlarni tahlil qilishg’a e‘tibor qilishni eslatadi (talabalar kullarida utgan dars oxirida tarqatilgan ma‘ruza matnlari mavjud). | 1.1. Tinglaydi va yozadilar. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Avvalgi mavzuni esga solish va ma‘ruza matni O’qish natijasida nimalarni o’rganganligini aniqlash maqsadida blits-so’rov o’tkazadi. Vizual meteriallar asosida ma‘ruza O’qiydi: -bozor mexenizmini harakatga keltiruvchi kuchlar qaysilar degan savol bilan murojaat qiladi; -ulardan biri bo’lgan talab kategoriyasi nima va uning miqdoriga nimalar ta‘sir qilishini jadval va chizma, grafik yordamida tushuntiradi; -talab miqdoriga ta‘sir kiluvchi omilarni tavsiflaydi.<br>Talab kategoriyasiga klaster chizishni taklif qiladi (14-ilova).<br>2.2. Taklif, uning miqdoriga ta‘sir kiluvchi omillar to’g’risida axborot beradi. Taklif kategoriyasini ifodalovchi chizmani doskaga chizib ko’rsatadi va aniq misol va masalalar yordamida grafikni uzgartirishni tushuntiradi.<br>-talab va taklifga ta‘sir kiluvchi omillarni guruhlash maqsadida Venn diagrammasini tuzishni taklif etadi (13-ilova).<br>2.3. Iste‘molchi xatti-harakati nazariyasini tushuntirishda:<br>-naflilik funktsiyasi;<br>-sunggi qo’shilgan naflilik;<br>-yalpi (umumiy) naflilik;<br>-naflilikni maksimallashtirish qoidaisi;<br>-iste‘molchining muvozanatli holati;<br>-befarqlik egri chizigi;<br>-iste‘molchining optimal tanlovi tushunchalarini yoritib beradi.<br>2.4. Grafik va Venn diagrammasining taqdimotini o’tkazadi. | 2.1. Eslaydi, savollarga javob beradi.<br>Yozib boradi.<br>Talab kategoriyasiga klaster tuzadilar.<br>2.2. Grafikni chizadilar, misollar keltiradilar.<br>2.3. Venn diagrammasini chizadilar.<br>Formulalarni yozadilar va grafiklarni chizadilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | Mavzuga yakun yasaydi, umumiy xulosalarni shakllantiradi, faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi. Olingan bilimlarni ahamiyatini ochib beradi.<br>Faollik ko’rsatmagan talabalarga qo’shimcha vazifa beradi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa: misol va masalalarni yechish. | 3.1.Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2.Topshiriqlarni oladilar. |

## Vizual materiallar

**Talab** – bu narxlarning mavjud darajasida sotib olinadigan tovar (xizmat)lar miqdoridir.

**Talab turlari:**

- **Individual (yoki yakka) talab** – alohida shaxs, oila va boshqa sub‘ektning tovar (xizmat)larning muayoyan to’plamiga bo’lgan talabi.
- **Bozor talabi** – alohida iste‘molchilarning talablari yig’indisi

Narx darajasi va sotib olinadigan tovarlar miqdori o’rtasidagi teskari yoki qarama-qarshi bog’liqlik **talab qonuni** deyiladi.

**Talabga ta‘sir etuvchi omillar:**

- Tovarlar narxi
- Iste‘molchi pul daromadlari
- Iste‘molchi didi
- O’rnini bosuvchi tovarlar narxi
- Bozordagi istexmolchilar soni
- Narx va daromadlar o’zgarishining kutilishi
- Iste‘molchidan olinadigan soliqlar darajasi

Daromadlar o’zgarishi bilan talab to’g’ri mutanosiblikda o’zgaradigan tovarlar **oliy toifali tovarlar** deyiladi.

Daromadlar kamayganda talab oshadigan tovarlar **past toifali tovarlar** deyiladi.

**Taklif** – ma‘lum vaqt oralig’idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma‘lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori taklif deyiladi.

Narxning o’zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to’g’ri bog’liqlikdagi o’zgarishi **taklif qonuni** deyiladi.

**Taklifga ta‘sir etuvchi omillar:**

- Tovarlar narxi
- Resurslar narxi
- Ishlab chiqarish texnologiyasi
- Soliq va dotatsiyalar
- Bir-biriga bog’liq tovarlar narxi
- Inflyatsion kutilish

Bozordagi sotuvchilar soni

Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx **bozor narxi (muvozanatlashg'an narx**) deyiladi.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda, narxning 1% ga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich talabning narx boyicha egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi deb ataladi.

Talabning narx boyicha egiluvchanligi darajasi quyidagi formula boyicha hisoblanadi:

$$\mathbf{Et = \Delta Q \ / \ \Delta P}$$

bu yerda $\Delta Q$ – talab miqdorining foizli o'zgarishi,

$\Delta P$ - narxlarning foizli o'zgarishi.

**Talab egiluvchanligini belgilab beruvchi omillar:**

- Mahsulotlarning o'rnini bosuvchanligi
- Mahsulot qiymati (narx)ning iste'molchi daromadidagi salmog'i
- Mahsulotlarning iste'mol xususiyatlari
- Vaqt omili
- Bir-biriga bog'liq tovarlar narxi
- Inflyatsion kutilish
- Bozordagi sotuvchilar soni

Iste'molchi daromadining 1 %ga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich **talabning daromad boyicha egiluvchanligi ko'rsatkichi** deyiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Et = \Delta Q \ / \ \Delta D$$

bu yerda $\Delta Q$ – talab miqdorining foizli o'zgarishi,

$\Delta D$ - daromadning foizli o'zgarishi.

Taklif hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda, narxning 1% ga o'zgarishi talabning necha foizga o'zgarishini ifodalovchi ko'rsatkich **taklifning narx boyicha egiluvchanligi ko'rsatkichi** deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi deb ataladi.

**Taklifning narx boyicha egiluvchanligi darajasi** quyidagi

formula boyicha hisoblanadi:
Etf = ΔQ / ΔP
bu yerda ΔQ – taklif miqdorining foizli o’zgarishi,
ΔP - narxlarning foizli o’zgarishi.

**Test.**

1. Talab- bu
a) ehtiyoj;
b) pud bidan ta‘mindangan ehtiyoj;
v) bozorga sotishg’a chiqaridgan maxsudotdar miqdori;
g) tovar qiymatining puddagi ifodasi;
d) hammasi to’g’ri.
2. Bozor talabi- bu
a)individuad tadab;
b) uzgarmas bozor tadabi;
v) individuad tadabdarning yigindisi;
g) bozorda sotishg’a chiqaridgan tovar va xizmatdarning miqdori;
d) hamma javobdar to’g’ri.
3. Talabga quyidagi omillar ta‘sir etadi:
a) tovardarning narxi va miqdori, iste‘mochidar soni va daromadi;
b) birjadagi tovardar va xizmatdar narxi va aktsiyadar ko’rsi;
v) ishchidarni yoddash va udarga haq tudash;
g) sotuvchi va haridordarning miqdori;
d) resursdar narxi va ishdab chiqarish texnodogiyasi.
4. Talab qonuni- bu
a) narx oshg’an sari tadab ham oshadi va aksincha;
b) narx oshg’an sari tadab kamayadi va aksincha;
v) narxning pasayishi bidan tadab kamayadi;
g) narxning uzgarishi tadabga ta‘sir etmaydi;
d) to’g’ri javob yo’q.
5. Talabning uzgaruvchanligi- bu
a) tadabning ustuvordigidir;
b) hamma omiddar doimiy budgan xodda tadabning uzgarishi;
v) tadabning omiddarga bogdik xodda tebranishi;
g) tadab bidan taqdifning mos kedishi;
d) to’g’ri javob yo’q.
6. Talab uzgarmas bo’lgan holda narxning o’sishi:
a) iste‘modchidar harajatdarining oshishiga odib kedadi;
b) iste‘modchidarga xech qanday ta‘sir etmaydi;
v) iste‘modchidar daromadining oshishiga odib kedadi;
g) iste‘modchidar harajatdarining kamayishiga odib kedadi;
d) to’g’ri javob yo’q.
7. «Narx» bilan «talab» o’rtasida:
a) to’g’ri bogdanish mavjud;
b) teskari bogdanish mavjud;
v) bogdanish mavjud emas;
g) korrelyatsion boglanish mavjud;
d) noto’g’ri javob yo’q..
8. Talab > taklif bo’lsa:
a) pul takchil bo’ladi;
b) bozorda tovarlar utmay yigilib koladi;
v) bozor muvozanatiga erishiladi;
g) bozorda takchillik xO’qm suradi;
d) noto’g’ri javob yo’q.
9. Ishlab chiqarish omillari bozorida talab va taklif qonuni amal qiladimi?
a) xa, albatta;
b) ayrim xollarda;
v) umuman amal kilmaydi;
g) faqat ishlab chiqarish vositalari bozorida amal qiladi xolos;
d) to’g’ri javob yo’q.

10. Taklif- bu
a) isteʻmolchi sotib olishg’a kodir bo’lgan tovarlar va xizmatlar miqdori;
b) ishlab chiqaruvchi bozorga sotishg’a chiqaradigan tovarlar va xizmatlar miqdori;
v) pul bilan taʻminlangan ehtiyoj;
g) tovar va xizmatlarning sotuvidan olinadigan daromad;
d) to’g’ri javob yo’q.
11. Taklifga quyidagi omillar taʻsir etadi:
a) sotuvchilar va haridorlarning miqdori;
b) tovar va resurslarning narxi, talab va raqobat;
v) bozordagi monopolistlar va monopolistik raqobat;
g) ishchilarni yollash va ularga haq tulash;
d) hamma javoblar to’g’ri.
12. Taklif qonuni- bu
a) narx oshishi bilan taklif ham oshadi va aksincha;
b) narx oshishi bilan taklif kamayadi va aksincha;
v) narx pasayishi bilan taklif oshadi va aksincha;
g) narxning uzgarishi taklifga xech qanday taʻsir etmaydi;
d) to’g’ri javob yo’q.
13. Taklif egri chizigi yo’qoriga ko’tariladi, chunki kanchalik narx bo’sa, shunchalik firmalarning tovar ishlab chiqarish va sotish imkoniyati oshadi.
a) past;
b) yo’qori;
v) o’rtacha;
g) erkin;
d) hammasi to’g’ri.
14. Talab va taklifning muvozanat huqtasi- bu
a) talab va taklif egri chiziklarining kesishishi huqtasi;
b) talab va taklif egri chiziklarining uzoklashish huqtasi;
v) ordinata O’qini kesish huqtasi;
g) talab va taklif egri chizigining tegib o’tish huqtasi;
d) hamma javoblar to’g’ri.
15. Bozor muvozanati- bu
a) talab va taklif miqdorining tengsizligi;
b) talab va taklif miqdorining tengligi;
v) talabning taklifdan ortda kolishi;
g) xaddan tashkari kup ishlab chiqarish;
d) narx bilan tovarlar miqdori o’rtasidagi bevosita yoki to’g’ridan-to’g’ri bog’liqlik.

**Misol va masalalar**

1. Tarvuzga bo’lgan talab 100 dona bo’lganda har bir tarvuz narxi 21 so’mni tashkil qiladi. 160 dona bo’lganda bir dona tarvuz 19 so’m bulsin.

Yoysimon elastiklik koeffitsientini hisoblang?

2. Kalishg’a bo’lgan talab 150 dona bo’lganda, xdr bir poy kalish narxi 40 so’mni tashkil kilsin, talab 250 dona bo’lganda bir poy kalish narxi 37 so’m bulsin. Yoysimon elastik koeffitsientini hisoblang?

3. Talab va taklifning narxga bog’liqligi .

1 kg go’shtning narxi 30 so’m to’rgandagina qoyilgan talab va tovar taklifi miqdoriga teng. 1 kg go’sht 10 so’m tursa , tovarning (go’sht) talabi kanchaga teng, taklifi kancha tonnaga teng? Narx 30 so’mdan yo’qori bo’lsa, aytaylik 40 so’m bo’lsa, bozorda go’shtga bo’lgan holat qanday bo’ladi?

| 1 kg go’sht narxi | Talab qilingan go’sht miqdori | Taklif qilingan go’sht miqdori | Talabning(+) va taklifning oshib ketishi (- ) |
|---|---|---|---|
| 10 | 8 | 1 | +7 |
| 20 | 6 | 2 | +4 |
| 30 | 4 | 4 | +9 |
| 40 | 2 | 6 | -4 |
| 50 | 1 | 8 | -7 |

4. Iste‘molchining daromadi yiliga 700000 so’mdan 1 mln.ga oshdi. Makaronga bo’lgan talab yiliga 3 kg dan 1 kg ga pasaydi. Yogga bo’lgan talab 5 kg dan 7 kg ga oshdi, daromadga nisbatan va mahsulot harakteriga nisbatan talab elastikligini aniqlang?

5. Kir yuvish kO’qunining talab elastikligi - A narxga nisbatan to’g’ri 4,5, daromadga nisbatan 0,8. Xo’jalik sovuni narxiga kesishuvida 2,5. 1) 1% ga oshg’anda, 2) aholini daromadlari 1% ga oshg’anda. Agarda: 3) xo’jalik sovunining narxi 1% ga oshg’anda, 4) bir vaqtning uzida a) ushbu yuvish kO’qunining narxi 4% pasayganda b) aholi daromadlari 5% pasayganda v) xo’jalik sovunining 6% pasayganda, ushbu yuvish kO’qunining talab hajmida kanaka uzgarish ruy beradi ?

6. Tovar taklifi quyidagi tenglama bilan izoxlanadi Az+0,4R. Agarda tovar narxi 50000 so’mdan 100000 so’mga uzgarganda taklif elastikligi uzgaradimi?

7. Agarda daromadlarning 1,1 marotobaga ortishi natijasida choynaklarga bo’lgan talabning 5 % ga ortishi natijasida choynaklar boyicha olingan daromadlarning elastikligi nimaga teng?

8. Sotuvchi televizorini quyida berilgan jadvalda keltirilgan narxga sotishg’a va haridor shu jadvalda keltirilgan narxga sotib olmokchi.

| **Haridor** | **A** | **B** | **V** | **G** | **D** |
|---|---|---|---|---|---|
| Narxi, so’m. | 150 | 180 | 220 | 300 | 350 |
| Sotuvchi | Ye | Z | J | I | K |
| Narxi, so’m | 150 | 200 | 300 | 400 | 450 |

Ushbu ma‘lumotlarga asosan quyidagilarni aniqlang:

a) talab va taklif shkalasini aniqlang?

b) bozordagi tushum chegarasini to’g’risidagi fikringiz?

v) ushbu bozorda qaysi tenglikda qanday sotuvchilar uz mahsulotlarini sotadilar va qaysi haridorlar mahsulotlarni harid qiladilar?

9. 1915-1916 yillari Ford zavodi T modeldagi avtomobilining bahosini 18 foizga oshirishi natijasida sotish hajmini 62 foizga oshirishg’a erishdi.

Barcha usullar asosida elastiklikni aniqlang.

10. Bugdoyga bo’lgan narxning talab elastikligi 0,8 ga teng bo’lgan holda barcha harajatlarni saklagan holda fermerlarga hosildorlikni 10 foizga oshirish foydalimi?

11. X tovarning U tovar bilan kesishuv elastikligi (-2) ga teng. Agarda U tovarning elastikligi 2 % ga oshsa, X tovarning talab elastikligi qanday uzgaradi?

12. Daftarga bo’lgan talab 100 dona bo’lganda har bir daftar narxi 50 so’mni tashkil qiladi. Talab 200 dona bo’lganda bitta daftar narxi 45 so’m bulsin. Yoysimon elastiklik koeffitsientini hisoblang?

13. Firma «GOR» bozorni rag’batlantirish maqsadida kompyuterlarning bir modelini narxini 1000 dollardan, 800 dollarga tushirdi. Natijada kelgusi oyda oldingiga nisbatan ikki barobar kup kompyuterlarni sotishg’a erishdi. Bu holda:

a) firma tushumi qanday uzgardi?

b) huqtali elastiklik koeffitsenti va tula kompyuter modeliga bo’lgan talabning harakteri boyicha xulosa qiling.

14. Chilonzor tumanining «Okean» magazinida eng yaxshi balik mahsulotiga bo’lgan talab kuniga 500 kilogramm bo’lib, 1993 yili 20 000 so’mni tashkil etardi. Agarda egri elastiklik (11/7) va 24 000 so’m miqdorida bo’lganda uning talab hajmini aniqlang?

| **Talab** | **Taklif** |
|---|---|
| 1. Iste‘molchi didi. | 1. Resurslar narxi. |
| 2. Iste‘molchi daromadi. | 2. Ishlab chiqarish texnologiyasi. |
| 3. Bir-biriga bog’liq tovarlar narxi. | 3. Soliq va subsidiY. |
| 4. Kelajaqdagi narxlarning uzgarish | 4. Boshqa tovarlar narxi. |
| extimoli. | 5. Narx uzgarishini ko’tish. |
| | 6. Bozordagi sotuvchilar soni |

**Venn diagrammasi**

**Talab** **Taklif**



**Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti-2 soat* | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Seminar-munozara. |
| *Seminar mashg'ulotining rejasi* | 1. Talab tushunchasi, uning egri chizigi va talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.<br>2. Taklif tushunchasi, uning egri chizigi va taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.<br>3.Talab miqdori va taklif miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Bozor muvozanati. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi*: talab va taklif to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish, O'quv qo'llanmasi bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- mavzu boyicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;<br>- bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko'nikmasini hosil qilish;<br>- uz fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish;<br>- kommuniktsiya, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- talab va taklif tushunchalariga ta'rif beradi;<br>- talab va taklifga ta'sir kiluvchi omillarni sanab beradi va tushuntiradi;<br>- talab va taklif qonunining mazmunini yoritadi;<br>- iste'molchi xatti-harakati nazariyasini tavsiflaydilar. |
| *O'qitish usullari* | Muammoli seminar, munozara, texnika: taqdimot, blits-so'rov, "Davra suhbati", Vena diagrammasi, |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matnlari, proektor, markerlar, skotch, A32 bichimdagi qog'oz varaklari. |
| *O'qitish shakllari* | Individuall, frontal, guruhlar, juftliklarda ishlash. |
| *O'qitish sharoitlari* | Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |

**<u>Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi</u>**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (5 min.) | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.<br>1.2. Mashg'ulot munozara tarzida o'tishini ma'lum qiladi. | 1.1. Dikkat bilan tinglaydilar va yozib oladilar |
| 2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 min.) | 2.1. Mavzu boyicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-so'rov o'tkazadi (1-ilova)<br>2.2. Ish guruhlarda / juftliklarda O'quv vazifani bajarilgandan sung "Muammoli seminar" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Muammoli seminar" qoidailari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash qoidailarini eslatadi. | 2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 3-bosqich. Asosiy (55 min.) | 3.1. Talabalarni 4 ta guruhlarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatadi . Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.<br>3.2. Guruhlarni o'zaro baholashni tashkil etadi. Natijalarni baholash varaklarini tarqatadi<br>3.3. Guruhlarda ish boshlaganligini e'lon qiladi, maslaxatlar beradi.<br>3.4. Prezentatsiyalarni taqdim etishlarini taklif qiladi va munozarani shakllantiradi. Munozara savol-javoblariga aniqlik kiritadi.<br>Munozara boyicha xulosalar qiladi. | 3.1. O'quv vazifasi oladilar va tanishib chiqadilar.<br>3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaklarini rasmiylashtiradi.<br>3.3. Boshqa guruhlar uchun savollar tayyorlaydi. Munozarada ishtirok etadi. Yozib oladi. |
| 4-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 4.1. Ishg'a yakun yasaydi umuiy xuloslar qiladi talabalarni baholaydi.<br>4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: non mahsulotlariga bo'lgan talab va taklifni grafik tarzda ifodalang. Kelgusi mavzuni Insert usulida O'qib keling. | 4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar. |

**Blits-so'rov savollari**

Talab Taklif Talab qonuni Taklif qonuni Muvozanat Bozor muvozanati Umumiy muvozanat Xususiy muvozanat Iste'molchi didi.

**O'quv materiallar Talab va tklif tushunchalari**

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab - bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum vaqt oraligida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishg'a qodir bo'lgan ehtiyoji talab deyiladi. Boshqacha qilib aytganda talab - pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

Talablar turlicha bo'lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxona, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi yakka talab deyiladi. Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yigindisi bozor talabi deyiladi.

Hozirda iqtisodiy adabiyotlarda talabning turli ko'rinishlari ajratishg'a alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish omillariga talab (ishlab chiqarish talabi) va iste'mol buyumlariga talab (aholi talabi) farqlanadi.

Shuningdek, haqiqiy (tovar va xizmatlarga haqiqatda namoyon bo'luvchi), qondirilgan (haqiqiy talabning bozorda tovar va xizmat sotib olish orqali qondirilgan qismi) va qondirilmagan (haqiqiy talabning bozorda zarur tovarlarning yo'qligi yoki ular assortimenti va sifatining haridor talabiga javob bermasligi sababli qondirilmagan qismi) talablar farqlanadi. Qondirilmagan talab turli shakllarda namoyon bulishi mumkin: yashirin, joriy, harakatchan, to'plangan talab.

Tovarga bo'lgan talab ko'plab omillar, masalan, reklamadan foydalanish, moda va didlar, afzal ko'rish, atrof-muhit, tovarlarni kulga kiritish imkoniyati, daromad miqdori, naflilik, o'zaro o'rinbosar tovarlar narxi, aholi soni, kelgusidagi narxlarning uzgarishi va boshqalarning ta'sirida o'zgarishi mumkin. Shunga ko'ra, ekzogen va endogen talab farqlanadi. Ekzogen talab - bu davlat yoki erkin bozor tizimidan tashkaridagi qandaydir kuchning aralashuvi natijasida o'zgargan talab. Endogen yoki ichki talab - bu jamiyatda mavjud bo'lgan omillar ta'sirida jamiyat ichida tarkib topgan talab. Talabning bunday turkumlanishini quyidagi maxsus tizim ko'rinishida tasvirlash mumkin.

**Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar**

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri uzgarsa, talab egri chizigida qanday uzgarish ruy beradi?

2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta‘sir qiladi? Bu omillardan har biri uzgarsa, talab egri chizigida qanday uzgarish ruy beradi?
3. Engel qonunining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Iste‘molchi xatti-harakati nazariyasining asosida nimalar yotadi? Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidailarini izoxlang.
5. Iste‘molchining afzal ko’rishi nima? U iste‘molchi tanloviga qanday ta‘sir ko’rsatadi?
6. Yalpi (umumiy) naflilik va sunggi qo’shilgan naflilik tushunchalari o’rtasida qanday bog’liqlik mavjud?
7. Befarqlik egri chizigi nimani ifodalaydi? Befarqlik kartasi-chi? Ularning iste‘molchi xatti-harakatini tushuntirishdagi ahamiyatini izoxlang.
8. Iste‘molchi byudjeti chizigiga narx va daromaddagi uzgarishlar qanday ta‘sir ko’rsatadi?

**Mustaqil ish uchun vazifa**

1. Non mahsulotlariga bo’lgan talab va taklifni grafik tarzda ifodalab kelish.

## *8-mavzu: RAQOBAT VA NARXNING ShaKLLANISHI*

**Ma‘ruza mashg’uloti texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 4 soat* | Talabalar soni: 30-60 nafar |
| *O’quv mashg’ulotining shakli* | Vizual, axborot ma‘ruza |
| *Ma‘ruza mashg’ulotining rejasi* | 1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari.<br>2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari.<br>3. O’zbekistonda raqobatchilik muxitining vujudga kelishi va monopoliyaga karshi qonunchilik.<br>4. Narxning mazmuni, vazifalari vva turlari. |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi:* raqobat bozor iqtisodiyotining takomillashib borishidagi ahamiyatini ochib berish va uning kullanishi mumkin bo’lgan usullarini ilgari surish. Narxning mohiyati, asosi va vazifalari borasida aniq bilim | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- raqobat to’g’risida dastlabki tushuncha berish;<br>- raqobatning usullari va 2 to’rini yoritish orqali ular bilimini chuqurlashtirish;<br>- monopoliyalar paydo bulishi va rivojlanishining iqtisodiy asoslarini o’rganish;<br>- monopoliyaga karshi qonunlar to’g’risida tushuncha berish.<br>- narxning mazmuni va asosiy vaziflari bilan tanishtirish ;<br>- narx turlari va ularning mazmuni bilan tanishtirish;<br>- narx shakllanishi boyicha talabalarda mantikiy va tahliliy fikrlashni shakllantirish; | *O’quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- raqobatga ta‘rif berib, uning to’rini aytadilar;<br>- guruh namoyondalari har bir raqobat usulini sharhlaydi va uz misolini keltiradi;<br>- monopoliyalar faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini asoslaydilar;<br>- monopoliyaga karshi qonunlarning amaliy ahamiyatini tahlil qiladilar.<br>- narxning mazmunini yortishi;<br>- uning vazifalarini sanab berish;<br>- uning darajasigi ta‘sir etuvchi omillarni ko’rsata bilish;<br>- narx turlariga misollar keltirish;<br>- narxlarni erkinlashtirish borasidagi muammolarga uz yechimlarini taklif qiladilar. |
| *O’qitish uslubi va texnikasi* | Axborot- ma‘ruza, insert, hamkorlikda O’qitish texnikasi, sinkveyn |
| *Ukitish shakli* | Frontal, guruhlarda |
| *O’qitish vositalari* | Ma‘ruza matni, proektor. |
| *O’qitish shart-sharoiti* | Namunadagi auditoriya |

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (1-mashg’’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| Tayyorgarlik bosqichi (5 min) | Avvalgi darsning sungida ma‘ruza matni talabalarga beriladi. «Insert» texnikasini kullagan holda O’qib chiqish tayinlanadi. Guruhlarda O’qitish uchun har bir guruh vazifasi ishlab chiqiladi. | Vazifani oladilar va bajaradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu maqsad va rejadagi O’quv natijalarini va uni o’tkazish rejasini ma‘lum qiladi. Mashg’ulotning o’zaro aloka usulida O’qitishni e‘lon qiladi.<br>1.2. Talabalarga berilgan vazifani eslatadi. Mazko’r mavzudan qanday yangi ma‘lumot olganliklarini suraydi.<br>1.3. Qanday savollar tugilganligini bilish uchun, ularni doskaga yozib chiqadi. | 1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.<br>1.2. Savollarni o’rtaga tashlaydilar. |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(55 min.) | 2.1. Talabalarni kichiq guruhlarga ajratadi. Har bir guruh mavzuning ma‘lum bir savoli boyicha "ekspert" bulishini va boshqalarni O’qitishni ma‘lum qiladi. Ekspert varakalari, ok qog’oz (A32) markerlarni tarqatadi. Savollarning mazmunini tushuntiriradi. Qaysi materialdan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Ish reglamenti, baholash mezoni bilan tanishtiradi va mashg’ulot boshlanganini e‘lon qiladi (1,2-ilova).<br>2.2. Mavzu savollarining jamoa bo’lib muhokamasi va taqdimotini e‘lon qiladi.<br>1) o’zi konsultant-arbitr vazifasini o’taydi;<br>2) qo’shimcha savollar beradi.<br>3) har bir savol muhokamasining sungida o’zaro baholashni tashkil etib, yakuniy xulosa qiladi va talabalar e‘tiborini masalaning muhim tomonlariga qaratadi.<br>2.3. Talabalar bilimini tekshirish maqsadida mavzu savollariga javob berishni taklif qiladi. Tezkor savol-javob yoki test o’tkazadi. | 2.1. Guruhlar vazifa-larini oladilar va muhokama qiladilar. Kichiq guruhlarda ishlashni boshlaydilar.<br>2.2. Guruhda javoblarni tayyorlaydi. Ko’rgazmali material tayyorlaydi.<br>2.3. Guruh yetakchilari yoki a‘zolari uzlarining savollari boyicha axborot beradilar. Ko’rgazmali materialdan foydalanadilar va qo’shimcha savollarga javob beradilar.<br>2.4. Boshqa guruh javoblarini baholaydi, savollar beradi. |
| 3-bosqich<br>Yakuniy<br>(10 min) | 3.1. O’quv faoliyatiga yakun yasaydi. O’zaro o’qitish natijalarini e‘lon qiladi. Faol ishtirokchilarni belgiladi va olingan bilimlarining kelajaqdagi ahamiyatini ta‘kidlaydi.<br>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: mavzu boyicha klaster tayyorlash. | Vazifani yozib oladilar. |

## Vizual materiallar

**Raqobat** – bozor sub‘ektlari iqtisodiy manfaatlarining to’qnashuvidan iborat bo’lib, ular o’rtasidagi yuqori foyda va ko’proq naflilikka ega bo’lish uchun ko’rashni anglatadi.

**Raqobatning asosiy vazifalari:**

- Tartibga solish vazifasi
- Resurslarni joylashtirish vazifasi
- Innovatsion vazifasi
- Moslashtirish vazifasi
- Taqsimlash vazifasi
- Nazorat qilish vazifasi

**“Iqtisodiyotni erkinlashtirish haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish bilan uzviy bog’liqdir. Raqobat bo’lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo’lmaydi.**

**Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir”** (Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “o’zbekiston”, 1999, 34-bet.

**Raqobat shakllari:**

1. **Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) larning bozordagi mavqeiga ko’ra**:
-sof yoki erkin raqobat
-sof monopoliya
-monopolistik raqobat
-oligolopoliya

2. **Miqyosiga ko’ra**:
-tarmoqlar ichidagi raqobat
-tarmoqlar o’rtasidagi raqobat
-milliy xo’jalik doirasidagi raqobat
-jahon xo’jaligi doirasidagi raqobat

3. **Sodir bo’lish holatiga ko’ra:**
-tartibsiz (stixiyali) raqobat
-tartibga solinadigan raqobat

**4. Amalga oshirish usuliga ko’ra:**
-narx vositasidagi raqobat
-g’irrom raqobat

“**Monopoliya**” atamasi grekcha “monoc” – yagona, bitta va “poleo” – sotaman” degan ma‘noni bildiradi.

**Monopoliya** – monopol yuqori narxlarni o’rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hO’qmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalaridir.

**Monopoliyalarning kelib chiqish sabablari**:
- Kapitalning to’planishi va markazlashishi;
- Fan-texnika taraqqiyoti;
- Davlatning ayrim faoliyat sohalarini qo’llab-quvvatlash;
- O’zaro kelishish

**Davlatning antimonopol siyosati** – monopoliyalar faoliyatini seklash, tartibga solish va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishg’a qaratiladi. Bu miyosat o’z ifodasini antimonopol qonunlarda topadi.

| |
|---|
| **Reglament.**<br>Muammoni yechish va prezentatsiya varogini yozish uchun guruhda ishlashg'a - 20 min.<br>Muammo yechimini prezentatsiya qilish - 8 min. gacha.<br>Jamoa bo'lib muhokama qilish, xulosalarni shakllantirish - 10 min. gacha.<br>O'zaro baholash - 1 min. |

**Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari**

| Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari | Maksimal ball | 1 guruh | 2 guruh | 3 guruh | 4 guruh |
|---|---|---|---|---|---|
| Yechimlar: | *1,2* | | | | |
| - muammoni va qoyi muammoni to'g'ri shakllantirish; | 0,4 | | | | |
| - yechimni muammo va qoyi muammo shakliga mos kelishi; | 0,4 | | | | |
| - mantikiylik, aniqlik, xulosalarni kiskaligi. | 0,4 | | | | |
| Taqdimot: | *1,4* | | | | |
| - javoblarni aniqligi va tushunarliligi; | 1,0 | | | | |
| - har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo'shimchalar). | 0,4 | | | | |
| Reglament | *0,4* | | | | |
| Umumiy ballar yigindisi | *3,0* | | | | |

**1-ekspert varag'i.**

1. Raqobatning mohiyati, shakllari, usullari, vazifalarini ayting.

(T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda)

**2-ekspert varag'i.**

2. Monopoliyaning iqtisodiy asosini ayting va uning turlarini ko'rsatib bering.

(T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda)

**3-ekspert varag'i.**

3. Monopoliyaga karshi qanday qonun va cheklashlarni bilasiz? (T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda

**4-ekspert varag'i.**

4. O'zbekistonda raqobatchilik muxitining vujudga kelishi va monopoliyaga karshi qonunchilik borasida qanday ishlar qilinmokda? (T-sxema, klaster, insert texnikasidan foydalangan holda*)*

**Guruhlarga beriladigan qo'shimcha savollar.**

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu vazifalarning bir-biridan farqini ajratib ko'rsating.
3. Raqobat shakllariga tushuncha bilan va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Halol va girrom raqobatlashuv usullariga nimalar kiradi?
6. Raqobatlashuvning demping narxlarni kullash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
7. Monopoliya nima va uning vujudga kelishining iqtisodiy asoslari nimalardan iborat?
8. Monopoliyaning qanday turlari mavjud?
9. Kapitalning tuplanishi va markazlashuvi o'rtasida qanday farq bor?
10. Tabiiy, legal va sun'iy monopoliyalarning bir-biridan farqlanishini ko'rsating.
11. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?
12. Monopoliyaga karshi siyosat va monopoliyaga karshi qonunchilikning mohiyati qanday?
13. Raqobat muxitining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
14. O'zbekistonda monopoliyaga karshi ko'rashuvchi va raqobatni kullab-kuvvatlovchi qanday tashkilot bor va qachon tashkil etilgan?

**O'quv materiallar Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari**

Iqtisodiyotda bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga turli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rinlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarning qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutlaq xuquqi» sifatida karalsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda - yakka) xuqmronlik holati» deb ta'riflanadi.

Bu ta'riflardagi monopoliyaning «mutlak xuquq» yoki «har qanday yoki yakka xukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rinli deb hisoblaymiz:

monopoliya - monopol yuqori narxlarni urnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan xukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya‘ni, grekcha «topos» -yagona, bitta va «ro1eo» - sotaman) tarkib topsada, birok uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishg’a borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning tuplanishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning tuplanishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda tuplanishini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish tuplanishining asosiy sababi bo’lib olinayotgan foyda hajmining kupayishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda kupaytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo’shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya‘ni unga qo’shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba‘zi bir korxonalarning o’sishi hamda ishlab chiqarish mikyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitallarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendentsiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to’planishining moddiy asosi bo’lib kapitalning to’planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to’planishi - bu qo’shimcha qiymatning bir qismini jamgarish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko’rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish kuvvati, kayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to’planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada tuldiriladi.

Kapitalning markazlashuvi - bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo’shib olinishi yoki bir kancha mustaqil kapitallarning aktsiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o’sishidir.

Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal tuplanishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontal tuplanishi - bu milliy iqtisodiyotning ma‘lum tarmogi doirasidagi korxona va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish tuplanishining asosiy shakli sifatida maydonga tushg’an edi.

Ishlab chiqarishning vertikal tuplanishi - bu milliy iqtisodiyotdagi bir necha o’zaro bog’liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning tuplanishidir. U ilmiy-texnika inkilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

Ishlab chiqarishning tuplanishi uz rivojining ma‘lum darajasida monopoliyalarning paydo bulishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning tuplanishi hamda monopoliyalarning paydo bulishi o’rtasidagi ichki alokalar quyidagilarda namoyon bo’ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning xO’qmron mavkega ega bulishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o’rtasidagi raqobat juda kaltis bo’lib, ular uchun katta mikyosdagi yo’qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko’ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yo’qori narxlar belgilash va yo’qori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoklarga birlashishi lozim bo’ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning tuplanishidan tashkari yana bir qator omillar ta‘sir ko’rsatadi:

davlatning protektsionistik bojxona siyosati. U chet eldagi raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo’qotib, monopoliyalarning paydo bulishiga sharoit yaratadi;

banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o’sishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko’rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko’ra ajratish mumkin.

1. Bozorni kamrab olish darajasiga ko’ra: sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniY.

Sof monopoliya - tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkaxO’qmronlik holati hisoblanadi. O’zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O’zbekiston xavo yo’llari» DAK, «O’zbekiston temir yo’llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqikat, ular uz tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba‘zi xollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining kupayib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo’ladi. Monopolistik raqobat - tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni kup hamda ular o’rtasida ma‘lum darajada raqobat mavjud bo’lgan, birok har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi uz tovar yoki xizmatining aloxida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma‘lum darajada xO’qmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tarikasida kuplab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Oligopoliya - tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi xO’qmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O’zbekistonda tsement (asosan Bekobod, Kuvasoy, Oxangaron, Navoiy shaharlarida joylashg’an), kumir (Angren shaxri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Shargun) va Boysun (Tuda) tumanlarida joylashg’an) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Monopsoniya - tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda kup bo’lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste‘molchisi yoki haridori mavjud bo’lgan sharoitdagi yakkaxO’qmronlik holati hisoblanadi. Bunga «UzDEUavto» korxonasi yakkol misol bula oladi. Mazko’r yirik korxona mamlakatimizdagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo’lgan kuplab extiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakkaxO’qmronlik mavkeiga ega bo’ladi.

2. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko’ra: tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun‘iy monopoliY.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil kilib bulmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali kazilmalar va x.k.)ga ega bo’lgan mulkdorlar va xo’jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazko’r monopoliya tarkibiga uziga xos texnologiyaning kullanishi sababli raqobatni rivojlantirib bulmaydigan ba‘zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

Tabiiy monopoliya - korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo’lgan talabni kondirish raqobat mavjud bulmagan sharoitda samaralirok amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati. Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining kupayib borishi bilan tovar birligiga to’g’ri keluvchi xo’jalik harajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub‘ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste‘molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bulmaydi.

Legal (qonuniy) monopoliya - bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat. Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

patent tizimi - bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiklovchi hamda ularga mutlak huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar - patentlar orqali amalga oshiriladi;

mualliflik huquqi - ilmiy, badiiy va san‘at asarlari, ijro san‘ati fonogrammalari, ko’rsatuvlar, efir tulkini yoki kabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarini qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan uz mahsulotlarini ma‘lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko’paytirishg’a ruxsat berish imkonini ta‘minlaydi;

tovar belgilari - bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ruyxatga olish, huquqiy jihatdan ximoya qilish va ulardan foydalanish boyicha paydo bo’lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

Sun‘iy monopoliya - monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarning shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.

Sun‘iy monopoliya uz manfaatlari yo’lida bozor muxiti tuzilishini ataylab o’zgartiradi, ya‘ni:

bozorga yangi rakiblarning kirib kelishiga yo’l qoymaslik uchun turli tusiklar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini takiklashg’a harakat qiladi va boshqalar);

ishlab chiqarishning eng yo’qsak darajadagi texnologiyasiga erishib, kolgan rakiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

ishlab chiqarish mikyosi samarasidan unumlirok foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni kullaydi;

o’z faoliyatini yo’qori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishg’a harakat qiladi.

Sun‘iy monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsortsium, kontsern kabi aniq shakllarda namoyon bo’ladi.

Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jihatlarni ko’rsatish mumkin: 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi. Bu holat monopoliyalarning yo’qori foyda ketidan quvib, sun‘iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko’tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo’lmagan turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo’ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chiqadi.

Monopoliyalar bilan bog’liq bo’lgan iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan maxrum bo’ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyikiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba‘zi hollarda xonavayron bo’ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish kiskarib, ishsizlik va inflyatsiya usadi, xo’jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida kulga kiritilishi mumkin bo’lgan miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

Daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi. Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yo’qori foyda olinishi bilan bog’liq bo’lib, bu aholi kolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

Iqtisodiy turgunlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi. Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat xollarda yuqori foydani qo’shimcha o’rinishlarsiz uzlarining bozordagi xukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish, mahsulot sifatini oshirish, uning

assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va haridorlar manfaatlari to’g’risida qaygurish kabi xatti-harakatlardan qaytaradi;

Iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to’sib qoyilishi. Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to’skinlik kilib, nisbatan kuchsiz bo’lgan korxonalarni o’zlariga boysundirishlari, jamiyatga uz ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq tulash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o’ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan harid narxlari), uz mahsulotini iste‘mol qilishg’a bilvosita usul orqali majburlash kabi uzlarining kamsituvchi shartlarini kundalang qoyishlari mumkin.

Bundan ko’rinadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta‘sir ko’rsatishi, taraqqiyot yo’liga gov bulishi ham mumkin. Shunga ko’ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari ko’llanilib, bu monopoliyaga karshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga karshi siyosati asosini monopoliyaga karshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo’ladi.

Odatda AKShdagi monopoliyaga karshi qonunchilik nisbatan ilgarirok va muqammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik xujjatlariga asoslanadi:

Sherman qonuni (1890 yilda kabul qilingan). Bu qonun savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni kulga olish, narxlar boyicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

Kleyton qonuni (1914 yilda kabul qilingan). Bu qonun mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx boyicha kamsitish, ma‘lum ko’rinishdagi birlashib ketishlar, o’zaro boglanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

Robinson-Petmen qonuni (1936 yilda kabul qilingan). Bu qonun savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar kaychisi», narx boyicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950 yilda Kleyton qonuniga Seller-Kefover tuzatishi kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga tusik qoygan bo’lsa, Seller-Kefover tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (2-mashg’’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o’quv natijalarni ma‘lum qiladi.<br>1.2. Reja va binar (2 kishilik) ma‘ruzaning xususiyati bilan tanishtiradi.<br>1.3. Ma‘ruzadagi asosiy kategoriya va tushunchalarni mustaqil ishlash uchun savollarni, qo’shimcha adabiyotlar ruyxatini keltiradi.<br>1.4. Mazko’r mashg’ulotda O’quv faoliyatining ko’rsatkichlari va baholash mezonlarini ma‘lum qiladi. | Eshitadilar.<br>Yozib oladilar.<br>Aniqlik kiritadilar. |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | 2.1. Tovar-pul munosabatlari mavzusi bilan bog’liq tezkor savollarni esga soladi.<br>2.2.Mashg’ulot rejasiga asosan narxning mazmuni va uning vazifalarini aniqlashtiradi:<br>narx, qiymat, ijtimoiy qiymat, ijtimoiy naflilik va pul tushunchalarining mazmunini 2-chizma yordamida tushuntiradi.<br>narx darajasiga ta‘sir kiluvchi omillar va narxning vazifalarining mazmunini yoritib beradi.<br>2.3. Narxning turlarini sanab, ularga ta‘rif beradi, misollar keltiradi.<br>2.4. Raqobatning turli shakllarida narxning shakllanishi xususiyatlari masalasini yoritishda narx borasidagi mo’taxassisga murojaat qiladi va savollar berishni taklif etadi:<br>- u turli sharoitda narxning shakllanishi va uning uzgarishini chizmalar yordamida tushuntiradi;<br>- shuningdek, o’tish davrida O’zbekistonda amalga oshirilgan narx siyosati va uning xususiyatlarini yoritib, narxlarni erkinlashtirish borasidagi muammolar va ularning yechimlariga tuxtaladi. Talabalar savoliga javob beradi. | Savol beradilar.<br>Fikrlaydilar, savollar beradilar.<br>Klaster tuzadilar<br>Namoyishg’a tayyorlanadi.<br><br>Yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| 3- bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 3.1. Mavzu boyicha yakun yasaydi, talabalar e‘tiborini asosiy masalalarga qaratadi.<br>3.2.Narx kategoriyasi bilan bog’liq Klaster tuzish vazifasini topshiradi.<br>3.3.2 ta eng yaxshi klasterni namoyish qiladi, baholaydi.<br>Mustaqil ish uchun nazariy bilimlarni mustahkamlash | Klaster tuzadilar<br>Namoyishg’a tayyorlanadi.<br><br>Yozib oladilar. |

## Vizual materiallar

**Narx** – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir.




**Narxga ta‘sir qiluvchi omillar:**

- Tovar ishlab chiqarishdagi ijtimoiy zaruriy sarflar (qiymat)
- Tovar yoki xizmatning nafliligi
- **Davlatning iqtisodiy siyosati**
- Turli xil to’g’ri soliqlar
- Raqobat ko’rashlari
- Talab va taklif nisbatlari
- Pulning qadr-qimmati

**Narx diapazoni** – turli narxlar oralig’ining puldagi ifodasi.

**Narx pariteti** – narx nisbati ham deb atalib, u o’zaro bog’liq bo’lgan bir-birini yuzaga chiqaradigan narxlarni bildiradi.

**Narx turlari:**

1. **Iqtisodiy mazmuniga ko'ra**:
-ulgurji narxlar
-chakana narxlar
-harid narxlari
-dotatsion narxlar
-demping narxlar
-nufuzli narxlar
-ta'riflar

2. **Tartibga solinishi darajasiga ko'ra**:
-qat'iy belgilangan narxlar
-erkin narxlar
-tartibga solinadigan narxlar
-shartnoma narxlari

3. **Amal qilish doirasi (bozor ko'lami)ga ko'ra**:
-hududiy (mintaqaviy) narxlar
-milliy narxlar
-jahon narxlari

` **Davlatning narx siyosati –** bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida narxlarni erkinlashtirish va milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishg'a qaratiladi.

**Mustaqil topshiriq uchun masalalar.**

1) Firmaning ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagicha ko'rinishg'a ega: (3 = 2xxK
Kapital narxi 6000 so'm, ishchi kuchi narxi 10000. Agar firma byudjeti 100000 ming so'm bo'lsa, u maksimal miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun kancha ishchi kuchidan va kancha miqdordagi kapitaldan foydalanadi? Maksimal ishlab chiqarish hajmi kancha bo'ladi?

2) Firma 80 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 8 birlik kapitaldan va 5 birlik ishchi kuchidan foydalanadi.

Biror firmaning ishlab chiqarish funktsiyasi quyidagicha berilgan bulsin: = 2 x x K

Bir birlik mehnat narxi 2 ming so'm, bir birlik kapital narxi 8 ming so'mga teng bulsin. Firma ( = 1458 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun kancha miqdorda mehnatga va kapitalga ega bulishi kerak.

3) Agar kapital aylanish uzunligi 4 oyni tashkil etsa u vaqtda kapitalning aylanishlar sonini aniqlang.

**Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Vaqti-2 soat* | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| *O'quv mashg'ulotining shakli* | Seminar-munozara |
| *O'quv mashg'ulotining rejasi* | 1. Raqobatning mohiyati, shakllari va usullari.<br>2. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari.<br>3. O'zbekistonda raqobatchilik muxitining vujudga kelishi va monopoliyaga karshi qonunchilik.<br>4. Narxning mazmuni, vazifalari vva turlari. |
| *O'quv mashg'ulotining matssadi:* raqobat uning turlari va monopoliya borasida talabalar bilimini kengaytirish. Narx uning turlari, ob'ektiv asoslari va vazifalari to'g'risidagi ma'ruzada olingan bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirish. | |

| | |
|---|---|
| *Pedagogik vazifalar:*<br>- mavzu boyicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;<br>- bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizim-lashtirish ko'nikmasini hosil qilish;<br>- uz fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish;<br>- kommuniktsiya, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.<br>- mavzu boyicha bilimlarni ongli ravishda uzlashtirish va mustahkamlashg'a undash.<br>— mavzu boyicha bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash.<br>— muammoli masalalarni yechish odatlarini rivojlantirish, muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ilgari surish, yakuniy xulosani shakllantir ish. | *O'quv faoliyatining natijalari:* Talaba:<br>- raqobatga ta'rif beradilar:<br>- raqobat turlarini tavsiflaydlar;<br>- monopoliyaning mazmunini yoritadilar;<br>- ishlab chiqarishning va kapitalining tuplanishiga kiskacha harakteristika beradilar<br>- narx kategoriyasiga ta'rif beradi;<br>- narxning ob'ektiv asosini tavsiflaydi;<br>- vazifalarini sanab beradi;<br>- narx turlarini mazmunini yoritadi;<br>- narxdan samarali foydalanish uchun yo'nalishishlar ruyxatini tuzadi;<br>- narxning tashkil topshidagi muammoli vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni kulaydi. |
| *O'qitish usullari* | Muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish, insert. |
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruza matni, proektor, A32 formatdagi qog'oz, marker, skotch, O'quv materiallari, konspektlar. |
| *O'qitish shakllari* | Jamoa, guruhlarda |
| *O'qitish sharoitilari* | Guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |

**Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg''ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | talaba |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.<br>1.2. Mavzuni munozara tarzida o'tishini ma'lum qiladi. | 1.1. Dikkat bilan tinglaydilar va yozib oladilar |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(45 min.) | 2.1. Mavzu boyicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-so'rov o'tkazadi. Raqobat uning mohiyati va maqsadini ifodalab berishni topshiradi.<br>2.2. Ish guruhlarda /juftliklarda O'quv vazifani bajarilgandan sung "Davra suhbati" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Davra suhbati" qoidailari bilan tanishtiradi. Guruhlarda ishlash qoidailarini eslatadi. | 2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar.<br>2.2. Esse yozadilar va o'qib beradilar.<br>2.3. Tinglaydilar, savollar beradilar. |
| 3-bosqich.<br>Guruhlarda juftliklarda ishlash<br>(20 min.) | 3.1. Talabalarni gurxlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taksimlaydi (ilova 2). Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaklarini tarqatadi.<br>3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e'lon qiladi, maslaxatlar beradi. | 3.1. O'quv vazifasi, yuriknoma va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar;<br>3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaklarini rasmiylashtiradilar. |
| 4-bosqich.<br>Yakuniy<br>(5 min.) | 4.1. Ishg'a yakun yasaydi, baholar qoyadi.<br>4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi | 4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar. |

**Guruh bilan ishlash qoidailari**

- Har bir guruh a‘zosi: uz sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar boyicha faol, hamkorlikda va mas‘uliyat bilan ishlashlari lozim;
- uzlariga yordam kerak bo’lganda surashlari mumkin;
- yordam suraganlarga kumak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho’qamiz yoki birga kutilamiz" qoidaisini yaxshi bilishlari lozim.

**Guruhlar uchun vazifalar**

**1-Guruh.**

1. Iqtisodiyotda monopoliyalar, ularning faoliyat qilishi va tartibga solinishi izoxlang.

**2-Guruh.**

1. O’zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o’tish davrida raqobatchilik muxitini vujudga keltirishni izoxlang.

**3- Guruh.**

1. Erkin raqobatning afzalliklari izoxlang.

**Baholash ko’rsatkichlari (ballda)**

| Guruh | Mavzuning yechimi | Tushuntirish (aniqlik, mantik) | Guruh faolligi (qo’shimchalar, savollar) | Jami ballar | Baho |
|---|---|---|---|---|---|
| | (1,2) | (1,2) | (0,6) | (3,0) | |
| 1. | | | | | |
| 2. | | | | | |
| 3. | | | | | |
| 4. | | | | | |

***"Insert usuli "***

Insert - samarali O’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil O’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma‘ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni O’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali uz fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(u) - men bilgan narsani tasdiklaydi.
(+) - yangi ma‘lumot.
(-) - men bilgan narsaga zid.
(?) - meni oylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma‘lumot zarur.

| **Tushunchalar** | **V** | **+** | **-** | |
|---|---|---|---|---|
| Raqobat | | | | |
| Tarmoqlar ichidagi raqobat | | | | |
| Tarmoqlararo raqobat | | | | |
| Monopoliya | | | | |
| Sof monopoliya | | | | |
| Oligopoliya | | | | |
| Monopolistik raqobat | | | | |

**Seminar mashg’ulotining texnologik kartasi (2-mashg’’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi O’quv natijalarini e‘lon qiladi ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Savollar boyicha talabalar bilimini va mazmunli javoblarni dolzarblashtiradi.<br>Bilimlarni dolzarblashtirish jarayonida talabalar tomonidan e‘tirof qiladi.<br>1.3. Mashg’ulotning muammoli tarzda o’tishini ta‘kidlaydi. | Mavzuni yozadilar va savollarga javob beradilar |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich<br>Asosiy<br>(55 min) | Muammoli vazifani talabalarga o’qib beradi.<br>Muammoni shakllantirishni tashkil qiladi. Taklif etilgan muammoni shakllantirish variantlarini talabalar bilan birgalikda tahlil qiladi va muhokama qiladi. Ularning ichidan aniqlashtirilgan va taxrir qilingan bir variantni tanlaydilar. Talabalarni 3 guruhga ajratadi. Mummoli vazifani hal qilishni topshiradi. O’quv vazifasini baholash ko’rsatkichlari va mezonlarini tarqatadi. Muammoni hal qilish boyicha uslubiy ko’rsatmalarni, kutilayotgan natijalarni tushuntirib beradi. Aqliy hujum, goyalarni tanlash va baholash, guruhlarda ishlash qoidailarni eslatadi. Guruh ishlarini boshlanganligini e‘lon qiladi.<br>Taqdimotni boshlashni e‘lon qiladi. Taqdimot jarayonida javoblarni sharhlaydi. To’g’ri karorni ta‘kidlaydi, xatolarni ko’rsatadi. Muammoli vazifa yechimlarini munozara shaklida muhokamasini tashkil qiladi. Talabalar bilan birgalikda javoblarni baholaydi. Javoblar tulik bulmagan holda uzi javob beradi. Guruhlarning o’zaro baholashini tashkil etadi.<br>2.4. Yakun chiqaradi. | 2.1. Eshitadilar, muammoni shakllantirish boyicha takliflarni kiritadilar.<br>2.2. Guruhlarda ishlaydilar: Muammoli vazifani hal qiladilar, taqdimot varakalarini rasmiylashtiradilar.<br>2.3. Muammoli vazifaning natijalarini taqdimot qiladilar. Muammoni hal qilish boyicha karorlar variantlarini muhokama qiladilar. O’zaro baholaydilar.<br>2.4. Tinglaydilar |
| 3-bosqich<br>Yakuniy<br>(15 min) | 3.1. O’quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar dikkatini asosiy jihatlarga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida guruhlar faoliyatidagi muvofakiyatlarni ta‘kidlaydi. Bajarilgan ishning kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini ta‘kidlaydi.<br>3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi. | 3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar.<br>Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar. |

**Munozara qatnashchilariga eslatma**

1. Munozara munosabatlar yigindisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Kup gapirmasdan boshkalarning suzlashiga imkon ber.
3. Maksadga erishish yulida xissiyotlarni jilovlab, batafsil uylagan holda suzla.
4. Rakiblaring vaziyatini urganib, ularga xurmat bilan murojaat kil.
5. Rakiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tankidiy va muloxazali yondash.
6. Munozara predmeti buyicha chetga chiqmagan holda tugri yondashib gapir.

**Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari**

**Boshlovchi** barcha vazifalarni uziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to’g’riligini tasdiklash, kullangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to’g’ri kullash va boshqalar. Taqdimotlarning taksimotini to’g’ri boshqarish.

**Takrizchi -** tomonlarning ma‘ruzalarini yo’nalishishlar boyicha belgilash va tulik harakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantikiyligi va masalalarning aniq qoyilganligi, xulosalarning aniq ko’rsatilishi.

**Rakib -** kabul qilingan tadkikot o’rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma‘ruzachining asosiy holatini tankid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda uzining hal kiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

***Ekspert*** - barcha munozaralarning, jumladan, munozara katnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

**Munozara reglamentini o’tkazish tartibi**

1. Boshlovchi ma‘ruza mavzusi va ma‘ruzachilarning taqdimotlarin e‘lon qiladi.
2. Ma‘ruza 5 minut davom etadi.
3. Takrizchi - 2 minut.
4. Rakib - ma‘ruza mavzusi boyicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama - 5-10 minut.

**Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar**

1. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering.
2. Qanday narx turlarini bilasiz? Ularga kiskacha tavsif bering.
3. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud?
4. Nazariyalarning afzallik va kamchilik tomonlarini ko’rsatib bering.
5. Narx siyosati nima?
6. O’zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?

**«Oligopoliya bozorida narxni shakllanishi»**

**Ekspert varagi 1**

«Delta» firmasi shkolad ishlab chiqaruvchi uchta yirik kompaniyaning biri hisoblanadi. Birdaniga bir firma uz mahsulotining narxini 20% pasaytirdi.

Sizni "Delta" firmasining direktorlar kengashiga taklif kildilar va "Yashirincha kelishuvda narxning shakllanishi " boyicha ekspert bulasiz.

1. Siz ushbu strategiyani taqdim etishingiz kerak.
2. Mavjud sharoitda uni kullash imkoniyatini baholaydi.
3. "Delta" firmasining keyinchalik narx strategiyasini to’g’risida uz yechimingizni taklif eting.

Ushbu strategiyani ijobiy va salbiy tomonlarini "T-sxema"si asosida ifodalang.

**Ekspert varagi 2**

«Delta» firmasi shkolad ishlab chiqaruvchi uchta yirik kompaniyaning biri hisoblanadi. Birdaniga bir firma uz mahsulotining narxini 20% pasaytirdi.

Sizni "Delta" firmasining direktorlar kengashiga taklif kildilar va " Yashirincha kelishuvda narxning shakllanishi" boyicha ekspert bulasiz.

1. Siz ushbu strategiyani taqdim etishingiz kerak.
2. Mavjud sharoitda uni kullash imkoniyatini baholaydi.
3. "Delta" firmasining keyinchalik narx strategiyasini to’g’risida uz yechimingizni taklif eting.

Ushbu strategiyani ijobiy va salbiy tomonlarini "T-sxema"si asosida ifodalang.

**Ekspert varagi 3**

«Delta» firmasi shkolad ishlab chiqaruvchi uchta yirik kompaniyaning biri hisoblanadi. Birdani bir firma uz mahsulotining narxini 20% pasaytirdi.

Sizni "Delta" firmasining direktorlar kengashiga taklif kildilar va "Narxlar boyicha liderlikda narxni shakllanishi " boyicha ekspert bulasiz.

1. Siz ushbu strategiyani taqdim etishingiz kerak.
2. Mavjud sharoitda uni kullash imkoniyatini baholaydi.
3. "Delta" firmasining keyinchalik narx strategiyasini to’g’risida uz yechimingizni taklif eting.

Ushbu strategiyani ijobiy va salbiy tomonlarini "T-sxema"si asosida ifodalang.

**O’quv materiallar**

**Raqobatning turli ko’rinishlari sharoitida narxning shakllanishi**.

Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta‘sir ko’rsatadi, chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi.

MUqammal raqobat sharoitida narxning shakllanishi. Erkin raqobat ko’rashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadkik etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-sotdi jarayoniga kadar ikki xil, ya‘ni sotuvchi va haridor narxlari mavjud bo’ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yo’qori va qoyi darajalari mavjud. Sotuvchi uz tovari narxining imkon kadar yo’qori bulishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Birok, erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yo’qori darajada belgilashg’a intilish mazko’r sotuvchining bozordan sikib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan harajatlarni koplashi kerak. Haridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, birok erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib ololmay kolish xavfi mavjud bo’ladi. Haridor narxining yo’qori darajasi esa, Marshall ta‘biricha, sunggi qo’shilgan miqdor nafliligiga teng bulishi kerak.

Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o’ziga xos jihati shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat uzlarining individual narxlarini uzgartira olsalar, ulardan farqli ularok bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini uzlari belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar ommaviy talabning oshishi bilan narxning oshishi hamda ommaviy taklifning oshishi bilan narxning pasayib borishidan uziga xos tarzda foydalanadilar.

Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o’z manfaatlari yo’lida taklif kam bo’lganda narxning oshishi tendentsiyasidan foydalanadilar.

Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Monopsoniya mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta hajmini sotib olib, talab boyicha narx qonunidan uziga xos tarzda foydalanadi.

Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan kullaniluvchi «ergashish» hamda «inkor etish» xatti-harakatlari orqali izoxlanadi.

«Ergashish» holatida bir oligopolist tomonidan narx boyicha qilingan uzgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga kolgan oligopolistlar tomonidan ham ergashish, ya‘ni shunday uzgarishlar qilish ko’zatiladi. Odatda, bozorda uz tovarlariga narxni pasaytirish orqali iste‘molchilari soni hamda sotish hajmini oshirishg’a karor kilgan oligopolist hatti-harakatiga javoban kolgan oligopolistlar ham narxlarni pasaytiradilar. Natijada narxning umumiy pasayishi ruy berib, bozordagi ulush oldingi holda koladi, ya‘ni oligopolistning xatti-harakati samara bermaydi.

«Inkor etish» holatida bir oligopolist tomonidan narx boyicha qilingan uzgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga kolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, ya‘ni xech qanday javob uzgarishlari kilmaslik ko’zatiladi. Kupincha bunday holat oligopolist tomonidan uz tovariga narxni oshirgan chogida ruy beradi, ya‘ni kolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada, narxni oshirgan oligopolist uz iste‘molchilarini yo’qotib, bozordan sikib chiqariladi

***"Insert usuli "***

**Insert** - samarali O’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma‘ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.

**Matnni belgilash tizimi**

(u) - men bilgan narsani tasdiklaydi.
(+) - yangi ma‘lumot.
(-) - men bilgan narsaga zid.
(?) - meni uylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma‘lumot zarur.

**Insert jadvali**

| Tushunchalar | V | + | - | ? |
|---|---|---|---|---|
| Ulgurji narx | | | | |
| Chakana narx | | | | |
| Dotatsiyalashg’an narx | | | | |
| Demping narx | | | | |
| Nufuzli narx | | | | |
| Narx diapazoni | | | | |

**Muammoli savollar**

1. O’zbekistonda davlatning narx siyosati qanday va uning asosiy yo’nalishishlari nimadan iborat?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning shakllanish mexanizmini ayting?

**Testlar**

1. Narx-:
a) oldi-sotdi vositasi;
v) ishchi kuchining bahosi;
g) qiymatning va naflilikning puldagi ifodasi;
d) qo’shimcha qiymat.
2. Baholar oraligidagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?
b) narx ko’rsatkichi;
v) narx diapazoni;
g) narx chegarasi;
d) yo’qoridagi barcha nom bilan.
3. Baho shakllanishiga qanday omillar ta‘sir ko’rsatadi?
a) iqtisodiy harajatlar;
v) tovarning nafliligi;
g) raqobat va davlat siyosati;
d) yo’qoridagilarning barchasi.

## *9-mavzu: TADBIRKORLIK FAOLIYATI. TADBIRKORLIK KAPITALI VA UNING AYLANISHI KORXONA (FIRMA) HARAJATLARI VA FOYDASI. ISH HAQI*

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologisi.**

| | |
|---|---|
| *Vaqti - 2 soat* | Talabalar soni: 30-60 nafar |
| *O’quv mashg’ulotining shakli* | Muammoli ma‘ruza. |
| *O’quv mashg’ulotining rejasi* | 1. Tadbirkorlik faoliyatining tushunchasi, uning vazifalari rivojlanish shart-sharoitlari..<br>2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.<br>3. Tadbirkorlik kapitalining va uning xarakat boskichlari. 4. 4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.<br>5. Ishlab chiqarish harajatlari tushunchasi va uning tarkibi.<br>6. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi.<br>7. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari. |
| *O’quv mashg’ulotining maqsadi:* Tadbirkorlik faoliyati to’g’risida yaxlit tasavvur hosil qilish va tadbirkorlik kapitali harakat bosqichlari to’g’risidagi bilimlarni chuqurlashtirish. | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>-"Tadbirkor", "mulkdor" tushunchalariga izox berish;<br>-aktsiya, aktsionerlik jamiyati, obligatsiya, dividend tushunchalari-ni mohiyatini ochib berish;<br>-menejment, marketingning moxiya-ti va vazifalar mazmuni yoritish;<br>-tadbirkorlik shakllari bilan tanishtirish;<br>-tadbirkorlik kapitali, asosiy kapital, aylanma kapital, amor-tizatsiya ajratmasiga ta‘rif berish;<br>harajatlarining mohiyati, tarkibi, tasniflanishi va aniqlashning turli yo’nalishishlari bilan tanishtirish;<br>- ishlab chiqarish harajatlarining turlarini tavsiflash, ularning kiska va uzok muddatlardagi xususiyatlarini izoxlash;<br>- daromad va foydaning shakllanishi tushuntiriladi;<br>- foyda normasi, foyda massasi tushunchalari va ularning uzgarishiga ta‘sir kiluvchi omillar tushuntiriladi;<br>- foydaning taksimlanish mexanizmini tushuntirish.<br>ish xakining iktisodiy mazmunini yechib beradi;<br>-ish haqi bilan bog’liq bo’lgan nazariyalarnibayon kilib,<br>daromadlarning taksimlanishi tamoyil-larini tushuntiradi;<br>-ish haqni tashkil etish shakllarini va tizimlarini tavsiflaydi;<br>-mehnat munosabatlarining iktiso-diy mazmunini yoritib beradi; | *O’quv faoliyatining natijalari:*<br>-"Tadbirkor" va "mulkdor" tushunchalari o’rtasidagi farqni aytadilar"<br>-aktsionerlik jamiyati va uning turlarini aytib beradilar;<br>-obligatsiya, aktsiya, dividendga ta‘rif bera oladilar; -menejment, marketing tamoyillarini sanaydilar; -tadbirkorlik kapitali, harakat bosqichlari, asosiy kapital, aylanma kapitalni izoxlab beradilar.<br>- ishlab chiqarish harajatlariga ta‘rif beradilar va tarkibini aytib beradilar;<br>- umumiy, doimiy, uzgaruvchan harajatlar, ichki va tashki, o’rtacha harajatlarni, ishlab chiqarish va muomala harajatlarini, daromad va foydaning shakllanishi, me‘yoriy foyda, iqtisodiy foyda, foyda massasi va normasi tushunchalarini tavsiflab, misollar keltiradilar;<br>- foydaning taksimlanish mexanizmini tushuntirib beradilar.<br>- Zararning mohiyati va vujudga kelish sabablari tushintiriladi;<br>- foyda massasi va normasi hamda zarar miqdoriga ta‘sir kiluvchi omillar aytib beriladi, misollar keltiriladi<br>- ish haqi, mehnat munosabatlariga ishchi kuchi bozori tushunchalariga ta‘rif beradi;<br>-ish haqi to’g’risidagi turli nazariyalarni tavsiflaydi; -nominal, real ish haqi va tarif tizimining mazmunini ayta oladi;<br>-mehnat shartnomasi, mehnat mojarolari tushunchalarini yoritib bera oladi;<br>-ish joylari, daromad, ish haqi bilan bog’liq muammolar bilan tanishadi. |
| *O’qitish uslubi va texnikasi* | Vizual ma‘ruza, "birgalikda O’qiymiz", insert, taqdimot, test, amaliy |
| *O’qitish shakli* | Frontal |

| | |
|---|---|
| *O’qitish vositalari* | Ma‘ruza matni, proektor, vizual materiallar, doska, bur |
| *O’qitish shart-sharoiti* | Jihozlangan auditoriya |

**Ma‘ruza mashg’ulotining texnologik kartasi**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O’qituvchi | talaba |
| 1-bosqich. Kirish (5 min.) | 1.1. Ma‘ruza mashg’ulotining vizual tarzda o’tishini ma‘lum qiladi.<br>1.2. Mavzu, uning maqsadi, reja va O’quv mashg’ulotining natijalari, dars jarayonining rejasi, bilan tanishtiradi. Darsni mustahkam-lash uchun tarqatma materiallar tarqatiladi.<br>1.3. Mavzu boyicha bilimlarni aniqlashtirish va bilimlarni faollashtirish maqsadida tezkor savol- javob o’tkazadi. (Dars jarayoning 1-bosqichi bu so’rov dars samaradorligini aniqlash uchun ham kerak. | 1.1. Eshitadilar yozib oladilar, tarqatma materiallar bilan tanishib chiqadilar, javob eradilar |
| 2-bosqich. Asosiy (65 min.) | 2.1. Muammoni hal qilishdagi izlanuvchanlik faoliyatida talabalar bilimini yetarliligini aniqlash uchun avvalgi mavzular boyicha tezkor savol-javob o’tkazadi.<br>2.2. Nima deb uylaysiz, nima uchun tadbirkorlik faoliyati hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanishning asosiy faoliyat turi bo’lib kolmokda? Muammoni birgalikda hal qilishni taklif etadi.<br>2.3. Talabalar faolligini oshirish maqsadida "aqliy hujum"dan foydalanishni taklif etadi. Har qanday fikr kullab-kuvvatlanadi. | 2.1. Savollarga javob beradilar.<br>2.2. Muammoni yozib oladilar.<br>2.3. Uz yechimlarini taklif etadilar, ko’rgazmalardan misollardan foydalanib javob beradilar. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. O’quv faoliyatiga yakun yasaydi, erishilgan natijalarni umumlashtiradi. Eng yaxshi fikrlarni baholaydi. | Eshitadilar, mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar |

## Vizual materiallar

**“Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati)** – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy ma‘suliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir” (O’zbekiston Respublikasi qonuni. Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to’g’risida.

**Tadbirkorlik faoliyati** – shakli va sohasidan qat‘iy nazar foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir.

**Tadbirkorlik faoliyatining vazifalari:**

- Ishlab chiqarishning yagona jarayonida iqtisodiy resurslarni birlashtirish
- Biznesni yuritish boyicha asosiy qarorlarni qabul qilish
- Ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini va biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini joriy qilishda tashabbuskorlik ko’rsatish
- Tahlikaga borish

**Tadbirkorlik turlari:**

- Shaxsiy tadbirkorlik
- Xususiy tadbirkorlik
- Jamoa tadbirkorligi
- Tadbirkorlikni aralash shakli
- Davlat tadbirkorligi

**Korxona (firma) –** iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy shakli, milliy iqtisodiyotning shakli, milliy iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini va tovarlar ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) boyicha tadbirkorlik faoliyati sub'ekti.

**Aktsiya** – bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shg'anligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Aktsiya o'z egasiga korxonani boshqarishda qatnashish va jamiyat tugatilganda uning mulkiga shekriklik huquqini ham beradi.

**Aktsiyaning nominal qiymati** – aktsiyada ifodalangan pul so'mmasidir, aktsiya ko'rsi uning qimmatli qog'ozlar bozorida sotiladigan bahosidir.

**Aktsiya ko'rsi** – dividend miqdorining (D) bank foizi stavkasiga (ch) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

Aktsiya ko'rsi = D / ch x 100

**Obligatsiya** - uning egasi aktsionerlik jamiyatga doimiy foiz shaklida daromad olish shakrti bilan pul qoyganligidan guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozdir.

**Ta'sischilik foydasi** – aktsionerlik jamiyatlarini ta'sis etuvchilar o'zlashtiradigan daromad shakli bo'lib, u sotilgan aktsiyalar so'mmasi va jamiyatga haqiqatda qoyilgan mablag' miqdori o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar, moddiy resurslar va tovarlar birgalikda **tadbirkorlik kapitali** deyiladi.

**Tadbirkorlik kapitalining doiraviy aylanishi**

$$P \rightarrow T \begin{matrix} \nearrow Iv \\ \searrow Ik \end{matrix} \quad .... I....T'- P' \ (2)$$

**Aylanish xususiyatiga ko’ra unumli iste‘modagi kapital asosiy va aylanma kapitalga bo’linadi**

**Asosiy kapital –** ishlab chiqarish jarayonida bir nechta doiraviy aylanishlar davomia qatnashadi, qiymatini yaratilayotgan mahsulotga bo’lib-bo’lib o’tkazadi va ashyoviy boyum shaklini o’zgartirmaydi.

**Aylanma kapital** – bir doiraviy aylanish davomida to’liq iste‘mol qilinadi, qiymatini ishlab chiqarish natijalariga to’liq o’tkazadi va ashyoviy boyum shaklini ham yo’qotadi.

Iqtisodiy faoliyatning har qanday to’rini amalga oshirish uchun muayyan iqtisodiy resurs sarf-harajatlari taqozo qilinadi. Ular **iqtisodiy harajatlar** deyiladi.

**Ishlab chiqarish harajatlari** deganda tovar va xizmatlarning ishlab chiqarish va iste‘molchilarga yetkazib berishg’a qaratilgan barcha sarflar tushuniladi. Ishlab chiqarishg’a qilingan barcha sarf-xrajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.

**Muomala harajatlari** tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni (tovarlarni o’rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash) bilan bog’liq bo’lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib iste‘molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi.

**Harajatlarning namoyon bo’lish sohasiga ko’ra turkumlanishi**

**UMUMIY HARAJATLAR**

Ishlab chiqarish harajatlari

Muomala harajatlari

Xom ashyo harajatlari

Yonilg’i va moylash materiallariga harajatlar

Sof muomala harajatlari

Ish haqi

Amortizatsiya va h.k.

Qo’shimcha muomala harajatlari

**Harajatlarning jalb etish manbaiga ko’ra turkumlanishi**




**Harajatlarning ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'siriga qarab turkumlanishi**



Korxonalarda tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar ularning **pul tushumlari yoki pul daromadlari** deyiladi.

Korxona, pul daromadlaridan sarflangan barcha harajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi **foyda (iqtisodiy foyda)** deb yuritiladi.

Fich = N u – T

bu yerda Fich – ishlab chiqaruvchi foydasi, Nu – mahsulot ulugrji narxi, T – mahsulot tannarxi.




Korxona foydasining mutloq miqdori **foyda massasi**ni tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish harajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi **foyda normasi** deyiladi.

1) P´= (P / W) x 100%

bu yerda P´ - foyda normasi, P – foyda massasi, W – ishlab chiqarish harajatlari,

2) P´= (P / Kavans) x 100%

bu yerda P´ - foyda normasi, P – foyda massasi, Kavans (asosiy kapital + aylanma kapital) – korxona avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati)

**Ish haqi** — Ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati **va** unumdorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir.

**Nominal ish haqi** — Ma'lum vaqt davomida olingan pul so'mmasi yoki pul shaklidagi ish haqi

**Real ish haqi** → Nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori

**Ish haqi shakllari**

- **Vaqtbay ish haqi –** xodimning malakasi, mehnatining sifati va ishlagan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqidir.
- **Ishbay ish haqi –** ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori va sifati yoki bajargan ishining hajmiga qarab beriladigan ish haqidir.

**Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| Vaqti- 2 soat | Talabalar soni: 25-30 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish boyicha amaliy mashg'ulot. |
| Seminar mashg'ulotining rejasi | 1. Tadbirkorlik faoliyatining tushunchasi, uning vazifalari rivojlanish shart-sharoitlari..<br>2. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari.<br>3. Tadbirkorlik kapitalining va uning xarakat boskichlari. 4. 4. Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital.<br>5. Ishlab chiqarish harajatlari tushunchasi va uning tarkibi.<br>6. Foydaning mazmuni. Foyda normasi va massasi.<br>7. Ish haqining iqtisodiy mazmuni, tashkil etish shakllari va tizimlari.<br>. |
